

**PSIXOLOGIYA
NAZARIYASI
VA TARIXI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SH.R.BARATOV, L.Y.OLIMOV, O.R.AVEZOV

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv
yurtlarining 5110900 – Pedagogika va psixologiya
bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti
Toshkent – 2019

UO‘K: 159.9.01(09(075.8))

KBK: 88.1ya73

B 30

Baratov Sh.R.

B 30 Psixologiya nazariyasi va tarixi [Matn]: Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. – Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. – 504 b.

UO‘K: 159.9.01(09(075.8))

KBK: 88.1ya73

Mazkur darslik 5110900–Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishining o‘quv rejasidagi «Psixologiya nazariyasi va tarixi» nomli fan dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, mutaxassislikka kirish, psixologiya tarixi, psixologiyaning zamonaviy tadqiqot metodlari, shaxs, faoliyat, motivatsiya, nutq, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlari to‘g‘risidagi materiallarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Taqrizchilar:

- A.M.Jabborov** – Qarshi davlat universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori;
- E.M.Muxtorov** – Buxoro davlat universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi.


ISBN 978-9943-6169-4-3

SO'ZBOSHI

Yigirma birinchi asrda inson omilining o'rganilishi va tadqiq qilinishi bilan bog'liq psixologik talablar birmuncha takomillashib bormoqda. Chunki inson tom ma'noda ijtimoiy mavjudot bo'lganligi bois, uning shakllanishi va shaxs sifatida taraqqiyoti eng avvalo unga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv olamning o'ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu imkoniyatlar tizimini o'rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda fan dasturi asosida yaratilgan mazkur darslik oliy o'quv yurtlarining 5110900 – Pedagogika va psixologiya balakavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalardagi psixologik bilim va malakalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslik asosan modulli tizim talablari asosida yaratilgan bo'lib, har bir modul tarkibiga kiruvchi mavzular Psixologiya nazariyasi va tarixini to'liq hamda batafsil ochib beruvchi tushunchalar, ko'nikmalar hamda ilmiy mushohadalarni o'z ichiga oladi. Binobarin, mazkur fanni to'liq o'zlashtirgan har bir talaba Mutaxassislikka kirish (1-modul), Psixologiya tarixi (2-modul), Umumiy psixologiyaga kirish (3-modul), Kognitiv psixologiya (4-modul), Hissiy-irodaviy soha psixologiyasi (5-modul), Individual farqlar psixologiyasi (6-modul) kabi fundamental bilimlarga ega bo'ladi. Tabiiyki, ushbu bilimlar esa talabalarning boshqa mutaxassislik fanlarini puxta o'zlashtirishlari uchun o'ziga xos zamin yaratadi.

Mazkur darslik hozirgi zamon psixologiyasining eng yangi yutuqlari, ilmiy mushohadalariga tayanuvchi nazariy va amaliy bilimlar, tamoyillar asosida yaratilgan.



I BO'LIM (MODUL). MUTAXASSISLIKKA KIRISH

I bob. KASBLAR VA PROFESSIONALIZM. MUTAXASSISLIKKA KIRISH FANINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tayanch tushunchalar: professiogramma, kasb tanlash, konsultatsiya, professionallik, empirik tadqiqotlar, interpritatsiya, individ, shaxs.

1.1. Kasb va professionalizm haqida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini yaxshi bilgan mutaxassislarga bog'liq. Yuqorida sanalgan muammolarni hal qilishda qator gumanitar va maxsus fanlar yordam beradi. Pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, muhandislik (injenerlik) psixologiyasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi singari fanlar shular jumlasidandir.

Ishchining kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday masala uning kasb mahorati, texnikani qanchalik egallaganligi darajasi, kasbini sevishi darajasi bilan bog'liq.

Ilmiy texnika taraqqiyoti (ITT) hozirgi kunda tobora jadalashib borayotgan texnika bilan bog'liq, uni yaratish va ishlatish ko'nikmalarini egallagan shaxsni tayyorlashni kun tartibiga keskin qilib qo'yimoqda. Bu muammoni tezroq hal qilish tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'z mahoratlarini yoshlarga, o'z o'rinbosarlariga qay darajada bera olishlariga bog'liq.

Shuning uchun bugungi muhandis ham o'z kasb sirlarini, ham shu kasb mahoratini yoshlarga bera olishi lozim. U umumiy psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-talimi va uning psixologiyasini bilishi talab qilinadi.

Bugungi yoshlar u yoki bu faoliyat jarayonida o'zlarida mavjud bo'lgan barcha jismoniy va intellektual imkoniyatlari ko'lamini yaqqol namoyon etishlari juda muhim.

Aql, fikr yuritish tezligi va boshqa individual xususiyatlar kasbiy faoliyat jarayonida namoyon etiladi. Buni aniqlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bilan muhandislik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi fani shug'ullanadi.

Boshqa har qanday mehnat qurollari singari texnika ham inson imkoniyatlariga maksimal darajada moslashtirilishi kerak. Bu eng avvalo mehnatning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, keyinroq ishchining salomatligi va nihoyat ishlab chiqarishda texnikani qo'llash hisobiga mehnat samaradorligini o'rnatirish masalasi bilan bog'liqdir. Odam va texnika munosabatlari bir-biriga mosligi masalalarini mehnat psixologiyasi, uning tarmog'i hisoblangan muhandislik psixologiyasi fani o'rganadi.

Kasb-hunar ta'limi kollejlari o'quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muhandislik psixologik talablarini hisobga olishni, eng muhimi qo'llanadigan texnika inson imkoniyatlarini qay darajada hisobga olganligini, ya'ni texnikaning gumanizatsiyalashuvini hisobga olishini bilib ishga yondashuvi masalalarini aniq tasavvur qilishi bilan bog'liq. Bu muammo muhandislik psixologiyasida o'rganiladigan markaziy bosh mavzu inson—mashina—tizimi — OMT — (ruscha СЧМ — «система-человек-машина») hisoblanadi. Inson—mashina—tizim va uning asosiy muammolari kasb ta'limi o'qituvchisi va kasb ta'limi ustasi mahoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil qiladi.

Muhandislik psixologiyasi mehnat psixologiyasining bir tarmog'i bo'lib, u odam va mashina o'zaro axborot almashuvidagi o'zaro ta'sir o'tkazishning obyektiv qonuniyatlarini, ularning amaliy qo'llanish va «jamoat → odam → mashina» tizimini loyihalash va ekspluatatsiya qilish muammolarini o'rganadi.

Kasb tanlashga yo'llash. Kasb ta'limi psixologiyasining asosiy muammosi — shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo'llash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.

Professiografiya. Insonga qo'yiladigan talablar nuqtayi nazaridan kasblar va uning o'z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflanishi professiografiya deyiladi.

Professiografiya natijasi profессиogramma bo'lib, bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruhiga qo'yishi mumkin bo'lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lishi mumkin: kadrlar tayyorgarligini asoslash, giginenik sharoitlarni hisobga olish va uni sog'lomlashtirish; kasb tanlashni asoslash; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovni asoslash; mehnatga baho berish me'yorlarini, mehnat xavfsizligi saviyasini ko'tarish va boshqalar.

Mehnatni tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan fanlar (tibbiyot, mehnat fiziologiyasi, mehnat psixologiyasi va boshqalar). Professiografiya o'z oldiga turlicha vazifalarni qo'yadi. Mehnat psixologiyasi sohasidagi barcha tadqiqotlar, xoh nazariy, xoh amaliy vazifalarni qo'ymasin, eng avvalo konkret kasb faoliyatini o'rganishdan boshlanadi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, ilmiy-texnika taraqqiyoti munosabati bilan mehnat faoliyati sharoitlarigina emas, mehnat mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Masalan, teplovoz va parovoz mashinisti kasbi kechagisi va bugungisi bilan bir xil emas. Kasb faoliyati o'zgarishiga qarab kasb profессиogramмага mos keladigan kasb dasturi ham o'zgarishi kerak. Ayrim kasblar yo'qolib borsa, yangilari paydo bo'lib boradi, yoki o'zgarib boradi. Shuning uchun profессиografiya ishlari hech qachon tugamaydi.

Kasb tanlashga yo'llash va kasb maslahatlarini uyushtirish. Kasb tanlashga yo'llash eng avvalo odam imkoniyatlari va u yashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o'rganishdan boshlanadi. Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytiladi.

Mehnat ekspertizasi — bu odamning konkret kasb bo'yicha mehnatga yaroqliligini ma'lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir.

Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi eng avvalo uning yoshiga, tegishli bilim, ko'nikma va malakasiga, mazkur kasbga qiziqishi va iste'dodiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Mehnat ekspertizasiga turli mutaxassislar va tashkilotlar jalb qilinadi, jumladan, vrachlar, psixologlar, pedagoglar, injenerlar va boshqa mutaxassislar qabul komissiyalari, xodimlar bo'limi, tibbiy ekspert komissiyalari (ВТЭК—врачебно—трудова́я экс­пертная комиссия), harbiy vrachlik komissiyalari—VVK, turli sohalardagi tanlov komissiyalari va boshqalar.

Psixodiagnostika ma'lumotlari asosida prognostik psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi.

Bu talablarni har bir pedagog va ota-onalar bilishi, amal qilishi, ayniqsa bolaning 9-sinfni tugatish va hayot yo'lini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Mehnat ekspertizasining navbatdagi turi retrospektiv mehnat ekspertizasi deyiladi (Retrospektiv — o'tmishga nazar solish ma'nosida).

Retrospektiv mehnat ekspertizasi kuzatuvchining o'tmishi o'quv va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, baholash va uning xatolarini aniqlashga, ayrim ko'ngilsizlarga sabab bo'lgan holatlarni (avariya, yaroqsiz mahsulot, jarohat) o'rganishga xizmat qiladi. Bu o'quvchi yoki ishchining kelgusi mehnat faoliyatini belgilab olishida katta ahamiyatga ega. Mehnat ekspertizasi bir vaqtning o'zida kasbga yo'llash muammolarini hal qilishga ham yordam beradi.

Kasb tanlashga yo'llash — bu psixologik-pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari majmuyi bo'lib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy manfaatlariga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir. Kishining qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasb tanlashi ko'pincha fojialarga sabab bo'lib, shaxs uchun moddiy, ma'naviy zarar yetkazishi bilan jamiyatga ham qimmatga tushishi mumkin. Jumladan, oila va jamiyat mablag'ini sovurish, kadrlar qo'nimsizligi, qayta tayyorlash harakatidagi xarajatlarning ortishi kabi holatlarining namoyon etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Taniqli psixolog olim K.K.Platonov o'tgan asrning 80-yillarida kasb tanlashga yo'llashning kompleks dasturini

ishlab chiqib, «kasb tanlashga yoʻllash uchburchagi» gʻoyasi-
ni ilgari surdi.

Unga koʻra mazkur uchburchakning bir tomoni kasblarning kishi va uning organizmiga qoʻyadigan talablari, ikkinchi tomoni bozor imkoniyatlari (mehnat bozor talablari, qaysi kasbdagilar kerakligi), uchinchi tomoni oʻsmir qobiliyatlarini bilish va davlat siyosatini hisobga olishdan iborat.

Kasbiy maslahat (profkonsultatsiya) — kasbga yoʻnaltirish tizimining bir qismi boʻlib, odamning qobiliyatlarini oʻrganishga, tegishli maslahatlar berishga, batafsil shakllanishini taʼminlashga xizmat qiladi. Buning uch bosqichi bor: tayyorlov, hal qiluvchi (yakunlovchi) va aniqlovchi.

Tayyorlov bosqichida oila va maktabdagi oʻrganish-oʻqish faoliyatini rivojlantirish bilan bogʻliq maslahatlar amalga oshiriladi.

Yakunlovchi tayyorgarlik bosqichida 9-sinfdagi olib boriladigan ishlar (oʻqishni davom ettirish shaklini tanlash bilan bogʻliq) koʻlami belgilanadi.

Aniqlovchi kasbiy maslahat bosqichi esa oʻrta maktab doirasidan tashqariga chiqib, oʻqishning keyingi bosqichlarida, yaʼni kollejda, litseyda, oliy oʻquv yurtida davom etadi.

Kasbiy tanlov — mehnat prognostik ekspertizasi shakli boʻlib, odamning qaysi kasbga yaroqliligi haqida kafolat berish bilan bogʻliq jarayon. Eng muhimi qaysi kasb uning uchun nomaqbul, zararli ekanligidan ogohlantirishdir. Kasbiy tanlov natijalari kasb-hunar bilim yurtlarida hisobga olinib, oʻquvchi qaysi kasb boʻyicha oʻqishi yoki boshqa sohaga ishga oʻtkazilishi muhokama qilinadi.

Kasb qobiliyati vaziyatga qarab oʻzgarishi mumkin. Shuning uchun zarur sharoitlar yaratish, kelgusi faoliyat turini belgilab olishga maslahat berilishi mumkin.

Profadaptatsiya, uning asosi va mohiyati. Kasb tanlashga yoʻllashning hal qiluvchi davri oʻquvchini biror kasb ichiga asta-sekin kirib borishi, moslashuvi bosqichidir. Bunda oʻquvchi shogirdlikdan malakali ishchi darajasi sari takomillashib boradi. Profadaptatsiyaning ikki bosqichi mavjud: tayyorgarlik va

bevosita kasb egallash bosqichi. Tayyorgarlik o'quv jarayonida umumtexnika va maxsus fanlarni o'rganadi, ayrim konkret ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu biologik, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya ko'rinishiga ega.

Korxonada bevosita ishlab chiqarishda profadaptatsiya nihoyasiga yetkaziladi.

Profadaptatsiyani muvaffaqiyatli nihoyasiga yetishi quyidagi uch holatga bog'liq:

► kollej o'qituvchilari va ustalarining o'z sohalariga qanday tayyorlashlariga nazariy va amaliy bilim berishlari, ko'nikma va malaka hosil qilishlari, kasbga qiziqish uyg'ota olishlari;

► ishchilar va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabat shakli;

► o'quvchi borib tushgan mehnat jamoasidagi ijtimoiy psixologik muhit (sinchkov, mehribon, loqayd, yangi bolaga ishonchsizlik bilan qarash va hokazo).

Ijtimoiy psixologik adaptatsiya jarayonida bilish, shaxslararo munosabat, umumiy muloqot, hissiy-irodaviy sifatlarning namoyon etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Novatorlik va ratsionalizatorlik xususiyatlarini aniqlash. Kasbiy adaptatsiya malakali ishchi yetishuvi bilan nihoyasiga yetadi. Bunda eng ko'zga tashlanadigan sifat ishchining ijodiy mehnat qilishidir.

Novatorlik – ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'ngi yutuqlaridan foydalanishga intilish.

Ratsionalizatorlik – ijodiy mehnat qilish orqali kam mablag' va kuch sarflagan holda ko'p va sifatli mahsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

1.2. Kasbiy kompetentlik va mutaxassislikka kirish

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tatbiiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab AQSH, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi

kunga kelib har bir sohaga psixologlar jalb qilingan. Har bir sohada psixolog maslahatiga ehtiyoj sezilmoqda.

Inson qalbini qanday tushunmoq kerak? Nima uchun insonlar turli xil qobiliyatlarga egalar? Ruh nima va uning tabiati qanday? Bunday savollar insonlarni asrlar davomida qiynab kelgan, ular o'zlarining savollariga javob topa boshlashgan.

Insonni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning yana bit-tasi B.G.Ananyev tomonidan taklif qilingan bo'lib, u inson psixikasini o'rganishda yangi metodologik uslubni ishlab chiqqan. U insonga xos bo'lgan to'rtta asosiy sifatlarni ajratgan: individ, subyekt faoliyati, shaxs va individuallik.

Umuman, bugungi kunda xalq orasida psixologlar haqida turli xil mulohazalar uchramoqda. Biz ularning ba'zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

1. Psixologiya – bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandır, psixologlar insonning ichki ruhiy holatini yaxshi biladi.

2. Psixolog – bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis hisoblanadi.

3. Psixolog – bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus o'rgatilgan insondir. U shunga xos bo'lgan texnikalardan foydalana oladi, masalan, gipnoz yo'li bilan.

4. Psixolog – bu o'zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o'zini boshqara oladigan inson.

5. Psixolog – bu hayot haqidagi ko'proq tasavvurlarga ega bo'lgan donishmanddir, uning vazifasi qiynalgan insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, hayotda o'z yo'lini yo'qotganlarga to'g'ri maslahatlar berishi bilan alohida ajralib turadi.

Psixolog – bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

Kasb tushunchasi nima ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Taniqli psixolog Y.A.Klimov kasbning turli xil holatlarini quyidagicha tahlil qilgan:

1. Kasb – bu insonlarning ma'lum bir holatlaridagi bir xiligidir. To'g'ri, turli xil kasb egalarining yashash sharoitlari tur-

licha bo'lishi mumkin. Hattoki bitta kasbda ham yashash darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bunda ularning oldiga qo'yan maqsadlari ham muhim o'rin tutadi, biroq kasblaridagi boshlang'ich qadriyatlar bir-biriga yaqin bo'ladi.

2. Kasb insonlarning xatti-harakatlarini ajratadigan holatdir. Bunda psixolog mutaxassis sifatida o'zini qanday namoyon qilishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, psixologiya sohasi hali ham o'rganilayotgan va qarimaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ularning usullari ham takomillashib bormoqda.

3. Shaxs xususiyatlari uning kasbiy faoliyatida yaqqol ko'rinadi. Bu esa kasb va shaxs uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Kasb bu tarixiy rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. «Professiya» so'zi lotinchadan olingan bo'lib, barchaning oldida gapirmoq so'zini beradi. Kasbning o'zi insonlarning yashash sharoitlariga qarab o'zgaradi. Asosan psixologiya kasbi mashhur bo'lgan shaxslarning hayoti bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.

5. Psixologiya kasbi reallikdir, bu subyektning o'zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Demak, psixologiya kasbida insonlarning xatti-harakati orqali xulosaga kelishi mumkindir. Bunda yo'riqnomalar ish bermasligi mumkin. Psixologiya sohasida insonlarga yordam berish holati eng ustun jihatlardan biri hisoblanadi. Kasb tushunchasidan tashqari yana bir nom mavjud, bu mutaxassislik hisoblanadi. Masalan: psixologiya sohasi ijtimoiy psixologiya mutaxassisligi bo'lishi mumkin. Umuman olganda kasb o'z ichiga quyidagi tavsiflarni kiritadi:

1. Bu mehnatning chegaralangan ko'rinishi bo'lib, psixolog uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Bu kasb doimiy maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan holat bo'lib, bunda mutaxassislar doimiy tarzda malakalarini oshirishlari talab qilinadi.

3. Bu ma'lum bir maqtoqlar, taqdirlash usullari kerak bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.

4. Jamiyat uchun foydali bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.

5. Bu kasb insonlarga ma'lum bir statusni berishi mumkin.

Hammaga ma'lumki, ko'pgina insonlar o'zlarini yaxshi psixolog deb hisoblashadi, ularning bu fikrga kelganliklariga sabab ular insonlar bilan muloqot qilishadi, boshqalarga hamdard bo'la olishadi. Hayotiy psixologiya insonlarning hayotida kerak bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi, hattoki haqiqiy psixologlar ham bir necha bor hayotiy psixologiyaga murojaat qilishadi.

1.3. Psixolog kasbining shakllanish tarixi va bugungi imkoniyatlari

Psixologik bilimlar haqida so'z ketar ekan, albatta mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlar o'rtasida tafovutlar mavjuddir. Insonlar qiziqish doirasida bir-biriga yordam qo'lini cho'zishlari mumkin, bu esa yaxshigina samara berish imkoniyati hisoblanadi. Unda mutaxassis psixologlarning nima zarurati mavjud? Bu savol hammaga berilishi mumkin. Ko'pincha birinchi va ikkinchi kurs talabalari o'zini psixolog sanash mumkinligi yoki yo'qligi haqida o'ylanib qolishadi. Mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlarning orasida bir qator farqlar mavjuddir. Bular quyidagilar:

a) mutaxassis psixologlarda nazariy bilimlar tizimining mavjudligi, psixika va psixologiya tushunchalarining umumlashtirilganligi. Qiziquvchi psixologda bu bilimlar ko'p bo'lishi mumkin. U ko'plab adabiyotlarni o'qigan bo'lishi mumkin, biroq ular haqidagi bilimlari yuzaki hisoblanadi, ular ma'lum bir davralarda o'z bilimlarini namoyon qilishlari mumkin. Lekin, bunday odamlar nazariy bilimlarga ega bo'lmaganliklari uchun olingan bilimlaridan noto'g'ri foydalanishlari mumkin;

b) mutaxassis psixologning eng tayanch nuqtasi albatta bu uning ilmiy bilish usullaridan xabardorligi hisoblanadi. Agar psixolog ko'p bilimga ega bo'lsada, biroq usullarga ega bo'lmasa ham qiynaladi. Shuning uchun ham usullardan keng foydalana olishi talab qilinadi;

d) mutaxassis psixolog har doim nazariy asoslarga ega bo'lgan metodikalardan foydalana oladi. Bunda nazariya va amaliyotni bir maromda amalga oshiradi. Hattoki ba'zi vaqtlarda nazariy bilimlari oqsagan mutaxassis psixologlar to'g'ri tanlangan metodikalar yordamida vaziyatlardan oson chiqib ketishlari mumkin. To'g'ri, qiziquvchilar ham turli metodikalardan foydalanishlari mumkin, biroq ular bu metodikalarning mazmun-mohiyatlarini tushunmagan holda ishlatishlari mumkin, bu holatlar esa sinaluvchilarga albatta salbiy ta'sir ko'rsatadi;

e) qiziquvchi psixolog faqat yaqinlariga yordam ko'rsatsa, mutaxassis psixolog mijozlar bilan ishlab, ularga to'g'ri maslahat ko'rsatishi talab qilinadi. Bundan tashqari qiziquvchi psixolog hamma mas'uliyatni o'ziga olsa, mutaxassis psixolog esa mas'uliyatni mijozda shakllantiradi;

f) mutaxassis psixolog boshqa mutaxassislar bilan doimiy aloqada bo'lib turadi, demak mutaxassis psixologlar har doim ma'lumotlarga ega bo'ladi, bundan qiziquvchi psixolog mustasnodir;

g) mutaxassis psixologda psixologik bilimlarning mavjudligi haqidagi hujjatning mavjudligi, bu esa mijozlarning ularga murojaat qilishlarida muhim o'rin tutadi, chunki mijozlar albatta mutaxassislarga murojaat qilishni ma'qul ko'rishadi;

h) kasbiy axloqiy qoidalarga rioya qilish bo'yicha ham shu ikki psixologlar o'rtasida albatta farq mavjud. Bunda axloqiy qoidalar albatta mutaxassislarga o'qish davomida o'qitiladi;

i) mutaxassis psixolog o'zini rivojlantirishda mutaxassislarining xizmatlaridan foydalanadi, qiziquvchi psixolog kitoblardan foydalanishi mumkin, biroq bu tizimli bilimlar hisoblanmaydi. Mutaxassis psixolog mustaqil o'rganishga yo'naltiriladi;

j) psixolog mutaxassisda mehnat psixogigiyenasi mavjud. Bunda mutaxassis psixolog boshqalarga yordam berish asnosida o'zining sog'lig'iga ham befarq emasligini bilishi kerak bo'ladi;

k) mutaxassis psixolog ko'pgina yangi o'ylab topilgan usullarga tanqidiy nigoh bilan qaraydi, masalan, astrologiya, xiro-mantiya va boshqalarga.

Mutaxassis psixologning asosiy faoliyati albatta mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Inson o'zini mehnat orqali namoyon qilishi mumkin. Psixologning mehnati haqidagi tasavvurlarni keltirib o'tamiz:

1. «Yengil mehnat» ideali. Bunda inson mehnat qilmasdan ko'proq maosh olishni o'ylaydi. Bu aynan psixologlar uchun noto'g'ri bo'lgan faoliyatlardan biri hisoblanadi. Chunki ular mehnatidan zavqlanishlari zarur.

2. Noaniqlik tushunchasini kamaytirishga qaratilgan faoliyat (antientropizm). Murakkab obyektlarni osonlashtirish qobiliyati hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda ijodiy faoliyat uchun o'rin qolmaydi.

3. Qalban ko'rlik. Ular boshqa insonlar bilan xursand va xafa bo'la olishmaydi.

4. Boshqalardan ustun bo'lish xohishi. Bu ko'plab psixologlarning bir-birlari bilan kurashishlariga sabab bo'ladigan holatlardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Kasb tanlash optatsiyasi nima?
2. Kasbiy layoqat deganda nimani tushunasiz?
3. Amaliy psixolog tadqiqotchi psixologdan qanday farq qiladi?
4. Faollik deganda nimani tushunasiz?
5. Faoliyatni tanlashda dastlabki omil nima sanaladi?
6. Professional jihatlar deganda nimani tushunasiz?

II bob. MALAKALI PSIXOLOG TAYYORLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Tayanch tushunchalar: psixologik tadqiqotlar, psixoprofilaktika, psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'naltirish.

2.1. Amaliy psixologiya haqida umumiy tushuncha

E.Fromm, J.Saliven, V.Shuts, G.Sheparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruhlar psixologiyasi nazariyasining yaratilishi amaliy psixologiya borasidagi bilimlarni bir qadar rivojlantirdi. Bunda turli xil ijtimoiy psixologik treninglar orqali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimni kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun ma'lum darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin. G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi, T.Nyuxomning hamkorlik kommunikativ nazariyasi (o'zgalarga va umumiy faoliyat obyektiga ijobiy munosabatlarni tarkib toptirishga asoslangan), Ch.Osgud va P.Tanenbaumaning «kongruentlik» (inson kognitiv tuzilishi asosidagi obyektning baholashga qaratilgan) nazariyasi, G.Ollport, A.Maslou, K.Rodjers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraham Maslouning «Insonga bir butun yondashuv konsepsiyasi» psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivatsion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslouning fikricha, insonning barcha tug'ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro'yobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning ne chog'liq haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lamini

o'rganish va tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi.

A.Maslou fan olamida o'ziga xos «motivatsion tizimning iyerarxik modeli»ni yaratdiki, unga muvofiq individ xulq-atvoridagi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yuqori ehtiyojlarning yo'nalishi quyi ehtiyojlarning qay tariqa qondirilishi asosidagina tarkib topishi mumkin.


Psixologik xizmatda insonning ijtimoiy ehtiyojlari muammosi ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilinishi va to'g'ri yo'naltirishi lozim. Bu borada qator taniqli sotsiolog, psixolog va faylasuflar tomonidan e'tirof etilgan ilmiy mulohazalarga tayanish mumkin. Masalan, D.N.Uznadzening «... ehtiyoj tushunchasi... tirik organizm uchun zarur bo'lgan va ayni paytda qo'lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli» va M.S.Kagan, A.V.Margulis, E.M.Etkindlarning «ehtiyoj bu — kerakli narsalarning yetishmaslik oqibati», V.A.Yadovning «ehtiyoj — inson shaxsi va organizm faoliyati uchun kerak bo'lgan zarurat va yetishmovchilik mahsuli» L.I.Bojovichning «ehtiyoj — individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan zarurat», A.V.Petrovskiyning «ehtiyoj — jonli hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir» kabi fikrlari shaxs taraqqiyotini ta'minlash yo'lida ehtiyojlarning biologik va ijtimoiy uyg'unligini hisobga olgan holda psixologik xizmatning navbatdagi vazifalarini belgilash imkonini beradi.

Chet el ilg'or psixologiyasida psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim o'rin tutuvchi quyidagi yo'nalishlarga asos solindi:

Ch.Spirmen tomonidan «ikki omil» nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq insonning har bir faoliyatida barcha faoliyatlar uchun umumiy bo'lgan (1-omil) va aynan mazkur faoliyatga mos bo'lgan (2-omil) barcha xususiyatlar o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi ushbu omillarning inson va faoliyat uyg'unligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan

psixologik mohiyati va mazmunini ochib beradi. L.Terston, Dj.Gilford tomonidan yaratilgan «Multifaktor» nazariyasiga binoan birlamchi aqliy qobiliyatlar (idrok tezligi, xotira assotsiatsiyalari va hokazo)ning har bir individdagi tarkib topganlik ko'lamini tadqiq qilindi va shu asosda har bir shaxs faoliyatiga alohida yondashuvni taqozo etuvchi psixologik xizmatning metodologik prinsiplari ishlab chiqildi. Umuuman, psixologiyada individual farqlanishning 56 xil yo'nalishidagi tipi ma'lum va mashhur. Masalan, obyektiv va subyektiv tip (A.Bine tajribalarida qayd etilgan) fikrlovchi faol tip, ratsionalistlar va empiriklar (Djems tadqiqotlari bo'yicha) «chuqur-tor» va «mayda-keng» tip, (G.Gross tadqiqotlari bo'yicha, nazariy, iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, diniy tiplar (E.Shpranger tadqiqotlari bo'yicha); shizoid va sikloid tiplar (E.Krechmer tadqiqotlari bo'yicha); ekstravert va introvert tiplar (K.G.Yung va G.Yu.Ayzenk) haqidagi empirik ma'lumotlarning qayd etilishi shular jumlasidandir. B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug'ma sifatlarini, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta'sir etuvchi ta'lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog'liq tashkil etilish jarayonini mukammal o'rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo'llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi.

Shaxs faoliyatiga individual yondashuv yo'nalishi bilan bog'liq psixologik xizmatning ma'lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tatbiqiy jihatdan asoslab beruvchi olim N.S.Leytes ma'lumotlariga qaraganda, asab tizimi nisbatan kuchsiz bo'lgan kishilarda ko'pincha bir xildagi ishning bajarilishida ma'lum afzalliklar borligi aniqlangan: ularning yuqori sezgirliги ta'sirchanlik muvaffaqiyatini ta'minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulodda va kuchli qo'zg'aluvehilar asosida namoyon bo'luvchi vaziyatlarda kuchsiz tipdagi kishilar aynan o'zlarining fiziologik xususiyatlariga ko'ra ishini uddalay



olmay qolishlari mumkin. Chunonchi, asab tizimi tipi ancha kuchli bo'lgan kishilar bir xil, ancha sust tipdagi kishilar esa boshqa xil vazifalarni birmuncha oson hal qiladilar. Asab tizimining kuchi bo'yicha farqlanadigan kishilar bir xildagi vazifani hal etishga ko'pincha har xil yo'llar bilan borishlari kerakligini N.S.Leytes o'z asarlarida har tomonlama asoslab berdiki, bu — psixologik xizmatda hisobga olinishi mumkin bo'lgan muhim jarayondir. Zero, faoliyat unumdorligi insonning o'z potensial imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanishning mahsulidir. Y.A.Klimov, V.S.Merlin, V.M.Rusalov, B.M.Teplov tadqiqotlarida ham shaxs temperamenti asosida uning mashg'ul bo'lgan u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishdagi individual uslubning belgilanishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi ma'lumotlar bor.

2.2. Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishi

Amaliy psixologiyaning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan fikr-mulohazalar psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

1. Amaliyotchi psixolog har bir shaxsning faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim.

2. Amaliyotchi psixolog shaxsning faoliyat jarayonidagi o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlaridagi iyerarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog'liq izlanishlar ko'lamini o'z ichiga oladi.

3. Amaliyotchi psixolog faoliyat jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy muhim ko'rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo'lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.

4. Amaliyotchi psixolog ijtimoiy jarayonni ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammo-

laridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma'lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

Amaliy psixolog mavqeiga ega bo'lishni istagan insonga bir qator talablar qo'yiladi, ularning birinchisi u oliy ma'lumotli psixolog bo'lishi zarur. Bunday diplom oliy o'quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan xabardor bo'lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. Amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan xabardor bo'lishi lozim. Amaliy psixolog albatta hamma sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo'ladi va shu bilan birga u hammaga hamdard bo'la oladigan inson bo'lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotganda albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta'minlashi zarur bo'ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlash vaqtida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblanadi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o'ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo'ladi. U o'zida ishonch uyg'ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta'sir o'tkaza olishi zarur bo'ladi. Demak, bo'lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularda muloqot qila olish qobiliyatining mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o'z ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin muomalada bo'lishi talab qilinadi. Ularning axloqiy jihatlari quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Professional faoliyatda amaliy psixolog albatta hamma uchun mas'uliyatli bo'lishi zarur.

2. Amaliy psixolog o'z vazifasini sidqidildan bajarishi lozim, u atrofda gilarning so'zlariga qarab o'zgarmasligi zarur.

3. Psixologning vazifasi mustaqil va avtonom tarkibga ega, u hech kimga bo'ysunmaydi. Uning psixologik nuqtayi nazardagi qarori yakuniy natijaga ega bo'lishi zarur.

4. Psixologning qarorini inkor qilish huquqiga faqat maxsus komissiya ega, ular yuqori malakali mutaxassislar hisoblanib, ularga bunday huquqlar berilgan.

5. Psixolog haqqoniy va samimiy bo'lishi zarur.

6. Unda kasbiy mas'uliyat hissi bo'lishi lozim.

7. Psixolog himoyachi sifatida ham ishtirok etishi mumkin, u o'z mijozlarining psixologik holatlarini himoya qiladi.

8. U psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirayotgan vaqtida ehtiyotkor bo'lishi zarur.

9. Agar psixolog mijozining haq-huquqlari poymol qilina-yotgan bo'lsa, u bu to'g'risida yuqori tashkilotlarga yetkazish imkoniyatiga egadir.

10. U siyosiy g'oyalardan, ijtimoiy g'oyalardan, falsafiy fikr-lardan xoli bo'lishi zarur.

11. Amaliy psixolog psixodiagnostik, psixokorreksion, psi-xoterapevtik natijalarni mutaxassis bo'lmaganlarga ko'rsatish huquqiga ega emas.

12. U insonlarga zarar keltiradigan holatlardan uzoqroq bo'lishi talab qilinadi.

13. Psixolog o'zining qila olmaydigan ishlari haqida mijoz-ga va'da bermasligi kerak.

14. Psixolog ota-onaga yoki yuqori mansabdagi insonlarga mijozni haqida tafsilotlarni bermasligi zarur.

15. U o'rganilmagan metodikalarni mijozlarida qo'llash huquqidan mahrumdir.

16. Psixolog albatta sir saqlashni bilishi zarur, u mijozning sirini hech kimga aytmasligi zarur.

17. Psixologik maslahatda albatta o'z me'yorlariga amal qi-lishi talab qilinadi.

18. Agar psixolog shu me'yorlarni buzsa, albatta amaliy psi-xologlar jamoasida ko'rib chiqiladi va tegishli jazo qo'llaniladi.

2.3. Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yoʻnalishi sifatida

Psixolog bolalar, oʻquvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yoʻnaltiradi, ijtimoiy oʻsish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolotga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

Amaliy psixolog bolalar, oʻquvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotdagi, xulq-atvor muomalasidagi nuqsonlar hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotda uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashgʻulotlar oʻtkazadi, ijodiy qobiliyatlarni oʻstirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida oʻtkaziladi va butun masʼuliyat uning zimmasiga tushadi.

Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

- a) amaliy psixologning maxsus ishi;
- b) mashgʻulot ayrim bolalar, oʻquvchilar, talabalar guruhiga tarbiyaviy taʼsir oʻtkazishga yoʻnaltirilgan boʻladi;
- d) ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashgʻulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhi-ning qadriyatga yoʻnalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun maʼlumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlari baʼzi belgilarin-

ing ko'rinishlarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: darsda o'quvchi diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko'rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari iyerarxiyasining (bosqichma-bosqich) o'zgarishi natijasi bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi shaxs normal holati ko'rinishlaridan biriga yoki miya yetishmovchiligining funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomning pasayishi tashqaridan sezilsa-da, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi, psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlantirish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funksiyalar rivojlanishi dolzarb zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longitudinal) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolada paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda, tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkaziladi. U yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini tahlil qilib, psixologik xizmat doirasida alohida diagnostik ish, alohida korreksion ish haqida gapirish mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin. Psixologik xizmatda diagnostik-rivojlantiruvchi yo'nalishlar ishning yagona yo'nalishlaridir. D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo'naltirilgan maxsus diagnostika zarur. Taraqqiyotda bo'lishi mumkin bo'lgan chetlashishlarni ertaroq tuzatish uchun psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarur. Amaliyotchi psixolog faqatgina diagnoz qo'yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o'zi bergan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni o'zi ham olib boradi.

Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo'lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birga, kam ishlangandir. Bu jarayon birinchi bo'lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o'rganishga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlarda L.S.Vigotskiy tomonidan qo'llangan. Bu sxema bo'yicha I.Shvansar shaxs taraqqiyotini diagnostika qilishning bosqichli eksperimental-psixologik nuqtayi nazarini taklif etadi.

Bu bosqichlar quyidagilar:

- 1) psixologga rasmiy iltimos;
- 2) psixologik muammoni aniqlash;
- 3) tadqiqot metodini tanlash;
- 4) psixologik diagnoz qo'yish;
- 5) amaliy tavsiyalar.

Psixologning rasmiy iltimosga javob tarzidagi ishini birinchi nuqtayi nazar sifatida psixologning yoki bu tarbiyasi qiyin o'quvchiga nisbatan o'qituvchining ma'lum ijtimoiy talabiga javobini ko'rsatish mumkin. Bu holda o'quvchiga «tarbiyasi qiyin» tashxisi o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha nazorat xodimlari tomonidan qo'yilgan bo'ladi. Psixologning vazifasi — qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga mos tuzatish metodlarini topishdan iborat.

Psixoprofilaktik ish — amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktika muammolari ko'proq amerika adabiyotlarida aks etgan.

Psixoprofilaktikada uch bosqich ajratib ko'rsatiladi:

Birinchi bosqich — dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog' bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Ko'pchilik mualliflarning ta'kidlashicha, maktab psixik sog'lik profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o'tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

Ikkinchi bosqich — profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi — o'qishdagi va xulq-atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo'qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqich ota-onalar va o'qituvchilarga maslahatni ham o'z ichiga oladi (bolaning o'qishi o'zgarishi uchun ta'lim uslubini o'zgartirish).

Uchinchi bosqich — psixolog o'qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko'rinib turadigan muammolari bor bolalarga o'z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi — jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo'qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya'ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o'quvchilarning asosiy qismi psixolog e'tiboridan chetda qolib ketadi.

Hozirgi amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni psixik sog'lik xizmati sifatida faoliyat ko'rsatishning tarafdori bo'lib chiqmoqdalar.

Psixoprofilaktika amaliyotchi psixolog faoliyatining maxsus turi bo'lib, maktabdagi barcha o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Shunday qilib, psixolog profilaktik ishining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish.

2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi hamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda foydalanish asosiy ish emas. Bunga maktabda o'qituvchilarning bola haqida ko'p gapirishlari dalil bo'ladi. Chunki maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q.

Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv bolani boshqarlardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi.

Bunday diagnostik ishning asosiy maqsadi — o'quvchi psixik taraqqiyotining umumiy holatini bilishdan iborat. Bunday ko'p qirrali va to'liq diagnostika natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o'quvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga, kamchiliklarga ham ega.

Birinchidan, bu usulni qo'llash juda ko'p vaqtni olganligi uchun, uni amalga oshirishning har doim ham iloji bo'lmaydi. Bu usul ko'p vaqtni talab qilganligi uchun faqatgina psixolog

emas, «tarbiyasi qiyin» o'quvchi ham charchaydi, tekshiruvda ishtirok etishdan bosh tortadi, topshiriqlarni o'zi sezmaganda holda nomiga bajaradi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, ayniqsa og'zaki metodikalar qanchalik to'liq bo'lmasin, qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari bunday metodikalar shaxsni to'liq karakterlash uchun yetarli bo'lmaydi.

Rasmiy iltimosga qanday munosabatda bo'lish kerak? Kollej psixologi javob beradigan birinchi savol mana shu. Rasmiy iltimosning ikki xil munosabat, ikki xilma-xil ish uslubi mavjud.

Birinchisi, rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishdir. Bu ikki usul bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, rasmiy talabga javob tarzida uning mazmuniga bog'liq bo'lmagan holda psixodiagnostik metodlar to'plami qo'llaniladi.

Ikkinchidan, rasmiy talabga o'ziga xos javob qaytarishning usuli bo'lib, mashhur amerikalik psixolog K.Rodgers psixologiya fani va amaliyotiga kiritgan psixologik ish to'g'ri hisoblanadi. Uning fikricha, «tarbiyasi qiyin» bola bilan ishlash uchun, rasmiy talabning mazmuni qiyinchiliklar sabablarini tushunishga teng, lekin bu muhim ahamiyatga ega emas. Bola shaxsini rivojlantiradigan shunday sharoit yaratish kerakki, bu sharoit uni xulq-atvorning salbiy shakllaridan voz kechishga va yangi ijobiy shakllarini yaratishga majbur qilsin.

Rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishga teskari uslub — bu rasmiy talabga qat'iy mos tushadigan diagnostik metodikalarni tanlashdan iborat. Masalan: yomon o'zlashtirish haqida shikoyat tushganda, birinchi navbatda bilish jarayonlarining taraqqiyoti tahlil qilinadi. Bunday diagnostika o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlay olmasagina, boshqa ko'rsatkichlar qaraladi. Diagnostika natijalariga mos ravishda, ko'pincha trening turida amalga oshiriladigan tuzatish ishlari olib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Tadqiqotchi psixolog deganda nimani tushunasiz?
2. Amaliy psixologiya haqida gapirib bering.
3. Psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'naltirish.
4. Amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishini tushuntiring.
5. Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida.
6. Amaliyotchi psixolog vazifalariga nimalar kiradi?
7. Zaruriy talablar deganda nimani tushunasiz?
8. Psixoprofilaktika bosqichlari haqida tushuncha berihg.
9. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi to'g'risida batafsil ma'lumot bering.

III bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING FAOLIYAT SOHALARI

Tayanch tushunchalar: psixokorreksiya, psixologik jarayonlar, trening, oilaviy munosabatlar dinamikasi, o'smir yoshi, o'tish davri, depressiya.

3.1. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifalari

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan hujjatlar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining tashabbusi bilan tashkil etilgan «amaliyotchi psixolog» kurslarining ish faoliyati bugungi kunda O'zbekistondagi psixologik xizmatni rivojlantirish uchun eng optimal tadbir sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash mumkin. Respublika miqyosida barcha maktablarda amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat jarayonining tashkil etilayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1994-yilda tuzilgan «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqida Nizom»ning Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi (1996-yil 5-aprel) amaliyotchi psixologlarning faoliyatini yanada kengroq ko'lamda tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim rasmiy asos bo'lib xizmat qildi. «Amaliyotchi psixologlar» tayyorlash masalasi bayon etilar ekan, bu o'rinda O'zbekistonda «amaliyotchi psixologlar» tayyorlashning eng birinchi tashabbuskori bo'lgan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti psixologlari tomonidan tashkil etilgan «amaliyotchi psixologlar» fakulteti faoliyatini alohida qayd etish lozim. Chunki bu fakultetni (ikkinchi mutaxassislik bo'yicha) muvaffaqiyatli tugatgan yuzlab amaliyotchi psixologlar bugungi kunda psixologiya fanining ilmiy amaliy tatbiqi bilan shug'ullanib, Respublika miqyosida psixologik xizmatning keng quloq yoyishida o'z xizmatlarini qo'shmoqdalar. Yuqorida keltirilgan misollar, tahlillar va xulosalardan

ko'rinadiki, O'zbekistonda psixologik xizmatni takomillash-tirish va rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu — ama-liyotchi psixologlar tayyorlash mexanizmini har tomonlama puxta va muvaffaqiyatli tarzda ishlab chiqishdir. Chunki, bar-cha sohalarda malakali mutaxassislardan saralangan va pux-ta tayyorlangan psixologlar safini ham son jihatdan, ham sifat jihatdan kengaytirmay turib, psixologik xizmat tizimi-ning amaliy faoliyatdagi tatbiqini Respublika miqyosida keng ko'lamda amalga oshirib bo'lmaydi.

Shunga muvofiq, amaliyotchi psixologlar tayyorlash muam-mosi bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan hal qili-nishi lozim bo'lgan eng dolzarb muammo bo'lib turibdi. Albat-ta, mazkur muammoni bartaraf etish yo'lida talaygina ishlar qilinmoqda. Masalan, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Andijonda va Samarqandda maxsus tashkil etilgan amaliyotchi psixolog tayyorlov kurslari, maktabda amaliyotchi psixolog shtatining joriy qilinganligi va unga jiddiy e'tibor berib borilayotganligi kabi tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, amaliyotchi psixologlar tayyorlashning bugungi dunyoviy ta'lim taraqqi-yoti talablariga har jihatdan javob bera oluvchi ilmiy-tashkiliy jihatlarini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayo-ni bilan bog'liq barcha imkoniyatlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekis-tonda amaliyotchi psixologlar tayyorlash muammosi juda keng va ko'p qamrovli muammo bo'lib, bugungi kunda qismangi-na hal qilingan xolos, ya'ni Respublikada amaliyotchi psixo-loglar tayyorlash haqida dastlabki Nizom tasdiqlanib (1996-yil 5-aprel), ushbu Nizom asosida bugungi kunda bir qancha viloyatlarda (Toshkent, Buxoro, Andijon, Navoiy, Samarqand) amaliyotchi psixologlar tayyorlash tizimi amalga oshirilmoq-da.

O'zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holatiga tav-sif berishga oid yuqorida bayon etilgan barcha tahlillarimiz O'zbekistonda psixologik xizmat tizimini yaratish va rivojlanti-rish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlarni belgilashni taqozo etadi.

Chunki psixologik xizmat tizimining Respublika miqyosidagi keng qamrovli ilmiy-amaliy yo'nalishlarini belgilamay turib Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga molik ijtimoiy-psixologik muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Shunga muvofiq, barcha sohalardagi hozirgi zamon ilg'or psixologik adabiyotlarga va tadqiqotlarga tayanib psixologik xizmatning asosiy amaliy yo'nalishlari va uning ilmiy-tashkiliy ish jihatlarini o'rganish borasida ma'lum izlanishlar olib borildi. Shuningdek, barcha yo'nalishlar uchun umumiy va juz'iy bo'lgan ijtimoiy psixologik holatlar, vazifalar va tadqiqotlar ko'lami va ularni amalga oshirish yo'llari belgilandi. Bugungi kunda qator sohalarda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi va rivojlantirilishi uchun ijtimoiy ehtiyojlarning nihoyatda ortib borayotganligi va bu ehtiyojlarni qondirishga nisbatan yuqori tashkilotlardan tegishli qarorlar qabul qilina-yotganligini alohida qayd etish mumkin. Tadqiqotlar davomida mazkur qarorlarning va tadbirlarning maqsadidan kelib chiqib va shularga asoslanib O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishning dastlabki bosqichi quyidagi 7 yo'nalishlar asosida amalga oshirilmoqda:

- ▶ ta'lim tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- ▶ mehnat jamoalarida psixologik xizmat;
- ▶ oilaviy hayotni tashkil etish tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- ▶ transport muassasalarida psixologik xizmat;
- ▶ sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- ▶ ichki ishlar, huquq-tartibot tizimi muassasalarida psixologik xizmat;
- ▶ sport muassasalarida psixologik xizmat.

Demak, bugungi kunda mazkur yetti yo'nalish bo'yicha shaxs psixologiyasi va jamiyat uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy psixologik tadbirlar baholi qudrat amalga oshirilmoqda. Bu esa eng birinchi navbatda mazkur yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslarning o'z-o'zini anglash, bilish va rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik muhofaza im-

koniyatlaridan keng ko‘lamda foydalana olishlariga, ya‘ni ularning faoliyatida kamroq muvaffaqiyatsizlikka uchrashlariga va ko‘proq samarali mehnat qila olishlariga benihoya yordam beradi.

3.2. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli bilan bog‘liq. Ayrim olimlar, masalan, V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog‘liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog‘laydi. Shunga ko‘ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta‘kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang‘ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko‘pchilikning guvohligida o‘tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo‘lishi. Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo‘lishi, tug‘ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sindan o‘tkazadi va ular o‘ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma‘no beruvchi voqea – bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas‘uliyatni o‘ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir. Ko‘plab xalqlarda, ayniqsa, o‘zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, yevropa xalqlarida oilada farzandning tug‘ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba‘zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi. Oila va farzand oldidagi bunday mas‘uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba‘zan ajrimlarga,

bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday axloqiy va ma'naviy o'g'itlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi – maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday o'zlarini his qiladilar. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshdan kechiradilar.

4-bosqich. Bola o'smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, keraklilik daraja pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona-bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

5-bosqich. Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga yetadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, «Bola-ota-ona» munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog'at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha hal qila boshlaydilar.

6-bosqich. Keksalikning dastlabki belgilari – tanada keksalik alomatlari, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy quvvatsizliklar paydo bo'ladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashg'ulotidan uzoqlashadi, do'stlari davrasi torayadi va hokazo. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor bo'lish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bog'liq.

Xalq ma'naviyati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori bo'ladi.

7-bosqich. Oilaviy munosabatlarning tugashi odatda turmush o'rtoqlardan birining o'limi bilan boshlanadi. Er-xotinlarning tirik qolgani beva bo'lib qolishi munosabati bilan u ham yangicha rollar tizimiga kiradi.

Nazorat savollari:

1. Psixologik xizmat Nizomining qabul qilinishi to'g'risida ma'lumot bering.
2. Oilaviy maslahatning qanday turlari mavjud?
3. Ota-ona va bola hamda oilaviy munosabatlar psixokorreksiyasining mazmuni haqida bayon eting.
4. Oilaviy nizolar deganda nima tushuniladi?

IV bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING UMUMIY MASALALARI

Tayanch tushunchalar: stress, shaxsiy dispozitsiyalar, kognitiv dissonans, nizolar, bashorat, bevosita ta'sir, ruhiy iztirob, psixologik himoya, guruh destruksiyasi.

4.1. Amaliyotchi psixolog faoliyati samaradorligini baholash muammosi

Psixologiya fanidagi keyingi qator ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi har bir shaxs faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlikni ta'minlamay turib, mazkur shaxsning, aniqrog'i ushbu shaxslardan iborat bo'lgan jamiyatning taraqqiyotini to'laqonli saviyada tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan ham shaxs, faoliyat va ijtimoiy muhit uyg'unligiga, ayniqsa shu uyg'unlikning bevosita ta'min etilishiga xizmat qiluvchi shaxs faolligi masalasiga olimlar o'zlarining qator nazariy-ilmiy fikrlarini bayon etganlar. Chunonchi, psixologik xizmat jarayonida o'rganilishi lozim bo'lgan shaxs faolligi muammosi A.V.Petrovskiy tomonidan «Kishi-ning tevarak atrofda munosabati, birgalikdagi faoliyati va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqatining mahsuli» sifatida tadqiq qilinsa, D.I.Feldshteyn tadqiqotlarida esa, psixologik xizmat jarayonida qaror toptirilishi lozim bo'lgan shaxs taraqqiyotining bosh maqsadi: insonning o'z-o'zini, o'z qobiliyatlarini va imkoniyatlarini mumkin qadar ocha olishi va undan unumli foydalana olishidir. Insonning o'z-o'zini ochishi esa, uning ongli tarzda jamiyat ideallariga mos barcha layoqatlari va imkoniyatlarini rivojlantirishdan to'la-to'kis foydalanish uchun ko'rsatilgan aktiv faoliyat ekanligi uqtiriladi.

Bugungi kunda ko'pchilik umumiy o'rta ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar.

Ularga psixolog hamma muammolarni bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi.

Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rish-gach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» de-gan tipdagi savollar tug'iladi. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolari-dan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganli-gini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umu-miy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ular-da o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllan-tirish.

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psi-xologik-pedagogik o'rganilishini ta'minlash.

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojla-nish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqish-larni profilaktika qilish. Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchi-lar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq — bu maktabning peda-gogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu mu-rakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffa-qiyatga erishishi dargumondir. Psixolog moslashuv davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalash-ni, qanday yashashni o'rgatuvchi inson sifatida ko'rib, dast-labki kezlardayoq unga nisbatan salbiy ustanovkani shakllan-tirib oladilar. O'z-o'ziga ishonchi sust bo'lgan o'qituvchilar psixologni go'yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qa-bul qiladilar. Bular esa psixologning maktab sharoitiga tez ko'nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishga xalaqit be-

radi. Buning oldini olish uchun psixolog o'qituvchilar bilan o'zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o'zini bilag'on qilib ko'rsatmasligi, eng muhimi bir-birini raqib deb hisoblamasligi zarur. Shunga erishish kerak-ki, o'qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar. Maktabdagi ilk qadamlardan oq psixolog ma'muriyatga ularning faoliyat doirasiga nimalar kirmasligini, mo'jizalar ko'rsatish uning qo'lidan kelmasligini tushuntirishi lozim.

Psixologik ustanovka komponentlari:

- a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;
- b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka;
- d) subyekt-subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Ushbu ustanovka pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi.

4.2. Amaliyotchi psixolog shaxsiga qo'yiladigan talablar

Mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo'g'inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to'la-to'kis yuzaga chiqarish masalasi O'zbekiston psixologlari oldiga amaliy psixologiya bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas'uliyatini yukladi:

– aholi o'rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish;

– har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologik tamoyillariga moslashtirilgan eng ilg'or testlar, metodikalar asosida o'rganish, tahlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish;

– xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo'naltirishda ma'muriy tashkilotlarga ko'maklashish, shuningdek, barcha bo'limdagi rahbar xo-

dimlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savodxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli «ijtimoiy psixologiya» kurslarini tashkil etish;

– Fuqarolarning kasbiy yoʻnalishlarini aniqlash va mehnat birjalari faoliyatini rejalashtirishda faol yordam koʻrsatish.

Amaliyotchi psixologning faoliyatidagi vazifalar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

1. Psixolog oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining xalq taʼlimi sohasi boʻyicha qabul qilingan normativ va instruktiv hujjatlarga amal qilgan holda amalga oshirishi shart.

2. Oliy oʻquv yurtining psixologiya sohasini bitirganligini yoki amaliyotchi psixologlar tayyorlovchi qisqa muddatli (qoʻshimcha mutaxassislik beruvchi) maxsus kurslarni (kamida 1000 soatlik) bitirib, psixolog mutaxassisligini olganligini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega boʻlishi kerak.

3. Psixologiya fanining eng soʻnggi yutuqlaridan xabardor boʻlishi, bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiyani, amaliy psixologiyani chuqur bilishi shart. Diagnostik, psixoprofilaktik, rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarning hozirgi zamon ilmiy asoslangan metodlari bilan qurollanishi, xalq taʼlim tizimida doimo oʻz malakasini oshirib borishi kerak.

4. Muammolarni muhokama qilishda va qaror chiqarishdan kasbiy vakolat chegarasidan aslo chiqmaslik kerak.

5. Shu sohaning masʼul mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda koʻrsatmalar va tavsiyalarni qatʼiy bajarishi shart.

6. Barcha psixologik masalalarni hal qilishda oʻquvchi manfaatidan, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.

7. Olingan maʼlumotlar sinaluvchining shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit aʼzolari tahlikaga tushmasliklari uchun diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash.

8. Maʼmuriyat, oʻqituvchilar, ota-onalar bilan uzviy aloqada faoliyat koʻrsatish.

9. Bog'chada, maktabda o'tkaziladigan tadqiqot maqsadi, mohiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedagogik kengash, ma'muriyatga ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

10. Ma'muriyatga, pedagogik Kengashga o'quvchilarga individual yondashishni ta'minlovchi imkoniyat, ularni hal qilishning psixologik shartlari, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olishning omillari, yo'llari yuzasidan zarur yordam ko'rsatish.

11. Bolalar va o'quvchilarning alohida muammolarini hal qilishda yordam berish.

12. Ota-onalarni tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda maslahatlar berish, muayyan holatlarini birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.

13. Ota-onalarga farzandlarining tibbiy yordamga muhtojligi yoki boshqa muassasalarga murojaat qilish lozim ekanligini yuksak pedagogik odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko'rsatmalarga ularni ishontirish.

14. Barcha qoidalarga va tasdiqlangan hujjatlarga rioya qilgan holda o'tkaziladigan barcha ishlarni qayd qilish va belgilash.

15. O'z faoliyatining natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o'z muddatida axborot berish, qabul qilingan hisobot shakllariga hech og'ishmasdan rioya qilish.

16. Barcha maktablarda maxsus talablarga javob beradigan darajada jihozlangan psixologik xizmat xonasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

17. Amaliy psixologlar seminarlari, anjumanlarida faol ishtirok etish.

18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ijtimoiy psixologik axloq-odob qoidalariga zid bo'lgan tekshirishlar o'tkazmaslik.

19. Bolalar, o'quvchilarni tanlash komissiyasida ishtirok etish.

20. Ijtimoiy psixologik holatlarni o'rganishda mahalliy hokimiyatga yordam berish va ommaviy barqarorlashtirishda oldingi safda bo'lish.

Amaliyotchi psixologning huquqlari:

1. Bog'cha, maktablarning ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini hisobga olib, faoliyat uchun eng muhim yo'nalishni tanlaydi.

2. Pedagogik kengash, pedagogik konsuliumlarda ishtirok etadi.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar, o'quvchilar xulqi o'quv faoliyati xususiyatini kuzatish maqsadida dars, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashadi.

4. Murabbiylar, ota-onalar yig'ilishida, o'qituvchilar, metodik birlashmalari majlisida ishtirok etadi.

5. Bog'cha va maktablarning hujjatlari bilan tanishadi va tahlil qiladi.

6. Muayyan davr oralig'ida amaliy faoliyatning yetakchi yo'nalishi yuzasidan turli ishlarni navbat bilan amalga oshiradi. Ularga ma'lum metodlar shakl tanlaydi, bolalar, o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar ishining yaqqol vazifalarini mustaqil belgilaydi.

7. Ilmiy izlanishni yo'lga qo'yish maqsadida bog'chada guruhiy va individual psixologik tekshiruvlar va tajribalar o'tkazadi.

8. Pedagogik-psixologik matbuotda o'z tajribalarini umumlashtirib maqolalar, xabarlar e'lon qiladi.

9. Pedagogik-psixologik bilimlarni targ'ib qilish ishlarini olib boradi.

10. Psixologik ixtisos ma'lumotdan kelib chiqqan holda o'quv va fakultativ tarzda 0,5 hissada pedagogik ishlash imkoniga ega.

11. Kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli ado etish uchun yuqori tashkilotlardan, ma'muriyatdan zarur shart-sharoitlar yaratish talab qilinadi.

12. Nizom bandlariga uning prinsiplariga zid bo'lgan ma'muriyat topshirig'ini bajarmaydi.

13. O'quvchilarni kasb tanlashga oid muammolarni hal qilish maqsadida kasbga yo'naltirish markazlariga murojaat qiladi.

14. Ma'muriyat orqali u yoki bu tashkilotga o'quvchilarga yordam berish zaruriyati to'g'risida ma'lumotnoma yuboradi.

15. Ota-onalarga zaruriyat tug'ilganda oilaviy turmush psixologiyasiga oid konsultativ xizmat xonalarini tavsiya qiladi.

16. Tibbiyot va defektologik muassasalarga rasmiy talablar yuboradi.

17. Tibbiy pedagogik-psixologik konsultativ ishlarda ishtirok etadi, balog'atga yetmagan o'smirlar komissiyasi ishida qatnashadi, bola taqdiri hal qilinayotgan tashkilotlar bilan aloqa bog'laydi. Umuman psixolog yordamchi ovoz berish huquqiga ega xolos. Agar qabul qilingan qarorlarga e'tiroz bildirilsa, u holda o'z fikrini bildirish uchun yuqori tashkilotlarga murojaat qiladi.

18. Psixologik xizmatni ilmiy jihatdan ta'minlash maqsadida ilmiy-uslubiy markazlarga murojaat qiladi.

19. Bog'cha va maktab faoliyatini yaxshilash maqsadida mavjud muammolarni hal qilishni xalq ta'limi tashkilotlari oldiga qo'yadi.

20. Ilmiy-uslubiy markaz rahbarligida yangi diagnostik metodikalar ishlab chiqish, uslubiy tavsiyalar yozishda faol qatnashadi.

21. Amaliyotchi psixologlarning ish haqi Respublika xalq ta'limi vazirligi qoshida tashkil etilgan amaliyotchi psixologlarni attestatsiya qilish komissiyasi qaroriga binoan toifa darajasida belgilanadi. Agar amaliyotchi psixolog psixologiya fanlari doktori, fan nomzodi, maxsus psixologik ma'lumotga ega bo'lsa psixologlar attestatsiyadan o'tgunga qadar oylik maoshi I toifali o'qituvchi darajasida belgilanadi (haftalik ish soatlar 20 soatni tashkil qiladi).

22. Amaliyotchi psixologning mehnat ta'tili muddati barcha maktab o'qituvchilari bilan barobardir.

23. O'qituvchiga berilgan barcha imtiyozlar xalq ta'limi tizimida ishlovchi psixologlarga ham taalluqlidir.

Psixolog-maslahatchi barcha mijozlarni qabul qilishi, ular nima uchun kelganliklari, kayfiyatlari qandayligi va maqsadlari qandayligidan qat'iy nazar ularga diqqat bilan, mehribonlik bilan munosabatda bo'lishi shart. Bu professional psixolog uchun faqat o'z obro'si va mavqeini saqlab qolish uchungi-

na emas, o'zining professional odob qoidalari bo'yicha unga murojaat etuvchilarga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Amaliyotchi psixolog faoliyati samaradorligini baholash muammosi.
2. Amaliyotchi psixologning o'z ustida ishlashi.
3. Geshtaltterapiya nima?
4. Amaliyotchi psixolog shaxsiga qo'yiladigan muhim talablar.
5. Amaliyotchi psixolog faoliyatida o'z-o'ziga yordam muammosi.
6. Amaliyotchi psixolog ijodkor sifatida.
7. Amaliyotchi psixologning huquqlari:
8. Amaliyotchi psixolog shaxsiga qo'yiladigan talablar.

V bob. PSIXOLOGNING KASBIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHNING AXLOQIY JIHATLARI

Tayanch tushunchalar: psixodiagnostik tadqiqotlar, etnopsixologiya, etnik tadqiqotlar, milliylik, aqliy zaiflik, psixik taraqqiyot, etnik jihatlar, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash, kasbiy motivatsiya.

5.1. Psixologning axloqiy sifatlari

Psixologiyada etnik muammolar asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, o‘zbek mentalitetidan kelib chiqib muammoga psixologik yondashish juda muhim. Psixologiyaning mazkur etnopsixologik yo‘nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayonida faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganuvchi tadqiqotchilarning ko‘pchiligi, uni ijtimoiy tarixiy kategoriya ekanligini e’tirof etsalarda, uni o‘rganish «qiyin obyekt» ekanligini ta’kidlashadi. Darhaqiqat, bu masala tekshirish va o‘rganish uchun murakkab va shuning bilan birga eng dolzarb, kam uchragan muammo hamdir. Etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar quyidagilar asosida vujudga kelgan:

Milliy psixologik qiyofani o‘rganuvchi etnopsixologiya fanining bizda endi rivojlanib kelayotganligi va uning umumiy masalalarini hozirga qadar to‘la ishlab chiqarilmaganligi.

Etnik xususiyatlar ko‘zga yaqqol tashlanib turgan holda, uni tashkil etuvchi ruhiy xislatlar yashirin bo‘lib, uni bevosita emas, bevosita, ya’ni ularning mahsulotlariga qarab baho berish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, ayrim olimlar bu masalani butunlay obro‘sizlantirib yuborishgani uchun, etnopsixologiya fani uzoq vaqt ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o‘z o‘rnini topa olmadi. Lekin bu qiyinchiliklar milliy psixologik qiyofa, milliy xarakter kabi millatning ruhiy xususiyatlari mavjud ekanligini inkor etishga asos bo‘la olmaydi. Bu sohada muvaffaqiyatli ish olib borish uchun ilmiy tekshirishlar metodikasini takomillashtirish va qator fan vakillari – faylasuf, tarixchi, etnograf,

sotsiolog, psixolog, adabiyotshunos, san'atshunoslarning hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Darhaqiqat, tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turli tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o'rtasida ma'lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan. Turli xalqlarda oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan munosabatlarning bir xil bo'lmashligi, urf-odat va an'analardagi fikrlar, narsa-hodisalarni idrok etishda mavjud bo'lgan turfa xillikni etnopsixologik xususiyatlar bilangina tushuntirib berish mumkin.

5.2. Psixolog faoliyatining muhim etnopsixologik imkoniyatlari

Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ayrim, ya'ni urug', qabila, millatlarga xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil – tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil – bu siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmuni avvalo birinchi omil – siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar belgilab beriladi. Tabiiy geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz unda psixologik o'chmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqealikning doim ta'siri natijasida kishilar bu voqeadagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob axborotlar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi, natijada evolutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu

tashqi muhit bilan adekvat (munosib) munosabatini talqin ettiruvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. Bu jarayon ma'lum darajada kishilarning sezgi va idroklari orqali namoyon etiladi.

Agar oliy nerv faoliyatining rivojlanishi yuz ming yillar davom etganligi sinfiy jamiyatning vujudga kelganligi esa bir necha ming yil bo'lganligini nazarga oladigan bo'lsak, inson oliy nerv faoliyati mexanizmi sinfiy jamiyat barpo bo'lmasdan ancha ilgariroq shakllanganligi ravshan bo'lib qoladi. Inson ruhiyati faqat uni o'rab turgan tashqi muhit sharoitlariga moslashib va uning xususiyatlarini aks ettirib qolmasdan, doimiy taraqqiy etib turli xarakteriga ega bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy hodisalarning o'zgarib turishiga ham moslashib boradi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiyada etnik muammolarning qayta ko'rib chiqilishi.
2. Psixologiyada ilmiy-tadqiqotlar olib borishdagi etnopsixologik imkoniyatlar.
3. Psixolog faoliyatining muhim etnik tamoyillari.
4. Psixolog faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar muammosi.

II BO‘LIM (MODUL). PSIXOLOGIYA TARIXI

VI bob. PSIXOLOGIYA TARIXI FANIGA KIRISH

Tayanch tushunchalar: materializm, antikvarizm, prezentizm, determinizm, idealizm, tendensiya, bixeviorizm, internalistik, eksternalistik ijtimoiy omillar, kategorial yondashish.

6.1. Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari

Psixologiya tarixi boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo‘lgan psixik hayot hodisalari to‘g‘risidagi bilimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixidir.

Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki psixologik bilimlar qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar tizimi darajasiga ko‘tarilganligi haqida ham ma‘lumot beriladi. Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda psixologiya tarixi fanining o‘ziga metodologik ildizlari haqida muayyan bilimlarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiyaning butun tarixi davomida idealizm va materializm o‘rtasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya fani mohiyatini turlicha talqin qilishda insondagi psixik va fiziologik hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunishda hamda psixologiya fani predmeti haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Albatta psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo‘nalishlar bo‘lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, ya‘ni inson va hayvonga xos bo‘lgan psixika, psixik hayot bir xilligicha qolaveradi.

Psixologik bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya fani predmetiga ruh (jon) haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq-atvor haqidagi fan sifatida muayyan mushohadalar olib borilgan. Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida tal-

qin qilish, ruhni izohiy tamoyil deb, uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo'yishi mumkin. Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish va psixikaning ongli qismini tadqiqot obyektiga aylantirib, bir vaqtning o'zida ong ham predmet, ham izohiy tamoyil bo'lib xizmat qilgan. Psixologiya fanining predmeti sifatida xulq-atvorning tanlanishi ong psixologiyasi subyekt tizimini yengib, psixologiyani obyektiv tadqiqot yo'liga olib chiqdi. Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongni o'z tadqiqot predmeti sifatida yo'qotdi. Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi tamoyili asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda. Har qanday boshqa fanda bo'lganidek, psixologiya ham murakkab, qarama-qarshiliklarga to'la, ba'zan turg'unlik, ba'zan voz kechilgan fikrlarga qaytish kabi bosqichlarni bosib o'tgan.

Boshqa fanlarda ham bo'lganidek, psixologiya tarixi fanlari ham shartli bo'lib, u ba'zan o'rganilayotgan muammoga, tadqiqotchining shaxsiy yondashishiga va boshqa sabablarga bog'liq bo'lib kelgan.

Ilmiy psixologik bilimlar taraqqiyotining umumiy va asosiy qonuniyati – bu g'oyalar kurashidir. Bu kurash uzoq vaqt materializm va idealizm o'rtasidagi kurash ko'rinishida talqin qilinib kelindi.

Psixologiya fani taraqqiyotning muhim qonuniyati uning yagona nazariyani ishlab chiqishiga yo'nalganligidir. Bu tendensiya psixologiyadagi ochiq krizis davrida yanada yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki bu davrda psixologiya uchun yagona izohiy tamoyilning topilishi uning fan sifatida saqlanib qolishini ta'minlar edi. Shu davrda paydo bo'lgan barcha maktablar: psixoanaliz, geshtaltpsixologiya, bixeviorizm va boshqalar hammasi ana shu yagona nazariya o'rniga da'vogarlik qildilar. L.S.Vigotskiy bu holatni shunday ta'riflaydi: «Aniq sohalardagi xususiy kashfiyotlardan umumiy tamoyillarning paydo bo'lishiga va ularning butun psixologiyaga yoyilishiga va nihoyat falsafiy tizimga, hatto dunyoqarashga aylanishiga da'vo qilingan bu g'oyalar psixologiyada yagona nazari-

ya maqomiga uncha mos kelmaydi. Psixologik g'oyalar tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchlari va sabablari hozirgi paytda ilmiy g'oyalar u yoki bu fan taraqqiyotini belgilovchi omillar, ilmiy bilimlar determinatsiyasi haqida juda ko'p munozaralar mavjud».

I.Lakotos fanning «ichki» va «tashqi» tarixi atamasini qo'llashni taklif qilgan. Bunga ko'ra fan faqat o'zining ichki standartlari, ilmiylik mezonlari asosida rivojlanib boradi. Boshqacha aytganda, fanning rivojlanishiga faqat kognitiv omillargina ta'sir ko'rsata oladi. Bunday internalistik yondashishga eksternalistik yondashish qarama-qarshi qo'yilib, unga ko'ra fan tarixini ijtimoiy omillarsiz o'rganib bo'lmaydi, ijtimoiy faktorlardan fan tarixini nazariy qayta tiklashda foydalanilishi lozim. Bunga ko'ra psixologik bilimlar taraqqiyoti tarixini tahlil qilish birinchidan, tarixiy fan holatni yaxshi bilishni, ikkinchidan, o'rganilayotgan davrda fandagi alohida holatni hisobga olishni talab qiladi. Boshqa fanlar, jumladan matematika, fizika, astronomiya, tilshunoslik, fiziologiya, biologiya, etnografiya, mantiq kabilar esa psixologiya fani taraqqiyotiga ta'siri turlicha ilmiy tamoyillarni olib kirgan. Bu esa birinchidan, shu fanlar doirasida psixik hodisalar haqidagi bilimlarni to'plashga, ikkinchidan, shu fanlarning metodlaridan unumli foydalanishga, uchinchidan, umumiy ilmiy metodologik mushohadalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bunday aloqasi psixologiya fanining faqat boshqa fanlar bilan hamkorlikda rivoj topishini ko'rsatadi.

Psixologiya tarixining metodlari. Psixologiya tarixidagi eng katta xavf bu tarixiy materialni tasvirlash bilan cheklanadigan empirizmdir. Tarixdagi empirizm dalillarga murojaat qilinganligi bilan emas, balki tarixiy ilmiy harakatlar oldida o'z qizlik qilib, ularni tizimga sololmaganligi, tushuntira olmaganligi, tekshira olmaganligi tufayli ularning o'z sifati, ilmiy qiymatini yo'qotib qo'yishi bilan xavflidir. Tarixiy tadqiqot metod va metodikalarining asosiy vazifasi manbalarni qidirib topish, tadqiqot mazmunini belgilash, dalil, nazariya, qonun tushun-

chalaridan iborat o'rganilayotgan materiallarni tizimlashtirishdan iboratdir.

Psixologiya tarixining asosiy metodi o'tmish ilmiy tizimlarini tasvirlash va ularni qayta tiklash metodidir. Nazariy qayta tiklash muayyan ilmiy konsepsiyalar, muammolar, tadqiqot metodlarini predmet mantiqiga mos ravishda tarixiy ketma-ketlikda reprospektiv qayta tiklash imkonini beradi. Tarixiy tadqiqot yo'nalishi mavjud ilmiy maktablar yordamida shakllanadi, unda asosan arxiv materiallarini o'rganish, izlanish, sharhlash, izoh berish, yo'naltirish kabi ilmiy mezonlar-ga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

6.2. Psixologiyaning rivojlanish bosqichlari va tamoyillari

Psixologiyaga oid bilimlarning rivojlanishini turlicha davrlashtirish mumkin. Davrlashtirish ishiga xronologik jihatdan yondashilsa XVII asr psixologiyasiga, hududiy jihatdan yondashilsa Meksika psixologiyasining tarixi, Amerika psixologiyasining tarixi kabilarga ajratish mumkin. Demak, har qanday davrlashtirish nisbiydir. Shuni hisobga olib quyidagi davrlashtirish sxemasini ham navbatdagi variantlardan biri deb hisoblash kerak.

Psixologiya tarixi 2 ta davrga ajratiladi. Ular o'z navbatida kichikroq davrlarga bo'linish tamoyiliga asosan tuzilgan.

I davr. Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davri. Bu davrda er.av. VI asrdan XIX asr o'rtasigacha 2,5 ming yil davom etgan davrdir.

II davr. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida rivojlangan davri. Bu davr XIX asr o'rtasidan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan davrdir.

Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti quyidagi bosqichlar asosida namoyon bo'ldi:

Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha. Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarning paydo bo'lishi va ularning dastlabki taraqqiyoti;

V–VIII asrlar, Ruh (jon) haqidagi ta'limotning falsafiy ta'limotlar va tibbiy bilimlar bazasida rivojlanishi;

XIV–XVI asrlar. Ruh (jon) haqidagi ta’limotning anatomo-fiziologik bilimlar va XIV–XVI asrlardagi buyuk kashfiyotlar ta’sirida rivojlanishi;

XVII–XIX asrlar o’rtalarida ongning psixologiya predmeti sifatida ajratilishi, psixologiya nazariy asoslarining shakllanishi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi taraqqiyotiga quydagi bosqichlarni kiritish mumkin:

XIX asr boshidan XIX asrning 60-yillarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tabiiy shakllanishi;

XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirlarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo’lishi va dastlabki taraqqiyoti;

XX asrning 10 va 30-yillarining o’rtalarida. Psixologiyada ochiq krizis;

XX asrning 20–30-yillari. Sobiq sovet psixologiyasining shakllanishi;

Psixologiyaning falsafa fani tarkibida rivojlanishi

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Yakuniy natijasi
Er.av. V–VI asrlar	Psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo bo’lishi va rivojlanishi	Ruh haqidagi fanning paydo bo’lishi va unda 2 yo’nalish: Materialistik va idealistik yo’nalishlarning paydo bo’lishi. Psixik jarayonlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, affekt, iroda haqidagi ilk empirik bilimlarning paydo bo’lishi. Tana va ruh munosabatiga har xil yondashish.
V–VIII asr	Ruh haqidagi fanning falsafiy ta’limoti doirasida tibbiy bilimlar asosida rivojlanishi	Tomistik psixologiyaning paydo bo’lishi.
XV–XVI asr	Ruh haqida fanning anatomik-fiziologik bilimlar asosida rivojlanishini davom ettirish	Tadqiqot obyekti sifatida ruhni inkor etish, «Psixologiya» terminining kiritilishi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Yakuniy natijasi
XIX asr boshidan XIX asrning 60-yillarigacha	Psixologiya mustaqil fan ekanligini ta'kidlovchi ilk bilimlarning paydo bo'lishi	Asab tizimi va sezgi organi faoliyatini eksperimental metod bilan o'rganila boshlashi, psixofizika va psixogeometriyaning paydo bo'lishi, sezish va idrok etish nazariyalarining kashf etilishi
XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirigacha	Psixologiyaning bevosita mustaqil fan sifatida rivojlanishi	Eksperimental metodlar psixologiyadan mustaqil o'rin egallashi psixologiyada amaliy-empirik tadqiqotlarning paydo bo'lishi fanda yangi tarmoqlarning vujudga kelishi
20 asrning 10–30-yillari	Psixologiyada ochiq krizis (inqiroz)	Chet el psixologiya maktablari, Bixeviorizm
30–50-yillar	Inqirozning tugallanishi	Yangi tarmoqlar: genetik psixologiya, shaxs psixologiyasining paydo bo'lishi, yangi maktablar, neobixeviorizm, neofreydizmining vujudga kelishi
60-yillar	Yangi nazariy va amaliy qidirish	Yangi yo'nalish: gumanistik psixologiya, logopediya, kognitiv psixologiyaning paydo bo'lishi, psixologiya predmetining tahlil qilinishi, ongsizlik masalasiga katta e'tibor, sotsial psixologiya masalalarini chuqurlashtirish

XX asrning 30-yillar oxiri 50-yillar. Psixologiyada krizisning pasayishi. Sobiq sovet psixologiyasi nazariy sohasi taraqqiyoti. O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi;

XX asrning 60-yillaridan shu davrgacha psixologiyada yangi nazariy yondashishlarni izlash davri.

Umuman, psixologiya fanining rivojlanishida juda ko'plab olimlarning tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tadqiqotlardagi eng muhim tamoyil – tarixiylik tamoyilidir. Bu tamoyil tadqiqotchidan o'rganilayotgan hodisaning shu davrning hamma o'ziga xosliklari, ijtimoiy-madaniy

aloqalari, uning butun konkret mazmuni bilan birga o'rganib, o'rganiladigan hodisaning qaytarilmasligi va noyobligini ko'rsata olishni talab qiladi.

Tarixiylik tamoyilining tuzilishi prezentizm va antikvarizm da namoyon bo'ladi. Prezentizm – tarixiy tadqiqotni o'rganilayotgan davrdan faqatgina hozirgi zamon tasavvurlariga mos bo'lgan ko'rinishlarinigina ajratib olib o'rganish bilan cheklanishdir. Antikvarizm – aksincha tarixiy o'tmishni hozirgi zamon talablariga bog'liq bo'lmagan, qotib qolgan hodisa sifatida o'rganadi. O'tmish hodisalarni tasvirlashdagi har qanday bir yoqlamalik, sxematizm tarixiylik tamoyilidan chekinishdir. Shu bilan tarixiy tadqiqotlar o'rganilayotgan hodisalarning umumiy qonuniyatlarini topishni talab qiladi. Bu talabni bajarishni asosan mantiqiylik va tarixiylikning birligiga tayanish ta'minlaydi. Bu tamoyilga ko'ra tarixchi o'tmish hodisasini shunchaki tasvirlab qo'ymay, balki uni nazariy jihatdan tasavvur eta olishi kerak, ya'ni bu hodisalarda qandaydir doimiylikni topa olishi kerak. Tarixiy psixologik g'oyalarni ijtimoiy, siyosiy yo'nalishning g'oyaviy mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bunday yondashish ilmiy konsepsiyalarning jamiyatdagi ijtimoiy rovidan ajratib o'rganuvchi obyektivizm va subyektivizmdan farq qiladi.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarda M.G.Yaroshevskiy ta'kidlaganidek, determinizm – sababiylik tamoyili katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, tarixda determinizmning ko'plab turlari paydo bo'lgan. Mexanikadan oldin, mexanik, biodeterminizm, psixodeterminizm, sotsiodeterminizm. Bularning har biri psixik hodisalar o'z-o'zidan paydo bo'ladi, deb talqin qiluvchi indeterminizmga qarshi turadi (Yaroshevskiy M.G. – 1980).

Materializm va idealizm kurashi. Ba'zi ta'limotlarga ko'ra ikki dunyoqarash materialistik va idealistik dunyoqarashlar to'qnashuviga ta'sir etadi. Psixologiya ijtimoiy fanlar va tabiatshunoslik fani to'qnashuvida ekan, unda ana shu to'qnashuv aniq ko'rinadi. Ijtimoiy rivojlanishni bir davrda odamlar reflekslariga ega bo'lishdi, o'z xulqini analiz qila olgach, idealizm fikrini maxsus birlamchi haqiqat deb qabul qildi. Psixi-

ka xususiyatlarini idealizm boshlang'ich, hech nima bilan aniqlanmaydigan, boshqa hamma narsani tushuntira oladigan deb qabul qildi. Materializm ong va obyektiv haqiqat o'rtasida umumiylikni izlab, ongni obyektiv haqiqatdan chiqqan deb o'rgatadi.

Uzoq vaqt burjuaziya tarixshunolarida ikki xil yondashish hukmronlik qilgan: «personalistik» va «kontekstik».

Personalistik yondashish.

Ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, adashishlar o'z mualliflariga ega, ularning nomlarini tarix saqlab qoladi, shuning uchun psixik dalil (fakt) rivojlanishining oxirgi nuqtasi ayrim shaxslarning aql-idrokiga bog'liq, degan fikr paydo bo'ldi.

Kontekstik yondashish.

Ko'pgina ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy g'oyalarning yo'nalishi obyektiv qonunga tobe, yakka omil – o'z zamonining namoyandasi, u o'z zamonining intellektual iqlimida chegaralanib qolgan. Kashfiyot uni tayyorlovchi g'oyalarsiz bo'lmaydi.

«Juftlarning qarama-qarshiligi» tamoyili.

Psixologik g'oyalar harakatining umumiy chiziqlarini aniqlashda sxemalarga asoslanilsa harakat qarama-qarshilikka ega deyiladi. Buni amerikalik tarixshunos «qarama-qarshilik jufti» deb atadi. Bu borada bir qancha nazariyalar taklif qilindi. G.Merfi psixologik o'rganishlarni XX asrning 10–20-yillarida to'rt «qarama-qarshi juft»larga bo'ldi:

- 1) «struktura – funksiya»;
- 2) «qisman butun»;
- 3) «sifat – son»;
- 4) «eksperimental – statistik».

XX asrning 10-yillarida birinchisi hukmronlik qilgan, 20-yillarda ikkinchisi deb hisoblangan Amerika psixologiya jurnalining 50 yil davomida bosilib chiqqan ma'lumotlarini analiz qilib D.Bruner va G.Olbert nazariyalarini umumlashtirib:

1) «ratsional – empirik»; 2) «teologik – mexanik»; 3) «sifat – son» deb ajratdilar. Ular har bir juftning ikkinchi qismini

hajmi bosib chiqishini xulosa qildilar. Keyinchalik G.Olbert nazariyalarni ikki guruhga ajratdi:

a) determinizm tamoyiliga amal qiluvchilar;

b) shaxsni kelajagiga orientatsiya qilishga aksentuatsiya qilganlar.

Psixologik tizimlar supernazariya sifatida. Psixologiyani rivojlantirishda olimlar alohida bir xususiyatni aniqlab, uning faktini va xarakteristikasini tasvirlash bilan birga tizimlar to'g'risidagi tushunchani kiritish kerak, deb hisoblashdi. Psixologik tizimlar «supernazariya» deb nomlanadi. Ularning paydo bo'lishini bir qator mualliflar psixologiyaning g'oyaviy yetilmaganligi bilan bog'laydilar.

Paradigmal yondashish. Kun Tomas «Ilmiy revolutsiyalar strukturasi» kitobida ko'pchilikni o'ziga jalb qilgan ilmiy g'oyalarni tabiiy harakati tizimini ko'rsatdi, unda harakat bir necha davrga bo'lingan. Boshlang'ich davrda ba'zi omillar chegarasi, muammosi usulida umumiy kelgani yo'q. Ammo, fan ong yuqori yetilish darajasiga borganda paradigma paydo bo'ladi, bu paradigma aktual ilmiy amaliyotini umumqabul qilgan namunasi deb taniladi. Paradigma Kun Tomasning aytishicha, yetarli kuchga ega, shuning uchun uzoq vaqt olimlarning aqlini asir qiladi, olimlarning alternativ yo'nalishlarini axtarishda adashtiradi. Pedagogika o'zga qonunlarni, g'oyaviy xulosalarni va ularning yangi masalalarini kiritadi. Ma'lum muddat shu fan bo'yicha ishlamayotganlar ushbu paradigmaga amal qilib keldilar. To'g'ri kelmaydigan fikrlarni e'tirof etadilar yoki shu qonunga moslashtiradilar.

Klassik bixeviorizm (psixologiya predmetini stimullarga harakat reaksiyasi deb hisoblovchi) «proksimal stimullar – proksimal reaksiyalar» bog'lanish bilan chegaralanadi (a-A). Freydizm organizmni uzoq o'tmishga bog'liqligi bilan chegaralanadi (S-0). Funktsionalizm muhit obyektlarini ular bilan operatsiya qilish munosabatini nazarga oladi (v-A). Bu sxemani e'tiborga olib Brunevik har bir sanalgan nazariya butun jarayonni bir fragmenti deb hisoblaydi, ammo psixologiya tarixini anglash uchun Brunevik sxemasi talabga javob

bermaydi: genetik sababi va nazariyalar buzilishini tushuntirib bermaydi.

«Sistematologiya» daniyalik olim K.Madsen fanni o'zini ilmiy analiz qilish kerakligini gapirib, psixologik nazariyalarini solishtirib o'rganish kerakligini, uni «Sistematologiya» qilishni taklif qiladi. Nazariya deb, u shved faylasufi G.Gernebodan so'ng «ilmiy matn» yoki fikrlash (yozma, og'zaki), metonazariya deb, — shu matnning nazariy analizini tushunamiz deydi. Matnni yaratganda bir necha darajani taklif qiladi:

a) diskriptiv (tasvirlovchi);

b) gipotetik (tushuntiruvchi);

d) metastrata, bunda matnning muallifi bilim, haqiqat, metod, model to'g'risida o'z fikrini bildiradi.

«Sistematologiya» asosiga Madsen «fikrlash ekonomikasi» ni qo'ydi. Bu adashtiruvchi ishonch, chunki ko'z bilan ko'rilgan haqiqatni bildiradi, haqiqat ilmiy bilimning mazmunini tashkil qiladi, deb adashtiradi. Materialistik dialektika pozitsiyasidan psixologik o'rganishni ilmiy kategorial analiz qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Kategoriyalar — fikrni eng umumiy buzilmas, o'zaro bog'langan ish tashkilotchilari hisoblanadi. Ular haqiqatning faol tasvirlanishidir. Falsafiy kategoriyalar ilmi (forma va mazmun, son, sifat va boshqalar) grammatik kategoriyalarga o'xshab uzoq tarixga ega.

Mazmunan-formal. Olimning o'z ulushini ilmga qo'shishi qaytarilmas bo'lganligi uchun tarixchining vazifasi bu ulushning maxsus xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Konkret voqealarni qaytadan o'zgartirib tarixchi ularni boshqalar bilan solishtirmay, razryadga taqsimlamay baholay olmaydi. Bu ikki bo'linmas tarixiy fikrni operatsiya qilish nazariyalarda o'xshash emasliklari bilan aks ettirilgan. Nazariyalarda mazmuniga yoki «formasiga» e'tibor kuchaytirilgan. Bularda mazmun tarixiy qaytarilmas voqealarni moslashtirgan, formal esa tamoyillar va konstruksiyalar bilan moslashtirgan.

Individual-sotsial. Ilmiy o'rganish boshidan sotsialdir. Shu bilan birga har bir o'rganuvchi shaxs o'z dasturiga ega va hech kim yetolmagan maqsadga intiladi. Ammo hammaning bosh-

qachaligini tan olish ma'nosiz bo'lar edi, agar umumqabul qilingan hisobot tizimi bo'lmasa kategoriya tizimi jamoani ijodi va boyligidir. Nazariyalar muallifini sanab borishi mumkin, ammo kategoriyalar «tilga» o'xshab nomsiz, ular butun olimlar tomonidan qabul qilinib, har birining faoliyatiga rahbarlik qilib turgan tamoyil tarkibiga va tushuntirish nuqtasiga kiradi.

Fan kategoriyasi tarixiy natijadir. Ularning mazmuni asrdan asrga o'zgaradi. Kategorial qurilish o'z rivojlanishida qator davrlarni o'tadi.

Psixologiya tarixining manbalari. Psixologiya tarixining manbalari bo'lib psixologik bilimlarni to'plashning aks ettiruvchi barcha materiallar eng avvalo o'tmish psixologlarning, faylasuflarning asarlari hisoblanadi. Tibbiyotga ayniqsa, psixiatriya sohasiga oid bilimlar, shuningdek, boshqa fanlar tabiatshunoslik, jumladan, fizika, kimyo, astronomiya, tilshunoslik, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ma'lumotlari ham psixologiya tarixining manbayi hisoblanadi.

XX asrda psixologiyaning o'tmishiga bir necha bor qiziqish kuchaydi XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida qiziqish tobora kuchayib bordi. Bu yillar psixologiyaning uyg'onish davri hisoblanadi.

XX asrning 10-yillarida psixologiyani o'sha paytda hukmron bo'lgan metod va fan sifatida o'rganish tizimi qattiq tanqid qilingan. Bu fanning predmeti sifatida fenomenlar yoki ong aktlari, metodi esa o'z-o'zini eksperimental nazorat qilish to'g'risidagi tushunchadan iborat bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya tarixi fanining vazifalarini tushuntirib bering.
2. Psixologiya tarixi fanining rivojlanish tarixini davrlashtirib bering.
3. Psixologiya tarixi fanining tamoyillari qaysilar?

VII bob. PSIXOLOGIYANING DASTLABKI VA O'RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: «Memfis teologiyasi yodgorliklari», pnevma yoki SI, Sankxaya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Vayshe-shika, Daosizm, Lao-Szi, konfutsiychilik sofistlar, materialistlar, idealizm.

7.1. Antik davrning psixologik nazariyalari

Qadimdan madaniy fikr va ruhiyatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va rivojlangan. Shuning uchun qadimiy grek-rimliklar hayotining rivojlanishini Sharq xalqlaridan ajratib alohida o'rganib bo'lmaydi. Inson ongi rivojlana borgan sari turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sekin-asta ishlab chiqarish revolyutsiyasi bo'ladi. Shahar qishloqdan, hunarmandlar qishloq xo'jaligidan ajrala boshlaydilar. Inson hayot tarzining o'zgarishi, qullarning ko'payishi, daryo yo'llarining ochilishi qadimiy greklar ongini bir necha barobar o'stiradi. Qadimiy afsonalarga ishonish, bir necha tabiiy fanlar (matematika, geografiya, astronomiya, tibbiyot) bilan tanishishi ular ongining o'sishiga, fikr yuritishiga turtki bo'ladi.

Shu davrda materialistik fikrlaydigan bir necha faylasuf va olimlar yetishib chiqqan. Bularga Demokrit, Gippokrat, Anaksimanlarni misol keltirish mumkin. Ularning izlanishlari katta ahamiyatga egadir.

Eramizdan avvalgi V asrda falsafiy fikrlar markazidan biri Afina edi. Shu vaqtlarda donishmandlikka o'rgatuvchi o'qituvchilar, sofistlar yo'nalishi rivojlangan. Turli muassasalarda sofistlar odamlarni donolikka, bilimdonlikka, o'z so'zlarni o'tkazishga o'rgatishar edi. Ular o'z darslarida insonning psixologik sujetlarini, insonning boshqa insonlarga munosabatlarini muhokama qilar edi. Ularning fikriga qarshi Suqrot o'z fikri bilan chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Platon va Aristotellar ilmiy asarlarida falsafiy psixologik fikrlar tizimi inson fikrining o'sishiga katta ta'sir qilishi haqida yozganlar.

Platon Yevropa idealizmining boshlovchisi ham hisoblanadi. Aristotel falsafasidagi psixologik fikrlarda biologik yo'na-

lishlar bor edi. Aristotel dunyoning aqliy fikrlari alohida insonlarda yer yuzida bo'ladigan hodisalarda yuzaga keladi, deb tasdiqlaydi.

Ellinistik yo'nalishi grek madaniyati bilan Sharq xalqlari madaniyatini yaqinlashtiradi. Ellinistik yo'nalishi falsafasiga ko'ra jamiyat turmush tarzini o'zgartirib yuboradi. Inson o'zining shaxsiy o'rnini jamiyatda topib oladi. Bir necha madaniyat markazlari yuzaga keladi. Fanlar, texnika, tibbiyotning rivojlanishi psixologiyani fan sifatida rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Lukretsiy va Galen kabi buyuk allomalarning ta'siri katta bo'lgan. Tarixda paydo bo'lgan xristian dini insonlarning ilmiy qarashlariga qarshi chiqishda ekspluatator sinfga katta qurol vazifasini bajargan.

Psixik tabiatga oid qarashlar. Ruh haqida afsonaviy tushunchalar hukmronlik qilgan. Har bir konkret narsalarning 2 ta yoki undan ortiq ruhi bor, deb tushunilgan. Insonning atrofidagi olam shu ruhlar bilan bog'liq. Ruh haqidagi fikrlar psixologik tarixga emas, balki butun tabiatga qarashlar bilan bog'liqdir. Sekin-asta tabiatga ilmiy qarashlar orqali psixologik fikrlar ham o'zgardi va rivojlandi. Insonlar dunyoni tushunishda afsonalardan voz kecha boshlashdi.

Eramizdan avvalgi VI asrga kelib tabiat va insonni tushunish psixologik faoliyatda katta burilish yasadi. Qalb haqidagi greklar ta'limoti, psixologik qarashlar va ular haqidagi bilimlar juda qiziqarli edi. Qadimgi faylasuflar ruh haqidagi afsonalarga boshqacha yo'l bilan tayanishar edi.

Geraklit qalbni ta'riflashi bo'yicha: havodagi namlikni xuddi sharob ichgan odamni qalbiga o'xshatadi. Qanchalik qalbi quruq bo'lsa u kuchlidir va aqllidir. Geraklit birinchi bo'lib psixologiya tarixida organizmdagi ruhiy holatning o'zgarishini aniqlab beradi. Ruhiy holat o'zida ichki tushunishi va o'ylash, shu bilan birgalikda tushunish chegarasini, haqiqiy hayotni tushunishini belgilab beradi.

Geraklit izlanishlari nafaqat yangi hayot mazmunini, balki insonning rivojini tushuntirib beradi. Anaksagor (er.av. 500—428) olamni bir necha sifatli har xil qismlardan tartibga solina-

di, deb hisoblar edi va bular ong tomonidan tartibga solinadi, deb ta'kidlar edi. U inson va tabiatni o'z-o'zini boshqarishiga e'tibor beradi.

Anaksagor ongni, aqlni narsalardan tashqari yoki fazodan tashqari harakat qiladi, deb ta'kidlagan. Lekin bunga Platon qarshi chiqqan. U — «Anaksagor ong haqida gapirganda boshqa yo'lga kirib qolyapti» deb aytgan. Lekin Anaksagorning ilmiy asarlarida bunday chekinishlar yo'q. Anaksagor shunday hisoblar edi: qanchalik inson tanasi rivojlangan, to'liq bo'lsa shu organizmda aql — ong mukammal bo'ladi. U «Inson jonzotlar ichida eng aqlli hisoblanishiga sabab uning 2 ta qo'li borligidadir» deb aytib o'tgan. Lekin bu ta'limotga Aristotel qarshi chiqqan. Anaksagor fikricha, «aql», «ong» o'zida tanani ko'rsatadi. Shuning uchun qalb materialistik tomondan ikkinchidir. Anaksagor determenizm tamoyilini to'liqroq tushuntirib bergan.

Demokrit (er.av. 460—370) Levkippdan keyin olamning atomistik modelini yaratdi. Butun koinotda, kenglikda, butun olamda o'zgarmas qonunlarga binoan sharsimon bo'linmas o't atomlari harakatdadir, qaysiki ular qalbni yaratadi. Shunday qilib, qalb moddalar ichida uning bir turidir.

Tarqalish, yo'qolish haqidagi fizik qonun tanaga tegishlidir, shunga ko'ra Demokrit qalbning barhayotligini tan olmaydi.

Bu yo'nalishlarga qarshi qalbning barhayotligini yoki boshqa qalbgga aylanishini afsonaviylikka yaqinligini yoqlab bir necha maktablar chiqdi. Qadimgi Rimda ikki maktab Pifagor va Platon maktablari. Bu maktablar qalbni doim barhayotligini, doimo aylanib yurishini, ya'ni diniy tomondan ham ta'kidlashar edi. Ularning fikricha, qalb tanaga bir jazo sifatida mahkamlab qo'yilgan. Olamning yaratilishi Pifagor tomonidan shunday ta'riflanadi: olam narsalardan emas, balki arifmetik-geometrik strukturaga ega. Yer yuzida barcha narsalar — harakatdagi narsalarning hammasi raqamli holatlarni, qiyofani ko'rsatadi. Qalb ham garmoniya — tanaga qarama-qarshilik garmoniyasidir. Pifagor maktabi 200 yil yashadi. Bu maktab fikrlovchilari son yoki raqamni narsalardan ajralmas deb, hisoblar edilar. Lekin sonlar narsalardan alohida ajraldi.

Suqrot (er.av. 470–399) u ko'chadami, bozordami qanaqa vaqt bo'lishiga qaramay, insonlarni qiziqtirgan savollariga javob berardi. Suqrot boshqa faylasuflardan farq qilib, bergan maslahatiga pul olmas edi. Uning muxlislari turli kasb egalari boy yoki kambag'al sinfidan edi. Suqrot faoliyatida suhbatdoshiga o'zi tanlagan bir necha savollar bilan murojaat qilar va savollarga aniq to'g'ri javob berishga yordam berar edi.

Suqrotning shiori «O'zingni o'zing o'rgan, bil» bo'lgan, lekin bu fikri bilan Suqrot psixologiyada birinchi bo'lib tan olish metodikasiga tayangan emas. O'z ta'limotiga ko'ra Suqrot o'z ichki his-tuyg'ularini bilishga emas, balki inson o'z qilmishlarini, o'z yurish-turishini analiz qilishni tushuntirib berishni tushungan edi. Suqrot fikriga ko'ra, insonni o'z-o'ziga munosabati intellektual axloqiy sifatlarni namoyon qiladi.

Platon (er.av. 428–348) qalbning yangicha talqinini yaratdi. Platon materializmga qarshi qarashlari falsafiy qarashlarida siyosiy tus olgan. Yoshlar materializmdan xudosizlikka yo'liqdi va jamiyat darz ketadi, deb ta'kidlar edi. Platon haqidagi bir necha asarlar to'ligicha yetib kelmagan. Platon asos solgan falsafiy nazariya boshqa zaminda rivojlandi.

Platon akademiyasiga kirishda shunday so'zlar yozilgan edi. «Geometriyani bilmaydigan bu yerga kirmaydi». Geometrik figuralar bir tomonda seziladi, his qilinadi va ko'riladi. Platon o'z ustozu Suqrot o'limidan keyin Suqrot yurtiga Janubiy Italiyaga sayohat qildi. Suqrot maktablarida bo'lib dialektik metod suhbat qilishni o'rgandi.

G'oyalar birinchidan qaysiki inson yashayotgan voqelikda, ikkinchidan real emas. G'oya – inson aql-zakovati mevasi emas, balki aql-zakovati nazariyaga taqlid qiladi. Platon fikricha: nazariyalar, fikrlar fazoviy ongga qarashlidir, qalb olami esa bularning hammasini – nazariyalar va materiyalarni birlashtiradi.

Aristotel (er.av. 384–322) Platonning shogirdi bo'lgan. U Kichik Osiyo shaharlarida ilmiy ishlar va o'qitish bilan shug'ullangan. Aristotel biologiya bilan shug'ullanar edi. U organizmga biologik, genetik yondashdi va tabiatni psixik tomondan tu-

shundi. Aristotel «qalb» haqida shunday fikrga keldi: qalb tirik jonzotlarning boshlanishi, tanani hayotga tayyorligini belgilaydi. Uning talqini bo'yicha «qalbni tanadan ajratib bo'lmaydi». «Qalb – bu to'liq ishlovchi organizmdir». Aristotel «Qalb haqida», «Hayvonlar qismi haqida» asarlarida va kichik psixologik insholarda «xotira haqida», «tush ko'rish haqida» o'zining psixologik tushunchalarini yozib ko'rsatdi. Uning fikricha, ruh hayot tamoyili sifatida birinchi o'rinda turadi. Ruh orqali boshqariladigan organik hodisalar, noorganik dunyoga qarama-qarshi qo'yilardi. Boshqa qutbda esa qaysiki hodisalar ulkan qobiliyat, ya'ni idrok, aqlga qarama-qarshi qo'yilgan edi. Bu ikki yo'nalishning birligini tiklash uchun Aristotel izdoshlari kurashishdi. Bu izlanishlar qadimgi Rimda falsafiy-psixologik ta'limotlarda katta ishlar qilinishiga sabab bo'ldi. Eng katta yutuqlardan biri psixologik hodisalarni tushuntirishda Aristotel biopsixologiyasi katta yutuqqa egadir, qaysiki u o'zida uchta yo'nalishni birlashtirdi: Geraklit, Demokrit, Anaksagor. Aristotel jonli tabiatni organizmning turli darajada rivojlanishiga o'xshatdi. Demokritning shogirdi, izdoshi Epikur Demokritga tushuncha, qalbni, umumbiologik hodisadan psixologik hodisalarni bir-biridan ajratib berdi. Qalb 4 elementdan tashkil topgan. Ularning har birining o'z vazifasi bor:

Olov – issiqlik manbayi; Bug'lanish – harakat; Shamol – sovuqqonlik; Nomsiz element – qalb.

Bular hammasi psixologik faoliyatni namoyon qiladi. Epikurning shogirdi Lukretsiy nomsiz materiyani nomlash uchun termin topdi. Bu – ruh qalbdan farq qiladi. Bu tushunchani Lukretsiy «Ayollar tabiati haqida» asarida harakat turini, farqini bir butun «atomli» dunyoda tushuntirib berdi. «Qalb» Lukretsiy ta'rifi bo'yicha: aktiv faoliyatli tanani o'ziga bo'ysundira oladi, bundan idrok kelib chiqadi.

Keyingi qadamlardan biri bu «ong» tushunchasining kelib chiqishi. Rimlik vrach Galen ong tushunchasini har tomonlama tushuntirib berishga harakat qildi. Nerv-psixologik faoliyatning analizida bizga tanish «pnevma» bo'ladi. Stoiklar (ta'sirida tarbiyalangan Galen) pnevmani 2 ga ajratishar edi.

«Psixik» va «o'suvchi» sezgi organlariga ta'sir organidagi «psixologik pnevma» holatini o'zgartiradi, lekin bu shaxsni o'z-o'ziga hisob berishiga kamlik qiladi. Qalb yuqoriga xudoga yoki pastga material dunyoga yo'nalmaydi, balki o'ziga-o'zi, o'z qobiliyat faoliyatini qabul qiladi deb ta'kidlagan edi Platon.

Avgustin fikri ham Platon fikriga yaqin turadi. Uning fikricha, qalbni mustaqil harakati tanadan tashqari, lekin uning quroli sifatida qo'llanilishi psixik tana bo'lishidir. Qadimgi vaqtda qalb haqida bir necha katta izlanishlar bo'ldi. Qalb – bu olov, havo raqam harakatlanuvchi. Qalb deganda inson yashash uchun kerakli narsalar emas, balki butun tirikchilik, hayot tushuntirilgan. Hozirgi zamon tili bilan gapirganda psixologiya fizikaning bir qismi, deb tushunilgan. Insonning fazo bilan uzluksiz bog'liqligi quyidagi tushunchani aniqlar edi.

Psixika-ong-idrok. Xotira zehn emas, bu estaliklar xolos, balki qalbni oldingi o'zining harakatlarini eslashdir. Lekin qalb bajargan harakatlarni eslashga ega emas. Qalbgga hozir bajari-ladigan vazifalar, sezish va intellektual harakatlar ham xosdir. Shu bilan birga Platonning fikricha, afsonalar biz uchun qimmatlidir.

«Psixologiya fan sifatida ruh haqidagi ta'limotdan boshlanishi kerak edi. Ruh haqidagi ta'limot odamzot tomonidan ilgari surilgan birinchi ilmiy gepoteza»dir deb yozadi L.S.Vigotskiy. Anita – ruh haqidagi qarashlar ibtidoiy jamoa davridayoq mavjud bo'lgan bo'lsada, bu davrda tabiat va inson haqidagi tasavvurlar tub burilishga uchrab, antik olamda dastlabki ruh haqidagi ilmiy farazlar paydo bo'la boshlaydi. Ilmiy psixologiya va undagi barcha muammolarning boshi shu yerdadir.

«Qaysi yo'llar bilan bormagin, baribir ruhning chegarasiga borolmaysan» degan aforizm bilan efeslik Geraklit (er. av. 530–470) individual ruh va koinot birligi g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra barcha narsa asosida olov yotarkan. Organizmdagi olov uchquni psixologiyadagi – ruhdur. U «olovli va nam» holatda bo'ladi va mast odam qayerga ketayotganini bilmaydi, chunki uning psixikasi namdir», – deb yozadi Geraklit. Uning ta'kidlashicha, ruh namning umu-

miy logos qonunlari bilan belgilanadi. Bu fikr bilan Geraklit barcha psixik hodisalar moddiy dunyo qonunlariga bo'ysunishini ta'kidlamochi bo'ladi. Determinizm tamoyilini juda sodda ko'rinishda ta'riflamochi bo'ladi. Lekin uning g'oyalari psixik hayotning hamma eshiklarni ochishga kalit bo'la olmas edi. Geraklit o'zidan oldin o'tgan millet maktabi faylasuflari Fales, Anaksimandr, Anaksimennarning ruh bo'linmasligi to'g'risidagi fikrlarining izdoshi hisoblanadi.

Geraklitdagi ruh uchqunlari keyinchalik Demokrit (er.av. 400–370)ning ta'limotida «olovli atomlarga» aylandi. Demokrit va uning ustoz Levkipp (er.av. 500–440) atomik materializm nazariyasini ilgari surdilar. Unga ko'ra barcha narsalar 2 ta asosdan – bo'linmas harakatchan, sharsimon va yengil atomlardan hamda bo'shliqlardan paydo bo'ladi. Bu atomning eng harakatchanlari, ya'ni olov atomlari ruhni hosil qiladi. Yana bir grek mutafakkiri Anaksagor (er.av. 500–428)ning barcha narsalar gameomeriy nomli mayda moddalardan tashkil topganligi va ularning aql bilan, ya'ni ruh bilan boshqarilishi to'g'risidagi fikri ham Demokritning atomik qarashlariga o'xshaydi. Sochilib ketishidan iborat fizik qonunni tana uchun ham taalluqli deb hisoblab, Demokrit ruhning abadiylikini inkor etadi. Demokrit ruhning tana harakatining sababi deb biladi. Uning yozishicha, ruh og'ir tanaga kirib harakatga keltiradi. Tana o'lgandan keyin esa u fazoda tarqalib ketadi. Biz nafas olganimizda ruhni tashkil etuvchi atomlarni yutib nafas chiqarganda ruhimizning bir qismini tashqariga chiqarib yuboramiz. Shu tariqa ruhimiz doimo yengillashib turadi, deb hisoblaydi Demokrit. Uning fikricha hamma narsaning hatto, o'likning ham ruhi bor, faqat juda kam. Demokritning bunday fikri panpsixizmga yaqinlashib qoladi. Tanadan tashqari ruh bo'lishi mumkin emas, degan umumiy hukm chiqardi. U nafaqat tana va ruh birligi, balki ruhning o'zi tana ekanligini ta'kidlaydi. «Agar ruh tanani harakatlantirsa, demak uning o'zi tana qismi» deb yozadi. Demokrit, Epikur, Lukretsiy kabilar Demokrit ruh haqidagi tasavvurlarning rivojlanishini davom ettirdilar. Lekin Epikurga ko'ra ruh atomlardan emas,

o'zgarimas 4 elementlardan: olov — issiqlik asosi, bug' — harakat asosi, shamol — sovish, nomsiz 4-element — ruhdan iborat. Epikurning nomsiz elementini Lukretsiy «A» deb atadi. Shuningdek, Epikurning fikricha faqat sezish xususiyatiga ega narsalardagina ruh bo'ladi.

Qadimgi Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishi

Eramizgacha bir necha ming yillar oldin Sharqda Misr, Hindiston, Xitoy kabi buyuk sivilizatsiyalar paydo bo'ldi va aynan shu yerlarda boshlangan g'oyalar taraqqiyoti, hozirgi zamon ilmiy tizimining shakllanishiga olib keldi. Aynan shu mamlakatlarda jonning o'lmasligi, vujudni tashlab xohlagan tomonga yo'l olishi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keldi.

Dastavval vujudga kelgan ruh haqidagi tasavvurlardan biri tirik vujud tashqi muhitga bog'liqdir, jonning faoliyati esa o'z navbatida vujudning hayoti bilan bog'liq, degan tasavvurlar edi. Eramizgacha IV mingyillikning oxirida Misrda yaratilgan «Memfis teologiyasi yodgorliklari»da psixik faoliyat mexanizmlari quyidagicha tasvirlanadi: butun dunyoning yaratuvchisi xudo Ptax odamlar nimani o'ylashmasin va nimani so'zlashmasin, ularning yuraklari va tillarini U idora qiladi. Lekin U bunday boshqarishni vujudagi organlar tizimi orqali amalga oshiradi. Sezgi organlarining ahamiyati shuki, «Xudolar ko'zning ko'rishini, quloqning eshitishini, burunning nafas olishini yurakka xabar yuborishlari uchun yaratishgan». Yurak esa ongning har qanday turini paydo qiladi. Boshqacha aytganda, aynan shu davrdan boshlab ongli faoliyatning markazi yurak degan dastlabki tasavvurlar paydo bo'la boshladi.

Xitoy tibbiyotining manbayi hisoblanadigan «Ichki a'zolar haqida» deb nomlanuvchi kitobda aytiladiki, vujudning hokimi mutlaqi yurak bo'lib, hayot faoliyatini, shuningdek, psixik faoliyatni ham ta'minlovchi quvvat havosimon birikma SI hisoblanadi. SI insonga o'ylash qobiliyatini va hissiyotni ato qiladi. O'ylash yurak funksiyasi, hissiyot esa jigarda joylashgandir.

Hind va Xitoy tabiblari temperamentni uchta asosga ko'ra farqlaganlar: havosimon birikma (pnevma yoki SI), safro va shilliq modda. Xitoy tibbiyotida shunga ko'ra uchta tipdagi odamlarni ajratishgan:

1. Safro yoki qoni ko'p odamlar — kuchli va yo'lbarsdek jasur.

2. SI ko'p odamlar — harakatchan, tez yig'lab, tez kuladigan o'zini tuta olmaydigan, xulq chegarasi bo'yicha maymunga o'xshaydigan.

3. Shilliq moddasi ko'p odamlar — kam harakatli, jur'atsiz.

Hindiston va Xitoyda falsafiy yo'nalishlar eramizgacha birinchi mingyillikning o'rtalarida paydo bo'la boshlagan.

Hindiston uchun falsafiy fikrlarning asosi sifatida Vedalar xizmat qilgan. Vedalarda jon muammosi birinchi navbatda axloq nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Insonning o'z-o'zini kamolotga yetkazib, to'g'ri xulq orqali komillikka yetishishi jon muammosining asosiy mag'zini tashkil qiladi. Jonning ko'chishi haqida Vedalarda atroflicha fikr yuritiladi.

Hindistonda Jaynizm va Buddizm kabi diniy ta'limotlar shu yo'sinda shakllangan. Jaynizm vujudni jon erksizligining manbasi deb bilsa, Buddizm jonni alohida mavjudlik deb tan olmaydi. Ularning ta'limotiga ko'ra psixik holat bu bir-birini takrorlamaydigan daqiqalar oqimi, bir-birini almashtiruvchi holatlardan iboratdir. Keyinchalik paydo bo'lgan Sankxaya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Vaysheshika kabi falsafiy maktablarda ham jonni o'rganish asosan metafizik — axloqiy masalalarga bog'lanadi.

Vedanta ta'limoti bo'yicha «men» alohida intuitiv ongdir, unda obyekt va subyekt yo'q, u cheksiz fazoviy ong, dunyoning asosidir.

Yoga maktabi esa ilohiyot bilan bevosita muloqotda bo'lish uchun psixik faoliyatning hamma shakllaridan foydalanish kerak, deb ta'lim beradi. Yoga ichki psixik aktlarni va vujud funksiyasi (vujudning fazodagi holati, nafas va boshqalarni) boshqarishni o'z ichiga oluvchi usullar tizimini ishlab chiqdi.

Psixik faoliyatni talqin qilishdagi axloqiy yo'nalish Xitoy falsafiy maktablari: daosizm asoschisi Lao-Szi va konfutsiychi-

lik asoschisi Konfutsiy (eramizgacha 451–479-y.) maktablarida ham yaqqol ko‘rinadi.

Daosizm inson o‘z xulq-atvorini dao postulatlarini asosida ko‘rishi kerak, deb ta‘lim bersa, konfutsiychilik – urf-odat, an‘ana, axloqiy tushunchalarga e‘tibor beradi. Konfutsiy birinchi marta inson psixologiyasidagi tug‘ma va o‘zlashtirilgan xususiyatlar muammosini ko‘tardi. Uning fikricha, bilim va psixik sifatlar tug‘ma bo‘ladi. Inson o‘z tabiatiga ko‘ra mehr-shafqatli bo‘ladi, uni tashqi muhit buzadi. Demak, muhitning zararli ta‘sirini yo‘qotish uchun inson fikrini jamlashi, o‘z-o‘zini takomillashtirishi kerak. Shu fikrni Konfutsiyning izdoshi Min-Szi (eramizgacha 372–289-y.) ham himoya qilgan. Lekin keyinchalik boshqa shu yo‘nalish vakili Sun-Szi (eramizgacha 298–238-y.) kamtarlik mehr-shafqatlilik kabi ijobiy axloqiy sifatlarning tug‘maligini rad etib, inson o‘z tabiatiga ko‘ra shafqatsiz, faqat tarbiyagina uni mehr-shafqatli qila oladi, deydi. Uning fikricha, agar inson tabiatan xushfe‘l bo‘lsa, unda tarbiyaning nima keragi bor? Sun Szi inson xarakteri kulol loydan yasagan ko‘zaga o‘xshaydi, deb ta‘kidlagan.

Axloqiy masalalardan tashqari Hind va Xitoy falsafiy ta‘limotlarida bilish faoliyati haqida ham e‘tiborga sazovor fikrlar shakllangan.

Hind falsafiy adabiyotida idrokning noaniq va aniq turlari ajratiladi. Birinchisi predmetning organga bevosita tegishi natijasida yuzaga keladigan sensor-idrok bo‘lsa, ikkinchisi so‘zda ifodalangan, bo‘laklarga bo‘lingan idrokdir.

Buddistlar aniq idrok aql ta‘siri bilan buzilganligi, substansiya, tur kategoriyalariga amaliy maqsad ko‘zlab kiritilganligi tufayli ham endi idrok bo‘lmay qoladi, deb hisoblashgan.

Hind psixologik ta‘limotlarida idrok illuziyasi, gallutsinatsiyalar, tush ko‘rish, shuningdek, yuqori sezuvchi idrok masalalari alohida o‘rin egallagan. Mimansa maktabining vakili Bxatta ta‘limoticha, obraz realligi va illuziyasi tashqi obyekt bilan sezgi organi o‘rtasidagi munosabatlar xarakteridan kelib chiqadi. Agar munosabat buzilsa illuziya paydo bo‘ladi. Buzilish periferik (sezgi organida) bo‘lsa illuziya

markaziy bo'lsa gallutsinatsiya paydo bo'ladi. Tush esa ong ostidagi xotiralarning jonlanishidir.

Idealizm (fr. idealisme) – idealizm: falsafaning bosh masalasi – ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama-qarshi o'laroq ong, ruh birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, ong sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir, deb da'vo qiluvchi falsafiy oqim.

Idealistlar materialistlarga qarama-qarshi o'laroq, psixika tan bilan yashirin yo'sinda birlashgan, inson o'lgach, tanani tashlab «narigi dunyoga», g'oyalar dunyosiga ketib, u yerda abadiy yashaydigan moddiy bo'lmagan qandaydir ilohiy substansiya yoki mohiyatning namoyon bo'lishidir, deb tushunadilar.

Materializm (lot. materialis – moddiy) falsafasidagi ikki asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'laroq, birdan bir ilmiy, tarixan progressiv dunyoqarashdir. Falsafa tafakkurning borliqqa munosabati haqidagi bosh masalasini hal qilishda materializm dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddiydir, materiya, tabiat, borliq, inson ongidan tashqari unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir, materiya birlamchi hamda sezgilarning manbayidir, ong esa ikkilamchi, hosila narsadir, dunyoni va uning qonuniyatlarini to'liq bilish mumkin, deb ta'lim beradi.

Materializm falsafiy oqim sifatida eramizdan bir qancha asrlar avval qadimgi Hindiston, Xitoy va Gretsiyada paydo bo'lgan.

Eramizdan avvalgi bir necha ming yillar ilgari Sharqda qadim sivilizatsiyalar – Misr, Hindiston, Xitoy sivilizatsiyasi tarkib topgan. Ulardagi g'oyalar asosida zamonaviy fanlar rivojlanadi.

Miloddan avvalgi bir necha mingyillikning o'rtalarida Hindiston va Xitoyda ikkinchi mingyillikda paydo bo'lgan «Veda» matnlariga asoslanadi. Vedalarning yakuni sifatida keyinchalik er.av. birinchi mingyillikda Upanishadalar paydo bo'lgan. Ularda ruh muammosi ko'proq etnik muammo sifatida shaxsni yetuklikka erishishining nuqtayi nazaridan tah-

lil qilindi va qabul qilingan umumiy g'oyalar, ya'ni ruhning uchib yurishi uning abadiyligi ushbu manbalarda o'z aksini topgan. Shu asosda er.avvalgi 3-asrda jaynizm va buddizm dini ta'limotining mazmuni shakllandi, hamda ruhijy hodisalarning tana bilan bo'lgan munosabatiga doir o'z qarashlarini ifoda etdi. Jaynizm tana ruh erkinligining sababchisi deb ta'riflangan bo'lsa, buddizm umuman ruhning alohidaligini inkor etgan. Keyinchalik paydo bo'lgan Sanya Vedanta, Yoga, Mimansa falsafa maktablari ham ruhni o'rganishga metafizik etik tomondan yondashdilar. Vedantada Upanishadadagi idealistik g'oyalar ilgari surildi. Ularda Ataman va Braxman haqida fikr yuritildi. Bu fikrga ko'ra ruh doim tananing intilishlari va hissiy kechinmalari ortida yashiringan bo'ladi. Qat'iy intizom orqali ruh bulardan xalos bo'lib, abadiy Braxman darajasiga yetadi. Yoga ta'limotida esa haqiqiy yuksaklikka erishish uchun psixik faoliyatga to'sqinlik qilayotgan tomonlarni bartaraf qilish kerak bo'ladi, deyiladi. Buning uchun yogalar maxsus 8 olamni: avval tana harakatlarini (nafas olish gavda harakatlari, keyin psixik aktlar) diqqat tafakkurini boshqarish uslublarini ishlab chiqqan. Yogalar tomonidan ishlab chiqilgan sezgi chegaralarida narsalarni idrok etish, ko'rish, gallutsinatsiya, idrok illuziyasi hindlarning psixologik ta'limotida katta o'rin egallagan.

7.2. O'rta asrlarda psixologiyaning umumiy tavsifi.

V–XI asrlarda Yevropada psixologik bilimlarning rivojlanishi

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarda Sharqda ham, G'arbda ham hukmron bo'lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki ratsionalistik psixologiya deb nom oladi.

Psixologiya shuning uchun ham metafizik deb ataladi, uning tekshirish predmeti bo'lgan – ruh psixik jarayonlar – fizik hissiy dunyo chegarasidan tashqarida mavjud mohiyat, g'ayri jismoniy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham ratsionalistik deb ataladi, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq mulohazadan iborat edi.

Oʻrta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati haqidagi, uning kuchi, qobiliyatlari va kelib chiqishi haqidagi, uning tana oʻlgandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga boʻlgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi.

Ruhning mohiyati haqidagi masala, odatda, Platon va Aristotellarda qanday hal qilingan boʻlsa, xuddi shunday hal qilinardi. Ruh oʻz tabiatiga koʻra barcha moddiy va jismoniy narsalarga qarama-qarshi qoʻyilar edi. Ruh oʻz tabiatiga koʻra alohida qobiliyatlarga egadir, deb fikr yuritilardi.

Shuningdek, oʻrta asr mutafakkirlari iroda masalasiga ham alohida eʼtibor berdilar.

Masalan, Avgustin Ipponskiy (353–430.) birinchi boʻlib kishining boshqa ruhiy qobiliyatlari orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Duns Skott (1265–1308.)ning taʼlimoti juda yaqqoldir. Uning aytishicha, iroda aqldan ham yuqori turadi.

Butun oʻrta asr tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtlarda ham, falsafa va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta oʻrin egalladi. Bu masala boʻyicha V asrdayoq ikkita oqim — determinizm va indeterminizm paydo boʻlgan.

Deterministlar (lot. *determinare* — belgilamoq) inson irodasi dunyodagi hamma narsalar singari sababiyat qonuniga boʻysunadi, binobarin, insonning barcha irodaviy harakatlari ham erkin emas, balki zaruriyat bilan, oʻz sabablari bilan belgilanadi, deb taʼlim beradilar.

Indeterministlar aksincha, inson irodasi va uning xatti-harakatlari har qanday sababiyatdan xoli hamda zaruriyatga bogʻliq emas, deb taʼlim beradilar. Indeterminizm sof idealistik taʼlimot edi. Determinizmda esa idealistik tendensiyalar ifodalangan edi.

Umumiy va mavhum tushunchalar haqidagi masala ham iroda erkinligi haqidagi masaladan kam tortishuvlarga sababchi boʻlmaydi. Bunda ikki oqim — realistlar bilan nominalistlar oʻrtasida tortishuv ketadi.

Realistlar – umumiy tushunchalar («universallilar» o‘sha vaqtda shunday deb atashardi) real, obyektiv holda mavjuddir va inson aqlida yakka narsalarga bog‘liq bo‘lmagan holda aks etadi, deb da’vo qildilar. Shunday qilib, realistlar faqat Platonning narigi dunyo ideya (g‘oya)lar dunyosi haqidagi, har bir kishi aqlidagi bu g‘oyalarning tug‘ma ekanligi haqidagi ta’limotini takrorladilar, xolos.

Anzelm Kenterbenskiy (1033–1109) va Shampolik Vilgelm (1121–1170)lar realizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari edi.

Nominalistlar (lot. nominale – nom, ot) umumiy tushunchalarni faqat predmetlarning nomlaridir, deb hisoblaydilar. Realistlarga qarama-qarshi o‘laroq, nominalistlar faqat individual sifatlarga ega bo‘lgan alohida-alohida narsalargina real mavjuddir, deb da’vo qilganlar. Umumiy tushunchalar esa faqat biz butunlikka kiradigan predmetlarning hammasiga tatbiq qilinadigan so‘zlardir. Nominalistlarning ta’limotlarida ba’zi bir o‘rta asr mutafakkirlarining materialistik tendensiyalarida ham ifodalangan. Nominalizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari I.Rostselin (1050–1125), Duns Skott (1265–1308), Vilyam Okkam (1200–1349)lar edilar.

Ayrim psixik jarayonlarni tushuntirishda ham ba’zi bir psixologlarda materialistik element va tendensiyalar namoyon bo‘ldi. Masalan, O‘rta Osiyolik shifokor va faylasuf Ibn Sino (980–1037) va arab mutafakkiri Ibn Rashid (1125–1198)lar Aristotelga ergashib, «sezuvchi ruhning harakatlanuvchi va jozibador kuchlarini» o‘rganish uchun harakat qildilar. Ular sezgilarni keltirib chiqargan qo‘zg‘ovchilardan farq qilish zarurligi haqidagi masalani qo‘yadilar, ong faoliyati bilan fiziologik jarayonlar o‘rtasida yaqin aloqa va bog‘lanishlar o‘rnatishga intiladilar.

Qadimgi Rossiyada kitob madaniyati boshlanishi bilan (X–XI asrlarda) psixologiya sohasida G‘arb va Sharq mutafakkirlarida qanday tarkib topgan bo‘lsa, xuddi o‘sha holda fikr va bilimlar tarqala boshlaydi.

Bu bilimlarning eng muhim manbayi Vizantiya mutafakkirlari Iogann Damaskinning (673–777) grek tilidan slavyan ti-

liga tarjima qilingan «Dialektika» va «Haqiqiy imon haqida» nomli asarlari edi.

I. Damaskin ta'limotiga ko'ra, ruh alohida ilohiy substansiya yadir. U so'z, aql-idrok hamda erkin irodaga ega bo'lgan g'ayri jismoniy, oddiy, tirik va abadiy mohiyatdir. Ayni vaqtda ruh inson tanasi bilan birikib bitta mavjudotni tashkil qiladi. Uni insonning o'sish va ko'payish kabi funksiyalaridan ajratish mumkin emas. Ruh tana organlaridan o'z qurollari sifatida foydalanadi va xulq hamda xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Damaskin ruh tanaga bog'liq: masalan, u biologik o'sishga va boshqa tashqi sabablarga qarab o'zgaradi, deb ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning psixologik qarashlari. Abu Nasr Forobiy Yaqin va O'rta Sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan biri bo'lib, «Sharq Aristoteli» degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur mutafakkir. Forobiy (873–950) dunyoqarashining asosi, ya'ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini «panteistik» degan fikr tashkil etadi. Mavjudot yagona boshlang'ichdan pog'onama-pog'ona vujudga kelgan, yakkalikdan ko'plikka, rang-baranglikka borgan. Uning dunyoqarashidagi asosiy maqsadlardan biri ilmiy-falsafiy usulning mustaqilligini nazariy jihatdan asoslab berishga, uning inson tafakkuriga, aqliy bilimiga asoslanganligini isbotlashga intilishdir.

Forobiy bilishning ikki shakli bosqichini — hissiy va xayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to'xtalib, besh turga bo'ladi.

Forobiy sezgini bilishning manbayi deb hisoblagan, uning qarashlari Aristotelning «sezmagani odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham» degan qarashlariga o'xshab ketadi.

Forobiy inson (ruh) jonining bir tandan boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual «substansiyasining birligi» sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo'lgan.

Forobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta'limoti o'rta asrlar falsafasining katta yutu'gi edi.

Al-Xorazmiyning psixologik qarashlari. Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy dunyoqarashining muhim tomoni, uning keng bilimi, ilmning ko'p jabhalari masalalarini tushunishga obyektiv yondashishga qaratilgan. Xususan, uning tib, odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohasidagi bilimi hissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. «Shaxsiy ruh — u miyada bo'lib, undan badan a'zolariga asab orqali tarqaladi» deydi. O'rta asr Sharq peripatetiklari uchun aql bilimning yana bir manbayidir. Ular aqlni ikki turga — tug'ma va orttirilgan aqlga ajratishadi. Xorazmiy aqlni odam nafslarining kuchlaridan biri deb hisoblaydi.

Umuman olganda, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning psixologik falsafiy qarashlari o'z davri ilmiy dunyoqarashining rivojiga katta hissa qo'shgan.

VIII asrda islomda turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bulardan mutakallimlar, ularning psixik ta'limotiga ko'ra hissiy bilishning ahamiyatini, bilimlarimizning voqelikka muvofiq kelishini inkor etishdir. Ular nimaiki o'zlari uchun nomaqbul bo'lsa (hissiy bilish bilan bog'liq bo'lgan sezgi ma'lumotlari va bilimni inkor etish yordamida) hammasini inkor etadilar va ularga nimaiki tasdiqlash lozim bo'lsa, hamma tasavvur qilish mumkin bo'lgan narsaga yo'l qo'yish yordamida hammasiga yo'l qo'yish mumkin deb hisoblaydilar.

So'fizm ta'limotida butun odam xudoning mujassamlanishidan boshqa narsa emas. Xudo hamma ko'rinadigan narsalarda mavjud. Narsalar esa o'z navbatida xudoda mavjud. Dunyo — ruh shaklida butun olamga tarqalgan xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, ertami-kechmi u bilan qo'shiladi. Bu qo'shilish xudoga yaqinlashishning asosiy bosqichi — shariat, taraqqiyot, ma'rifat va haqiqat olib keladi. So'fizmga ko'ra xudo bilan qo'shilishning o'zi — eng oliy rohat. So'fizm xudoga aql yordamida ishonish emas,

balki unga ichki hissiyot orqali yaqinlashishga katta e'tibor beradi.

7.3. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm

Fransiyada eng avvalo Volter (1694–1778) va Kondelyak (1715–1780) tajribali bilimlar metafizika va sxolastikaning o'tkir tanqidchilari tomonidan fikr yuritilgan. Kondelyak o'zining «His qilish haqidagi traktat»ida (1754) o'z oldiga har xil hal qilingan shu vazifani qo'ydi, u sezgilar bilishga sof qobiliyatning dastlab boshqa narsani o'z ichiga olmaydigan haykal modelini taklif qildi. Haykal birinchi bo'lib his qilishni oladi. Bir hid boshqasi bilan almashadi va bu hamma narsani bilishga yetarli bo'ladi. Dekart o'zining qalb aktlarida tug'ilgan g'oyalar hisobiga munosabatda bo'ldi, Lokk esa refleksiya hisobiga, kuchli va kutilmagan his qilish diqqatni paydo qiladi: bu his qilish yana takrorlansa, bizning oldimizda xotira paydo bo'ladi. Ikki his qilish solishtirish, farq, muhokama va shu kabi intellektning murakkab harakatigacha bo'lgan yaqinlikni beradi. Har bir his qilish sezish toniga ega. U yoqimli va yoqimsiz bo'ladi. Ijobiy va salbiy yo'nalishdagi iroda impulsi paydo bo'ladi.

Kondelyak haykali Dekartning jonli mashinasidan shuni bilan farq qilardiki, uning tanasi psixik yo'nalishlari uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Kondelyak sensualizmi fenomenalistik xarakter kasb etdi. Fransiyaning jamoatchilik hayoti sekin-asta materialistik dunyoqarashning eski tartiblarini buzishga yo'naltirilgan xulosalarni talab qildi.

Fransuz vrachi Lametri (1709–1751) sensualizmni Dekartning jonli tanani mashina shaklidagi xulqi haqidagi ta'liloti bilan birlashtirdi. U tasdiqladiki, ikki substansiyani Dekart tomonidan bo'linish teologlari aldash uchun o'ylab topilgan «stilistik ayyorlik» ekanligini jon haqiqatan ham mavjud, faqat uni tanadan ajratish mumkin emas, tana qanchalik mashina bo'lsa, u holda odam ham uni jonli qobiliyatlari bilan bir butunlikda his etadigan, fikrlaydigan, huzur-halovatga intiladi-

gan qurilmadir. Mashina soʻzi ostida moddiy determinatsiya koʻrinishdagi tizim koʻzda tutilgan.

1748-yil Londonda ingliz olimi Sharkaning «Odam-mashina» deb nomlangan va oʻz nomi bilan chaqiriq sifatida yangragan traktati bosmadan chiqdi. Bu narsa goʻyo kitoblar atrofida boʻron koʻtardi. Lametri traktati Fransuz falsafiy-psixologik fikrlarni rivojlantirishga jangovar materializmga aylanma buri-lish namoyish etdi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik qarashlarning paydo boʻlishi tarixini tushuntirib bering.

2. Qadimgi Hindiston va Xitoydagi psixologik fikrlarni izohlang.

3. Aristotel asarlaridagi psixologik qarashlar qanday yoritilgan?

4. Gippokratning temperament haqidagi taʼlimotini tushuntirib bering.

5. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm.

6. Abu Nasr Forobiyning psixologik qarashlari.

7. Al-Xorazmiyning psixologik qarashlari.

VIII bob. XVIII–XIX ASRLARDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: Nerv mashinasi, nevrologik amaliyot, determinatsion ruh, fiziologik tizim, iroda impulsi, assotsiatsiya, skeptizm, klassik idealizm, psixodinamika.

8.1. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif. Fransuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi

Kishi ongiga muqarrar ravishda his-tuyg'ular olami kirib keladi. Unda murakkab obyektiv eng avvalo odamni o'zi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar o'z aksini topadi. Bu o'rinda ham (jalb etilgan ijtimoiy) boshqa ko'pgina hollarda bo'lgani kabi patologiya normal ongning mohiyatini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuyg'ular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi: bemor bunga qadar behad sevgan onasini suymaydigan bo'lib qoladi, yaqin kishilari to'g'risida zarda bilan gapiradi va hokazo. Ongning yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi va namoyon bo'lishining muqarrar sharti til hisoblanaadi. Nutq faoliyati jarayonida odam bilimlar hosil qiladi, kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan, tilda mustahkamlab, unga yetkazgan inson tafakkuri boyliklari bilan o'z hayotini boyitadi. A.I.Gertsen shunday deb yozgan edi: «Har bir kishi ildizlari sol bo'lmasa odam ato zamonlariga borib yetadigan dahshatli shajaraga tayanadi: sohil bo'yidagi to'lqin kabi orqamizda butun boshli okean – butun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi; shu daqiqada bizning miyamizda barcha asrlarning g'oyalari... Til alohida obyektiv tizim, unda ijtimoiy tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Konkret odam tomonidan o'zlashtirilar ekan, til ma'lum bir ma'noda uning real ongi bo'lib qoladi. Til – amaliy, haqiqiy ongdir, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan va xuddi shu tufayli men uchun ham mavjud bo'lgan ongdir...». Ong tushunchasi psixologiyada, psixiatriyada va boshqa shu kabi fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta'riflariga mos keladigan ma'no-

da ishlatiladi. Psixiatrlarni bemorda ongi buzilganligi masalasi doimo qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o'z-o'ziga qayerdaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi to'g'risida o'z shaxsiy holati ham harakatlari haqida hisob berish imkoniyatlarni tushunadilar. Ongi yaxshi saqlanib qolgan odam miyaga kelayotgan yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitdan alohida ajratib, boshqa odamlarga va faoliyat vaziyatga nisbatan tarkib topgan munosabatlar tizimini saqlab qoladi hamda ana shu barcha ma'lumotlar asosida o'z xatti-harakatini idora qiladi. Ong ijtimoiy ma'sul bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Hayvonlarda esa ong bo'lmaydi.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir. Ongsizlik — kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan taassurotlar bilan bog'liq psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi, xatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish), sezilmaydigan, lekin haqiqatda ham ta'sir ko'rsatadigan qo'zg'atuvchilarga javob reaksiyalari — oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanmaydigan bo'lib qolgan harakatlar, faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissini anglamaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni anglash, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shish mumkin. Shularga asoslanib ongsizlikni ongga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar edi. Ongsizlik — bu kishining xuddi onglilik kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmagan qismlar aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgandir.

XVII asr psixologlar ko'z o'ngida psixikaga bo'lgan qarashlarning tubdan o'zgarishi davri sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrni «fanlar malikasi» bo'lib hisoblangan mexanika ta'sirida paydo bo'lgan konsepsiyalar ochib berdi. XVII asrga oid psixologik fikrlarning o'ziga xos tomonlari talqinda ochiq namoyon bo'ladi:

a) tushuntirish uchun hech qanday ruhga muhtoj bo'lmagan tana – mexanik tizim haqidagi ta'limot;

b) ichki kuzatish orqali o'z psixik holati haqida hamma narsani bilish mumkin bo'lgan individning ongi haqidagi ta'limot;

d) inson faoliyatini unga foydali narsalar tomon yo'naltiruvchi yoki zararli narsalardan qaytaruvchi e'tiroslar (affektlar) haqidagi ta'limot;

e) fiziologik va psixologik tomonlar o'rtasidagi munosabati haqidagi ta'limot.

Bu ta'limotlarning asosida fanning ulug' zahmatkashlari Rene Dekart (1598–1660), Benedit Spinoza (1632–1677), Tomas Gobbs (1588–1679), Djon Lokk (1632–1704), Gomfrits Leybnits (1646–1716) kabilar turar edi.

Fransuz matematigi, tabiatshunos va faylasufi Dekartning ismi bilan psixologiya tarixidagi g'oyat muhim bosqich bog'langan. Aynan u o'zining ong haqidagi ta'limoti bilan Aristotelning ruh haqidagi ta'limotidan psixika to'g'risidagi tushunchalarning ajralib chiqishi uchun asos yaratdi. U avtomat kabi mexanik ishlovchi organizm modelini tanlaydi va u bilan o'sha kunlarga ruh bilan boshqariluvchi bo'lib hisoblangan tirik tanani uning ta'siridan «xalos etdi». Shu davrda Garvey tomonidan qon aylanishining kashf qilinishi «organizm mexanik mashina» degan fikrni rivojlantirdi. Unda yurak qon o'tkazuvchi nasos bo'lib hisoblanadi va bu jarayonda ruhning hech qanday funksiyasi yo'q deb ta'lim berildi. Dekartgacha barcha faoliyat jarayonlari yerdagi hayot tashqarisidan energiya oluvchi maxsus agent ruh bilan boshqariladi, deb hisoblab kelindi. Ammo Dekartdan boshlab, tana mexanika qonunlariga asosan tuzilgan avtotizimdir, undagi organlarning ishlashi ham, tananing faoliyati ham, boshqa tanalar

bilan aloqasi ham ruhga muhtoj emas, deb ta'kidlandi. Lekin bu bilan ruh «ishsiz» bo'lib qoldimi? Yo'q, Dekart ruhni hech narsaga bog'liq bo'lmagan oliy substansiyagacha ko'tardi. «Ruh ongning uzluksiz bo'lmagan hodisalari—fikrlaridan iborat» deb aytdi olim. Ruhning birdan bir asosiy belgisi uning fikrlashidir. Fikrlashdan to'xtash ruhning yo'q bo'lishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Dekartning tana va ruh substansiyalarini o'zaro taqqoslashi shunga olib keladiki, u tana o'z tabiatiga bo'linuvchi, ruh esa bo'linmas, shuning uchun u turli xil narsa degan xulosaga keldi. Dekart dualizmining ma'nosi shuki, tana va ruh mustaqil substansiyalardir. Ularning har qaysisi mavjud bo'lishi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj emas. «Ruh butunlay mening tanamdan ayri bo'lib, u tanamsiz ham mavjud bo'la oladi». «Bizdagi issiqlik va harakat fikrga bog'liq bo'lmagani uchun ular faqat tanamizga tegishlidir» deb yoza-di Dekart.

Buni Dekart ruhsiz tanalar ham, masalan, olov issiqlikka ega bo'lishi va harakatlanishi bilan isbotlashga harakat qiladi. Dekartning fikricha, hayotni ruh bilan bog'laganlar xato qiladilar. Negaki «o'lim hech qachon ruh tufayli sodir bo'lmaydi, balki tananing muhim qismidagi buzilishi tufayli ro'y beradi».

Dekartga ko'ra asoslarning asosi shubhalanishdir. Uning fikricha hamma tabiiy va g'ayritabiiy narsalardan shubhalanish kerak. Chunki shubhalanganda odam fikrlaydi. Bunda Dekartning mashhur aforizmi — men fikrlayapman, bundan chiqdi, mavjudman. O'zining asosiy fikrlarini Dekart «Aqlni boshqarish qoidalari», «Ruhlar e'tiroslari», «Odam haqida» nomli asarida bayon etdi.

Dekartning birinchi opponenti bo'lib gollandiyalik faylasuf Spinoza chiqdi. Gegelning fikricha, B.Spinoza Dekart falsafasidagi dualizmni olib tashladi. Unga ko'ra yagona va abadiy ajralmas xususiyatlarga ega bo'lgan substansiya — bu tabiat. Shuning uchun odamni substansiyalar uchrashadigan «joy» sifatida Spinoza inkor etadi. Odam bir butun moddiy va ruhiy mavjudot, deb biladi. Hech kim Spinozachalik Dekartning

dualizmi organizmga mashina singari munosabatda bo'lganini anglamagan. O'zining eng mashhur psixologik asari «Etika»-da faylasuf dastlab substansiyalar masalasida to'xtaladi. Shu yerdanoq uning qarashlari Dekartning qarashlaridan uzoqlashadi. Dekartdan farqli ravishda Spinoza monistik ta'limotni ilgari surdi. Substansiya deganda Spinoza bizdan tashqarida joylashgan tabiatni tushunadi. Bu substansiya o'z navbatida bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, inson ularning faqat ikkitasi – tana va fikrni bilgan. Shuning uchun ruh va tana bitta individualni, ya'ni fikrlaydigan tanani tashkil etgan. Alohida ruhiy substansiyaning borligini Spinoza inkor etadi, lekin materiya va tafakkur birligi muammosini oxirida ochib berolmadi. Substansiyalar ta'limoti asosida Spinoza insonning hissiy holatlari – affektlar masalasini yoritib berdi. O'zining affektlar haqidagi ta'limotida affektlarning paydo bo'lishi va ularning tabiati: odamlarning affektlarga qulligi va affektlarning kuchi; inson ozodligi va inson aqlining kuchi masalalari yuzasidan to'xtaldi. Affektlarni Spinoza tabiiy hodisa deb biladi. Affektlar orasidan Spinoza 3 tasini alohida ajratib ko'rsatadi: 1) xohlash; 2) qoniqish; 3) qoniqmaslik. Qolgan barcha emotsiyalar shulardan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi Spinoza. Spinoza affektlar butunlay inson irodasiga bog'liq va ularni to'liq boshqarish mumkin, degan fikrga qo'shilmaydi. Bu borada u affektlarni inson ustidan o'tkazadigan hukmronligi haqida fikr yuritadi. Barcha affektlar Spinozaning fikricha, insonni shunday holatga olib keladiki, bunda u o'z-o'zini boshqara olmaydi. Tasodiflarga qaram bo'lib, aniqlik ko'z oldida, noaniqlik tomon boradi, ozodlik esa affektlarga ergashishda emas, balki ularni aqlga bo'ysundirishdir. Spinoza psixologiyasi ongning psixologik obyekt sifatida shakllanishi yo'lidagi Dekartdan keyingi muhim qadam bo'ldi.

Empirik psixologiyaning «otasi» Gobbsning vatandoshi J.Lokk bo'lgan. Uning «Inson aqli haqidagi tajriba» asari psixologiyaning keyingi taraqqiyotiga kuchli ta'sir etdi. Lokkning maqsadi inson bilishining paydo bo'lishi va rivojlanishini tajribaviy o'rganishdan iborat edi. Bunda u «tug'ma g'oyalar»

g'oyasini inkor etib, bilimlarning manbayi individning hayotiy tajribasi deb biladi. Tajribaning o'zida esa Lokkning fikricha 2 manba bor: sezgi va refleksiya. Sezgi obyektidagi, tabiatdagi barcha moddiy narsalar bo'lib, ularning mahsuloti fikrlardir. Ya'ni «Biz sariq, oq yashil, issiq, sovuq, yumshoq, qattiq, shirin, achchiq va boshqalar haqidagi fikrlarni shu manba orqali olamiz» deb hisoblaydi Lokk. Refleksiyaning obykti aqlimiz faoliyati bilan egallangan va biz tashqaridan ololmaydigan fikrdir. Ongning obykti shu fikrdir, chunki ong Lokkning bergan ta'rifiga ko'ra aqlimizda ro'y berayotgan narsalarni idrok etishdir. Lokk tajriba manbalarini o'zaro farqlasada, ularni bir-biridan ajratmaydi. Uning fikricha, sezgi bilimning boshi, refleksiya sezgi asosida paydo bo'ladi. Buni u shunday ta'riflaydi: «Aql-da birorta narsa ham yo'qki, u sezgida ham mavjud bo'lmasa». Lokkning fikriga ko'ra, fikrlar ikki xil – oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy fikr faqat bitta tushunchani o'zida saqlaydi. Boshqa fikrlar parchalanmaydi. Murakkab fikrlar oddiy fikrlarni qo'shish, taqqoslash, umumlashtirish va abstraktlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Oddiy fikrlar yig'indisi ongni tashkil etadi. Murakkab fikrlarning hosil bo'lish manbalaridan biri sifatida Lokk assotsiatsiyani keltiradi. U fanga birinchi bo'lib «fikr assotsiatsiyasi» degan atamani kiritgan.

8.2. Assotsiativ psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi.

XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi

Asrning eng yetuk namoyandalaridan biri, shveysariyalik olim Albert Galler (1708–1777) edi. Uning «Fiziologiya asoslari» asari (1757) tarixchilar tomonidan «Bu zamonaviy fiziologiya o'tmishdagi hammasidan chegara chizig'i vazifasini bajargan» deb baholandi. Galler Dekartdan o'zining fiziologiya va tibbiyotning rivojlanishdagi asriy tajribasi bilan farq qilardi. Dekart o'zining «nerv mashinasini» ko'rayotganda, Galler butun organizmni yaqqol tushuntirishga harakat qilgan. XVII asrdayoq muskul va nervlarni o'rganish, miyaning ayrim qismlarini olib tashlash, amaliyot – hammasi Dekart sxemasini tas-

diqlab, uning ko'p bo'limlari haqida ikkilantirishga olib keldi. Nerv-muskul «mashinasining ayrim qismlari bir-biridan ajratib olingandagina, ishni qila olishi mumkin». Dekartning bu narsaga qo'shilishi, ular o'zining birligi bilan shu narsaga qodirdir, deb izoh berilgan. Gallerda muskul kuchi maxsus kuch deb yuritilgan. Bu mustaqil kuchdir, lekin u boshqa kuch — nerv kuchi bilan bog'liqdir. Bu fikr asosida nerv muskul tolalarini faoliyatga undaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu ikkala kuch ham moddiydir va ular tabiatdagi boshqa kuchlar kabi birgalikda shunday harakat qiladi. Determinatsion ruh ta'siridan Galler, faqatgina nerv hodisalariga e'tibor beribgina qolmay, balki psixik hodisalarga ham e'tibor berish kerak, deb hisoblaydi. Uning qarashlariga binoan bu hodisalar murakkab harakatlarda va boshqa voqeilikda bevosita ishtirok etadi.

Galler bu murakkab harakatlarni «tuban idrok» deb yuritgan. Bu psixik hodisani Galler hayotning harakat kuchi emas, balki nerv mexanizmining ishlash elementi, tabiiy qonunlarga bo'ysunuvchi deb talqin qilgan. Gallerning fiziologik tizimi nerv psixologik hodisalarga materialistik qarashlarning rivojlanishida bir butun muhim zvenoni tashkil etgan. Tabiat hodisasi bo'lgan inson tanasini tushuntirib, unga taalluqli bo'lmagan faktorlar bilan emas, u Dekart sxemasining yangi elementlari bilan to'ldirdi.

Refleks Proxazka bo'yicha har qanday tashqi qo'zg'ovchi bilan chaqirilmaydi. Balki faqat his qilishga asoslangan qo'zg'ovchi bilan chaqiriladi. His qilish hamma joyda bilish akti bo'ladimi, yo'qmi faqat va faqat bitta umumiy ma'noga «hayot kompasiga» ega bo'ladi. Bilish bilan kuzatiladigan his qilish va bilish bilan kuzatilmaydigan sezish bizga hayot ehtiyojlarini ko'rsatib beradigan hayot kompasini bo'lib xizmat qiladi hamda zaruriy ta'sirlarni keng tushunish imkoniyatini beradi. By yo'nalishni rivojlantirib, Proxazka nafaqat his qilish, balki psixik qonuniyatning birmuncha murakkab formasini organizmga moslashtirishni hayot shartlariga bo'ysundiradi.

Empirik psixologiya mavhum psixologiyaga qarama-qarshi bo'lib, tajribaga asoslangan psixologiya hisoblanadi. Empirik psixologiyaga ko'ra psixologiyaning predmeti ong hodisasidir.

Psixologiyaning metodi esa o'z-o'zini kuzatishdir. Empirik metodga ko'ra ong hodisalarini eksperimental ravishda o'rganish mumkin emas.

Empirik ong hodisalarini faqat assotsiatsiyalarning, eng oddiy elementlarning qo'shilishidan iborat, deb hisoblanadi.

Assotsionalizm psixik faoliyatining barcha qonuniyatlarini faqat assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi va yuzaga chiqib ketishi degan qoidani ilgari suruvchi oqim XVIII asrda Angliyada paydo bo'lgan. Bunda materialistik oqim asoschisi Gobbs, idealistik oqim asoschisi Berkli bo'lgan.

Berkli va Yungning assotsiatsiyaning xossalariga aylantirishga bo'lgan urinishlarini olimlarning tartib va psixik hodisalarni moddiy-ma'naviy ilmiy dunyoqarashidan kelib chiqishi bilan isbotlamoqchi bo'ldilar.

Ongli ravishda bir faktordan ikkinchi bir faktorga qonuniy o'tish neyrodinamika bilan aniqlanib, bu ilmiy qarashga ideologik dunyoqarash, ijtimoiy kuchlarining ko'tarilishini ifodalash, moddiy jihatdan psixik qo'llashga qiziqish kiradi.

XVII va XVIII asrlarda nerv mexanizmi hech qanday real fiziologik tayanchga ega emas edi. XIX asrda fiziologiya keskin o'zgarib boshladi, inson ongining shu kungacha o'rgangan bilimlari Dekart va Nyutonning fizikadagi yangiliklardan so'ng keskin o'zgaradi.

Gartliochilarning fikricha, inson miyasining psixologik to'qimalari psixik hayotning «simfoniya»sini yaratishda real hayotning o'zgarishi katta ta'sir ko'rsatadi. Lekin Gartli va uning tarafdorlari fikrini olimlar real hayotni inson o'zining aql-idroki bilan o'zgartirishi mumkinligi bilan inkor etadilar.

Shunday qilib, o'tgan asrda sodir bo'lgan hodisalar inson tanasini emas, balki inson miyasidagi aqlning natijasidir.

Buning isboti sifatida Tomas Braunning (1778–1870) «Inson ongi falsafasi haqida leksiya» traktatini misol qilish mumkin.

Tomas Braun asli kasbi vrach, Edingburg universiteti professori shotland falsafa maktabiga hurmat bilan qaraydi. Braun ma'ruzalari shotland maktabining assotsiatsiya yo'nalishlari bi-

lan sug'orilgan bo'lib, Ridning psixologik qiziqishlari va Berkli hamda Yungning ideologik assotsionizmidan yuqori qo'yan.

Shotland maktabi tarafdorlari bilan birgalikda ideologik assotsiatsiya tarafdorlari ongning psixologik o'zgarishi faqat tashqi faktorlarga emas, balki ichki faktorlarga ham bog'liqligini isbotlashdi. Shu faktorlar Braunning tendensiyani ikki xil yo'nalishda sintez qilishiga sabab bo'ladi.

Braunning assotsiativ psixologiya tarafdorlari tomoniga o'tishi, uni shotland maktabi tarafdorlaridan ongning qobiliyatga, aqlga yoki kuchga qarab o'zgarishini isbotladi.

Braunning shotland maktabi tarafdorlari idealizmga sodiq holda D.Yunning skentitsizmi va solipsistik qarashlariga qarshi borishdi.

Yosh avlod Fixte Shilling va Gegelning falsafiy tizimida ilmiy dunyoqarashning ilmiy tajribalar asosida yuzaga kelishiga ishonganlar. Ko'pchilik yoshlar bu g'oyalarni inson hayotini hamda tabiatini o'zgartirishda foydalanishga harakat qiladilar.

Lekin nazariy jihatdan nemis klassik idealizmidan yuz o'girdilar. Ammo tanqidchilar bundan javob tariqasida Germaniyadagi Gerbart konsepsiyasining pedagogik tajribalari va Benekkening falsafiy xulosalarini misol qilish mumkin.

Gerbart mashhur psixologik qobiliyat egasi Kristian Volfga hamda Kantning falsafiy qarashlariga qarshi chiqib ularning g'oyalarni transtsendental appersepsiya, ongning akti va hokazo bilan nomladi. Gerbart avvalgi avlodni o'qitish va tarbiyalashda yosh avlodga bemaqsad, tushunarsiz g'oyalarni o'rgatishda ayblaydi hamda qobiliyat, qiziqishga qarab psixologiyasini o'zgartirish mumkinligini tushuntiradi.

Gerbartning asosiy mehnati «Metafizika, tajriba va matematikaga asoslangan psixologiya» (1816) deb nomlangan.

Bu asrda Gerbart ruhining fanga ma'lum bo'lmagan tomonlarini va bu inson ongi va psixikasiga ta'sir etishni yoritib beradi. Shuningdek, Gerbart psixodinamikadagi o'zaro qarama-qarshilikni va komplikatsiyani ifodalab beradi.

Har qanday falsafaning buyuk asosiy masalasi tafakkurning borliqqa, ruhning tabiatga munosabati masalasidir.

Gerbart har doim qanday bo'lmagin biron tarzda din bilan bog'liq bo'lgan idealizmni qat'iy suratda rad qilish bilan birga, o'sha vaqtda tarqalgan Yum va Kant nuqtayi nazarini, turli tusdagi agnostitsizm, kiritizmni ham rad qildi.

Olamning birligi uning borligida emas, uning moddiyligidadir. Bu moddiylikni falsafa va tabiiyot ilmining uzoq va qiyinchilik bilan taraqqiy qilishini isbot qilib kelmoqda.

Harakat materiyaning borliq formasidir, hech qayerda va hech vaqt harakatsiz materiya, materiyasiz harakat bo'lgan emas va bo'la olmaydi.

Assotsiatsiya haqida fikr yuritilganda ingliz psixologlari Yum va Gartlini alohida ta'kidlash joiz. Chunki ular XVIII asrdayoq har xil psixik hodisalar va elementlar ideal-tasavvurlarning yaxshi bo'lib birlashishini asosiy qonun sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta'limotini ilgari surdilar. Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta'limot bir vaqtda ham idealistik, ham materialistik yo'nalishda paydo bo'ladi.

Idealistik yo'nalishning vakili bo'lgan David Yum ongning barcha murakkab hodisa va mahsullar o'zining «meni» ekanligini (o'z-o'zini) anglash, o'zaro tashqi bog'lanishlar assotsiatsiyalar bilan bog'langan «tasavvur birikmalari»dir xolos, degan ta'limotni ilgari suradi.

Materialistik aqlning vakillari David Gartli (1705–1757) va uning shogirdi Jozef Pristli (1733–1804) edilar. Ular assotsiatsiya tasavvurlarini miyadagi fiziologik bog'lanishlarga tenglashtirib qo'ydilar. Gartli psixologiyaga ruhning fizikasi deb qaradi.

Assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muhim roli haqida ta'limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning «Assotsiativ psixologiya» deb atalgan alohida oqimi paydo bo'ladi. Bu oqim XIX asrning uch choragi mobaynida mavqeni egallab qoldi.

Assotsiativ psixologiya vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur, nutq, xayol, iroda) bir xil birlamchi psixik element bo'lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo'lgan tasavvurlardan hosil bo'ladi deb da'vo qiladilar. Ayrim sezgi va

tasavvurlarning assotsiativ qonuniga binoan o'zaro mexanik bog'lanishlar bilan birlashadilar. Masalan: xotira jarayonlari – assotsiatsiyalarga tenglashtirib qo'yiladi, ya'ni esda qoldirish yangi assotsiatsiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assotsiatsiyalarni jonlantirishdir.

Assotsiativ psixologiya vakillarining xizmatlari shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya'ni tafakkur, nutq va ideallarning tajriba asosida (asosan o'z-o'zini kuzatish bilan) o'zgarishini diqqat markazida tutdilar.

Assotsiativ psixologiya tarafdorlari sifatida angliyalik Jeyms Mill (1773–1836), Aleksandr Ben (1818–1903), Gerbert Spenser (1820–1903), germaniyalik Teodor Sigen (1862–1950), Ebbingauz (1850–1909)ni aytish mumkin.

AQSHdagi psixologik inqiroz mamlakat rivojlanishining ichki sharoiti davrida avj oladi, ya'ni bir paytda rivojlangan kapitalistik davlatga aylanayotgan sanoat rivojlanishining o'sishi, raqobatning kuchayishi odamlarning hayot tarzini keskin o'zgartirib yuboradi. Mazkur holatda esa hamon Bibliya konsepsiyasi gullab-yashnamoqda edi.

1890-yillarda ko'plab Amerika universitetlarida tarbiyaviy psixologiya laboratoriyalari vujudga kela boshladi. Amerika psixologlaridan eng yirik namoyandasi Jems Kettel bo'lgan. 1892-yil bir vaqtning o'zida AQSHga ikki Yevropa psixologi E.Titchener va G.Myunstenberg keladi.

Amerika psixologiyasi o'z miqyosi va xilma-xilligi bilan Yevropa psixologiyasini siqib chiqara boshlaydi. AQSHdagi psixologiya fanining rivojlanish jarayonini to'g'ri baholash uchun Yevropa mamlakatlari va Amerika kontinenti g'oyaviy sharoiti orasidagi farqni hisobga olish kerak edi, Yevropa mamlakatlari psixologiya falsafadan ajralib chiqayotgan bo'lsa, Amerikada bir vaqtning o'zida ham falsafadan, ham diniy e'tiqoddan mustaqil bo'la boshladi.

8.3. Eksperimental psixologiyaning rivojlanishi

Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, kimyo va boshqa tabiat fanlarining gullab-yashnashi bilan xarakterlana-

di. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanilishi fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmikan degan masala maydonga chiqdi.

Bu masala bo'yicha faylasuf I.Kant o'z fikrini bildiradi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish mumkin emas.

Psixik hodisalarni o'lchashning mumkinligi, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I.Gerbart (1776–1841) ijobiy fikr bildirgan. U «psixologiyada matematikani tatbiq etish mumkin va zarurligi haqida» shunday degan: «Mening tekshirishlarim amalda faqat psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir».

Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar kombinatsiyasidan va munosabatlardan iboratdir. Ruhiiy holatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladi. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik, qonuniyati bor. Bu doimiylikning miqdor tomonini o'lchash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha, psixologiyaga matematikani tatbiq qilish mumkin.

Gerbart, garchan psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydaliligini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu metoddan foydalanmagan.

Veber va Fexner. Psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish bo'yicha dastlabki ishlarni fiziolog Veber (1796–1878) va fizik Fexner (1801–1887)lar amalga oshirdilar. Veber va Fexnerlarning maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiqi – sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi. Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni qo'zg'atuvchi ta'sirotlar o'rtasidagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi qo'zg'atgich logarifmasiga proporsionaldir, degan psixofizik qonunni kashf et-

di. Veber va Fexnerlar o'tkazgan tajribalar «Psixofizika» degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi.

Veber va Fexner ishlarining ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkinligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelinayotgan psixologiya endi aniq fanlardagi obyektiv metoddan foydalana boshlaydi.

V.Vundt. Eksperimental psixologiya taraqqiyotida ayniqsa nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt (1832–1920)ning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya'ni qo'zg'atish metodi, ifodalash metodi va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi. Vundt 1879-yili Leyptsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qildi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan (1881-y.) u Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi.

Vundt shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil qo'zg'atgichga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun Vundt (laboratoriya tashkil qilingunga qadar) 1861-yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va ma'lum bir vaqtdan keyin jiringlaydi. Bu psixologik elementlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Ilmiy (izohli) psixologiyani oyoqqa turg'izish uchun Vundt qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatini ilgari surdi.

A.F.Lazurskiy (1874–1917) tomonidan eksperimental metodning alohida turi — tabiiy eksperiment ishlab chiqildi. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o‘rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta’lim psixologiyasi masalalarini hal qilishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta’sir ko‘rsatdi.

Bu metod yordamida oddiy kuzatish yoki o‘z-o‘zini kuzatish yo‘li bilan aniqlash qiyin bo‘lgan yoki butunlay mumkin bo‘lmagan ko‘p ma’lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgilar, diqqat, idrok, xotira sohasidagi ba’zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental analiz yo‘li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo‘lgan bog‘lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanish praktik faoliyatning turli sohalarida — o‘quv tarbiya ishlarida, tibbiyotda, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashtirishda, sud ishlarida, san’atda juda ko‘p foyda keltiradi.

Nazorat savollari:

1. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif bering.
2. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyaning rivojlanishini tushuntirib bering.
3. Eksperimental psixologiya qanday shakllangan?

IX bob. XIX–XX ASRLARDA XORIJDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: fiziologiya, vitalizm, parallelizm, «emotsiya va erk», bosh miya reflekslari, refleksologiya, psixofiziologiya, reflekslar, sensor, mexanistik, determinizm, anatomik tuzilish, strukturalizm.

9.1. Yangi psixologik maktablarning shakllanishi va rivojlanishi. Strukturalizm

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga tabiat hodisalarining tajribalari va determinik tadqiqot muvaffaqiyati orqali zamin tayyorlangan.

Psixologiya tarixchisi Nordenshel aytishicha, o'sha paytda ko'p organik hodisalarga yangi tushunchani qo'llashga shoshilishar edi. Shu yangi tushunchaning ma'nosi shunday iborat ediki, butun borliq jonlimi, jonsizmi – bitta yagona sodda aniq bir sabab bog'lanishidir, bunga tayanib murakkab hayotiy ko'rinishlarini soddaga aylantirish mumkin, deb aytgan.

XX asrning 40-yillarida vitalistik qarashning tarafdori I. Myuller boshchiligida yosh olimlar guruhi o'z ustoziga qarama-qarshi chiqishdi. Shu o'quvchilar, jumladan Gelmgolts va Dyuba Reyman tomonidan «yashirincha kollej» tashkil qilindi, keyinchalik u tarixga fizika-kimyoviy maktab deb kiritilgan edi.

Bu maktabning dohiylari – Gelmgolts, Dyuba Reyman va boshqalar psixologiyani tajribali fan qilib ko'rsatdi.

Gelmgolts, Dyuba Reyman va boshqalar ongni materiya sabablari orqali tushuntirib bo'lmaydi, degan fikrga kelishgan.

«Bu jarayonda insonning aqli jahon siriga duch kelib, uni hech qachon yengib bo'lmaydi», – dedi Dyuba. Tabiat hodisalari ustidagi juda ko'p izlanishlar va muvaffaqiyatli tajribalar psixologiyaning alohida fan bo'lib ajralib chiqishiga katta omil yaratadi. Psixologiya fanining rivojiga har xil fanlar, yo'nalishlar, olimlarning hissasi juda kattadir. Masalan: tabiiy hodisalarga fizik-matematiklar ko'zi bilan qarash, ya'ni energiyani saqlanish qonuni hech qanday o'zgarishsiz tirik organizmga tatbiq qilishni avvaldan fan tasdiqlab bergan bo'lsa, keyincha-

lik undan voz kechildi, bunga sabab Darvin ta'limotlarining psixologiya faniga qo'shgan hissasi va boshqalardir.

Myullerning fikricha, har bir sezgi organi bu alohida maxsus energiya bilan zaryadlangan apparatdir. Sezish esa ma'lum bir harakat sababli bu energiyaning apparatdan chiqishi bilan hosil bo'ladi deb ta'kidlaydi. Gelmgolts esa buni, ya'ni sezishni psixologiya bilan bog'laydi. Shunday qilib, psixologiya fani juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'ldi.

Psixofiziologiya deb nom olgan yo'nalishda esa hamma psixik hodisalar ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunadi va buni matematik hisoblash yo'li bilan o'rganish mumkin deyiladi. Bu yo'nalishda nemis olimi Gustav Fexner ish olib bordi. U 1820–1830-yillarda Leyptsigda fizika fanini olib borar edi va elektr sohasida ko'p tajribalar o'tkazar edi. Shunda u psixologiya bilan qiziqib qoladi. Uning fikricha, ong butun koinot bo'ylab sochilib tarqatilgan, koinotdagi turli jismlarga esa jon berilgan, materiya esa psixikaning teskari tomoni, aniqrog'i soyasi xolos deydi. Buni esa matematik hisoblashda tasdiqlashga harakat qilgan.

XIX asr o'rtalariga kelib nerv harakatlari juda ham katta tezlikda o'tadi, hatto yorug'lik tezligiga teng deb hisoblanar edi va buni hisoblash mumkin emas, deb kelinar edi. Lekin 1850-yilda Gelmgolts bu muammoni yechdi. Hisobiga ko'ra, bu harakat uncha katta emas, soniyasiga bir necha o'n metr edi xolos. Bu tadqiqotiga ko'p olimlar hatto Gelmgoltsning o'z us-tozi Myuller ham ishona olmadi. Gelmgolts tajribasi faqatgina fiziologiya bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki psixologiyaga ham taalluqli edi. Bu bilan u nerv tizimidagi jarayonlar fiziologik jarayonlar kabi ma'lumdir, deydi.

1860-yilda Germaniyadan vataniga qaytgan Sechenov Peterburgda medika-xirurgik akademiyasining birinchi rus fiziologik maktabini tashkil qildi. Bu maktab fizika-kimyoviy yo'nalishda edi. Bu davrga kelib Rossiyada eski iqtisodiy taraqqiyot yemirilayotgan, sinflar orasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar rivojlanayotgan edi. Bu ziddiyatlar bilan bir paytda odam tanasining tuzilishi, uning organizmi va psixik funktsiya-

ning o'zgarishi masalasi ham mavjud edi. Sechenov va Cherni-shevskiyning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan P.D.Yurkevich shunday yozgan edi: «Hozirgi zamon fiziologlari kundalik hayotidagi o'zgarishlarni hamda bu o'zgarishlarning paydo bo'lishi va sabablarini ortiqcha o'rganmoqda». P.D.Yurkevich va uning tarafdorlari fikrini «Sovremenik» jurnali xodimlari qoralab chiqdilar. Ular fiziologik va psixologik hodisalarning materialistik dunyoqarash nuqtayi nazaridan yoqlab chiqdilar. I.M.Sechenov revolyutsion-demokratik intellegensiya bilan ya-qin aloqada bo'lib «Nima qilmoq kerak?» asarini yaratgan.

Jon haqidagi bahslar keskinlashgan paytda Sechenov mi-ya ustida olib borgan eksperimentlarida tormoz markazlari, ya'ni harakat aktivligini ushlab turadigan qo'zg'alish, «lokali-zatsiya» qilingan nerv markazlarini ochib beradi. Bu buyuk kashfiyot edi.

Bu bilan u nafaqat bosh miya fiziologiyasida yangi bo'lim ochdi, balki bu organizmning funksiyalari haqidagi tasavvur-larni umuman o'zgartirib yubordi. Bu kashfiyot fiziologik ong-ga tormozlanish haqida yangi tushuncha olib kirdi. Olim bu bilan esa tormozlanish va qo'zg'alish o'rtasidagi o'zaro muno-sabatga aloqador bo'lgan neyrodinamik muammolarning keng kompleksini ochib berdi. Lekin bu keyinroq sodir bo'lgan edi.

O'sha vaqtda Sechenov uchun muhim narsa shu ediki, u taj-riba yo'li bilan miya moddasini kichkina bir bo'lagidan chiqa-yotgan iroda asrlar bo'yi yurakdan chiqadi, deb hisoblanib ke-linayotganligi noto'g'ri ekanligini isbotlab berishi kerak edi. Ya'ni, inson irodasi faqat ruhga emas, balki inson organizmi-ning bir bo'lagi hisoblangan miya faoliyatiga bo'ysunishini isbotlashi kerak edi. Axir iroda fe'l-atvorning eng ishonchli belgisi qo'zg'ovchilarga qarshi tura olishni bilish, shartsiz imp-ulsnlarni ushlab qolish edi. Bu belgilarning hammasi ekspe-riment guvohlik bergani kabi markazdan miyaga tortiladi. Bu kashfiyotdan foydalanib, Sechenov 1863-yil «Sovremennik» jurnaliga o'zining «Inson miyasining reflekslari» nomli bi-rinchi psixofiziologik traktatini yozadi. Sechenov maqolasidagi g'oyalar rus zamini bo'ylab uzoqlarga tarqaldi.

Sechenov 1866-yilda «Nerv tizimining fiziologiyasi», 1867-yilda «Sezgi organining fiziologiyasi» nomli asarini yozdi. Sezgi organining fiziologiyasi ustida ish olib borish jara-yonida Sechenov psixologiyaga ham to'xtalib o'tdi.

Eksperimental psixologiya avvalo «Vundt» dasturi bo'yicha ishlab chiqildi. Birinchi bo'lib elementlarga bo'lish va strukturaga munosabatlarini topish talab qilinardi. Bu strukturaga funktsiya qarama-qarshi qo'yilgan edi. Bu qarama-qarshilik Yevropada ham, Amerikada ham katta isyon, qarshilikka sabab bo'ldi.

Yangi psixologiyaning metodlarini o'rgangan yoshlar hammasi funksionalistlar edilar.

Vilyam Jeyms ta'limoti yangi psixika ta'limotiga o'tishda salmoqli hissa qo'shdi. Rodjerning fikriga asosan Jeyms qarama-qarshi turdi. Uni shaxsning kuchli psixofizik bog'lanishlari qiziqtirardi.

Jeyms 1870-yillardayoq psixologiyaga murojaat qildi. U Harvard universitetida dars berish davomida fiziologiyaning psixologiyaga ta'siri haqida ma'ruzalar o'qidi. 1880-yillarda u jurnallarda psixofiziologik savollar bilan murojaat qildi, 1890-yilda esa unga katta shuhrat keltirgan «Psixologiya negizlari» kitobi nashrdan chiqdi. U psixologiyaning o'quv dasturiga aylandi. Jeyms o'qituvchilar bilan psixologiya haqidagi suhbatlarida Vundtning maktabini tanqid qildi. U o'zining fiziologiyaning psixologiyaga ta'siri kursini Vundt fikri bo'yicha emas, Spenser fikri bo'yicha o'qidi. Uning ta'kidlashicha, psixika funksiyasining qimmati faqat evolutsion ta'limotining (o'qishning) negizidagina ko'rinishi mumkin. Vundt psixologiyani alohidalik obyekti bilan qo'shib ko'rsatdi. Jeyms esa subyektni ajratish yo'llarini axtardi. Jeymsning diqqat markazida shaxsning integratsiyasi, o'zini tutishi irodaga bog'liq xususiyatlari kiradi.

Ongdan tashqari, individ organizm bilan mujassamlashgan. Jeyms «Emotsiya nima bu?» maqolasida emotsiya — bu odam o'zini-o'zi his qilishi deb aytadi. Keyinchalik hamma ong motorlidir deb xulosa qiladi. Bu xulosa «progmatizm» bilan bog'liqdir.

Mistitsizm. Jeyms boshqa bir tomondan mistik tajribani o'rganadi. Uning ta'limoti bo'yicha ong aniqlangan paytda shaxs bilan birga bo'ladi.

Ongning yo'qolishi va neorealizmning paydo bo'lishi. Ong alohida hisoblansada, unga bog'liq bo'lmagan obyektдан ajralgan holda emas, Jeyms individual ongning turliligi, uning qaytarilmasligini tushunib yetgach, ong to'g'risidagi «obrazlar yig'indisi joylashgan bir idish» degan g'oyani rad etadi.

Xo'sh, «Obrazlar yig'indisi» qayoqqa yo'qoldi? Bu savolga Jeyms 1904-yil «Ong mavjudmi?» degan maqolasida javob berdi. U o'z maqolasida ong ichida mavjud deb hisoblangan narsalar undan tashqarida ekanligini tushuntirib berdi. Ong obyekt bilan muomalada va aloqada bo'lishi mumkin, lekin ular bundan hech narsa olmaydilar ham, yo'qotmaydilar ham. Ong alohida mavjud narsadir.

Neorealizm tushunchasini yuzaga keltirgan Jeyms subyektivizm ustidan g'alaba qilishiga, ongning realligini isbotlashga va bu bilan fenomenlar ma'lumotlarini tugatishga urindi. Bu urinishlar ongning realligiga shubha bilan yakunlandi.

Jeyms dunyoqarashi traditsiyasi juda idealistik edi. Uning ongni real ekanligi, unga, predmetga, shaxsga qaragandek qarash kerakligini isbotlash uchun qilgan harakatlari zoye ketdi, u fenomenalizm doirasini yenga olmadi. Jeymsning psixik tushunchalar izlanishi ikki yo'nalishda bordi, ya'ni tabiiy ilmiy va mistik yo'nalishlarda ko'proq izlanishlar olib bordi.

Funksional psixologiyaning tarafdorlaridan biri Djon Dpyuidir. U o'zining «Psixologiyada reflektor akt haqida tushuncha» nomli maqolasi bilan taniladi. Amerika psixologiya tarixi adabiyotida bu maqola funksional psixologiyaning Vundt Titchener struktural maktabi bilan chegara uchun sabab qilib ko'rsatiladi.

Lekin qanday qilib reflektor akti haqidagi tushuncha strukturalistlar bilan kurash va turli qarashlar uchun asos bo'la oladi? Axir strukturalizmning dohiylari Vundt va Titchener nerv hodisalari haqida bilim psixologiya uchun foydali, lekin u psixologik hodisalar haqidagi bilimni kengaytira olmaydi, deb hi-

soblaydilar. Ular Dpyui o'z maqolasida «elementalizm» butunlikni ayrim bo'laklarga bo'lib tashladi, deb tanqid qiladilar.

Dpyui o'z maqolasida psixologik faoliyat u oqimdir, lekin ong emas, aktivlik esa butun organizmni uning nerv strukturalari bilan va muhit bilan ekanligini ko'rsatib beradi, deydi

Dpyui aniq faktlar asosida izohladiki: harakatdan sezish bog'liqligi va sezishdan harakat bog'liqligi mavjuddir. Harakat haqiqatan ham sezgining rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Lekin obraz va qo'zg'ovchi obyekt bir xil emas.

Chikago maktabi. Jeyms va Dpyuilar funksional psixologiya-ning Chikago maktabi dasturini tayyorlashadi. Bu dastur 1906-yilda D.N.Enjelo tomonidan Amerika psixologiya assotsiatsiyasiga taqdim qilinadi. Unda funksional psixologik jarayonlar haqida belgilanadi. Jarayon ehtiyoj bilan muhit o'rtasidagi birlamchi vazifani bajaradi. Ongning asosiy belgilanishi «yangicha nisbatan akkomodatsiya»dir. Organizm psixofizik butunlik sifatida harakat qiladi. Shuning uchun psixologiya ong bilan chegaralanib qolmaydi. Bu sohada Enjelo struktural psixologiyaga hujum qiladi.

Agar Titchener psixologiyani boshqa fanlardan qat'iy chegaralanishini talab qilsa, funksionalistlar uning nevrologiya, sotsiologiya, antropologiya bilan hamkorligi tarafdorlari bo'lishdi. Chikago maktabida mushaklar tuzilishi va ehtiyoj faktoriga katta ahamiyat berilgan.

Ongning va xulqning faoliyatini o'rganuvchi psixofizik tartib Amerika funksionalizmida tabiiy-ilmiy bo'yoqqa ega bo'lib, Yevropa yo'nalishidan keskin farq qiladi. Lekin ularning umumiylik tomonlari ko'p bo'lgan.

Qisqa vaqt mobaynida gullab-yashnagan funksional maktabning teologizmi strukturalizm singari parchalanib ketdi, boshqa oqimlar tomonidan siqib chiqarildi. Shu oqimlar funksionalizm muammolarini «yutib» yuboradi. Funksionalizmining falsafiy loyihalarining bir narsa ekanligini ko'rsatdi.

XIX va XX asrdagi psixologiya — bu asosan empirik psixologiyadir. Psixologiyada XVII asrda paydo bo'lgan bu yo'nalish XIX va XX asrning boshlarida o'z taraqqiyotining eng

yuqori cho‘qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining tatbiq qilinishi edi. Uning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytilganday, psixologiya fanining maxsus o‘z vazifalari va metodlariga ega bir qancha shoxobchalari maydonga keldi.

Empirik psixologiya bir butun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo‘nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bulardan ancha mashhur va muhimlari assot-sionizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshtalpsixologiya va freydizmlar edi.

Intellektual psixologiya — bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aql — intellekt-dir, deb hisoblaydigan yo‘nalish. Intellektual psixologiya tarafdorlarining fikricha, turli-tuman psixik jarayonlar, shu jumladan emotsional va iroda jarayonlari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarning qo‘shilishidir, deb tushuntiriladi. Assot-siativ psixologiyaning vakillari ham intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir, deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakili Gerbart hisoblanadi.

Volyuntaristik psixologiya, intellektualizmdan farq qilib psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, aktivligini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insonning irodaviy aktivligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G.Linne (1889–1941), G.Myunsterberg (1863–1916) edilar. Vilgelm Vundt ham garchand irodani asosiy hislardir deb hisoblagan bo‘lsa ham volyuntarist edi.

Freydizm — bu avstriyalik psixiatr va psixolog Zigmund Freyd (1856–1939) nomidan olingan bo‘lib, psixologiya va nevropatologiyadagi alohida yo‘nalishdir.

Freyd ta’limotiga ko‘ra, shaxs psixologik hayotining asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan, tug‘ma ongsiz mayl (instinkt) dir. Lekin tarixan tarkib topgan odat, axloqiy tamoyillar tufayli, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli bu mayl to‘g‘ridan

to'g'ri to'siladi. Shuning uchun ham ba'zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o'rtasida ichki ruhiy konflikt (to'qnashuv) paydo bo'ladi. Bu to'qnashuvlar ba'zan asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

Geshtaltpsixologiya yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo'nalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859–1932), V.Keller (1887–1967), K.Kofka (1886–1941) lardir. «Geshtalt» tushunchasini fanga Erenfels kiritgan. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementlar hodisalardan – sezgilardan tarkib topadi, deb hisoblangan assotiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshtaltpsixologiyaning vakillari bu ta'limotga qarama-qarshi o'laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'indisiga nisbatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism elementlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari, asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok – bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta'kidlanardi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta'limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo'nalish va oqimlar, bir qancha umumiy xususiyatga ega bo'lgan holda «Empirik psixologiya» degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo'ldi.

Empiriklar psixologiyani ruh haqidagi fandir, deb emas, «ruhiy hodisalar» yoki «ong hodisalari» yoki bo'lmasa faqatgina ong haqidagi fandir, deb ta'kidladilar. Bu «ruhsiz» psixologiyadir (N.N.Lange), «hech qanday metafizikasiz psixologiyadir» (A.I.Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o'rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik

va idealistik qarashlardan xoli bo'lish yo'lidagi katta qadami deb hisoblash mumkin.

Ekzistensializmning asoschisi bo'lmish nemis faylasufi Martin Xaydeger (1889–1978) «tushunish uchun o'z diqqatimizni qarata olsakgina biz fikrlashga o'rganamiz», – deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta'limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta'limotni logika, mantiq deb ataydi.

K.R.Megrelidzening ta'kidlashicha, insondagi biror-bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo'ladi. Bu haqda K.R.Megrelidze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli avvalo ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo'lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo'lishi mumkin emas.

Tafakkurning funksiyasi miya faoliyati jarayonida kechadigan subyektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi:

Birinchidan, ongning subyektiv holatiningina ifodalamasdan, balki obyektga ham tegishli bo'ladi va narsalar munosabatini ifodalaydi.

Ikkinchidan, yangi fikrning vujudga kelishi bilan bilish jarayoni tugallanmaydi, balki faqatgina boshlanadi. Bu bilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, g'oyaning subyektiv holatidir, endi fikrni amalga oshirish bosqichi boshlanadi.

Uchinchidan, alohida individning fikri ijtimoiy yetilgan fikrlarning xususiy ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K.R.Megrelidze inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Fikrlar va g'oyalari erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o'zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan, an'anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g'oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yetilgan ijtimoiy g'oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo'lib qoladi.

9.2. Vyusburg maktabi

Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o'rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyursburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo'nalishga ega bo'lgan psixologik oqim paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishning yirik vakillari sifatida O.Kyulpe (1862–1915), K.Byuller (1879–1922), A.Messer (1837–1937), Ax Narsis (1871–1946) va boshqalarni sanab o'tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma'lum darajada hissa qo'sha oldi. Vyursburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o'rganishda ratsional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo'l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o'zlarining ustilarida o'tkazib, natijalarni obyektiv bo'lishiga kamroq e'tibor berganlar.

Vyursburg psixologiya maktabining namoyandalari tafakkur bu ichki harakat aktidir, deb qaray boshlaydilar. O'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatliki, shunga qaramay ko'pchilik shuncha-ki hukm chiqarishni ma'qul ko'radilar. Shuningdek, ular oldida munosabatlarni o'rnatish qism, yaxlit, tur, jins obyektning nisbati va o'zaro munosabatlarini ushbu munosabatlarning aniq a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. Shuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari obyektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi. Jumladan, N.Ax tomonidan sun'iy tushunchalarning shakllanishi bo'yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog'lab, tafakkurni munosabatlarining birlamchi qarab chiqish, yoinki birlamchi ma'lumot berish manbayi sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini ko'tarib chiqib, o'sishning fikrlarni faollashtirish orqali amaliy faoliyatdan tafakkurni mutlaqo ajratib qo'ydilar. Tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi – bu o'z-o'zini kuzatish ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammo gnoselogik nuqtayi nazardan olib qaralganda ushbu pozitsiya idealizm izmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyursburg maktabi namoyandalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyati sifatida aniq ko'rsata bildi. Biroq tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat'iy ajratib tashladilar.

Vyursburg psixologiya maktabi namoyandalaridan biri O.Zels tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o'z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki bu jihatlari qay yo'sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko'rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko'rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo'ydi. O.Zels masala yechish jarayonini o'rganishda umumiylikka ega bo'lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e'tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko'rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo'ladi. Kompleks o'z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan:

a) ma'lumning tavsifnomasini bo'laklarga ajratish; b) qidiriluvchi noma'lumning o'rnini aniqlash; d) noma'lum qidiriluvchi bilan ma'lum o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish.

Shunday qilib, Vyursburg psixologiya maktabining namoyandasi O.Zels psixologiya tarixida birinchi bo'lib tafakkurni jarayon sifatida eksperimental metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta'riflab bergan, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o'rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir. Germaniyada psixologiyaning geshtaltpsixologiya yo'nalishi vujudga keldi. Uning ko'zga ko'ringan namoyandalari qatoriga X.Erenfels (1859–1932), V.Keller (1887–1967), K.Kofka (1886–1941) va boshqalar kiradi. Geshtaltchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishdan ko'lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtaltchilarning aksiomatik xarakterga ega bo'lgan ushbu fikrlari mazkur ta'limot g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig'indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera olmaydi, aksincha yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari hamda xossalarini belgilab berishga qurbi yetadi.

9.3. Sezgi organlari psixofiziologiyasi

Sezgi organlarining psixofiziologiyasi reflekslar akti ilmiga o'xshab, uzoq muddat mexanistik determinizm ta'sirida bo'ldi. Tashqi turtki va mexanizmdek anatomik tuzilish faqat shu ikkita faktorlar harakat va sensor aktlar to'g'risidagi deterministik bilimni tashkil qilar edi.

Har holatda mexanizm o'zini to'qnashuvini tug'dirar edi. Refleks to'g'risidagi ilmga harakat reaksiyasining maqsadga muvofiqligi va variantivligi qiyinchilik tug'dirar edi. Sezgi organlarini o'rganishda esa o'ziga qabul qilishda predmetlili-gi, tashqaridan proektlashtirilganligi to'sqinlik qilar edi. Sabab sezgini nazariyasiga ko'ra qabul qilish organiga buyumning ta'siri tez kelar edi.

Effektdan buyum to'g'risida ongdagi informatsiyaga o'tish yo'li turtki va organni material o'zaro harakati aniqlanmadi. Ular o'zaro harakatdan tashqaridan izlandi. XIX asrning birinchi yarmida ba'zi psixofiziologlar Veber, Purkinyeda sensor va harakat sferasida o'zaro bog'lanish bor, degan fikr tug'ildi.

Keyinchalik har xil retseptorlarning faoliyatini eksperimental o'rganish sezgi obrazlarining yaratilishi ilmiy tabiiy analizning imkoniyatini kengaytirdi. Tajriba, mashq ko'p narsani tushuna olishi mumkinligini aniqladi. Fiziolog uchun mashq material organi aktivligini nazorat qilish va obyektiv o'rganish uchun qulay bo'ldi.

Sezgi organlarining fiziologiyasi rivojlangan sari qabul qilishni (o'zlashtirish) determinlovchi munosabati to'g'risidagi bahs nihoyatda kuchaygan edi.

«Manivizm – empirizm» antitezasi paydo bo'ldi. Bu antiteza, ayniqsa, yaqqol masofa ko'rinishi tabiati haqidagi bahsda bilindi. Bahsda bu ko'rinish o'z asosida kuchlanish (nativizm) yoki tajribada olganligi (empirizm) degan savol turardi.

Empiriklar va nativistlar o'rtasidagi bahs shuni bildiradi ki, tabiiy tashkil to'g'risidagi tushuncha qayta ko'rib chiqishga muhtoj. Buni sezgi organlari fiziologiyasi muvaffaqiyatlari ham talab qilardi.

Gelmgolts (1820–1894) bu muvaffaqiyatlarga yangi asrni ochdi.

XIX asrda uning nomi bilan fiziologik tushunchasining tubdan o'zgarishi bog'langan. Yangi kuchli ilmiy tadqiqot yo'nalishi nerv tolasida qo'zg'alishning tarqalish tezligini o'lchash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Gelmgoltsni «Eshitish organlarini musiqa nazariyasining fiziologik asosi sifatida o'rganish» va «Fiziologik optika» asarlari hozirgi zamon sezgi organlari fiziologiyasining fundamentini tashkil qildi. Gelmgoltsni fiziolog sifatida ko'rsatgan xizmati ayniqsa, falsafani qiziqtirib kelayotgan ba'zi masalalarni tushuntirish tamoyili va metodlarini fiziologiyaga tarqalishida muhim ahamiyatga ega.

Gelmgolts tabiatshunos sifatida materializmga yaqin. Kontning falsafasi I. Myuller konsepsiyasi bilan birlashib u ham har

bir sezgi organi apparat bo'lib «maxsus energiya» bilan zaryadlangan, sezish shu energiyani ba'zi bir fizik sabab harakatini ozod bo'lishi natijasida o'tadi.

Gelmgolts fikricha, muammoni simvollar nazariyasi hal qiladi: sezgilarning obyektiv dunyoga munosabati simvol yoki belgi formasiga ega. U sezgi organlarini tabiatshunoslik o'rganishi uchun Myuller doktrinasi xavfli ekanini nazariy jihatdan tushuna olmas va uni fizik qo'zg'atish, nerv moddasidagi jarayon va sensor akti o'rtasidagi to'g'ri sababli bog'lanish deb o'ylar edi. Bu Gelmgolts nazariyasini uni sezgi organlarining psixofiziologiyasi to'g'risidagi materialistik yo'nalishdagi yozgan ishlariga qarama-qarshi bo'ldi. Ammo Myuller sxemasi Gelmgoltsni konkret eksperimental ishlarida boshqaradi, metodologik tomoni uni qoniqtiradi, deyish xato hisoblanardi.

Fiziolog olim E.X.Veber (1796–1878) ishining taqdiri esa o'zgacharoq bo'ldi. Teri va muskul sezgisini eksperiment yo'li bilan o'rganib, Veber fizik qo'zg'atuvchi va sensor reaksiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni matematik formula bilan yechish mumkin, degan xulosaga keldi. Veber fikricha, qo'shimcha qo'zg'atuvchi har bir yordamchi berilgan masofaga nisbatan bir xil masofada bo'lishi kerak, shunda arang sezilish farqi bo'ladi. Bu xulosaning ahamiyati katta. Tashqi qo'zg'atuvchidan olingan sezishni tartibli xarakterda ekanligidan tashqari metodologik jihatdan psixologiyaning kelajagi uchun muhim xulosa, ya'ni son va o'lchovga butun psixik ko'rinishlar tobeligi fizik ko'rinishga sabab bo'ldi.

Nazorat savollari:

1. Strukturalizmni tushuntiring.
2. Vyusburg maktabi haqida nimalarni bilasiz?
3. Fransuz psixologiya maktabi vakillarini ayting.
4. Sezgi organlari haqidagi bilimlar.
5. Psixofiziologiya nima?
6. Bosh miya haqidagi bilimlar.
7. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi.

X bob. XX ASRDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Tayanch tushunchalar: ong, Spinoza psixologiyasi, Dekart ta'limoti, bixeviorizm, neobixeviorizm, freydizm, neofreydizm, shaxs tiplari, ekstraversiya, introversiya, xulq-atvor, psixonaliz, reaktivlik, impulsivlik.

10.1. Psixologiyada metodologik inqiroz. Bixeviorizmga umumiy tavsifnoma. Neobixeviorizmning yuzaga kelishi va rivojlanishi

Psixologiya tarixida vujudga kelgan bixeviorizm maktabi shaxsni o'rganishda ham o'z o'rniga ega. Ushbu maktab vakillarining g'oyasi xulq-atvorni o'rganish asosiy masala sifatida o'rin olgan bo'lsada, uning ayrim vakillari muammoni tahlil etishda o'zlarining pozitsiyalariga egadirlar.

O'tgan asrda amerika psixologiya maktabining haqiqiy qi-yofasi sifatida maydonga chiqdi. Uning asoschisi Djon Uotson (1878–1958) bu yo'nalishning haqiqiy yo'l boshchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Bixevio tushunchasi (behavior) inglizchadan tarjima qilganda «xulq-atvor» degan ma'noni anglatadi. Bixeviorizm tushunchasi tarjima qilganda xulq-atvor psixologiyasi ma'nosini anglatadi.

Xulq-atvorni tahlil qilish to'liq obyektiv xarakterga ega bo'lib, tashqi kuzatiladigan reaksiyalar bilan cheklanadi. Insonning fikri, ongini ko'rib bo'lmaydi, ularni o'lchash mumkin emas, bundan ko'rinadiki, barchasini obyektiv qayd etish imkoniyati bo'lmaydi. Insonning ichki olamida kechayotganlarni o'rganishning imkoni yo'q. Demak, shaxs «qora quti» sifatida ishtirok etadi. Inson harakatining tashqi ifodalanishining obyektivligini stimullar va vaziyatlar shartlaydi. Shunday ekan psixologiyaning vazifasi stimullar bo'yicha namoyon bo'ladigan ma'lum reaksiyalar belgilaydi.

Bixevioristlar nuqtayi nazaricha shaxs mazkur insonga xos xulqiy reaksiyalarning majmuidan iborat. Stimul-reaksiya (S–R) formulasi bixeviorizmga yetakchi hisoblanadi. **Torn-dayk effekti** qonuni S va R o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtiradi,

agar mustahkamlanish bo'lganda. U ijobiy bo'ladi, qachonki rag'batlantirish, kutilgan natija olinganda, moddiy rag'batlantirish yoki salbiy bo'ladi, qachonki, og'riq, jazolash, omadsizlik, tanqidiy ogohlantirish yuz berganda. Insonning xulq-atvori ko'pincha ijobiy qo'llab-quvvatlashni kutgandan, ba'zan salbiy kuchlar qochishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bixeviorizm yo'nalishiga ko'ra shaxs individga nisbatan ongli tartibga solingan instinktlar, sotsiallashgan emotsiyalar, yangi ko'nikmalarning shakllanishiga ko'maklashuvchi plastiklik, muhitga moslashuviga ko'maklashuvchi va ularni saqlashga xizmat qiluvchi qobiliyatlarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Bu shaxsning uyushgan va nisbatan barqaror ko'nikmalar tizimidan iborat ekanligini anglatadi. Oxirgi barqaror xulq-atvor asosini ularning yangi hayotiy vaziyatlarga moslashuvi, o'zgarishi, yangi ko'nikmalarning shakllanishiga olib keluvchilar tashkil etadi.

Bixevioristlar odamni u yoki bu harakatlar, reaksiyalar, xulq-atvorni dasturlashgan, aniqlovchi, o'rganuvchi mavjudotdir. O'zgarishlar va mustahkamlash o'zgarganda uni talab etiladigan xulq-atvorga dasturlash mumkin.

Bixeviorizm mazmuniga psixolog Tolmen S-R reaksiyaga shubha bilan qarash orqali, unga o'zgarish kiritishga erishdi. U ushbu sxemaga o'zgarish kiritdi va uni S-I-R tarzda ifodalashga olib keldi. Bu yerda I individning irsiyatiga, fiziologik holatlari, oldingi tajribasiga bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar.

B.Skinnerning operant bixeviorizmi. Berris Frederik Skinner 1904-yil Pensilvaniya shtatida tug'ilgan. Uning oilaviy muhiti samimiy va erkin, intizom qattiq bo'lgan, hamda munosib xizmat ko'rsatganda rag'batlantirilgan. Skinner butun yoshligi davrida rolikli samakatlarni, korusellarni, aravalarni konstruksiya qilish bilan ko'p shug'ullangan. Bu yoshlikdagi ixtirolar kelajakda uni harakatlarini kuzatish modifikatsiyasiga qiziqishidan darak berardi. Uning shuningdek, maktabda o'qishga qiziqishi katta bo'lgan, hamda unga bilim bergan o'qituvchilarini iliqlik bilan xotirlaydi.

Skinningning nazariyasiga yondashuvlar: Bixeviorizm uchun «xulq» asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi cheklab o'tilgan. Mazkur yo'nalishdagi nazariyotchilar avvalo insonlarning barqaror bir-birlaridan farqini o'rganish va shaxslarning xulq-atvoridagi turli xil murakkabliklarni gipotitik tushuntirishga harakat qilish bilan birga individning xulq-atvorini unga tashqi muhitning ta'sirini o'rgatish yo'li bilan aniqlash mumkinligini e'tirof etadilar.

Skinningning ta'kidlashicha, psixologiya, ayniqsa o'qitish yetarli darajada rivojlanmagan, shu sababli ulkan masshtabli nazariya mavjud bo'lmagan. Shuningdek, u nazariy yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazish lozim emasligini, chunki ular kuzatuv faktorlariga tushuncha berib, hodisalarni turli terminlar va o'lchamlarda ta'kidlab, ularni turli me'yorlarda o'lchab bo'lmaydi, degan fikrni ilgari suradi.

Skinner o'zini nazariyotchi deb hisoblagan va shaxsni o'rganish nazariyasini yaratib bergan.

Skinner o'z intervyusida: «Men o'zga dunyo, aql va asab tizimi nazariyasini yaratib, xulq-atvorni tushuntirishga harakat qilaman. Bunday nazariyani muhim va foydali deb hisoblayman», – degan fikrni bildirgan.

Skinner o'z nazariyasi bilan faqatgina shaxsni emas, balki butun xulq-atvorni tushuntirishga harakat qildi. Skinner psixologiya aniq dalillar asosida va tadqiqotlar laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidladi va asoslab berdi.

Sotsial o'rganishlar nazariyasi. Keyingi davrda klassik bixeviorizm rivojlanib, yangi sotsial-kognitiv yo'nalish shakllandi. Uning vakillari Albert Bandura va Djulian Rotterdir. Ularning yondashuviga ko'ra insonning xulq-avtoriga atrof-muhit ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida inson ham sotsial atrof-muhitning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. O'rganishlarning yuz berishi faqat to'g'ridan to'g'ri va tashqi qo'llab-quvvatlashda emas, xulq-atvor kuzatishlar va namunalarda asosida shakllanadi.

Dj.Rotter sotsial xulq-atvorni quyidagi tushunchalar orqali ifodalaydi:

1. Insonning xulq-atvoriga uning kutilmasi, subyektiv ehtimollari, ya'ni insonning fikricha ma'lum vaziyatlarda u yoki bu xulq-atvorni yuz bergandan keyin ma'lum mustahkamlash bo'ladi, degan fikriga ko'ra ta'sir ko'rsatadi.

2. Insonning xulq-atvoriga inson uchun ahamiyatli bo'lgan mustahkamlash (chet ta'sirlar), qadriyatlar ta'sir ko'rsatadi.

3. Insonning xulq-atvoriga uning shaxs tipi, uning lokus nazorati ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, Dj.Rotterning ta'kidlashicha, xulqiy potensial «texnik mavjud» bo'lgan beshta asosiy reaksiyalar blokini o'ziga qamrab oladi:

1. Muvaffaqiyatga erishganlikka yo'naltirilgan, natijada sotsial e'tirof etishni asoslashga xizmat qiladigan xulqiy reaksiyalar.

2. Ijtimoiy me'yorlar, boshqa insonlarning talablariga moslashish bilan bog'liq adaptatsiyani ta'minlovchi xulqiy reaksiyalar.

3. Ayni damdagi vaziyatning ta'sirida foydalaniladigan himoyalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

4. «Zo'riqish maydonidan chiqish», qochish, dam olishga yo'nalgan qochish texnikasini ifodalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

5. Agressiv xulq-atvor reaksiyalari — boshqalarning tanqidi, kinoyasi, pichingi, qiziqish va manfaatlariga zid harakatiga nisbatan jismoniy agressiyaning namoyon bo'lishi.

Dj.Rotter singari A.Bandura ham shaxs muammosiga o'ziga xos yondashuvlarini taqdim eta oldi. A.Bandura bixeviorizmning S—R sxemasiga o'zining to'rtta oraliq reaksiyasini kiritdi:

1. Taqlid uchun harakat namunasiga bolaning e'tibori. Aniqlik, farqlanuvchanlik, emotsional jozibadorlik, funksional ahamiyatga egalik namunaga qo'yiladigan talablardir.

2. Namuna, xulq-atvor modeli ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi xotira.

3. Bolaning taqlid namunasini idrok qilishi uchun sensor imkoniyatlar va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishi.

4. Bolaning taqlid modelini bajarishi uchun xohish-istaklarini belgilovchi motivatsiya.

Bola ilk davrlaridagi uning shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshira boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi.

Bandura taqdim etgan sotsial kognitiv nazariyaga ko'ra tashqi va sotsial muhit insonning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, u inson faoliyatining mahsuli sanaladi. Demak, inson o'zining xulq-atvori tufayli atrof olamni o'zgartiradi, o'zining muhitiga va shaxsiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining xulq-atvori oqibatlarini ko'ra oladi, oldindan kutilishi mumkin bo'lgan xavf-xatarning oldini olishga harakat qiladi va bo'lg'usi natijalar timsolini hosil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, klassik bixeviorizm, ularning zamonaviy izdoshlari — sotsial kognitiv nazariya vakillari shaxs muammosiga nisbatan yondashuvlari bilan boshqa shaxs nazariyalaridan o'zlarining g'oyalariidagi metodologik masalalar va tadqiqot metodlari bilan farq qiladilar.

10.2. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif

Geshtaltpsixologiya, yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yo'nalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859–1932), V.Keller (1887), K.Kofka (1886–1941)lardir. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementlar, hodisalardan sezgilardan tarkib topadi, deb hisoblangan assosiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshtaltpsixologiyaning vakillari bu ta'limotga qarama-qarshi o'laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'indisiga nisbatan mazmundorroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism elementlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok — bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta'kidlanadi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta'limot

keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Geshtaltpsixologiyaning markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elementlari emas, balki konfiguratsiya shakli yoki geshtaltchilarning yaxlit yaratishidan iborat.

Geshtaltpsixologiyada tafakkur muammosining tadqiqoti keng qamrovli tarzda olib boriladi. Jumladan, V.Keller antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rganish natijasida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

V.Kellerning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtalt ichiga kirib, geshtaltda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlaridan namoyon bo'luvchi geshtaltchilar muammosi vaziyatda organizmda ba'zi bir zo'riqishlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni yechish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtaltda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtalt sifatida maydonga chiqadi.

Geshtaltchilarning ayrimlari «yo'nalish» atamasini qo'llab, uni o'tmish tajribasi bilan bog'lashga intiladilar. Shuningdek, ular «tafakkurning evrestik metodlari» to'g'risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, konfliktli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtaltchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqadilar, chunonchi ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga yechish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rganishda funksional rivojlanish g'oyasini amaliyotga tatbiq qilish ham ma'lum darajada geshtaltpsixologiya namoyandalarining xizmati hisoblanadi.

10.3. Psixoanaliz va uning rivojlanishi

Z. Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Freydning klinik psixologiya va psixiatriyadagi ilmiy qarashlari alohida o'ringa ega. Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishlarning psixologik sabablari mavjudligi to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashf qildi. Uning fikricha, ko'zi ojizlik yoki karlik, beixtiyor ko'rmaslik va eshitmaslik xohishi insonda keskin xavotirlikni uyg'otar ekan. Freyd gipnoz ongsizlikka yo'l deydi va patsientlarni davolashda undan foydalandi. Natijada bemorlar gipnoz tufayli o'zlarining anglab bo'lmas qobiliyatlarini ochadilar. So'ngra u patsientlar o'zlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga ko'ra mijoz o'zining dardlarini bayon etadi. Bu esa patsientlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanishlarning sababi patsientlarning o'tmishi bilan bog'liq, bolalikdagi tuyg'ulariga borib bog'lanishini ta'kid-ladi. Kasalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazariyasini psixoanaliz davolash metodi bilan bog'ladi.

Freyd topografik modeldan foydalanib, psixik hayotning uch darajasini ajratdi:

- ong; ongoldi; ongsizlik.

Ong darajasi aniq damdagi insonning ma'lumotlarini sezgi va kechinmalaridan tashkil topadi. Ong miyada saqlanuvchi ma'lum kam foizli axborotlarni qamrab oladi. So'ngra ma'lumotlar ongoldi yoki ongsizlik sohada yuklanadi.

Ongsizlik sohasi. Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir. Bu ongga qanchalik bosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'zg'alishlarini saqlovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar ko'pincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

Ongoldi soha, ba'zan xotiraga kirish mumkin bo'lgan, o'zida barcha tajribani kiritadi, ayni damda anglanilmagan, ammo tasodifiy yoki minimal kuch sarflash natijasida ongga tez qaytishi mumkinligi.

U – psixikaning ongsizlik qismi bo‘lib, biologik instinktli mayllardan iborat: agressiya va seksual. U jinsiy mayl – libido bilan to‘yingan. Insonda yashirin energetik tizim bo‘lib, bu quvvat har bir kishida miqdori – doimiy o‘lchamga ega. Ongsiz va irratsional bo‘ladi. U qoniqish, ya‘ni so‘ngida baxt, eng asosi inson hayotidagi asosiy maqsad tamoyiliga bo‘ysunadi.

MEN – ikkinchi tamoyil – gomeostaz – ichki muvozanatni saqlash tendensiyasi. Men (Ego) – ong – doimiy ravishda U bilan nizoda bo‘ladi, seksual mayllar ta‘sirida bo‘ladi. U jamiyat ta‘siri ostida shakllanadi. Menga uchta kuch ta‘sir ko‘rsatadi: U, Kayvoniylar Men va insonga o‘z talablarini qo‘yuvchi jamiyat. MEN ular o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashga harakat qiladi, qoniqish emas, balki reallik tamoyiliga bo‘ysunadi.

OLIY MEN (yuqori men) axloqiy standartlarni tashuvchi, shaxsning bu qismi tanqid, senzura, vijdon rolini bajaradi. Agar Men U ga mos harakatni amalga oshirsa yoki unga mos qaror qabul qilsa, Kayvoniylar Men unga qarshi chiqadi. Natijada aybdorlik, uyat, vijdon ta‘nalari ko‘rinishidagi jazoni boshdan kechiradi.

Barcha himoya mexanizmlarining maqsadi «Men»ga yordam berishdan iborat. Shu sababli ham u uchta asosiy bezovtalanishga yo‘naltirilgan, ya‘ni «Men»ni zararlashi mumkin bo‘lgan nevroitik, axloqiy va real jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Biroq «Men» ichdan chiqadigan norozilikdan himoyalaniq qolmasdan, ilk davrlarda «Men» xavfli instinktiv stimullar bilan tanishadi, shuningdek, u norozilikni kechiradi.

1-jadval

Psixoseksual bosqichlar

№	Bosqichlar	Yosh davrlari	Libido yo‘naltiriladigan zona
1	Oral	0–1,5	Og‘iz
2	Anal	1,5–3	Anus
3	Fallik	3–6	Jinsiy a‘zolar
4	Latent	6–12	Mavjud emas
5	Genital	12–18	Jinsiy a‘zolar

Freyd psixoseksual rivojlanish bosqichlarini 5 davrini keltirib o'tadi. U quyidagi I-jadvalda o'z aksini topgan:

Z.Freyd o'z nazariyasida shaxsning himoya mexanizmlarini ajratishga ham erishdi.

Ko'pincha nizoli zonalar psixika strukturasi U, salbiy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta'sirlanish, bezovtalanish va umidsizlik) frustratsiyaga olib keldi. Frustratsiya MENni har xil «chiqarish klapan»lari yordamida zo'riqishlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizmlari deyiladi:

– regressiya: tashvish sabab narsa mavjudligiga etishni inkor o'z ichiga oladi;

– rad etish, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;

– reaksiya: u yoki bu hodisaga ta'sir ko'rsatish;

– proeksiya – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi obyektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;

– identifikatsiya – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish;

– regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqealarga qaytish, ularning yaxshi va ma'qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;

– yolg'izlanish – jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, bunda shaxsning faoliyati passiv tus oladi;

– ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o'zida himoya instinktlarini paydo etish;

– sublimatsiya – o'zgartirish yoki tabiatan energiya qiziq tomonidan Id impulslarini o'z ichiga oladi va uni ijtimoiy maqbul xulqda ifodalashga yo'naltiriladi.

Z.Freydning izlanishlari keyinchalik bir qator yangi yo'nalishlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

10.4. K.Yungning analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K.Yung hisoblanadi. Yungning shaxs muammosiga doir yondashuvi «Analitik psixologiya» deb nomlanib, u o'ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

Shaxs tipologiyasiga doir yondashuvi:

Ekstraversiya – «ichkaridan tashqariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko'proq odamlar ichida bo'lishni yoqtirishadi, o'z kechinmalarini ko'proq atrofdagilar bilan baham ko'radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlari doirasi keng. Ba'zi hollarda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarning tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil.

Introversiya – «tashqaridan ichkariga yo'naltirilgan» degan ma'noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og'ir, vazmin, ko'ngli nozik, beparvo, do'stlik qoidalariga qat'iy amal qiladigan, muloqot doiralar cheklangan, tortinchoq, ko'proq o'zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg'izlikni yoqtiradigan.

Ekstraversiya va intraversiya jarayoni quyidagi shaxslilik tip-larida yaqqol namoyon etiladi:

Fikrlovchi tip – biror narsaning qadr-qimmatini aniq fakt-lar va mantiqiy mulohazaga tayanib baholaydi.

Hissiyotli tip – yaxshi-yomon, go'zal-xunuk tamoyiliga asoslanib emotsional baholaydi.

Intuitiv tip – hayotiy voqealarning mazmunini ongsizlikda, tuyg'usi va taxminlariga ko'ra baholaydi.

Sezgiga asoslanuvchi tip – sezgi a'zolariga tushuvchi, tash-qi olam haqidagi axborotlarga tayanadi.

– Psixikaning tuzilishi.

- **Ong.**

- Shaxsiy ongsizlik – o'zida qachonlardir anglangan, hozir siqib chiqarilgan va unutilgan nizo va taassurotlar, yetarlicha ifo-dalanmagan hissiy taassurotlarni qamrab oladi. Shaxsiy ong o'zi-da emotsional zaryadlangan, bir fikr, tuyg'u va taassurotlarning ustuvor bo'lib qolishidan iborat komplekslarni tashkil etadi.

- Kollektiv ongsizlik – insoniyat va ajdodlarning xotira izlarining yashirin saqlanishi. Unda bizning o‘tmish emotsiyalarimiz hamda insoniyatga xos fikrlar va tuyg‘ular aks etgan.

Arxetiplar – birlamchi model yoki kollektiv ongsizlikning tarkibiy elementi hisoblanadi. Ular o‘zida insonlar idrok etganlarini, kechinmalari va voqealar ta‘siriga javob berishini ma‘lum obrazlarda ilgari surishlari tug‘malik shaklini namoyon etadi.

- Eng asosiy arxetiplardan biri Men arxetipi, ota, ona, Xudo, donishmand va boshqa arxetiplaridir. Arxetiplar o‘zida simvol (ramz)lar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, Mariya, Mona Liza va boshqalar. Hoch, oltitomonli yulduz, budda g‘ildiragi.

Shaxs strukturasi. Shaxs strukturasi quyidagi tuzilmalardan iborat: ego, person, anima (animus), soya va o‘zlik.

- Ego – ongning markazi bo‘lib, o‘z-o‘zini anglashning asosi hisoblanadi.

- Person – bu jamoa kishisi bo‘lib, inson o‘zini boshqalar bilan o‘zaro munosabatda namoyon qiladi.

- Salbiy va ijobiy personlar mavjud. Birinchi navbatda u individuallikni ifodalab, kommunikatsiyaga muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan – person individuallikni bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin. Shu bois person ongning yuqori qatlami, ego ancha chuqurlashuv, botiq qismi.

- Soya o‘zida shaxsning siqib chiqarilgan tomonini ifoda etadi. Soya egoning aks ettirilishida mavjud. Soya shaxsning sotsial standartlar mavjudligi bilan murosqa qila olmasligini ifodalovchi xohishlarini qamrab olgan. Soya – hayot quvvat, ijod manbayini saqlovchi sanaladi. Shu sababli ego soya quvvatini zarur oqimga yo‘naltiradi.

Anima va animus. Anima – erkakdagi ayolning ichki timsoli, ya‘ni ongsiz namoyon bo‘luvchi ayollik tomoni. Animus – ayollardagi erkakning ichki timsoli, uning ongsiz namoyon bo‘luvchi ayollik timsoli. Yung anima va animus inson xulq-atvorida uyg‘unlashgan tarzda namoyon bo‘lishi kerak, bu uning har tomonlama muvofiqlashuvini ta‘minlaydi.

O'zlik. O'zlik — shaxsning yaxlitlik arxetipi. O'zlik onglilik va ongsizlikni birlashtirib, boshqa barcha elementlar uyushuvini tashkil etuvchi aylana markazi hisoblanadi. Ruhning barcha jabhalarini integratsiyasiga erishganda, inson uyg'unlikni sezadi. Shu sababli, o'zlikning rivojlanishi inson hayotining bosh maqsadidir.

10.5. A. Adlarning individual psixologiyasi

Alfred Adler (1870–1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi.

Uning asosiy asarlari: «Nerv xarakteri haqida» (1912), «Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti» (1920), «Insonshunoslik» (1927), «Hayotning mazmuni» (1933).

Inson tabiati. Inson — yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm (individuum (lot.) — bo'linmas). Inson hayotiy faolligining namoyon bo'lishini izolatsiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.

Inson hayoti — shaxs uchun ahamiyatli maqsadlar yo'nalishidagi o'sish va rivojlanishga uzluksiz harakat, hayot maqsadlari insonning taqdirini belgilaydi.

Inson xulq-atvori — irsiyat va muhit ta'siri natijasigina emas, balki insonning o'z hayotining arxitektori sanalgan ijod kuchidan ham iborat.

Individni jamiyatdan tashqari ko'rib bo'lmaydi, uning xulq-atvori esa sotsial kontekstdan tashqarida. Har bir insonda umumiylik va sotsial qiziqishning tabiiy tuyg'usi mavjud, ya'ni hamkorlikning sotsial munosabatlariga tug'ma ravishda intilish mavjud.

Inson xulq-atvori o'zi va atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi «appersepsiya sxemasi».

Erishilmagan maqsad yoki vazifalar inson xulq-atvorini yo'naltirib, harakatlantirib turadi.

Insonga yagona, yaxlit, unsurlari bir-biri bilan o'zaro muvofiq keluvchi mavjudot sifatida qaraydi.

Individuum miya va tana, onglilik bilan ongsizlik, tafakkur, tuyg'u, harakat, shaxsda namoyon bo'luvchilar yagonadir.

Shaxsning strukturasini hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlar-ga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Individuum jamiyatdan, boshqa insonlardan xoli holda bo'lmaydi, insonning xulq-atvori sotsial determinantlar bilan aniqlangan sotsial mazmunda sodir bo'ladi, oqibatda inson-da boshqa insonlar bilan hamkorlikda sotsial o'zaro munosa-batlarda ishtirok etishga intilishni ifodalovchi sotsial qiziqish-lar shakllanadi.

Nomukammallik atamasini A.Adler fanga olib kirib, ush-bu tuyg'uni barcha bolalar jismoniy o'lchamlari, kam kuch-liligi va imkoniyatlarining pastligi oqibatida namoyon etilishi bilan bog'liq xususiyatlarini ilmiy va empirik jihatdan asos-lab berdi.

Nazorat savollari:

1. Hayot uslubi va shaxs tiplarini tushuntiring.
2. A.Adlerning individual psixologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
3. K.Yungning analitik psixologiyasi
4. Psixoanaliz va uning rivojlanishini tushuntirib bering.
5. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif bering.
6. Spinozaning «Affekt» haqidagi fikrlarini tushuntiring.
7. Z.Freydning fanga qo'shgan hissasiga tavsiya bering.

XI bob. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA YANGI YO'NALISHLARNING YUZAGA KELISHI

Tayanch tushunchalar: gumanistik psixologiya, gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi, G.Ollportning shaxs nazariyasi, A.Maslou shaxs nazariyasi, Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi.

11.1. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif.

Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi

Gumanistik psixologiya inson tabiatini tushuntirishda o'zining yondashuvi bilan boshqa psixologiya fanidagi yo'nalishlardan farq qiladi. Bu borada mazkur yo'nalishning vakillari sifatida G.Ollportning shaxs qirralari, A.Maslouning shaxsni o'zini o'zi kamol toptirish, K.Rodjersning psixoterapiyasi, R.Meyning shaxsning hayot yo'li haqidagi g'oyalari e'tirof etish mumkin.

Mazkur yo'nalishning har bir nazariyasi o'zining ilmiy tushunchasi, insonning ichki olamini tushunishga yo'naltirilgan tadqiqot usullari va psixoterapevtik yondashuvlari mavjud.

Shunga ko'ra gumanistik psixologiyaning umumiy tamoyillari mavjud:

- Inson doimo yangi maqsadga intiluvchi, o'zini o'zi kamol toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi taraqqiyot tamoyili.

- Inson o'z tabiatiga ko'ra erkin va mehribonlikni ifodalovchi insonparvarlik tamoyili.

- Maqsadli determinizm tamoyili. Shaxsning intilishlari kelajakka yo'naltirilganligi bilan uning maqsad, qadriyatlari va kutilmalarini ifodalovchi sababiy determinizmni tasdiqlashi.

- Inson mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi mavjudot sifatida o'zining subyekt sifatida namoyon qilishini ifodalovchi faollik tamoyili.

- Shaxsni alohida fragmentlar bo'yicha o'rganib bo'lmasligi, balki uni yaxlit o'rganishga undovchi shaxsni noeksperimental tadqiq etish tamoyili.

- Gumanistik psixologiyada tadqiqot maqsadi va obyektining mosligi insonni sog'lom, o'zini o'zi ro'yobga chiqarib borishini ta'minlovchi me'yorda va to'laqonli faoliyat olib boruvchi shaxsni o'rganish vazifasini ifodalovchi representativlik tamoyili.

G.Ollportning shaxs nazariyasi. Taniqli AQSH psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs «ichki tizim», «dinamik qurilma», «Men», «qandaydir metapsixologik Men» o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir». Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi, deydi.

Shaxsning muhim xususiyatli jihatlaridan biri bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir.

Unda ko'rsatilishicha, dispozitsional yaqinlashish bu ikkita bir xil inson bo'linmaydi, deganidir. Har bir inson o'zining har xil holatlari bilan o'zgachadir. Bunga Ollport o'zining nazariyasini «xarakter»ni, ya'ni «umumiy analizini» ko'rsatadi. Har bir shaxsning bir-biridan farqlanadigan xususiyati mavjud. Shaxsning xarakteri nima? Ollport xarakterni xuddi nitro-psixik jarayoni belgilaydi, unda hajmi ekspressiv xulq-atvoridir, deb ta'kidlaydi.

Masalan, insonlar ishlarini xotirjam bajarsalar, har xil vaziyatlarda o'zlarini erkin tutadilar. Ollportning ta'kidlashicha, inson xulq-atvori uning o'zini qilayotgan ishida boshqara olishidir.

Ollportning fikricha, uning motivlari avtonomligi darajasiga va uning biologik ehtiyojlaridan xolos bo'lishga bog'liq. Shaxslar ishning mexanizmi sifatida Ollport xatti-harakatlarini ko'rsatdi.

Harakat tushunchasi xarakter harakati emas, balki «harakat motiv», «harakat qiziqish»dir. Ollport belgilagan harakat motiv hisoblanadi. U kattalarning motivlari kichkina bolalarnikidan keskin farq qilishini e'tirof etish bilan birga ularning biologik holat emasligi, shuningdek, ular ruhiy ma'naviy holat ham

emasligini ta'kidlagan. Ollportning fikricha, inson harakati-ning motivi haqida, u qayerdan paydo bo'ladi, degan savol bizga kishi tabiiy, bir tomondan u harakat motiv biologik faktor emas desa, ikkinchi tomondan har bir inson ma'lum harakatlarni to'plami bilan dunyoga keladi.

1937-yili G.Ollport sotsial intellektni odamlarni to'g'ri baholay bilish, ularning xulqini to'g'ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan holda ular bilan munosabatga kirishish qobiliyati, deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarni yaxshi tushunishini ta'minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko'rsatgan: bu sifatlarni tarkibiga sotsial intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan.

Shaxs tiplari: nazariyotchi, iqtisodchi; estetik; sotsial; siyosatchi.

A.Maslouning shaxs nazariyasi. Maslou Abraxam Xarold (1908–1970) gumanistik psixologiya asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik psixolog bo'lib, u psixologiyaga motivatsiyalarning iyerarxik modelining muallifi sifatida kirib kelgan. Bu iyerarxiya asosida uning tug'ma va universalligi haqidagi g'oyalar yotadi.

Maslou iyerarxiyasi asosiy mazmuniga ko'ra, ehtiyojlarni hech qachon «hamma narsa yoki hech narsa» tamoyili asosida qondirib bo'lmaydi. Ehtiyojlar bir-biriga qisman mos keladi va insonda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq pog'onadagi ehtiyojlarga motivatsiya uyg'onishi mumkin.

1960-yillar boshlarida Maslou qo'l ostida bir qancha gumanistik yondashuv vakillari birlashib, psixologiyadagi ikki muhim intellektual oqim bo'lgan psixoanaliz va bixeviorizmga qarshi gumanistik psixologiyani yaratadilar. Gumanistik psixologiya kuchli tashkil qilingan nazariy tizim bo'lmasdan, uni shaxsga va klinik psixologiyaga nazariy munosabat bildiruvchi o'ziga xos guruh desa ham bo'ladi. Maslou o'z yo'nalishini psixologiyadagi uchinchi kuch deb nomlagan. Bu yondashuv vakillari inson tabiatining aniq kelib chiqish konsepsiyalarini ajratib o'rganishgan. Amaliy jihatdan esa bu yondashuvlar g'arb falsafiy tafakkuri tarixida o'zining chuqur ildiziga ega. Gumanistik psixologiyaning ildizi ekzistensial falsafa il-

dizlariga borib taqaladi. Uning nomoyandalari Seren Kerkegor (1813–1855), Karl Yaspers (1883–1969), Martin Xaydegger (1889–1976) va Jan-Pol Sartr (1905–1980) kabi bir qancha yevropalik faylasuf yozuvchilar hisoblanadi.

Gumanistik psixologiyaning namoyandalari Erik Fromm, Gordon Ollport, Karl Rojers, Viktor Frankl va Rollo Mey kabi mashhur psixologlar hisoblanadi. Gumanistik psixologiya namoyandalarining fikricha, inson hech qachon bir joyda qotib qolmaydi, u har doim rivojlanishga imkon topadi. Kollejning yuqori kurs talabasi o'zining to'rt yil avvalgi o'spirinlik davriga qaraganda hozir boshqacha. Uning fikrlashi, dunyoqarashi o'zgargan. Uni yana to'rt yildan so'ng uchratsangiz u o'z hayotining yangi yo'llarini egallagan, masalan, o'zining kasbiy karyerasiga ega bo'lgan yoki oilali, farzandli bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu yo'sinda erkin mavjudot bo'lmish inson bu hayotda yashashi uchun o'zining ko'pgina imkoniyatlarini ochishi zarur.

Maslou uchun shaxsning markaziy xususiyati bu uning umumiyligi va bir butunligidadir. Yaxshi nazariyada oshqozon yoki tish yoki bosh og'rig'i kabi reallik mavjud emas. Faqatgina individuum ehtiyoji mavjud. Agar bir kishi och deydik. Uning o'zi nimanidir yegisi keladi, oshqozoni emas, agar u kishi biror narsa tanovul qilsa, o'zi yegan bo'ladi. Uning oshqozoni emas. Demak, u kishi o'zi butunlikda ehtiyojini qoniqtirgan bo'ladi, faqatgina oshqozonining ehtiyojini emas.

Ya'ni Maslouning fikriga ko'ra, motivatsiya bitta butun insonga ta'sir qiladi, uning alohida organizmiga emas.

11.2. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi

K.Rodjersning shaxs nazariyasi boshqa psixologlardan keskin farq qiladi.

Rodjers shaxs nazariyasini uchta tamoyil bo'yicha yoritdi:

1) inson xulq-atvorini obyektiv kuzatishlar orqali tushunish mumkin, shaxs esa subyektiv idroki va voqelikni bilishi orqali baholaydi;

2) inson o'z taqdirini o'zi belgilaydi, tanlov va qaror qabul qilishda erkin;

3) inson o'z tabiatiga ko'ra mehribon va o'zini o'ziga kamol toptirishga intiluvchan.

Men tuzilmasiga har xil qadriyatlar kiradi:

1) bilvosita organizmda kechadi («Men o'z ota-onamni inson sifatida idrok etaman»);

2) boshqalarda introetsirlovchilar xususiy, bilvosita idrok etishga sabab bo'ladi («Men o'z xulq-atvorimni qoniqmagan holda idrok etaman»).

Men konsepsiyasini xarakterlovchi jihatlar:

1) barcha shaxs xususiyatlari «Men konsepsiya»da o'z aksini topadi (jismoniy, sotsial, jinsiy, tuyg'u va emotsiya, tab va psixologik qirralar va boshqalar);

2) «Men konsepsiya»ning qismlari o'rtasida tuzilmaviy va tiplar bo'yicha bog'lanish mavjud;

3) kongruentlik-nokongruentlik, ya'ni «Men konsepsiya» insonning real kechinmalarining muvofiq-nomuvofiqligidir;

4) himoya yoki kuch «Men konsepsiya»ning mos emasligini ifodalaydi;

5) zo'riqishlar, ya'ni himoya pozitsiyasida qayd etish oqibatidagi holat;

6) o'zini o'zi hurmatlash darajasi yoki barcha xususiyatlari bo'yicha o'zini qabul qilish;

7) faol tushuvchi axborotlardan kelib chiqib o'zini baholash qobiliyati.

Shaxs markazlashgan psixoterapiyaning asosiy tamoyili:

1) klient haqidagi faqat faol axborotlardan foydalaniladi;

2) psixoanalizning zarur atributlari inkor etiladi, ular empatiyaning yaqinlashuvi va o'rnatilishiga xalaqit beradi. O'zaro ta'sirlashuv «yuzma-yuz» amalga oshiriladi;

3) talqin, baholash va maslahatlar mavjud emas;

4) klientga shartsiz ijobiy munosabatdan tashqari so'ngra salbiy emotsiyaga yo'l qo'yiladi;

5) klient terapevtidan mustaqil, avtonom;

6) natijalar ongni kengaytirishga xizmat qiladi;

7) psixoterapiyada qadriyat va ideallarning muhimligi qayd etiladi.

R.Meylining shaxs xislatlari:

1. O'ziga ishonish – ishonchsizlik.
2. Aql-zakovat bilan mulohazalash – tor fikrlovchi.
3. Ongli dunyoqarash – kelajakni o'ylamaslik.
4. Mulohaza qilish, o'zini tuta bilish, barqarorlik – soxtalik, tez beriluvchanlik.
5. Xotirjamlik – tajanglik.
6. Ko'ngilchanlik – ayyorlik, surbetlik.
7. Yaxshilik, sabr-toqatlilik – xudbin, o'zboshimchalik.
8. Do'stona, gapga kiradigan, epchil – bir narsaga qattiq yopishib oladigan, zolim, maydagap.
9. Samimiylik, ko'ngilchanlik – yovuzlik, surbetlik.
10. Haqiqatparvarlik – haybarakachilik.
11. Irodalilik – irodasizlik.
12. Sof vijdonlilik, tartiblilik – vijdonsizlik, betartiblik.
13. Izchillik, mantiqiylik, intizomlilik – oqibatni o'ylamaslik, tarqoqlik.
14. Ishonchlilik – ishonchsizlik.
15. Ulg'ayish – organizmning yetilmay qolishi.
16. Odoblilik – odobsizlik.
17. Kirishimlilik – odamovi.
18. Quvnoqlik – g'amginlik.
19. Maftunkorlik – ixlosi qaytganlilik.
20. Dilkashlik – pismiq.
21. Faollik – sustkashlik.
22. Mustaqillik – konformlilik.
23. Ekspressivlik – vazminlik.
24. Xilma-xil qiziqishlar – tor qiziqish.
25. Ta'sirchanlik – sovuqqonlik.
26. Jiddiylik – betayinlik.
27. Halollik – aldamchilik.
28. Tajovuzkorlik – oq ko'ngillilik.
29. Tetiklik – quvnoqlik.
30. Optimizm – umidsizlik (pessimizm).

31. Botirlik – qo‘rqoqlik.
32. Oliy himmatlilik – ziqnalik.
33. Erkinlik – tobelik.

An’anaviy hayot mazmunining muammolari falsafaning predmeti hisoblanadi. Faylasuflar odam hayotining mazmuni nima va u qanday bo‘lishi kerakligi masalasini yechadilar va h.k. Mavjud psixologiya fanlari tizimi doirasida, hozircha qat’iyan hayotiy-mazmuniy muammolarga yo‘naltirilgan, aniq ta’riflangan, maxsus tizim yo‘q. (Bunga o‘xshaganlarning bir qismi biologik sababdan tortib g‘oyaviy sababgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni ko‘rib chiqadigan ruhlanish (motivatsiya) nazariyasini o‘z ichiga oladi.) Shuning uchun hayot mazmunining muammosi bilan alohida maktab – ekzistensial psixologiya shug‘ullanadi. «Ekzistentsiya» tushunchasining o‘zi, so‘zma-so‘z tarjima qilganda «paydo bo‘lish», «vujudga kelish», «shakllanish» ma’nolarini anglatadi. Bu butun ekzistensializmning mohiyatini nafaqat psixologiya va psixoterapiyada, balki falsafa, san’at, adabiyot va hokazolarda ham aniq aks ettiradi. Unda odam psixodinamik mexanizmlari, xulq-atvor shakli, tabiiy va shaxsiy sifatlarining statik to‘plami sifatida emas, balki doim bor bo‘lgan va bo‘luvchi mavjudot sifatida asosiy rol o‘ynaydi.

Psixologiyada ekzistensial yo‘nalish XX asrning birinchi yarmida Yevropada ikkita g‘oyaning chegarasida vujudga keldi: bir tomondan bu o‘sha paytda odamning xolis va ilmiy tahlilining ko‘rsatmasi va deterministik qarashlari bilan hukmronlik qilgan ko‘plab psixolog va terapevtlarning qanoatlanmasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu psixologiya va psixiatriyaga katta qiziqish uyg‘otgan ekzistensial falsafaning shiddatli rivojidir. Natijada psixologiyada Karl Yaspers, Lyudvig Binsvanger, Medard Boss, Viktor Frankl kabilar tomonidan taqdim etilgan yangi – ekzistensial oqim vujudga keldi. Ekzistensializmning psixologiyaga ta’siri asl ekzistensializm yo‘nalishi-ning shakllanishi bilan chegaralanib qolmadi. Juda ko‘plab psixologik maktablar u yoki bu miqyosda mana shu g‘oyalarni o‘ziga singdirdilar.

Ayniqsa, E.Fromm, F.Perls, K.Xorni, S.L.Rubinshteynlar-ning ekzistensial motivlari juda kuchli. Shunday qilib, ekzistensial psixologiya quyidagilarni o'rganadi:

- 1) o'lim, hayot va vaqt muammolarini;
- 2) tanlash va javobgarlik erkinligi muammolarini;
- 3) yolg'izlik, sevgi va muloqot muammolarini;
- 4) mavjudlikning mazmunini qidirish muammolarini.

Ekzistensial psixologiyaning asosiy predmeti – odamzod hayotining mazmuni, uni yo'qotish, o'zgartirish va erishishning shart-sharoitlari. Viktor Frankl, Rollo Mey, Djeyms Byudjental kabi mualliflar tomonidan ekzistensial falsafa asosida ishlab chiqilgan umumpsixologik nazariyalar va psixologik praktikaning metodologik asoslari bugungi kunda ekzistensial psixologiyaning cho'qqilari hisoblanadi.

Psixologiyada V.Frankl yaratgan ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi odam tabiatiga, shaxsning normal rivojining mexanizmlari va patologiya (g'ayritabiiylik)ga, shaxs rivojida-gi anomallarni yaxshilash yo'li va uslubiga bo'lgan tibbiy, falsafiy va psixologik qarashlarning murakkab tizimini o'z ichi-gi oladi.

Psixolog Franklning nazariyasi uch asosiy qismga bo'lina-di: mazmunga intilish haqidagi ta'limot, hayot mazmuni ha-qidagi ta'limot va erkinlik irodasi haqidagi ta'limot. Mazmun-ga intilishni va odam o'z hayotining mazmunini anglashini V.Frankl barcha insonlarda mavjud bo'lgan va shaxs rivoji va fe'l-atvorini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lgan tug'ma motivatsion g'oya sifatida ko'rib chiqadi. V.Franklning fikri-cha, hayotiy kuzatuvlar, klinik amaliyotlar va empirik ma'lu-motlar shuni o'z ichiga oladiki, odam yashashi va faol harakat qilishi uchun o'zining qilmishlari ega bo'lgan mazmunga isho-nishi kerak.

Psixologiya va psixoterapiyada ekzistensial yo'nalishning yorqin vakillari shvetsariyalik psixiatrlar Lyudvig Binsvanger va Medard Boss. Ular o'z konsepsiyasini nemis faylasufi Mar-tin Xaydeggerning ekzistensial nazariyasi asosida ishlab chi-qishgan.

Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Avvalo, ular psixologiyaga tabiiy fanlardan sababiylik tamoyilining olib kiritilishiga qarshi chiqdilar. Ular fikricha, inson hayotida hech qanday sabab-oqibatga asoslangan munosabatlar yo'q. Asosan, xulq-atvorning ketma-ketligi mavjud bo'lib, bu ketma-ketlik orqali sababiylikni keltirib chiqarib bo'lmaydi.

Shunday qilib, Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya kazuallikni rad etgan holda, pozitivizm, determinizm va materializmni ham inkor qiladi. Ushbu olimlar ta'kidlashicha, psixologiya boshqa fanlarga o'xshamaydi va ular kabi model asosida qurilishi kerak emas. U o'z metodini (fenomenologiya) va tushunchalarini (hayotdagi mavjudlik, mavjudlik moduslari, erkinlik, mas'uliyat, aylanish, transtendensiya, makoniylik, temporallik va b.) talab qiladi. Binsvanger va Boss ekzistensial nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri motivatsiyadir. Motivatsiya doim sabab va oqibat munosabatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri tushunishni talab qiladi. Bir xil voqea turli sabablar oqibatida yuzaga kelishi mumkin, shu jumladan tabiiy omillar tufayli, lekin faqat insongina mazkur harakatni amalga oshirish, biror-bir maqsadga erishish uchun motivatsiyaga ega bo'ladi. Turli individlar turli maqsadlarga erishish uchun bir xil harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga inson tomonidan u yoki bu maqsadga erishish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va bu bosqichning har biri o'z oqibatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, mazkur holatda inson motivatsiyasini tushunish inson xulq-atvori, xatti-harakatini anglashning bosh mezoni bo'ladi. Binsvanger va Boss konsepsiyasi subyekt (ruh) va obyekt (tana, muhit, materiya) o'rtasidagi dualizmga salbiy qaraydi. Ushbu fikrni birinchi bo'lib Dekart ilgari surgan va keyinchalik inson kechinmalari va harakatlarni muhit stimullari hamda tana holati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishda keng qo'llanila boshlandi. Ekzistensial nazariya individning dunyoda birligini ta'kidlaydi va bu birlikni buzuvchi har qanday qarashni falsifikatsiya va inson voqeli-

gini yagona oqimini bo'lib tashlashga bo'lgan urinish deya baholaydi. Boss so'zlariga ko'ra, ekzistensial psixologiya maqsadi – insonning bog'liqlik strukturasi yuzaga chiqarishdir. U yozadi: «Bog'liqlik faqatgina buzilmagan butunlikda mavjud; bog'liqlik butunlikdan kelib chiqadi».

Ekzistensial psixologiyaning ushbu yo'nalishi, shuningdek, fenomenlar ortida ularni tushuntirib berishi yoki aniqlab berishi mumkin bo'lgan nimadir bor, degan farazni ham inkor etadi. U inson xulq-atvorini an'anaviy bo'lgan «Men konsepsiya», ongsiz, psixik va jismoniy energiya, instinktlar, miya elektrik jarayonlari, arxetiplar va boshqalar orqali talqin qilishni tan olmaydi. Binsvanger va Boss fenomen mohiyatini tushuntirib berishmaydi, ular faqat fenomen borligini tan olishadi va psixologiyaning bosh vazifasini ularni chuqur yoritish, tushuntirish yoki isbotlash emas deb aytib o'tadi. Bu tadqiqotchilar har qanday psixologik nazariyalarga salbiy munosabatda bo'lganlar, zero, nazariya ostida doim u yoki bu faraz yotadi, mazkur olimlar uchun esa inson tomondan his qilingan, uning boshidan o'tgan va anglab yetilgan hodisalar haqiqiydir, ilmiy farazlar emas. Bu yo'nalish tarafdorlari fikricha, o'rganish bu hech qanday gipoteza va steriotiplarsiz ko'ra olishdir.

Binsvanger va Boss individga xuddi buyumdek qarashga qarshi chiqdilar. Ular fikricha, insonga bunday munosabat na faqat psixologiyaga insonlarni hayotdagi mavjudligi pozitsiyasidan anglash imkonini bermaydi, balki oxir oqibat shaxs dehumanizatsiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular insonlarning texnizm, byurokratiya, mexanizatsiya natijasida chetga chiqib qolishi, uzlatga chekinishi va buzilishi haqida so'z yuritgan. Olimlar nuqtayi nazariga ko'ra, insonlar bilan buyum kabi munosabatda bo'lganda, ular ham o'zlarini ega bo'lish, nazorat qilish, forma berish, ishlatish mumkin bo'lgan buyum deb hisoblay boshlashadi. Natijada bunday insonlar haqiqiy inson hayotini yashab o'tishga qodir bo'lmay qoladilar. Inson o'z xatti-harakati uchun erkin va mahsuldir. Boss aytadiki, erk bu insonlar ega bo'lgan nimadir emas, bu shundoq ham mavjud

hodisa. Binsvanger va Boss ekzistensial falsafasida juda katta o'rin inson o'limi mavzusiga ajratilgan. Mazkur mutaxassislar asarlarida o'lim oldidan qo'rquv hayot masalasidan kam o'rganilmagan. Binsvanger va Boss konsepsiyasining fundamental tushunchasi «dunyoda mavjudlik» (Dasein)dir.

Inson mavjudligi dunyosining 3 darajasi bor: 1) biologik yoki jismoniy atrof-muhit (landshaft); 2) insoniyat muhiti; 3) insonning o'zi, uning tanasi. Inson mavjudligining mohiyati masalasiga to'xtalar ekan, Binsvanger va Boss insonlarning o'zi dunyo mohiyati ekanligini, ular o'z dunyosiga ega ekanligini, ammo doimo bu dunyo chegarasidan chiqishga harakat qilishini aytib o'tadi. Mazkur holatda, dunyo chegarasida ortidagi mavjudlik haqida so'z borar ekan, olimlar o'zga — narigi olamda yashashni nazarda tutmaganlar, balki mavjud bo'lgan muhitidan yangi dunyoga, muhitga o'tish haqida fikr yuritganlar.

11.3. Genetik psixologiya. Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi

Bir necha o'n yillar davomida milliy psixologiya tadqiqotlari shaxs faoliyati tamoyillariga asoslangan edi. Bu tamoyillar muallifi haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar yo'q. Bu tamoyillar birinchi bo'lib, 1922-yil Rubinshteynning «Shaxs ijodiy faoliyati tamoyili» maqolasi orqali yuzaga kelgan, degan fikrlar ham mavjud. Bundan tashqari, o'tgan asrning 20–30-yillarida L.S.Vigotskiy tomonidan yozilgan bir necha asarlar ham bu tamoyillarning fundamental g'oyalari asos bo'lgan degan ma'lumotlar ham mavjud. Bu tamoyilning ma'no-mazmunini milliy psixolog L.Ya.Galperin yoritgan edi. Uning yozishicha shaxs ijodiy faoliyati faqatgina shaxs tor doirasida emas, subyektning tashqi va obyektiv faoliyatini o'z ichiga olib o'rganish kerak; shaxs ijodiy faoliyati psixikaning zarurligini, uning tarkibi va tuzilishi tashqi faoliyat bilan uzviy bog'liqligini o'rganish; psixologik faoliyatda shaxs ishtirok etmaydigan jarayon emas, subyektning muammoli holatdagi faoliyati bilan ko'rib chiqish.

Milliy psixologiyada shaxs ikki xil qarash bilan o'rganiladi.

Barcha psixologik jarayonlar – diqqat, xotira, tafakkur shaxsga tobe bo'lgan tanlangan xarakterga ega faol holatga egadir (motivatsiya, qiziqish, maqsad, xarakter).

L.S.Vigotskiy (1896) – metodolog-psixolog, ko'p yillar davomida bola psixikasini o'rganishda empirik usullardan foydalanish dasturi ustida ish olib borgan. 10 yil davomida olib borilgan tinimsiz va tig'iz izlanishlar orqali u 180 dan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Bu asarlar orasida «San'at psixologiyasi», «Fikr va nutq», «Pedagogik psixologiya», «Psixologik krizisning tarixiy mazmuni» kabi asarlari mashhurdir.

Ichki psixik jarayonlarni tushunish uchun inson organizmi doirasidan chiqib, uning atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatini o'rganish kerak edi.

Uning konsepsiyasini ma'naviy-tarixiy deb atash mumkin edi, chunki ong va psixik jarayonlarga interpretatsiyani faqatgina ularning rivojlanishi va qurilishi orqali berish mumkin edi. Vigotskiyning asosiy g'oyasi, yuqori psixik funksiyalarning rivojlanishini tasdiqlash bilan bog'liq edi. Ular yosh bolada kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi. Vigotskiyning fikricha, rivojlanish, ma'naviy belgilarni ularning ichida eng soddasi bo'lgan so'zlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Oliy psixologiyaga doir muammolar bilan birga insonda tug'ilishdan mavjud bo'lgan funksiyalar xususida ham bahs yuritiladi. Vigotskiyning fikriga ko'ra rivojlanish ikki yo'nalishga bo'linadi.

Bola rivojlanishida bu ikki yo'nalish ham ishtirok etadi va biz ularni iz holatda filogenezda uchratishimiz mumkin: bular – biologik va tarixiy, tabiiy yoki ma'naviy xulqning rivojlanishidir. Ontogenezda bu ikki jarayonlar o'z parallellariga egadir.

Tabiiy funksiyalar mexanik xotira, diqqat, obrazli fikrlar organik rivojlanishlar bo'lib, ular tashqi muhit bilan bo'lgan aloqa davomida shakllanadi. Oliy psixik funksiyalarga – mantiqiy xotira, dunyoqarash, tushunchalarda fikrlash. Birinchisi tabiiy stimuly reaksiya tamoyili asosida, ikkinchisi esa qonun bilan rivojlanadi.

Vigotskiy ikkita gipotezani oldinga surgan:

1) oliy psixik funksiyalarning tarqalishi;

2) tashqi integratsiya yo'li orqali ichki faoliyatning vujudga kelishi. Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, xulq-atvorni o'zlashtirish avval tashqi (sotsial) planda, kattalar bilan muloqot davomida rivojlanadi va shundan so'ng funksiyalar ichiga aylanadi. Bu qonuniyat, ma'naviy rivojlanishning umumgenetik qonuni, deb ataladi. Shaxsning shakllanishi, Vigotskiyning fikricha, moddiy rivojlanishni aks ettiradi. Uning fikricha bola shaxsiyati bilan moddiy rivojlanish o'rtasida teng belgisini qo'yishimiz mumkin. Shaxs shunday tarixiy rivojlanishda shakllanadi. Shaxsning ko'rsatkichini tabiiy va oliy psixik funksiyalar ko'rinishida ko'rishimiz mumkin. Insonda qancha ma'naviy funksiyalar ko'p bo'lsa, unda shuncha dunyo va o'z xulq-atvori ustidan bo'lgan boshliqligi kuchayadi.

A.N.Leontev (1903–1979) – psixolog, ilm tashkilotchisi, faoliyat nazariyasi asoschisi. Uning asarlari orasidan «Psixika rivojlanishi», «Faoliyat, ong, shaxs» kabilari mashhurdir. Leontev konsepsiyasi inson rivojlanishida ijtimoiy determinatsiyaning o'rni haqidagi qarashni ma'qullab, qaysidir ma'noda Vigotskiy yo'lini davom ettirgan. Leontevning shaxs teoriyasi asosiy tamoyili yordamida insonning natural faoliyatini tushunish bilan ifodalash mumkin. Uning konsepsiyasining asosiy tushunchasi bu faoliyat kategoriyasidir. Faoliyat fenomeni sabab, atrof olam ta'sirida yuzaga keladigan jarayon tekshiriladi.

Rubinshteyn (1889–1960) mashhur psixolog, faylasuf va psixolog, fikrlash psixologiyasi muammosi ustidan tadqiqotlar olib borgan, psixologiya asoslarini yaratuvchisi, «Umuman psixologiya asoslari» nomli darslik muallifi. «Ijodiy faoliyat tamoyili» maqolasida u ongni aktiv faoliyat deb baho berdi. Bu g'oya asosida ong birligi va faoliyati tamoyilini yaratadi. Ong birligi va faoliyat haqidagi g'oyalar psixologiya rivojlanishining ayni bir etapida vujudga kelgan bo'lib, XX asrning 30–40-yillarida introspektiv psixologiya va bixeviorizm bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun ham vujudga kelgan. Ong birligi va faoliyat tasdig'i ong va psixikani passiv bir mavjudligi deb

emas, subyekt faoliyati, real individ va inson faoliyati uni atrof-muhit bilan bo'lgan munosabati jarayoni o'rganiladi.

Rubinshteyn alohida ta'kidlab shuni aytadiki, insonga faqatgina faoliyat emas, balki shaxs ham tanlov huquqiga ega holda ta'sir o'tkazish kuchiga egadir. Shaxsni o'rganish davomidagi muhim daqiqalardan biri, Rubinshteyn fikricha, faqatgina faoliyatini yoki hayot emas, bundan kengroq jabhalarni o'z ichiga oladi.

V.S. Merlin (1898–1982) shaxsiyatning integral nazariyalarini ishlab chiqdi va quyidagi bosqichlarini ko'rsatdi:

- 1) biokimyoviy;
- 2) somatik;
- 3) neyrodinamik;
- 4) psixodinamik (temperament bosqichi);
- 5) shaxsiyat;
- 6) jamiyatdagi sotsial roli.

Bu bosqichlarning orasida bir tomonlama, aksincha ko'ptomonlama bog'liqlik bor, ya'ni bir bosqich bir vaqtda bir necha bosqichda aloqada bo'ladi. Temperament bosqichda quyidagilarni farqlaydi.

Ekstraversiya – obyektiv holatdan kelib chiqib, psixik o'zini tutish. Sergaklik – to'siq bo'layotgan holatda qochish orqali reaksiyaga kirishish.

Reaktivlik – xatti-harakatga shunday javob qaytarish.

Impulsivlik – tezlik, unda emotsiyalar xatti-harakatning kuchi.

Emotsiyalarning uyg'onishi qo'yilgan maqsadga aktiv harakat qilish. Shaxsiy faoliyat haqida gapirganda, shuni nazarda tutganki, psixologik vositalarning tizimi shundayki, inson o'zining shaxsiyatini ko'rsatish uchun harakatsiz ulardan qochadi. Temperament B.S.Merlin fikriga ko'ra, o'zgartirish mumkin emas, chunki u genetik joylashtirilgan, lekin unda ayrim xususiyatlarni tarbiyalash mumkin.

Nazorat savollari:

1. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif bering.
2. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasini tushuntirib bering.
3. G.Ollportning shaxs nazariyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. A.Maslou shaxs nazariyasining muhim jihatlarini izohlang.
5. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasini tushuntirib bering.
6. Men konsepsiyasi xarakterlovchi jihatlari qaysilar?
7. R.Meylining shaxs xislatlari.
8. Psixologiyada ekzistensial yo'nalish nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Genetik psixologiyaning mohiyatini tushuntiring.
10. Rossiyada psixologiyaning rivojlanish tarixini izohlab bering.

III BO'LIM (MODUL). UMUMIY PSIXOLOGIYAGA KIRISH

XII bob. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI, METODLARI

Tayanch tushunchalar: psixologiya, psixika, individ, shaxs, ong, shaxsni o'rganish yoki qiyoslash metodologiyasi, metod, psixologiya tamoyillari, determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyili.

12.1. Shaxsni o'rganishning metodologik asoslari.

Inson va insoniyat haqidagi fan

Inson tabiatining o'ziga xos tomonlaridan biri uning jamiyat hayoti bilan bog'langan tomoni bo'lib, bu shaxs muammosini o'rganishni taqozo etuvchi jihati hisoblanadi. Inson mavjudligini turli jabhalardan o'rganish uzoq tarixiy davrli an'analarga ega. Bu esa insonning shaxslilik aspektidagi ko'p o'lchamlilik, ko'pqirralilik va xilma-xillik uning o'ziga xosligini belgilaydi. Ular quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

– shaxs fenomenining tushunish asosida qarashlar, e'tiqod, tafakkurlash uslublari bilan bog'liqligi;

– shaxs tushunchasining fanlararo mavqega egaligi;

– shaxsni tavsiflashning imkoniyatlari keng va boy ekanligi;

– individ, individuallik, faoliyat subyektivi va shaxs tushunchalarining o'zaro o'xshashligi va o'zaro aloqadorligi;

– shaxs tushunchasi etimologiyasining xilma-xilligi.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'noni anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kel-

gan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron-bir tanbeh berishning o'zi kimgadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri — bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyat-lari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok etishi, ta'lim

va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyandalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar.

Har bir shaxsning hayotda erishgan yutuqlari, baxtini xarakterlovchi ma'lum mezonlar borki, uni o'rganishda alohida fan yo'nalishiga zarurat tug'iladi. Bu esa insonning ijtimoiy faolligini ta'minlovchi shaxs tushunchasi bilan xarakterlanadi. Shaxs faol faoliyat subyekt bo'lib, u hayotining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib boradi.

Shaxsni izohlash. Shaxs psixologiyasining predmeti uni izohlashga nisbatan anchagina murakkab xarakterga ega, chunki insonlar xilma-xil bo'lganligi bois har xil vaziyatlarga qarab, o'zgarib turadilar. Shu sababli shaxsni tushunarli tilda izohlash uchun mos aniqlik va izohga ega bo'lish lozim. O'z navbatida shaxsni mos tarzda izohlashga mos keladigan tilga ham ega bo'lish kerak. Oqibatda shaxsni o'rganishning o'ziga xos prinsiplari va baholash vositalari — testlarni shakllantirishga olib keldi.

Shaxs psixologiyasida o'rganiladigan asosiy muammolardan biri shaxs rivojlanishi tahlilidir. Shaxs psixologiyada tahlil qilishda uning hayotining barcha bosqichlari, ongsizlik ta'sir ko'rsatadimi yoki bolalikdan keyingi davrlarda shaxs sifatida o'zgarish yuz beradimi? Ushbu tarzdagi savollarga javob izlash zarur bo'ladi.

Mazkur masalalarni shaxs psixologiyasining metodologik masalalaridan hal etish uchun qator shaxs nazariyalarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarning har bir muammoning o'ziga xos boshqotirma sifatida uni hal etishga e'tibor qaratganliklarining guvohi bo'lamiz.

Hattoki, ayrim yondashuvlarni o'rganish esa o'nlab yillarni taqozo etadi. Shaxs psixologiyasi esa mazkur masalalarga javob topishga intiladi.

Ongni o'rganish. Shaxs muammosini o'rganishga yondashuvning bir jihati uning ongini o'rganishga yo'nalganligidir. Psixologiya shaxsning ushbu jihatini o'rganishda tabiiy fanlarning metodlarini modifikatsiya qilish asosida erishdi. V.Vundt va boshqa psixologlar inson tabiatini o'rganishda tabiiy-ilmiy fanlar ta'sirida uni insonning aqlini o'rganishda foydalandilar. Ushbu tadqiqotlarda psixik jarayonlar eksperimental o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ularda cheklanishlar bor edi.

Xulq-atvorni o'rganish. XX asrning dastlabki o'n yiligidan amerikalik olim Djon B.Uotson biologik masalalarni o'rganishga e'tibor qaratdi va bu esa shaxs xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Vilgelm Vundtning qarashlariga zid edi. Uotsonning bu harakatlari bixeviorizm deb nomlandi. U psixologiya inson tabiatining moddiy jabhalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi. Uning g'oyasicha, tashqi xulq-atvor psixologiyaning o'rganish asosi bo'la oladi. Bu esa xulq-atvorni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Bixeviorizm esa inson tabiatining mexanik tasvirini o'zida ifoda etdi. Keyinchalik bu g'oyani Skinner boyitdi.

Shaxs psixologiyasining metodologik masalalarini boshlang'ich bo'g'inidan biri sifatida Freyd faoliyatini qayd etish mumkin. Venalik vrach Freyd psixoanalizga asos soldi. Bu esa uning vrachlik faoliyatida emotsional buzilishlardan aziyat chekkan insonlarni o'rganish orqali o'zining ilmiy yondashuviga asos soldi. U o'zining uzoq vaqtlilik seanslari asosida uning hayot to'g'risidagi ijodiy talqinlarini taqdim etdi. Uning yondashuvi eksperimental o'rganishdan keskin tafovut qildi. Freydning psixoanalitik yondashuvi inson tabiati haqidagi noyob qarashlarni ishlab chiqishga sabab bo'ldi.

G.Ollportning xizmatlari hisobida o'tgan asrning 30-yillariga qadar Garvard universitetida shaxs psixologiyasi amerika psixologiyasida bir tizimga keltirishga erishildi. Buning uchun

tadqiqot ishlari, o'quv kurslari va ilmiy jurnallar nashr etishga erishildi.

Shaxsni baholash metodlari. Shaxsni nazariy o'rganish oqibatida uni baholash metodlari shakllantirildi. Ushbu metodlar o'zining obyektivligi, ishonchliligi va aniqligi bilan farq qiladi. Metodlar o'z navbatida shaxsni o'rganish nazariyalariga muvofiqdir.

Bugungi kunda shaxsni baholashda asosiy yondashuvlar quyidagi tadqiqot metodlariga tayanadi:

– o'zi haqida hisob berish yoki obyektiv materiallar orqali baholash;

– proektiv metodlar;

– klinik intervyu;

– xulq-atvorni baholash vositalari.

Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash:

– shaxsning tipi va qirrasini bir insonning boshqasidan farq qilish imkoniyatini beradi.

Nomotetik yondashuv – guruhdagi insonlarning bir-birini biror-bir xususiyati yoki shaxslilik qirrasiga ko'ra qiyosiy o'rganish.

Ideografik yondashuv – bir insonni boshqa kishilar bilan qiyoslamasdan o'rganish.

Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari:

– verifikatsiya – nazariyaning empirik jihatdan tekshirilganligi va uning tasdiqlanganligi;

– keng qamrovli ekanligi – yaxshi nazariya boshqalari bilan bir xil sharoitda xulq-atvor fenomenlarini keng spektrda tushuntirishi;

– tatbiqiy qimmatga egalik – nazariya, inson hayotiy imkoniyatlarini oshirish uchun amaliy istiqbollarni tavsiya etish;

– nazariya bilan tadqiqot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

Shaxsning uzoq hayot yo'lida turli xil toifa insonlar hayot yo'lini tanlashda bir-biridan farq qiluvchi faoliyat yo'nalishiga ega bo'ladi. Bu esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchi, doimiy ravishda quvnoq bo'lishi boshlagan ishining qanday tarzda yakunlashiga sabab bo'ladi. Shaxsning maqsadiga erishishida uning optimistligi, emotsional barqarorligi uning ishonch va e'tiqodidan og'ishidan saqlaydi. Tolkina Sem Gemji murakkab

yo'lga duch kelganda o'zining tafovutli va ishonchli xulq-atvor modelini namoyish etadi. Bu shaxs modeli shaxsning tafakkur, tuyg'ulari va harakatlar modelini tavsiflovchi hisoblanadi (buni Den MakAdams va Djennifer Pals (2006) taqdim etgan), unda sotsial vaziyatlar va o'zining qirralarida ifoda etuvchi shaxs tabiatining noyob ko'rinishi sanaladi.

Shu bois navbatdagi masalalar insoniyat tarixining madaniy merosi sifatida xizmat qiladigan shaxs nazariyalariga qaratiladi. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan istiqbollar shaxs psixologiyasining muammolari yo'nalishini aniqlashga yordam beradi va bugungi kun tadqiqotlarida hal etilishi kerak bo'lgan masalalarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Xorijiy psixologiyadagi shaxs muammosiga doir ilmiy mabalarining tahliliy jihatlarida quyidagi ilmiy g'oyalar mazmuniga e'tibor qaratiladi:

- Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosida bolalik va ongsiz shahvoniylik motivlari shaxsga ta'sir ko'rsatishi tahlili taqdim etilgan.

- Gumanistik psixologiya yondashuvida esa shaxsning o'sishi va o'zining «Men»ini shakllantirishida ichki imkoniyatlarining o'rni yuqori ekanligi ilgari suriladi.

Bunday klassik yondashuvlar inson tabiatini yoritishning keng istiqbolini taqdim etadiki, ular yaqqol shaxslilik aspektidan ilmiy izlanishlar olib borishga xizmat qilmoqda. Shaxs muammosini o'rganayotgan zamonaviy tadqiqotlar muammoni shaxslilik, biologik jihatdan o'rganmoqdalar. Ularning asosiy mezonlari inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuviga ham tayanadi. Shuningdek, ular qadr-qimmat, og'ishlar, madaniy muhit ta'siri va boshqa jihatlar, xususan, ongsizlikni ham o'rganmoqdalar¹.

12.2. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Har qanday konkret fan boshqa fanlardan o'z predmetining xususiyatlari bilan farq qiladi. Psixologiya o'rganadigan

¹ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – P. 553.

hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash yanada qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko'p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog'liqdir. Qiyinchilik eng avvalo shundan iboratki, psixologiya o'rganadigan hodisalar kishilar aqlida allaqachonlardan buyon alohida hodisalar sifatida bo'rttirilib va hayotdagi boshqa ko'rinishlardan ajratilib kelindi. Chindan ham shu narsa mutlaqo ravshanki, mening yozuv mashinkasini idrok etishim qarshimdagi stol ustida turgan yozuv mashinkasining o'zidan, ya'ni real narsadan mutlaqo boshqa va farq qiladigan narsa hisoblanadi; mening chang'ida yurishga bo'lgan istagim haqiqatda chang'ida yurishga nisbatan allaqanday boshqa bir narsadir; mening Yangi yilni kutib olish haqidagi xotiram Yangi yil arafasida real tarzda yuz berganiga qaraganda farq qiladigan allaqanday bir narsa hisoblanadi va hokazo. Shu tariqa asta-sekin turli xil hodisalar to'g'risidagi tasavvurlar tarkib topadi va ular psixik hodisalar (psixik funksiyalar, xususiyatlar, jarayonlar, holatlar va boshqalar) deb nomlana boshladi. Bu hodisalarning alohida xarakterga egaligi ularning odamlarni qurshab turgan tashqi olamdagi hodisalardan farq qilishida, insonning ichki dunyosiga tegishli ekanligida ko'zga tashlanadi. Ularni real hodisalar va faktlarga qarama-qarshi qo'yiladigan ruhiy hayot («psixika» degan terminning o'zi yunoncha «psyuxe» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ruh» degan ma'noni bildiradi) sohasiga taalluqli deb hisoblashardi. Bu hodisalar «idrok», «xotira», «tafakkur», «iroda», «hissiyot» va boshqa shu kabi nomlar bilan guruhlariga ajratilib, hammasi birgalikda psixika, kishining psixik, ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ataladigan tushunchalarni hosil qiladi.

Garchi kundalik muloqot davomida boshqa odamlarni kuzatib borgan kishilar xulq-atvorining turli xil faktlari (harakatlari, qiliqlar, ish bajarish va hokazolar) bilan bevosita munosabatda bo'lsalar ham amalda o'zaro birgalikda harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj ularni tashqi xulq-atvor ortida yashirinib yotgan psixik jarayonlarni farqlay bilishga majbur qilgan. Kishining xatti-harakatlari zahirida hamisha unga dasturulamal

bo'lgan maqsadlar, mayllar, u yoki bu voqeadan ta'sirlanish zamirida esa xarakteriga xos asosiy belgilar tushunilgan. Uning uchun ham psixik jarayonlar, xususiyatlar, holatlar ilmiy tahlil predmetiga aylanishidan ancha ilgari kishilarda bir-birlari to'g'risida sodda psixologik bilimlar to'plana boshlagan. Bu bilimlar avloddan avlodga o'tgan holda tilda, xalq ijodiyoti yodgorliklarida, san'at asarlarida o'z ifodasini topa bordi. U, jumladan, maqol va matallarda mujassamlasha boshladi. «Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal» (ko'z bilan ko'rgan holda idrok etish va xotirada saqlab qolishning eshitishga qaraganda afzalliklari haqida); «Odat — kishining ikkinchi tabiatidir» (tug'ma xulq-atvor turlari bilan raqobat qila oladigan barqaror odatlarning roli haqida) va hokazolar.

Kishining shaxsiy hayot tajribasi ham unga psixika haqida muayyan tasavvur bera oladi: biron-bir matnni qaytadan o'qib chiqish uning kishi xotirasida yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam berishini, garchi «Takrorlash — ilmning onasi» degan maqol unga tanish bo'lmasa ham o'z shaxsiy tajribasidan bilib oladi.

Ijtimoiy va shaxsiy tajribada yuzaga kelgan sodda psixologik ma'lumotlar ilmiy psixologiyagacha yaratilgan psixologik bilimlarni tashkil etadi. Ular ancha keng miqyosli bo'lishi, ma'lum darajada tevarak-atrofdagi kishilarning xulq-atvoriga qarab ish qilishiga yordam berishi, birmuncha to'g'ri bo'lishi va voqelikka mos kelishi mumkin. Lekin, umuman olganda, bu bilimlar tizimlilikdan, teranlikdan, isbotlilikdan mahrumdir va shunga ko'ra ham bilimlar kishi psixikasi to'g'risida odamlar bilan ularning u yoki bu xilda kutilayotgan holatlardagi xulq-atvorini taxmin qilish imkonini beradigan hamda ilmiy, ya'ni obyektiv va ishonarli bilimlarni talab qiladigan jiddiy (pedagogik, davolash, tashkiliy va boshqa shu kabi) ish olib borish uchun mustahkam negiz bo'la olmaydi.

Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan konkret anatomik-fiziologik apparatlarining ishlashini taqozo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiati va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya,

biofizika, biokimyo, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi.

Shunday qilib, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi.

Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko'ra pedagogika shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, psixologiya fanining predmetini – shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko'ra psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;
- bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- shaxsning hissiy-irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

12.3. Psixologiya fanining tamoyillari

Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab-ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlar ma'naviyatini boyitish uchun ularning dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi, umuman olganda ongini o'stirish juda zarur. Buning uchun eksperimental psixologik tadqiqot ishlarini kuchaytirish, ta'lim va tarbiya jarayonini yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida qayta qurishi lozim. Hozirda Respublikamiz universitetlarining psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalari ilmiy fikrlar markaziga aylantirilmoqda.

Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o'tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, fan sohasida tadqiqotlar shu darajada ko'pay-

diki, ular ma'lum qonun-qoidaga tayanishi lozim. Shu bois olib borilayotgan izlanishlarga asos bo'lishi uchun tamoyillar ishlab chiqildi.

Shunga ko'ra psixologiyaning tamoyillari quyidagicha:

- 1) determinizm tamoyili;
- 2) ong va faoliyat birligi tamoyili;
- 3) psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili.

Tamoyil – ma'lum faoliyatni bajarishda tayaniladigan dastlabki qoidalar tizimidir.

Determinizm tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

Ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatning ichki rejasini, daturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va faoliyatlarini o'rganish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ko'ra, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to'g'ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixolog olimlar ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vigotskiy ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini, P.P.Blonskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan, bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn «Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi» degan edi.

12.4. Psixologiyaning asosiy metodlari

Ma'lumki, har qanday fan o'z predmetiga ega. Psixologiyaning predmeti psixika bo'lib, u obyektiv olamni psixik hodisa-

lar asosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz subyekt faoliyatini, xulq-atvorini maqsad sari yo'naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisa qonuniyatlarini bilish uchun ma'lum bir metodlardan foydalanadi. I.P.Pavlov «Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi» degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiy metodologiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng ma'noda oladigan bo'lsak, u ma'lum tizimga ega bo'lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan metodlardir. Ko'pchilik olimlar bu atamani ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi deb ta'kidlaydilar.

Metodologiya (yunoncha methodes — bilish, tadqiq qilish, izlanish yo'li, logos — tushuncha, ta'limot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi ta'limotdir. Metodlar — psixologiyani o'rganish usullari va yo'llari yig'indisi, «Metod» bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi (S.L.Rubinshteyn).

Metodologiya — uslubiyot deb ilmiy tadqiqot tamoyillari tizimiga aytiladi. Aynan, metodologiya to'plangan faktlar bilimning real va ishonchli asosiga qay darajada xizmat qilishi mumkinligini aniqlaydi.

Rasmiy nuqtayi nazardan, metodologiya real hayot haqidagi bilimlar mazmuni bilan bog'liq bo'lmay, balki bilimlarni tashkil etish borasidagi jarayonlar bilan ish ko'radi. Shuning uchun «metodologiya» termini, odatda, tadqiq etilgan protsedura, texnika, usullar majmuini va ma'lumotlar to'plash, ularni qayta ishlashni anglatadi.

Metodologiyani mohiyatan tushunish tadqiqot predmeti doirasidagi evristik (ya'ni izlanayotgan) funksiyani amalga oshirish asoslanadi. Har qanday nazariy bilimlar tizimi na faqat predmet doirasidagi tasvirlash va tushuntirish mazmuniga ega bo'ladi, balki, bir vaqtning o'zida yangi bilimlar izlanishida qurol hisoblanadi.

Predmet doirasidagi obyektiv hayotni aks ettiruvchi nazariya qanchalik tamoyil va qonunlarni shakllantirsa u shunchalik voqelikning o'rganilmagan qirralariga kirish usullarini ko'rsatadi. Gegelning ta'kidlashicha: «Har qanday fan amaliy mantiqdir».

A.N.Kupriyan nazariyaning 3 ta asosiy metodologik funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: mo'ljallangan, bashoratlangan, klassifikatsiyalangan – tasnifiy. Birinchisi, tadqiqotchi harakatini ma'lumotlar olishga yo'naltirsa; ikkinchisi, ba'zi maxsus sohalarda o'ziga xos bog'liqlikni tiklashga suyanadi; uchinchisi esa xususiyat va aloqalarni namoyon qilish yo'li orqali faktlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning ma'lum darajada mumkin qadar obyektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod – uslubning ma'nosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G.Ananev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qilgan.

B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

a) tashkiliy guruhga – qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

b) empirik guruhga – kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

d) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;

e) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar empirik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo'lsada boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, tibbiyot psixologiyasida — sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quv-liligini va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixolog olimlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smironov, B.G.Ananov, D.B.Elkonin, P.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Longityud metodidan nemis psixologi V.Shtern, fransuz psixologi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima-Zuhra yoki aralash jinsli Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o'ziga xosligini obyektiv shart-sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uning o'zgarishi, kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan obyektidagi o'zgarishlar turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirish-

ning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni asosiy va yordamchi metodlarga bo'linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirsa, yordamchi metodlarga suhbat, so'rovnoma, test, sotsiometriya va faoliyat mahsulini tahlil qilish kabi metodlarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi — ikki xil bo'lib, obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan obyekt tanlanadi;
- d) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- e) kuzatish qancha davom etishi qat'iy lashtiriladi;
- f) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;
- g) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;
- h) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi.

Masalan, o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o'z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig'ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chehrasidagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashqari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Psixologiyada o'z-o'zini kuzatish, ya'ni introspeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo'lmagan metodi hisoblanadi.

Tajriba yoki eksperiment metodi — o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslari 1910-yilda rus psixologi A.F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari,

ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi sirtidan kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Sirtidan kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o'zgartirmaydi. Tabiiy eksperiment metodidan foydalan-ganda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879-yi-li V.Vundt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki, bun-da o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan, idrok, diqqat, xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksperimenti sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni xohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni xohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtini tejash imkonini bersa, ikkinchidan, har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagi ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini o'quv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniqlash va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblardan foydalaniladi.

mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin. Elektron taxistoskop orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, perseptometr orqali idrok qilish xususiyatlarini o'rganish mumkin, audiometr orqali eshitish xususiyatlarini o'rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksperimentining imkoniyati ortib bormoqda.

Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Lekin laboratoriya eksperiment metodining ham ma'lum kamchiligi mavjud. Bu kamchilik shundan iboratki, laboratoriya sharoitida o'tkazilayotgan tekshirish hech vaqt ma'lum sun'iylikdan xoli bo'lmaydi. Tekshirilayotgan odamga hech narsa deyilmasa ham, baribir laboratoriya sharoitining o'zi tekshirilayotgan odamning tabiiy psixik holatiga ta'sir qiladi. Binobarin, bu narsa o'z navbatida tekshirish natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Ana shuni nazarda tutib laboratoriya eksperimenti yordami bilan qo'lga kiritilgan natijalarni ba'zan boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko'rish lozim bo'ladi. Laboratoriya eksperimenti metodi maxsus xona va turli asboblardan bog'liq bo'lganligi sababli bu metoddan ayrim sharoitlarda foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun psixologiya fanida laboratoriya eksperimenti bilan bir qatorda tabiiy eksperiment metodidan ham keng foydalaniladi.

Yordamchi metodlar

Suhbat metodi bilan inson psixikasini o'rganishda foydalaniladi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning obykti va subykti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi

o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o'tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog'liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi.

O'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim.

Suhbat paytida berilgan savollarga «ha», «yo'q» kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak.

Sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so'zlar, «g'aliz» iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning yetishmasligi, iymonish, uyalish atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod faoliyat psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o'rtasida muloqot

oʻrnatish uchun shaxsning psixikasi toʻgʻrisida sirtidan maʼlum hukm, xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, oʻquvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari toʻgʻrisida maʼlumotlar toʻplash mumkin. Lekin insondagi psixik oʻzgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yigʻish uchun bu metodning oʻzi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasi-ni oʻrganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish maʼqul.

Test metodi – «Test» inglizcha soʻz boʻlib sinash, tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy oʻsishini, qobiliyatini, irodaviy si-fatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qoʻllani-ladigan qisqa standart masala, topshiriq test deb ataladi. Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasb-ga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, isteʼdodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qoʻllaniladi. Test metodining qimmatini taj-ribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yigʻilgan psixologik materiallarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bogʻliqdir.

Biografiya (tarjimai hol) metodi – inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti toʻgʻrisidagi ogʻza-ki va yozma maʼlumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu bora-da kishilarning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, oʻzgarlar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida oʻrin egallaydi. Shu bilan birga oʻzgarlar tomonidan toʻplangan tarjimai hol ha-qidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar oʻrganilayot-gan shaxsni toʻliqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol maʼlumotlari inson psixikasidagi oʻzgarish-larni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan oʻrga-nib boʻlmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi.

Soʻrovnoma metodi – psixologiyada keng qoʻllaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlar-ni psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga munosabat-lari oʻrganiladi. Soʻrovnoma odatda 3 xil tuzilishda boʻladi.

Ularning birinchisi anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So'rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga amerikalik sotsiolog Dj.Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a'zolarining bir-birlari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ko'rsatib o'ting.
2. Psixologiya fanining shakllanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Psixologiyaning moddiy asosi nimalar bilan belgilanadi?
4. Ong tushunchasining mohiyatini izohlang.
5. Insonlarda ongsizlik holati qachon ro'y beradi?
6. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari qaysilar?
7. Tashkiliy guruh metodlarini tushuntirib bering.

XIII bob. PSIXOLOGIYA ZAMONAVIY FANLAR TIZIMIDA

Tayanch tushunchalar: psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi, psixologiya tarmoqlari, psixologiya sohalari, ijtimoiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, psixoterapiya, pedagogik psixologiya

13.1. Psixologiyaning boshqa fanlar tizimida tutgan o'рни

Psixologiya ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog'liqliklar psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Bir qator bir-biri bilan yondosh bo'lgan fanlar mazkur tasniflashga kiritiladi, lekin psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi. Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liq. Shunga muvofiq psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya falsafa fani bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlantirish an'analarini belgilashdagi o'рни va ahamiyatidan kelib chiqadi.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlar bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ong shakllanishiga taalluqli, umumiy, ilmiy qonuniyatlarni tizimlashda bu ikkala fan — falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy istiqloq g'oyalarini yurtdoshlarimiz ongi va tafakkurida shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda.

Sotsiologiya fani ham yangicha munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, psixologiya ushbu fan tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo'llanilishiga, ommalashishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda rivojlanib, ajralib chiqqan bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. Qolaversa, huquqiy-demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr, insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fan metodologiyasi va metodlarini birlashtirish bilan bog'liq tatbiqiy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularni yosh avlod tarbiyasining zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuziga xosdir. O'z-o'zidan ravshanki, bunday aloqa hamisha ham mavjud bo'lib kelgan va buni ilg'or psixologlar hamda pedagoglar tushuntirib berishga harakat qilishgan. Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o'z ahamiyatiga ko'ra psixologiya barcha fanlar ichida birinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlagan edi. «Kishini har jihatdan tarbiyalamoq uchun, — deb qayd etgan edi K.D.Ushinskiy, — uni har jihatdan o'rganmoq darkor».

Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning amalga oshirilishi ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uni chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning

o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish an'analaridan tortib, toki yangi-cha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qobiliyatlarga nechog'liq ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish, psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Tabiiy fanlar – biologiya, fiziologiya, kimyo, fizika va boshqalar psixik jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun materiallar beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizimining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot usullaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etganligi sababli unga tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiya fanining predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika fani tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturlardan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX asrda va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan XXI asrda global axboriy jarayonlar va yangi ilg'or texnologiyalarni modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini

yanada takomillashtirish, har bir soʻzning shaxslararo munosabatlardagi taʼsirchanligini oshirish maqsadida, hamda ana shunday ijtimoiy faoliyatli jarayonda shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellardan oʻrinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi oʻrni va rolini oshiradi hamda maxsus kompyuter dasturlarining keng qoʻllanilishi, inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq oʻrganishni kafolatlaydi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning oʻzaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, hozirgi kunga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan, murakkab texnikani boshqaruvchi inson muammosini yechishda, ikkinchi tomondan psixik holatning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yoʻnalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham boʻlsa, texnika taraqqiyotiga bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan muloqot qilayotgan shaxs faoliyatini yanada takomillashtirish va uning imkoniyatlariga mosligi masalasi ham ana shu hamkorlikda qilinishi lozim boʻlgan masalalardir.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning oʻzaro aloqasi va hamkorligi XX asrning yangiliklaridan boʻlib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich oʻtish sharoitida iqtisodiy ong ham iqtisodiy xulqning oʻziga xos namoyon boʻlish qonuniyatlarini oʻrganishda ikkala fanga xizmat qiladi.

Psixologiyaning tabiatshunoslik bilan aloqasining tobora mustahkamlanishiga quyidagi omil asosiy sabab boʻlgan. Bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Eksperiment metodining G.Fexner tomonidan fanga joriy etilganligi ana shu jumladan boʻlib, bu I.M.Sechenovning «Bosh miya reflekslari» kitobi bosmadan chiqqanidan keyin ayniqsa keng tus olgan edi. Bu kitobda psixik hodisalar ham xuddi odam organizmining boshqa barcha funksiyalari kabi tabiiy hodisalar ekanligi, ular sababsiz yuz bermasdan, balki nerv tizimining reflektor aks etishi faoliyati natijasi ekanligi koʻrsatib berilgan edi. I.M.Sechenovning reflektor nazariyasi psixologik

bilimlarning tabiiy-ilmiy negizini tashkil etadi. Bu nazariya keyinchalik I.P.Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'limotida uning shogirdlari L.A.Orbeli P.K.Anoxin K.M.Bikov, N.I.Krasnogorskiylarning asarlarida, shuningdek, A.A.Uxtomskiy N.A.Bernshteyn, I.S.Beritashvili va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantiriladi. Hozirgi paytda psixologiya fanining tabiiy-ilmiy jihatdan bu xilda asoslanganligi olimlar tomonidan miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlari o'rganilayotganligi hisobiga tobora kuchaytirilmoqda.

Tibbiyot psixologiyasi asoslarini tadqiq etgan klinik psixologlar (V.M.Bexterov, S.P.Botkin, S.S.Korsakov, A.R.Luriya, V.N.Myasishchev va boshqalar) tadqiqotlarining kishi xulq-atvorida psixikaning qanday rol o'ynashini aniqlashdagi o'рни kattadir. Psixologiya va tibbiyotning tutashgan joyida bo'lgan tibbiyot psixologiyasi psixologiya fanining yutuqlarini kasalliklarning oldini olish bilan bog'liq masalalarni o'rganishda qo'llab kelayotir. Kasallikning zo'rayishi bir tomondan psixik omillarga (tushkunlikka berilish, vasvasaga tushish, hadiksirash va shu kabilarga) bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, dardning o'zi ham, jumladan terapevtik muolajaning samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin bo'lgan alohida psixik holatlarni keltirib chiqaradiki, bu hol vrach va psixologning kuch-g'ayratlari birlashtirilishini zarurat qilib qo'yadi. Shu bilan barobar miya qobig'ining ba'zi bir joylari, masalan, chakka qismi lat yeganda psixikaning buzilishini klinik-psixologik tadqiq qilish natijasida idrok va xotiraning qonuniyatlarini tushunish imkonini beradigan yangi ma'lumotlar olingdi. Psixolog – klinik bemorning og'zaki yoki yozma nutqi psixologik jihatdan buzilishi xususiyatlarini aniqlab, dardning manbayi kishi bosh miyasi katta yarim sharlarining muayyan bo'lmasida ekanligini qayd qiladi va bu bilan neyroxirurgiyaga yordam beradi.

13.2. Psixologiyaning zamonaviy tarmoqlari va istiqbollari

Hozirgi zamon psixologiya sohalari hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalar o'ziga xos obyektga ega

bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois fan sohalarini o'rganish qulay bo'lishi uchun tarmoqlarni ma'lum tizimga keltirish maqsadida ma'lum guruhlarga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari surdi:

- ▶ Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.
- ▶ Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.
- ▶ Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalarini.

Aniq faoliyat turiga ko'ra psixologiyaning quyidagi turlari mavjud:

– mehnat psixologiyasi: inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o'rganadi. Mehnat psixologiyasining bir nechta bo'limlari mavjud:

a) muhandislik psixologiyasi – inson bilan mashina o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash masalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o'rganadi;

b) aviatsiya psixologiyasi – uchishga o'rganish jarayoni va uchish moslamalarini boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi;

d) kosmik psixologiya – vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtda va organizmga juda ko'p ortiqcha ta'sirlar yuklangan paytda asab va ruhiy zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda odam faoliyatining xususiyatlarini o'rganadi.

Pedagogik psixologiya – uning predmeti o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, o'quvchilar tafakkurining taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya bo'limlari quyidagilardir:

- a) ta'lim psixologiyasi;
- b) tarbiya psixologiyasi;
- d) o'qituvchi psixologiyasi.

Tibbiyot psixologiyasi – shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. Uning quyidagi tarmoqlari mavjud:

a) neyropsixologiya – psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadi;

b) psixofarmakologiya – dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadi;

d) psixoterapiya – bemorni davolash uchun ruhiy ta’sir vositalarini o‘rganadi.

Yuridik psixologiya – huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik masalalarni o‘rganadi. Uning quyidagi tarmoqlari mavjud:

a) sud psixologiyasi – jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini, ruhiy xususiyatlarini tahlil qiladi;

b) kriminal psixologiya – jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlari bilan shug‘ullanadi.

Harbiy psixologiya – kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog‘liq hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini, psixologik targ‘ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o‘rganadi.

Sport psixologiyasi – sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi.

Savdo psixologiyasi – asosan rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo‘lib, kishilar ruhiyatiga tijorat ta’sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

San’at psixologiyasi – san’at asarlarining yaratilishida faoliyatning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarning idrok etilishi, turli hodisalarning paydo bo‘lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o‘rganadi.

Ilmiy ijodiyot psixologiyasi – ilmiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, ijodiyotda intuitsiya va ilhomni tadqiq qiladi.

Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi sohalari:

A) yosh davrlari psixologiyasi – inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezda rivojlanishini o‘rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi, o‘smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo‘linadi;

B) patopsixologiya – miya faoliyati buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o‘rganadi.

Oligofrenopsixologiya – miyaning tug‘ma kamchiliklari tufayli paydo bo‘ladigan bo‘limlarni o‘rganadi.

Surtopsixologiya – eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning rivojlanishini o‘rganadi.

Tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati past yoki umuman ko‘rmaydigan kishi faoliyatini o‘rganadi.

Qiyosiy psixologiya – hayotning filogenetik shakllarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi bo‘lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o‘xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Akmeologiya yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darajasi ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho‘qqiga erishish xususiyatlarini o‘rganadi.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari:

1. **Ijtimoiy psixologiya** – uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonida paydo bo‘ladigan psixologik hodisalarni o‘rganadi.

2. **Differensial psixologiya** – shaxs shakllanishining individual psixologik yo‘naltirilganligi kabi xususiyatlarni o‘rganadi.

3. **Din psixologiyasi** – inson ongiga diniy qarashlarning ta’siri masalalarini o‘rganadi.

4. **Etnopsixologiya** – inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg‘u, milliy g‘oya, o‘z-o‘zini

anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o'rganadi.

5. **Boshqaruv psixologiyasi** — bu psixologiya fanining shunday sohasiki, unda inson tomonidan boshqarishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

6. **Marketing psixologiyasi** — yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarni boshqarishni hamda ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini tadqiq qiladi.

Nazorat savollari:

1. Ruh va ong haqidagi antik davr va o'rta asrlardagi qarashlarni tushuntirib bering.

2. XVII asr biologik va psixologik bilimlarni tavsiflab bering.

3. Refleks haqidagi tushuncha va uning mohiyati nimadan iborat?

4. Assotsiativ psixologiyaning mohiyatini tushuntirib bering.

5. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi qanday namoyon bo'ladi?

6. Psixologiyaning sohalarini sanab bering.

XIV bob. PSIXIKA VA UNING EVOLUTSIYASI

Tayanch tushunchalar: ong, psixika, ongsizlik, hayvon psixikasi, intellektual xatti-harakatlar, instinkt, refleks, ong xossalari, seskanuvanlik, tropizm, sezuvchanlik, fototropizm, aks ettirish shakllari.

14.1. Psixika haqida tushuncha

Psixika miyaning xususiyatidir. Sezgi, fikr, ong maxsus tarzda tashkil topgan materiyaning oliy mahsulidir. Organizmning psixik faoliyati tananing ko'p sonli maxsus a'zolari vositasida amalga oshiriladi. Ulardan ba'zi birlari ta'sirotlarni qabul qilsa, boshqasi ularni signallarga aylantiradi, xatti-harakat rejasini tuzadi va uning ijrosini nazorat qiladi, uchinchi bir xili xatti-harakatga kuch-g'ayrat va shiddat bag'ishlaydi, to'rtinchi xili mushaklarni harakatga keltiradi va hokazo. Ana shu murakkab ishning hammasi organizmning tashqi muhitga faol muvofiqlashuvini va hayotiy vazifalarning hal etilishini ta'minlaydi.

Organik dunyoning amyobalardan to odamga qadar uzoq davom etgan evolutsiyasi davomida xulq-atvor va xatti-harakatlarning fiziologik mexanizmlari to'xtovsiz murakkablashib, tabaqalanib va shular tufayli organizm muhit o'zgarishlariga tez reaksiya qila oladigan va moslashuvchan bo'la bordi.

14.2. Hayvon psixikasining rivojlanishi

Kishi psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo'lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Materialistik yo'nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo'lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izohlashadi. Ular materiyaning tabiatini tadqiq qilisharkan, harakat materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban o'ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakati-ning turli xil shakllarini o'rganadilar. Harakatsiz, hamisha mutlaqo harakatsizlikdagi materiya umuman bo'lmaydi. Ola-

mdagi butun materiya jami noorganik va organik tabiat harakatlanish, o'zgarish va rivojlanish holatida bo'ladi.

Jonsiz, noorganik materiyadan tortib to eng oliy va murakkab materiya hisoblanmish kishi miyasiga qadar barcha materialar moddiy olamning yalpi xususiyati – in'ikos etish xususiyatiga, ya'ni ta'sirotlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. In'ikos materiyaning mavjud bo'lish shakllariga bog'liq bo'ladi: in'ikos tashqi ta'sirotlarga materiyaning ta'sir qilish xarakteri va mavjud bo'lish tarziga muvofiq javob qaytarishga qodirligi bilan namoyon bo'ladi.

Jonsiz tabiatda harakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy ta'siri tarzida yuz berishi mumkin. Noorganik tabiatdagi harakatning oddiy misollariga e'tibor qiling: dengizdagi g'oya suvning ta'siriga muayyan qarshi tik ko'rsatadi – to'lqinlar qoyaga urilib qaytadi, lekin qoyaning o'zi ham sekin-asta yemirila boshlaydi; quyosh nuri suv yuzasiga kelib urilgach, sinib qaytadi; elektr razryadlari natijasida ozon molekulalari hosil bo'ladi. Jonli materiyaga o'tishda uning harakati tarzi ham sifat jihatidan o'zgaradi. Jonli materiyaga in'ikosning biologik shakllari xos bo'lib, jonli materiyaning ma'lum bir bosqichida esa in'ikosning yangi shakli sifatidagi psixika paydo bo'ladi.

Materiya harakatining biologik shakli – hayot-tabiat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir. O'lik materiyadan tirik materiyaga o'tishini izohlaydigan qator gipotezalar mavjuddir. Ulardan biri A.I.Oparinga tegishli bo'lib, unga ko'ra organik moddalar – atomlari turli shakllarda azotning, kislorodning, vodorodning, fosfor va oltingugurtning atomlari bilan bog'langan modda – uglerod negizida hosil bo'lgan birikmalarning paydo bo'lishi jonli materiya paydo bo'lishining zarur sharti hisoblanadi. Hozirgi paytda fanda A.I.Oparinning gipotezasini tasdiqlaydigan juda ko'p ma'lumotlar mavjuddir.

Oparinning gipotezasiga ko'ra, taxminan ikki milliard yil ilgari atmosferada erkin kislorod ajralib chiqib, organik moddalarda fotokimyoviy reaksiyaning va fotosintezning yuz be-

rishiga olib keldi. Birinchi galgi okean bamisoli xuddi organik moddalardan tayyorlangan allaqanday «sho'rva»ga o'xshash bo'lgan. Organik birikmalarning rivojlanishi jarayonida uglerodning juda ham murakkab birikmalari — benihoya katta molekulalar paydo bo'ldi. Molekulalar shunisi bilan ajralib turishardiki, ular tarkibiy qismlarga osongina parchalanishardi. Bu birikmalarning mavjud bo'lib turishini ta'minlash uchun muhit bilan doimiy modda almashinuvi bo'lib turishi, ya'ni bu molekulalar muhitdan yangi moddalarni tanlab olib, chatishtirishlari (o'zlashtirishlari) va parchalanish mahsulini o'zga tusga kiritgan holda tashqi muhitga ajralib chiqarishlari lozim edi. Shunday qilib, bu benihoya katta molekulalar muhit bilan modda almashinuvini avtokatalitik tarzda yo'naltirib, o'zini-o'zi qaytadan hosil qiluvchi tizimga aylanib qolishdi. Oqsilli molekula bilan muhit o'rtasidagi modda almashinuvi avval boshdanoq faol jarayon edi. Bu benihoya katta molekulalar koatservatlar degan nom bilan atala boshladi. Koatservat tomchilari ma'lum ma'noda to'yimli moddalar uchun kurashda o'zaro raqobat qilishardi, degan taxminlar ham bor. Bu tomchilarning ancha qulay kimyoviy tarkibiga yoki strukturaga ega bo'lgan ba'zi birlari boshqalariga nisbatan tezroq o'sdi. Ular ertaroq kattalashib, beqaror bo'lib qolishar va ancha mayda zarrachalarga parchalanib ketishardi. So'ngra jarayon yana takrorlanishda o'sish, parchalanish va hokazo. Kimyoviy tarkibi birmuncha farq qiladigan tomchilarning qo'shilishi ham sodir bo'lib turardi. Shunday qilib, koatservatlar bir qancha xususiyatlarga ega edi, shu tufayli ularni tirik moddaning strukturasi sifatida qabul qilish mumkin.

Qo'zg'aluvchanlik. Tropizmlar

O'simlik va hayvonlarga mansub shakllar evolutsiyasining barcha bosqichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning alohida, biologik shakli — ta'sirlanuvchanlikka ega bo'ladi. Ta'sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik ahamiyatga ega bo'lgan (biotik) ta'sirotlarning ta'siriga javob berish qobiliyati demakdir.

Oddiy ta'sirlanuvchanlik sodda, bir hujayrali tirik organizmdayoq seziladi. Ular muhitning ta'siriga harakatlanish bilan javob beradi. Muhit biotik ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lib, buning natijasida jonli organizmda protozdazmaning xossasi o'zgaradi. Qo'zg'atish ta'siriga uchraydigan o'zini tartibga soluvchi tizim sifatidagi tirik hujayrada qidiruv harakatlari hosil bo'ladi. Agar muhit ta'siri mazkur hujayraga xos kimyoviy tarkib va protoplazma strukturasi qayta tiklashga yordam bersa, hujayraning izlash harakati to'xtaydi.

Biotik omillarga nisbatan o'ziga xos harakatlar bilan javob berish usullari tropizmlar yoki taksislar deb ataladi. Uning fototropizm — jonli organizmning yorug'lik ta'siri ostida harakatlanish tendensiyasi; termotropizm — issiqlik ta'siri ostida harakatlanish tendensiyasi; xemotropizm — muayyan fizikaviy-kimyoviy muhitni tanlash tendensiyasi; topotropizm — mexanik usul bilan qo'zg'atuvchining ta'siri harakatlanish tendensiyasi kabi turlari va boshqa bir tropizmlar mavjud. O'simliklarning biologik in'ikos etish shakli o'zini tartibga solishga yordam beradigan tropizmlarning mavjudligi bilan mukammallik kasb etadi.

Hayvonlarga mansub shakllarda ta'sirlanuvchanlikning yangi turi — sezuvchanlik paydo bo'ladi. A.N.Leontevning gipotezasiga ko'ra, sezuvchanlik «genetik jihatdan qaraganda, muhitning organizmni boshqa ta'sirotlar bilan bog'lovchi, organizmni muhitda mo'ljal olishiga yordam beruvchi, signallik vazifasini o'tovchi ta'sirlarga javob ta'sirdan bo'lak narsa emas». Ta'sirlanuvchanlikdan sezuvchanlikka o'tilishi hayot tarzining o'zgachaligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham ma'lum bir sharoitlarda hatto oddiy hayvonlar ham biotik ta'sirotlardan emas, balki mazkur konkret vaziyatda turli xildagi biotik ta'sirotlar ro'y berayotgani haqida signal berishi mumkin bo'lgan abiotik, indifferent ta'surotlardan ham ta'sirlana boshlashi mumkin.

Hayvonlarning organizmlarida biotik va abiotik omilni sezuvchanlikning mavjudligi tufayli o'simliklarga qaraganda

ham ancha ko'proq ta'sirotlarni aks ettirish imkoniyati vujudga keladi.

Jumladan, infuzoriyalarda ular uchun neytral (befarq) belgi hisoblangan yorug'likda ta'sirlanishning hosil bo'lishi kuzatildi.

Shubhasiz, bu o'rinda gap faqat muvaqqat bog'lanishlarning hosil qilinishiga nisbatan yuz beradigan tendensiya haqida borishi mumkin, xolos. Chunki bir hujayralilarda mustahkam shartli bog'lanishlar haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas: bunday bog'lanishlar hosil bo'lishga ulgurmasidanoq yo'qolib ketadi. Buning ustiga in'ikosning yo'qolgan shakllari qaytadan tiklanmaydi va in'ikosning bunday shakllaridan mahrum bo'lgan hayvonlar biologik ehtiyojlariga mos keladigan shart-sharoitlarni qidirishga yangitdan urina boshlashi kerak.

In'ikos etish darajasi ko'p hujayrali hayvonlarda ancha yuksakroqdir. Bir hujayralilarga o'xshab suvli muhitda hayot kechiradigan kovakichakliklar (masalan, o'troq holda yashaydigan gidroid poliplar, meduzalar) eng sodda ko'p hujayralilar jumlasiga kiradi. Lekin bu organizmlarning tuzilishi bir hujayralilarga nisbatan anchagina murakkabroqdir. Murakkabligi bu hayvonlarning ko'p hujayrali ekanligida emas, balki ulardagi hujayralarning nisbatan bir xil emasligidadir: masalan, tanasining tashqi qismida sanchiladigan (chaqadigan) hujayralar joylashgan bo'lsa, ichki qismi esa ovqat hazm qiladigan hujayralar bilan qoplangan bo'ladi. Ko'p hujayralilarning organizmida, shuningdek, organizmning biron-bir qismida ro'y bergan qo'zg'alishning o'tkazgichi funksiyasini bajaradigan alohida sezuvchan protoplazmalı hujayralar ham bo'ladi. Alohida sezuvchan (nerv) hujayralari o'zaro birikib, hayvonning butun tanasiga yoyilgan nerv shoxobchasini tashkil etadi. Kovakichaklilardagi qisqichlar o'ljani ushlab turish organlari yuksak darajada sezuvchandir.

Hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari

Ayrim narsalar o'rtasidagi murakkab munosabatlarning aks ettirilishi intellektual xatti-harakatlar negizini tashkil etadi. Quyidagi tajriba intellektual xatti-harakatga misol bo'la oladi.

Tajriba o'tkazilgan asbob ikkita bo'sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg'aning ko'z o'ngida ipga bog'langan xo'rak — bir parcha go'sht joylashtirildi. Qarg'a xo'rakning naycha ichiga kiritilganini, ikkinchi naychaga o'tadigan joydagi yoriqdan bir lahza paydo bo'lib, ikkinchi naycha ichiga kirib ketganini ko'rdi. Qarg'a shu zahotiy oq ikkinchi naychaning oxiriga sakrab bordi va xo'rakning paydo bo'lishini kutib turdi. Keltirilgan misol shuni ko'rsatadiki, yuksak taraqqiy etgan hayvonlar narsalar o'rtasidagi munosabatlarni payqash qobiliyatiga va mazkur vaziyatning natijasini oldindan bilish qobiliyatiga ega.

Olimlar yuksak taraqqiy etgan hayvonlar orasida primatlarni (odamsimon maymunlarni) alohida o'ringa qo'yadilar. Primatlar ko'plab boshqa sutemizuvchilardan farqli o'laroq, faqat ozuqa emas, balki turli xildagi narsalar vositasida qilingan hiylalarga ham befarq qarab turishmaydi. Bu xildagi qiziqishni «qat'iy» va «beg'araz» qiziqish (I.P.Pavlov), «tadqiqot impulsi» (Y.Y.Voytonis) deb atashadi. Maymunlarda bu xildagi faoliyatning faolligi ko'rish qobiliyatining yuksak darajada rivojlangani bilan qo'shilib, ularning idrok etish doirasini beqiyos kengaytirib, tajribasini behad oshirib yuboradi va malakalarning hosil qilinishi uchun, xatti-harakatlarning murakkab turlari paydo bo'lishi uchun boshqa hayvonlardagiga qaraganda anchagina kuchli negiz yaratadi.

Maymunlar intellekti (aqli) ular bajaradigan vazifalarning faqat murakkabligi bilan emas, balki ular faoliyatining yo'naltirilganligi bilan ham belgilanadi. Maymunlar qo'lga tushgan narsani soatlab titib o'tirishi, odamni qafasiga har xil usullar bilan mahliyo etishi, sudralib ketayotgan qurt-qumursqalarni kuzatishi mumkin va hokazo. Maymunlar xatti-harakatining bunday xususiyatlariga ega ekanligi ularning hayot kechirish usuli bilan izohlanadi. Tabiiy sharoitlarda maymun oziqa izlab, uzluksiz ravishda «tekshirish» faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Yovvoyi shimpanzelarda «taomlarning» sakson bitta xili mavjud. Ularning yarmisi meva-chevalar bo'lsa, to'rt dan bir qismi barglardan iboratdir. Qolgan qismini don-dun, gullar, poyalar,

daraxt po'stlog'i tashkil etadi. Shimpanzalar bulardan tashqari hasharotlar va qurt-qumursqalar bilan oziqlanadi. Onda-sonda ularning «dasturxonida» kaltakesaklar, mayda kemiruvchilar, ba'zan esa yirik hayvonlar ham bo'lib turadi. Bundan shu narsa tushuniladiki, maymunlarda mo'ljal olish — tadqiqotchilik xatti-harakatining yuksak darajada taraqqiy etganligi, ularning istalgan obyektlarga qaratilgan qiziqishlari aniq shakllangan biologik asosga egadir. Maymunlar iste'mol qiladigan mevalarning turli-tuman shaklga va tusga egaligi ular tomondan faqat farq qilinadigina emas, balki shartli reflekslar hosil bo'lishi natijasida tegishli ta'm belgilari bilan ham bog'lanadi. Maymun ovqat izlayotib, mevalarni iste'mol qilish mumkin bo'lganlarini iste'mol qilib, bo'lmaydiganlari va zaharlilardan bexato ajratadi.

Biroq, yuksak taraqqiy etgan katta maymunlarning instinktiv xatti-harakati bir hujayrali tuban hayvonlar instinktidan jiddiy farq qiladi. Yuksak taraqqiy etgan maymunlar (jumladan, shimpanze)da xatti-harakatning uya qurishdek tug'ma shakli mavjuddir. Tabiiy sharoitlarda ular har kuni daraxtlarda shox-shabbalardan uya qurishadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, maymunlar uya qurishda materiallarni tanlash chog'ida amaliy tahlilga binoan ish ko'rishadi.

Shunday qilib, uya qurish maymunlarda garchi instinktiv harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo'lsa ham bu harakatlarning tashqi shart-sharoitlar hisobga olingan holda yuz berdi.

14.3. Asab tizimining tuzilishi va psixika

Bir hujayrali, masalan, amyoba kabi organizm na ovqatni idrok etish uchun, na uni izlash uchun, na uni hazm qilish uchun hech qanday ixtisoslashgan a'zolarga ega emas. Yolg'iz bittagina hujayraning o'zi ham sezuvchi, ham harakatlanuvchi, ham ovqat hazm qiluvchi a'zo bo'lsa kerak. Ko'rinib turibdiki, amyobaning hayot kechirish imkoniyatlari uning ovqat qidirib topish va o'z hayotini saqlab qolish qobiliyati o'ta cheklangandir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda a'zolarining ixtisoslashuvi oziqani farqlash, xavf-xatarni juda tez va aniq sezish

imkonini beradi. Ixtisoslashuvning yakkayu-yagona funksiyasi signallarni idrok etishdan iborat hujayralarning paydo bo'lishida o'z ifodasini topadi. Bu hujayralar retseptorlar (tashqi muhitning ta'sirini qabul qiluvchi apparat) deb atalmish hujayralar guruhini tashkil etadi. Boshqa hujayralar mushak to'qimalari ishini yoki turli xil bezlarning shira chiqarishini o'z zimmasiga oladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Ammo hayot a'zolar va funksiyalar o'rtasida uzluksiz aloqa bo'lishini, harakatlarning tevarak-atrofdagi narsalardan va organizmning o'zidan bo'ladigan signallar oqimi bilan kelishilgan bo'lishini taqozo etayotgan bir paytda ixtisoslashuv a'zolari va funksiyalarni bir-biridan ajratadi. Bunga organizmning asosiy «boshqaruv pulti» — yaxlit bir butun narsa sifatida harakat qiladigan markaziy nerv tizimi vositasida erishiladi.

Asab tizimi tuzilishining umumiy o'rni barcha umurtqalilarda bir xildir. Uning asosiy elementlari nerv hujayralari yoki neyronlar bo'lib, ularning vazifasi qo'zg'atishdan iboratdir. Neyron uning tanachasidan va tanachaning shoxlab ketgan o'simalari qo'zg'atishni qabul qiluvchi — dendritlardan va qo'zg'atishni boshqa neyronlarga o'tkazadigan tolalar — aksondan tarkib topadi. Aksonning dendritlar bilan yoki boshqa neyronlarning uning tanasi bilan bog'lanadigan nuqta sinaps deb ataladi. Shu nuqtada neyronlar o'rtasida funksional bog'lanish yuz beradi. Nerv tizimidagi yangi bog'lanishlarning hosil bo'lish mexanizmini tushuntirib berishda sinaps hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu bog'lanishlarni hosil qilishda sinapslardagi o'zgarishlar (kimyoviy yoki strukturaviy o'zgarishlar) tufayli qo'zg'atish impulslarini muayyan yo'nalishda tanlab o'tkazish ta'minlanadi. Sinaps — qo'zg'atish bo'yicha qo'yilgan o'ziga xos to'siq bo'lib, qo'zg'atish uni yengib o'tishi kerak. Ba'zi to'siqlarni yengish osonroq, boshqalarini esa qiyinroq, ayrim hollarda ikkala yo'ldan birini tanlashga to'g'ri keladi.

Neyronlarning bir qismi qo'zg'atishni retseptorlardan markaziy nerv tizimiga, boshqa qismi undan effektorlarga o'tkazadilar, lekin neyronlarning aksariyat ko'pchiligi markaziy nerv

tizimining o'zida uning turli joylari o'rtasida aloqa bog'lanishiga xizmat qiladi. Markaziy nerv tizimining o'zi esa ikki qismdan — bosh miya va orqa miyadan tashkil topgandir.

Bosh miyaning yuqori qismi olti qavat neyronlar (10 milliardga yaqin) bilan qoplangan hamda po'stloq deb ataladigan katta yarim sharlarni hosil qiladi. Po'stloq — psixik faoliyatning eng muhim (lekin yakkayu-yagonasi emas) organidir. Yarim sharlardan pastroqda, ensa qismida miyacha joylashgan bo'lib, uning funksiyalari hali yetarlicha o'rganilmagan. U mushaklar harakatini uyg'unlashtirishda jiddiy rol o'ynashi ma'lum. Katta yarim sharlarga miya naychasi kelib taqaladi. Naychanning yuqori qismi — talamus orqa miyadan katta yarim sharlarga boradigan barcha nerv yo'llari uchun «oraliq stansiyasi vazifasini bajaradi. Naychanning pastki qismi — gipotalamus suv almashinuvini, ovqatlanish ehtiyojini va organizmning boshqa funksiyalarini boshqarib turadigan markazlardan tarkib topgandir.

Markaziy nerv tizimining tilga olingan barcha qismlari murakkab tuzilishga ega bo'lib, uni o'rganish va ta'riflash bilan anatomiya hamda gistologiya shug'ullanadi.

Hozirgi zamon fanida mavjud tasavvurlarga qaraganda, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining asosan tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig'i esa hayot kechirish jarayonida orttiriladigan va psixika tomonidan boshqariladigan xulq-atvor shakllari organi hisoblanadi.

Tananing har bir sezuvchi a'zosi (teri, ko'zning to'r pardasi va shu kabilar) va har bir harakat a'zosi miyada o'zining xususiy markazlariga egadir. Faqat retseptorlarga va effektorlarga emas, balki periferiyada ro'y beradigan narsalarning tasvirini yiriklashtirib xabar qiladigan miya hujayralariga ham xos bo'lgan ixtisoslashuv hozirgi zamon jarrohlik texnikasi va qo-biqni elektr yordamida qo'zg'atish metodi (unga juda ham nafis elektrodni kiritish yo'li bilan) orqali batafsil o'rganilgan.

Shu xildagi ko'plab tajribalar hayvonlarda o'tkazildi. Odamga kelganda shuni aytish kerakki, sog'lom kishilarning miyasida

jarrohlik bilan bog'liq birona ham eksperiment o'tkazilmaydi, albatta. Faqat ayrim operatsiyalar chog'ida neyroxirurglar miyani elektrodlar yordamida tekshirib ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Miyada og'riq nuqtalar yo'qligi sababli bunday tajriba chog'ida bemorda hech qanday yoqimsiz sezgi ro'y bermaydi. Ayni chog'da u es-hushini yo'qotmagan holda qo'zg'atish jarayonida nimalarni his etganini vrachga aytib berishi mumkin. Bu metod yordamida shu narsa aniqlandi-ki, bir xil nuqtalarni qo'zg'atish natijasida tortilishi, boshqalarida ko'rish, eshitish, teri sezgilariga ta'sir qilishi kuzatiladi. Sezuvchi va harakat nervlarining «oxirgi stansiyalari» miyada muayyan bir tartibda joylashganligi, shu bilan birga organizmning barcha qismlari ham miyada bir xilda o'rin egallamaganligi aniqlandi.

Inson katta yarim sharlar qobig'ining anchagina qismini qo'l barmoqlarni, ayniqsa uning odamdagi boshqa barcha barmoqlarga qarama-qarshi qo'yilgan bosh barmoq faoliyati bilan bog'liq hujayralar, shuningdek, nutq organlari — lab va til mushaklari funksiyasi bilan bog'liq hujayralar egallaydi. Shunday qilib, odamning katta yarim shari qobig'ida mehnatda va muomalada asosiy funksiyani bajaradigan harakat a'zolari ancha ko'p joylashgandir.

Miya katta yarim sharlari ishining umumiy qonunlari I.P.Pavlov tomonidan aniqlab berilgan. Pavlov o'tkazgan klassik tajribalarda itlarda oldinlari faqat tegishli shartsiz qo'zg'atuvchi (masalan, ovqat)ning bevosita ta'siri ostida yuz beradigan fiziologik reaksiyaga (masalan, so'lak oqishiga) olib kela boshlaydigan juda ham xilma-xil signallar beradigan shartli reflekslar hosil qilingan edi. Lekin I.P.Pavlovning ta'limotini shu sxema bilangina cheklab qo'yish noto'g'ri bo'lar edi. Real vaziyatda (laboratoriya sharoitida emas) hayvonlar ozuqa qachon og'ziga tushishini kutib turmaydi, balki uni izlashga urinadi, harakat qiladi, harakatining samaradorligini tekshiradi, xullas sharoitga aktiv muvofiqlashadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va chet ellarda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy nerv faoliyati-

ning umumiy qonuniyatlari hayvonlarning faol xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Masalan, tugmachani cho'qiganda don to'kilgan yemakxonaning eshigi ochiladigan tajriba qutisiga solib qo'yilgan kabutar bir qancha vaqt o'tmay bu vazifaning uddasidan chiqa oladigan bo'lib qoladi. Tugmacha qush uchun shartli qo'zg'atuvchi bo'lib qoladi. Bu signalga javoban cho'qish ham I.P.Pavlovning tajribalaridagi itning miyasida qo'ng'iroq yoki nurga javob tariqasida so'lak bezida o'zgarish yuz bergani kabi majburiy zarurat bilan sodir bo'ladi.

Bosh suyagi qopqog'ining ostiga mikroelektrodlar qo'yish yo'li bilan miyadagi nerv to'qimalarini bevosita qo'zg'atish metodi yordamida miya naychalarining funksiyalarini o'rganishda erishilgan yutuqlar keyingi yillarda psixik faoliyatning fiziologik mexanizmlari to'g'risidagi masalani yangicha yoritishga olib keldi. Jumladan, miya naychalarining qator bo'lmalari miyaning yuqorida joylashgan bo'limlari uchun energiya manbai bo'lib xizmat qilishi aniqlandi.

Miya naychalarini elektr yordamida qo'zg'atish bilan bir qatorda unda eksperiment o'tkazuvchining aralashuvisiz, beixtiyor ravishda hosil bo'ladigan biotoklarni yozib olish metodi ham qo'llaniladi. Bu tajribalar miyaning elektr aktivligi bir xil emasligini ko'rsatdi. Biotoklar yozuvining xarakteriga qarab odamning psixik holatidagi o'zgarishlar haqida xulosa chiqarish mumkin. Miyada hosil bo'ladigan to'lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o'xshaydi. Ularning eng sekinlari kishi tinch-osoyishta paytida, ko'zlarini yumib o'tirgan, betoqat bo'lmasdan va diqqat-e'tibori bo'shashgan holatida kuzatiladi. Lekin bunday holatda bo'lgan kishi biron-bir topshiriq (masalan, arifmetikadan masala yechish) berilsa bormi, uning biotoklari darhol o'zgarib boshlaydi va unda to'lqinlar tezligi ancha oshganligini ko'rsatadigan izlar paydo bo'ladi.

Miyada elektroensefalogramma ko'rinishidagi kuchaytirgich yordamida yozib olish mumkin bo'lgan elektr toklari paydo bo'lishining kashf etilishi fiziologlar, vrachlar va psixologlar uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Elektroensefalo-

grammalar miyaning faolligi qanday o'zgarishini kuzatish, bu o'zgarishlarni psixik jarayonlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Biotoklar yozuvi garchi miya ishining mazmuni haqida emas, balki faqat miyaning umumiy biofizik va bioximik faolligi haqida guvohlik bersa ham bu tadqiqotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, ular miya va psixika haqidagi fanga bundan keyin ham juda ko'p yangi va qiziqarli narsalar beradi. Uning uchun ham faoliyatning turli xil sharoitlarida, jumladan, kosmik fazoga uchish kabi murakkab sharoitlarda bo'lgan odamning miyasidagi biotoklar sinchkovlik bilan o'rganilayotganligi tasodifiy hol emas. Kosmonavt miyasining biotoklari yozuvi uning markaziy nerv tizimida yuz beradigan o'zgarishlar ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Biotoklar yozuvining xarakteriga qarab odamning uyqusi va uyg'oqligi haqida, kishi ongining faolligi darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Odamdagi psixik jarayonlarning miyaga oid mexanizmlari bilan hayvonlar psixikasi mexanizmlari o'rtasida o'xshashlik ko'p. Barcha sutemizuvchilarning nerv tizimi va ishi bir xil xarakterga egadir. Uning uchun hayvonlarning miyasini o'rganish faqat fiziologiyani emas, balki psixologiyani rivojlantirishda ham favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, odam bilan hayvonning psixik faoliyati o'rtasidagi tafovutlar faqat miqdor xarakterga emas (bu yetarlicha aniq-ravshandir), balki sifat xarakterga ham egadir. Bu tafovutlar kishi organizmining butun tuzilishi va funksiyasini tubdan o'zgartirgan qudratli moddiy omil — mehnatning ta'siri ostida tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgandir. Psixikaning organi — bosh miya ham o'zgardi. Uning hayvonlar miyasidan sifat jihatdan farqi yuksalish jarayonlari va avvalo, tafakkur mexanizmlarini o'rnatish paytida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar sezgi idrok jarayonlari singari miyaning muayyan qismlari doirasida cheklanib qolmaydi. Agar odamda qobiqning ensa qismi shikastlangan bo'lsa, uning ko'rish sezgilarini yo'qotishi turgan gap. Miyaning yuksak bilish jarayonlari bilan bog'liq qismlari shikastlanishi boshqacha xa-

rakter kasb etgan. Bu holda shikastlangan qismning funksiyasini boshqa bir qism bajarishi mumkin. Plastiklik, bir-birining o'rnini bosish aqliy va nutq faoliyatining asosini tashkil etuvchi nerv to'qimalariga xos xususiyatdir.

Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig'i sirtining o'ttiz foizini egallaydigan peshana qismlari alohida rol o'ynaydi. Peshana qismlarining (kasallik, yaralanish va shu kabilar oqibatida) shikastlanishi xulq-atvorning oddiy formalariga emas, balki yuksak formalariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, peshana qismlari shikastlangan bemorlar ko'rish, nutq, yozish qobiliyatlarini saqlab qolib arifmetika masalalarini yechgan holda uning shartlarini tahlil etishga urinmaydilar. Masalani yechish rejasini tuzganlarida oxirgi savolni tushirib qoldiradilar. Ular masala yechimini uning sharti bilan solishtirib chiqmaydilar, o'z xatolarini sezmaydilar va hokazo. Ko'pgina klinik faktlar shuni ko'rsatadiki, miyaning peshana qismlari shikastlanishi aqliy qobiliyatni susaytirishi bilan birga kishining shaxsiyati doirasida, uning xarakterida ham qator buzilishlarga sababchi bo'ladi. Kasalga chalinganiga qadar xushmuomalaligi, vazminligi bilan ajralib turgan bemorlar yengiltak, qiziqqon, qo'rs bo'lib qoladilar.

Psixik funksiyalar muayyan tarzda chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlangan bo'lishi aniqlandi. Har ikkala yarim sharlar axborotni obrazlar tarzida ham, so'zlar tarzida ham qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatiga ega, ammo chap va o'ng yarim sharlarda u yoki bu funksiyalarning turlicha darajada ifodalanishi — bosh miyaning funksional asimmetriyasi ham yuz beradi. Chap yarim sharning funksiyasi o'qish va hisoblashdan, umuman ko'proq belgilarga asoslangan axborot (so'zlar, belgilar, raqamlar va shu kabilar)ga tayanishidan iboratdir. Chap yarim shar mantiqiy tuzilishlar imkoniyatini ta'minlaydi, busiz izchil analitik tafakkur bo'lishi mumkin emas. Chap yarim shar faoliyatining izdan chiqishi, odatda nutqning buzilishiga (so'zlash qobiliyatining yo'qolishiga) olib keladi, normal muomala imkoniyatini yo'qqa chiqaradi, nerv to'qimalari og'irroq shikastlanganda — fikrlash faoliyatida

nuqsonlar sodir bo'ladi. O'ng yarim shar obrazi axborotni ishga solib, bo'shliqda mo'ljal olish, musiqani idrok etilayotgan va tushunilayotgan obyektlarga nisbatan his-hayajonli munosabatda bo'lishga imkon beradi. Har ikkala shar o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Funktsional asimmetriya faqat odamga xosdir. U odamda chap yoki o'ng yarim sharning nisbatan ko'proq ishlashiga olib kelayotgan va oqibatda uning individual-psixologik xarakteristikasiga ta'sir ko'rsatadigan muomala jarayonida shakllanadi.

Bosh miya yuksak taraqqiy etgan hayvonlar va odam psixikasini belgilaydigan darajada faoliyat ko'rsatadigan organ yoki to'g'rirog'i, organlarning murakkab tizimidir. Psixikaning mazmuni tirik mavjudot o'zaro munosabatda bo'ladigan tashqi olam bilan belgilanadi. Tashqi olam kishi miyasi uchun shunchaki oddiy biologik muhit (hayvon miyasi uchun bo'lgani kabi) emas, balki odamlar tomonidan ularning ijtimoiy tarixi davomida yaratilgan hodisalar va narsalar olamidir. Har bir alohida odam hayotining dastlabki qadamlaridan boshlangan psixik rivojlanishining ildizlari tarixan tarkib topadigan madaniyatning eng qadimiy, eng chuqur davrlariga borib taqaladi.

14.4. Miyaning ishidagi psixik va nerv-fiziologik xususiyatlari

Psixik va nerv-fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati masalasi ancha murakkab masalalardandir. O'rganish jarayonida psixikaning o'ziga xos xususiyatlari nerv-fiziologik xususiyatlardan qanaqa muhim belgilari bilan farq qilishini aniqlash mumkin. Agar bunday o'ziga xoslik mavjud bo'lmaganida psixologiya mustaqil bilim sohasi sifatida o'rganilishi ham mumkin emasdi. Uni asab tizimi fiziologiyasi bilan aynan bir xil deb qaralgan bo'lardi.

Psixikaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash anchagina qiyinchiliklar bilan bog'liq. Garchi psixik xususiyatlar nerv-fiziologik faoliyat zahirida yuzaga kelib, uning natijasi hisoblansa ham lekin bu nerv-fiziologik jarayonlar, aslini olganda, psixik hodisalarda ko'rinmaydi, yoki unda allaqanday

tarzda «yashiringan» bo'ladi. Psixik jarayonlar o'zida ichki, fiziologik jarayonlarning emas, balki tashqi obyektlarning xarakteristikasini (narsalarning shaklini, katta-kichikligi, o'zaro munosabatlarini) mujassamlashtiradi. Psixik jarayonlarning ana shu o'ziga xos belgilari, ya'ni tashqi dunyoning tana tizimi holatida aks etishi, o'rin olishi yuz beradi va namoyon bo'ladi.

Psixik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish psixikasining mazmuni va tuzilishida neyrofiziologik jarayonlar mavjud bo'lmagani yoki sezilmasligi sababli jiddiy qiyinchilik tug'dirardi. Buning ustiga psixik hodisalar o'z negizidan mahrum holda, «tanasiz», nomoddiy hisoblanar edi. Bundan idealistlar alohida tanasiz ruhning mavjudligi xususida turli xil ta'limotlarni to'qib chiqarish uchun zo'r berib foydalanishardi. Ana shuning uchun ham psixik hodisalarga nisbatan izchil materialistik yondashuvni saqlashga intilishlar ayrim hollarda boshqa jiddiy xatoga, ya'ni psixikaning fiziologik hodisa bilan almashtirilishiga va psixologiyaning fiziologiya bilan almashtirilishiga urinishlarga olib keldi. Psixik hodisalarning reflektor xarakterga ega ekanligi haqidagi nazariya bunday urinishlarning xatoligidan dalolat beradi. Bu nazariya reflektor aktda psixikaning real, faol va boshqaruvchanlik rolini ko'rsatadi.

14.5. Ong haqida tushuncha

Psixika voqelikning kishi miyasidagi aksi sifatida har xil darajalari bilan farqlanadi.

Psixikaning odamga xos bo'lgan oliy darajasi ongni tashkil etadi. Ong psixikaning oliy, uni yaxlit bir holga keltiruvchi shakli bo'lib, kishining mehnat faoliyatida, boshqalar bilan (til yordamida) doimiy muloqot qilish jarayonida shakllanishining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari natijasi hisoblanadi. Shu ma'noda ong, klassik psixologiyada ta'kidlanishicha, «ijtimoiy mahsul» bo'lib, anglangan borliqdan bo'lak boshqa narsa emasdir.

Ongning strukturasi, uning muhim psixologik ta'rifi qanday?

Uning birinchi ta'rifi nomining o'zidayoq berilgan bo'lib, ong deganidir. Kishining ongi bizning tevarak-atrofimizni qurshab turgan olam haqidagi bilimlar majmuasidan tarkib topdi. Shunday qilib, ongning strukturasi muhim bilish jarayonlari kiradiki, ular yordamida odam o'z bilimlarini doimo boyitib boradi. Bu jarayonlar qatoriga sezgilar va idrokni, xotirani, xayol va tafakkurni qo'shish mumkin. Sezgilar va idrok yordamida miyaga ta'sir o'tkazuvchi qo'zg'atuvchilarning bevosita aks etishi natijasida ongda borliqning o'sha momentda kishi tasavvurida hosil bo'lgan hissiy manzarasi gavdalanaadi. Xotira ongda o'tmish obrazlarini qaytadan gavdalandirsa, xayol ehtiyoj obyekti bo'lgan, ammo hozirgi paytda yo'q narsaning obrazli modelini hosil qiladi. Tafakkur umumlashgan bilimlardan foydalanish yo'li bilan masalaning hal etilishini ta'minlaydi. Aytib o'tilgan psixik bilish jarayonlaridan istalgan birining batamom barbod bo'lishi u yoqda tursin, buzilishi yo izdan chiqishi ham ongning barbod bo'lishiga olib keladi.

Ongning ikkinchi ta'rifi — unda subyekt bilan obyekt o'rtasida aniq farqlanishining o'z ifodasini topishi, ya'ni odam «men» degan tushuncha bilan «men emas» degan tushunchaga nima tegishli ekanini aniq biladi. Tirik organizmlar dunyosi tarixida birinchi bo'lib undan ajralib chiqqan va o'zini atrof muhitga qarama-qarshi qo'ygan inson o'z ongida ushbu qarama-qarshilik va tafovutni saqlab kelmoqda. Jonli mavjudotlar ichida uning o'zigina o'zini bilishga, ya'ni psixik faoliyatning o'zini tadqiq etishga yo'naltirishga qodir. Odam o'z xatti-harakatlarini va umuman o'zini o'zi ongli ravishda baholaydi. «Men»ning «men emas»dan ajratilishi — har bir kishi bolaligida boshdan kechiradigan yo'l bo'lib, uning o'zini o'zi anglashi jarayonida yuz beradi.

Ongning uchinchi ta'rifi — odamning maqsadni ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashdir. Faoliyatning maqsadlarini yaratish ongning funksiyasiga kiradi. Bunda faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab chiqiladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning qanday borishi hisobga olinadi, unga tegishli tuzatishlar kiritiladi va hokazo. Maqsadni ko'zlovchi

faoliyatning amalga oshirilishida, uning muvofiqlashtirilishida va yoʻnalishida kasallik oqibatida yoki biron-bir boshqa sabablarga koʻra har qanday buzilishining yuz berishini ongning buzilganligi deb qaramoq kerak. Nihoyat, ongning toʻrtinchi taʼrifi – uning tarkibiga muayyan munosabatning kirganligidir. Kishi ongiga muqarrar ravishda his-tuygʻular olami kirib keladi. Unda murakkab obyektiv va eng avvalo odamning oʻzi ham jalb etilgan ijtimoiy munosabatlar oʻz aksini topadi. Bu oʻrinda ham boshqa koʻpgina hollarda boʻlgani kabi patologiya normal ongning mohiyatini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi. Ayrim ruhiy kasalliklarga chalinganda ongning buzilganligi aynan his-tuygʻular va munosabatlar sohasidagi buzilish bilan belgilanadi: bemor bunga qadar behad sevgan onasini suymaydigan boʻlib qoladi, yaqin kishilari toʻgʻrisida gapiradi va hokazo.

Ogning yuqorida koʻrsatib oʻtilgan barcha oʻziga xos xususiyatlari shakllanishi va namoyon boʻlishining muqarrar sharti til hisoblanadi. Nutq faoliyati jarayonida odam bilimlar hosil qiladi, kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan, tilda mustahkamlab, unga yetkazgan inson tafakkuri boyliklari bilan oʻz hayotini boyitadi. A.I.Gertsen shunday deb yozgan edi: «Har bir kishi ildizlari sal boʻlmasa Odam ato zamonlariga borib yetadigan dahshatli shajaraga tayanadi; sohil boʻyidagi toʻlqin kabi orqamizda butun boshli okean – butun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi; shu daqiqada bizning miyamizda barcha asrlarning gʻoyalari...». Til alohida obyektiv tizimki, unda ijtimoiy-tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Konkret odam tomonidan oʻzlashtirilgan ekan, til maʼlum bir maʼnoda uning real ongi boʻlib qoladi.

«Ong» tushunchasi psixologiyada, psixiatriyada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy taʼriflariga mos keladigan maʼnoda ishlatiladi. Psixiatrlarni bemorda ong bor yoki yoʻqligi, yo boʻlmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning oʻz-oʻziga qayerdaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi toʻgʻrisida oʻz shaxsiy holati harakatlari haqida hisob bera olish im-

koniyatlarini tushunadilar. Ongi yaxshi saqlanib shaxsiy holati hamda harakatlari haqida hisob bera olgan odam miyaga ke- layotgan yangi axborotga o'zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitdan alohida ajratib, boshqa odamlarga va faoliyat vaziyatiga nisba- tan tarkib topgan munosabatlar tizimini saqlab qoladi hamda ana shu barcha ma'lumotlar asosida o'z xatti-harakatini ido- ra qiladi.

Ong ijtimoiy mahsul bo'lib, faqat odamlarga xosdir. Hay- vonlarda esa ong bo'lmaydi.

14.6. Ongsizlik muammosi

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdan iboratdir. Ongsizlik — kishini o'zini tuta olmaydigan qilib qo'yadigan ta'sirotlar bi- lan bog'liq psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat (bundan shu narsa ravshanki psixika tushuncha- si «ong», «ongli» tushunchalariga qaraganda kengroqdir) sifa- tidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shak- li hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi, xatti-harakatning nutq yordamida boshqa- rilishi buziladi. Ongsizlikda, onglilikdan farqli o'laroq, kishi o'zi bajarayotgan harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda na- zorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham am- ri maholdir. Ongsizlikka quyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish); sezilmaydigan, lekin haqiqatan ham ta'sir ko'rsata- digan qo'zg'atuvchilarga («subsensory» yoki «subseptiv») javob reaksiyalari oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanave- rib avtomatlashib ketgan va shunga ko'ra endilikda anglanil- maydigan bo'lib qolgan harakatlar; faoliyatga undovchi, am- mo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim mayllar va hokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y bera- digan ba'zi bir patologik hodisalarni — ahlash, ko'ziga yo'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni ongga qarama-qarshi deb hi- soblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lar

edi. Ongsizlik – bu kishining xuddi ong kabi o‘ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo‘lmagan, qisman aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgandir.

Psixikaning miyaga nisbatan munosabatini psixikaning tevarak-atrofdagi muhitga hamda psixik faoliyatga munosabati (bular psixik moslashtirish, dasturlashtirish va boshqarish yordamida amalga oshiriladi) sifatida bunday keyingi o‘rganish psixikaning rivojlanishi muammosiga murojaat qilish zarurati ni tug‘diradi. Psixik aks ettirish qanday paydo bo‘lganini, rivojlanganini, evolutsiya pillapoyasining turli bosqichlarida qanday o‘zgarib borganini, kishi ongi qanday paydo bo‘lgani va shakllanganini tushunib olgandagina psixikaning eng muhim qonuniyatlarini ochib berish va jiddiy psixik faktlarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Ong muammosi bir qancha fanlarning, jumladan, falsafa (uning asosiy masalasi – bu ongning turmushga nisbatan munosabatidan iboratdir), mantiq, lingvistika, etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, neyrofiziologiya, pedagogika kabilarning tadqiqot predmetiga aylangandir.

Psixologiya fani individda ongning vujudga kelishi, uning tuzilishi, rivojlanishi va hukm surishini tadqiq qiladi. Ong predmetga faollik, yo‘nalganlik, intensiallik xususiyatlariga ega:

a) ong doimo nimanidir tushunish sifatida; b) refleksiya nisbatan qobiliyatlik; d) o‘zini o‘zi kuzatish, ya‘ni o‘zligini anglash; e) motivatsion – qadriy xususiyat yaqqollikning yoki ravshanlikning turlicha darajasi yoki bosqichi ekanligi.

Psixologik ma‘lumotlarga qaraganda, har qaysi individning ongi noyob, betakror, ammo u ixtiyoriy emas, chunki birinchi navbatda maxsus tizimda hukm suruvchi tuzilish bilan unga bog‘liq bo‘lgan tashqi omillar hamda hech qanday aloqasi bo‘lmagan omillar shartlangandir. Xuddi shu tufayli ongni tadqiq qilishning ikkita muhim qiyinchiligi mavjud: barcha psixologik holatlar individning ko‘z o‘ngida shunday namoyon bo‘ladiki, bunda birinchidan, ular qay tariqa anglashilmoqda

(ongsizlikning roli qanchalik), ikkinchidan, anglash darajasiga yetkazishning maxsus tashqi va ichki mashqi natijasida inson tomonidan anglashiniladi, uchinchidan, bevositalikda ong funksiyasida yanglishlik vujudga keladi.

O'zini kuzatish natijalariga ko'ra, ong o'zining yaqqol psixologik o'ziga xosligidan mahrumdir, chunki uning yagona alomati shundan iboratki, bunda uning sharofati bilan individ oldida (u yoki bu aniqlik, ravshanlik darajasida) yaqqol psixologik funksiyalar mohiyatini yuzaga keltiruvchi turli holatlar, hodisalar namoyon bo'ladi. Xuddi shu boisdan ong psixika hukm surishining sifatga ega bo'lmagan umumiy sharti (sharoiti) tariqasida talqin qilingan, buning natijasida u majoziy belgilangan. Jahon psixologiyasi fani konsepsiyalarida bu hodisa aksariyat hollarda «ongning nuri», «ongning maydoni», hatto «psixik funksiyalarning umumiy hokimi» kabi tahlil etilgan, goho u qaysidir psixik funksiyalar bilan g'ayritabiiy ravishda (qo'shimcha diqqat, tafakkur bilan) ayniylashtirilgan. Shu munosabat bilan birinchi galda ongni yaqqol o'rganish, tekshirish to'g'risida umuman gap bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi holda esa ushbu masala unga mutanosib funksiya bilan almashtiriladi. Bunday talqinlarning barchasi shunday fikrni tug'diradiki, go'yoki ong ilmiy psixologiya fani uchun shunchaki qayd qilinish, ya'ni funksiya, xolos (U.Jeyms). Ongni tadqiq qilishdagi ikkinchi qiyinchilik ham bevosita birinchisidan kelib chiqadi: a) ong bir qator psixik funksiyalar kabi tashqi fazoda lokalizatsiyalashmaydi; b) ong psixik funksiyalardan farqli o'laroq vaqtni (zamonni, davrni) muayyan qismlarga ajrata olmaydi. Tadqiqotchilar ongni o'rganish uchun ommabop, sodda psixologik metodlarning qo'llaganliklari tufayli uning ma'lum tavsifini topa olmadilar, jumladan, vaqtning aniq birliklari yordamida uni o'lchash, muayyan vaqt oralig'ida ongni solishtirish. Adabiyotlar tahlilining ko'rsatishicha, ongni konstruktiv tarzda talqin qilishning muhim jabhasi I.Kant tomonidan ko'tarilgan ongning barqaror, invariant tuzilishi va sxemasi mavjudligi, uzluksiz ravishda o'rin almashtirib

turuvchi sensor oqim, axborotlar va uning muayyan darajada tashkil qiluvchanligi to'g'risidagi yuksak g'oyasi hisoblanadi.

Endi ongning psixologik tavsifidan kelib chiqqan holda uning shakllari yuzasidan qisqacha mulohaza yuritamiz. Ongning genetik jihatdan talqini ongsizlik birlamchiligini bildirib, u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va xatti-harakatida muayyan darajada rol o'ynashini tan olishni taqozo etadi. Chunki inson ongining yuksakroq shakllari uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning keyingi davrida vujudga kelganidir. Xuddi shu boisdan ongning paydo bo'lishi to'g'risida mulohaza yuritilganda ijtimoiy borliq, ijtimoiy taraqqiyot, ularga nisbatan munosabat uslubi asosiy mezonlar vazifasini bajarib kelgan va hozir ham xuddi shunday bo'lib qolaveradi.

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, uning tomonidan aks ettiriluvchi voqelik subyektning kechinmalari bilan, uning borliqqa munosabati bilan qo'shilib, aralashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyati mavjud emas. Ongsizlikda voqelik subyektning o'xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllariga asoslanib aks ettiriladi.

Bu holat bevosita emotsional his qilish, emotsional yuqish va identifikatsiyalashga daxldorlik tuyg'usi orqali turlicha hodisalar o'zining tuzilishi, mohiyati jihatidan o'ziga xoslikdan qat'i nazar bir tizimga birlashtiriladi, psixologik obyektlar o'rtasidagi u yoki bu xususiyatli alomatlar o'rtasidagi tafovutlar, mantiqiy qarama-qarshiliklar ochilmasdan namoyon bo'ladi, in'ikos etiladi.

Ongsizlikda o'tmish bilan kelajak ko'pincha bir davrda hukm surayotganday, go'yoki ular biron-bir psixik aktga bevosita birlashgan tarzda aks ettiriladi, bunga tush ko'rish jarayoni yorqin misoldir. Ongsizlik borliqni bola tomonidan bilishning ilk shakllarida, ibtidoiy tafakkurda, intuitsiyada, affektiv holatlarda, sarosimaga (panikaga) tushishda, gipnoz holatida, tush ko'rishda, odatiy harakatlarda, subsensor idrokda, ixtiyorsiz esda olib qolishda, shuningdek, intilishlarda, hissiyotda,

xulq-atvorda ifodasini topib, ularning sabablari va oqibatlari shaxs tomonidan tubdan anglashilmaydi. Odatda, ongsizlikning namoyon bo'lishining to'rt turkumi psixologlar tomonidan tan olinib kelinmoqda.

I. Ongusti holatlari.

II. Faoliyatning anglashilmagan qo'zg'atuvchilari. Anglashilmagan motivlar va ma'no anglatuvchi ustanovkalar, odatda, ular shaxsga oid ma'no kasb etib, kelajakka xohish, istak orqali shartlangandir. Bunday holatlarning turkumi gipnoz holatidan chiqqan subyektning xatti-harakatini o'rganishda qo'lga kiritilgan, ushbu jarayonda unga aniq harakat dasturi orqali kuchli ta'sir o'tkazilgan (masalan, bozorga borish va aytilgan narsalarni xarid qilish kabilar). Qo'yilgan dasturiy topshiriqlarni bajarish jarayonida inson o'z xulq-atvori sabablarini izohlay va tushuntira olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Mazkur hodisalarning psixologik tabiatini psixoanalitik pozitsiyasidan turib tushuntirishga harakat qilgan Zigmund Freyd «ongsizlikning dinamik qisilishi» terminini fanga olib kiradi. Z.Freyd, ongsizlik deb, ijtimoiy normalar talabi bilan nizoli holat, qarama-qarshilik tufayli ongga kira olmagan, amalga oshmay qolgan mayllar qisilish mexanizmi yordami bilan begonlashib, individ yanglish aytgan so'zida, gapda yanglishib ketishida, tush ko'rishida va hokazolarda aks etishini tushunadi. Ongsizlikning shunga o'xshash tarzda namoyon bo'lish xususiyati shundan iboratki, subyektning amalga oshmay qolgan mayllari psixoterapevtik holatlar bilan sababiy bog'liqligini anglashi mazkur mayllar bilan shartlangan kechinmalarning yo'qolishiga olib kelmaydi (masalan, qo'rquvning yo'qolishiga), chunki anglanish subyekt tomonidan qandaydir u bilan yuz bermayotgan, go'yo shaxsga aloqasiz, begona hodisa sifatida idrok qilinadi.

Xulq-atvordagi ongsizlik samaradorligi ularni keltirib chiqaruvchi hodisalar shaxsning boshqa odamlar bilan hamkorlikda boshidan kechirishida (masalan, psixologik seans chog'ida) yoki guruhiy psixoterapiya davrida o'zgalarda kechishida sodir bo'lsa individni qoniqtiradi. Chet el psixologiyasida, eng avvalo, Z.Freydning psixoanalizida va uning izdoshlari qarash-

larida ongsizlikning yuzaga kelishini tor ma'noda, cheklanib tushunish uning dinamik jabhalari shakllanishini bir tomonlama tahlil qilish bilan shartlanganligidir. Chunki ongsizlikning ijtimoiy-tarixiy shartlanganligini tan olmaslik, ongsizlikning inson bilan borliqning o'zaro ta'siridan bevosita ajratib olmaslik bir qator anglashilmovchiliklarga olib keladi, ularni differensiyalash orqali shu kontekstdagina uning asl mohiyati, funksiyalari shaxs xulq-atvorida ochilishi mumkin, xolos. Bunday cheklanishlar sobiq sho'ro psixologiyasida ustanovka nazariyasida, psixologik hodisalar o'rganishda, faoliyatli yondashuvda psixikani dialektik materialistik tushunishdan kelib chiqqan holda anglashilmagan motivlarning funksiyalari, tabiati, ma'no anglatuvchi ustanovkalar inson hayotida shaxsiy ma'no kasb etuvchi g'oyalarida bartaraf qilib borildi.

III. Faoliyatni bajarish usullarining anglashilmovchi regulatorlar (avtomatlashgan xulq-atvor stereotiplari va operatsion ustanovkalar) uni kechishining barqaror va yo'nalgan xususiyatini ta'minlaydi. Ular avtomatlashgan va ixtiyorsiz harakatlarni regulyatsiyasi negizida yotadi (masalan, topshiriqni yechish jarayoni) va anglashilmagan hodisalarni oldindan sezish, payqash obrazlari harakat usullari bilan shartlangan bo'lib, turli vaziyatlardagi o'tmish tajribalariga bevosita tayanadi. Avtomatlashgan odatiy xulq-atvor yo'lida kutilmagan to'siqlar paydo bo'lganda ular subyekt tomonidan anglashinishi mumkin. Anglashilmagan avtomatlashgan xulqning psixofiziologik mexanizmlari to'g'risidagi ilmiy tasavvur, nazariya N.A. Bernshteynning «Xatti-harakat tuzilish darajalari» konsepsiyasida ishlab chiqilgan.

IV. Subsensory idrok qilishning vujudga kelishi. Ongsizlikning tabiati to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarning tobora o'sishi, paydo bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, keltirib chiqaruvchi mexanizmlari va funksiyalari inson xulq-atvorining regulyatsiyasi, shaxs hayotining yaxlit obyektiv manzarasini yaratishning zarur shart-sharoiti hisoblandi. Lekin bu muammo hali to'laqonli ilmiy ma'lumotlarga ega emas, xuddi shu sababdan uning psixofiziologik asoslari, mexanizmlari harakatga

keltiruvchi kuchlar to'g'risida atroflicha mulohaza yuritish imkoniyatini bermaydi.

Bilish jarayonining ongli va ongsiz komponentlarini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari tahlilining ko'rsatishicha, ushbu muammo uning ayrim jabhalari yoritilgan bo'lishiga qaramay kam tadqiq etilgan bo'lib, aslida «anglanmaganlik» muammosi nisbatan uning mazmuni falsafaga asos solingan vaqtdan boshlab, Suqrot, Aflotun («g'oyalar dunyosi»ni eslatish), Arastu (ruh qismi) ta'limotlarida o'rganilgan.

Anglanmaganlik muammosini o'rganishga B.Spinoza («xohishni deatamaatsiyalovchi anglanmagan sabablar»), G.Leybnits («anglanmaganlik» tushunchasini kiritgan va uni ruhiy faoliyatning eng quyi shakli, deb talqin etgan), D.Gartli (anglanmaganlikning nerv tizimi faoliyati bilan aloqasi), I.Kant (anglanmaganlikning intuitiv va hissiy bilish bilan aloqasi), I.Gerbart (intelektualistik psixologiya kontekstidagi anglanmaganlik), A.Shopengauer (anglanmagan ichki impulslar haqidagi g'oyalar), E.Gartman («anglanmaganlik falsafasi»), G.Fexner («aysberg-ruh» haqidagi tasavvurlar), V.Vundt («anglanmagan tafakkur» va «idrok jarayonlarining anglanmagan xarakteri»), G.Gelmgolts («anglanmagan aqliy xulosalar chiqarish» haqida ta'limot), I.Pavlov («anglanmagan psixik hayot»), V.M.Bexterev («anglanmaganlikning faolligi») va boshqalar katta hissa qo'shishgan. Bu psixikaning takrorlanmas ekanligi, u yaxlit tuzilma, ongli va ongsizlik sohalarining birligiga asoslanishini inobatga olgan holda har bir insonning shaxsiy muammolarini yechishda individual yondashuvni amalga oshirishni nazarda tutadi. O'tkazilgan analiz natijalariga ko'ra, ongsizlikning quyidagi konsepsiyalarini ajratish mumkin:

psixoanalitik; personologik; ontopsixologik; transpersonal.

Tadqiqotchilar ongsizlikni o'rganishda bir nechta yo'nalishlar mavjudligini ta'kidlashadi:

– birinchi yo'nalish vakillari organik (fiziologik) anglanmaganlik konsepsiyasi tarafdorlari bo'lib hisoblanadi;

– ikkinchi yoʻnalish vakillari anglanmaganlik psixik fenomen boʻlib hisoblanadi, degan fikr tarafdorlari.

Shuni taʼkidlash lozimki, ongsizlik kategoriyasining tadqiqot muammosi sifatida nemis tadqiqotchilarining ishlarida ham koʻrib chiqilgan. Bunda G.Knapp ong bilan bir qatorda ruhning «qora» qismi ham mavjudligini tan olgan F.Shelling va boshqa mutafakkirlar ijodiga eʼtiborni qaratadi. Psixoanaliz asoschisi Z.Freyd yanglish harakatlar va tushlarni tadqiq etar ekan, ularning asosiy deatamantlari ongsizlikda yashiringan ekanligi haqidagi xulosaga kelgan: «Ruhiy hayotda shunday jarayonlar, tendensiyalar borki, ular haqida inson umuman hech nima bilmasligi, juda qadimdan hech nima bilmasligi, balki biz hech qachon bu haqida bilmagan boʻlishi mumkinligi ehtimolini qayd etish mumkin. Buning evaziga ongsizlik biz uchun yangi maʼno kasb etib, «hozirgi zamonda» yoki «vaqtinchacha» tushunchalari uning mohiyatidan yoʻqolib, xuddi shunday u nafaqat «hozirgi zamonda yashiringan»ni emas, balki uzoq muddatli ongsizlikni ham bildirishi mumkin».

Koʻpgina tadqiqotchilar Z.Freydning ilmiy merosida ongsizlik fenomenini oʻrganishda uchta yondashuvni ajratib koʻrsatish mumkinligini taʼkidlab oʻtishgan: topografik; dinamik; ekonomik.

Biroq G.Knapp Z.Freyd ishlarida genetik, strukturali va adaptiv yondashuvlar ham kuzatilishini taʼkidlaydi. Uning fikricha, psixik fenomenlarning yuzaga kelishi va rivojlanishini tadqiq etishni nazarda tutuvchi genetik yondashuvni psixoanaliz asoschisi «isbot talab etmaydigan, deb hisoblagan» strukturali yondashuv Freydda aniq ifodalanmagan boʻlsa-da, biroq uning taxminicha, «ushbu yondashuv topografikning oʻrnini bosishi mumkin ekan». Adaptiv yondashuv esa «psixoanalitik tafakkur uchun ajralmas boʻlib hisoblanadi».

G.Knapp Z.Freyd ishlarida xuddi shunday anglanmaganlikning deskriptiv (tasvirlovchi) maʼnosini ham ajratib koʻrsatib, biroq «ongsizlik fenomeni faqat passiv, hissiy aks ettirish bilan cheklanmasligiga, uning markaziy maʼno-mazmuni uning hayotiy kuchida va haqiqiyligidan iborat» ekanligiga eʼtiborni qa-

ratadi, ya'ni ongsizlik fenomeniga yetakchi yondashuv bo'lib dinamiklikni tan oladi. Xuddi shunday psixoanaliz asoschisi ishlarini tahlil etar ekan, G.Knapp ularda ongga nisbatan ongsizlik birlamchi ekanligiga ishoralarni uchratadi. «Ontogenezda va filogeneza anglanmagan tizim birinchi bo'lib yuzaga keladi. Undan nafaqat boshqa tizimlar kelib chiqadi, balki boshqa barcha munosabatlarda ham u boshlang'ich soha, ehtiyojlar va energiya (libido) manbayi bo'lib, hayotni to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaydi». Bu esa Z.Freydning ongsizlikni o'rganishning genetik yondashuviga nisbatan R.Grinsonning fikrini tasdiqlaydi. G.Knapp Z.Freyd ishlaridagi «ongsizlikni tushlar va intellektual ijod kontekstida ko'rib chiqib, boshqa aspektlarni – ongsizlikning «yovuz» xarakterini inkor etadi, biroq aynan shu holatdagi «yovuz» ruhda bo'lgan tashqi kuch yoki ilohiy ko'tarinki ruhlanish sifatida emas, balki «g'ayrioddiy muvaffaqiyat, ruhiy hayotga ega bo'lish» sifatida talqin etiladigan yana bir jihati mavjudligiga e'tiborni qaratadi: «U anglangan faoliyat ishtirokisiz sodir bo'lib, shuning uchun anglangan tafakkurga begona va yovuz bo'lib tuyulishi mumkin». Biroq «yovuz-ijodiy» jihat Z. Freydning ishlarida o'zining rivojini topmadi.

Chunki G.Knapp fikricha, psixoanaliz asoschisiga uning yorqin ta'kidlangan tabiiy-ilmiy yondoshish ustanovkasi halal bergan. Biroq G.Knapp ta'kidlashicha, ongsizlikning ijodiy jihati keyinchalik boshqa psixoanalitiklarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Tush ko'rish materiallarida Z.Freyd ishlab chiqqan topografik model uchta tizimdan: ongsizlik, ongol-di, ongdan iborat bo'lib, ulardan har biri o'z vazifasiga ega va o'ziga xos mazmuniga ko'ra farq qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan model Z.Freydning psixikani uyqu va tetiklik holatidagi tuzilishi haqidagi nazariyasi uchun baza bo'lib hisoblangan. A.Bekker ko'p qavatli kompleks hosila sifatidagi psixika singari tush ko'rishni tushuntirib berishning aniq ifodalanganligi Z.Freyd nazariyasidagi prinsipial yangilik bo'lib, u psixologik yo'nalishdagi barcha keyingi tadqiqotlar uchun poydevor sifatida xizmat qildi, deb hisoblanishini ta'kidlagan edi.

Z.Freyd keyinchalik «Men va U» nomli ishida tizimdan psixik apparatning taqsimlanishini (ong, ongsizlik, ongdan oldingi) instansiya modeliga (U, Men, Oliy Men) o'zgartirib, bu bilan ongsizlik tushunchasiga aniqlik kiritadi. «Uning mazmuni bir tomondan toraygan bo'lsa (ongsiqlik muddatlari aniq chegaralarga ega bo'lgan soha ma'nosida) ham, «faqat» siqib chiqarilgan ma'nosida ham o'z mazmun-ma'nosini yo'qotadi. Bundan tashqari atamaning ma'no-mazmuni kengayadi – ongsizlik sifat, xususiyat sifatida ko'rib chiqiladi».

Z.Freyd, G.Knapp, V.I.Ovcharenkoning ishlarida ongsizlikning ikkita turi emas, balki uchta turi ajratib ko'rsatiladi:

– latent ongsizlik, uning mazmuni psixikaning ongdan oldingi tizimiga mos bo'ladi va individ tomonidan anglanishi mumkin;

– siqib chiqarilgan ongsizlik, uning anglanishi maxsus psi-xoanalitik metodlardan foydalanishni talab etadi;

– nasliy umuminsoniy ongsizlik, u universal komplekslar, motivlar va hokazolardan iborat bo'ladi. Shu tarzda, Z.Freyd ongsizlik tushunchasining mazmuniga psixik namoyon bo'lishlar, hayotning energetik manbayi, hayot mobaynidagi siqib chiqarishlar, Men, Oliy Men instansiyalarining qismi, ruhiyatning o'ziga xos ishlash prinsipi, arxaik meros, ong antonimini kiritganligini ta'kidlash mumkin.

G.Knapp Z.Freyd izdoshlari tomonidan anglanmaganlik tushunchasining qo'llanishi bo'yicha uch yo'nalishni ajratib ko'rsatadi:

1) klassik yo'nalish (bunda ushbu tushuncha psixoanaliz asoschisi kabi qo'llaniladi, ya'ni ko'p ma'noli bo'lib);

2) reduksion yoki neofreydistik yo'nalish (bunda ongsizlik tushunchasi o'rniga markazga boshqa tushunchalar kiradi: A.Adlerda kentiklik hissi; K.Xornida xavfsirash va xavfsirashdan himoyalalanish; E.Frommda esa o'z-o'zini ochib berish tendensiyasi va hokazolar);

3) «kengaytirilgan» yo'nalish bunda ongsizlik atamasi saqlanib qolinadi, uning ma'no-mazmun sohalari differensiallanadi va kengaytiriladi.

Xususan, K.G.Yung ma'ruzalarida «Ongsizlik o'zi haqida faqat o'z mahsulotlaridagina xabar beradi va bizga uni faqat bu o'ziga xos mahsulotlar asosi sifatida isbotsiz qabul qilishimiz-gina, barcha yuzaga kelishlar manbasida yotuvchi qandaydir narsa borligini tasdiqlashimiz qoladi, xolos, deb ta'kidlagan. Biz bu qorong'i sohani psixik anglanmaganlik deb ataymiz. K.G.Yung ongsizlik «mahsulotlarining» quyidagi sinflarini ajratib ko'rsatgan:

1) shaxsiy ongsizlik yoki «ong osti aql» bo'lib, u shaxsiy kelib chiqish dasturidan (komplekslardan), siqib chiqarilgan mazmun va ijodiy jarayonlardan iborat;

2) jamoa ongsizligi yoki shaxssiz ongsizlik bo'lib, arxaik xarakterdagi ma'lum bir hosilalar bilan belgilanuvchi «ham shakli, ham mazmuni bo'yicha mifologik motivlardan» iborat bo'lgan jamoa patternlari («arxetiplari»)dir.

Z.Freydning yana bir izdoshi, keyinchalik esa opponen-ti bo'lgan O.Rank konsepsiyasi qiziqarli bo'lib, unga ko'ra, tug'ilish jarayoni bolada anglanmaganlikda saqlanuvchi kuchli xavfsirashni yuzaga keltiradi va kattalardagi nevrotik simptomlarning sabablari bo'lib hisoblanar ekan. O.Rank va X.Zaks «ong osti» tushunchasini «ongsizlik» tushunchasidan ajratib, birinchi tushunchani «ularda ong belgilari mavjud bo'lmaydi, biroq uni xohlagan vaqtda tiklay olish mumkin», degan tasavvurlar bilan izohlasa, ikkinchi tushuncha ma'nosi-da esa holatlarga individ ongiga kirishga qodir emasligi tasav-vurlarini tushungan. Ongsiz materialning asosiy xususiyat-lariga tadqiqotchilar: affektivlik («juda kuchli zo'riqishdagi affekt»), ong sohasiga o'tish uchun uzoq muddat davomida intilishni ajratishgan. Z.Freyd izidan olimlar ongsizlik inson bolaligida yuzaga keladi: «Psixik dunyoda ham energiyaning saqlanish qonuni hukmronlik qiladi: ong ruhiy hayotdan si-qib chiqarilgan infantillik yo'qolib ketmaydi, u ongsiz psixik hayot atrofida mujassamlashuvi markazni hosil qiladi», degan fikrga kela boshlashgan.

Yuqorida qayd etilgan onglilik va ongsizlik muammosiga oid yondashuvlarning aksariyati sharq olimlarining izlanishlariga

tegishlidir. Mazkur ilmiy izlanishlarimiz doirasida klassik va xorij olimlarining turli qarashlari hamda tadqiqot ishlarining natijalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1928-yilda chop etilgan katta tibbiyot ensiklopediyasida ongsizlik atamasi psixik ongsizlik masalasiga tegishli bo'lganligi bois, inson shaxsining ongiga hisob bermasligi mumkin bo'lgan hodisa sifatida qaralib, ongsizlik atamasining aniq mohiyati ochib berilmaganligi talqin qilinadi.

1929-yilda nashr etilgan kichik sovet ensiklopediyasida ongsizlik atamasi quyidagicha talqin etiladi:

1. Hech qanday anglangan kechinmalarsiz davom etuvchi jarayonlar, jumladan:

- fiziologik jarayonlar;
- birlamchi va avtomatlashtirilgan xatti-harakatlar, uyqu holatidagi reaksiyalar;
- subyektning qo'zg'alish holatida paydo bo'luvchi harakatlari;
- bemorlik holatidagi harakatlar.

2. Avvalgi reaksiyalarning takrorlanishi sababli asab tizimidagi izlarning jonlanishi.

3. Psixoanalizda – alohida psixik soha sifatida.

Ta'kidlash joizki, 1976-yilda nashr etilgan tibbiyot ensiklopediyasida ongsizlik atamasi umuman uchramaydi, faqatgina V.M.Leybin va M.S.Kelner tomonidan yozilgan «Psixoanaliz» maqolasida Pavlovning nazariyasiga asoslangan oliy nerv faoliyati to'g'risidagi ta'limotida, ongsizlik miya psixofiziologik faollashuvining real komponenti sifatida ekanligi qayd etiladi.

Ongsizlik muammosiga bag'ishlangan ishlarni o'rganish natijalariga ko'ra, ongsizlik muammosi tadqiqida muayyan tarixiy davrlar mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

I bosqich – 1917–1932-yillar – psixoanaliz kontekstida ongsizlik muammosining rivojlantirilishi (I.D. Ermakov, M.V. Vulf, V.A. Belousov, V.F. Shmit, A.R. Luriya va boshq.); umumiy psixologiyada (K.M. Kornilov, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn va boshqalar), ustanovkalar nazariyasi kontekstida (D.N. Uznadze);

II bosqich – 1933–1953-yillar – psixoanalitik g‘oyalarning tanqidi (A.S.Prangishvili, A.E.Sheroziya, Sh.N.Chxartishvili va boshqalar) o‘zgalarning diqqatini ustanovkalar nazariyasi kontekstida ongsizlik fenomeniga qaratish;

III bosqich – 1954–1991-yillar – ushbu bosqichni ikki davrga ajratish mumkin:

– 1954–1976-yillar – kasbga oid jurnal sahifalarida ustanovkaning xos emasligini aniqlash maqsadida ustanovka va ongsizlik muammosiga daxldor bahs-munozaralarning ortishi;

– 1977–1991-yillar – ongsizlik mohiyati, ongsizlik va ustanovka tabiatining aynan bir xilligi to‘g‘risidagi bahs-munozaralar, ongsizlik fenomenining kelgusidagi tadqiqotlari, «ongsizlik» kategoriyasiga oid bilimlarni chuqurlashtirish.

XX asrning 60–90-yillarida psixologiya fanining turli sohalarida ongsizlik muammosiga oid tadqiqotlar, jumladan, faoliyat nazariyasi va ustanovka sinteziga bag‘ishlangan urinishlar nihoyatda ortganligi kuzatildi (A.G.Asmolov va boshqalar), psixoanalizning qaytadan vujudga kelishi (V.M.Leybin, Y.V.Gilbo va boshqalar), ustanovka nazariyasining jadal rivojlanishi (A.S.Prangishvili, A.E.Sheroziya, Sh.N.Chxartishvili, N.I.Sardjveladze va boshqalar).

K.K.Platonov ongsizlik fenomenlarining klassifikatsiyasini taqdim etib, anglanmagan psixik hodisalarning to‘rt ost tuzilmasini ajratdi:

– birinchi ost tuzilma – ong xiralashgan sharoitda barcha anglanmagan xatti-harakatlar va hayvonlardagi gomologik aynan o‘xshash impulsiv ixtiyorsiz instinktiv harakatlardan iborat psixik hodisalar;

– ikkinchi – subsensor ta’sirga ega psixik hodisalar;

– uchinchi – psixik illuzor hodisalar (idrok, xotira, tafakkur va boshqalar);

– to‘rtinchi – ichki rivojlanish oqibatida avtomatlashgan shaklga ega ilgari anglangan hodisalar.

Ushbu klassifikatsiyada psixologik ustanovkalar va anglanmagan motivatsiya kabi fenomenlarga diqqat-e’tibor qaratilmagan.

A.G.Asmolovning faoliyat kategoriyasiga asoslangan ongsizlik sohasini o'rganish masalalarini tadqiq etdi. Xususan, faoliyatning umumpsixologik nazariyasi kontekstidagi ongsizlik sohasi tahlilida anglanmagan hodisalarning sifat jihatidan yuqori bo'lgan ma'noviy tavsiflari ochilishini qayd qiladi. Faoliyat nazariyalari tamoyillariga (faoliyat tizimida aks etgan predmetning aks etish joyi va o'z predmetiga egaligi) asoslangan holda, A.G.Asmolov anglanmagan hodisalarni klassifikatsiya qilishga urinib, uning uch sinfini ajratadi:

- ost individual yuqori anglangan hodisalar;
- faoliyatning anglanmagan qo'zg'alishlari (anglanmagan motivlar va ma'noviy ustanovkalar);
- xatti-harakat va operatsiyalarning anglanmagan regulyatorlari.

P.V.Simonov ongsizlik to'g'risidagi konsepsiyasida uning ikki turi: ongostlilik va yuqori onglilikni ajratadi. Tadqiqotchi birinchi turga yangi yaratish bilan bog'liq bo'lmagan avtomatlashgan ko'nikmalar, ongdan siqib chiqarilgan motivatsion konfliktlar, o'zlashtirilgan ijtimoiy me'yorlar, intuitsiya ko'rinishlarini kiritadi. Ikkinchisiga esa – ijodiyotning ilk bosqichlari – faraz, gumon (xayol) va boshqa, hamda kulgu va hazilni kiritadi.

Y.B.Gippenreyter ongsizlik haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirib, o'zining anglanmagan jarayonlar to'g'risidagi klassifikatsiyasini ishlab chiqadi va uni uchta guruhga ajratadi.

1-guruh – ongli xatti-harakatlarning anglanmagan mexanizmlari;

2-guruh – ongli xatti-harakatlarning anglanmagan qo'zg'atuvchilari;

3-guruh – ongustilik jarayonlari.

Y.B. Gippenreyter har bir guruhni yana kichik guruhchalarga ajratadi:

– anglanmagan avtomatizm, anglanmagan ustanovkalarining hodisalari va ongli xatti-harakatlarning anglanmagan hamkorligi;

– Z.Freyd tomonidan yozilgan hodisalar (tush ko'rish, xato harakatlar, nevrotik simptomlar);

– ongustilik jarayonlari, ya'ni yuqori ongli ishda integral samaradorlikning paydo bo'lishi, so'ngra insonning ongli hayotiga kirib borishi, odatda uning kechishida radikal o'zgarishlar kuzatiladi.

Shunday qilib, inson ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan.

Bizning fikrimizcha, «ong» va «ongsizlik» muammolariga qaratilgan izlanishlarda turli xil yondashuvlar mavjud. Ular ichida ongsizlik evolutsion-genetik, ya'ni biologik asosga egaligi, shuningdek, onglilikning ongsizlikka o'tishi va ongsizlik anglanishida insaytning strukturali, topografik, dinamik, genetik, adaptiv va tasvirlovchi yondashuvlar prizmasi orqali o'z aksini topishi haqidagi fikrlar ustuvorlik qilgan.

Nazorat savollari:

1. Psixika nima va uning rivojlanishini qanday tushunasiz?
2. Ong paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ong psixologik kategoriya sifatida qanday izohlanadi?
4. Ong tuzilmasi to'g'risida tushuncha bering.
5. Ongning shakllari yuzasidan qanday mulohazalarni bilasiz?
6. Ongning turlarini tavsiflab bering.
7. Ong rivojlanishining o'ziga xosligi nimada namoyon bo'ladi?
8. Ong va ongsizlik muammosini izohlab bering.

XV bob. FAOLIYAT

Tayanch tushunchalar: ehtiyoj, motiv, ustanovka, qiziqish, faoliyat, o'yin, o'qish, mehnat, ehtiyoj turlari, tabiiy ehtiyoj, madaniy ehtiyoj, moddiy ehtiyoj, faoliyatning psixologik nazariyalari.

15.1. Faoliyatning psixologik tavsifi

Tirik mavjudotlarning atrofdagi olam bilan hayotiy ahamiyatga molik bog'lanishlar bo'lishini ta'minlaydigan faoliyati ularga xos yalpi xususiyat hisoblanadi.

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbayi bo'lib hisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir.

Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Xuddi shu o'rinda odamning faolligi shakllari bilan hayvonning xatti-harakatlari faolligi o'rtasidagi tafovutlar ayon bo'ladi. Hayvon o'z ehtiyojlarining obykti bo'lishi hamda unda ularni egallab olish uchun faol intilishga da'vat etishi ehtimoli borligini o'zining tabiiy tuzilishiga (tanasining va a'zolarining tuzilishiga, instinktlarining boyligiga) ko'ra bamisoli oldindan bilishi tufayli faollik bilan harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muhitga yaxshiroq moslashuvini ta'minlaydi. Masalan, qunduz xatti-harakatining tug'ma ravishda hosil bo'lgan programmasi uning quruvchilik ehtiyojlarini qamrab qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish obyektlari: to'g'on quriladigan daraxtlarning navlari, daraxtlarning suvga yaqinligi, «o'rmon kesish» usullari (qunduzlar daraxtning shoxi aynan suvga tushishini mo'ljallab, uning suvga qarshi tomonini kemiradi) va hokazolar ham aks etgan bo'ladi.

Shunday qilib, hayvonning ehtiyojlarida uning faolligi omili sifatida tabiatdan olingan buyum bevosita ishtirok etadi.

Odamning faolligi va faollikning manbayi bo'lgan insoniy ehtiyojlar tamomila boshqacha manzara kasb etadi. Kishining

ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni kishilik madaniyati olami bilan yaqinlashtirish jarayonida shakllanadi. Tabiatdan olinadigan buyum shunchaki oddiy o'lja, ya'ni faqat biologik ma'noga ega ovqat tarzidagi buyum bo'lmay qoladi. Odam qurollar yordamida buyumni tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblanmish xususiy ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tubdan o'zgartirishga qodirdir. Shuning uchun ham kishining o'z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi. Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o'zgarib boradi. Ular hozirgi zamon kishisida uning ajdodlarida bo'lganiga qaraganda boshqachadir, uning avlodlarida ham boshqacha bo'ladi. Kishining ehtiyojlarini to'la-to'kis qondirish uni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, lekin bu yakkayu yagona shart emas, albatta. Buning ustiga kamolotga erishishning boshqa shart-sharoitlari (va birinchi navbatda mehnat) mavjud bo'lmasa, o'z ehtiyojlarini osongina qondirish imkoniyati kishini ko'pincha inqirozga uchratadi. Mehnat bilan yo'naltirilmaydigan tekinxo'rlik ehtiyojlari zid xulq-atvor (ba'zan esa jinoiy xatti-harakat)ning manbayi bo'lib qolishi mumkin va ayrim kishilarda shunday bo'lmoqda.

Mehnat qilishga bo'lgan ehtiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdan o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi, deb hisoblash uchun asos bor. Hozir ba'zan og'ir va zerikarli bo'ladigan mehnat sog'lom, har tomonlama kamolga yetgan kishi uchun quvonch va rohat-farog'at manbayiga aylanadi.

«Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari»da o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashi ta'kidlangandir.

Ehtiyojlarni tanlash va shakllantirish masalasi axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. A.S.Makarenko

buni aniq-ravshan tarzda ta'kidlagan hamda insoniy ehtiyojlarni tanlash va tarbiyalash, ularni kishini yanada barkamollik sari kurashga odatlantiradigan o'sha ma'naviy cho'qqiga ko'tarish lozimligi haqida yozgan edi.

Ehtiyojlarning turlari

Kishining ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xarakterga egadir. Bu, birinchidan, hatto shunchaki tor ma'nodagi shaxsiy xarakterga ega bo'lib tuyuladigan (masalan, oziq-ovqat bilan bog'liq) ehtiyojlarni qondirish uchun ham ijtimoiy mehnat taqsimotining ma'sulidan (dasturxonga non seleksiyachilar, agronomlar, traktorchilar, kombaynchilar, elevatorlarning xodimlari, tegirmonchilar, novvoylar, sotuvchilar va boshqa shu kabi odamlar mehnat g'ayrat-shijoatlarining moddiylashgan mahsuli sifatida kelib tushadi) foydalanilishida o'z ifodasini topadi. Ikkinchidan, kishi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi, hamda muayyan shart-sharoitlarga ehtiyoj sezadi. (Bir parcha go'shtni iste'mol qilish uchun hech bo'lmaganda o'sha go'sht tegishli usulda tayyorlangan bo'lishi lozim. Kishida likopcha, pichoq va vilka, ba'zi bir gigiyena talablariga rioya qilish va shu kabilarga ehtiyoj tug'iladi.) Va nihoyat, uchinchidan, kishining ko'pgina ehtiyojlari uning tor ma'nodagi shaxsiy talab-ehtiyojlaridan ko'ra ko'proq kishi o'zi mansub bo'lgan va birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi — jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini kasb etadi.

Bu jarayon quyidagi misolda o'zining yorqin ifodasini topishi mumkin. Yig'ilishda ma'ruza qilishdan iborat jamoat topshirig'iga ega bo'lgan o'quvchi ma'ruzaga uni tayyorlashning o'zi, aytaylik, qiziqarli kitobni o'qishga qaraganda ham jozibaliroq mashg'ulot ekanligi sababli emas, balki u jamoaning talabini bajarishga o'zida juda zo'r ehtiyoj sezayotganligi uchun ham g'oyat puxtalik bilan tayyorgarlik ko'radi.

Ehtiyojlar kelib chiqishiga va predmetiga ko'ra farqlanadi.

Kelib chiqishiga ko'ra ehtiyojlar tabiiy va madaniy bo'lishi mumkin.

Tabiiy ehtiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash va qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi, barcha odamlarda ovqatlanishga, suv ichishga, qarama-qarshi jinsning mavjud bo'lishiga, uxlashga, sovuqdan va haddan ziyod issiqdan saqlanishga va hokazolar tabiiy ehtiyoj bo'ladi. Agar tabiiy ehtiyojlardan qaysi biri biron darajada uzoq vaqt davomida qondirilmagan qolsa, odam muqarrar ravishda halok bo'ladi yoki sulolasini davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Garchand tabiiy ehtiyojlar (ularning soniga ko'ra) odamning hayvon ajdodlaridagi va ibtidoiy odamlardagi kabi tarzda qolgan bo'lsa ham lekin ular o'z psixologik mohiyatiga ko'ra hayvonlarning tabiiy ehtiyojlaridan tubdan farq qiladi. Ehtiyojlarni qondirishning usullari va qurollari o'zgaribgina qolmasdan, eng muhimi, ehtiyojlarning o'zi o'zgarib bormoqda.

Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining mahsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi. U yoki bu xilda tarkib topgan madaniyat sharoitlarida biron-bir tabiiy ehtiyojni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiladigan narsalar (vilka va qoshiq, ovqatni yeyish uchun ishlatiladigan cho'plar) ham, shuningdek, boshqa odamlar bilan mehnat va madaniy munosabat bog'lash uchun, kishining murakkab va rang-barang ijtimoiy hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalar ham madaniy ehtiyojlar obyektini hisoblanadi. Turli iqtisodiy va ijtimoiy tuzum sharoitida kishida uning tarbiyasiga va xulq-atvorning keng yoyilgan hamda udum bo'lgan odatlari va shakllarini o'zlashtirishiga bog'liq holda turli xildagi madaniy ehtiyojlar tug'iladi. Agar kishining madaniy ehtiyojlari qondirilmasa, u halok bo'lmaydi (tabiiy ehtiyojlari qondirilmagan sharoitda ana shunaqa bo'lishi mumkin edi), lekin undagi odamiylik sifatleri jiddiy zararlanadi.

Kishi ehtiyojlarining rivojlanishi xususiyatlari

Hayvonning xatti-harakati hamisha u yo bu ehtiyojni qondirishga bevosita yo'naltirilgan bo'ladi. Ehtiyoj hayvonni faqat faollikka undab qolmasdan, balki ushbu faollikning shakllarini ham belgilaydi. Misol uchun ovqatlanish ehtiyoji (ochlik) hayvonda, jumladan, ovqatlanish faolligini vujudga keltiradi – og'zida so'lak ajratila boshlanadi, ovqatni izlash yoki o'ljani poylash, egallash va uni iste'mol qilish kabi jarayonlar yuz berib boshlaydi. Shartli refleks – bu faollikni yangi qo'zg'atuvchilar (masalan, qo'ng'iroq chalinishi) bilan yoki yangi harakatlilar (masalan, tepkini bosish) bilan bog'lanishi mumkin. Lekin bunda hayvonning xatti-harakati tuzilishi shundayligicha qoladi. Qo'ng'iroqning chalinishi tashqi qo'zg'atuvchilar oqimidan aynan ovqatlanish haqida xabar beruvchi signal sifatida ajralib turadi. Hayvon tepkini bosishni aynan ovqatning olinishiga olib keluvchi xatti-harakat tarzida bajaradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, hayvon eng murakkab shartli reflekslar orqali faoliyat ko'rsatgan taqdirda ham ehtiyojlar to'g'ridan to'g'ri uning psixikasining ham aks ettirish, ham yo'naltirish funksiyalarini belgilaydi. Hayvon organizmining talab-ehtiyojlari psixika tavarak-atrofdagi olamga nimalarni in'om etishi va qanday javob xatti-harakatlarini keltirib chiqarishini belgilab beradi.

15.2. Faoliyatning psixologik nazariyalari

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondashishni vujudga keltiradi, mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakkahol (individual) shaxsga ishchanlik, g'ayrat-shijoat, yengilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shartsharoitlarni yaratadi. Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish, insonga intilish, faollik, ichki turtki ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbayi, rolini bajaradi.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtayi nazardan L.A.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyayev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich,

N.G.Mordova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, E.G.G'oziyev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi. Qiziqishning psixologik mohiyatining dastlabki ko'rinishi – bu odamlar tomonidan anglab yetish yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatda bo'ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo'lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlar, individual-tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his-tuyg'ular uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hissini vujudga keltiradi, buning natijasida frustratsiya (ruhiy tushkunlikka tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Qiziqishning psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi – uning irodaviy sifatlar bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillikni namoyon qilish xususiyatini qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi. Qiziqishning psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishi uning oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir. Qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini ta'kidlab o'tish joiz, uning «bu nima?» refleksi, ya'ni orientirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. I.P.Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin va boshqalar insondagi qiziqishning nerv-fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog'lanishlarning vujudga kelishidir, degan tarzda talqin qildilar. Qiziqishning moddiy asoslari o'zaro induksiya qonuni, po'stloqdagi optimal qo'zg'alish o'chog'i va dinamik

stereotiplar (I.P.Pavlov), dominanta (A.A.Uxtomskiy), orientir murakkab psixofiziologik hodisa ekani (E.N.Sokolov) va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday tiplarga ajratilishi mumkin: *mazmuniga ko'ra: shaxsiy va ijtimoiy; maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; ko'lamiga qaraganda: keng va tor.*

Qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror, beqaror va boshqalar.

Qiziqishning mazmun jihatidan o'zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining obyektlari qaysilar, bilimning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibligi; shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar.

Faoliyatga nisbatan anglanilmagan mayllar borasida eng ko'p o'rganilgan masala ko'rsatma berishdir. Bu masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning xodimlari tomonidan ishlangan. Ko'rsatma berish deganda bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarni ma'lum usulda qondirishga tayyor turish tushuniladi. Talabalar o'qituvchilar beradigan topshiriqlarni bajarishga doim tayyor turadilar.

15.3. Faoliyat va uning maqsadlari haqida tushuncha

Agar hayvonlarning xatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Xatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus termin – faoliyat termini qo'llaniladi. Faollikning bu, alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixologik belgilari nimalardan iborat?

Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni tamomila uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilan belgilanmaydi. Basharti motiv sifatidagi ehtiyoj faoliyatga turtki berib, uni rag'batlantirar ekan, u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart-sharoitlar, talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tug'ilishidan ham kelib chiqi-

shi mumkin. Lekin odam stanokni, masalan, uning ochligini bartaraf etish uchun emas, balki bu unga topshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyat mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan undan jamiyat talab qilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash uchun belgilanadi. Kishining nima uchun muayyan tarzda harakat qilayotgani uning nimani ko'zlab ish qilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xohish-istaklar, sabab bilan ushbu faoliyatni yo'naltiruvchi bevosita maqsad bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

Binobarin, faoliyatning birinchi farqli belgisi shundan iboratki, u faollik manbayi bo'lgan ehtiyoj sifatida yuzaga chiqqan holda faollikning yo'naltiruvchisi bo'lgan anglashilgan maqsad bilan boshqariladi.

Faoliyat muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixika narsalarining xususiy obyektiv xossalarini aks ettirishi va ular bilan (organizmning ehtiyojlari bilan emas) oldiga qo'yilgan maqsadga erishish usullarini ham belgilab berishi lozim. Va nihoyat, faoliyat kishining xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, xususan olganda esa yuzaga kelgan ehtiyojlarni, o'zicha zudlik bilan qondira olmaydigan, ya'ni bevosita madadga tayanmaydigan faollikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan darajada boshqarishga qodir bo'lishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, faoliyat bilish va iroda bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas.

Demak, faoliyat — kishining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Shunday qilib, faoliyat haqida gapirish mumkin bo'lishi uchun kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim. Faoliyatning barcha qolgan jihatlari — uning motivlari, bajarilish usullari, tegishli axborotni tanlash va qayta ishlash anglanilgan bo'lishi ham, anglanilmagan bo'lishi ham mumkin. Ular shuningdek, chala-yarim tarzda anglanilgan va hatto noto'g'ri anglanilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan,

maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uni o'ynashga majbur qildigan ehtiyojni kamdan kam tarzda anglab yetgani kabi kichik yoshdagi maktab o'quvchisi o'z o'qish faoliyatining motivlarini anglamagan holda ish ko'radi. Intizomsiz o'smir o'z xatti-harakatlarining haqiqiy motivlarini chala-yarim va ko'pincha noto'g'ri anglaydi.

15.4. Faoliyatning tuzilishi

Faoliyat – voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. Odam faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatda u o'z ichki xususiyatlarini ishga solib va namoyon qilib, narsalarga nisbatan subyekt sifatida, odamlarga nisbatan esa shaxs sifatida gavdalanadi. O'z navbatida ularning javobiy ta'sirotni his qilgan holda, u shu yo'l bilan odamlarning, narsalarning, tabiat va jamiyatning haqiqiy, obyektiv, muhim xususiyatlarini bilib oladi. Uning qarshisida narsalar obyektlar sifatida, odamlar esa shaxs sifatida gavdalandi.

Harakat va sa'y-harakatlar. Toshning og'irligini bilish uchun uni ko'tarib ko'rmoq, parashyutning chidamliligini aniqlash uchun esa unda samolyotdan sakrab ko'rmoq kerak. Kishi toshni ko'tarayotib va parashyutdan tushayotib, faoliyat orqali ularning real xususiyatlarini bilib oladi. U ana shu real harakatlarni timsoliy harakatlar bilan almashtirishi, ya'ni «tosh og'ir» deb aytishi yoki parashyutdan tushish tezligi va traektoriyasini tegishli formula bo'yicha hisoblab chiqishi mumkin. Lekin hamisha ham ish, amaliy faoliyat birinchi galda turadi. Ushbu faoliyatda faqat tosh yoki parashyutning emas, balki kishining ham o'z xususiyatlari (u nima uchun toshni ko'tardi, parashyutdan foydalandi va hokazo) ham namoyon bo'ladi. Amaliyot kishining nimani bilishi va nimani bilmasligini, uning olamda nimani ko'rayotgan va nimani ko'rmayotganini, nimani tanlab olayotgani va nimani rad etayotganini belgilaydi hamda ko'rsatadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, u kishi psixikasining mazmunini

hamda ma'ruza uning mexanizmlarini belgilab beradi va shu bilan barobar ularni namoyon qiladi.

Faoliyatga yo'llagan maqsad, odatda, yo ko'proq, yo ozroq darajada uzoqlashgan bo'ladi. Uning uchun ham unga erishish kishi ana shu maqsad yo'lida harakat qila borgan sari uning oldida paydo bo'ladigan qator juz'iy vazifalarning kishi tomonidan izchillik bilan hal etila borishidan tarkib topadi. Misol uchun, ishchining mehnat faoliyati, jumladan, umuman muayyan bir mahsulotni talab qilingan sifat darajasida ishlab chiqarishdan iborat yagona maqsadga va mo'ljallangan mehnat unumdorligiga erishishga qaratilgan deylik. Bu maqsadni amalga oshirish uchun vaqtning har bir bo'lagi mobaynida ma'lum bir joriy vazifalarni bajarish, masalan, detaliy yo'lni, zagotovka (tanavor)ni o'lchab chiqish, xomashyoni apparatga solish va shu kabilarni muvaffaqiyatli hal etish zarur bo'ladi. Faoliyatning yolg'iz bitta oddiy joriy vazifani bajarishga yo'naltirilgan nisbatan tugallangan har bir shunday qismini harakat deb atashadi.

Biz yuqorida keltirgan mehnat harakatlari narsalar bilan amalga oshiriladigan ishlardan iborat. Tashqi olamdagi narsalarning holatini yoki xususiyatlarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni shunday deb atashadi. Narsalar bilan bajariladigan har qanday ish (harakat) makon va zamonda bog'langan muayyan sa'y-harakatlardan tarkib topdi. Masalan, «a» harfini yozish harakati ruchka (qalam)ga va bir-biriga nisbatan muayyan tarzda joylashgan bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan ruchka (qalam)ni bosishdan, so'ngra ruchka (qalam)ni qog'oz ustida ushlab turish va ma'lum bir joyda pero qog'ozga tekkunga qadar pastga tushirishdan, keyin esa peroni yuqoridan o'ngdan chap tomonga qarab va so'ngra soat millariga qarshi yo'nalishda doira shaklida yurgizib, yuqorida yozuv boshlangan nuqtada to'xtash, egilgan chiziq bo'ylab pastga xuruj qildirish, doiraning quyi qismiga yotgan joyda o'ngga qarab burish va chapdan o'ngga qarab yoysimon shaklni chizish bilan tugallashdan tarkib topadi. Kishining narsalar bilan qiladigan sa'y-harakatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi ham tashqi rang-barangligiga qa-

ramasdan, qoida tariqasida gavdaning, oyoqlarning va boshning yordamchi sa'y-harakatlari bilan birga qo'shilgan uchta oddiy qismdan – «olish», «ko'chirish», «qo'yib yuborish»dan tarkib topadi. Sa'y-harakatlarning har xil turlarida bu qismlar o'z traektoriyasi, qanchalik davom etishi, kuchi, tezligi, sur'ati (ma'lum bir vaqt mobaynida takrorlanish soni) bilan ular tananing qaysi bir qismi bilan bajarilishiga qarab farqlanadi. Sifat nuqtayi nazaridan sa'y-harakatlar aniqligi, nishonga tegishi, epchilligi va umumlashganligi bilan belgilanadi.

15.5. Harakatni boshqarish va nazorat qilish

Sa'y-harakatlarning bajarilishi uzluksiz ravishda nazorat qilib va uning natijalari harakatning pirovard maqsadi bilan, taqqoslangan holda to'g'rilab (korrektirovka qilib) boriladi.

Ana shunday nazorat va korrektirovka buzilgan taqdirda bemorlar hatto eng sodda harakatlarni ham muvaffaqiyatli bajara olmaydigan bo'lib qoladilar. Ular stol ustidagi stakanni qo'liga olishda hamisha adashib, qo'lni boshqa tomonga cho'zadilar, suv ichish uchun stakanni og'izlariga to'g'ri olib bora olmaydilar, uni keyin o'rniga qo'ya olmaydilar. Ular stulga to'g'ri o'tira olmaydilar, nonni kesaman deb qo'l barmoqlarini kesib yuborishadi, satrlarga rioya qilgan holda chiziqlar o'tkazishga qodir emaslar va hokazo.

Harakat qay yo'sinda nazorat qilib boriladi? Bu o'rinda hali ko'p narsa aniqlangan emas. Bu, shubhasiz, sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, mushaklar sezgisi) vositasidagina ro'y berishi mumkin. Sa'y-harakatlarni sensor nazorat qilishi (sezgi a'zolari yordamida nazorat qilish)ning roli sinab ko'rilayotgan kishi geometrik shaklning, masalan, olti burchakli yulduzning tasvirini uning oynadagi aksiga qarab turib chizishi lozim bo'lgan tajribalarda durustgina isbot etiladi.

Odatda buni oldiniga sira bexato bajarib bo'lmaydi, chunki kishi oynada qalamning odam qo'li harakat qilayotgan tomonga emas, balki qarama-qarshi tomonga qarab yurgizilayotganini ko'radi. Sinalayotgan kishi faqat mashq qilish tufayligina ko'rish natijasida olingan ma'lumotlardan foydala-

nishni va ularni qo'lning harakati bilan to'g'ri muvofiqlashtirishini o'rganadi.

Sinab ko'rilayotgan odamga tajriba jarayonida narsalarning va qo'l harakatlarining amaldagi holatini jiddiy ravishda buzib ko'rsatadigan prizmalı ko'zoynak taqilib o'tkazilgan tajribalar shu nuqtayi nazardan olganda yanada qiziqarliroqdir.

Bunday holatda kishi o'zining sa'y-harakatlarini to'g'ri boshqarish (narsalarni ushlash, ularga yaqinlashish, belgilangan joyga qo'yish va shu kabi jarayonlarni bajarish) qobiliyatini mutlaqo yo'qotib qo'yishi ma'lum bo'ldi. Faqat uzoq vaqt mobaynida mashq qilganidan keyingina u bunday buzilishlarni to'g'rilashga o'rgandi. Agar ko'rish signallari yana taxminan 0,27 soniyasiga kechika boshlagan bo'lsa, buzilishlarga ko'nikishiga hech qanaqa mashq bilan erishib bo'lmasdi. Ha, aytgancha, faol sa'y-harakat qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan hayvonlar ham agar oldingi oyoqlarining harakatlarini ko'rib turmasalar, uni boshqara olmaydilar.

Bundan ma'lumki, sa'y-harakatlarni boshqarish teskari aloqa prinsipiga binoan amalga oshiriladi. Sezgi a'zolari ana shunday aloqa vositasi, narsalar va sa'y-harakatlarning muayyan idrok etiladigan va harakat mo'ljallari (orientirlari) rolini o'ynaydigan belgilari axborot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Teskari aloqaning bunday shaklini P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atadi.

Shunday qilib, ashyoviy (yoki boshqa xildagi tashqi) harakatning bajarilishi ma'lum bir tizimga oid sa'y-harakatlarni amalga oshirish bilangina cheklanmaydi. U muqarrar ravishda sa'y-harakatlarning joriy natijalari va harakatlar obyektining xususiyatlariga muvofiq tarzda sa'y-harakatlarni sensor (hissiy) nazorat va korrektirovka qilishni o'z ichiga oladi. Miyaga tashqi muhitning holati, unda sa'y-harakatlar qanday ro'y berayotgani va uning natijalari haqidagi axborotni yetkazib turadigan hissiy orientirlarini o'zlashtirish ana shu jarayonning negizi hisoblanadi.

Chunonchi, temirchi temirning qizdirilishi darajasini uning rangiga qarab chamalab ko'rib, bolg'ani urish kuchini shun-

ga mutanosiblashtiradi. Duradgor randani bosish kuchini va sa'y-harakat tezligini yog'ochning qarshiligini o'zgaruvchan mushaklar sezgisi orqali moslashtiradi. Kranchi yukni qo'l va oyoqlarining qat'iy ravishda bir-biriga mutanosib va uzluksiz sa'y-harakatlari bilan traektoriyasini ko'rish orqali nazorat qilgan holda uyg'unlashtirib, murakkab va eng qulay traektoriya bo'ylab o'tkazadi. Haydovchi mashinani to'xtatarkan, tormoz tepkisini bosish kuchini mashinaning harakati tezligi, yo'lning holati, mashinaning vazni va shu kabilar bilan uyg'unlashtiradi.

Ko'rib turganimizdek, ushbu barcha mo'ljallar sa'y-harakatlarni alohida o'zicha emas, balki harakat maqsadiga muvofiq tarzda belgilaydi. Masalan, doira chizig'i chizish va bo'lak chiziqlarni o'lchash uchun foydalanish urinishlarning turli xil tizimini taqozo etadi. Qalam bilan «a» harfini yozishda «o» harfini yozish chog'idagiga qaraganda boshqacha urinish bo'ladi. Kechikib qolib avtobus orqasidan chopayotgan yo'lovchining sa'y-harakatlari tizimi rekord qo'yishni niyat qilgan yengil atletikachini sira ham qanoatlantirmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, harakat tarkibiga kiruvchi sa'y-harakatlar tizimi pirovard natijasida ushbu harakatning maqsadi bilan boshqariladi va yo'naltiriladi. Qilinayotgan sa'y-harakatlarning natijalari aynan shu maqsad nuqtayi nazaridan baholanadi va to'g'rilab turiladi. Aynan shu harakatning maqsadi uni bajarishda, nazorat qilish va yaxshi izga solishda narsalarning qaysi bir xususiyati va holati mo'ljal bo'la olishini belgilab beradi.

Nomlarning rang-barangligi ushbu modellar mohiyati nima iboratligi, ular miyada qanday tarkib topishi va amal qilishi haqida tavsiya etilayotgan gipotezalarning rang-barangligini aks ettiradi. Bularning hammasini hozircha biz aniq bilmaymiz. Lekin bo'lg'usi harakatlar va ulardan kutilayotgan natija miyada oldindan allaqanday tarzda tasavvur qilinishining o'zi shak-shubhasizdir. Aks holda, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, faoliyatning o'zi ham bo'lishi mumkin emas edi.

15.6. Faoliyatni interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash

Miya kelajakni qanday qilib «oldindan ko'rishi» va hali bajarilmagan harakatlarning natijasi psixikasida qanday qilib aks etishi mumkin? Buning uchun atrofdagi olamning bitta prinsipial xususiyati — uning qonuniyati tufayli imkoniyat tug'ildi. Bundan undagi turli xil hodisalar muayyan doimiy bog'lanishlar va munosabatlar orqali bog'langan, undagi narsalar esa ma'lum bir shart-sharoitlarda namoyon bo'ladigan muayyan muqarrar xususiyatlarga va tuzilishga ega bo'ladi (olov doimo kuydiradi; tundan so'ng hamisha kunduz keladi, jismning tezligi ishlatilgan kuchga mutanosib bo'ladi; qo'shiluvchi sonlarning o'rni almashtirilgani bilan yig'indisi o'zgaraydi va hokazo).

Obyektlar bilan hodisalar o'rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlar obyektlarning muhim xususiyatlari va hodisalarning qonuniyatlari deb ataladi. Aynan obyektlar va hodisalarda muayyan muhim va barqaror xususiyatlar hamda qonuniyatlarning mavjudligi ma'lum bir sharoitlarda ularning «fe'l-atvorini», ya'ni u yoki bu ta'sirotlar ostida ularning bo'lg'usi o'zgarishlarini oldindan bilish va shu asosda harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirib turish imkonini beradi. Tashqi, konkret faoliyat bu holda go'yo ichki, timsoliy faoliyat tarzida his etiladi. Obyektlar ustida bo'ladigan konkret harakatlar ushbu obyektlarning muhim xususiyatlari ustida olib boriladigan timsoliy (psixik) jarayonlar bilan almashtiriladi, ya'ni narsalar bilan bajariladigan jismoniy jarayonlar ularning mohiyatini tasavvur qilgan holda yuz beradigan xayoliy jarayon bilan almashtiriladi.

Tashqi, real harakatdan ichki, timsoliy harakatga bu xildagi o'tish jarayonini interiorizatsiya (tom ma'nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanish) deb atashadi. Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma'lum bir vaqt ichida uning nazari e'tiborida bo'lmagan narsalarning timsolida foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Kishi muayyan daqiqa chegaralaridan tashqariga chiqib, «xayolida» o'tmishga va kelajakka, vaqtga va bo'shliqqa er-

kin ko'chib o'tadi. Kishining harakati hayvonning butun xatti-harakatini belgilab beradigan yuqoridagidek tashqi vaziyatga xuddi qul kabi qaramlikdan qutuladi.

Psixologiya interiorizatsiyaning qanday yuz berishini barcha jihatlariga qadar to'la bilmaydi. Lekin shu narsa aniq isbot qilinganki, bunday o'zgarishning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi bo'lib esa nutqiy faoliyat xizmat qiladi. So'z bo'g'inlarning muhim xossalarini va axborotdan foydalanishning insoniyat amaliyotida yuzaga kelgan usullarini belgilaydi va o'zida mujassamlashtiradi. Uning uchun ham so'zlarni to'g'ri ishlatishga o'rganish ayni chog'da buyumlarning muhim xususiyatlarini va axborotdan foydalanishning usullarini o'zlashtirishdan iboratdir. Kishi so'z orqali butun insoniyatning, ya'ni o'zidan oldingi o'nlab va yuzlab avlodlarning, shuningdek, o'zidan yuzlab va minglab kilometr uzoqdagi kishilar va jamoaning tajribasini o'zlashtirib oladi.

So'zlarni va umuman narsalarning munosabatini bildiradigan real timsollarni qo'llash narsalarning o'zi bevosita bo'lmagan hollarda tegishli munosabatlar haqidagi axborotdan foydalanishga uning uchun ham imkoniyat yaratadi, jamiyat amaliyotida shakllangan tajriba va bilimlar, timsollar va talablar yordamida kishi faoliyati va xulq-atvorini yo'naltirib turishga ko'mak beradi.

Shunday qilib, kishi faoliyati juda murakkab va o'ziga xos jarayondir. U shunchaki ehtiyojlarni qondirishdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ko'proq darajada jamiyatning maqsadlari va talablari bilan belgilanadi. Maqsadning anglanilganligi va unga erishish yuzasidan ijtimoiy harakatlar tajribasi bilan bog'liq ekanligi kishi faoliyatining o'ziga xos belgisidir.

15.7. Faoliyatning o'zlashtirilishi. Malakalar

Har qanday harakatning tahlil etilgan jihatlarini tegishli tarzda uning motor (harakat), sensor (hissiy) va markaziy qismlari deb atash mumkin. Shunga muvofiq ushbu qismlarning harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan vazifalari ijro etish, nazorat qilish va boshqarib turishidan ibo-

rat bo'lishi mumkin. Kishi faoliyat jarayonida harakatlarni ijro etishda, nazorat qilish va boshqarib turishda foydalanadigan yo'l-yo'riqlar ushbu faoliyatning usullari deb ataladi.

Aytib o'tilgan vazifalarning har birini kishi anglanilgan tarzda ham va anglanilmagan tarzda ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, so'zni talaffuz etishi uchun zarur bo'lgan hiqildoq harakatlari tizimi kishi tomonidan mutlaqo anglanilmagan holda ishlaydi. Lekin kishi aytmoqchi bo'layotgan iboraning grammatik shakllari va mazmuni hamisha ongda oldindan ayon bo'ladi. Har qanday sa'y-harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'sha mushaklar qisqarishi va cho'zilishining murakkab birikuvchi qoida tariqasida anglanilmagan bo'ladi. Aftidan, sa'y-harakatlar ongning ishtirokisiz, shunchaki fiziologik tarzda idora etiladi. Biroq, odatda, harakatlarning pirovard maqsadlari, shuningdek, ularning umumiy xarakteri hamisha anglanilgan bo'ladi. Masalan, kishi velosipedda mutlaqo ongsiz holatida yurishi mumkin emas. U qayoqqa borayotganini, qaysi yo'l bilan va qanaqa tezlik bilan borayotganini va shu kabilarni umuman tasavvur qilishi lozim. Bu har qanday mehnat, o'yin va boshqa xil harakat jarayonlariga ham taalluqlidir. Va nihoyat ayrim sa'y-harakatlar ongli tarzda yo'naltirilgan holda ham anglanilmagan holda ham bajarilishi mumkin. Masalan, yurish sa'y-harakatlarning anchagina qismi anglanilmagan holda amalga oshiriladigan faoliyatning shundoqqina ko'rinib turgan misoli hisoblanadi. Lekin shu xildagi sa'y-harakatlarning arqon ustida yurish chog'ida bajarilishi, sensor nazorat qilinishi va markazdan boshqarilishi (ayniqsa uquvsiz dorbozda) eng jiddiy darajada anglanilishi zarur bo'lgan obyektga aylanadi.

Teskari holat yuz berishi ham mumkinki, bunda harakatning ma'lum bir jihatlari oldiniga mayda-chuydalariga qadar ongli ravishda idora qilinishini taqozo etadi, so'ngra esa ong borgan sari kam ishtirok etgani holda bajarila boshlaydi, bunday hollarni ishning bajarilishi avtomatlasha boshlaganiga o'xshatishadi.

Kishida maqsadga muvofiq tarzda sa'y-harakatlarni, ijro etish va boshqarishning aynan shu tarzda qisman avtomatlashuvi malaka deb ataladi.

Biz aynan sa'y-harakatlarning anglanilmagan holdagi boshqarilishi to'g'risida so'z yuritayotirmiz, negaki, harakatlarni boshqarish bilan sa'y-harakatlarni boshqarish bir xildagi narsa emas. Sa'y-harakatlarning tobora ko'proq darajada avtomatlashuvi ayni chog'da ushbu sa'y-harakatlarni ham o'z tarkibiga olgan harakatlarni ongli ravishda boshqarish bilan qo'shilgan holda yuz beradi.

Chunonchi, velosipedchi o'z muvozanatini saqlash uchun ishlatadigan sa'y-harakatlarning avtomatlashuvi uning diqqat-e'tiborini atrofidagi ko'cha harakatiga, yo'lning holatiga va shu kabilarga qaratishiga va shu asosda o'z harakatlarni yanada anglanilgan tarzda boshqarishiga yordam beradi. O'rganuvchi pianinoning kerakli klavishlarni topish chog'idagi sa'y-harakatlarining shu tarzda avtomatlashuvi umuman harakatlarni bajarishni anglanilgan holda boshqarish darajasini keskin oshirishga, kuyning chalinishini asarning ijodiy rejasidan kam farq qiladigan darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Umuman olganda, «sof» malaka haqida, chamasi, faqat hayvonlarga ta'rif berilayotganda gapirish mumkin. Odamda patologik holatlardan bo'lak barcha xildagi faoliyat pirovard natijada ong bilan boshqariladi. Harakatning u yoki bu qismlari avtomatlashuvi esa ongli ravishda yo'naltiriladigan obyektни faqat almashtiradi, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, uning natijalarini nazorat qilish va baholashni ong uning tasarrufi doirasiga olib kiradi.

Malakaning tuzilishi. Harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ro'y beradigan o'zgarishlar quyidagilardan iboratdir.

Sa'y-harakatlarning ijro etilish usullari o'zgaradi.

Bunga qadar o'z holicha yuz berib kelgan qator juz'iy sa'y-harakatlar yagona jarayonga, tarkibiga kiruvchi alohida sodda sa'y-harakatlar o'rtasida to'siqlar va uzilishlar mavjud bo'lma-

gan bitta murakkab sa'y-harakatga qo'shilib ketadi. Masalan, o'quvchi bosqichli harakat sifatida bajaradigan harakatni o'zgartirish jarayoni tajribali haydovchi tomonidan bir marta qo'lni silliqqina ishlatgan holda bajariladi. Ortiqcha va keraksiz sa'y-harakatlar bartaraf etiladi. Jumladan, o'quvchi yozuvni o'rgana boshlagan paytda bu jarayonni bajararkan, ko'plab ortiqcha harakatlar qiladi: tilini chiqaradi, gavdasini qimirlatadi, boshini engashtiradi va hokazo. Harakat jarayoni o'zlashtirib olingandan keyin barcha ortiqcha sa'y-harakatlar yo'qolib ketadi. Mujassamlashuv yuz beradi, ya'ni sa'y-harakatlarni ikkala qo'l (oyoq) bilan bir vaqtning o'zida bajarish boshlanadi. Agar boshlovchi tokar keskichni oldiniga uzunasiga qarab, so'ngra esa ko'ndalangiga qarab yurgizsa, tajribali tokar keskichni detalga bir vaqtning o'zida bir qo'li bilan moxovikni uzunasiga, boshqasi bilan esa supportni ko'ndalangiga aylantirarkan, diagonal chiziq bo'ylab qisqa masofadan olib boradi. Pirovardida sa'y-harakatlarni bajarish sur'ati tezlashadi. Shunday qilib, harakatlarni o'zlashtirish jarayonida uning harakatlantiruvchi barcha jihatlari: sa'y-harakatlar tarkibi (u soddalahadi), sa'y-harakatlarning izchilligi (u uzluksiz bajariladigan bo'ladi) va sa'y-harakatlarning uyg'unligi (ular bir vaqtning o'zida bajariladigan bo'ladi), shuningdek, ularning tezligini mumkin qadar rejali bo'lishiga imkon tug'iladi.

Ko'nikmalar

Har qanday xulq-atvor yangi sharoitlarda yoki yangi obyektlarga nisbatan jarayonlarning ko'chishi asosida tarkib topadi. Ko'chish esa shart-sharoitlar yoki narsalarning faoliyat maqsadlari uchun muhim bo'lgan belgilari bo'yicha o'xshashligiga tayyanadi.

Bu o'xshashlik anglanilgan yoki anglanilmagan bo'lishi mumkin. Faoliyat qanchalik murakkab, maqsadlar qanchalik uzoqroq vaqtga mo'ljallangan hamda ular obyektlarning qanchalik ko'proq o'zgartirilishini talab qiladigan bo'lsa, muvaffaqiyatli ko'chishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan oraliq aqliy faoliyati shunchalik keng tus kasb etadi. Lekin har qanaqa hol-

da ham bunday ko'chish ko'nikma, ya'ni qo'yilgan maqsadga muvofiq tarzda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish deb hisoblash mumkin.

Ko'nikma eksteriorizatsiya qilishni – bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini taqozo etadi. Uning boshlanish nuqtasi axborotning yuksak darajada, ya'ni ongda qayta ishlanishidan iboratdir. Amaliy harakatlarning ana shu yuksak darajadagi faoliyati natijalari bilan yo'naltirib turilishi esa uning yakunini tashkil etadi. Masalan, ma'lum bir jismning hajmini aniqlashdan iborat vazifa qo'yilgan, deylik. Uni hal etish uchun avvalo uning geometrik jismlarining qaysi bir turiga mansubligini aniqlash lozim. So'ngra bunaqa jismlarning hajmi qanday hisoblab chiqilishini esga tushirmoq kerak. Shundan keyin qanaqa o'lchovlar kishiga kerakligi ma'lum bo'ladi. So'ngra tegishli o'lchovlarni amalga oshirish kerak. Pirovardida zarur hisoblash jarayonlarini bajarish lozim. Bulardan ko'rinib turibdiki, bilimlarni ko'nikmalarda ro'yobga chiqarish bir qator malakalar va jarayonlarning o'zlashtirilgan bo'lishini taqozo qiladi.

Shunday qilib, «ko'nikma» atamasi faoliyat subyektning o'zida mavjud bilimlar va malakalar bilan maqsadga muvofiq boshqarilishi uchun zarur psixik va amaliy harakatlarning murakkab tizimi egallab olinishini ifodalaydi. Bu tizim vazifa bilan bog'liq bilimlarning tanlanishini, vazifa uchun muhim bo'lgan xususiyatlarning ajratilishini, shu asosda vazifaning bajarilishiga imkon beradigan tub o'zgartirishlar tizimi aniqlanishini, ana shu o'zgartirishlarning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsad bilan uning natijalarini taqqoslagan holda nazorat qilib va shu asosda bayon etilgan jarayon to'g'rilab borilishini o'z ichiga oladi.

Ko'nikmalarning tarkib topishi bilimlarda mujassamlashgan axborotni va narsadan olinadigan axborotni qayta ishlash jarayonlarining, ana shu axborotni aniqlash, uni harakat bilan taqqoslash va o'zaro bog'lash jarayonlarining butun bir tizimi egallanishini bildiradi.

Bu xildagi shakllantirish, ya'ni ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkinligini qayd qilib o'tish zarurdir. Bu yo'llarni bir-biridan farq qiluvchi ikkita holatga ajratish mumkin. Birinchi holatda o'rgatilayotgan kishi zarur bilimga ega bo'ladi. Uning oldiga bu bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi qo'yiladi hamda kishining o'zi sinab ko'rish va xatolarga yo'l qo'yish orqali tegishli mo'ljal olgan, axborotni qayta ishlash vositalari va faoliyat usullarini topgan holda uning yechimini izlaydi.

Garchi bu yo'lning samaradorligi past bo'lsa ham, bugungi kunda u ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan yo'l ekanligini qayd qilamiz. Ikkinchi yo'l shundan iboratki, ta'lim bera-yotgan kishi o'quvchining bilimlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan psixik faoliyatini boshqarib boradi.

Bu holda pedagog o'quvchini belgilar va jarayonlarni tan-lash mo'ljallari bilan tanishtiradi, qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun olingan axborotlarni qayta ishlash va undan foydalanish yuzasidan o'quvchining faoliyatini uyushtiradi. Bu yo'l hozir pedagogik psixologiyada jadal tadqiq qilinmoqda.

15.8. Faoliyatning asosiy turlari va odamda ularning rivojlantirilishi

Kishi faoliyati ongli ravishdagi faollik sifatida uning ongi shakllana va rivojlana borishi tufayli tarkib topadi va rivojlana-di. Uning o'zi ongning shakllanishi hamda rivojlanishi negizi, uning mohiyati manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatning shakllantirilishi

Faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlari tizimida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqozo etadi, ya'ni birgalikdagi faoli-yat xususiyatiga ega bo'ladi. Uning natijalari tevarak-atrofdagi olamga, boshqa kishilarning hayoti va taqdiriga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Uning uchun faoliyatda kishining faqat narsalarga munosabati emas, balki uning boshqa odamlarga bo'lgan mu-nosabati ham doimo o'z ifodasini topadi.

Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, faoliyatda kishining shaxsi ifodalanadi va anglash chogʻida faoliyat uning shaxsini shakllantiradi.

Ahil, uyushgan jamoaning sobitqadamlik bilan olib borilayotgan ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etish kishida jamoatchilikni, uyushqoqlikni, oʻz manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan bogʻlash koʻnikmasini rivojlantiradi. Xulq-atvordagi jasurliklar takrorlanib, odat tusiga kirib qoladi. Maʼlum bir sharoitlarda sodir boʻladigan muayyan xatti-harakatlar shaxs fazilati darajasiga koʻtariladigan odatlarni keltirib chiqaradi.

Kishida xilma-xil faoliyat turlarining paydo boʻlishi va rivojlanishi murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayondir.

Bolaning faolligi faqat asta-sekinlik bilan rivojlanish jarayonida, tarbiya va taʼlim taʼsiri ostidagina ongli ravishda maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat shaklini kasb etadi.

Bu faollik oldiniga impulsiv xatti-harakat xususiyatiga ega boʻladi. Tugʻilganidan keyingi dastlabki kunlarda bolaning xulq-atvori bir nechtagina oddiy tugʻma reaksiya — himoyalaniş (nur yorugʻlashganda yoki baland tovush chiqqanida koʻz qorachigʻining torayishi, ogʻriq sezgan paytida ing-rashi va bezovtalana boshlashi), ovqat soʻrash (tamshanishi), chalkash-chulkash (tebratilganda jimib qolishi) va birmuncha keyinroq esa moʻljallash-izlanish (qoʻzgʻatuvchiga boshini oʻgirishi, narsalarga qarashi va boshqalar) kabi reaksiyalar bilan cheklanadi. Oʻn birinchi-oʻn ikkinchi kunligidan tortib chaqaloqda dastlabki shartli reflekslar shakllana boshlaydi. Shu tufayli bir yoshi mobaynida bolada izlanish xulq-atvori (ushlash, koʻzdan kechirish, har xil shaklda aylantirish) rivojlana boradi, buning natijasida u tashqi dunyodagi narsalarning xossalari haqida maʼlumot yigʻadi va harakatlar uygʻunligini oʻzlashtiradi. Taʼlim olishi va taqlid qilishi taʼsirida bir yoshidan boshlab bolada amaliy xulq-atvor shakllana boradi. Buning yordamida bola buyumlarni ishlatishning insoniy usullarini va ularning ijtimoiy amaliyotdagi ahamiyatini oʻzlashtira boshlaydi.

Faollikning ushbu shakllari bilan birgalikda kommunikativ xulq-atvor bolaga o'z ehtiyojlari va istaklarini qondirish, ijtimoiy talablarni va axborotni o'zlashtirishi uchun yordam beradigan asosiy vosita rivojlana boshlaydi.

Dastlabki kezlarda bu xulq-atvor nutqqacha davri shakllari (baqirish, imo-ishora qilish, mimika) orqali ro'yobga chiqariladi. Yetti-sakkiz oylikidan bola oldiniga sustroq, keyinroq esa faol ravishda insoniy muloqot, hamjihatlik va axborot ayirboshlashning asosiy vositasi — nutqiy xulq-atvorni o'zlashtira boshlaydi. Nutqning o'zlashtirilishi timsollarni buyumlardan va harakatlardan ajratish uchun, ma'nolarni bo'rttirib ko'rsatish, ularni qayd etish va xulq-atvorni idora qilishda ularga tayanib ish tutish uchun hal qiluvchi negiz yaratadi.

O'yin

Hayotining birinchi yillaridayoq bolada faoliyatning oddiy shakllarini o'zlashtirishi uchun dastlabki shart-sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o'yin faoliyati hisoblanadi. Ma'lumki, o'yin faoliyati hayvonlarning bolalarida ham kuzatiladi. Bu — ularning turli xildagi xarxashalaridan, urishishning taqlid qilinishi, u yoqdan-bu yoqqa chopishi va hokazolardan iboratdir. Ba'zi bir hayvonlarning buyumlarni o'ynashlari ham kuzatiladi. Jumladan, mushukcha dumalayotgan ip koptogidan ko'zlarini uzmay qarab o'tiradi va unga tashlanadi, uni dumalatadi va hokazo. Kuchukcha topgan lattasini pol ustida sudrab yurib, titkilay boshlaydi. Hayvon bolalarining o'yin jarayonidagi qilig'ini avvalo ularning organizmidagi faollikka, jamlangan kuch-quvvatni sarflashga bo'lgan ehtiyojni qondirishi deb qarash mumkin. Ular och qolganlarida yoki kamroq oziqa berilganda, yuksak haroratli muhitning ta'siri ostida va nihoyat, hayvonning tanasi haroratini oshirib yuboradigan yoki miyaning faolligini susaytirib qo'yadigan kimyoviy moddalar ta'siri ostida o'yinni to'xtatishlari ana shundan dalolat beradi. Agar hayvon birmuncha vaqt mobaynida o'ynaydigan sherigidan mahrum etib qo'yilsa, keyinchalik uning qo'zg'alishi va o'yin faoliyati keskin kuchaya-

di, ya'ni go'yo tegishli kuch-quvvat to'plangani kabi hodisa ro'y beradi. Bu hodisa «o'yinga to'ymaslik» deb ataladi.

O'yin faoliyati bilan organizmda kuch-quvvat almashinuvi o'rtasidagi bog'lanish o'yinga nisbatan maylning tug'ilishiga olib keladi. Lekin o'yin faoliyatini ro'yobga chiqaradigan fe'l-atvor shakllari qanday va qayoqdan paydo bo'ladi? Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bulardan ba'zi birlari, masalan, mushukchadagi «sichqon ovlash» ishtiyoqi hayvonning tug'ma instinktiv harakatlari jumlasiga kiradi. Boshqa bir xillari esa, masalan, shimpanze bolasining katta yoshdagi maymunlar va odamlarning harakatlarini takrorlashi taqlid qilish orqali yuz beradi. Uchinchi bir xili tevarak-atrofdagi olam bilan o'zaro birgalikda harakat qilish jarayonida hayvonlarning o'zlari tomonidan topiladi. Shunday qilib, hayvon bolalari harakatlari-ning manbayi ham xuddi katta yoshdagi hayvonlarda bo'lgani kabi turlarga xos instinktlarda, taqlid qilishda, o'rganishda mujassamlashgandir. Shuning uchun ham hayvon bolalarining xatti-harakatlari katta yoshdagi hayvonlarning turlariga oid fe'l-atvorga o'xshamasligi mumkin emas. Lekin bu harakatlari katta yoshdagi hayvonlarda ovqatlanishga, dushmanlardan o'zini himoya qilishga, muhitda to'g'ri mo'ljal olishga, xavf-xatardan saqlanishga va shu kabilarga bo'lgan muayyan real biologik ehtiyojlarni qondirishi uchun xizmat qiladi. Hayvon bolalarida esa xuddi ana shu harakatlar shunchaki «faoliyat» o'rnida sodir bo'ladi va o'zining real biologik maqsadlaridan ajralgandir. Ular o'yin faoliyatining o'ziga xos tub xususiyati ana shunda mujassamlashgandir. Uning maqsadi o'zining yordami tufayli muvaffaq bo'linadigan amaliy natijalarga erishishdan emas, balki amalga oshiriladigan «faoliyat»ning o'zidan iboratdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin bolalarda ham o'z faolligini ro'yobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko'rsatish shakli bo'lib xizmat qiladi. Shu tarzda u funksional mamnunlik bilan bog'liqdir. Faollikka bo'lgan ehtiyoj uning qo'zg'atuvchisi bo'lsa, taqlid qilish va tajriba esa manbayi hisoblanadi. Lekin bolaning o'yin harakatlari avval bosh-

danoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq-atvorning katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshlilar rahbarligida o'zlashtirib olinadigan insoniy shakllari zahirida rivojlana boradi. Bu hol bolalar o'yin faoliyatining prinsipial jihatdan muhim xususiyatlarini belgilab beradi, uning shakllari, manbalari, mexanizmlari, funksiyalari va natijalari hayvonlarning o'yinidan tubdan farq qilishiga olib keladi.

Bola o'z tajribasida qurol buyumlar bilan bir vaqtning o'zida boshqa turdagi buyumlar – o'yinchoqlarga duch keladi. O'yinchoqlarini ishlatishning insoniy usuli – o'yin, ya'ni ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarni ifoda etishdir. Katta yoshdagilar bolalarni o'yinchoqlardan ana shu tarzda foydalanishga o'rgatadi. Ular bolaga qo'g'irchoqqa suv qanday ichirilishi, uni qanday qilib tebratish kerakligini, sayr qildirishni, o'yinchoq ayiq bolasini qanday ovqatlantirishni, mashinani qanday qilib haydash kerakligini ko'rsatishadi va hokazo.

Lekin bolada o'yinchoqqa nisbatan «haqiqiy» buyumning tasviri sifatidagi munosabatning o'zi o'yin faoliyatiga faqat so'z aralashuvi munosabati bilan hosil bo'ladi.

Kichkina bola (bir yoshdan ikki yoshga qadar) hali, masalan, tebratish, ovqatlantirish va boshqa shu kabi harakatlarni qo'g'irchoqdan cho'pga ko'chira olmaydi. U tegishli buyumsiz harakatni tasvirlashni yoki bu harakatni bir buyumdan ikkinchisiga ko'chirishni uddalay olmaydi. Bunday jarayonlar u faqat nutqni egallagandagina yuz berishi mumkin. Bola payraxaga qo'g'irchoq sifatida muomala qila boshlashi uchun uni qo'g'irchog'im deb (masalan, «Katya» deb) ataydigan bo'lishi kerak. U ovqatlantirish harakatini qo'g'irchoqdan toychaga ko'chirishi uchun unga katta yoshdagi kishilar «toychani ovqatlantir» va hokazo deb aytishi kerak. Keyinroq so'z kattalar «haqiqiy» buyumlarda kuzatadigan harakatlarni bolaning o'zi ham mustaqil ravishda o'yinchoqqa ko'chirishiga imkoniyat yaratadi. Bola so'zning ahamiyatini amaliy harakatlar orqali yoki katta yoshdagilarning harakatlarini kuzatish natijasida o'zlashtirib olgan holda

soʻz bilan birgalikda bu harakatlarni oʻynaydigan buyumlari-ga koʻchiradi. Bu oʻrinda oʻyin faoliyati buyumning ahamiyati-ni belgilaydigan harakatlarni oʻsha buyumning oʻzidan ajra-tishdan va bu harakatlarni boshqa buyumga – oʻyinchoqqa koʻchirishdan iborat boʻladi. Uning faoliyati tufayli soʻzning ahamiyatini buyumning tashqi koʻrinishidan amalda ajratila-di va bu mohiyat buyum ustidagi harakatlar bilan, uning kishi faoliyatidagi vazifasi bilan bogʻlanadi.

Bu jarayon qanchalik chuqurlasha borgan sari soʻz buyum-lar bilan bevosita bogʻlanishidan xoli boʻla boradi. Soʻzning ahamiyati tashqi harakatlarda, soʻngra esa harakat toʻgʻrisidagi tasavvurda borgan sari kengroq ifodalana boshlaydi. Buyum-lar bilan bajariladigan real harakatlarni nutq harakatlari bi-lan almashtirish imkoniyatlari paydo boʻladi. Toʻrt-besh yoshga yetganda oʻyinchoqlar bilan oʻynash chogʻidagi real harakatlar borgan sari yoʻqola boradi va nutq harakatlarga aylana boshlay-di. Bola qoʻgʻirchoqni ovqatlantirish jarayonini batafsil tasvir-lash oʻrniga endi qoshiqchani uning ogʻziga bir martagina tu-tish va «Ovqatlantiryapman... Endi bas, toʻyib qolding», deyish bilan kifoyalanadi va hokazo.

Uchinchi yoshning oʻrtalariga borib bolada oʻz harakatlarini boshqalarning harakatlariga qarshi qoʻyish paydo boʻladi, bola faoliyati va istaklarining tashqi olamga hamda boshqa odam-larga eʼtirozini ifoda etuvchi «meni» ajralib turadi. Buyumlarga boʻlgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funk-siyalari sifatida namoyon boʻla boshlaydi. Rolli oʻyinlar pay-do boʻladi. Rolli oʻyinlarda bola katta yoshdagi kishilarning oʻzi kuzatgan ijtimoiy funksiyalarini, ularning shaxs sifatida-gi xulq-atvorini aynan takrorlaydi. Jumladan, ikki yashar qiz-cha qoʻgʻirchoqni ovqatlantirarkan, ovqat yedirish oʻyini bilan ovora boʻlsa, toʻrt yashar bola qoʻgʻirchoqni ovqatlantirayot-ganda qizini ovqatlantirayotgan ona boʻlib oʻynaydi. Bolaning sotsial tajribasi kengaya borgan sari maishiy mavzuga oid sujet-lar («ona», «tarbiyachi», «kino», «bolalar bogʻchasi», «hayvonot bogʻi»), ishlab chiqarishga oid sujetlar («uchuvchilar», «tram-vay», «zavod») va soʻngra ijtimoiy-siyosiy («urush» va shu kabi)

sujetlar bilan boyitila boradi. Bunda o'yin mazmuni konkret harakatlarni tasvirlashdan odamlar o'rtasidagi munosabatlarini tasvirlashga tobora ko'proq ko'chiriladi.

Ta'lim

Bolaning xulq-atvori va faoliyati rivojini o'rganar ekanmiz, bitta eng muhim faktga duch kelamiz. Bolada bir nechtagina oddiy shartli reflekslardan tashqari unda keyinchalik kuzatiladigan boshqa barcha xulq-atvor shakllari va faoliyat turlari oldiniga yo'q bo'ladi. Amaliy va kommunikativ xulq-atvor mo'ljal olish va izlanish faoliyati, ushlar va u yoq-bu yoqqa surish, emaklash, yurish, gapirish va o'ynash, mehnat qilish va sotsial jihatdan birgalikda harakat qilgan bola tug'ilganidan so'ng ma'lum bir vaqt o'tgach paydo bo'ladi va rivojlana boshlaydi. Buning ustiga xulq-atvorning har qanday shakli va faoliyatning har bir turi o'zining paydo bo'ladigan muayyan davrlariga, shakllanishi subyektlariga va o'zining qayta qurilishi hamda murakkablashish bosqichlariga ega bo'ladi. Ularning hammasi bolaning rivojlanish faktlari hisoblanadi, bu faktlar esa undagi muayyan tug'ma asos va nasliy dasturlar bilan organizmning rivojlanishi va anatomik-fiziologik jihatdan yetilishi, uning oliy nerv faoliyati funksional mexanizmlarining shakllanishi va murakkablasha borishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday bo'lsada na xulq-atvorning bu shakllaridan biron-tasi, na shu faoliyat turlaridan biron-tasi tashqi muhit shart-sharoitlaridan mustasno holda, o'zicha avtomatik tarzda paydo bo'lmaydi. Ularning barchasi bolaning amaliy va sotsial tajribasi asosida, uning tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar bilan o'zaro birgalikdagi harakati tufayli paydo bo'ladi va rivojlana boradi. Bola «odamga aylanishi» jarayonida qanday tajriba orttirgan bo'lsa, o'rganish faktlari, ya'ni tajribaning o'zlashtirilishi hisoblanadi.

Kishi xulq-atvori biologik tajriba bilan emas, balki sotsial tajriba bilan belgilanadi. Sotsial tajriba esa biologik yo'l bilan o'tkazilishi mumkin emas. U organizmning xossalari bilan emas, balki kishi yashayotgan xususiyatlari bilan belgilanadi.

Biologik yo'l bilan nasldan-naslga faqat organizmning sotsial tajribani, xulq-atvor va faoliyatning insoniy shakllarini amalda o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ayrim xususiyatlarigina o'tishi mumkin. Bola xulq-atvorining tug'ma biologik xususiyatlarga oldindan qat'iy xoli ekanligi uning hayvon bolasiga nisbatan eng muhim afzalligi hisoblanadi. Ana shunday afzallik tufayli kishi xulq-atvori turlari va faoliyati usullari evolutsiyasining boshlanishi uning organizmining biologik rivojlaniishi bilan emas, balki jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan belgilana boshladi.

Shunday qilib, o'rgatish bolada xulq-atvorning va borliqni aks ettirishning insoniy shakllarini hosil qilishga yordam beradigan yetakchi rivojlanish omili sifatida amal qiladi.

Lekin bola xulq-atvori va faoliyatining biz hozirga qadar ko'rib chiqqan barcha turlarida ushbu pirovard natija, ya'ni ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishi faoliyatning aynan o'z maqsadlariga to'g'ri kelgani yo'q. Bola buyumlarni biron-bir narsani o'rganish uchun u yoqdan-bu yoqqa surmaydi. U dastlabki qadamlar qo'yayotganida va ilk bor gapirishga urinayotganida yurish va gapirishni o'rganishni maqsad qilib qo'ymagan bo'ladi. Uning xatti-harakatlari tekshirib ko'rishga, faollik ko'rsatishga, buyumlarga egalik qilishga, tevarak-atrofdagilarga ta'sir o'tkazishga va shu kabilarga bo'lgan bevosita ehtiyojlarni qondirishga qaratilgandir. Tegishli harakatlarning va axborotning o'zlashtirilishi shu sababdan ham bola uchun maqsad emas, balki tegishli ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Faoliyatning alohida turi bola hayotida sodir bo'ladigan vaqt ham yetib keladi. Bu maqsad bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvor shakllarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Subyektning o'rganishni o'ziga maqsad qilib olgan bunday o'ziga xos faoliyati ta'lim deb ataladi. U quyidagilardan tarkib topadi: a) ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishi (bu jarayonning mahsuli – bilimlardir); b)

faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o'zlashtirilishi (bu jarayon mahsuli – malakalardir); d) qo'yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan axborotdan foydalanish yo'llarining egallanishidir (bu jarayon mahsuli – ko'nikmalar hosil qilinishidir).

Shunday qilib, ta'lim kishining harakatlari muayyan bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni o'zlashtirib olishga qaratilgan ongli maqsad bilan idora qilingan joydagina yuz beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim o'ziga xos insoniy faoliyatdir. Hayvonlarda esa faqat o'rganish bo'lishi mumkin. Lekin odamda ham faqat u o'z xatti-harakatlarini anglab yetgach yuksak xayoliy maqsadga (idealga) ko'ra yo'naltirish layoqatiga ega bo'lgandagina ta'lim faoliyati yuz berishi mumkin. Bunday layoqatning yetarli darajadagi rivojlanishiga faqat olti-yetti yoshga chiqqan paytgacha kelib, faoliyatning oldingi turlari – o'yin, nutq amaliy xulq-atvor va shu kabilar negizida shakllana borgan holda erishiladi. O'quv faoliyatini shakllantirishning eng birinchi asosiy sharti – bolada muayyan bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun anglanilgan motivlar tug'ilishi hisoblanadi.

Katta yoshli kishilar bolaning rivojlanishiga faol ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchilar sifatida namoyon bo'ladilar. Ular uning faoliyati va xulq-atvorini uyushtiradilar, ularni insoniyatning ijtimoiy praktikasi doirasida yo'naltiradilar. Bola faoliyati va xulq-atvorini ularning insoniyat ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish sari yo'naltirishdan iborat ushbu faol jarayon o'qitish deb ataladi. Bola shaxsining rivojlanishiga uning ta'siri nuqtayi nazaridan olinganda bu jarayon tarbiya deb ataladi. Ta'lim va tarbiyani amalga oshirishga yordam beradigan asosiy vositalar – bu bajarilishi lozim bo'lgan ishni ko'rsatish va tushuntirishdan, rag'batlantirish va jazolashdan, vazifalar va talablar qo'yishdan, tekshirish va tuzatishdan iboratdir. Katta yoshli kishilar ushbu ta'sirlar yordamida bolada bilimlarni egallashga va faoliyat ko'rsatishga istak tug'dirgan, uni yo'naltirgan, na-

zorat qilgan, to'g'rilab borgan va shu yo'sinda uni shakllantirgan holda bu faoliyatni boshqarib turadilar.

Mehnat

Mehnat — bu ma'lum bir ijtimoiy foydali (yoki hech bo'limganda jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan) moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati kishining eng yetakchi, asosiy faoliyatidir. Insoniyat agar mehnat qilishni to'xtatadigan bo'lsa, u (tur sifatida) o'z hayot-mamotini tugallagan bo'lar edi. Uning uchun ham mehnat faoliyati kishining hayot kechirishini, boshqa turlar ustidan g'alaba qozonishini hamda tabiat kuchlari va moddalaridan foydalanishini ta'min etadigan o'ziga xos turga oid xulq-atvori deb hisoblanishi mumkin.

Mehnat faoliyati odamlar iste'mol qiladigan buyumlarni va ana shundan iste'mol qilinadigan buyumlarni ishlab chiqarish uchun zarur buyumlarni — don va mashinalarni, mebel va qurollarni, kiyim-kechak va avtomobillarni hamda shu kabilarni ishlab chiqarish maqsadini ko'zlagan bo'lishi mumkin. Bular energiyadan (issiqlik, yorug'lik, elektr, harakat) va axborot vositalaridan (kitoblar, chizmalar, filmlar) iborat bo'lishi mumkin. Pirovardida bu ideologiya mahsulotlari (fan, san'at, g'oyalar) va kishilarning xulq-atvorini hamda mehnatini uyushtiruvchi (boshqaruv, nazorat qilish, muhofaza qilish, tarbiyalash) harakatlar bo'lishi ham mumkin.

Bu o'rinda kishi tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot uning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun zarurligi yoki zarur emasligining ahamiyati yo'q. Agar bu mahsulot umuman jamiyatga kerak bo'lsa, uning o'zi kifoya. Xususan, kishi faoliyatining maqsadlari uning shaxsiy ehtiyojlari bilan belgilanmaydi. Bunday maqsadlarni unga jamiyat belgilab berayotir, faoliyatning o'zi esa muayyan ijtimoiy topshiriqni bajarish shaklini kashf etmoqda. Shunday qilib, kishilarning mehnat faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hisoblanadi. U jamiyat ehtiyojlari bilan shakllanadi, belgilanadi, yo'naltiriladi va boshqariladi.

Bu faoliyat o'z xarakteriga ko'ra ham ijtimoiy hisoblanadi. Hozirgi jamiyatda mehnat taqsimoti tufayli kishi o'zi uchun talab qilingan barcha narsalarni faqat ishlab chiqarmaydigan emas, balki bironta ham mahsulotni ishlab chiqarishda deyarli hech qachon boshidan oxiriga qadar ishtirok etmaydi. Uning uchun ham kishi hayot uchun talab qilinadigan barcha narsalarni o'z mehnatiga ayirboshlangan tarzda jamiyatdan olishi kerak. Shaxsning ehtiyojlari tashqaridan qaraganda uning o'z mehnati bilan emas, balki jamiyat tomonidan qondirilayotgandek bo'lib tuyuladi. Buning qanday yuz berishi jamiyatda hukmron bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi bilan belgilanadi. Uning uchun ham jamiyatda har qanday mahsulotning ishlab chiqarilishi ayni paytda mehnat qilish, uning mahsulini taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida odamlarning muayyan munosabatlarini ro'yobga chiqarish bo'lib ham hisoblanadi.

Shu tariqa kishi mehnat jarayonida bajaradigan harakatlar biologik ehtiyoj bilan emas, balki ilgari surilgan ishlab chiqarish maqsadi va bu maqsadni ro'yobga chiqarish jarayonida uning boshqa odamlarga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi. Bu xildagi harakatlarni bajarish va boshqarish uchun axborotni qayta ishlashning oliy jarayonlaridan foydalanish va eng avvalo, tasavvur va tafakkurni ishga solish zarurdir.

Bulardan shu narsa ravshanki, kishi psixikasining bu ajoyib xususiyatlari manbayini isbot qilish maqsadida «ruh»ning qandaydir alohida xususiyatlarini o'ylab topishga hojat yo'q. Bularga bo'lgan zarurat inson faoliyati qonuniyatlari bilan belgilanadi, ya'ni kishining ijtimoiy-mehnat mohiyatiga ega bo'lgan jonzot sifatida mavjudligi shaklining o'zidan kelib chiqqandir.

Ro'yobga chiqarilishi uchun yuksak psixik funksiyalar bajarilishini taqozo etarkan, jamoa mehnat faoliyati ayni chog'da insoniyatning rivojlanish jarayonida ularning shakllanishi uchun asos va shart-sharoitlar yaratadi.

Misol uchun ibtidoiy ovchilar o'rtasidagi hurkituvchilarning xatti-harakatlarini olib ko'raylik. Ularning harakatlari o'z holi-

cha o'ljani ushlashga qaratilgan bo'lmaydi. Bunisi tugul, agar u yolg'iz o'zi harakat qiladigan bo'lsa, u holda uning bu harakatlari o'ljaning osongina qochib ketishiga olib kelgan bo'lardi – uning o'zi esa qolardi. Shuning uchun uning butun faoliyati faqat boshqa kishilarning – ovchilarning faoliyati bilan uyg'unlashgan tarzdagina biron-bir ma'no kasb etadi. Hayvon hurkituvchi maqsadga erishish uchun ovchilarning harakatlari hisobga olishi, ya'ni bug'uni duch kelgan tomonga haydamasdan, balki ovchilar tomonga haydashi kerak. Shu tariqa uning xatti-harakatlari biologik mohiyatga ega bo'lgan maqsadga qaratilgan bo'lmasdan, aksincha ijtimoiy mohiyat kasb etadi. U ichki instinktiv kechinmalar shaklida emas, balki tashqi real obyektlar bilan bo'ladigan harakatlarning idrok etilishi orqali aks etadi. Shu tarzda obyektlar va ular bilan bajariladigan harakatlarning timsollari faoliyatga undaydigan biologik ehtiyojning xayoldagi kechinishidan amaliyotning o'zi bilan ajratiladi.

Voqelikka nisbatan bunday munosabatda bo'lish esa, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ongning negizini tashkil etadi. U kishini buyumlarga nisbatan faoliyat subyektiga va odamlarga nisbatan esa shaxsga aylantiradi. U kishini tevarak-atrofdagi olamning qulidan uning sohibi darajasiga ko'taradi, kishiga bu olamni qayta o'zgartirish va uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarga erishish uchun intilish imkonini beradi, kishining xatti-harakatlarini ongli ravishda rejalashtirilgan faoliyatga va uning Yer kurrasida mavjudligini esa moslashgan holda hayot kechirishdan ma'lum bir mazmun va yuksak maqsadga ega bo'lgan faol hayot kechirishga aylantiradi.

Nazorat savollari:

1. Shaxsning malaka va odatlari qanday shakllanadi?
2. Ehtiyojlar faollik manbayi sifatida qanday namoyon bo'ladi?
3. Ehtiyoj turlarini sanab bering.
4. Inson ehtiyojlarining rivojlanishiga nimalar ta'sir qiladi?
5. Qiziqishni psixologik tavsiflab bering.

6. Shaxsning ustanovkasi yoki anglanmagan mayllarini izohlab bering.

7. Shaxsning e'tiqod va dunyoqarashi qanday shakllanadi va rivojlanadi?

8. Faoliyatning asosiy turlarini ko'rsating.

9. A.N.Leontev bo'yicha faoliyat tuzilishining mohiyatini izohlang.

10. Faoliyatning asosiy turlari va odamda ularning rivojlantirilishi.

11. Faoliyatning shakllantirilishi.

12. Voqelikka nisbatan munosabat shakllari.

13. O'rgatish – bolada xulq-atvorning va borliqni aks ettirishning insoniy shakllarini hosil qilishga yordam beradigan yetakchi rivojlanish omili sifatida deganda nimani tushunasiz?

14. Mehnat faoliyati haqida tushuncha bering.

XVI bob. SHAXS

Tayanch tushunchalar: shaxs, biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, shaxs shakllanishi va rivojlanishi, G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi, shaxs nazariyasining asosiy konsepsiya va qonuniyatlari, ekstravert va introvertlar o'rtasidagi farqlar.

16.1. Shaxs haqida tushuncha

Mehnat tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan va jamiyatda rivoj topayotgan, boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyatni amalga oshirayotgan va ular bilan munosabatga kirishayotgan kishi sekin-asta shaxsga aylanib bormoqda – moddiy dunyoni, jamiyatni, xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish subyektiga aylanmoqda.

Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan ibora bo'lib tuyuladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarining rivojlantirilishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi va hokazo. Bular bilan chaqaloq o'z imkoniyatlari yig'indisiga binoan odam har qanday holatda ham bu xildagi fazilatlar yig'indisining sohibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli o'laroq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotining oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakat-

da yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, konkret kishini individ deb ataganda biz juda ko'p narsalarni aytgan bo'lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir.

Uning bundan keyingi va hatto juda ham umumiy tarzda ta'rif fazilatlarining bayon etilishi va izohlanishini taqozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga o'xshamaydigan emas, balki ular kabi harakat qilmaydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a'zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida ijtimoiy aloqalarga jalb ham etilmagan real kishi emas, balki demografik ma'lumotnomalardagi jonsiz birlik holda qoladi, xolos. Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida ijtimoiy fazilat kashf etadi, shaxs bo'lib yetishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etiladi. U bu tizimni allaqachon tayyor holda uchratgandi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarning shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarining individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tizimli tarzda ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zida mujassamlashtirish subyekt bo'lish degan ma'noni anglatadi. Katta yoshdagi kishilar bilan o'zaro munosabatlarga jalb etilgan bola dastavval ular faolligi obyekt tarzida, lekin undan katta yoshdagilar uning rivojlanishidagi yetakchi omil sifatida tavsiya qiladigan o'sha faoliyat tarkibini egallagan, masalan, ta'lim olgan holda ish ko'radi, o'z navbatida ana shu o'zaro munosabatlarning subyektiga aylanadi.

Ijtimoiy munosabatlar ular subyektining allaqanday tashqi mohiyati emas, balki individning ijtimoiy fazilati tarzidagi shaxsning bir qismi, yo'nalishi, jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Agar boshqa barcha jonli mavjudotlardan farqli o'laroq, inson nasl-nasabining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat bo'lsa, u holda har bir konkret kishining mohiyati, ya'ni shaxs tarzidagi alohida individga xos abstrakt subyekt sifatida u jalb etiladigan konkret ijtimoiy bog'lanishlar va munosabatlar majmuasini tashkil etadi. Ular o'sha bog'lanishlar va munosabatlar, undan tashqaridadir, ya'ni ijtimoiy hayotdadir va shuning uchun ham shaxssiz, ham obyektivdir (qul quldorga batamom qaramdir) va shu bilan birga ular shaxs sifatida uning ichkarisida, uning o'zida mujassamdir va shunga ko'ra subyektivdir (u quldorni yomon ko'radi, unga itoat qiladi yoki unga qarshi isyon ko'taradi, umuman unga nisbatan munosabat bildiradi, u bilan ijtimoiy jihatdan taqozo etiladigan aloqalar o'rnatadi).

«Individ» va «shaxs» tushunchalarining o'xshashligi emas, balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o'rta qo'yilishi mumkin bo'lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: shaxs hisoblanmagan individning mavjud bo'lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo'lish fakti ko'rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham, bunisi ham bo'lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga yetgan individni xayolan tasavvur qilinadigan bo'lsa, bu holda u birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik jonzotga xos individual xususiyatlardan bo'lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlariga ega ekanligini namoyon qila olmaydi, balki tevarak-atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga «torta olishgan» taqdirda ularning paydo bo'lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo'ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o'rganish bu vazifani amalga oshirishning g'oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi. Qarshimizda hali shaxs sifatida kamolotga erishmagan individ bo'ladi. Real individni gavdalantirmaydigan shaxsning paydo bo'lish imkoniyatlari mavjudligi muayyan istisnolar bilan tan olinishi ham mumkin.

16.2. «Endopsixika» va «Ekzopsixika» haqida tushuncha

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy muammolardan birinchisi bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishiga ega ekanligidir. Ushbu yaqqol psixologik muammoni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur masalaning qo'yilishi dastavval ta'lim va tarbiya ehtiyojlaridan, tashkilotchilikka oid faoliyat sohalari va boshqa ehtiyojlar zahiridan kelib chiqadi. Lekin bu masalani ilmiy asosda hal qilish boshqa muammoni, ya'ni shaxsni toifalarga ajratish (tipologiya), uning eng muhim, mukammal tuzilishini aniqlash bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, shaxs tipologiyasi, shaxsni tipologik tahlil qilishning eng nozik, ibratli jihatlari cheklab o'tish, u haqida yetarli darajada to'la tasavvurga ega bo'lishni xohlasak, uning eng umumiy tasvirini umumlashgan tarzda ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi, binobarin, ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiyasi fanida psixologlar shaxs psixologik tuzilishining tarkibiy qismlarini turli mohiyatiga asoslanib turkumlarga ajratishni (klassifikatsiyalashni) tavsiya etmoqdalar.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik (tabiiy) va ijtimoiy (sotsial) omil (faktor)ning, voqelikning ta'siri ostida shakllangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan «ichki psixik» («endopsixik» – yunoncha «endo» ichki degan ma'noni bildiradi) qismlarga ajratiladi, degan g'oya ilgari suriladi. Ushbu talqinga ko'ra «endopsixika» shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan «endopsixik» aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go'yoki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga kel-

tiradi. Psixik tuzilishning «ekzopsixik» qismi bo'lsa shaxsning tashqi muhitiga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va obyektiv munosabatini belgilaydi. «Endopsixika» o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi. «Ekzopsixika» esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qamrab oladi. Tabiiy omilga (asosga) ega bo'lgan «endopsixika» biologik shart-sharoitlarga bog'liqdir, aksincha, «ekzopsixika» ijtimoiy voqeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyandalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Obyekt-subyekt munosabatini belgilaydi. «Endopsixika» o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz (ideomotor) harakatlarini va shu kabi fazilatlarini aks ettiradi. «Ekzopsixika» esa o'z tarkibiga xos munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, ustanovkalari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallangan bilimlarni qamraydi.

Taraqqiyparvar (gumanistik) psixologiya fanida ta'kidlanganidek, shaxs tuzilishidagi tabiiy, organik jihatlar va holatlar uning ijtimoiy shart-sharoitlariga bog'liq tarkibiy qismlaridir. Shaxs tuzilishidagi tabiiy (anatomik-fiziologik va boshqa sifatlar) va ijtimoiy omillar yaxlit birlikni tashkil qiladi va ular hech mahal ixtiyorsiz ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Shunday qilib, ilmiy psixologiya (materialistik deb atashdan saqlanish maqsadida) fanida barcha kategoriyalarga umum-bashariy, umuminsoniy tamoyil nuqtayi nazardan yondashish shaxs tuzilishida tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) omillar rolini tan oladi, inson shaxsidagi biologik va ijtimoiy voqealiklarni atigi shularning negizida qarama-qarshi qo'yishga tanqidiy munosabatda bo'ladi.

Shaxs muammosini dialektik materializm pozitsiyasida turib himoya qiluvchi sobiq sovet psixologiyasi va boshqa taraqqiyparvar yo'nalish vakillari shaxsning faolligi tevarak-atrofdagi olam bilan bo'ladigan o'zaro munosabat jarayonida faoliyat vujudga kelishi mumkin, degan ta'limotga asoslanadi. Shaxs faolligining manbayi uning ehtiyojlari hisoblanib, xuddi shu ehtiyojlar odamni muayyan tarzda va ma'lum yo'nalishda harakat qilishga undaydi. Xuddi shu boisdan ehtiyoj shaxs faolligining manbayi sifatida yuzaga keladi va uning yaqqol turmush sharoitiga bog'liqligini aks ettiruvchi holatdir.

16.3. Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi

Shaxsning tuzilishiga, birinchi navbatda, uning individualligining kishi ehtirosining, ichki qiyofasining, qobiliyatlarining tuzilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab yetish uchun zarur, lekin yetarli bo'lmagan tizimli tarzda tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi — uning individ ichkarisidagi (interindivid) kichik tizim alohida namoyon bo'ladi.

Shaxs o'zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar tizimida subyekt bo'lib, individning organik tuzilishi ichidagi allaqanday yopiq bo'shliqdagina joylashgan bo'lishi mumkin emas, balki u o'zini individlararo munosabatlar bo'shlig'ida namoyon qiladi. Individ o'z holicha emas, balki shaxslararo o'zaro birgalikdagi harakatning hech bo'lmaganda ikkita individ (amalda birlik, guruh, jamoa) jalb etiladigan jarayonlari ana shu o'zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilaridan har birining shaxsi namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shunisi diqqatga sazovorki, shaxsning tadqiq etilishini individlararo «bo'shliqqa» ko'chirib, yuqorida bayon etilgan jamoaga taalluqli hodisalar — jamoaning o'zini-o'zi belgilashi, jamoaning aynan bir xil bo'lib ketishi va hokazolar nimalardan iboratligi haqidagi savolga javob olamiz. Xususan, bular o'zi nima: guruh tarzidagi ko'rinishlarmi, yoxud shaxsiy ko'rinishlarmi? Shaxsning ta'rifi va mavjudligining o'zi individning «terisi ichida» qolmasdan, balki individlararo «bo'shliqqa» olib chiqilishi bilanoq «individ» va «shaxs» (yoxud shaxsiy, yo guruh tarzidagi) tushunchalarni aynan bir-biriga o'xshatish natijasida hosil bo'ladigan soxta muqobiliga barham berilgan bo'ladi. Shaxsiy fazilatlarining namoyon bo'lishi guruh tarzidagi o'zaro munosabatlarning namoyon bo'lishi sifatida, guruh tarzidagi namoyon bo'lish esa shaxsning o'zini namoyon qilishining konkret shakli sifatida fozaga chiqadi.

Intraindivid va interindivid kichik tizimlari shaxsning o'zini namoyon qilishining barcha jihatlarini aks ettira olmaydi. Shaxsning tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir qismni — metaindivid (individning ustki ko'rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko'rsatish imkoniyati mavjuddir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan «shu yerda va endilikda» mavjud bo'lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi. Bunday holda subyektning o'z faoliyati yordamida bilib yo bilmasdan boshqa kishilarga o'tkazadigan «jamg'armalari» psixologning diqqat markazida bo'ladi. Bu bilan individ shaxs sifatida o'zi bilan u yoki bu darajada bog'liq odamlarning aqliy va hissiy-irodaviy jihatlarida faol tarzda hosil qilinadigan tub o'zgarishlar subyektini bo'lib xizmat qiladi. Gap subyektning boshqa individlarga ta'sir o'tkazishi chog'idagina emas, balki bevosita bir lahzalik o'zaro birgalikda harakat qilish chegaralaridan tashqarida ham o'zligini boshqalarda o'ziga xos davom ettirishdek faol jarayon haqida bormoqda. Subyektning o'zligini boshqa individda davom ettirishdan, boshqa kishilarga o'tkazilgan «jamg'armalar» hisobiga o'zining shaxs sifatida boshqalar «ko'ngildagidek» o'rnashib qolishni ta'minlashdan

iborat bo'lgan bu jarayon personalizatsiya (personajlashtirish) degan nom olgandir.

Shaxsning faolligi va uning hayotiy pozitsiyasi

Kishining tevarak-atrofga munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligining ancha umumiy tarzda, birikma holdagi ta'rifi uning g'oyaviy prinsipiialligida, o'z nuqtai nazarini izchil himoya qila borishida, so'zi bilan ishning birligida ifodalanadigan faol hayotiy pozitsiyasini bildiradi. Jamiyatda faol hayotiy pozitsiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bo'lishni, fuqarolikni, jamoachilikni, faoliyatga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni, ilmiy dunyoqarashga tayanadigan e'tiqodni, ijtimoiy-axloqiy qoidalarining buzilishiga murosasizlikni taqozo etadi.

Ijtimoiy foydali faoliyatda me'yoridan ortiqcha deb atalmish faollik kishilarga xos faol hayotiy pozitsiyada turishning eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Me'yoridan ortiqcha faollik muayyan shaxs uchun qat'iy majburiy bo'lmagan, lekin ijtimoiy jamiyatning oliy maqsadlariga va qadriyatlariga mos keladigan faoliyat ko'rsatilishini taqozo etadi. Hech nima ishchiga mehnat huquqi tartib-qoidalariga binoan o'zining kunlik topshirig'idan oshirib yuborish, kelgusi yil hisobiga ishlash, faqat o'z normasini emas, balki shaxsda o'zi bilan birga ishlagan va vatanni himoya qilish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan o'rtog'ining normasini ham bajarish, o'z jamg'armalarini tinchlik fondiga, yodgorlik o'rnatish uchun hadya qilish kabi talablarni qo'ymaydi. Bularning hammasi me'yoridan ortiqcha faollik tufayli yuz beradi. Shaxs me'yoridan ortiqcha faollik ko'rsatgan holda o'zining ijtimoiy orzu-istaklari sari olg'a qadam tashlaydi. Shu asnoda pedagog me'yoridan ortiqcha faollikni uning xo'jako'rsin uchun namoyish qilnadigan turidan farqlay bilishi kerak. O'zi uchun majburiy bo'lgan, ya'ni qoida tarzidagi faoliyat o'qishda, mehnat tayyorgarligi va hokazoda yetarli darajada faollik ko'rsatmasdan, ba'zi hollarda hamma-

ning ko'z o'ngida «me'yoridan ortiqcha» faolligi haqida tasavvur hosil qilish uchun urinadi. Jumladan, u devoriy gazeta chiqarishni o'z zimmasiga olayotib, ehtimol, bu bilan o'zining butun jamoaga ma'lum bo'lib qolayotgan faoliyatsizligini yashirishga uringan bo'lishi ham mumkin. Me'yoridan ortiqcha faollik me'yoridagi (normativ) faollikdan xoli va undan tashqarida yuz berishi mumkin emas.

Shaxsning moslashuvchanlikka ham, xulq-atvorning salbiy (nokonformliligi) turiga ham zid bo'lgan jamoa tarzida o'zini-o'zi belgilashi ham uning faol hayotiy pozitsiyasidan dalolat beradi. Yosh yigit va qizlarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

16.4. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson – biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli subyekt va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologikmi yoki inqilobiy xarakterga ega?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga

kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik konsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik konsepsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgan, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari «ichki qonunlar» asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o'quvchilarning «tabiiy kuchlari» va «tug'ma mayllar» psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri ikkinchi darajalidir, deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui — inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezonidir, deb hisoblaydi.

Venalik vrach-psixolog Z.Freyd mazkur oqim namoyandasi sifatida shaxsning faolligini, uni harakatga keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar bilan bog'laydi. Biroq instinktiv mayllar jamiyatda xuddi hayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni (ya'ni, jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli «komplekslar» birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu «komplekslar»ning namoyon bo'lishidir.

Bunday ta'limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog'liqdir, deb ta'kidlashadi.

16.5. Shaxs nazariyalari. G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi

Ayzenk Kettelning: «Psixologiyaning maqsadi xulq-atvorni oldindan aytib berishdir», — degan fikriga qo'shilib, uning shaxsni tavsiflashda faktorli analizdan foydalanganligini ma'qullaydi. Lekin Ayzenk faktorli analizni Kettelga nisbatan o'zgacharoq qo'llagan. Ayzenk fikricha, tadqiqot strategiyasi tadqiqotchini

qiziqtirgan qandaydir shaxs xususiyatini belgilab, to'liq asoslangan ilmiy farazdan boshlanishi kerak. Unga qarama-qarshi o'laroq, Kettelning aytishicha, shaxsni tashkil qiluvchi asosiy elementlar batareya testlari hamda ma'lumotlarni qayta ishlash orqali namoyon qilinadi. Shunday qilib, Ayzenk nazariyasi Kettelnikiga qaraganda ancha shafqatsiz yondashuvga ega. Ketteldan farqli o'laroq, Ayzenkning ta'kidlashicha, shaxs xulq-atvori namoyon bo'lishini tushuntirish uchun uchta superbelgi (u ularni tiplar deb ataydi) zarurdir. Esingizda bo'lsa, Kettel shaxs strukturasi tashkil qiluvchi 16 ta belgi yoki faktorni belgilagan edi. Va nihoyat, Ayzenk individ rivojlanishida asosiy e'tiborni genetik omillarga qaratadi. Bu bilan, Ayzenk tashqi muhit ta'sirini inkor qilmagan, balki shaxs xususiyatlari va tiplari avvalo, irsiyatga aloqador ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Hozirgi paytgacha, genetikaning shaxs xulq-atvoriga qay darajada ta'sir etishi aniqlanmagan bo'lsa-da, ko'p psixologlar bu borada Ayzenkning fikrlariga qo'shilishadi.¹

Ayzenk nazariyasining mohiyati shundan iborat-ki, shaxs elementlari iyerarxik joylashishi mumkin. Uning jadvalda ekstraversiya singari ma'lum bir shaxs xususiyatlari yoki tiplari keltirilgan bo'lib, ular xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir keltirilgan superbelgilar bir qancha tarkibiy belgilardan tashkil topganini ko'rsatgan. Bu tarkibiy belgilar asosiy tipning yuzaki aksi bo'lishi yoki bo'lmasam, shu tipga tegishli o'ziga xos xususiyat sifatida ko'rilishi mumkin. Va nihoyat, belgilar ko'p sonli odatiy reaksiyalardan tarkib topgan bo'lib, ular o'z navbatida, ko'plab o'ziga xos reaksiyalardan shakllanadi. Misol uchun, biron shaxsni kuzatadigan bo'lsak, agar u boshqa bir inson bilan iliq yuz va samimiy tabassum bilan qo'l uzatib ko'rishsa va bu holat har safar kim bilandir uchrashganda sodir bo'laversa, bu uning odatiy reaksiyasi hisoblanadi. Ushbu odatiy reaksiya boshqa odatiy reaksiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bularga misol qilib, boshqa odamlar

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. — P.5

bilan suhbatlashish, turli bazmlarga borishni yoqtirish va hokazolarni aytish mumkin. Bu odatiy reaksiyalar guruhi kirishimlilik xususiyatini shakllantiradi.

Shaxsning asosiy tiplari

Ayzenk insonlar haqida ma'lumotlar olish uchun o'z-o'zini kuzatish, ekspert baholash, biografik ma'lumotlar analizi, fizik va fiziologik parametrlar, shuningdek, obyektiv psixologik testlar singari ko'plab metodlardan foydalangan. Olingan ma'lumotlar shaxs strukturasi aniqlash uchun faktorli analizda qo'llanilgan¹. O'zining dastlabki tadqiqotlarida Ayzenk ikki asosiy tipni ajratgan — introversiya/ekstraversiya va neyrotizm/barqarorlik (ba'zi holatlarda bu faktor beqarorlik/barqarorlik deb ham ataladi). Shaxsning bu ikki o'lchovi ortogonal bo'lib, ular statistik jihatdan bir-biriga bog'liq emas. Shunga muvofiq, insonlarni to'rt guruhga ajratish mumkin. Bunda shaxs o'zida yuqori yo quyi diapazondagi bir tip bilan yuqori yo quyi diapazondagi ikkinchi bir tip kombinatsiyasini namoyon etadi. Jadvalda ko'rsatilishicha, har qaysi tip bilan shaxs belgilarini izohlaydigan nomlar birlashtiriladi. Bu 4 guruhni ko'rib chiqishda 2 ta narsani inobatga olish kerak. Birinchidan, ikkala masofa (diapazon) tiplari me'yoriy taqsimotga ega, uzluksiz hisoblanadi va keng individual farqlar spektrini ko'rib chiqadi. Ikkinchidan, har bir tipga mos belgi ta'rifi boshqa hodisalarni o'z ichiga oladi. Ko'plab odamlar o'rta nuqtaga yaqin bo'lishga moyil ikkala tip masofalarida va shuning uchun 2-jadvaldagi kabi ekstremal tavsifga uncha ega bo'lishmaydi.

Ayzenk tomonidan ikki mustaqil parametrlar asosida shaxslarning to'rt kategoriyasi ta'rifi

Har bir kategoriya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, introversiya va ekstraversiyaning yuqori va quyi darajasi hamda barqarorlik va neyrotizmning yuqori yoki quyi darajasi kombinatsiyasi natijasi hisoblanadi.

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. — P.6

Xususiyat	Barqaror	Nevrotizm
Introvert	Xotirjam, muvozanatlashgan, ishonchli, nazorat qiluvchan, tinchliksevar, e'tiborli, g'amxo'r, passiv	Kayfiyati tez o'zgaruvchan, xavotirlanuvchan, rigid, mulohazali, pessimist, mahdud, muloqotchan emas, indamas
Ekstravert	Lider, beg'am, quvnoq, ko'ngilchan, hozirjavob, muloqotchan, do'stliksevar, kirishimli	Jizzaki, halovatsiz, agressiv, qo'zg'aluvchan, o'zgaruvchan, impulsiv, optimist, faol

Jadvaldan shuni ko'rish mumkin-ki, introvert va barqaror shaxslar, qonun-qoidalarga amal qiladigan, g'amxo'r va e'tiborli insonlardir. Va aksincha, introvert va neyrotizm kombinatsiyasi individ xatti-harakatlarida xavotirlanish, pessimistik kayfiyat va mahdudlikka sabab bo'ladi. Ekstravert va barqaror shaxsning xulq-atvorida mehribonlik, ko'ngilchanlik va kirishimlilik ko'zga tashlanadi. Va nihoyat, ekstravert va neyrotizmga moyil shaxslarda agressiv xulq-atvor, impulsivlik hamda tez qo'zg'aluvchanlik singari xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, Ayzenk asosiy e'tiborini individual farqlarga qaratgan. Demak, bu kombinatsiyalar ichida birini ikkinchisidan afzallik tarafi yo'q. Ularning har birini ijobiy va salbiy jihatlari mavjuddir.

Keyinchalik Ayzenk o'z nazariyasiga shaxsni o'lchasdagi uchinchi tipni, ya'ni psixotizm — Super-ego kuchini kiritgan. Bu xususiyatga ega shaxslar egotsentrik, impulsiv, boshqalarga nisbatan befarq, jamiyat normalariga qarshilik qilishga moyil bo'ladi. Ular ko'pincha xavotirda bo'lishadi, insonlar bilan muloqotga kirishishga qiynalishadi va boshqalarga ko'ngilsizliklar olib kelishadi. Ayzenkning fikricha, psixotizm genetik xususiyatga ega bo'lib, bu holat ayollarga nisbatan erkaklarda ko'proq uchraydi¹.

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. — P.7

Shaxs xususiyatlarini o'lchash

Kettel singari Ayzenk ham shaxsning uchta super xususiyatidagi individual farqlarni aniqlash uchun ko'plab o'zini-o'zi baholash so'rovnomalarini ishlab chiqqan¹. Ularning eng oxirgisi «Ayzenk shaxs so'rovnomasi» hisoblanadi (Eysenck Personality Questionnaire, EPQ). EPQ punktlaridan namunalar 3-jadvalda berilgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu so'rovnoma shaxs strukturasi shakllantirishda muhim hisoblangan mazkur uch faktorli punktdan iborat. Bundan tashqari, EPQ o'z ichiga yolg'on shkalasini ham kiritgan bo'lib, uning yordamida shaxs o'zini yaxshi ko'rsatish maqsadida yolg'on ishlatishini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, 7–15 yoshdagi bolalarni test qilish uchun «O'smir shaxs so'rovnomasi» (Junior EPQ) ham ishlab chiqilgan.

Ayzenk va Kettel faktorlashtirishda turli xil shaxs so'rovnomalaridan foydalanishi, shaxsni ta'riflashda muhim hisoblangan xususiyatlar sonida farqlar yuzaga kelishining asosiy sababi hisoblanadi. Bu yerda faktorli analiz natijalari bevosita olinayotgan ma'lumotlar tipi va manbayiga bog'liqdir. Ayzenkning shu narsaga ishonchi komil ediki, uning ikki kriteriyasi – introversiya/ekstraversiya va barqarorlik/neyrotizm boshqa ko'plab shaxs so'rovnomalarini o'tkazgan bir qancha tadqiqotchilar tomonidan empirik jihatdan tasdiqlangan. Ushbu nuqtayi nazar to'g'ri ekanligini isbotlovchi asosiy dalillar ekstravert va introvertlar xulq-atvorining tadqiq etilishi natijasida olingan.

Introvert va ekstravertlar o'rtasidagi farqlar

Ayzenk o'zining nazariy konsepsiyalarida katta e'tiborni aniq o'lchovlarga qaratdi. Bugungi kunga qadar uning ishlarini katta qismi introversiya-ekstraversiyaga bog'liq ravishda shaxs xulq-atvorida farqlar mavjud bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan edi².

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.5

² Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

Ayzenkning ta'kidlashicha, xulq-atvordagi individual farqlar faktorli analiz orqali aniqlanishi, so'rovnomalar hamda laboratoriya sharoitlarida o'lanishi mumkin.

Ayzenk nazariyasi doirasidagi test natijalari orqali olingan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator e'tiborga loyiq faktlar keltirilgan. Masalan, ekstravertlar introvertlarga qaraganda, og'riqqa ancha chidamli bo'lib, ish paytida suhbat qurish va kofe ichish uchun ko'proq pauza qilishadi. Ulardagi qo'zg'alish harakat va faoliyatlarining samarali bo'lishini ta'minlasa, bu narsa introvertlarga to'sqinlik qiladi¹.

Ekstravertlar va introvertlar o'rtasidagi ba'zi bir empirik o'rnatilgan farqlar quyida keltiriladi:

- Introvertlar nazariy va ilmiy ko'rinishga ega bo'lgan faoliyat turlari bilan shug'ullanishni yoqtirishsa (masalan, injenerlik ishlari va kimyo kabi), ekstravertlar esa insonlar bilan ishlashni ma'qul ko'rishadi.

- Kollejda introvertlar ekstravertlarga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishadi. Kollejni psixiatrik sabablarga ko'ra qoldiradigan talabalarning aksariyati introvertlar bo'lsa, akademik sabablarga ko'ra qoldiradiganlarining asosiy qismini ekstravertlar tashkil qiladi.

Introvertlar ertalab o'zlarini ancha tetik his qilishsa, ekstravertlarda bunday holat kechqurun kuzatiladi. Bundan tashqari, introvertlar ertalablari yaxshi ishlashadi, ekstravertlar esa kunning ikkinchi yarmida.

Introvertlar va ekstravertlar o'rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning stimullarga bo'lgan sezgirligidir. Bu farq «limon tomchisi testi» yordamida oson aniqlanishi mumkin. Agar bir odamning og'ziga 4 tomchi limon suvi tomizilsa, introvertlarda ekstravertlarga qaraganda ikki baravar ko'p so'lak ajralar ekan. Bu holat introvert va ekstravertlar fiziologik faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Ayzenkning fikricha, introvert hamda ekstravertlarning stimullarga bo'lgan reaksiyasidagi farqning

¹ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

asosiy sababi ularning bosh miya stvolidagi retikulyar format-siyaning faoliyatiga bog'liq.

Ayzenkning shaxsning to'liq suratini yaratishda qilgan sa'y-harakatlari tahsinga sazovordir. Ko'pchilik psixologlar uni ilmiy asoslangan shaxs strukturasi modelini yaratishda birinchi darajali mutaxassis deb hisoblashadi. O'zining har bir ishi-da Ayzenk, individual xulqdagi farqlarni tushuntirishda ney-rofiziologik hamda genetik omillar roliga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, uning ta'kidlashicha, ishonchli shaxs nazariyasi yaratishdagi asos – bu aniq o'lchov ishlari hisoblanadi. Shuningdek, uning kriminologiya, ta'lim, psixopatologiya va xulq-dagi o'zgarishlar sohalaridagi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Ayzenk nazariyasining shuhrati hali bundanda yuqoriga ko'tarilib, olimlar tomonidan uni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammallashtirish davom etadi.

Dj. Kellining shaxs konstruktleri nazariyasi

Djordj Kelli (1905–1966) – amerikalik psixolog, Ogayo universiteti professori. 1955-yilda nashr etilgan, o'zining asosiy ishi bo'lgan «Shaxs konstruktleri psixologiyasi» ustida Kelli 20 yil ishlagan. Uning nazariy konsepsiyasi E. Erikson, A. Maslou va boshqa psixologlarniki singari boy amaliy va psixoterapevtik tajribaga tayanadi. Eng asosiysi, ularni bir fikr birlashtiradi. Unga ko'ra, shaxsga alohida elementlarga bo'lib bo'lmaydigan, bir butun tizim sifatida qarash kerak. Shunga qaramasdan, Kellining nazariyasi psixoanaliz va gumanistik psixologiya doirasida ishlab chiqilgan klassik ishlardan ajralib qoldi¹.

Har bir shaxs nazariyasi o'zining konkret tushuntirish prinsipiga asoslangan markaziy nuqtasiga ega. Misol uchun, psixoanalizda markaziy tushuncha – bu «ongsizlik ta'siri» hisoblanib, shaxs modeli ikki asosga ko'ra quriladi. Bular ongsizlik holati va jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalardir.

¹ Boeree C. G. George Kelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

Z. Freyd instinktiv kuchlar (ongosti, ongoldi va ong) shakllanish darajasiga e'tibor qaratib, shaxs podtizimini uchga bo'ladi (Id, Ego, Super-Ego). Shaxs dinamikasi ongosti faoliyat natijasi hisoblanadi. K. Rodgers nazariyasining asosini shaxs o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi va o'z-o'ziga baho berishi tashkil etsa, K. Levinda esa maydon tushunchasi yetakchi o'rinda tura-di. Ko'pchilik zamonaviy psixologlar uchun shaxs tahlilining asosiy obyekti — shaxsning motivatsion sohasi, uning yo'nalganligi, prinsipi esa psixik determinatsiya hisoblanadi.

Ba'zi bir ishlarda shaxsning individual xususiyati sifatida barqaror kognitiv strukturalari qabul qilingan. Bu — shaxs bilish jarayonining tarkibiy elementi hisoblanadi.

Odatda, an'anaviy shaxs konsepsiyalarida kognitiv (ong oldi) xarakteristika boshqa tushunchalar yordamida ifodalangan. Bir necha o'n yillar avval Amerika, shuning bilan birga jahon psixologiyasining bir qismini bixeviorizm maktabiga tegishli deb hisoblashgan. XX asrning 50-yillaridan chet el psixologiyasida psixika tuzilishining asosi ong deb qaralgan. Shu bilan birga, G'arbda eksperimental psixologiya sohasida yangi yo'nalish — kognitiv psixologiya vujudga kelishi bilan bog'liq o'ziga xos revolutsiya sodir bo'lgan. Bilish jarayonlari — idrok, tafakkur, diqqat va xotira bilan bog'liq tadqiqot ishlari soni ko'paydi.

Psixologiyaning predmet va metodlari yangicha talqin etila boshladi. Kognitivistlarning fikricha, shaxsning xulq-atvorini uning bilimlari boshqarardi. Bilimlar rolini ajratish tadqiqotchilarning umumiy yo'nalishini belgilab berdi. Endi tashqi shart-sharoitlar va stimullarni tasniflash birdan bir maqsad bo'lmay, bilimlar tizimini, ya'ni obyektlar, holatlar va boshqa insonlarning ichki reprezentativlari (tasavvurlari)ni namoyon qiluvchi vosita sifatida chiqdi.

Shunday qilib, kognitiv psixologiya zamonaviy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylanib, bixevioristlar tomonidan psixologik jarayonlar shakllanishining ichki strukturalari rad etilishi va psixoanaliz tomonidan shaxs faoliyatida bilim rolining pasaytirilishiga qarshi reaksiya sifatida vujudga keldi.

Kognitiv psixologiya psixik jarayonlar kechishidagi va shaxs xulq-atvoridagi bilimlar, kognitiv strukturalar va sxemalarning hal qiluvchi rolga asoslangan holda shakllanadi. Kognitiv psixologiya rivojlanishining birinchi bosqichi D.Brodent, U.Naysner, R.Atkinson va boshqa olimlar tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Dj.Bruner, S.Shexterlar emotsiyaning kognitiv nazariyasi asoschilari hisoblanadi. Ayzenk esa individual farqlarning kognitiv nazariyasini taklif etgan bo'lsa, Dj.Kelli, M.Makoni va Tomslar shaxs muammolari bilan shug'ullanishgan.

Biz faqat Dj.Kellining shaxs kognitiv nazariyasiga to'xtalib o'tamiz. U yerda shaxs konstruktlar tizimi sifatida talqin etiladi.

«Ong» kategoriyasi ichidagi xulq-atvor ko'rsatkichlari sifatida yo bizning tasavvurlarimiz tarkibi (o'z-o'zini baholash, sotsial tarkib), yoki bo'lmasam ongning formal xarakteristikasi (kognitiv maydon strukturasi, kognitiv balansning mavjudligi yoki dissonans) qabul qilinadi. Ongning formal xarakteristikasi (masalan, kognitiv dissonans, konsonans) bilan Leon Festinger shug'ullangan. U ishlab chiqqan maxsus nazariyaga ko'ra, individning ongida biron-bir obyekt yoki hodisa haqida qarama-qarshi ma'lumotlarga duch kelinsa, unda noqulaylik hissi vujudga keladi. Kellining konsepsiyasi kognitiv deb nomlanishiga, unda insonning unga ta'sir qiluvchi stimullarni idrok etishi, ushbu stimullarni o'z xulq-atvorida talqin qilish va o'zgartirish yo'llari e'tiborga olinishi sabab bo'lgan. L.Festingerdan farqli o'laroq, Dj.Kelli ongning nafaqat formal, balki mazmuniy xarakteristikasini tadqiq qilishga harakat qilgan¹.

Kellining fikricha, insonning bilish bilan bog'liq faoliyati real faktlarning klassifikatsiyasi hamda interpretatsiyasi bilan boshlanadi. Oxirgisi o'z holicha emas, balki faoliyat subyektiga bo'lgan munosabatidagi reallik sifatida o'rganiladi. Interpretatsiya tushunchasining o'rniga, u «konstruktlash» so'zini ishlatadi. Inson faktlar ma'noga ega bo'lgan konstrukt-

¹ Boeree C. G. George Kelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. — P.4-5

lar tizimidan foydalangan holda reallikni konstruktlaydi (uni tushuntiradi, talqin qiladi). Allaqachon qurib bo'lingan konstruktlar tizimiga asoslanib, inson voqea va hodisalarni prognoz qilishga harakat qiladi. Shaxs psixikasining asosiy funksiyasi – kelajakni prognoz qilish hamda xulq-atvorni boshqarish maqsadida reallikni tadqiq etishdir. Dj.Kelli nazariyasining asosiy mohiyati ham aynan shunda.

Nazorat savollari:

1. Shaxs tushunchaning mohiyatini izohlang.
2. Shaxsning psixologik tuzilish modellari tahlilini izohlang.
3. G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasini tushuntirib bering.
4. Shaxsning asosiy tiplari qaysilar?
5. Xususiyat va tiplarning neyrofiziologik asoslari nimalardan iborat?
6. Shaxs xususiyatlari qanday o'lchanadi?

XVII bob. DIQQAT

Tayanch tushunchalar: diqqat, diqqat turlari, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat, diqqatning fokusi, orientrlangan diqqat, ichki va tashqi diqqat, diqqatning ko'лами, diqqatning barqarorligi, diqqatning yo'nalganligi, faol va passiv diqqat.

17.1. Diqqat haqida tushuncha

Diqqatning ta'rifi. Diqqat — kishi faoliyati barcha turlari, eng avvalo mehnat va o'quv faoliyati samaradorligining muhim va zarur shartidir. Mehnat qanchalik murakkab va mas'uliyatli bo'lsa, u diqqatga shunchalik katta talablar qo'yadi. Ziyraklik kishiga uning kundalik hayotida — turmushida, boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishida, sportda zarurdir. O'quvchilarning diqqat-e'tibori o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir. Ta'lim olishda diqqatning rolini ta'kidlarkan, buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy «... diqqat aynan shunday bir eshikki, tashqi olamdan kishi qalbiga kirib keladigan jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi»¹, — deb yozgan edi. Bolalarni bu eshikni ochiq saqlashga o'rgatish birinchi darajali ahamiyatga molik ish ekanligi tushunarli. Butun ta'limning muvaffaqiyati ana shu ish muvaffaqiyatiga tayanadi.

Bilish jarayonlari kechishining eng muhim xususiyati uning tanlaydigan, yo'naltirilgan tusdaligidan iboratdir. Tevarak-atrofdagi olamning ko'plab ta'sirlari orasidan kishi hamisha nimanidir idrok etadi, nimanidir faraz qiladi, nima haqdadir fikr yuritadi, o'ylaydi. Ongning bu xossasini uning diqqat kabi xususiyati bilan o'zaro bog'liq deb hisoblashadi. Diqqat bilish jarayonlaridan farqli o'laroq, o'zining alohida mazmuniga ega emas, u barcha bilish jarayonlarining jo'shqin jihatidir.

¹ Ушинский К.Д. Программа педагогического курса для женских учебных заведений. — Соч., соч., М., — Л.: ПФА нащриёти, 1950, 10-том, 22-бет.

Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir.

Yo'naltirilganlik subyektning ehtiyojlariga, uning faoliyati maqsadlari va vazifalariga mos keladigan obyektlarning tanlanganligida, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz tanlashda, ajratishda namoyon bo'ladi. Diqqat-e'tiborning bir xil obyektlarda ko'ringanligi (konsentratsiyalanishi) ayni paytda barcha begona narsalardan chalg'ishni, boshqa obyektlarning vaqtincha inkor etilishini taqozo qiladi. Shu tufayli in'ikos aniq-ravshan bo'la boradi, tasavvurlar va o'y-fikrlar faoliyat tugallanmagunga qadar, undan ko'zlangan maqsadga erishilmaguncha ongda saqlanib qoladi. Shu yo'sinda faoliyatning nazorat qilib va boshqarib borilishi ta'minlanadi.

Oliy shakllardagi diqqatni psixik jarayonlar va kishining anglanilgan xulq-atvori kechishining boshqarilishi bilan bog'liq deb hisoblashadi.

Diqqat sezgi, xotira, tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli diqqatni biror narsaga qaratish obyektiga bog'liq holda diqqatning namoyon bo'lishining quyidagi shakllarini: sensor (perseptiv), aqliy harakatlantiruvchi shakllarini ajratib ko'rsatadilar.

Hozirgi vaqtda sensor (ko'rish va eshitish) diqqati ko'proq o'rganilganidir. Diqqatga ta'rif beradigan ma'lumotlarning ko'pchiligi amalda uni tadqiq etish natijasida qo'lga kiritilgan. Diqqat bamisoli bilish (idrok, xotira va tafakkur) jarayonlari orasida namoyon bo'lib, ular samaradorligining oshishiga yordam beradi. Jumladan, idrokning aniq-ravshanligi va to'laqonliligi diqqatga bog'liq, diqqatning susayishi perseptiv jarayonlarning birmuncha darajada buzilishiga va shakllanayotgan siymoning o'zgarib ketishiga olib borishi mumkin.

17.2. Diqqat turlari

Hosil bo'lish xususiyatiga va amal qilish usullariga ko'ra diqqatning ikkita asosiy turi — ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari mavjud deb hisoblashadi. Ixtiyorsiz diqqat kishining anglashilgan niyatlari va

maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo'ladi va qo'llab-quvvatlanadi. Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan diqqat-e'tibordir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zamirida hosil bo'ladi. Diqqatning bu turlari diqqatning darajalari sifatida qabul qilinishi ham mumkin. Diqqatning turlaridan har bir (sensor, aqliy va hokazolar) turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo'lishi jismoniy, psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Qo'zg'atuvchilarning sifati, avvalo, ularning subyekt uchun yangiligi ixtiyorsiz diqqatning paydo bo'lishidagi asosiy shartlar jumlasiga kiritilgan bo'lishi mumkin.

Yangiligi ilgari mavjud bo'lmagan qo'zg'atuvchining yuzaga kelishidan, mavjud qo'zg'atuvchilarning jismoniy xususiyatlari o'zgarishdan, ular ta'sirining susayishi yoki yo'qolib qolishidan, tanish qo'zg'atuvchilarning yo'qligidan, qo'zg'atuvchilarning fazoda ko'chib yurishidan (harakatlanuvchi buyumlar, odatda diqqatni o'ziga jalb etadi) iborat bo'lishi mumkin. Odatdagidan boshqacha barcha narsalar diqqatni o'ziga tortadi. Amalda bittagina umumiy xususiyati — yangiligi bilan ajralib turadigan xilma-xil qo'zg'atuvchilar moslashib qolingani oqibatida ulardan ta'sirlanish susaymaganligi natijasida diqqatni jalb qiladi.

Diqqatni kuchli qo'zg'atuvchilar: baland ovoz, yorqin nur va kuchli hid jalb etadi. Bunda qo'zg'atuvchining absolut jadaligidan ko'ra nisbiy jadalligi, ya'ni qo'zg'atuvchining o'sha paytda ta'sir qilayotgan boshqa qo'zg'atuvchilar bilan kuch jihatdan o'zaro nisbati ahamiyat kasb etadi; shunday qilib ular o'rtasidagi keskin farq hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu qo'zg'atuvchining faqat kuchiga emas, balki uning boshqa xususiyatlariga ham taalluqlidir. Jumladan, kichkina buyumlar yirik narsalar orasida, uchburchak esa to'rtburchaklar orasida tezroq payqaladi.

Individning ehtiyojlariga muvofiq keladigan, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan qo'zg'atuvchilar ixtiyorsiz diqqatni qo'zg'aydi. Chunonchi, sinaluvchi tajriba sharoitlarida ma'ru-

zachi o'qiyotgan xabarni idrok etish bo'yicha ko'rsatmaga muvofiq diqqatini jamlagan va boshqa bir kishining shu bilan bir vaqtda eshitalayotgan ovozigga yetarli darajada e'tiborni qaratmagan bo'lsa ham, o'sha boshqa birov sinaluvchining nomini tilga olganida unga darhol diqqatini qaratadi.

Ixtiyorsiz diqqatda bevosita qiziqishning roli benihoya kattadir. Nimaiki qiziqarli, hissiyotga boy, zavqli bo'lsa, diqqatning uzoq vaqt mobaynida ko'rinib turishini taqozo etadi.

Ixtiyorsiz diqqat shaxsning umumiy yo'nalganligiga ham bog'liqdir. Masalan, teatr bilan qiziqadigan kishi, ehtimol futbol bo'yicha bo'lajak musobaqa haqidagi e'longa e'tibor bermasdan, ayni chog'da teatrga oid yangi e'lonni tezroq payqashi mumkin. Ixtiyorsiz diqqat subyektning anglashilgan niyatlaridan mustasno tarzda, uning biron-bir irodaviy urinishlarisiz ro'y beradi. Ixtiyorsiz diqqatning asosiy vazifasi muhitning doimiy ravishda o'zgarib turadigan sharoitlarida tez va to'g'ri mo'ljal olishdan, uning mazkur paytda eng ko'p darajada hayotiy mazmun kasb etishi mumkin bo'lgan obyektlarni alohida ajratib ko'rsatishdan iboratdir.

Ixtiyoriy diqqat diqqatning oliy turi sifatida mehnat jarayonida tarkib topgandir. Ixtiyoriy diqqat agar kishi faoliyati jarayonida o'z oldiga ma'lum bir vazifa qo'ygan va harakat programmasini ongli tarzda ishlab chiqqan bo'lsa yuz beradi. Uning diqqatini jalb etadigan obyektlarning alohida ajratib ko'rsatilishi ana shu hol bilan belgilanadi. Diqqat ancha yangi, qiziqarli, maroqli bo'lmagan narsalarga qaratilmasdan, aksincha faoliyatning maqsadi bilan bog'liq narsalarga, uni amalga oshirish uchun muhim va zarur bo'lgan narsalarga jalb etilgan sharoitlarda ko'pincha irodaviy kuch-g'ayratlarni ishga solish talab qilinadi.

Diqqatni ma'lum obyektga qaratish uchun irodaviy kuch-g'ayrat sarflash zarurati ishga tushayotgan paytda, binobarin, qiyinchiliklar paydo bo'lganida, bilishga oid qiziqish susayganida va shuningdek, to'siqlar (yangi, kuchli yoxud hissiy jihatdan ahamiyatga molik qo'zg'atuvchilar) mavjud bo'lgan kezda aniq-ravshan namoyon bo'ladi.

Ixtiyoriy diqqat jarayonida shaxsning faolligi namoyon bo'ladiki, bunday vaqtda qiziqishlar bilvosita xususiyat (bu

faoliyat maqsadi va natijasining ehtiyojlari) kasb etadi. Ixtiyoriy diqqatning asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishini faol boshqarib turishdan iboratdir. Kishi aynan ana shu ixtiyoriy diqqatning mavjudligi tufayli xotiradan o'zi uchun zarur ma'lumotlarni faol tarzda, tanlab «ajratib-olish»ga, muhim va jiddiy narsalarni alohida ajratib ko'rsatishga, to'g'ri qarorlar qabul qilishga, faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vazifalarni amalga oshirishga layoqatli bo'ladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini – ixtiyoriydan so'nggi diqqatni alohida ko'rsatish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan joriy etilgan.

Agar maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy ko'ringanidagi kabi faqat faoliyat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonining o'zi qiziqarli va ahamiyatli bo'lsa, bu ixtiyoriydan so'nggi diqqat to'g'risida mulohaza yuritishga asos beradi. Bu holda faoliyat kishini shu qadar qiziqtirib yuboradiki, u diqqatni obyektga qaratish uchun sezilarli irodaviy kuch-g'ayrat sarflamasa ham bo'laveradi. Shunday qilib, ixtiyoriydan so'nggi diqqat ixtiyoriy diqqatdan keyin namoyon bo'lgan holda uning o'zidagina iborat deb hisoblanishi mumkin emas. Bu diqqat anglanilgan holda ilgari surilgan maqsad bilan bog'liq bo'lganligi sababli u ixtiyorsiz diqqatdangina iborat qilib qo'yilishi ham mumkin emas. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi imtihonga tayyorlanayotib, qiyin kitobning qisqacha mazmunini yozib chiqarkan, oldiniga o'zini diqqat-e'tiborli bo'lishga, alahsimaslikka majbur qiladi. Lekin keyinchalik u ishga shunday qiziqib ketadiki, oqibatda uni kitobdan chalg'itish qiyin bo'lib qoladi. Dastavval irodaviy kuch-g'ayratlar madadiga tayangan diqqat ixtiyoriydan so'nggi diqqatga aylanadi. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat biror narsaga uzoq vaqt davomida juda ham barqaror qaratilishi bilan belgilanadi, ko'proq yuqori darajadagi jadal va unumli aqliy faoliyatni, barcha turdagi mehnatning yuksak unumdorligini asosli ravishda ana shunday diqqat turi bilan bog'liq, deb hisoblaydilar.

17.3. Diqqatning fiziologik mexanizmlari

Diqqatning fiziologik asoslarini tushunib yetishda buyuk rus fiziologlari I.P.Pavlov va A.A.Uxtomskiylarning ilmiy ishlari katta ahamiyatga egadir.

I.P.Pavlov va A.A.Uxtomskiylarning g'oyalariga binoan diqqatning hodisalari qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro birgalikdagi harakati natijasida muayyan miya tuzilishlarining qo'zg'aluvchanligi bilan bog'liqdir.

I.P.Pavlovning hisoblashicha, vaqtning har bir lahzasida miya qobig'ida qo'zg'alish uchun ancha qulay va maqbul sharoitlarga egaligi bilan ajralib turadigan biron-bir qism mavjud bo'ladi. Bu qism nerv jarayonlari induksiyasi qonuniga binoan paydo bo'ladi. Bosh miya qobig'ining bitta qismida ko'ringan nerv jarayonlari shunga muvofiq tarzda uning boshqa qismlarida tormozlanishga (va aksincha) olib keladi. Qo'zg'alishning eng maqbul markazida yangi shartli reflekslar osongina paydo bo'ladi, tabaqalanish muvaffaqiyatli ravishda yuz beradi. Mazkur holda bu «katta yarim sharlarning ijodiy bo'lmasi»dir. Eng maqbul qo'zg'alish markazi o'zgaruvchandir. I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Agar bosh suyak kosasi orqali ko'rish mumkin bo'lganda va agar eng maqbul qo'zg'aladigan katta yarim sharlar o'rni yoritilganda bormi, bu holda biz fikrlaydigan ongli odamda uning katta yarim sharlari bo'ylab doimo o'zgarib turadigan, shakli va kattaligi g'alati ko'rinishga ega bo'lgan hamda yarim sharlarning qolgan barcha bo'shlig'ida ko'proq yoki ozroq darajadagi soya bilan o'ralgan och rangli dog'ning u yoqdan-bu yoqqa qay tarzda ko'chib yurishini ko'rgan bo'lardik»¹. Ushbu och rangli «dog'» xuddi o'sha eng maqbul qo'zg'alish markaziga mos keladi, uning «u yoqdan — bu yoqqa ko'chib yurishi» diqqatning jo'shqinligini ta'minlaydigan fiziologik shart hisoblanadi. I.P.Pavlov qo'zg'alish markazining bosh miya po'stlog'i bo'ylab harakat qilishi haqidagi

¹ Павлов И.П. Двадцатилетний опыт объективного изучения высшей нервной деятельности (поведения) животных. Пол. Собр. Соч., М.-Л, Фашизм 1951, III том, I-китоб, 248 бет

qoidasi hozirgi zamondagi eksperimental tadqiqotlar (N.M.Livamovning ma'lumotlari) bilan isbotlandi.

Diqqatning fiziologik mexanizmlarini tushunib yetishda dominanta (nasldan-naslga o'tuvchi asosiy belgi) prinsipi alohida ahamiyatga egadir. A.A.Uxtomskiyning fikriga ko'ra, miyada hamisha qo'zg'alishning ustun va hukmronlik qiluvchi markazi mavjud bo'ladi. A.A.Uxtomskiy dominantani «yuksak darajadagi qo'zg'alish markazlari» konstellyatsiyasi (mavjud ahvoli) deb ta'riflaydi. Dominantaning hukmronlik qiluvchi sifatidagi xususiyati shundan iboratki, u qo'zg'alishning yangi hosil bo'ladigan markazlarini faqat tiyib qo'ya qolmaydi, balki sust qo'zg'alishlarni o'ziga jalb etishga («tortishga») va shu tufayli ularning hisobiga yanada kuchayishga, ular ustidan yanada ko'proq darajada ustunlik qilishga ham qodirdir: Dominanta qo'zg'alishning barqaror markazi hisoblanaadi. A.A.Uxtomskiy: «Dominanta» degan nom zamirida yuksak darajadagi qo'zg'alishning ko'proq yo ozroq barqaror markazi tushuniladi», deb yozgan edi. A.A.Uxtomskiyning dominanta to'g'risidagi tasavvurlari uzoq vaqt davomida diqqatning harakatlantiruvchi mexanizmini tushunish imkonini beradi.

Keyingi yillarda diqqatning neyrofiziologik mexanizmlari tizimida katta yarim sharlar po'stlog'ining yetakchi rol o'ynashi haqidagi tasavvurlar tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Katta yarim sharlar po'stlog'i darajasida neyronlarning alohida turlari mavjudligini (diqqat neyronlari – yangilik detektor va qurilma to'qimalari – kutish to'qimalari) diqqat jarayonlari bilan bog'laydilar.

17.4. Diqqatning xususiyatlari

Diqqat turlicha sifat ko'rinishlari bilan ta'riflanadi. Diqqatning bu ko'rinishlari diqqatning sifati yoki diqqatning xususiyatlari deb ataladi. Diqqatning barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va ko'lami shular jumlasiga kiradi. Diqqatning har xil sifatlari bir-birlariga bog'langandir. Diqqat asosiy xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi tufayli hosil bo'lgan murakkab funksional strukturasi bilan belgilanadi.

Diqqatning barqarorligi. Barqarorlik — diqqatning zamon ichidagi ta’rifidir. U jadal diqqatni saqlab turishning davomliligi bilan belgilanadi. Faoliyatning nisbatan uzoq vaqt mobaynida yuksak unumliligi barqarorlik ko’rsatkichi hisoblanadi. Shunday qilib, diqqatning barqarorligi uning davomliligi bilan ham, u yuz bergan butun vaqt mobaynida qaratilganligi darajasi bilan ham belgilanadi.

Diqqatning barqarorligi diqqat qaratiladigan obyektlarning xususiyatlariga va diqqati yo’naltirilgan shaxsning faolligiga bog’liq bo’ladi. Diqqat jalb qilinadigan obyektlarning o’zgaruvchanligi, harakatchanligi diqqatni uzoq vaqt mobaynida jalb etishning muhim shartlaridir. Agar obyektning o’zi o’zgarmaydigan bo’lsa va agar uni turli jihatdan o’rganib bo’lmasa, u holda bunday obyektlarga uzoq vaqt mobaynida diqqatni jalb qilib turish o’ta mushkuldir. Barcha bir xillik diqqatni susaytirib qo’yadi.

Obyekt murakkablasha borgan sari diqqatning barqarorligi orta boradi. Murakkab obyektlar faol fikrlash faoliyatini taqozo etadi. Diqqatni jalb etishning davomliligi ham ana shunga bog’liqdir. Lekin bu murakkablik maqbul darajada bo’lishi kerak, aks holda diqqatning jalb etilishi kishini tez toliqtirib qo’yishi va uning diqqati susayib qolishi mumkin. Faoliyatga qiziqish qanchalik kuchli bo’lsa, kishini o’ziga qanchalik ko’p jalb etsa, diqqatning qaratilishi ham shuncha uzoq va jadal davom etadi. Kishi bajarilayotgan ishning muhimligini, ahamiyatini anglab yetgan taqdirda diqqat g’oyat barqaror bo’lishi mumkin. Uning uchun ham bilishga oid barqaror qiziqishlarni shakllantirish — o’quvchilarning ta’limdagi sinchkovliklarini oshirishning, o’quv jarayoni muvaffaqiyatliligining muhim shartlaridan biridir.

Diqqatning barqarorligini saqlashda shaxsning faolligi katta ahamiyatga egadir. Faollik obyektlar bilan yuz beradigan tashqi ifodaga ega bo’lgan amaliy harakatlarda namoyon bo’lishi mumkin. Diqqat jalb etiladigan obyektlarning ancha to’laroq aks ettirilishini taqozo qiladigan turli xildagi perseptiv va tafakkurga oid vazifalarni hal etish bilan bog’liq ichki faol-

lik ham muhim rol o'ynaydi. Obyektlarning har tomonlama o'rganilishini, ularda yangi xususiyatlar va belgilarning alohida ko'rsatib berilishini, ular mazmunining bayon qilinishini, bog'lanishlarining aniqlanishini taqozo etadigan vazifalar qo'yilishi va ularning hal etilishi — diqqatning uzoq vaqt davomida ko'rinishini saqlashning muhim shartidir.

Diqqatning barqarorligi uning statikligi degani emas. Diqqatning barqarorligi uning harakatchanlik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Diqqatning harakatchanlik xususiyatlaridan biri uning o'zgaruvchanligi (fluktuatsiyasi)dir. O'zgaruvchanlik deganda diqqatning jadalligi darajasi vaqti-vaqti bilan beixtiyor ravishda qisqa muddatli o'zgarib turishi, uning vaqti-vaqti bilan beixtiyor ravishda kuchayib yoki sustlashib ketishi tushuniladi. Jumladan, soatning juda ham ohista, zo'rg'a eshitilib turgan chiqillashiga quloq solarkanmiz, biz tovushni goh sezamiz, goh uni sezmay qolamiz. Bu almashinuv sakrash tarzda, qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi.

Diqqatning o'zgarib turishi ikkilanuvchi tasvir deb atalmish tasvirlarni idrok etishda osongina kuzatiladi. Agar bir necha daqiqa davomida kesik piramidaning tasviriga tikilib qaralsa, uning ustki tomoni bamisoli oldinga surilib chiqqan, goho bizga qarab turganday, gohida esa bizdan uzoqlashib ketayotganday bo'lib tuyuladi. Diqqatning vaqti-vaqti bilan tez-tez qisqa muddatli o'zgarishi asosan arang payqaladigan, juda sodda ibtidoiy va harakatsiz obyektlarni sust idrok etish jarayonida aniqlandi (Ya.N.Lange va boshqalarning tadqiqotlari). Bunday hollarda diqqatning to'la qaratilganlik vaqti 2—3 soniyadan oshmaydi (ko'pi bilan 12 soniyaga teng bo'ladi), keyin taxminan xuddi shunday davomlilik bilan uning susayishi sodir bo'ladi. Shubhasiz, diqqatning barqaror qaratilganligi doirasida uning anchagina, qisqa muddatli o'zgarishi subyektiv ravishda ko'pincha sezilmay qoladi va faoliyatning ko'pgina turlari yuz berishi va samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Hozirgi paytda o'tkazilayotgan injenerlik psixologiyasiga oid tadqiqotlarning ma'lumotlariga muvofiq diqqatning o'z-o'zidan ro'y

beradigan fluktuatsiyasini sensor tizimlari «o'tkazish qobiliyati»ning yo'naltirib borilishini ta'minlaydigan o'zini o'zi boshqarishi bilan bog'liq o'zgarish jarayoni deb hisoblash mumkin.

Diqqatning qaratilganligi uzoq davom etadigan ish mobaynidagi barqarorlikning o'zgarishida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishlar diqqatning qaratilganlik bosqichlari deb hisoblanadi. Bular — ishga ilk bor kirishish, diqqatning qaratilganligiga erishish va so'ngra undagi kichik o'zgarishlarning irodaviy kuch-g'ayratlar evaziga bartaraf etilishi, charchoq kuchaygan paytda diqqatni qaratishning va ishlash qobiliyatining susayishidir. Diqqatning qaratish bosqichlariga egaligi haqidagi ma'lumotlar mehnat psixologiyasi sohasida o'tkazilgan tadqiqotlarda olingandir. Diqqatning barqarorligidagi bunday o'zgarishlar o'quvchilarning dars davomidagi diqqatida ham namoyon bo'ladi: darsning boshlanishida diqqatni biror narsaga qaratishning qiyinligi va yetarlicha barqarorligiga erishilmaslik, so'ngra diqqatning mumkin qadar uzoq vaqt qaratilishi va darsning tugallanishiga yaqin qolganda charchaganlik oqibatida diqqatning biroz susayishi kuzatiladi. Diqqatning qaratilishiga xos bo'lgan bu xususiyatlarni pedagogik ish tajribasida hisobga olish zarur.

Diqqatning ko'chishi. Diqqatning ko'chishi subyektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir obyektidan ikkinchi obyektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'tishida namoyon bo'ladi. Diqqatning ko'chishi yo ongli ravishdagi xulq-atvorga, faoliyatning talablariga (muayyan faoliyatning o'zida bir obyektidan, bir harakatdan boshqalariga o'tish chog'ida), yoxud o'zgarib ketayotgan shart-sharoitlarga muvofiq tarzda yangi faoliyatga kirishish zaruratiga bog'liq bo'ladi yoki dam olish (qachonki, oldingi ish kishini charchatib qo'ygan kezlarda) maqsadida amalga oshiriladi. Faqat obyektlar va jarayonlar o'zgarib, faoliyat esa uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qolgan hollarda diqqatning barqarorligi doirasida uning ko'chishi yuz beradi. Bunday ko'chish uzoq davom etadigan ish paytida charchashning oldini oladi va shu bilan diqqatning barqarorligini oshiradi. Lekin bu tez-tez takrorlanavermasligi lozim, aks holda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Diqqatning ko'chishida qator ko'rsatkichlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu, eng avvalo, bitta faoliyat yoki jarayondan boshqa biriga o'tish uchun sarf bo'ladigan vaqt; ishning unumdorligi yoki ma'suldorligi (uning hajmi yoki hajmi jihatdan muayyan materialni diqqatni ko'chirmasdan bajarishning faoliyatga taqqoslangan vaqti); ishning sifati, aniqligi (uning beixatoligi yoki ko'chirish bilan bog'liq holdagi xatolarning mavjudligi)dir. Diqqatning to'la, tugallangan holdagi ko'chirilishi, yoxud chala, tugallanmagan ko'chirilishi to'g'risida so'z yuritilishi mumkin. Diqqati chala, tugallanmagan holda ko'chirilgan kishi yangi ishni bajarishga kirishgan taqdirda oldin bajarib kelgan ishga bo'lgan diqqatini batamom bo'lib qo'ya olmaydi. Diqqatning chala ko'chirilishi natijasida uning yo'nalishidagi o'zgarish diqqatning yangi faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirish, yangi vazifani bajarish uchun zarur bo'ladigan darajada jamlanishining yuz berishiga olib kelmaydi. Diqqatning chala ko'chishida oldingi faoliyatning tormozlovchi ta'siri, masalan, yangi ishning eski ishga xos tartib-qoidalar bo'yicha bajarilayotganligida namoyon bo'lishi mumkin. Diqqatni ko'chirishning muvaffaqiyati bir qancha shart-sharoitlarga bog'liqdir. Ko'chirish oldingi va keyingi faoliyatning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan, diqqatni ko'chirishning muvaffaqiyatlilikligi ko'rsatkichlari yengil-yelpi faoliyatdan mashaqqatli faoliyatga o'tishda ancha kamayadi. Ko'chirishning muvaffaqiyatlilikligi kishining oldingi va yangi faoliyatga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Oldingi faoliyat qanchalik qiziqarli va keyingisi o'ziga qanchalik kamroq jalb etadigan bo'lsa, diqqatning ko'chishi ham shunchalik qiyin bo'ladi. Agar oldingi faoliyat tugallanmagan bo'lsa, yangisini boshlash ancha qiyinroqdir. Diqqatni ko'chirishning muvaffaqiyatlilikligi oldingi faoliyatga diqqatning qanchalik jalb etilganligiga ham bog'liq bo'ladi. Agar diqqat g'oyat darajada qattiq jalb etilgan bo'lsa, ko'chirilishi juda ham qiyin bo'ladi. Diqqatning ko'chirilishi ko'p jihatdan yangi faoliyat maqsadining shaxs uchun ahamiyati, uning aniq-ravonligi va soddaligi bilan belgilanadi.

Diqqatning ko'chirilishida anchagina individual farqlar mavjuddir. Ba'zi odamlar bir faoliyatni qo'yib, ikkinchisini bajarishga tez va osongina kirishib ketsa, boshqalariga bunday tarzda o'tish uchun uzoq vaqt va anchagina kuch-g'ayrat sarflashga to'g'ri keladi. Diqqatni ko'chirishning individual o'ziga xos xususiyatlari nerv jarayonlari o'zgaruvchanligi xususiyatlari bilan bog'liq, deb taxmin qilinadi. Shu bilan birga mashq qilish yo'li bilan ham diqqatni ko'chirish ko'rsatkichlari oshirilishi mumkin.

Hozirgi ko'pgina kasblar aynan diqqatning ko'chuvchanligiga nisbatan yuksak talablar qo'yimoqda. Diqqatning ko'chishi o'quv jarayonida ham katta ahamiyatga egadir. O'quvchilar diqqatini ko'chirishning zarurligi o'quv jarayonining o'zi qanday olib borilayotganligi xususiyatlaridan: maktabda kechadigan kun mobaynidagi turli o'quv fanlarining almashishidan, darslarda materialni o'rganish bosqichlarining izchilligidan (bu o'quvchilar faolligi turlari va shakllarining almashinishini taqozo etadi) kelib chiqadi. Diqqatning oqilona ko'chirilishi aqliy mehnat gigiyenasi nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega va ishga layoqatlilikni tegishli darajada saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Diqqatning ko'chishi bilan bir qatorda uning bo'linishini, ham alohida ajratib ko'rsatadilar. Diqqatning bo'linishi deganda uning asosiy faoliyatdan uni muvaffaqiyatli tarzda boshqa yana bittasi bilan qo'shib bajarish mumkin bo'lmaydi. Aqliy faoliyatning ikkita turini birga qo'shib olib borish ham qiyin. Harakat faoliyatini va aqliy faoliyatni birgalikda bajarilgan taqdirda diqqatning taqsimlanishi ancha samarali bo'ladi. Ularning birga qo'shib bajarilishida aqliy faoliyatning samaradorligi harakat faoliyatiga nisbatan ancha kamayib ketishi mumkin. Barcha hollarda birga qo'shib bajarilayotgan faoliyat turlaridan hech bo'lmaganda bittasining avtomatlashtirishi diqqatni muvaffaqiyatli ravishda taqsimlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Diqqatni taqsimlash malakasi o'quv faoliyatini egallab olish jarayonida shakllanadi, u mashq qilish va tegishli ko'nikmalarni orttirish orqali rivojlantirilishi mumkin.

Diqqatning ko'lamini. Diqqatning xususiyatlari qatoriga ayni bir vaqtning o'zida aniq-ravshan idrok etiladigan obyektlar soni bilan belgilanadigan ko'lam ham kiradi. Ko'plab sodda obyektlar (harflar, shakllar va hokazolar) 0,07—0,1 soniya vaqt oralig'ida idrok etilgan taqdirda katta yoshdagi kishida diqqatning ko'lamini o'rtacha 5—7 elementga teng bo'lishi aniqlangan. Diqqatning ko'lamini idrok etiladigan obyektlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Jumladan, anglanilgan matn taqdim etilganda 14 harfli so'zlar osongina ilg'ab olinadi. Shu bilan birga idrok etuvchi subyekt obyektini umuman ilg'ab olarkan, uning uchun ham undagi xatolarni payqamasligi mumkin. Kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatining ko'lamini juda ham cheklangan bo'ladi. Yosh ulg'aygan sari u kengaya boradi. Idrok etilayotgan materialni mazmuniga ko'ra guruhlarga ajrata bilish, tizimga sola bilish, birlashtira olish malakalarining shakllantirilishi diqqatning ko'lamini kengaytirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tez va muvofiqlashtirilgan harakatlar qilishni taqozo etadigan mehnat faoliyatida diqqatning ko'chirilishi, taqsimlanishi va ko'lamini bir butun, yaxlit bo'ladi. Ko'chish taqsimlashga aylanib qolishi, taqsimlash hodisasi tezda ko'chish bilan to'ldirilishi va almashtirilishi mumkin. Ko'lam, taqsimlanish, ko'chish o'rtasidagi chegaralarni amalda payqab olish qiyin, ular yagona diqqat hodisasining har xil qirralaridir.

Diqqatning buzilishi. Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Parishonxotirlikning sabablari har xildir. Parishonxotirlik shaxsning barqaror xislati sifatida ixtiyoriy diqqatning sustligi ko'rsatkichi hisoblanadi va noto'g'ri tarbiya natijasi (bolaning erkalatib yuborilishi, jazolanmasdan qolishi, taassurotlarning har xilligiga odatlanish va boshqalar) bo'lishi mumkin. Bu xildagi

parishonxotirlikka qarshi, avvalo, shaxsda irodaviy fazilatlarini shakllantirish yo'li bilan kurash olib borish kerak. Doimo parishonxotirlikni bola salomatligining yaxshi emasligi, nerv tizimining umuman buzilganligi bilan izohlash mumkin. Parishonxotirlik haddan tashqari, hissiy hayajonlanish yoxud charchash oqibati sifatida qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin. So'nggi holatda u ko'pincha o'qish kuni va haftaning oxirida namoyon bo'ladi. Pedagogik ish tajribasida diqqatni tarbiyalash maqsadida parishonxotirlikning barcha sabablari va xususiyatlari inobatga olinishi shart.

Qachonki, kishi ishga berilib ketib, o'z o'y-xayoli, kechinmalari bilan bo'lib, mashg'ul bo'lgan ishidan boshqa hech narsani ko'rmayotgan va eshitmagan hollarda ham «parishonxotirlik» haqida so'z yuritiladi. U, masalan, tevarak-atrofdagilarga e'tibor bermaydi, o'ziga qaratilgan savollarga parvo qilmaydi. Bunday «parishonxotirlik» diqqatning yorqin ifodalangan hoidagi tashlanganligidan, uning behad jamlanganligi va jadalligidan hosil bo'ladi. Diqqatning eng ko'p darajada jamlanganligi, yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyatda muvaffaqiyat qozonishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Diqqatning parishonxotirlikdan tashqari boshqa xildagi buzilishlari ham borligi e'tirof etiladi. Diqqatning haddan ziyod harakatchanligi, bir obyektidan va faoliyat turidan boshqalariga doimiy ravishda o'tib turish yoki aksincha, harakatsizligi, diqqatning sust harakat qilishi, uning tor doiradagi tasavvurlar va fikrlarga patologik tarzda qayd etilishi shular jumlasiga kiradi. Diqqatning bu xildagi buzilishlari miyaning ba'zi bir organik kasalliklari, eng avvalo, uning peshana qismidagi kasalliklari yuz bergan paytlarda kuzatiladi.

17.5. O'quv jarayonida diqqatning rivojlanishi

Maktab o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda diqqatning barcha turlariga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur. O'quv jarayonida ixtiyorsiz diqqat muhim rol o'ynaydi. Ixtiyorsiz diqqatning boshlang'ich sinflardagi roli ayniqsa kattadir. Negaki, kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqatni ixtiyoriy ra-

vishda biror narsaga qaratish qobiliyati sust rivojlangan bo'ladi. Lekin hatto quyi sinflarda ham o'quv-tarbiya jarayonini diqqatning faqat ana shu turiga asoslangan holda olib borish maqsadga muvofiq emas. Ushinskiy qayd etib ketganidek, «o'z darsingizni maroqli o'tkazar ekansiz, bolalarni zeriktirib qo'yishdan qo'rqmasligingiz mumkin, lekin shuni esda tutingki, mashg'ulotda hamma narsa ham maroqli bo'lavermasligi mumkin, aksincha muqarrar zerikarli narsalar ham bo'ladi va shunday bo'lishi ham kerak. Bolani uni qiziqtirgan ishnigina emas, balki qiziqtirmaydigan ishni ham bajarishga — zavq-shavq olish maqsadida o'z burchini ado etishga o'rgating¹. Shuning uchun ham maktab ish tajribasida ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni birga qo'shib olib borish va ixtiyorsiz diqqatga tayangan holda ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash zarur.

Diqqatni irodaviy kuch-g'ayratlar yordami bilan doimo bir maromda saqlab turish o'ta zo'riqishni talab qiladi va kishini juda ham toliqtirib qo'yadi. O'qitish jarayonida ixtiyoriydan so'nggi diqqatning alohida ahamiyatga ega ekanligi xuddi shu holat bilan belgilanadi. Dastavval u ixtiyoriy diqqat sifatida paydo bo'lishi munosabati bilan faoliyatning, ishga «tortish» jarayonining ilk bosqichlarini puxta tashkil etishi shart. Ixtiyoriydan so'nggi diqqatga xos bo'lgan qiziqish shaxsning faolligiga bog'liqdir.

Demak, shaxs faolligini ta'minlovchi diqqat jarayoniga xos xususiyatlarni bilish psixologik bilimlarni o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Diqqat deganda nimani tushunasiz?
2. Diqqatning turlari, diqqatning xususiyatlari.
3. Diqqatning konsentratsiyasi, diqqat va ong.
4. Diqqat va boshqa bilish jarayonlarining aloqadorligi.

¹ Ушинский К.Д. Родное слово. — Собр. Соч. М. Л.: ПФА папирети, 1949, 6-том, 252-бет.

XVIII bob. SEZGI

Tayanch tushunchalar: analizator, sezgi, tuyush, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, adaptatsiya, sinesteziya, sensibilizatsiya, binokulyar ko'rish, divergensiya, monokulyar ko'rish, statik sezgilar, muvozanat sezgilari.

18.1. Sezgi haqida tushuncha

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a'zolarining) ichki holatlarini aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. **Sezgi biosfera va neosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat'i nazar, sezgi organlariga ta'sir qilish mahsulining sodda obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar tariqasida aks etishidir.** Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko'rinishini, ularning xossalari o'ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida, sezgilar orqali biladi, xolos.

Sezgilar to'g'risidagi ilmiy ta'limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o'zi esa tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarning sezgi a'zolariga ta'sir qilishining mahsulidir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, sezgilar moddiy (obyektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in'ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko'rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo'lsa ular xuddi shundayligicha hech o'zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir.

Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini qo'zg'atuvchilarning o'ziga mutlaq mos (adekvat) bo'lgan analizatorlar ta'siri natijasida yuzaga keluvchi asab (nerv) jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziologlar va psixologlarning ta'limotlariga ko'ra analizatorlar uch o'zaro uzviy uyg'unlikka ega bo'lgan tarkibiy qismlardan iboratdir. Sod-

da qilib talqin qilinganda mazkur tarkiblar quyidagi ketma-ketlikdagi tuzilishdir:

tashqi kuch-quvvatni (energiyani) asab (nerv) jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan;

analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan;

periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari (harakatlari) qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stidagi qismlaridan (uchastkalaridan) iboratdir.

Boshqacha so'z bilan aytganda, periferik nervlarning uchlari (ko'z, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorni tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilindi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga taalluqlidir):

– tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya'ni eksteroretseptiv sezgilar (retseptorlar);

– ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interoretseptiv sezgilar;

– tanamiz va gavamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioretseptiv sezgilar.

Birinchi turkum sezgilarni ko'rish, eshitish, hidlash, terituyush, ta'm-maza kabi turlar tashkil qiladi. Ko'rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'liqlaridan iboratdir. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stini tepa burmasining qismida joylash-

gan bo'ladi. Teri-tuyush, harakat sezgilari miya po'stini markaziy burmasining orqa qismidan o'rin olgandir.

18.2. Sezgi turlari

Endi sezgilar klassifikatsiyasi, mohiyati va uning negizlari yuzasidan kengroq mulohaza bildiramiz.

A.R.Luriyaning fikricha, interioretseptiv sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilarning subyektiv ravishda paydo bo'lishi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, xuddi shu bois ular «no-ma'lum hislar» doirasiga kiritilgandir. Ular to'g'risidagi bilimlar bilan tanishish, o'zgarib borishlarini tekshirish «kasalliklarning ichki manzarasi»ni ifodalab berishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ichki organlarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etishi turgan gap (A.R.Luriya tadqiqotlaridan).

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda erta uyg'onadi, shuning bilan birga ularning ifodalanishi o'ziga xos shakllarga egadir. Chunonchi, ular «oldindan his qilish» tariqasida paydo bo'lib, hatto inson ularni ta'riflab berish imkoniyatiga qodir emas, ko'pincha ushbu kechinmalar tush ko'rishda qaysidir kasallik huruj qilayotganligidan darak beruvchanlik vazifasini o'tamaydi, xolos.

Ular insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola o'z tana a'zolaridagi ichki holatlarning o'zgarishini anglash, sezish, his qilish o'quviga ega emas, xuddi shu tufayli undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilaridan buni sezish mumkin. Bu hodisalarning yorqin misoli sifatida quyidagi voqelikni tahlil qilamiz: bola o'z ichki interoretseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida «kasal» bo'lib qolgan qo'g'irchog'ini parvarish qila boshlaydi.

Interioretseptiv sezgilarning obyektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarni o'zaro o'rin al-

mashtirish balansini ta'minlab turishning asosi hisoblana-
di. Boshqacha so'z bilan aytganda, ular organizmlardagi
jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishining gemostazi
(barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo'ladigan signal-
lar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo'riqish, affekt
holatlarini yo'qotish (bartaraf qilish, pasaytirish), tug'ilib
kelayotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo'naltirilgan bo'la-
di. Oqibat natijada, ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan
chiqish holati yuz berishi mumkin. Xuddi shu sababdan tib-
biyot psixologiyasida interoretseptiv sezgilar ham muhim
rol o'ynaydi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar
(psixosomatika) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish im-
konini yaratadi.

Interioretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari inte-
rioretseptiya bilan birgalikda K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiy-
lar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bu narsalarning barchasi
shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan hol-
da sharhlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va
gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab
turadi. Ular inson harakatining regulyatorini va afferent aso-
sini tashkil qiladilar.

Periferik retseptorlar muskullarda, paylarda va bo'g'imlarda
joylashgan bo'lib, maxsus tanachalari shakliga egadir. Mazkur
tanachalar Puchhini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullari-
ning taranglashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zga-
rishida, nerv tolalari (iplari) yordamida orqa miyaning
orqa ustunidagi (stolbasidagi) oq suyuqliklarga yetkaziladi.
Qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga
yetib keladi va undan po'stosti tugunlaridan o'tib, bosh miya
katta yarim sharining qorong'ilashgan zonasida o'z harakati-
ni yakunlaydi.

Proprioretseptorlar harakatining afferent asosi ekanli-
gi A.A.Orbeli, P.K.Anoxin (hayvonlarda), N.A.Bernshteyn
(odamlarda) tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirligi statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, o'zaro bir-biriga perpendikular bo'shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

a) o'zgarish endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'alish; b) eshitish nervi; d) vestibulyator nerv; e) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi; f) miya apparatiga o'tadi.

Vestibulyator sezgirlik apparati qurish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni orientirlash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi.

Ekstrotseptiv sezgilar moddalikdan (5 tadan) tashqari intermodal nospetsifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi (a'zosi) orqali soniyasiga 10–15 tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash – vibratsiya sezgirlik deyiladi. Masalan, karlarning tovushlarni idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilar. Odatda, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

a) hid, ta'm va maza sezgilarida; b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda; d) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holatida kabilar.

Sezgining nospetsifik shakli – terining foto sezgirligi ranglarning nozik jilolarini ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N. Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyot qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallarining og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib borilganda, insonni

faol mo'ljallash (orientirlash) jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tushadigan rang nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

18.3. Sezgi turlarining psixologik tavsifi

Psixologiya fanida uchta katta guruh (turkum)ga ajratilgan sezgilar (ekstretseptiv, proprioretseptiv, interioresetseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

► ko'rish sezgilari; eshitish sezgilari; hid bilish sezgilari; ta'm bilish sezgilari; teri sezgilari; muskul-harakat (kinestetik); statik sezgilar;

► organik sezgilar; ko'rish sezgilari.

Inson tomonidan rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilari tarkibiga kirib, seziladigan ranglar esa xromatik va axromatik turlarga bo'linadi.

Psixofiziologik qonuniyatga binoan yorug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib singanda hosil bo'ladigan ranglar xromatik ranglar deb atalib, ular kamalak ranglar hisoblanadi va tarkibiga qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Biroq mazkur ranglarning turlari, ko'rinishlari tabiatda xilma-xil va nihoyatda ko'pdir. Odatda, oq rang, qora rang, kul rang va ularning turlicha ko'rinishlari axromatik ranglar deb nomlanadi.

Ko'rish sezgilarining organi – ko'z hisoblanib, u ko'z soqqasi va undan chiqib keladigan ko'ruv nervlaridan tashkil topgandir. Ko'z soqqasini tashqi tomirlari va to'r pardalari o'rab turadi. Tashqi pardaning tiniq bo'lmagan oq qismi sklera yoki qotgan, qattiq parda deb nomlanadi, uning old tomoniga joylashgan bir muncha qavariq qismi tiniq muguz parda bo'lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan, uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko'z ko'k, qora, sariq jilo beradi va ularni biz ko'k ko'z, qo'y ko'z, qora ko'z va hokazo deb ataymiz. Rangdor pardaning o'rta qismida yumaloq teshik mavjud bo'lib, biz uni qorachiq deb ataymiz. Xuddi shu teshik orqali ko'z ichiga yorug'lik nurlari kiradi. Kelayotgan, tushayotgan, ajrayotgan yorug'likning ozligi

yoki ko'pligiga qarab, qorachiq kengayishi yoki torayishi jaryonlari hukm suradi.

Ko'zlarning uchinchi pardasi to'r parda deb nomlanib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism ko'z gavhari joylashgan bo'ladi, yorug'lik nurlari unda to'planib, so'ng sinadi va to'r pardaga narsa yoki jismning aksi, surati tushadi. Halqa shakldagi kipriksimon muskulning uzayishi yoki qisqarishi tufayli gavhar yo yassilanadi yoki qavariq holiga keladi (jism ko'zdan uzoqlashtirilganda gavhar yassilanadi, ko'zga yaqinlashtirilganda esa u shar shakliga kiradi). Ko'z gavharining mazkur xosiyati tufayli xoh uzoqda, xoh yaqinda bo'lmasin, narsalarning aksi gavhardan o'tib, so'ng to'r pardasiga tushaveradi.

Ko'z soqqasining gavhar bilan to'r parda o'rtasidagi butun ichki yuza shishasimon jismi deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo'ladi. To'r parda rang va yorug'likni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning chekkada uchlarida tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik (kunduzgi) ranglar ko'riladi, xolos. Tayoqchalar yorug'likni yaxshi sezuvchan bo'lib, xira va qorong'i paytlarda o'z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi.

To'r pardaning eng sezgir joyi sariq dog'ning asosan kolbachalar bilan to'lgan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko'ramiz. Obyektga tik qarash natijasida ko'z muskullari unga qaratiladi va aks ettiriluvchining surati sariq dog'ga tushadi, bunday tarzdagi ko'rish to'g'ridan ko'rish deyiladi. Agarda narsalarning surati sariq dog'dan tashqarida, ya'ni to'r pardaning bir joyida bo'lsa rang va yorug'likni sezadigan tayoqchalar va kolbachalar mavjud emas, bu ko'ruv nervining ko'z soq-

qasidan chiqish joyi bo'lib, u yorug'likdan ta'sirlanmaganligi uchun ko'r dog' deb ataladi.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, musiqaviy va shovqinli tovushlarni aks ettiradi. Odatda, tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonlar, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topadi. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanadi va tovushning balandligini, kuchini belgilaydi, boshqalari qo'shiluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deyiladi. Musiqa asboblari-dan taralayotgan tovushlarning o'ziga xosligi fan tilida tembr deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqinlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo'ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloq (quloq supراسi bilan eshituv yo'lidan iborat), o'rta quloq (nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha, sandon va uzangidan tashkil topgan), ichki quloq (quloq labirinti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan tuzilgan). Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog'ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to'lqinlarini ichki quloqqa uzatadi. O'rta quloq maxsus yo'l orqali og'iz va burun bo'shlig'i bilan tutashgan bo'ladi. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim doira kanaldan, o'rta qismi kameradan va pastki qismi chig'anoqdan tashkil topgandir.

Ichki quloqning uchala bo'limi endolimfa nomli maxsus suyuqlikdan iboratdir. Ichki quloqning asosiy qismi chig'anoqdan iborat bo'lib, uning ichida Kortiy organi mavjud, u gumbaz shakliga ega, asosida esa membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo'lib, ular tarang tortilgan turlarga o'xshaydi, uning yuqori qismida maxsus tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular Kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qillari bor maxsus hujayralar yordamida Kortiy dugalari orqali miya katta yarim sharlari po'stining bo'lagiga joylashgandir.

Eshitish sezgilarining fizik sabablari. Havo to'liqlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo'ladi. Agarda musiqaviy tovushlar havo to'liqlarining tekis, ritmik harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinlar, tovushlar esa ularning notekis harakatlaridan tug'iladi.

Hid bilish sezgilari. Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kovagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan, ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi (ularning barchasi bug'lanadi va eriydi). Odatda, gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun kovagiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo'ladi.

Ta'm bilish (maza) sezgilari. Ta'm bilish sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ular muayyan turkumga kiritilgan va kiritilmagan xilma-xil turlarga ega bo'lib, narsalarning, moddalarning nomlari bilan yuritiladi: nonning mazasi, qovunning mazasi kabilar.

Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgandir. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida tayoqsimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kurtaqlari» («so'g'onlari»)ga ega. O'ziga xos xususiyatlari, sifatlari bilan tafovutlanuvchi ta'm bilish so'g'onlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun uning orqa qismi achchiq mazani, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani aniq sezadi, lekin uning o'rtasi bo'lsa ta'm mazasini aks ettira olmaydi. Ta'm bilish so'g'onlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchan nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlari hid bilish markazlariga yaqin joydadir.

Ta'm bilish sezgilari moddalarning kimyoviy xossalari ta'sirida hosil bo'ladi va so'g'onlar erigan moddalar ta'siri ostida qo'zg'aladi.

Hid va ta'm bilish sezgilari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, kimyoviy moddalarning ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi. Ammo ularning bittasi kontakt, ikkinchisi distant sezgilar toifasiga kiradi.

Teri sezgilari. Teri sezgilari tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili — bu retseptorlarning teri va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning birinchisi tegish va tarqalishni tuyish, ikkinchisi esa silliq yoki g'adir-budurni tuyish bilan tavsiflanadi. Odatda, tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'alish kuchayganda siqiqni sezishga aylanadi, u yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanadi.

Tuyish sezgilari organi — teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyish tanachalari deb nomlanuvchi tanachalardan iboratdir. Tanachalarning ichida, qisman tashqarisida (epitelyda) tuyish nervining chekka tarmoqlari mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan. Ular barmoqlarning uchlarida, til uchida, labda zich joylashgan, xuddi shu boisdan sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir. Qaysi yerda tanachalar siyrak bo'lsa, demak, u joylarda sezish ko'rsatkichi shunchalik pastdir.

Psixologiyada tuyish tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari zichligi estizimetr asbobi yordami bilan o'lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkuldan tashkil topgan bo'lib, uning o'zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o'rtasidagi masofani o'lchaydi.

Tuyishning aniqlik darajalari: a) barmoq uchlarida 1 mm — 2 mm gacha; b) qo'l kaftida 10 mm; d) orqada 60—70 mm masofa bir yo'la ikki oyoqcha tegayotganligini sezish mumkin (masofa kamaysa, sezgirlik pasayadi).

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida joylashgan deb taxmin qilinadi.

Tuyish sezgilarining tashqi, ya'ni fizik sababi — bu biron-bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

Harorat sezgilari issiq yoki sovuqni sezish bilan tavsiflanadi. Maxsus tanachalarning ichida issiqni yoki sovuqni sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari joylashgan bo'ladi.

Ularning tashqi sababi — biron-bir haroratga ega bo'lgan qattiq, suyuq va gazsimon jismlarning tanaga tegib turishi-dir. Issiqni yoki sovuqni farqlash qo'zg'atuvchi harorati bilan badan harorati o'rtasidagi nisbat bilan belgilanadi. Masalan, qo'zg'atuvchining harorati badan haroratidan past bo'lsa sovuqni, agarda yuqori bo'lsa issiqni sezamiz, his qilamiz.

Farqlash: jismlarning issiq o'tkazuvchanligi: temir va yung.

Harorat sezgilari: a) tashqi qo'zg'atuvchilar, b) organizm ichida: qo'rqish — qon tomiri torayadi, uyalish — qon tomiri kengayadi.

Muskul-harakat sezgilari va statik sezgilar. Muskul-harakat sezgilari motor sezgilari, goho kinestetik sezgilar deb nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari — gavda muskullari, pay-lar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul-harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

Statik sezgilari gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilar deb ataladi.

Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat retseptor vazifasini bajaradi. **Vestibulyar** apparat quloq dahlizi va yarim doira kanallardan tashkil topgan bo'ladi, sezuvchi nerv tarmoq-dari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda otolitlar alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallardan tashkil topgandir.

Organik sezgilar. Organik sezgilarining retseptorlari ichki organlarda: qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda joylashgan bo'ladi.

Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar retseptorlari-ning qo'zg'atuvchilaridir. Ular quyidagilardan iboratdir:

a) og'riq sezgilari; b) xush tuyg'ular; d) noxush tuyg'ular.

18.4. Sezgining xususiyatlari va tavsifi

Sezgilar o'zlariga adekvat (mos) bo'lgan qo'zg'atuvchilarni aks ettirish shakllaridan biri hisoblanmish bilish jarayonlaridir. Ko'rish sezgisining adekvat qo'zg'atuvchisi havo to'liqini uzunligi 380 dan 770 millimikron diapazondagi elektromagnit nurlanishidan iboratdir. Bu elektromagnit nurlanishlar ko'rish analizatorlarida ko'rish sezgisini vujudga keltiruvchi nerv (asab) jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'liqlari ta'sirining retseptorlarda aks etishidir. Taktil sezgilari mexanik qo'zg'atuvchilarning teri yuzasida ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Karlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tebranishni aks ettirish sezgilari narsalarning tebranishlarini in'ikos qilish orqali yuzaga keladi. Boshqa turdagi sezgilar ham o'zlarining maxsus qo'zg'atuvchilariga egadirlar. Lekin sezgilarning turli ko'rinishlari faqat o'zlarining maxsusligi bilangina emas, balki ular uchun umumiy xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi. Sezgilarning ana shu xususiyatlariga sifatlari, jadalligi, davomiyligi va fazoviy lokalizatsiyasi kiradi.

Sifat mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi chegarasini o'zgartiradi. Masalan, eshitish sezgilari tovushning balandligi, tembri, qattiqligi bilan tafovutlanadi, ko'rish sezgilari esa ranglarning quyugligi, jilosi, tovlanishi, toni va boshqa shu kabilar bilan farqlanadi. Sezgilarning sifat jihatidan ko'p turliliigi materiya harakati shakllarining turli-tumanlilikini aks ettirishidir.

Sezgilarning jadalligi ularning miqdoriy tavsifidan iborat bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va retseptorning funksional holati bilan belgilanadi.

Sezgilarning davomiyligi ularning vaqtinchalik tasniflanishidan iboratdir. Sezgilarning davomiyligi ham sezgi a'zolari-

ning funksional holati bilan, shuningdek, qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti hamda jadalligi bilan o'lchanadi.

Qo'zg'atuvchi sezgi asosida ta'sir qilishi bilan darhol sezgi hosil bo'lmaydi, balki u bir qancha daqiqadan keyin vujudga keladi. Ana shu qisqa vaqt sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri sezgi turlari uchun har xil fursatda kechadi. Masalan, taktil sezgilari uchun latent davri 130 millisoniya, og'riq sezgilari uchun esa 370 millisoniyaga to'g'ri keladi, maza-ta'm sezgisi esa til yuzasiga ta'sir etilgandan so'ng 50 millisoniyagacha vaqt oralig'ida hosil bo'ladi.

Qo'zg'atuvchi ta'sir qila boshlashi bilan bir davrda hosil bo'lmaganidek, qo'zg'atuvchining ta'siri to'xtashi bilan bir vaqtning o'zida sezgi yo'qolmaydi. Vaholanki, sezgilarning inersiyasi (sezgilarning saqlanishi) ta'siridan keyingi hodisasi, deb ataladigan narsada namoyon bo'ladi.

Ko'rish sezgisi ba'zi bir inersiyaga ega bo'lib, ko'rish sezgisining ta'siri to'xtashi bilan darhol yo'qolib ketmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sirining izi ketma-ket keluvchi obrazlar deb ataladigan hodisa sifatida saqlanib qoladi. Psixologiyada ko'zning to'r pardasida rangni sezadigan uch xil xususiyatli element bor deb taxmin qilinadi. Qo'zg'alish jarayoni hosil bo'lganda, ular toliqadilar va sezgirliklari ancha kamayadi. Qizil rangga qarab turganimizda ko'z to'r pardasidagi qizil rangni qabul qiluvchi element boshqalarga nisbatan ortiqroq toliqadi, shuning uchun ko'z to'r pardasining xuddi shu joyiga qizil rangdan so'ng oq rang ta'sir etadigan bo'lsa, qolgan ikkita qabul qiluvchi element ortiqroq sezgirlikka ega bo'ladi va biz ko'z qarshimizda ko'kish yashil rangni ko'ramiz.

Eshitish sezgilari ham ketma-ket obrazlarga ega bo'lishi mumkin. Chunki quloqni bitiradigan qattiq ovoz yoki tovush bilan birga yuzaga keladigan noxush sezgi, ya'ni bu «quloq»ning shang'illashidir. Eshitish analizatoriga bir necha soniya davomida ta'sir etadigan bir qator qisqa tovush impulslaridan so'ng ular tutash holda yoki biroz pasaytirilgan tarzda idrok qilina boshlaydi. Agar bu tovushlarning ta'sirini modellashtirish mumkin bo'lganda edi, ana shunday hodisani kuzatish imko-

ni yuzaga kelardi. Bu hodisa tovush impulsining ta'siri to'xtaganidan keyin uchraydi hamda tovushning impulsi jadalligi va davomiyligiga bog'liq ravishda bir necha soniya mobaynida davom etishi mumkin.

Boshqa analizatorlarda ham xuddi shunga o'xshash hodisalarni kuzatish mumkin. Masalan, harorat, og'riq va maza sezgilari ham qo'zg'atuvchining ta'siri to'xtagandan so'ng bir necha muddat oralig'ida davom etaveradi.

Sezgilari uchun qo'zg'atuvchining fazoviy lokalizatsiyasi, qo'zg'atuvchining fazoda o'rin egallashi bilan tavsiflanadi. Distant, ya'ni masofa retseptori tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy analiz bizga qo'zg'atuvchining fazodagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Kontakt sezgilari: taktil, og'riq, maza badanning qo'zg'atuvchi ta'sir qilayotgan joyi bilan bog'liqdir. Bunda og'riq sezgilarining lokalizatsiyasi, ya'ni badanda joylashgan o'rni, taktil sezgilarga qaraganda badanga anchagina tarqalgan, lekin unchalik aniqlik darajasiga ega emas. Bu holatni yaqqol namoyish qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni keltiramiz: 1 kvadrat mm teriga nisbatan barmoqlar 120, panja 14, kafi 15, ko'krak 29, peshana 50, burun uchi 100 va hokazo.

Lokalizatsiya (mahalliy cheklanganlik) psixik funksiyalarning bosh miya katta yarim sharlari qobig'idagi muayyan hujayralarning ishi bilan bog'lanishidir. Masalan, ko'ruv analizatorining ishi asosan miya qobig'ining ensa qismining faoliyati bilan bog'langan, eshitish analizatorining ishi esa chakka bo'laklari bilan, teri-tuyush hamda harakat analizatorlari bo'lsa tepa va ensa bo'laklari bilan bog'langandir.

Sezgilarning quyi chegarasi mazkur analizatorlarning mutlaq (absolut) sezgirligi darajasini aniqlaydi. Mutlaq (absolut) sezgirlik bilan sezgi chegaralarining me'yori o'rtasida teskari mutanosiblik (proporsionallik) mavjud; sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorlarning sezgiligi shunchalik yuksak bo'ladi.

Analizatorlar sezgilarning yuqori chegarasiga ham egadirlar. Ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchiga nisbatan tag'in adekvat, ya'ni aynan sezgini hosil qila oladigan qo'zg'atuvchining yuqori

mutlaq (absolut) chegarasi deyiladi. Retseptorlarga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi bundan keyin ham ortib borishi retseptorlarda faqat og'riq sezgisini yuzaga keltiradi.

Mutlaq (absolut) chegaraning me'yor sharoitga qarab o'zgaradi: inson faoliyatining xususiyatlariga, uning yoshiga, retseptorlarning funksional holatiga, qo'zg'atuvchining kuchi hamda davomiyligiga va hokazoga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Veber tadqiqotiga asoslanib Fexner sezgilar intensivligining qo'zg'atuvchi kuchiga bog'liqligini quyidagi formula bilan ifodalab bergan:

5 K I&I S, bu yerda, 5 – sezgi intensivligi, – qo'zg'atuvchining kuchi, K va S konstantalardir. Ushbu qonun, asosiy psixofizik qonunga muvofiq, sezgilarning intensivligi qo'zg'atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. *Qo'zg'atuvchining kuchi geometrik progressiya bo'yicha ortib borsa, sezgilarning intensivligi arifmetik progressiya bilan ortib boradi (Veber-Fexner qonuni).*

Farq ajratish sezgirligi ham farqlash chegarasining me'yoriga teskari proporsionaldir; farq ayirma sezgirligi shunchalik kichik bo'ladi.

Ayirma sezgirligi sezgirlik turlarining ayrim xususiyatlarini boshqa jihatdan tavsiflash uchun ham qo'llaniladi. Masalan, shakllarni, hajmlarni ko'rish vositasida idrok qilinadigan narsalarning ranglarini aks ettirish haqida mulohaza yuritish mumkin.

Sezgilarni o'lchashning asosan ikki metodi psixologiya fanida hukm surib keladi. Ulardan biri bevosita metod deb atalib, subyektiv ravishda baholashga asoslanadi. O'lchashning ikkinchi metodi esa alomatlarini obyektiv ravishda baholashga asoslangan bo'lib, sezgilarning bilvosita (bevosita) mavjudligiga qaratilgandir.

Bevosita metod yoki qo'zg'atuvchining so'z bilan baholash metodi quyidagicha tuzilishga egadir: sinaluvchiga teri, tovush, yorug'lik ta'sir qila oladigan qo'zg'atuvchi havola qilindi, dastavval qo'zg'atuvchi minimal intensivlikka (jadallikka) ega bo'ladi, so'ng ularning kuchi orttirib boriladi. Mazkur tad-

birdan keyin sinaluvchi «u qaysi bir sezgi qo'zg'atuvchisining dastlab sezganligiga» javob berish so'raladi.

Teri sezgirligini o'lchash uchun maxsus asbob, «esteziometr» qo'llaniladi. Eshitish sezgirligini o'lchash audiometr yordamida amalga oshirilib, tovushlarning turli darajalaridagi intensivligi aniqlanadi. Ba'zan kichkina temir sharni har xil balandlikdan tashlab ko'rish orqali ham yuqoridagi maqsad amalga oshiriladi. Ko'rish sezgirligini aniqlash esa sinaluvchi ko'ziga yorug'likni turli-tuman intensivlikda yuborish orqali (goho qorong'ilikda), quyidan yuqoriga yorug'lik birligi (ya'ni lyuks) orttirib boriladi. Ta'm va hid bilish sezgirligi ham maxsus asboblarda yordamida o'lchanadi, goho kimyoviy usul ham qo'llaniladi.

Bevosita metodi obyektiv alomatlariga asoslanib ish yuritishni taqozo etadi. Sobiq sovet psixologlari, psixofiziologlari G.V.Gershuni, Ye.N.Sokolov, O.S.Vinogradov va boshqalar mazkur metod yordamida ko'p yillar mobaynida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ma'lumki, sezgilar hech mahal sust bilish jarayoni bo'lmagan, binobarin ular vegetativ, elektrofiziologik, nafas olish jarayonlari o'zgarib boradi, shuning uchun o'z tabiati bilan reflektor jarayondir. Sezgilardagi reflektor o'zgarishlar ularning obyektiv ravishda yuz berayotganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan, sezgilarni hosil qiluvchi har qanday qo'zg'atuvchi reflektor jarayonlarni ham vujudga keltirishga qodir: qon tomirlarining torayishi, teri galvanik refleksi (teri elektr qarshiligining kamayishi), miyaning elektr aktivligi chastotasining o'zgarishi (alfa, ritma, depressiya holati) qo'zg'atuvchiga qarab ko'zning yo'nalishi, bo'yin muskullarining taranglashuvi va boshqalar. Mana bu narsalarning barchasi sezgilar paydo bo'lishining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, sinaluvchiga kuchsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etilsa, ya'ni subyektga kuchsiz qo'zg'atuvchi bilan ta'sir etilsa, u holda subyektga hech qanday sezgi hosil bo'lmaydi, shuningdek, sanab o'tilgan reflektorlarda ham o'zgarish yuz bermaydi.

Qon tomir yoki elektrofiziologik reaksiyalar kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'sirida ham aniq namoyon bo'lishi mumkin, aksincha sezish jarayoni esa amalga oshmaydi. Bu holatni elektroensefalografik reaksiyalar tasdiqlaydi. Tovush qo'zg'atuvchiga kelib chiqqan holda G.V.Gershuni inson subsensor diapazonga ega degan ilmiy g'oyani olg'a suradi. Bu narsa anglashinilmagan fiziologik reaksiyalar, sezib bo'lmaz qo'zg'atuvchilarga asoslanadi.

Sezgilarning o'zgarishi adaptatsiya va sensibilizatsiya holatlarida o'z ifodasini topadi.

Sezgi organlarining sezgirligini o'zgartirish qonuniyatlarini o'zlashtirib olganligimizga asoslanib, maxsus ravishda tanlangan qo'shimcha qo'zg'atuvchilarni qo'llash yordami bilan ma'lum bir retseptorlarni sensibilizatsiyalash, ya'ni ularning sezgirligini oshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Qo'zg'atuvchining birin-ketin analizatorga ta'siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo'lishini sinesteziya deyiladi. Sinesteziya yunoncha birgalikda sezish degan ma'noni anglatib keladi. Sinesteziya hodisasini har xil turdagi sezgilarda kuzatish mumkin. Ko'rish va eshitish sinesteziyasi hammadan ko'ra ko'proq uchrab turadi, unda tovush qo'zg'atuvchilarining ta'siri bilan odamda ko'rish obrazlari vujudga keladi. Bunday tabiiatli sinesteziyalar har xil odamlarda o'ziga xos ravishda kechadi, lekin ular har qaysi shaxs uchun muayyan darajada doimiy bo'lishi kuzatiladi. Masalan, ayrim kompozitorlar (bastakorlar) – Rimskiy-Korsakov, Skryabin kabilar «rangni eshitish» qobiliyatiga, rassom Chorlyonis, Behzod «rangli musiqa» iste'dodiga ega bo'lganlar. Eshitish va ta'm sinesteziya hodisasi ko'pincha «o'tkir ta'm», «savlatli rang», «shirin tovush», «achehiq shamol», «bahaybat ovoz», «motamsaro osmon», «qalb o'rtar navo» singari iboralarda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Chunki ularning mohiyatida ikkilanganlik xususiyatlari maxsus kuchaytirgich tariqasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sezgirlik mashq qilish orqali rivojlantirilib boriladi. Bunday o'zgarish kompensatsiya va faoliyat mazmunida o'z aksini topa boradi. Ayniqsa, ko'r (ko'r musiqachi), kar, soqov, haykaltarosh

odamlarda, vibratsiya sezgisi bilan shug'ullanuvchilarda sezgirlik keskin ravishda oshishi mumkin. Psixolog Elen Killer hid sezgisiga nisbatan sezgirlikni maxsus ravishda tadqiq qilib, u o'ziga xos xususiyatlar mavjud ekanligini dalillab bergan.

Shunday qilib, sensibilizatsiya hodisasida sezgirlikning ortishi quyidagilarga bog'liqdir:

muayyan, uzoq muddatli organizmdagi o'zgarishlarga; muvaqqat xususiyatli ekstra ta'sir yoki favquloddagi holat va vaziyatga;

yosh xususiyatlari, tipologik sharoitlar, endokrin harakati, organizmning umumiy holati, uning toliqishiga.

Sezgirlikning o'sishi ko'p jihatdan subyekt ustanovkasiga, nutqning ahamiyatlilikiga, nutq instruksiyasiga bog'liqdir.

Sezgilarga bag'ishlangan eksperimental tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilganligini sanab o'tish maqsadga muvofiq:

Veber va Fexnerlarning «psixofiziologik qonuni»ning ochilishi. G.Ebbingauzning xotira yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlari negizi.

G.Gelmgoltsning sezgi organlari to'g'risidagi psixofiziologik ishlari va ishlamalari.

V.Vundtning psixofiziologiyadagi sezgilar va harakatlar bo'yicha olib borgan izlanishlari.

P.P.Lazerov tomonidan yorug'lik toni muammosining o'rganilishi.

E.N.Sokolov, S.V.Kravkov kabi tadqiqotchilar o'tkazgan tajribalar va olingan qonuniyatlarning talqini.

Sezgilar uchun yana bir muhim xususiyat bu adaptatsiya jarayonidir.

Adaptatsiya — sezgi organlari, ya'ni a'zolari (analizatorlar) ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishidan iboratdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirotda o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sirot kuchayganda esa sezgirlik kamayib boradi (ko'ruv, eshituv, hid bilish, teri-tuyush va hokazo).

Odatda, genetik nuqtayi nazardan adaptatsiya uch xil xususiyatli negiz (manba) ta'sirida vujudga keladi.

1. Qo'zg'atuvchilarning davomli ta'siri jarayonida sezgilarining to'la yo'qolishi tarzidagi adaptatsiya. Doimiy ta'sir qilib turadigan qo'zg'atuvchi ta'sir o'tkazadigan bo'lsa, bunday holatda sezgi so'nib qoladi. Masalan, teriga tegib turadigan yengilgina bir yuk tez orada sezilmay qoladi. Yoqimsiz hidli bir joyga kirib qolganimizda birozdan so'ng bu hidni batamom yo'qolib ketganday his qilamiz. Og'izda biron-bir narsa ushlab turiladigan bo'lsa ta'm sezgisining intensivligi bo'shashadi.

Doimiy va harakatsiz qo'zg'atuvchining ta'siriga nisbatan ko'rish analizatorlarida to'la adaptatsiya hodisasini shu bilan tushuntirib berish mumkin. Bunday holatda qo'zg'atuvchining harakatsizligini ko'rish retseptorlari apparatining harakatchanligi bosib yuboradi. Ko'zning har doim ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda harakatlanib turishi ko'rish sezgisining uzluksizligini ta'minlaydi. Qo'zg'atuvchi ta'siridan 2–3 soniya o'tgach, ko'rish sezgisi yo'qoladi, ya'ni adaptatsiya hodisasi yuzaga keladi.

2. Kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida ham sezgilar zaiflashadi. Masalan, qo'lni muzdek suvga tutib turgan paytda, sovuq qo'zg'atuvchi ta'siri bilan yuzaga kelgan sezgining intensivligi pasayadi. Qorong'iroq xonadan juda yorug' joyga kirib qolsak, biz avval boshqa yorug'likdan «ko'r» bo'lib qolib, atrofirmizdagi narsalarni ajrata olmaymiz. Ma'lum fursat o'tgandan so'ng ko'rish analizatorlarining sezgirliги keskin sur'atda pasayadi va biz mo'tadil ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ko'rish sezgirligining intensiv yorug'lik qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir qilganda pasayishdan iborat hodisani yorug'lik adaptatsiyasi deb yuritiladi.

Ko'rib o'tilgan ikki turdagi adaptatsiyani ko'pincha psixologiya fanida negativ adaptatsiya deb ataladi. Chunki har ikkala adaptatsiya natijasida ham analizatorlarning sezgirliги keskin pasayadi.

3. Sezgirlikni, kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sodir bo'ladigan, ortib borishini ham adaptatsiya deb atash an'anaga ay-

lanib qolgan. Aksariyat sezgi turlariga xos bo'lgan adaptatsiyaning mazkur turi pozitiv adaptatsiya deyiladi.

Qorong'ilik adaptatsiyasida ko'rish sezgirligi ortadi. Sokinlikka nisbatan adaptatsiya eshitish adaptatsiyasi zamirida yuzaga keladi. Masalan, sovuq suvda (sovuq yegan) qo'l — bir harorat — issiqday; issiq suvda qo'l sovuq suvda o'zgarmaganday tuyuladi. Harorat sezish bilan bog'liq bo'lgan pozitiv adaptatsiyalar yuqoridagi xususiyatlarga ega.

Tibbiyot psixologiyasida negativ og'riq adaptatsiyasining mavjudligi to'g'risidagi gipoteza (ukolga, ignaga, issiq nurlanishga nisbatan) ham hukm surishi ta'kidlanib o'tildi.

Adaptatsiyani hosil bo'lish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot: a) taktil (teri) adaptatsiya juda tez hosil bo'ladi; b) ko'z adaptatsiyasi bir necha daqiqa; d) hid va ta'm adaptatsiyalari undan ham uzunroq vaqt talab qiladi.

Adaptatsiyaning ahamiyati shundan ibratki, u kuchsiz qo'zg'alishni payqashga yordam beradi, kuchli qo'zg'alishdan sezgi organini saqlaydi.

Adaptatsiyani tushuntirib berish: 1) tayoqsimon hujayralarga joylashgan ko'rish purpuri aynib ketadi; kimyoviy modda borligi ilmiy jihatdan isbotlanmagan; 2) miyaning po'stloq qismi sezgirlikni pasaytiradigan «mulohazalovchi» tormozlanish. Tormozlanish — boshqa joylarda qo'zg'alishni kuchaytiradi — sezgirlik ortadi, izchil o'zaro induksiya hodisasi ro'y beradi.

Analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi sensibilizatsiya deb ataladi. Sezgililar o'zaro munosabatining fiziologik mexanizmi analizatorlarning markaziy qismlari joylashgan bosh miya po'stidagi qo'zg'alishning irradiatsiya hamda konsentratsiya jarayonlaridir. I.P.Pavlovning ta'limotiga ko'ra, kuchsiz qo'zg'atuvchi bosh miya katta yarim sharlarining po'stida oson irradiatsiyalanadigan, ya'ni oson yoyilib ketadigan qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradi. Qo'zg'alish jarayonining irradiatsiyasi natijasida boshqa analizatorlarning sezgirligi ortadi. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'sir etganda, aksincha, konsentratsiyaga moyil bo'lgan qo'zg'alish jarayoni yuzaga keladi. O'zaro

induksiya qonuniga ko'ra, bunday qo'zg'alish jarayoni boshqa analizatorlarning markaziy qismlarini tormozlanishga olib keladi va natijada ularning sezgirligi pasayadi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv — sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir.

Bu hodisaning uch xil turini alohida ko'rsatish mumkin:

Qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi. Doimiy qo'zg'atuvchilar ta'sir qilgan taqdirda sezgi yo'qolib qolish xususiyatiga ega. Masalan, terining ustiga qo'yilgan yengilgina yuk tezda sezilmaydigan bo'lib qoladi. Hid bilish sezgilari atrof-muhitga yoqimsiz hid yoyilganidan keyin ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi ham oddiy bir hodisadir. Agar tegishli moddani og'izda biroz vaqt saqlab turiladigan bo'lsa, ta'm bilish sezgisining jadalligi susaya boshlaydi va pirovardida sezgi umuman yo'qolib ketishi mumkin.

Doimiy va harakatsiz qo'zg'atuvchi ta'sir qilib turgan taqdirda ko'rish analizatorining to'la ko'nikishi yuz bermaydi. Bu qo'zg'atuvchining harakatsizligi retseptor apparatining o'zi harakatlanishi hisobiga ko'rinishi bilan izohlanadi. Ko'zlarning doimiy ravishda ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakat qilishi ko'rish sezgisining surunkaliligini ta'min etadi.

Ta'sirning ko'zlar to'rpardasi-ga nisbatan barqarorlashuvi

1. Sharoitlari sun'iy ravishda hosil qilingan eksperimentlar bunday sharoit yaratilgandan keyin 2-3 soniya vaqt o'tishi bilan oq ko'rish sezgisi yo'qolib qolishini, ya'ni to'la ko'nikish yuzaga kelishini ko'rsatdi.

2. Adaptatsiya deb, shuningdek, yuqorida bayon etilgan hodisalarga yaqinroq bo'lgan, kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadigan yana bitta hodisaga aytiladi. Masalan, sovuq qo'zg'atuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo'lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorong'i xonadan yorqin yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko'zlarimiz qamashadi va tevarak-atrofdagi biron-bir narsaning farqiga yeta olmaydigan bo'lib qolamiz. Birmuncha

vaqt o'tgandan keyin esa ko'rish analizatorining sezuvchanligi keskin susayib, biz odatdagidek ko'ra boshlaymiz. Yorug'likni jadal qo'zg'atish natijasida ko'zning sezuvchanligi susayib ketishi yorug'lik adaptatsiyasi deb ataladi.

Adaptatsiyaning bayon qilib o'tilgan bu ikkita turini negatív adaptatsiya atamasi bilan birlashtirish mumkin, negaki, buning oqibatida analizatorlarning sezuvchanligi susayib ketadi.

3. Nihoyat, kuchsiz qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb aytiladi. Ayrim sezgi turlariga xos bo'lgan adaptatsiyaning bu turini pozitiv adaptatsiya deb ta'riflash mumkin.

Ko'rish analizatoriga tatbiqan buni qorong'ilik adaptatsiyasi deyiladi. Bunda qorong'ilikda uzoq vaqt bo'lganlik ta'siri ostida ko'zning sezuvchanligi ortadi, eshitish ko'nikmasining shunga o'xshaydigan shakli sokinlik adaptatsiyasi hisoblanadi. Harorat sezgilarida pozitiv adaptatsiya oldiniga bir xil haroratdagi suvga solinganida sovitilgan qo'l issiqlikni va, aksincha, oldiniga isitilgan qo'l esa sovuqni sezgan paytda ma'lum bo'ladi. Og'riqni nisbatan negatív adaptatsiyaning mavjudligi masalasi uzoq vaqtgacha munozarali bo'lib keldi. Ma'lumki, og'riq qo'zg'atuvchisining ko'p martalab qo'llanilishi negatív adaptatsiyaga olib kelmasdan, aksincha vaqt o'tishi bilan borgan sari kuchliroq ta'sir qiladi. Lekin yangi faktlar ignaning sanchilishiga va jadal tarzda isitish nuri o'tkazilishiga to'la negatív adaptatsiya mavjudligidan dalolat beradi.

Sensibilizatsiya. Analizatorlar o'zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi sensibilizatsiya deb ataladi.

Analizatorlarning markaziy bo'lmalari joylashgan bosh miya qobig'ida qo'zg'alishning irradiatsiyalashuvi (tarqalishi) va konsentratsiyalashuvi (ko'rinishi) jarayonlari sezgilar o'zaro munosabatining fiziologik mexanizmi bo'lib hisoblanadi. I.P.Pavlovning fikricha, kuchsiz qo'zg'atuvchi katta yarim sharlar qobig'ida osongina tarqaladigan qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi. Qo'zg'alish jarayonining tarqalishi (irradiatsiyalashuvi) natijasida boshqa analizatorning sezuvchanligi

oshadi. Kuchli qo'zg'atuvchi ta'sir qilganda qo'zg'alishning aksincha ko'rinish xususiyatiga ega bo'lgan jarayoni yuzaga keladi. O'zaro induksiya qonuniga binoan bu markaziy bo'lmalarda boshqa analizatorlarning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib ketishiga olib keladi.

Analizatorlarning sezuvchanligi ikkinchi sezgilarga mansub qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida ham o'zgarishi mumkin. Jumladan, sinaluvchilarga eshittirib «limon kabi nordon» degan so'zlarga javoban ko'zlarning va tilning elektr sezuvchanligini o'zgartirib yuborgani kuzatiladi. Bu o'zgarishlar tilning limon suvi bilan qo'zg'atilishi paytida hosil bo'lgan o'zgarishlarga aynan o'xshash bo'lgan.

Sezgi a'zolari sezuvchanligining o'zgarishi qonuniyatlarini bilgan holda maxsus tanlangan qo'shimcha qo'zg'atuvchilarni qo'llanish yo'li bilan u yoki bu retseptorni sensibillashtirish, ya'ni uning sezuvchanligini oshirish mumkin.

Sensibillashtirishga mashq qilish natijasida ham erishish mumkin. Masalan, musiqa bilan shug'ullanadigan bolalarda past-baland ohanglarni eshitish qobiliyati qanday rivojlana borishini bilamiz.

Sinesteziya. Sezgilarning o'zaro munosabati sinesteziya deb atalmish yana bir hodisada namoyon bo'ladi.

Sinesteziya — bir analizatorning qo'zg'alishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgining hosil bo'lishidir. Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'atuvchilari ta'sir qilganda subyektda ko'rish obrazlari paydo bo'lganida ko'pincha ko'rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. Har xil odamlarda bu sinesteziyalarda muvofiqlik bo'lmaydi, lekin ular alohida har bir odam uchun aytarlicha turg'un hisoblanadi. Ayrim kompozitorlar (N.A.Rimskiy-Korsakov, A.N.Skryabin va boshqalar)da «rangni eshitish» qobiliyati bo'lganini bilamiz. Bu xildagi sinesteziyaning yorqin namunasini litvalik rassom M.K.Chyurlyonisning ijodida, uning ranglar simfoniya-sida ko'ramiz.

Keyingi paytlarda tovush obrazini rang obraziga aylantiradigan rang-musiqiy sozlarning yaratilayotganligi va rang-mu-

siqaning jadal tadqiq qilinayotganligiga sinesteziya hodisasi-ga asoslangandir. Ko'rishni qo'zg'atuvchilar ta'sir qilganda eshitish sezgilarining hosil bo'lishi, eshitish qo'zg'atuvchilariga javoban ta'm bilish sezgilarining hosil bo'lishi kabi hollar kamdan kam uchraydi. Sinesteziya juda keng tarqalgan bo'lsa-da, u hamma odamlarda ham uchrayvermaydi. «O'tkir hid», «antiqa rang», «shirin tovush» va shu kabi iboralarni ishlatish mumkinligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Sinesteziya hodisalari kishi organizmidagi analizator tizimlari o'zaro doimiy bog'langanligidan, obyektiv olamni hissiy aks ettirishning yaxlitligidan yana bir dalolatdir.

Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi

18.5. Psixologiya fanida sezgi nazariyalari

Tashqi olam xususiyatlari to'g'risidagi va shaxsning o'z gavasini tuta bilish yuzasidan bilimlar, ma'lumotlar, xabarlar va taassurotlar manbayi bu sezgilar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun sezgilar inson organizmiga, ya'ni uning tana a'zolariga tushadigan axborotlarning asosiy kanali (yo'li) sanalib, ular tashqi dunyo hamda ichki tana a'zolari to'g'risidagi xabarni bosh miya katta yarim sharlari va bosh miyaning tarkiblariga yetkazib turadi, xuddi shu boisdan inson o'zini qurshab turgan makro muhitni orientirlash (mo'ljallash) imkoniyatiga egadir. Agarda mazkur kanallar berk bo'lib qolgan taqdirda, sezgi organlari zarur axborotlar bilan ta'minlamaydi, binobarin, ongni hukm surish imkoniyati o'z-o'zidan yo'qoladi.

Nemis faylasufi Xristian Volf «Ratsional psixologiya» (1732-yil) va «Empirik psixologiya» (1734-yil) kitoblarida: ongning ichki holati, aqliy fikr yuritishga qobiliyatlilik tabiiy moddiy asos zamiridan kelib chiqib, tashqi olamdan kelib tushadigan axborotlar shoxobchasiga, ya'ni sezgi kanaliga, hech qanday bog'liq emas deb tushuntirishga harakat qildi. Sezgilarga mana bunday yondashish nazariyotchisi «fanga ratsionalizm» tushunchasi bilan birga kirib keldi. X.Volf va uning tarafdorlari

psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira va boshqalar) murakkab ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli emas, degan g'oyani ilgari surdilar. Shuning bilan birga «Ong», «Aql» tarixiy evolutsiya natijasi emas deb, inson psixikasiga o'zgacha yondashib, uni izohlab berish mushkul bo'lgan «birlamchi» xususiyat ekanligini tushuntirishga intildilar.

Mazkur nazariyaga asoslangan psixologlar insonning sezgilari uning tashqi olam bilan bog'lab turuvchi birdan-bir shoxobcha ekanligini inkor qilishgacha borib yetdilar va voqelikni mana bunday tarzda izohlashga harakat qildilar: go'yoki sezgilar insonni tashqi olamdan ajratib turadilar, ular atrof-muhit o'rtasidagi bartaraf qilib bo'lmaydigan devor hisoblanadilar. Berkli, Yum, I.Myuller, Gelmgolts singari olimlar sezgi organlarining «spetsifik energiyasi» nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu g'oyaning asoschisi sifatida Iogann Myuller qat'iy pozitsiyada turib, uni butun vujudi bilan himoya qilishga intildi. Ushbu nazariyaga binoan, har qaysi sezgi a'zosi xoh quloq, xoh til, xoh teri bo'lishidan qat'i nazar, tashqi dunyoning ta'sirini aks ettirmaydi, atrof-muhitda bo'lib turgan real, yaqqol jarayonlar yuzasidan axborotlar berishga qobil emas, faqat u tashqi ta'sirdan shaxsiy jarayonlarning qo'zg'atuvchisidan turki oladi, xolos. Mazkur nazariyaga ko'ra, **har bir sezgi a'zolari o'zining «spetsifik energiyasi»ga ega, har qanday ta'sirdan qo'zg'aladi.** Masalan, ko'zni bosib, unga elektr toki bilan ta'sir qilib ko'rilsa, unda yorug'lik sezgisi hosil qilinadi; quloqqa elektr qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir o'tkazilsa, u holda tovush sezgisi vujudga keladi. Binobarin, sezgi a'zolari tashqi ta'sirni aks ettirmaydi, balki ulardan, ya'ni ularning ta'siridan qo'zg'aladi, xolos. Inson hech qachon tashqi voqea, yaqqol dunyoning obyektiv ta'sirlarni idrok qilmaydi, balki sezgi a'zolari faoliyatida o'zlarining shaxsiy subyektiv holatlarini aks ettiradi.

18.6. Sezgilarning retseptor va reflektor nazariyalari

Sezgilarning retseptor nazariyasiga ko'ra, retseptor yoki sezgi a'zolari ularga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchilarga nisbatan sust (passiv) javob qaytaradi, sezgilar harakatga qarama-qar-

shi turuvchi sust jarayondir, harakatning o'zi esa aksincha faol (aktiv)dir.

Hozirgi davrda sezgilarning retseptor nazariyasi mutlaqo sezgi jarayonining fiziologik mexanizmini ochib berishga yaroqsiz ekanligini qator tadqiqotchilar tomonidan ishonchli omillarga suyangan holda ta'kidlab o'tilgandir.

Sezgi jarayonining faol (aktiv)ligini tan oluvchi nazariya sezgilarning reflektor nazariyasi deb ataladi. Ushbu fikrni asoslash uchun misollarga murojaat etaylik va hayvonot olamida aks ettirishni tahlil qilib ko'raylik. Hayvonlar va jonivorlarning sezgilari sust (passiv) xususiyatga emas, balki tashqi olam ta'sirining biologik ahamiyatga molik jihatlarini faol (aktiv) ravishda ajratgan holda xatti-harakatni amalga oshiradilar. Masalan, bolari (asalari) bir xil turkumdagi gullarga nisbatan aralash holdagi gullarga faol (aktiv)roq javob reaksiyasini bildiradi; qirg'iy irish-chirish hidlariga, undan ko'ra suvo'tlarining ildizlari hidiga chaqqon harakat qiladi. Mushuk sichqonning qitirlashiga e'tiborini kuchaytiradi, lekin xuddi shunga o'xshash kamerton tovushini keltirsak, aslo unga parvo ham qilib bo'lmaydi.

Bu omillar shuni ko'rsatib turibdiki, birinchidan, sezgilar faollik (aktivlik) xususiyatiga ega, ikkinchidan, ularning vujudga kelishida harakat tarkiblari ishtirok etadi. AQSHlik psixolog Neffning ta'kidlashicha, mikroskop ostiga olib teriga igna sanchilsa, xuddi shu uchastkada (maydonda) reflektor harakat reaksiyalari kuzatilgan; tomirning qisilishi, teri galvanik refleksi (KGR), goho ko'z harakati, bo'yin muskullarining taranglashuvi, qo'lning harakat reaksiyasi sodir bo'lishi mumkin.

I.M.Sechenovning fikriga ko'ra, jismni ko'z bilan idrok qilish uchun ko'z o'sha narsani «qidirsin», faqat shundagina maqsadga muvofiq harakat yuzaga chiqqan bo'ladi. Hozirgi davrda psixologiya fanida ko'z harakatlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular makro va mikro, ixtiyoriy hamda ixtiyorsiz ko'rinishlarga ajratiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi: konvergent, divergent, gorizontal, vertikal, siklofuzion, torsion, version, vergent, sakkadik, tremor, dreyf, fli-

ki kabilar. Ko'z harakati yordami bilan fazoda o'rin almashib turgan jismlarni tanish, bilib olish va identifikatsiyalash amalga oshiriladi. Ko'z harakatlari uch juft tashqi muskul-lari, ya'ni miya bosh suyagining III, IV va VI juft nervlari orqali ro'yobga chiqadi. Ko'zning mikro va makro harakatlari sezgining mexanizm rolini bajarish imkoniyatiga ega.

18.7. Sezgining neyrofiziologik asoslari

Bilish jarayonlarni, xususan, sezgilarni o'rganishdan avval shaxs psixikasining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligini anglash, tushunish lozim. Chunki sezgilar idrok jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsa, idrok insonning hayoti tajribasi, uning xotirasi bilan bevosita bog'liqdir.

Psixologiya fanida va falsafada bilishning ikki bosqichi, ya'ni uning hissiy (sezgi, idrok, tasavvur) va aqliy (ratsional) pog'onalari mavjud ekanligi mumtoz xususiyat kasb etgandir. Aqliy bosqich xotira, tafakkur, xayol jarayonlarini qamrab olgan bo'lib, o'zining mukammalligi, yuksakligi, mahsuldorligi, ijodiyligi bilan oldingi bosqichdan keskin ajralib turadi. Biroq bugungi kunda bilish bosqichlarining miqdori, tavsifi psixologiya fani oldida turgan zarur vazifalarni bajarishga qurbi yetmaydi, ong darajalari xususiyatlariga ko'ra bilish qo'shimcha bosqichlarga nisbatan kuchli ehtiyoj sezadi. Xuddi shu bois bilishning harakatli hissiy, aqliy, ijodiy, tarixiy bosqichlarga ajratib tadqiqot qilish maqsadga muvofiqdir. Harakatli hissiy bosqich nutqqacha davrda ustuvorlik qilish bilan boshqa bilish ko'rinishlaridan keskin tafovutlanib turadi. Hissiy va aqliy bosqichlar barcha insonlarga xos bo'lib, ular ontogenezning turli davrlarida hukm surishi mumkin va aks ettirish imkoniyati boshqalarga qaraganda mahsuldor-roq, samaraliroqdir. Ijodiy-tarixiy bilish bosqichi yangilik yaratish, kashfiyot qilish, muayyan sifat o'zgarishlarini vujudga keltirish, u yoki bu xossalarni takomillashtirish bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fani ma'lumotlariga qaraganda, sezgilar biz uchun atrof-muhit to'g'risida va o'zimiz haqimizda yagona

bilish manbasi sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir informatsion kanalki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar aynan xuddi shu yo'llar orqali miya po'stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to'g'ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi.

His etish yoki sezishning filogenetik taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hayvonlarda ma'lum bir narsani sezish, his etish ularning biologik jihatdan zaruriyat, ehtiyoj ekanligiga qarab rivojlangan.

Bu holatlar ko'pgina chet el olimlari tomonidan izchil ravishda o'rganilgan o'ziga xos omillar, mexanizmlar mavjudligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, Frish asalari xatti-harakatlarini kuzatganda, u quyidagi ishni amalga oshirgan: gulga o'xshash murakkab geometrik shaklga nisbatan asalarining differensirovkasi (farqlashi) oson kechgan. Agarda shu murakkab geometrik shakl botanikaga oid bo'lmasa, u holda arida differensirovka juda qiyinlik bilan vujudga kelgan. Tadqiqotchi Botsning kuzatishicha, jonivorlar, qurt-qumursqalarga xos bo'lgan tovushlarga nisbatan xuddi shu turdagi hasharotlar befarqlik bildirmagan, mabodo tovushlar qattiq va tez sur'atda kechsa, u taqdirda ularga hech qanday e'tibor bermagan. Ushbu vaziyatni o'zicha baholagan olim biologik shartlanganlikdan kelib chiqqan, tabiiy ehtiyoj, instinkt bilan uzviy bog'langan.

Tadqiqotchi Boytendayk o'z kuzatishlarida shu narsani ta'kidlaydiki, **jumladan, itlar organik kislotalarning hidini yaxshi his etadilar, ammo ular hayvonlarning tanasini, xushbo'y gullar, o'tlar hidini esa aniq sezish, his etish imkoniyatiga ega emas ekanlar.**

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'zg'atuvchilarning biologik jihatdan aynan mosligi (adekvatligi) ularning fiziologik rivojlanishi uchun moddiy negiz, tabiiy ehtiyoj, zarurat mohiyati bilan bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, insondagi aniq sezgilarning shu darajada taraqqiy etishiga ijtimoiy muhit, jarayon muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Chunki ayrim individlarning sezuvchanligi ularning kundalik faoliyatidan kelib chiqqan hol-

da, biologik shartlangan xususiyatlar bilan jips aloqada rivojlanishi ham mumkin. Jumladan, tadqiqotchi Reussa ma'lumotiga ko'ra: tikuvchilar, bo'yoq sexida ishlovchilar qora rangning 40 (qirq) xilini bir-biridan farqlash imkoniyatiga ega ekanlar, umuman boshqa sohada faoliyat ko'rsatadigan odam darhol bunday rangning ikki turini farqlab olar ekan, xolos. Bundan tashqari, degustatorlarda ta'm bilish sezgilari juda ham aniq va yaxshi rivojlangan bo'lar ekan. Chunki sezgining o'sishi qo'zg'atuvchilarning retseptorga ta'siri natijasida yuzaga keladi, ya'ni retseptorlar rivojlanishi bilan bog'liq.

Sezgilars aks ettirishning xususiyati va retseptorlarning joylashishiga qarab, ingliz psixologi Ch.Sherrington ularni uch katta guruhga ajratadi:

1. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi hamda tananing yuza qismida retseptorlari joylashgan ekstraretseptiv sezgilars.

2. Tananing ichki a'zolarida (o'pka, yurak, jigar va hokazo) va to'qimalarida joylashgan hamda ichki tana a'zolarining holatini aks ettiruvchi retseptorlar bilan mujassamlashgan interoretseptiv sezgilars.

3. Inson gavgdasining harakati va holati haqida ma'lumot berib turuvchi, retseptorlari mushaklarida, paylarda proprioretseptiv sezgilars.

Psixologiya fanida harakatni sezuvchan proprioretseptiv sezgi turi **kinesteziya** deb atalib, unga tegishli retseptorlar esa kinestetik yoki kinestetik tushunchasi bilan nomlanadi. Ekstretseptorlar o'z navbatida kontakt va distant retseptorlariga ajratiladi, goho sezgilars tushunchasi «his-tuyg'u» atamasi bilan ham yuritiladi. Odatda, **distant retseptorlar** muayyan masofadagi obyektidan keladigan qo'zg'atuvchilarni qabul qilib, so'ng ularni nerv yo'llari orqali markazga uzatadi. Ko'rish, hid bilish sezgilari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ekstretseptiv, ya'ni tashqi sezgilars to'g'risidagi dastlabki ma'lumot qadimgi yunon olimi Arastu (Aristotel eramizdan oldingi 384–322-yillarda yashab, faoliyat ko'rsatgan) tomonidan tavsiflanib berilgan bo'lib, u sezgilarni ko'rish, eshitish,

hid bilish, maza, ta'm turlariga ajratgan edi. Psixologik ma'lumotlarga qaraganda, sezgilar goho o'zaro bog'lanib boshqa sezgi turlarini yuzaga keltirishi mumkin: masalan, paypaslab ko'rish natijasida sezish tarkibida taktil teri-tuyush sezgilar bilan bir qatorda sezgilarning tamoman boshqa turi, ya'ni harorat sezgisi ham kiradi. Xuddi shunga o'xshash voqelik, hodisa taktil va eshitish sezgilariga nisbatan oraliq o'rinni vibratsion sezgi egallashi mumkin.

Muvozanat sezgisi murakkab vestibulyar apparati, vestibulyar nervlarini hamda ko'z po'stosti qismlarini o'zida birlashtiradi. Turli analizatorlar uchun umumiy hisoblangan og'riq sezgilari qo'zg'atuvchilarning ta'sir kuchi haddan tashqari kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, insonning tana a'zolarida retseptorlarning joylashuv darajasi har xildir, jumladan, barmoq uchlarida retseptorlar zich, yelka qismida esa juda siyrak joylashgandir. Hozirgi zamonda sezgilar ichki va tashqi turlarga qariyb ajratilmaydi va ular harorat, og'riq, maza, vibratsion, statik, dinamik sezgilar deb yuritiladi.

S.V.Kravkov (1893–1951) ma'lumotlariga ko'ra, bir sezgi a'zosining faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o'zgaradi, tovush asosan ko'rish sezgisining yorug'lik sezuvchanligini orttiradi. Shunga o'xshash turli hidlar ham yorug'lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sir sababli miya ustuni yuqori qismi va ko'rish bo'rtiklariga tegishli o'simtalarning yaqin joylashganligi tufayli boshqasiga o'tishi osonroq amalga oshadi.

Ingliz nevrologi Xed sezgilarni protopatik va epokritik nomlar bilan ikkita darajaga bo'lgan. Protopatik sodda tuzilishga ega bo'lgani uchun unda ko'proq haqiqiy holat bilan emotsional holatni ajratib bo'lmaydi. Murakkab epokritik darajasi aqliy bosqich tarkiblari (elementlari) ishtirok etishi mumkin, jumladan, ko'rish sezgisi bunga yaqqol misoldir. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, birinchi protopatik sezgilar, keyinchalik esa epokritik sezgilar tiklanadi.

Sezgilarni obyektiv yo'nalishi bo'yicha Ye.N.Sokolov, Vinogradovlar tekshirganlar va ular passiv jarayon emasligi.

vegetativ elementlar fiziologik nafas olish tizimida o'zgarishga sabab bo'lishi tushuntirilib berilgan. Ushbu vaqt reflektor o'zgarishlarni sezgining obyektiv ko'rsatkichi sifatida ishlashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, sezgini paydo qiluvchi har bir qo'zg'atuvchi, ya'ni qo'zg'atgich, reflektor jihatdan yuzaga keluvchi jarayonlarni chaqiradi, chunonchi, tomirlarning torayishi, teri-galvanik reflektorlarning paydo bo'lishi (teri qarshiligining o'zgarishi), miyaning elektr aktivligining o'zgarishi, ko'zlarning qo'zg'atgich tomon burilishi kabilar. Bularning hammasi sezgi jarayonining paydo bo'lishidagina ishga tushadi, xuddi shu sababdan ular sezgilarning obyektiv ko'rsatkichlari tariqasida xizmat qila oladi.

Chet el psixologlari va fiziologlari sezgirlikni Mendelning qonuniyatiga asoslangan holda nasl, ya'ni irsiyat bilan bog'liq shaklda tadqiq qilganlar. Speyder ta'm bilish naslga bog'liq degan xulosa chiqaradi va 100 oilada buni sinab ko'radi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, ota-onalar bilmagan ta'mni bolalari ham payqamaganligi namoyon bo'lgan.

Afferent sintez bosqich, asosan to'rt jabha (komponent) negizida sodir bo'lishi tajribalarda sinab ko'rilgan. Uning asosiy jabhalari, eng avvalo, dominant motivatsiya (o'ta xohish) va unga hamroh hisoblangan emotsiyaning kuchlilik hamda barqarorligida namoyon bo'ladi:

- organizmga qo'zg'atuvchilarning ma'lum bir ta'siri;
- yo'naltiruvchi afferentatsiyaning mavjudligi;
- afferentatsiyaning muayyan shart-sharoitlari;
- xotira apparatlari va mexanizmlari.

Bularning o'zaro ta'siri uchta neyrodinamik omil orqali bajariladi:

a) yo'nalganligi; b) neyronlarda qo'zg'alishning konvergen-siyasi (to'yinishi); d) qo'zg'alishning po'stloq va po'stloqosti tuzilmalarda qayta hosil bo'lishi, tiklanishi.

Bu mexanizmlar asab tizimida turli qo'zg'alishlarni to'plashga, birlashtirishga, solishtirishga va mazkur muhitda eng qulay xatti-harakat aktini bajarish uchun qaror qabul qilishga olib keladi.

Katta yarim sharlarda maxsus neyronlar guruhi borligi tufayli ular turli-tuman qo'zg'alishlargina qayta qabul qilish bilan cheklanmay, balki miya po'stlog'ining piramida hujayralaridan akson orqali keluvchi efferent qo'zg'alishlarni ham qabul qiladi. Bu esa orqa miya po'stloq osti va po'stloqdagi ko'plab aksonlar neyronlarning vazifasi siklik qo'zg'alishni ko'pincha saqlab turish, o'ziga xos «kutish» to'plamini saqlashdan iborat. Shu bilan bir vaqtda periferik ishchi a'zolariga yuboriladigan buyruq nusxasining butun miyaga tarqalishini ta'minlaydi. Bir neyronning o'zidagi efferent qo'zg'alish konvergentsiyasi periferik retseptorlardan keluvchi afferent qo'zg'alish bilan aksonga uzatilgan buyruq nusxasi olingan natijalarni baholash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Sezgi haqida tushuncha.
2. Sezgi turlari va ularning mazmuni.
3. Sezgi va boshqa jarayonlarning o'zaro aloqadorligi.
4. Sezgi jarayoniga doir nazariyalar.
5. Sezgining asosiy turlari.
6. Sezgining rivojlanishi.

XIX bob. IDROK

Tayanch tushunchalar: idrok, idrokning murakkabligi, idrok qonunlari, illuziya, gallutsinatsiya, atraksiya, appersepsiya, idrok fenomenlari, fazo va vaqtni idrok qilish, harakatni idrok qilish, strukturalilik, barqarorlik va anglanilganlik.

19.1. Idrokning umumiy tavsifi

Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishiga idrok deb aytiladi. Idrok etish jarayonida alohida holdagi sezgilarning tartibga solinishi hamda narsalar va voqea-hodisalarning yaxlit obrazlariga birlashuvi yuz beradi.

Qo'zg'atuvchining alohida xususiyatlari aks etadigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsalarni umuman, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiradi. Bunda idrok alohida sezgilar yig'indisidan iborat tarzda emas, balki hissiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan sifat jihatidan yuqori bosqichi sifatida tasavvur qilinadi. Idrokning ancha muhim xususiyatlari predmetlilik, yaxlitlilik, strukturalilik, barqarorlik va anglanilganlikdan iboratdir.

Idrokning predmetliliği obyektivlashtirish hodisasi deb atalmish hodisada, ya'ni tashqi dunyodan olinadigan axborotning o'sha dunyoga mansubligida ifoda etiladi. Bu xildagi mansublik bo'lmasa, idrok kishining amaliy faoliyatida o'zining mo'ljal oldirish va yo'naltirishdan iborat vazifasini bajara olmaydi. Idrokning predmetliliği tug'ma xislatga kirmaydi; subyektga olamning predmetliliğini kashf etish imkonini tug'diradigan muayyan harakatlarni tizimi mavjuddir. Bu borada tuyish va harakat sezgilari hal qiluvchi rol o'ynaydi. I.M.Sechenov predmetlilik narsaning o'zi bilan aloqa bog'lanishini ta'min etadigan jarayonlar negizida, oqibat natijada hamisha tashqaridan harakatlantiruvchi jarayonlar negizida shakllanishini ta'kidlagan edi. Harakatlarni ishtirok etmagan taqdirda bizning idrokimiz ham predmetlilik belgisiga, ya'ni tashqi dunyo obyektlariga mansublikka ega bo'la olmasdi.

Predmetlilik idrokning belgisi sifatida xatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. G'isht va portlovchi modda

bog'lamini paypaslab ko'rilganda bir-biriga juda ham o'xshash bo'lib ko'rinishi va idrok etilishi mumkin, lekin ularning «o'zlarini tutishi» juda ham turlicha tarzda yuz beradi. Odatda, biz narsalarga ularning ko'rinishiga qarab emas, balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq holda yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab baholaymiz. Bunga esa idrokning predmetlilik yordam beradi.

Predmetlilik perseptiv jarayonlarning o'zini, ya'ni idrok jarayonlarining bundan keyingi shakllanishida ham katta rol o'ynaydi. Tashqi olam bilan uning in'ikosi o'rtasida tafovut yuz bergan paytda subyekt idrokning ancha to'g'ri aks ettirishini ta'min etadigan darajadagi yangi usullarini qidirishga majbur bo'ladi.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaliligi bilan bog'langanidir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va birmuncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi bironta kuyni tinglayotgan bo'lsa, oldinroq eshitgan ohangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning qulog'iga chalinayotganday tuyulaveradi. Odatda, tinglovchi musiqiy asarni tushunadi, ya'ni umuman uning strukturasi idrok etadi. Aftidan, eshitilgan ohanglardan eng so'nggisi alohida holda bunday tushunish uchun asos bo'la olmaydi: tinglovchining xayolida kuyning butun tuzilishi tarkibiga kiruvchi rang-barang o'zaro bog'lanishlar bilan qo'shilgan holda eshilib turadi.

Idrokning konstantligi. Qurshab turgan obyektlarning idrok qilayotgan subyektga nisbatan mavqening erkinligi darajalar-

ning ko'pligi va ularning yuzaga chiqishi shart-sharoitlari beqiyos rang-barangligi oqibatida bu obyektlar o'z qiyofasini to'xtovsiz ravishda o'zgartirib, idrok qilayotgan kishiga turli jihatlari bilan o'girilib namoyon bo'ladilar. Shu bilan barobar perseptiv jarayonlar ham o'zgarib boradi. Lekin perseptiv tizimning (perseptiv tizim — muayyan idrok etish jarayonini sodir etadigan analizatorlar yig'indisidir) bu o'zgarishlarni qoplashga layoqatlilikini tarkib toptiradigan konstantlik xususiyatiga ega ekanligi sababli biz o'zimizni qurshab turgan narsalarni shakliga, o'lehamiga, tusiga va hokazolarga ko'ra nisbatan o'zgarmaydigan tarzda idrok etamiz.

Idrokning bu xususiyatini kattalik konstantligi misolida bayon qilamiz. Ma'lumki, narsalarning tasviri (shu jumladan, uning ko'z to'rpardasiidagi tasviri ham) unga qadar bo'lgan masofa qisqargan paytda yiriklashadi va aksincha. Lekin masofasi o'zgargan paytda obyektning ko'z to'rpardalaridagi tasvirining kattaligi garchi o'zgarsa ham, uning idrok etiladigan kattaligi qariyb o'zgarmasdan qoladi. Teatrda tomoshabinlarga bir razm soling: uzoqroqdagi odamlarning yuzlari tasviri yaqinroqda o'tirganlarnikiga qaraganda ancha kichik bo'lib ko'rinsa ham, hammasining hajmi bab-baravardek tuyuladi. O'z qo'lingizning barmoqlariga bir qarang: bir xillari qo'lingizni uzatib turganingiz kabi masofadan, boshqalari esa yaqinroqdan ko'rinayotganday bo'ladi: uzoqroq cho'zilgan qo'lingiz barmoqlari tasviri ko'z to'rpardalarida yaqinroqdagi qo'l barmoqlari tasvirining yarmiga teng bo'lgan bir paytda barmoqlarning hajmi bir xil bo'lib tuyuladi.

Idrokning konstantligi nimalarga asosan hosil bo'ladi? Bu, ehtimol tug'ma mexanizmdir?

Tekshirish uchun qalin o'rmonzorda muqim yashab kelayotgan odamlarning idroki tadqiq qilib ko'rildi. Bunday odamlarning idroki ular ilgari uzoq masofadagi narsalarni ko'rmaydigan bo'lganliklari uchun qiziqish tug'diradi. Bu odamlarga anchagina uzoqda joylashgan obyektlar ko'rsatilganida ular bu obyektlarni o'zlaridan uzoqda joylashgan obyekt sifatida emas, balki kichik obyekt sifatida idrok etishgan edi. Idrok konstant-

ligining bu xildagi buzilishi tekis yerda yashovchilar balandlikda turib pastga qaraganlarida ham kuzatiladi. Ko'p qavatli uyning yuqori qavatidagi derazasidan qaraganda ham obyektlar (odamlar, avtomobillar) juda kichik bo'lib ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham havozalarda ishlayotgan quruvchilar pastda joylashgan obyektlarni hajmi kichraymagan holda ko'rayotganliklarini aytishdi.

Nihoyat, **idrokning konstantligi tug'ma tarzidaligi haqidagi fikrga zid** bo'lgan yana bir misol. Bolaligida ko'r bo'lib, yoshi ulg'aygandan keyin jarrohlik yo'li bilan ko'zlari ko'radigan bo'lib qolgan odam kuzatuvdan o'tdi. Operatsiyadan keyin ko'p o'tmay bemor shifoxonaning yerdan 10–12 metr balandlikdagi derazasidan o'ziga hech qanaqa ziyon yetmaydigan qilib sakray olishi mumkin deb o'yladi. Ehtimol, pastda joylashgan obyektlar uzoqda joylashgan bo'lib emas, balki kichik bo'lib ko'ringandir va bu balandlikni aniqlashda xatoga olib kelgandir.

Perseptiv tizimning faol ta'sir ko'rsatishi idrok konstantligining haqiqiy manbayidir. Subyekt retseptor apparatlari harakatlarning va javob sezgilarning: rang-barang va o'zgaruvchan oqimidan idrok etiladigan obyektning nisbatan o'zgarmas, invariantli tuzilishini alohida ajratib ko'rsatadi. Aynan bir xildagi obyektlarni har xil sharoitlarda qayta-qayta idrok etaverish ana shu o'zgaruvchan shart-sharoitlarga nisbatan perseptiv obrazning invariantlilikini va shuningdek, retseptor apparatining o'z harakatlarini ta'min etadi, demak ana shu obrazning konstantligiga sabab bo'ladi. Bunda idrokning shart-sharoitlari o'zgarishi va kuzatuvchining sezgi a'zolari faol harakat qilish natijasida hosil bo'ladigan yangi ko'rinishlar o'zicha biron-bir darajada sezilmaydi; bor-yo'g'i qandaydir nisbiy invariantlik, masalan, qandaydir narsaning shakli, uning o'lchamlari va hokazolar tarzida idrok etiladi.

Appersepsiya. Idrok faqat qo'zg'alishga emas, balki idrok etayotgan subyektning o'ziga ham bog'liqdir. Alohida holda ko'z ham, quloq ham idrok etmaydi, balki konkret tirik kishi idrok etadi va idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining xislat-

lari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istaklari va his-tuyg'ulari u yoki bu tarzda aks etadi. Idrokning kishi psixik hayoti mazmuniga, uning shaxsiga xos xususiyatlarga bog'liqligi appersepsiya nomi bilan yuritiladi.

Ko'p sonli ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, subyekt tomonidan idrok etiladigan manzara bir lahzalik sezgilarning shunchaki oddiy yig'indisi emas; u ko'pincha muayyan paytda hatto ko'zning to'rpardalarida yo'q bo'lgan, lekin kishi go'yo oldingi tajriba asosida ko'rib turgandek tuyuladigan qismlarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Idrok axborotni gipotezalarni ilgari surish va tekshirib ko'rish uchun ishlatiladigan faol jarayon hisoblanadi. Bu gipotezalarning xususiyati esa shaxsning oldingi tajribasi mazmuni bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, sinaluvchilarga to'g'ri va egri chiziqlarning ixtiyoriy birikmasidan iborat notanish qaddi-qomat ko'rsatilganda idrok etishning birinchi bosqichidayoq idrok qilinayotgan obyektни solishtirib ko'rish mumkin bo'lgan andazalar qidirila boshlanadi. Idrok etish jarayonida obyektning u yoki bu kategoriyaga mansubligi haqidagi gipotezalar ilgari suriladi va tekshiriladi.

Shunday qilib, biron narsani idrok etayotganda bundan oldingi idrokning izlari ham faollashadi. Uning uchun aynan bir narsaning har xil odamlar tomonidan turlicha idrok etilishi va tasvirlab berilishi tabiiydir.


Idrokning narsalar bilan qilinadigan faoliyat jarayonida shakllanadigan konstantligi — kishi hayoti va faoliyatining zarur shartidir. Busiz inson cheksiz rang-barang va o'zgaruvchan olamda mo'ljal ola bilmasdi. Konstantlik xususiyati narsaning va uning yashash sharoitining birligini aks ettirarkan, tevarakatrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

19.2. Idrokning anglangan bo'lishi

Garchand idrok qo'zg'atuvchining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida hosil bo'lsa ham, perseptiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega bo'ladi. **Kishining idroki**

uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib yetishi bilan chambarchas bog'liqdir. Narsani ongli idrok etish – unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfga kiritish, uni so'z vositasida umumlashtirish demakdir. Hatto o'zimizga notanish narsani ko'rganimizda ham uning bizga tanish obyektlar bilan o'xshashlik jihatlari payqab olishga, uni qandaydir toifaga kiritishga urinamiz. Idrok shunchaki sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan qo'zg'atuvchilarning oddiy yig'indisi bilan belgilanmaydi, balki mavjud ma'lumotlarni yaxshilab talqin qilish, izohlab berish yo'llarini jadal izlash bo'lib hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olganda goh shakl, goh fon (ikki qiyofa va vazn) navbatma-navbat idrok etiladigan, «ikki mazmunli» deb atalmish rasmlar diqqatga sazovordir. Bu rasmlarda idrok qilingan obyektning alohida ko'rsatilishi uning anglab yetilishi va nomlanishi bilan bog'liqdir.

Fikrimizga yakun yasarkanmiz, idrok faol jarayon ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Idrok etish jarayonida kishi narsaning aynan o'ziga o'xshash obrazini yaratish uchun ko'plab perseptiv harakatlar qiladi.



Idrokning faolligi eng avvalo idrok etish jarayonida (paypaslab sezish paytida qo'llarning harakati, ko'z bilan ko'rish orqali idrok etishda ko'zlarning harakati va boshqalarda) analizatorlarning effektor (harakatlantiruvchi qismlari) ishtirok etishidan iboratdir. Bundan tashqari ko'z bilan ko'rish mumkin

bo'lgan tik holatda ko'rinadi, ya'ni sham tepaga qarab alan-galanib yonib turgan holda idrok qilinadi.

Amerikalik psixolog A.Eymsning «qiyshaygan xona» bi-lan bog'liq tajribalari ham qiziqarlidir. Bu xona shu tarzda qurilganki, perspektiva qoidalarining qo'llanishi tufayli u ko'z to'rpardasida xuddi odatdagi to'g'ri burchakli xona ka-bi obraz hosil qiladi». Qiyshaygan xona»ga allaqanday narsa-lar joylashtirilgan taqdirda kuzatuvchi ularni noto'g'ri hajmda idrok qiladi (masalan, katta yoshdagi kishi kichkina boladan ham kichik bo'lib tuyuladi). Aftidan, odamlar me'yorida-gi to'g'ri burchakli xonalarga shu qadar o'rganib ketishgan-ki, qiyshaygan xonaning o'zidan ko'ra ko'proq unda joylash-gan obyektlar qiyshaygan tarzda idrok etiladi. Lekin shunisi ajablanarliki, bunday xonada ayollar o'z erlarini o'zgarma-gan holda ko'rishadi; ularni odatdagi tarzda idrok etishadi, xonani esa qiyshaygan holda ko'rishadi. Shu xildagi vaziyat-da perseptiv tizim qarama-qarshi axborot mavjud bo'lgan bir paytda bir to'xtamga kelishi kerak. To'xtamning natijasi sub-yecktning bundan oldingi tajribasi bilan belgilanadi: yaxshi tanish bo'lgan narsalarni xona buzib ko'rsatmaydi. Xonani paypaslab tanishib chiqish boshqa narsalar soxtalashuvining ta'sir kuchi sekin-asta kamayishiga olib boradi va pirovardi-da xonaning o'zi to'g'ri, ya'ni qiyshaygan tarzda idrok etila boshlaydi.

Shunday qilib, idrok subyecktning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning bilimlari qanchalik ko'p bo'lsa, uning idroki ham shunchalik boy bo'ladi, buyumda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi.

19.3. Idrokning nerv-fiziologik asoslari

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. I.Pavlov idrokning negizini tevarak-atrofimizdagi narsalar va hodisalar retseptor-larga ta'sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim shar-lari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, muvaqqat nerv bog'lanishlari tashkil etishini ko'rsatib bergan edi. Tashqi olamdagi narsalar va hodisalar kompleks qo'zg'atuvchilar sifa-

tida xizmat qiladi. Analizatorlarning qobiq bo'lmalari o'zagi-da ana shu kompleks qo'zg'atuvchilarning murakkab tahlili va sintezi amalga oshiriladi. «... Shartli qo'zg'atuvchilar sifatidagi omillar uzluksiz va rang-barang tarzda o'zgarib turadigan tabiat bilan uyg'unlashgan holda goho organizm uchun o'ta mayda qismlar tarzidagi yarim sharlar bo'lib ajralib turishar (tahlil etilar), goho ko'plab turli-tuman komplekslarga qo'shilib ketishar (sintez qilinar) edi». Tahlil idrok etish obyektning fon ajratilishini ta'min etadi. Tahlil asosida idrok obyektining barcha xususiyatlari yaxlit obrazga umumlashtiriladi.

Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish–umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Nutqning anglanilgan holda idrok etilishi, ya'ni u tushunilishi uchun nutqni alohida iboralarga, mohiyat-e'tibori bilan so'zlarga ajratish shart. Ayni paytda nutqni idrok etish jarayonida tahlil bilan bab-baravar tarzda sintez ham qilinadi, shu tufayli biz alohida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok etamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil etadi.

Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikkita turidan – bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Birinchi holat organizmga bitta modallikdagi kompleks qo'zg'atuvchi ta'sir etganda kuzatiladi. Eshitish analizatorlariga ta'sir qiladigan alohida tovushlarning o'ziga xos birikmasidan iborat kuy ana shunday qo'zg'atuvchi bo'lishi mumkin. Ushbu kompleksning hammasi bitta murakkab qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir qiladi. Bunda nerv bog'lanishlari faqat qo'zg'atuvchilarning o'zlarida emas, balki ularning vaqtga, fazoga va hokazolarga tatbiqan munosabatida paydo bo'ladi (bu munosabatda bo'ladigan refleks deb yuritiladi). Natijada katta yarim sharlar qobig'ida birikish jarayoni, murakkab sintez yuz beradi.

Idrok negizida hosil bo'ladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari tashqi olamdagi narsalar va hodisalar xususiyatlarining obyektiv bog'lanishlari asosida tarkib topadi.

Analizatorlar o'rtasida hosil bo'ladigan bog'lanishlar tufayli biz idrokimizda narsalar va hodisalarning buning uchun maxsus moslashgan analizatorlar bo'lmagan xususiyatlarini (masalan, narsaning hajmi, solishtirma og'irligi) ham aks ettiramiz. Shuning uchun ham biz idrok qilganimizda olamni sezgilarimizga nisbatan chuqurroq bilib olamiz.

Shunday qilib, idrok obrazining tuzilishidagi murakkab jarayon negizini analizatorlar ichida va analizatorlar o'rtasida qo'zg'atuvchilarni alohida bildiradigan eng yaxshi shart-sharoitlar yaratilishini hamda murakkab yaxlit holdagi narsa xususiyatlarining o'zaro birgalikdagi harakatini hisobga oladigan bog'lanishlar tizimi tashkil etadi.

19.4. Idrokning xususiyatlari va turlari

Idrokning klassifikatsiya qilinishida ham xuddi sezgillardagi kabi idrok qilishda ishtirok etuvchi analizatorlardagi mavjud farqlarga asoslaniladi. Idrok etishda qaysi bir analizator ustunroq kelganiga muvofiq tarzda ko'rish, eshitish, paypaslab ko'rish, kinestezik, hidlash va ta'm bilish yo'li bilan idrok qilinishi farqlanadi.

Idrok qilish jarayoni, odatda o'zaro birgalikda harakat qiladigan bir qancha analizatorlar vositasida sodir bo'ladi. Harakat sezgilari u yoki bu darajada idrokning barcha turlarida ishtirok etadi. Misol tariqasida teri tuyushi va kinestezik analizatorlar ishtirok etadigan paypaslab turib idrok etishni ko'rsatish mumkin. Shunga o'xshab eshitish va ko'rish orqali idrok etishda harakat analizatorlari ham ishtirok etadi.

Idrokning har xil turlari sof holda kamdan kam uchraydi, odatda ular bir-birlari bilan uyg'unlashib ketadi va natijada idrokning murakkab turlari hosil bo'ladi. Jumladan, o'quvchining dars paytida matnni idrok qilishi ko'rish, eshitish, kinestezik idroklarni o'z ichiga oladi.

Materiyaning mavjud bo'lish shakllari — fazo, vaqt va harakat idrokni tasniflashning boshqa turi uchun asos bo'ladi.

Bunday tarzda tasniflashga (klassifikatsiyalashga) binoan fazoni idrok etish, vaqtni idrok etish va harakatni idrok etish alohida ajratib ko'rsatiladi.

Harakat idroki — idrok etilayotgan obyektни tekshirish va uning o'ziga aynan o'xshaydigan nusxasining yaratishga yo'naltirilgan o'ziga xos harakatdir. Idrokning muhim qismi harakatlantiruvchi (motor) jarayonlardan iboratdir. Narsani paypaslab his etadigan qo'llarning harakatlari, narsaning ko'rinadigan shaklini kuzatuvchi ko'zlarning harakati, eshitiladigan, ovoz chiqaradigan hiqildoqning harakati va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Qo'l va ko'zlarning ishida ko'pgina umumiyliklar mavjud. Ko'zlar xuddi qo'llar kabi suratni va narsaning shaklini izchillik bilan tekshirib chiqadi, «ushlab ko'radi». I.M.Sechenov shu haqda shunday deb yozgan edi: «... *Gap narsalarning shakli va hajmi haqida boryaptimi yoki ularning olisligi va nisbiy joylashganligi haqida boryaptimi, bundan qat'i nazar, ko'zning ko'rish paytidagi va qo'llarning paypaslash chog'idagi harakatlantiruvchi ta'sirotlari mohiyat e'tibori bilan mutlaqo bir xildir...*»¹ Qo'l ko'zlarga o'zining paypaslab his etish usullariga «o'rgatadi», bunday paypaslab his etishning o'ziga xos strategiyasi va taktikasidan «saboq» beradi.

Qo'lning paypaslab sezish va ko'zning ko'rish jarayonidagi harakat funksiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular ikkita katta sohaga ajraladi. Birinchisiga qidiruvchi, yo'llovchi va tuzatuvchi harakatlar kiradi. Ular yordamida idrok etish uchun tayinlangan obyektни qidirish, ko'zni (yoki qo'lни) «boshlang'ich marra»ga qaratish, ana shu marrani to'g'rilash amalga oshiriladi. Ikkinchi sohaga obrazni hosil qilishda, obyektlarning fazodagi ta'rifini aniqlashda, tanish obyektlarni topishda va shu kabilarda ishtirok etadigan harakatlar kiradi. Bu xususan, sinestik harakatlar, perseptiv harakatlardan iboratdir.

¹ Семенов И.М. Оеязание как чувство соответствующее зрению. избранные философские и психологические произведения. М.: Госполитиздат, 1947, 555-бет.

Idrok — perseptiv harakatlar tizimidir va uni egallash maxsus o'qitishni va tajribani talab qiladi.

Kuzatish. Ixtiyoriy idrok etishning muhim shakli kuzatishdirki, u narsalarni yoki tevarak-atrofdagi olam hodisalarini ko'ra-bila, rejali tarzda idrok etishdan iboratdir.

Kuzatishda idrok etish mustaqil faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Sezgi a'zolarini ishlatishni, teri orqali sezishni, ko'ra bilishni, eshitishni va hokazolarni o'rganish kerak. Biz chet tillardagi ayrim so'zlarni ko'p hollarda farqlay olmaymiz, musiqaviy asarlarning buzib ijro etilayotganini payqamaymiz yoki suratlarining bo'yoq ranglari tasviridagi ana shunday buzilishlarni ko'rmaymiz. Kuzatishni o'rganish mumkin va lozim. Nutq madaniyati haqida so'z yuritilishi kabi idrok etish, kuzatish madaniyati haqida ham gapirish mumkin. Shu munosabat bilan gollandiyalik taniqli astronom M. Minnartning mana bu so'zlarini eslatib o'tish o'rinlidir: «Ko'ra boshlash sizlarning o'zlaringizga bog'liq — o'z ko'zlaringizga «nimaga qarashni bil» deb ataladigan sehrlil asos bilan tegib qo'ysangiz kifoya»¹.

Haqiqatan ham, kuzatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan vazifaning aniq qilib qo'yilishiga bog'liqdir. Kuzatuvchi uchun kuzatishning yo'nalishini ko'rsatadigan «kompas» bo'lishi kerak. Kuzatuvchi oldiga qo'yiladigan vazifa, kuzatish o'cini ana shunday «kompas» hisoblanadi.

Ta'limning ko'rgazmaliligiga o'qituvchining so'zi bilan uyg'unlashtirilgan tarzda maxsus vositalar (ko'rgazmali qurollar, uskunalar, namoyish qilinadigan tajribalar, turli xil ekskursiyalar va hokazo)dan foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Bu vositalar hozirga qadar yordamchi rol o'ynaydi, deb hisoblab kelinardi: ular bilimlarning o'zlashtirilishini osonlashtiradigan va o'quvchilarda o'rganilayotgan materialga qiziqish uyg'otishga yordam beradigan ilustrativ material sifatida ishlatilardi. Lekin keyingi paytlarda o'tkazilgan eksperimental tad-

¹ Минарт М. Свет и Цвет в природе. — М.: Наука, 1969, 14-бет.

qiqotlarning natijalari ta'limda ko'rgazmalilik prinsipiga boshqacha yondashish imkonini beradi.

Aftidan, o'qitish jarayoni o'quvchilar dars vaqtida o'qituvchi tomonidan xabar qilinadigan axborotni qabul qilishi bilan cheklanadigan prinsip asosida tashkil etilmasligi kerak; o'qitish jarayoni o'quvchilarning faol fikrlash faoliyati tarzida tashkil etilishi kerak. Bunday faoliyatdan ko'zlangan pirovard natija o'quvchilar uchun yangi bilimlarga yo'l ochib berishdan iborat bo'lib, o'qitish jarayoni ham ana shu maqsadga qaratilgandir. Bilimlarning ancha puxtaroq egallanishini ta'minlash uchun bu maqsadga qanday vositalar orqali erishish mumkin? Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chamalab tekshirish perseptiv faoliyat negizida tarkib topgan vaziyatning obrazini u yoki bu tarzda o'zgartirish yechimni qabul qilish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu bosqich – real vaziyatdan mavhumlikka o'tish bosqichi – obrazi ilgari surilgan vazifaga muvofiq tarzda qayta qurishdan iborat faoliyatdan bo'lak hech narsa emas.

Qaror qabul qilinish jarayoni uchun muammoli vaziyatni ichki jihatga o'tkazish (dilga jo qilish) zaruratining tug'inishi o'qitishdagi ko'rgazmalilik prinsipining qo'llanilishiga to'g'ri yondashuvning favqulodda muhimligidan dalolat beradi. Ko'rgazmali qurollar bayon etilayotgan materialning faqat tasviridan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Yangi bilimlarni kashf etish hodisasi o'quvchi uchun ham fanda yoki san'atda ijodiy muammolarni hal etish jarayoni kabi mashaqqatli ishga aylanib qolmasligi uchun ta'limda ko'rgazmalilikning qo'llanilishi faqat vaziyatning obrazini yaratish jarayonini emas, balki ushbu obrazning galdagi vazifalarga muvofiq tarzda qayta yaratilishi jarayonini ham yo'naltirib yuborishi lozim. Bunday tarzda yondoshilganda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarning qanday xarakterga egaligi, ularning tanlanishi bilan birga ularning darsda qanchalik ko'p ko'rsatilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darsda ko'rgazmali qurollarni qo'llanishning izchilligi o'quvchilarning o'rganilayotgan material andazasini yaratish yuzasidan faoliyatini yo'naltirib turishi kerak.

19.5. Fazo, vaqt va harakatning idrok qilinishi

Fazoni idrok qilish. Fazoning idrok qilinishi kishining o'zini qurshab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida katta rol o'ynaydi. U obyektiv ravishda mavjud bo'lgan fazoning aksini ifoda etadi va obyektlarning shakli, hajmi va o'zaro birgalikda joylashuvi, ular sathi, olisligi va yo'nalishlarining idrok etilishini o'z ichiga oladi.

Kishining muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakati uning uchun xos bo'lgan koordinator tizimi bilan birgalikda kishi gavdasining o'zini ham qamrab oladi. Sezuvchan odamning o'zi fazoda muayyan o'rin egallaydigan va ma'lum bir fazoviy belgilari (o'lchami, shakli, gavdaning uchala o'lehoi, harakatlarning fazodagi yo'nalishi) mavjud bo'lgan moddiy gavda ham demakdir.

Narsalarning shaklini, o'lchamini, bir-birlariga nisbatan egallagan o'rnini, u yoqdan bu yoqqa ko'chishini anglash va ayni paytda xususiy gavdaning tevarak-atrofdagi narsalarga nisbatan holatini tahlil qilish organizmning harakatlanuvchi faoliyati jarayonida yuz beradi va fazodagi tahlil deb ataluvchi analitik-sintetik faoliyatning alohida yuksak darajada namoyon bo'lishidan iboratdir. Shu narsa aniqlandiki, fazodagi tahlilning turli xildagi shakllari analizatorlar kompleks faoliyatining negizida vujudga keladi, ularning birortasi ham muhitning fazoviy omillarini tahlil qilishda asosiy rol o'ynamaydi.

Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol o'ynaydi. Turli xildagi analizatorlar ana shu analizator vositasida o'zaro birgalikda harakat qila boshlaydi. Fazoni chamalashning maxsus qurollari qatoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar o'rtasidagi nerv bog'lanishlarini: binokulyar ko'rishni, binauralh eshitishni, terining bimanual tuyushini, dirinik hid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim. Narsalarning mantiqiy xususiyatlarini aks ettirishda funksional simmetriya muhim rol o'ynaydi. U barcha juft analizatorlarga xos bo'lgan xususiyatdir. Funksional asimmetriya shundan iboratki, analizatorning

tomonlaridan biri ma'lum bir jihatdan yetakchilik qiladi, ustun bo'ladi. Analizatorlarning tomonlari o'rtasidagi munosabatlar ularning ustunlik qilishi jihatidan olganda harakatchan va bir xil emasligi aniqlandi. Jumladan, o'tkirligiga ko'ra ustunlik qiladigan ko'z ko'rish maydoni o'lchami jihatidan yetakchi bo'la olmasligi mumkin va hokazo.

Narsalar shaklining idrok qilinishi. Narsalarning shakli, odatda ko'rish, terining idrok tuyushi va kinestezik analizatorlar yordamida idrok qilinadi. Ba'zi hayvonlarda ma'lum bir shakldagi obyektlar ta'siriga javoban tug'ma reaksiyalar. Fe'l-atvorni harakatlantiruvchi tug'ma mexanizmlar deb atalmish mexanizmlar kuzatiladi. Bu tug'ma mexanizmlar qat'iyon ixtisoslashgan bo'ladi. Tovuqlarning karton qog'ozdan yirtqich qushning suratini eslatadigan qilib qirqilgan shaklni ko'rib jo'jalarini himoya qilishga tusha boshlashlari bunga misol bo'la oladi.

Shakl bilan tanishish chog'ida alohida ajratib ko'rsatilishi lozim bo'lgan va ko'proq darajada axborot beradigan belgi tashqi ko'rinishdir. Aynan tashqi ko'rinish ikkita reallikni, ya'ni shakl bilan muhitni bir-biridan ajratadigan chegara vazifasini bajaradi. Ko'z mikroharakatlar orqali obyektlarning chegaralari (tashqi ko'rinishi va mayda-chuyda detallari)ni farqlay olishi mumkin. Ko'rish tizimi obyekt bilan fon o'rtasidagi chegarani faqat ajrata bilishga emas, balki shu chegara bo'ylab siljish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu ko'zlar harakati vositasida amalga oshiriladi. Ko'zlar narsaning tashqi ko'rinishini bamisoli ikkinchi bor farqlaydi va uning shakli obrazini hosil qilishning muqarrar sharti hisoblanadi.

Narsa shaklining ko'rish orqali idrok etilishi kuzatishning shart-sharoitlari: narsaning katta-kichikligi, uning kuzatuvchi ko'zlaridan uzoq-yaqinligi, yoritilganligi, obyektning yorqinligi, foni o'rtasidagi keskinlik va hokazolar bilan belgilanadi.

Narsalarning katta-kichikligini idrok qilish. Narsalarning idrok qilinayotgan katta-kichikligi ularning ko'z to'rpardasida tasvirlangan o'lchami va kuzatuvchining ko'zlaridan olis-yaqinligi bilan belgilanadi. Ko'zlarning turli olislikdagi narsalar-

ni aniq-ravshan ko'rishga moslashuvi ikkita mexanizm -- akkomodatsiya va konvergensiya yordamida yuz beradi.

Akkomodatsiya — ko'z gavharining egriligini o'zgartirish yo'li bilan uning aksini sindirib qaytarish qobiliyatini o'zgartirish demakdir. Jumladan, yaqinroqda joylashgan narsalarga qaraganimizda mushaklarimizda qisqarish yuz beradi, natijada ko'z gavhari taranglashish darajasi kamayadi va u yanada qavariq shaklga kiradi. Yosh ulg'aya borgan sari ko'z gavhari asta kam harakat qiladigan bo'lib qoladi va moslashuv, ya'ni turlicha uzoqlikdagi narsalarga qaraganda o'z shaklini o'zgartirish qobiliyatini yo'qotadi. Natijada yaqinroqdagi narsalardan ko'ra uzoqdagi narsalar yaxshiroq ko'rina boshlaydi, bu aniq-ravshan ko'rinadigan yaqinroqdagi nuqta yosh o'tishi bilan tobora uzoqlasha borishida o'z ifodasini topadi.

Akkomodatsiya, odatda konvergensiya bilan, ya'ni ko'rish o'qlarini qayd qilinayotgan narsaga yo'naltirish bilan bog'liqdir. Akkomodatsiyaning muayyan holati ko'rish o'qlari tortishishining muayyan darajada bo'lishini taqozo qiladi va aksincha, ko'rish o'qlarining u yoki bu tarzda tortishishi akkomodatsiyaning muayyan darajasiga mos keladi.



13-rasm.

Konvergensiya burchagi bevosita masofa indikator, ya'ni o'ziga xos masofa o'lchagich sifatida foydalaniladi. Muayyan masofa uchun konvergensiya burchagini obyekt oldida joylashtirilgan prizmalar yordamida o'zgartirish mumkin. Bunda

agar konvergensiya burchagi kattalashadigan bo'lsa, obyektning ko'rinib turgan o'lchami ham kattalashadi, ungacha bo'lgan idrok etilayotgan masofa esa qisqaradi. Agar prizmalar konvergensiya burchagi kichrayadigan tarzda joylashtirilgan taqdirda obyektning ko'rinadigan hajmi ham kichrayadi, ungacha bo'lgan masofa esa ortadi.

Ikkita qo'zg'atuvchi — narsaning ko'z to'rpardasidagi tasviri akkomodatsiya hamda konvergensiya natijasida ko'zdagi mushaklarning zo'riqishi o'lchamlari bir-biriga moslangan holda birga qo'shilishi idrok etilayotgan narsaning hajmi haqidagi shartli refleks tarzidagi signal hisoblanadi.

Narsalarning chuqurligi va uzoqligini idrok etish. Akkomodatsiya va konvergensiya faqat juda kichik doirada, uncha katta bo'lmagan masofada, masalan, akkomodatsiya 5–6 metr atrofida, konvergensiya 450 metrga qadar amal qiladi. Vaholanki, kishi o'zi idrok etayotgan narsalarning chuqurligini va ular egallaydigan bo'shliqni 2500 metrga qadar masofadan turib farqlay oladi.

Chuqur (ichkari) joylashganlikni baholay bilishga oid bunday qobiliyat birinchi qarashda tug'ma xislatga o'xshaydi.


Eksperimentda emaklaydigan bolani qoldiriladigan joyga to'shak yozilgan bo'lib uning yonidagi chuqurlikning usta qalin shisha bilan yopib qo'yilgan edi. Eksperiment shuni ko'rsatdiki, to'shak ustida bemalol emaklab ketayotgan bola shisha yoniga kelib to'xtab qoladi.

Narsalarning chuqurligi va olisligi, asosan binokulyar ko'rish orqali idrok qilinadi. Olsidagi obyektlarni (masalan, osmondagi yulduzlar) binokulyar tarzda qayd etish chog'ida har ikkala ko'zning ko'rish chiziqlari parallel bo'ladi. Bunda uzoqdagi narsalarning tasvirlari o'ng yoki chap ko'zning yoxud ikkala ko'zning to'rpardalariga baravar tushish-tushmasligidan qat'i nazar fazoning yolg'iz bir joyida ko'rinaveradi. Binobarin, bitta ko'zning to'rpardasidagi ba'zi nuqtalarga boshqa bir ko'zning to'rpardasidagi muayyan nuqtalar to'g'ri keladi. Har ikkala ko'z to'rpardalarining simmetrik tarzda joylashgan ushbu nuqtalari axborot yetkazuvchi nuqtalar deb


ataladi. To'rpardalardan birini ikkinchisiga qo'yganda vertikal va gorizontaal o'qlar bir-biriga mos keladigan nuqtalari axborot yetkazuvchi nuqtalardir.



14-rasm.



15-rasm.



16-rasm.

To'rpardadagi axborot yetkazuvchi nuqtalarning qo'zg'atilishi ko'rish maydonida bitta obyekt haqida sezgi hosil qiladi. Ko'zlarning har bir holatida to'rpardalarning axborot yetkazuvchi nuqtalariga tashqari fazodagi muayyan nuqtalar mos keladi. Fazodagi nuqtalarning ko'zning muayyan holatida bitta obyektни ko'rish imkonini beradigan chizma tasvirini goropter deb ataladi.

Agar narsa tasviri har ikkala ko'zning to'rparda markazidan har xil olislikda joylashgan axborot yetkazmaydigan, yoxud disparat nuqtalarga tushsa, u holda ikkala samaradan biri — yo qo'shaloq tasvirlar (agar nuqtalarning disparatligi yetarlicha katta bo'lsa) paydo bo'ladi, yoxud muayyan obyektning qayd etilayotgan obyektga nisbatan ko'proq yoki ozroq darajada olisligi (agar disparatlilik kichikroq bo'lsa) haqida tasavvur hosil bo'ladi.

Keyingi holatda hajmdorlik tasavvur yoki stereoskopik samara hosil bo'ladi.

Bu samarani stereoskop (ikki manzarani chap va o'ng ko'zga alohida ajratib ko'rsatishga mo'ljallangan apparat) yordamida kuzatish mumkin. Bu manzaralar ko'zlar o'rtasidagi masofaga baravar olislikda joylashgan ikkita fotokamera bilan alohida suratga olish chog'ida yuzaga keladigan bo'rttirib ko'rsatilgan qo'shaloq tasvirni hosil qiladi. Shunday qilib, dis-

parat tasvir yuzaga keladiki, uni ko'rayotganda qavariq tasvir paydo bo'ladi.

Agar stereoskopda o'rtalarida tasvirlarning bir-biriga qo'shilib ketishini ta'min eta olmaydigan darajada farq bo'lgan ikkita tasvir beriladigan bo'lsa, u holda o'ziga xos bir samara paydo bo'ladi: shakllarning goh bittasi, goh boshqasi birin-кетин almashgan holda gavdalanadi. Bu hodisa binokulyar musobaqa degan nom bilan ataladi. Bunda ikkala obyekt ba'zan ikkala shaklning birga qo'shilishidan tashkil topgan shaklday ko'rinadi. Masalan, bitta ko'zga ko'rinib turgan panjaraning surati va boshqa ko'zga ko'rinadigan otning surati go'yo ot panjara ustidan sakrayotgandek tasavvur tug'dirishi mumkin.

Yo'nalishning idrok etilishi. Fazoning farqini ajratishdagi muhim jihatlardan biri obyektning boshqa obyektlarga yoki kuzatuvchiga nisbatan joylashgan yo'nalishining idrok etilishidir. Biz obyektни ko'rib turgan yo'nalish uning ko'zimiz to'rpardasidagi tasvirining o'rni va gavdamizning tevarak-atrofimizda turgan narsalarga nisbatan holatiga ko'ra belgilanadi. Odam uchun Yerning gorizontalsathiga nisbatan gavdaning tik holatda bo'lishi xarakterli xususiyatdir. Kishining ijtimoiy-mehnat mahsuli ekanligiga ko'ra hosil bo'lgan holat uning o'zini qurshab turgan narsalarni bilib oladigan yo'nalishni belgilashda asosiy manba hisoblanadi. Uning uchun ham fazoni ko'rishda, shu jumladan, yo'nalishni idrok etishda ham ko'rish sezgilari-dan tashqari faqat ko'z yoki qo'l harakatlarini kinestezik sezish emas, balki statik sezgilar, ya'ni gavdaning muvozanati va holatini sezish ham katta rol o'ynaydi.

Binokulyar ko'rishda ko'rinadigan narsaning yo'nalishi bir-biriga aynan o'xshash yo'nalish qonuni bilan aniqlanadi. Bu qonunga binoan ko'z to'rpardasining axborot yetkazuvchi nuqtalariga to'g'ri keladigan qo'zg'atuvchilar bizga aynan bir xil yo'nalishda ko'rinadi. Bu yo'nalish har ikkala ko'zning ko'rish chiziqlari kesishgan joyni har ikkala ko'z oralig'ining o'rtasiga mos keladigan nuqta bilan bog'laydigan chiziqni hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, axborot yetkazuvchi nuqtalarga tushadigan tasvirlarni biz bamisoli peshananing o'rtasida

joylashgan birgina «siklopik koʻz»dan kelayotgan toʻgʻri chiziqda koʻrayotganday boʻlamiz.

Tovushning yoʻnalishi binoural eshitish orqali idrok qilindi. Tovushning yoʻnalishini farqlash negizini har ikkala quloqdan bosh miya qobigʻiga signallar yetib kelishi vaqtidagi farq tashkil etadi. Tovushlar gorizontaal chiziq boʻylab faqat chap va oʻng yoʻnalishda emas, balki yuqoriga va pastga qarab ham eshitilishi mumkin. Eksperiment maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, keyingi holatda tovushning fazoda joylashuvini idrok etish uchun sinaluvchining boshi harakat qilishi zarurdir.

Shunday qilib, tovushning jonlashuvi mexanizmi faqat eshitish signallarini emas, balki boshqa analizator tizimlarining maʼlumotlarini ham hisobga oladi.

Koʻrish illuziyalari. Idrok hamisha ham obyektga olamdagi narsalarning aynan oʻzini aks ettiradimi? Idrok etishdagi koʻplab xatolarga va ularga yoʻl qoʻyilgan shart-sharoitlar asosan koʻrish illuziyalariga izohlar:

1. Kamon oʻqining illuziyasi. Bu bir-birini toʻldiradigan keladigan va bir-biridan farqlanuvchi chiziqlar tamoyiliga asoslangandir: garchi ikkala oʻq amalda baravar uzunlikda boʻlsa ham bir-biridan farqlanuvchi uchlar uzunroq boʻlib tuyuladi.

2. Temir yoʻl izlarining xayoliy koʻrinishi. Garchi har ikkala iz ham aslida barovar boʻlsa ham bir-biriga toʻgʻri keladigan ikkala toʻgʻri iz oraligʻidagi boʻshliqning ancha tor qismidagi chiziqlar uzunroq boʻlib tuyuladi.

3. Tik chiziqlarning boshqacha koʻrinishi. Silindrning ustki qismi garchi uning kengligi tik boʻyicha bab-baravar boʻlsa ham kengroqday tuyuladi.

4. Yelpigʻich illuziyasi. Parallel oʻtadigan chiziqlar markazga yaqinroqda muhitning taʼsiri ostida qabariq boʻlib, markazdan uzoqroqda esa ichkarisiga egilgandek tuyuladi.

5. Kesishishning illuziyasi. Bitta toʻgʻri chiziqda ehtimol BX chiziqlari emas, balki AX chiziqlari oʻtadi.

6. Umumiy markazli doiralarning illuziyasi. Umumiy markazli doiralar toʻgʻri chiziqlarning qisqa boʻlaklari (oq rangda tasvirlangan) ushbu doiralarni ularning muhit bilan ke-

sishgan joyidan kesib o'tganligi sababli burama chiziq singari idrok etiladi.

Iluziyalar hayvonlarda ham kuzatiladi. O'zini yashirish ko'rishidagi xomxayollarning amalda qo'llanilishiga asoslangan bo'lib, bu ko'plab yirtqich hayvonlar, baliqlar, parrandalar va hasharotlar uchun muhofaza moslamasi hisoblanadi. O'zini yashirishning samarali usullaridan biri mimikriya (hayvonlar yoki o'simliklarning ular yashayotgan muhitdan farq qilmaydigan tusga shaklga kirishi) bo'lsa, ikkinchisi qiyofaning buzilishidan, ya'ni hayvonning tashqi ko'rinishi shunday o'zgaradiki, uni sira ham bilib va farq qilib bo'lmaydi. Zebraning yorqin targ'il chiziqlari uning ko'rinishi buzilishini ko'rsatadigan misol bo'lib, ana shu targ'illik tufayli muayyan masofadan turib hayvonning tashqi ko'rinishini aniq ajratib olish qiyin bo'lib qoladi.

Vaqtning idrok qilinishi. Vaqt ham makon singari materiyaning asosiy hayot kechirish shakllaridan biridir. Vaqtning idrok qilinishi voqelik, hodisalarining obyektiv ravishda davomiyligini, tezligini va izchilligini aks ettirish demakdir. Obyektiv reallikni aks ettirarkan, vaqtning idrok etilishi kishiga o'zini qurshab turgan muhitdan mo'ljal olish imkonini beradi.

Vaqt sarhisobi faqat inson uchun emas, balki hayvonlar uchun ham moslashuvchanlik faoliyatining favqulodda muhim qismi hisoblanadi.

Odanda vaqt chamalash miya qobig'i bo'lmalari yordamida ro'y beradi. Klinik kuzatuvlarda olingan ko'plab ma'lumotlar vaqtni idrok etish qobiqning ma'lum bir joyida ro'y beradi. Vaqtni sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud, deb taxmin qilishga asos yo'qligini ishonarli ravishda tasdiqladi. Vaqtni idrok etishning buzilishlari qobiqning turli bo'lmalari lat yeganda kuzatiladi. Vaqt yaxlit birlik sifatida amal qiladigan tizimga birlashgan bir qator analizatorlar yordamida idrok qilinadi. Vaqtning idrok etilishi negizini qo'zg'alish va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv tizimida, bosh miyaning katta yarim sharlarida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining susayishi tashkil etadi.

Vaqtning idrok qilishda turli xil analizatorlar ishtirok etadi, lekin vaqtning oraliqlarini kinestezik va eshitish sezgilari juda ham aniq hisob-kitob qila oladi. I.M.Sechenov kinestezik analizatorlarni makon va vaqtga oid munosabatlarni idrok etish organi deb atagan edi. Harakat sezgilari faoliyatning hodisalar tezligi va izchilligining yetarli darajada aniq aks ettirishini ta'minlaydi. Kinestezik analizator ritmni idrok etishda alohida rol o'ynaydi. Ritm deganda psixologik nuqtayi nazardan bir qator obyektlarning bir qator omillar guruhi sifatida idrok qilinishi tushuniladi. Izchil guruhlar, odatda bit-ta namuna bo'yicha hosil bo'ladi va takrorlanish sifatida idrok etiladi. Idrok etilayotgan guruhlarining xarakteri ko'p jihatdan bir qancha omillarga xos xususiyatlar: omillarning nisbatan jadalligi, ularning absolut va nisbiy davomiyligi, vaqtdagi o'rni bilan belgilanadi.

Harakatning idrok qilinishi. Harakatning idrok qilinishi – obyektlarning fazoda egallagan holati o'zgarishining aks ettirishidir. Harakatning idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga egadir. Hayvonlarning ba'zilar uchun harakat qiluvchi obyektlar xavf-xatar yoki oziqlanish imkoniyati paydo bo'lgani haqida signallar vazifasini bajaradi va javob tariqasidagi ta'sirotning tezda ro'y berishiga sabab bo'ladi. Ko'rish tizimi evolutsion rivojlanishining ba'zi xususiyatlari inson ko'zining to'rpardasi tuzilishida saqlanib qolgan: to'rpardaning periferik bo'limlari faqat harakatlarni sezuvchan bo'ladi. Obyekt ko'rish maydonida paydo bo'lganda ko'zning reflektor burilishi yuz beradi, natijada obyektning tasviri ko'rish maydonining markaziga qo'chadi, obyekt ana shu joyda farqlanadi va aniqlanadi.

Harakatni idrok etishda ko'rish va kinestezik analizatorlar asosiy rol o'ynaydi. Tezlik, tezlanish, harakatning yo'nalishi harakatdagi obyektning parametri hisoblanadi. Kishi obyektning fazoda u yoqdan-bu yoqqa ko'chishiga oid ma'lumotlarni ikkita har xil yo'l bilan, ya'ni ko'chish hodisasining o'zini bevosita idrok etish va birmuncha vaqt mobaynida boshqa joyda turgan obyektning harakati haqida xulosa chiqarish asosida olish mumkin. Harakatlanayotgan obyektning harakatsizli-

gi, agar u muayyan vaqt birligidagi ko'zning muayyan o'tkirligi va kuzatishning olisligida farqlash mumkin bo'lgan masofadan ko'proq masofani o'tsa, harakatni bevosita idrok etish mumkin bo'ladi. Aks holda biz harakatning o'zini emas, balki uning natijasinigina idrok etamiz. Soatlardagi daqiqa va soat millari harakati haqida ana shunday xulosa chiqarish mumkin.

Ko'rish orqali biz obyektlar harakati haqidagi axborotni ikkita har xil usul bilan: qayd etilgan nigoh va ko'zlarning kuzatuvchi harakati yordami bilan olishimiz mumkin. Ko'z nisbatan harakatsiz bo'lib turadigan birinchi holda harakatlanuvchi obyekt to'rpardada tezlik bilan joyini o'zgartiradigan tasvirni hosil qiladi. Bunda obyektning to'rpardadagi tasviri faqat bir joydan ikkinchi joyga ko'chib qolmasdan, balki doimo o'zgarib ham turadi. Lekin obyektning har biri alohida tarzda biroz boshqacha holatda aks ettiradigan bir qator ta'sirlardan iborat holda emas, balki harakatlanish holatida bo'lgan yolg'iz o'sha bita obyekt sifatida idrok etamiz.

Shularga ko'ra harakatni idrok etish uchun ko'rinayotgan tasvirlarning ko'z to'rpardasi bo'ylab joyini o'zgartirib turishi lozim degan xulosaga kelish ham mumkin edi. Ko'z to'rpardasida tasvirlarning xuddi shu tarzda ko'chishi biz nigohimizni, xonaning bir burchagidan ikkinchisiga ko'chirgan paytimizda ham sodir bo'ladi. Lekin bu holda biz atrofimizdagi narsalarning harakatini sezmaymiz. Kishi xonada yurganda, tasvirlar ko'z to'rpardasi bo'ylab joyidan ko'chib turishiga qaramasdan, xonani harakatlanmaydigan narsa sifatida, o'zini esa harakatlanuvchi obyekt sifatida idrok etadi. (Vestibulyar apparatning bironta joyi lat yegan bo'lsa bu xildagi tuzatish ro'y bermaydi va harakat qilayotgan odamga butun borliq harakat qilayotgandek bo'lib tuyuladi.)

Harakatni idrok qilishning mumkin bo'lgan ikkinchi usuli — harakatlanuvchi obyektning nigohi bilan kuzatib borishdir. Bunda harakatlanuvchi obyektning tasviri to'rpardaga nisbatan ozmi-ko'pmi darajada harakatsiz bo'lib qoladi, lekin biz baribir obyektning harakatlanganini ko'ramiz. Aftidan, ko'zlarning kuzatuvchilik harakatlari to'rparda bo'ylab joyini o'zgartirib

turadigan signallar mavjud bo'lmagan taqdirda ham harakatning idrok etilishiga olib kelishi mumkin.

Harakat qilib borayotgan narsalarga uzoq vaqt qarab turilgan, harakatning salbiy izchil obrazi paydo bo'ladi. Jumladan, yurib ketayotgan poyezd derazasidan joyga uzoq vaqt qarab turilgandan keyin nigohni vagon ichidagi harakatsiz narsalarga ko'chiriladigan bo'lsa, bunday holda ushbu narsalar poyezd yo'nalishiga teskari yo'nalishda harakat qilayotganidek bo'lib ko'rinadi.

Haqiqiy harakatlar va tuyulma harakatlar farq qilinadi. Tevarak-atrofdagi narsalarni harakatlanayotgan tarzda zohiriy sezish kishida charchagan yoki mast-alast holatida paydo bo'ladi.

Stroboskopik harakat ham tuyulma harakatga misol bo'lishi mumkin. Kinematogrof ana shu harakat prinsipiga asoslanadi. Ma'lumki, ko'z energiya xususiyatiga egadir. Bu shundan iboratki, ko'rish sezgisi qo'zg'atuvchi ta'sir qila boshlashi bilan darhol hosil bo'lmaydi va shuningdek, qo'zg'atuvchining ta'sir etishi to'xtaganidan keyin birmuncha vaqt o'tgach yo'qoladi. Ko'zning unga qaratilgan nur ta'sirini birmuncha vaqt oralig'ida saqlab qolish qobiliyatiga ega ekanligi tufayli kinoda soniyasiga 24 kadr almashgani holda biz lip-lip etib turadigan manzaralar turkumini emas, balki ma'lum darajada barqaror tasvirni ko'ramiz. Bunda harakatlanadigan narsa haqida taassurot bir-birlaridan qandaydir makon oraliqlari bilan ham, qandaydir vaqtincha to'xtalish bilan ham ajratilgan narsalarning ayrim hollarini izchil idrok etish natijasida hosil bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Idrok haqida tushuncha.
2. Idrokning sezgi bilan genetik bog'liqligi.
3. Idrok va bilish jarayonlari.
4. Idrok qonunlari.
5. Idrok illuziyalari.

XX BOB. XOTIRA

Tayanch tushunchalar: mnema, axborot, obrazli xotira, asotsiatsiya, xotira tiplari, harakat xotirasi, fanomenal xotira, mnemonika, cydetizm, reminisentsiya, paramneziya, proaktiv tormozlanish, amneziya.

20.1. Xotira haqida umumiy tushuncha

Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi ta'sirotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi xatti-harakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba ortib borishi hisobiga xulq-atvor sekin-asta murakkablashdi. Agar tashqi dunyoning miya qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari bejiz yo'qolib ketaversa, tajribaning shakllanishi mutlaqo mumkin bo'lmay qolar edi. Bu obrazlar bir-biri bilan o'zaro turli xil aloqalar bog'lagan holda mustahkamlanib, saqlanib qoladi hamda hayot va faoliyat talablariga muvofiq tarzda yana boshqatdan namoyon bo'ladi.

Xotiraning ta'rifi. Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individual tajriba orttirilishiga bog'liqdir. Esda olib qolingan narsani keyinchalik bo'ladigan faoliyatda qo'llanish uchun uni esga tushirish taqozo etiladi. Muayyan bir materialning faoliyat doirasidan chiqib qolishi esa uning unutilishiga olib keladi. Materialni esda saqlash uning shaxs faoliyatidagi ishtirokiga bog'liq bo'ladi. Chunki har bir muayyan paytda kishining xulq-atvori uning butun hayotiy tajribasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, xotira shaxs psixik hayotining eng muhim belgilovchi xususiyati hisoblanadi. Xotiraning roli «o'tmishda yuz bergan» narsani aks ettirish bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. Psixologiyada o'tmish obrazlari tasavvurlar

deb yuritiladi. Biron-bir faol taʼsir xotira jarayonida tashqarida boʻlishi mumkin emas. Zero, har qanday, hatto eng soddada psixik hodisa ham oʻzining har bir qismi keyingisi bilan «bogʻlanishi» uchun saqlab qolinishini muqarrar taqozo etadi. Bu xildagi «bogʻlanish» uchun layoqat boʻlmasa, rivojlantirish boʻlishi mumkin emas: kishi «mangu chaqaloqlik holatida» qolib ketgan boʻlur edi (I.M.Sechenov).

Xotira barcha psixik jarayonlarning eng muhim xarakteristikasi boʻlish bilan birga inson shaxsining birligi va yaxlitligini taʼminlaydi.

Xotira psixologiyaning eng koʻp oʻrganilgan boʻlimlaridan biri hisoblanardi. Lekin hozirgi paytda xotiraning qonuniyatlari yanada oʻrganilishi uni fanning tayin hamda muhimroq muammosiga aylantirib qoʻydi. Juda ham rang-barang, shu jumladan, psixologiyadan gʻoyat yiroq tuyulgan bilimlar sohasi (birinchi galda texnika)ning taraqqiyoti koʻp jihatdan xotira muammolarining oʻrganilishiga bogʻliqdir.

Xotiraning xotira mexanizmlarini oʻrganishning psixologik darajasi xronologik jihatdan bosh nazariyalardan ustunroq boʻlib, fanda juda koʻp turli xildagi yoʻnalishlar va nazariyalarning ilgari surilganligi bilan maʼlumdir. Bu nazariyalarni ular xotira jarayonlarining shakllantirilishida subyektning faolligi qanday rol oʻynashiga va bunday faollikning moxiyatiga qanday yondashuviga bogʻliq holda tasniflash va baholash mumkin. Yo oʻz holicha obyekt («material»), yoxud subyekt va obyektning oʻzaro birgalikdagi harakati mazmunidan qatʼi nazar, yaʼni individning faoliyatiga qiyos boʻlmagan holdagi (subyekt) ongning «sof» faolligi xotira haqidagi koʻpgina psixologik nazariyalarning diqqat markazida boʻladi. Koʻrib chiqilayotgan konsepsiyalarning muqarrar bir yoqlamaligi ana shundandir.

Nazariyalarning birinchi guruhi assotsiativ yoʻnalish deb atalmish yoʻnalishni tashkil etadi. Uning markaziy tushunchasi – assotsiatsiya tushunchasi – aloqa qilishni, bogʻlanishni anglatadi va barcha psixik oʻzgarishlarning muqarrar prinsipi vazifasini bajaradi. Bu prinsip quyidagilardan iboratdir: agar muayyan psixik hosilalar ongda bir vaqtning oʻzida yoki bevo-

sita birin-ketin paydo bo'lsa, u holda bu hodisalar o'rtasida assotsiativ aloqa tarkib topadi va bu aloqaning biron-bir qismi takroran paydo bo'lishi ongda uning barcha elementlari muqarrar ravishda gavdalanishiga olib keladi.

Shunday qilib, assotsiatsionizm har ikkala tasavvur o'rtasida aloqa bog'lanishi uchun ularning ongda ayni bir vaqtda paydo bo'lishini zarur va yetarlicha asos deb hisoblaydi. Shu sababdan assotsionistlar oldiga yodlab qolish mexanizmlarini tobora chuqurroq o'rganishni umuman vazifa qilib qo'yilmagan edi va ular «ayni bir vaqtdagi taassurot»larning paydo bo'lishi uchun zarur tashqi shart-sharoitlarga ta'rif berish bilan cheklanishdi. Bunday shart-sharoitlarning butun rang-barangligini quyidagi uchta turkumga ajratish mumkin: a) tegishli obyektlarning fazo va vaqtdagi turdoshligi; b) ularning o'xshashligi; d) ularning farqlanishi yoki qarama-qarshiligi.

Ong qandaydir passiv tarzda namoyon bo'ladigan assotsiatsionizmga va boshqa nazariyalarga qarama-qarshi o'laroq, xotira jarayonlarida ongning faolligi va ishchanligiga urg'u berish psixologiyadagi bir qancha yo'nalishlar uchun xos xususiyatdir. Bunda esda olib qolish, qayta esga tushirish va shu kabi jarayonlarda diqqatning, maqsadi anglab yetishning muhim rol o'ynashi qayd etilardi. Lekin bu o'rinda ham xotira jarayonlari amalda subyektning faoliyati bilan bog'lanmagan bo'lib, uning uchun ham to'g'ri tushuntirib berilmasdi. Masalan, ezgu niyat esda olib qolish yoki esga tushirish jarayonining o'zini qayta qurishga olib kelmaydigan shunchaki oddiy irodaviy zo'riqish sifatida, ongning «sof» faolligi sifatida namoyon bo'ladi.

Xotiraning faolligi, ongliligi va anglab yetilganligi uning rivojidadagi yuksak bosqichlariga bog'liq deb qaralganligi sababli, uning quyi bosqichlariga tatbiqan yana o'sha turdoshligi bo'yicha bog'lanish tushunchasi qo'llanilib keldi. Bog'lanishlarning ikki turi - assotsiativ va ma'naviy bog'lanishlar borligi haqidagi konsepsiya ana shu tariqa yaratildi. Xotiraning ikkita turi: mexanik («materiya bilan bog'liq xotira») va mantiqiy («materiyadan tamomila mustaqil tarzda»gi, «ruh bilan bog'liq xotira») xotiralar mavjudligi haqidagi nazariya ham shunga bog'liq hol-

da yuzaga kelgandir. Anchagina yashovchi bo'lib chiqqan bu idealistik konsepsiya xotira psixologiyasi tomonidan batamom bartaraf qilindi.

Olimlarning taxminiga ko'ra, obyektning aks ettirilishi, masalan, biron narsani ko'rish orqali idrok etish jarayonida uning shakli bo'ylab ko'z bilan «paypaslab chiqish» impulsning nerv hujayralarining tegishli guruhi bo'ylab idrok qilinayotgan obyektни bamisoli barqaror makon va zamondagi neyronlar tuzilishi tarzida andazalaydigan harakati bilan birgalikda yuz beradi. Shuning uchun tadqiq qilinayotgan nazariya neyronlar modeli nazariyasi deb ham ataladi. Neyronlar modelining yuzaga kelishi va shundan keyingi faollashuvi jarayoni, bu nazariya tarafdorlarining nuqtayi nazarlariga ko'ra, idrok etilgan narsani esda olib qolish, esda saqlash va yana qayta esga tushirish mexanizmini tashkil etadi.

Hozirgi zamon neyrofiziologik tadqiqotlar izlarning neyronlar va molekulyar darajada o'rnashib va saqlanib qolishi mexanizmlariga tobora chuqurroq kirib borayotgani bilan ajralib turadi. Masalan, shu narsa isbotlanganki, nerv hujayralaridan chiqadigan aksonlar (nerv tolalari) yo boshqa hujayralarning dendritlari bilan tutashadi, yoxud o'z hujayrasi tanasiga qaytib keladi. Nervlar bog'lanishi bunday tarzda tuzilganligi tufayli har xil murakkablikdagi qo'zg'atishning reverberlashtiruvchi (aks ettiruvchi) doiralari takrorlab turish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada hujayraning o'zini-o'zi to'yintirishi ro'y beradi, negaki, unda paydo bo'lgan quvvat yo bevosita shu hujayraning o'ziga qaytib kelib, qo'zg'atishini mustahkamlaydi, yoxud boshqa neyronlar zanjiri orqali qaytib keladi. Ayrim tadqiqotchilar muayyan tizim hududidan tashqari chiqmaydigan reverberlashtiruvchi qo'zg'atishning ushbu chidamli doirasini izlarning saqlanish jarayonining fiziologik substrati deb hisoblaydilar. Bu o'rinda izlarning qisqa muddatli deb atalmish xotiradan uzoq muddatli xotiraga ko'chishi sodir bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar xotiraning ushbu turlari yagona mexanizmga tayanadi, deb hisoblashsa, boshqalari bu o'rinda turli xildagi xususiyatlarga ega bo'lgan ikkita mexanizm amal qiladi, deb faraz qilishadi. Afti-

dan, bu muammoning uzil-kesil hal qilinishiga bioximik tadqiqotlar yordam berishi kerak.

Xotiraning bioximik nazariyalari. Shunday qilib, hozirgi bosqichda xotiraning mexanizmlarini o'rganishning neyrofiziologik darajasi bioximik tadqiqotlar darajasiga tobora yaqinlashib va ko'pincha to'g'ridan to'g'ri qo'shilib ketmoqda. Bu hol ushbu darajalarning tutashgan joyida olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topdi. Ana shu tadqiqotlar asosida, jumladan, esda olib qolish jarayonining ikki bosqichli xarakterga egaligi haqida gipoteza paydo bo'ldi. Bu gipotezaning mohiyati quyidagilardan iboratdir. Birinchi bosqichda (qo'zg'atuvchining bevosita ta'siridan so'ng) miyada hujayralarda asl holiga qaytuvchi fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan qisqa muddatli elektroximik reaksiya yuz beradi. Ikkinchi bosqich birinchi bosqich negizida yuzaga kelib, aslida u yangi oqsil moddalar (proteinlar)ning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik reaksiyadan iboratdir. Birinchi bosqich soniyalar yoki daqiqalar mobaynida davom etadi va uni qisqa muddatli esda olib qolishning fiziologik mexanizmi deb hisoblaydilar. Hujayralarda qaytarilmaydigan o'zgarishlarga olib keladigan ikkinchi bosqich uzoq muddatli xotiraning mexanizmi hisoblanadi.

Agar tajriba o'tkazilayotgan hayvonga biron yangi narsa o'rgatilgan bo'lsa, undan ketishi qisqa muddatli elektroximik reaksiyani u bioximik reaksiyaga aylana boshlaganiga qadar birdaniga to'xtatib qo'yilsa, hayvon nimani o'rgatilganini esiga tushira olmaydi.

Bir tajribada kalamushni poldan salgina baland supachaga chiqarib qo'yildi. Jonivor shu zahotiy oq polga sakrab tushaverdi. Biroq bir gal sakrayotgan chog'ida elektr razryadi ta'siridan og'riq sezgach, kalamush tajribadan hatto 24 soat o'tgandan keyin ham sakrab tushmagan va uni supachadan olib qo'yishlarini kutib o'tiravergan. Boshqa bir kalamushda og'riq sezish bilan oq darhol qisqa muddatli esda olib qolish reaksiyasi to'xtatib qo'yilgan edi. Bu kalamush ertasi gayoq o'zini go'yo hech narsa sodir bo'lmagandek tutaverdi.

Ma'lumki, vaqtincha hushdan ketib qolish odamlarda ham bevosita hodisa yuz bergunga qadar sodir bo'lgan narsalarning unutilib qo'yilishiga olib keladi.

Hali tegishli bioximik o'zgarishlar boshlangunga qadar qisqa muddatli elektroximik reaksiya oqibatida mustahkamlanib ulgurmagan ta'sirotning izlari o'chib ketadi, deb o'ylash mumkin.

Xotiraning kimyoviy nazariyasi tarafdorlari tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida nerv hujayralarida ro'y beradigan o'ziga xos kimyoviy o'zgarishlarning izlarini mustahkamlash, esda saqlab qolish va yana qayta esga tushirish jarayonlari mexanizmlarining negizini tashkil etadi. Bu o'rinda neyronlarning oqsil molekulalarini va eng avvalo, nuklin kislotasi deb ataladigan kislotalarning molekulalarini har xil tarzda qayta guruhlash nazarda tutiladi. Dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) genetik, irsiy xotiraning, ribonuklein kislotasi (RNK) esa oktogenetik, individual xotiraning asosi hisoblanadi, shvetsiyalik bioximik Xiden o'tkazgan tajribalarda shu narsa ayon bo'ldiki, nerv hujayrasining qo'zg'atilishi uning tarkibida RNK ko'payishiga olib keladi va unga tanish qo'zg'atuvchilarning takroriy ta'sir ko'rsatishidan tebranish qobiliyati borligi haqida xabar qiluvchi uzoq davom etadigan bioximik izlar qoldiradi.

RNK juda o'zgaruvchan bo'ladi; uning ehtimoldagi o'ziga xos o'zgarishlari miqdori 1015--1020 soni bilan o'lchanadi; ularning komponentlari shakli, fazoda joylashishi, bo'linib ketish tezligi va boshqalar o'zgarib turadi. Bu esa RNK benihoya katta miyadagi axborotlarning kalitini o'zida mujassamlashtira oladi deganidir. RNKning boshqa ta'sirotlarga javob qaytarmagan holda tanish qo'zg'atuvchilarning o'ziga xos tuzilishi ta'sirida tebranish qobiliyatiga egaligi xotiraning sirli bioximik mexanizmi negizini tashkil etishi ehtimoldan xoli emas.

Eng yangi, shu jumladan, bioximik tadqiqotlarda erishilgan yutuqlar kelajakda inson xotirasini boshqarish imkoniyatlari xususida optimistik prognozlar qilish uchun asos beradi. Lekin ana shunday prognozlar bilan birga ba'zi asossiz, ayrim hollarda xayoliy g'oyalar, masalan, odamlarga ularning nerv

tizimiga to'g'ridan to'g'ri kimyoviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan ta'lim berish mumkinligi haqidagi, bilimlarning maxsus xotira dorisi (tabletkasi) yordamida yetkazilishi haqidagi va shu kabi g'oyalar rasm bo'lib qoldi.

Shu munosabat bilan inson xotirasi jarayonlari garchand barcha bosqichlarida o'zaro birgalikda juda murakkab harakat qilish bilan ajralib tursa ham, ularning sababiy bog'liqligi (determinatsiya) hodisasi yuqoridan, kishining faoliyati asosida ro'y beradi. Bu o'rinda butundan uning qismlari sari borish prinsipi amal qiladi. Shunga muvofiq tashqi ta'sirlarning izlari moddiylashuvi ham boshqa yo'nalishda emas, aksincha organizm – a'zo (organ) uning yo'nalishida amalga oshadi. Xotiraning farmakologik katalizatorlaridan foydalanishi ishning mohiyatini o'zgartira olmaydi.

Xotira mexanizmlarini turli darajalarida tadqiq qilish, shubhasiz, bir-birini o'zaro boyitadi.

20.2. Xotira turlari

Xotira kishi hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida ishtirok etishi sababli uning namoyon bo'lishi shakllari ham benihoya rang-barangdir. Xotiraning turlarga bo'linishi, eng avvalo, esda olib qolish va yana qayta esga tushirish jarayonlari o'rin olgan faoliyatning aynan o'ziga xos xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu xotiraning u yoki bu turi (masalan, ko'rish yoki eshitish xotirasi) kishida uning psixik tuzilishiga xos xususiyat sifatida gavdalangan hollar uchun ham to'g'ridir. Muayyan psixik xususiyat faoliyatda gavdalanmasidan birdan unda shakllanadi-ku, axir.

Xotira ta'riflarining esda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo'ladigan faoliyatning xususiyatlariga bog'liqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda xotiraning ayrim turlari uchta asosiy mezonga muvofiq tarzda bo'linadi: 1) faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, emotsional, obrazli va so'z mantiqli turlarga bo'linadi; 2) faoliyatning maqsadlari (xususiyatiga ko'ra ixtiyorsiz va ixti-

yoriy xotira turlariga bo'linadi; 3) materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra (uning faoliyatdagi roli va tutgan o'rniga bog'liq ravishda) qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi.

Faoliyatning har xil turlarida psixik faollikning turli xil ko'rinishlari: harakat, emotsional, sensor, aqliy ko'rinishlari ustunlik xotira turlari qilishi mumkin. Faollikning ushbu ko'rinishlaridan har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulida: ish-harakatlarida, tuyg'ularda, obrazlarda, o'y-fikrlarda o'z ifodasini topadi. Xotiraning ularga xizmat qiluvchi o'ziga xos turlariga psixologiyada tegishli nomlar: harakat, emotsional obrazli va so'z-mantiqli xotira nomlari berilgandir.

Harakat xotirasi – turli xildagi ish harakatlari va ularning tizimini esda olib qolish, esda saqlash va yana qayta esga tushirishdan iboratdir. Xotiraning boshqa turlariga qaraganda uning bu turi ustunligi aniq namoyon bo'ladigan odamlar uchrab turadi. Psixologlardan biri musiqiy asarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmasligiga, yaqindagina eshitgan operani esa bor-yo'g'i pantomima tarzidagina qayta tiklay olishiga iqror bo'lgan edi. Boshqa odamlar esa, aksincha, o'zlarida harakat xotirasi borligini umuman payqamaydilar. Xotiraning bu turi benihoya katta ahamiyatga ega ekanligining boisi shundaki, u xuddi yurish, yozish va shu kabi malakalar bilan bab-baravar tarzda turli xil amaliy va mehnat malakalari shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Harakatlar xotirada saqlanib qolmagan taqdirda biz har gal dastlab tegishli harakatlarni bajarishni o'rganishga majbur bo'lardik. Kishining jismoniy jihatdan abjirligi mehnatdagi mahorati, «oltin qo'lligi» odatda uning yaxshi harakat xotirasiga ega ekanligining alomati hisoblanadi.

Emotsional xotira – his-tuyg'uga xos xotiradir. His-tuyg'ular hamisha bizga ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotgani, bizning tevarak-atrofdagi olamga munosabatimiz qanday yo'lga qo'yilganligi haqida xabar berib turadi. Shuning uchun ham hissiy xotira har bir kishining hayoti va faoliyatida juda muhim ahamiyatga egadir. His etilgan va xoti-

rada saqlab qolingan tuyg'ular yoxud harakatga chorlovchi, yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga sabab bo'lgan harakatlardan tiyilishga undovchi signallar tarzida amal qiladi. Boshqa bir kishiga hamdard bo'lish, kitob qahramoni kechinmalari bilan yashay bilish qobiliyati hissiy xotiraga asoslanadi. «Agar siz boshingizdan kechirganlaringiz bir lahza esga kelganda ranguingiz oqarib, yo qizarib ketish qobiliyatiga ega bo'lsangiz, agar siz bir vaqtlar boshingizga tushgan musibat haqida o'ylashdan qo'rqsangiz, u holda sizda his-tuyg'uni xotiralash yoxud hissiy xotira mavjuddir»¹.

Hissiy xotira — ma'lum bir ma'noda xotiraning boshqa turlariga qaraganda kuchliroq bo'lishi mumkin. Qachonlardir bo'lib o'tgan va batamom esdan chiqib ketgan voqealardan, o'qilgan kitoblardan, ko'rilgan kinofilmlardan ba'zan taassurot, his-tuyg'ugina qolishini har kim o'z tajribasidan biladi. Lekin bu xildagi tuyg'u ham qup-quruq narsa emas. Aynan uning uchun ham u bog'lanishlar zanjirini kengaytirishdagi ilk tugun sifatida xizmat qilishi mumkin.

Obraz xotirasi — tasavvurlarni, tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovushlarni, hidlarni, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat xotira hisoblanadi. U ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilishga oid xotiradir. Agar sog'lom rivojlangan barcha odamlarning hayotda mo'ljal olishida ko'rish va eshitish xotirasi odatda yaxshi rivojlangan va yetakchi rol o'ynaydigan bo'lsa, u holda teri tuyishi, hid bilish va ta'm bilishga oid xotiralarini ma'lum bir ma'noda professional xotira turlari deb atash mumkin: xotiraning bu turlari xuddi tegishli sezgilar kabi faoliyatning o'ziga xos shart-sharoitlari bilan bog'liq holda alohida tarzda rivojlanadi. Ular xotiraning yetishmaydigan turlari o'rnini bosishi yoki uning vazifasini bajarishi to'g'ri kelgan sharoitlarda, masalan, ko'zi ojizlar, karlar va shu kabi nogiron odamlarda hayron qolarli darajada rivojlangan bo'lishi mumkin.

¹ Станцлавский С.К., Работа над собой в творческом процессе переживания. Собр. Соч. в 8-ми т. М.: Искусство, 1954, 2-том, 217-бет.

«Badiiy» kasb bilan shug'ullanadigan odamlarda obraz xotirasi ayniqsa rivojlangan bo'ladi.

Ba'zan **eydetik xotira** deb atalmish xotiraga ega bo'lgan odamlar ham uchraydi. Xotiraning eydetik, ya'ni ko'rgazmali obrazlari – tashqi qo'zg'atuvchi bilan his-tuyg'u a'zolarining qo'zg'atilishi natijasidir. Eydetik obrazlar shu jihatdan ham tasavvurlarga o'xshaydiki, ular biron ta'sir o'tkazadigan narsalar yo'qligida ham hosil bo'lib, oddiy tasavvurga mutlaqo sig'maydigan darajadagi detallashtirilgan ko'rgazmaliligi bilan ajralib turadi. Kishi, masalan, ko'z o'ngida yo'q bo'lgan narsani odatda idrok etish chog'ida amalga oshirish mumkin bo'lgani kabi nigohni u qismdan bu qismga «ko'chirgan» holda barcha ikir-chikirlarga qadar «ko'radi». Xuddi eydetik ko'rish xotirasiga o'xshash holdagi yaqqol eydetik eshitish va ehtimol hatto eydetik tuyish xotirasi ham uchrab turadi, deb ta'min qilish mumkin.

So'z-mantiq xotirada ikkinchi signallar tizimi asosiy rol o'ynaydi. So'z-mantiq xotira boshqa turdagi xotiralarning rivojiga tayangan holda ularga nisbatan yetakchi bo'lib yuzaga chiqadi va xotiraning boshqa barcha turlari rivoji uning rivojiga bog'liq bo'lib qoladi. Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirib olishlarida so'z-mantiq xotira yetakchi rol o'ynaydi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira. Xotiraning yuqorida ko'rib chiqilgan turlarida, shuningdek, uning faoliyat zamirida shakllanib, so'ngra faoliyatning bamisoli qonuniy xususiyatlari bo'lib qoladigan ta'riflari aks etgandir. Kishi xotirasining u yoki bu xildagi tuzilishi endilikda faoliyatning o'zgaruvchan shart-sharoitlariga: motivlariga, maqsadlariga, usullariga bog'liq bo'lmagan holda ham gavdalanishi mumkin.

Ammo xotirani faollik bilan olib borilayotgan faoliyatning o'z xususiyatlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq turlariga bo'linishi ham mavjuddir. Jumladan, faoliyat maqsadlariga qarab xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira turlariga ajratiladi.

Biron narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish, va yana qayta es-

ga tushirish ixtiyorsiz xotira deb ataladi. Oldimizga bironta maqsad qo'yib esda olib qolganimizda ixtiyoriy xotira haqida gap boradi. So'nggi holatda esda olib qolish va yana qayta esga tushirish jarayonlari o'ziga xos tarzdagi mnemik harakatlar sifatida yuzaga chiqadi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira shu bilan birgalikda xotiraning rivojlanishidagi ikkita izchil bosqichni ham o'zida aks ettiradi. Hayotimizda ixtiyorsiz xotira naqadar katta o'rin egallashini har bir kishi o'z tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotira asosida tajribamizning hajmi jihatidan ham, hayotiy ahamiyati jihatidan ham asosiy qismi maxsus mnemik niyat-maqsadlar qo'yilmasdan va kuch-g'ayratlar sarflanmasdanoq tarkib topadi. Ammo kishi faoliyatida ko'pincha o'z xotirasini boshqarish zarurati tug'ilib qoladi. Ana shunday sharoitlarda zarur narsalarni ataylab yod olish yoki eslab qolish imkonini beradigan ixtiyoriy xotira rol o'ynaydi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira. Esda olib qolishning eng dastlabki, hali tashqi ta'sirlarning izlari mustahkamlan-guniga qadar va shuningdek ular ayni hosil bo'layotgan paytida yuz beradigan jarayonlar keyingi vaqtlarda tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. U yoki bu material xotirada saqlanib qolishi uchun u subyekt tomonidan tegishli ravishda mushohada qilingan bo'lishi kerak. Bunday mushohada uchun muayyan vaqt talab qilinadi, unga izlarni konsolidatsiyalash (birlashtirish) vaqti deb aytiladi. Subyekt tomonidan bu jarayon go'yo hozirgina bo'lib o'tgan voqea-hodisaning aks-sadosi tarzida kechiriladi: bevosita idrok etmayotgan narsani biz biron daqiqa mobaynida go'yo hali ham ko'rayotganday, eshitayotganday bo'lamiz va hokazo (u ko'z o'ngimizda turganday, qulog'imizga eshitilayotganday bo'laveradi va hokazo). Bu jarayonlar beqaror va asli holiga qaytuvchandir, lekin ular shu qadar o'ziga xoslikka ega va tajriba orttirish mexanizmlari amal qilishidagi roli shu qadar ahamiyatlidirki, ularni axborotni eslab qolish, esda saqlash va yana qayta esga tushirishning alohida bir turi hisoblanadi. Bu jarayon qisman muddatli xotira degan nom oldi.

Xotiraning qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiraga bo'linishi yangilik hisoblanadi. Ilgari bunga ma'lum darajada bevosita va bivosita deb atalmish bo'linish to'g'ri kelardi. «Bevosita esda olib qolish» degan atama orqali subyektning go'yo biron-bir darajadagi faolligisiz yuz beradigan esda olib qolishning bamisoli avtomatik xususiyati ta'kidlanar edi. Bevosita esda olib qolish ozmi-ko'pmi darajada tarqalgan muayyan usullar va vositalarning qo'llanilishini taqozo etardi. Hozirgi paytda xotirani bevosita va bivosita turlarga ajratish, aftidan, batamom barham topgan bo'lishi kerak. Buning asosiy sababi shundan iboratki, hatto qisqa muddatli esda olib qolish ham, ma'lum bo'lishicha, obyektning muayyan darajadagi faolligini va tegishli usullardan foydalanishni taqozo qiladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda qisqa muddatli esda olib qolish ham bevositalik bilan bir xildadir. Uning usullarini o'zini-o'zi kuzatish orqali namoyon qilib bo'lmaydi, negaki u yuksak darajada avtomatlashgan ichki harakatlardan iboratdir.

Operativ xotira tushunchasi kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan dolzarb harakatlar, ishlarga xizmat qiladigan mnemik jarayonlarni anglatadi. Qachonki, biz biron-bir murakkab harakatni, misol uchun arifmetik amalni bajarayotgan bo'lsak, u holda uni qismlarga, bo'laklarga ajratgan holda bajaramiz. Bunday holda ishni bajarish davomida ayrim oraliq natijalarni «yodimizda» saqlab boramiz. Pirovard natijaga yaqinlashganimiz sari «ishlab chiqilgan» konkret material unutilib qolishi mumkin. Aynan shunga o'xshash hodisalarni o'qish, ko'chirib yozish va umuman istalgan birorta murakkab harakatni bajarayotganimizda kuzatamiz. Kishi ish bajarayotib qo'llaniladigan materialning bo'laklari har xil bo'lishi mumkin (bolalarda o'qish jarayoni alohida harflarni birga qo'shishdan boshlanadi). Xotiraning operativ birliklari deb atalmish ushbu bo'laklarning hajmi u yoki bu faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Eng maqbul operativ birliklarni hosil qilishning ahamiyati ana shu yo'l bilan belgilanadi.

Operativ xotiraning bu tarzda tushunilishi garchand uzoq muddatli va qisqa muddatli xotiralarni bir-biriga yaqinlashtiruv-

chi nuqtalarni belgilab berishiga qaramay, uni uzoq muddatli xotiradan ham, qisqa muddatli xotiradan ham ajratib turadi. Operativ xotirada qisqa muddatli xotiradan ham, uzoq muddatli xotiradan ham kelib turadigan materiallardan iborat «ishchi qotishma» hosil bo'ladi. Ushbu ishchi material amal qilib turgan davri mobaynida operativ xotira tasarrufida bo'ladi.

Har xil xotira turlarining o'zaro bog'liqligi. Bu o'rinda xotirani turlarga bo'lish uchun asos qilib olingan mezonlar inson faoliyatining unda tarqoq holda emas, aksincha tarkiban birligida namoyon bo'ladigan turli xil jihatlar bilan bog'liqdir. Xotiraning tegishli turlari ham xuddi ana shunday birlikni ifodalaydi. Jumladan, tushuncha haqidagi fikr xotirasi so'z-mantiq xotira bo'lish bilan birga har bir alohida holda, shuningdek, yo ixtiyorsiz, yoxud ixtiyoriy xotira bo'lib hisoblanadi; ayni chog'da u albatta yo qisqa muddatli, yoxud uzoq muddatli xotira tarzida namoyon bo'ladi.

Boshqa jihatdan qaraganda, xotiraning aynan bir xildagi mezoniga ko'ra ajratilgan har xil turlari ham o'zaro bog'langan bo'ladi. Jumladan, harakat, obrazli, so'z-mantiq xotira shuning uchun ham bir-biridan alohida amal qila olmaydi, negaki eng avvalo tashqi olamdagi narsalar va hodisalarning tegishli jihatlari va binobarin, ularning aks ettirilishi shakllari ham o'zaro bog'langandir. Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira o'rtasida ham murakkab izchil bog'lanish mavjud (bu bog'lanishlarning mohiyati esda olib qolish jarayoniga ta'rif berilayotganda bayon etiladi). Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira turiga kelganda shuni aytish kerakki, ular o'z mohiyati jihatidan bitta jarayonning ikkita bosqichi hisoblanadi. Qisqa muddatli xotira — shunday bir o'tkazuvchidirki, biron-bir narsa bu o'tkazuvchini chetlab uzoq muddatli xotiraga o'ta olmaydi. Uning barcha jarayonlari hamisha qisqa muddatli xotiradan boshlanadi.

20.3. Xotira jarayonlari va mexanizmlari

Xotirani har xil turlarga ajratishda faoliyatda konkret qaysi bir funksiyani — materialni esda olib qolishni, esda saqlashning yoxud unga muhimlik bag'isblashnimi bajarishidan qat'i

nazar, faoliyatni belgilaydigan ba'zi barqaror xususiyatlari va jihatlari nazarda tutiladi. Masalan, xotirani harakat, emotsional, obrazli va so'z-mantiq turlarga ajratishda uning obyektini ham esda olib qolish, ham esda saqlash, ham uni yana qayta esga tushirish amalga oshiriladigan shakl kabi (obraz, so'z va hokazo) jihati ham aks etgandir.

Lekin xotiraning turlaridan tashqari uning jarayonlari ham alohida ajratib ko'rsatiladi. Bunda xotiraning hayotda va faoliyatda bajaradigan aynan o'sha turli xildagi funksiyalari asos qilib olinadi. Materialni esda olib qolish (mustahkamlash), yana qayta esga tushirish (muhimlik bag'ishlash, qayta tiklash), shuningdek, uni esda saqlab qolish va unutish xotira jarayonlariga kiritiladi. Ko'rsatib o'tilgan jarayonlarda xotiraning faoliyat bilan aloqasi, shuningdek, uning hodisalari alohida mustaqil (mnemik) harakatlar tarzida kechishi ayniqsa yaqqol gavdalanadi.

Garchand xotira jarayonlarni bir-biriga taqqoslaganda ularning bajaradigan vazifalari yo'nalishida go'yo ziddiyatlar borligi ko'zga tashlanganday bo'lsa ham, bu jarayonlarni yaxlit birlikdan iborat deb hisoblash kerak. Bu birlik ularning faqat tashqi bog'lanishida va o'zaro bir-biriga bog'liqligida (materialni yana qayta esga tushirish ta'riflari ko'p jihatdan, masalan, uni esda olib qolish, shuningdek, esda saqlash va unutish xususiyatlari bilan belgilanadi) emas, balki ularning o'zaro bir-biriga o'tishdagi va bir jarayonning ikkinchi jarayonga dialektik tarzda o'tishlaridagi yanada yaqinroq munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Esda saqlab qolish — unutish jarayonlari ham xuddi shunday tarzda tahlil qilinishi mumkin. Lekin buning uchun ular eng avvalo aynan jarayonlar sifatida anglanilgan bo'lishi kerak. Jumladan, esda saqlab qolish individ faoliyatida xotira materialining ishtirok etish funksiyasi sifatida tushunilishi mumkin. Bunday ishtirok etish anglab yetilmagan holda yuz berishi ham mumkin. Lekin kishining har qanday harakatiga uning shaxsiga oid jamiki tajribasi ta'sir qiladi. Shu ma'noda u yoki bu materialning xotiradan ko'tarilishi (unutilishi)

uning faoliyat doirasidan chiqib qolishini anglatadi, xolos. Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, butunlay unutish boʻlmaydi. Psixologik jihatdan bu psixikaning muayyan mazmunini qisqa muddatli xotiraga, anglab yetilgan doiraga koʻchirishda qiyinchilik tugʻilganligini (yoki koʻchirib boʻlmasligini) anglatadi, xolos. Bu tushuncha odatda aynan ana shunday maʼnoda (koʻproq yoki ozroq darajada batamom unutib qoʻyish maʼnosida) ishlatiladi. Biroq jarayon sifatidagi unutish genetik jihatdan olganda diqqatning obyektidan chalgʻitilishdan boshlanadi. Diqqatning A obyektidan B obyektiga har qanday taxditdagi koʻchirilishining oʻziga xos tarzda unutilishini anglatadi. Shuning uchun ham faqat qayta esga tushirishdagi qiyinchilik (yoki esga tushirib boʻlmasligi) bilan bogʻliq narsalargina emas, balki muayyan paytda tajribaning muhimligi anglanilmayotgan, ongda ishtirok etmayotgan jamiki mazmuni ham unutilgan boʻladi. Shunday qilib, unutish har qanday psixik jarayonning, shu jumladan, har qanday xotira jarayonining ham bir jihati hisoblanadi.

20.4. Esda olib qolish

Esda olib qolishni xotiraning yangi materialni ilgari oʻzlashtirilgan material bilan bogʻlash orqali esda saqlab qolishiga olib keladigan jarayon sifatida taʼriflash mumkin. Bu individ tajribasini yangi bilimlar va xulq-atvor shakllari bilan boyitishning zarur shartidir. Esda olib qolish hamisha tanlangan boʻladi, sezgi aʼzolarimizga taʼsir qiladigan barcha narsalar ham xotiramizda saqlanib qolavermaydi.

Esda olib qolish va harakat. Eksperimentlarda shu narsa isbotlanganki, har qanday esda olib qolish, shu jumladan, ixtiyorsiz esda olib qolish ham, subyektning obyekt bilan harakatining qonuniy mahsulidir.

Bir tajribada sinaluvchilarga kartoehkalarda tasvirlangan narsalarni tasniflash taklif qilindi. Har bir kartoehkada narsalardan tashqari sonlar ham tasvirlangan edi. Tajriba oʻtkazilib boʻlgach, sinaluvchilardan kartoehkalarda nimalarni koʻrganliklarini esga tushirishlarini soʻrashdi. Bu holda narsalarning

esda saqlanib qolganligi ayon bo'ldi. Sonlarga kelganda esa ba'zi sinaluvchilar ularni umuman ko'rmaganliklarini tasdiqlashdi. Boshqa bir tajribada kartochkalarni ularda tasvirlangan sonlar tartibiga ko'ra yoyib qo'yish kerak edi. Bu holda hammasi aksincha bo'ldi: sonlar yaxshi eslab qolindi va rasmlar qariyb payqalmadi.

Shunday qilib, kishi nima bilan harakat qilgan bo'lsa, shu narsa esda saqlab qolinadi. Amaliy ish harakatlaridan foydalanilgan holda o'tkazilgan tajribalarda ham ana shu qonuniyat aniqlanadi.

Bayon etilgan faktlar shuni ishonarli tarzda isbotlaydiki, voqealar (rasm va sonlar)ning shunchaki oddiy yondoshligi esda olib qolishning bir xil ahamiyatga ega natijalarini ta'min eta olmaydi. Hamma gap kishining materialni nima qilishiga bog'liqdir. O'z-o'zidan ravshanki, faoliyatning aynan bir xil tashqi shart-sharoitlari har xil odamlarda esda olib qolishning mutlaq bir xildagi natijalariga olib kelmaydi, negaki, bu shart-sharoitlar hamisha kishining o'tmishdagi tajribasi, uning individual xususiyatlari orqali yangicha aks etadi. Ammo bu, esda olib qolishning faoliyatga bog'liqligi haqida gapiradigan bo'lsak, kishining har qanday harakatini umuman uning shaxsiyatidan ajratilmagan tarzda, ya'ni shaxsning mayllari, maqsadlari va ularga erishish usullari xususiyatlariga bog'liq deb hisoblash kerakligini anglatadi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli esda olib qolish. Qisqa muddatli esda olib qolish degani nima? Agar bizga bir nechta tasodifiy raqamlar, harflar yoki so'zlarni o'qib berib, ularni darhol takrorlashimizni so'rashsa, buni sira ham qiynalmasdan bajargan bo'lardik. Hatto bir qator ma'nosiz bo'g'inlarni yana qayta esga tushirish ham (qatorlarning har birida besh-tadan ziyod bo'g'in bo'lmagan taqdirda) bizda unchalik qiyinchilik tug'dirmasdi. Masalan, biz «bo-bom ov-chi» qabilidagi bo'g'inlar qatorini faqat u talaffuz etilishi bilanoq darhol takrorlay olgan bo'lardik. Talaffuz etilgandan keyin birmuncha vaqt o'tgach, biz bu ishning uddasidan chiqa olmasdik. Bu qisqa muddatli esda olib qolish demakdir. Mazkur qatorni hat-

to uzoq vaqt mobaynida esda saqlab qolish uchun ham uni bir necha marta takrorlashimizga ehtimol, hatto esda olib qolishning allaqanday maxsus (mnemotexnik) usullaridan foydalanishimizga to'g'ri kelgan bo'lardi (masalan, bo'g'inlarni so'zga birlashtirib, ulardan «bobom – ov – chi» tarzida sun'iy gap tuzilgan bo'lardi). Bunday yo'sindagi esda olib qolish uzoq muddatli esda olib qolish bo'lar edi.

Qisqa muddatli esda olib qolishning avvalo injenerlik psixologiyasi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etilayotganligi bugungi kunda umumnazariy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Aytish mumkinki, hozirgi zamon xotira psixologiyasining butun masalalari baribir uning qisqa muddatli jarayonlari qonuniyatlarini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Bu o'rinda xotirani va uning mexanizmlarini tadqiqotning barcha darajalarida – psixologik, neyrofizik, bioximik jihatdan o'rganish natijasida tub muammoning hal etilishiga erishilishi kerak.

«Qisqa muddatli esda olib qolish» degan nomning o'zi-yoq tegishli tasniflashga, avvalo, vaqtga oid belgi asos qilib olinganligini ko'rsatadi. Biroq vaqt o'lehoivi xotira hodisalarini anglab yetishda har qancha muhimligiga qaramay o'zicha qisqa muddatli esda olib qolishga tugal bir ta'rif berilishini ta'minlay olmaydi. Xotira jarayonlarini o'rganishda uning turli xil vaqt sharoitlarida axborotni o'zlashtirish borasida kishi faoliyati xususiyatiga bog'liqligini aniqlashi kerak. Shu narsa aniqlanganki, esda olib qolish yuqoridan berilgan dasturga ko'ra boshqariladi, ya'ni kishining esda olib qoladigan material ishtirokida amalga oshiradigan faoliyati xususiyati bilan belgilanadi.

Operativ esda olib qolish deb ataladigan eslab qolishni qisqa va uzoq muddatli esda olib qolish o'rtasidagi oraliq darajalaridan biri deb hisoblash mumkin. Operativ esda olib qolishni kishining odatdagi harakatlariga xizmat qiluvchi xotira jarayoni deb ta'riflash mumkin. U kishi bajarayotgan harakatning har bir konkret jarayonida biron natijaga erishish sharoitlaridan biri sifatida yuz beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, operativ xotiraning xususiyatlari (hajmi, aniqligi, labilligi va boshqalar), bir tomondan,

xizmat ko'rsatilayotgan faoliyatning mazmuni va tuzilishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan uning shakllanganlik darajasiga bog'liqdir.

Operativ xotiraning unumligini va demak, u xizmat ko'rsatayotgan faoliyatning muvaffaqiyatligini ta'riflashda xotiraning bizga hozirgacha ma'lum bo'lgan operativ birliklari, ya'ni unda harakat maqsadlariga erishish jarayonida saqlanib turadigan muayyan hajmdagi material markaziy o'rinni egallaydi. Xotiraning operativ birliklari har xil darajada bo'lishi mumkin. Maqbul darajadagi operativ birlikni shakllantirish – operativ xotiraning va u xizmat ko'rsatadigan faoliyatning unumligini oshirishda asosiy vositadir.

Operativ esda olib qolish darajasida axborotning qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o'tish jarayonini kuza-tish mumkin. Masalan, bir-biriga bog'lanib keladigan matn*ni* o'qiyotganimizda harflarning mohiyatini ular so'zlarga bir-lashtirilganiga qadar, so'zlarning mohiyatini ular gaplarga bir-lashtirilganiga qadar xotiramizda saqlab turishimiz kerak va hokazo. Bu jarayonlardan har biri amalga oshirilib bo'lgandan keyin ularga tegishli konkret mohiyat unutiladi (oldingi sahi-faning uchinchi abzatsidagi ikkinchi gap qanday so'zlar bilan boshlanganini eslay olmaymiz). Biroq bordi-yu oraliq jarayon-larda «ishlatilgan» material tamomila unutilib ketadigan bo'lsa, u holda har bir jarayondan keyin harakatni davom ettirish amri mahol bo'lib qolardi. Har bir yuqoriroq darajaga tegishli ma'no filtri tizimidan o'tkazilgan juz'iy ma'nolarni o'zida birlashtira-digan yanada umumiyroq ma'nolar o'tkazilib turadi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolish. Esda olib qolish jara-yonlarini o'ziga jalb etgan faoliyatning maqsadlariga muvofiq esda olib qolishning ikkita asosiy turi: ixtiyorsiz va ixtiyoriy es-da olib qolish farq qilinadi.

Ixtiyorsiz esda olib qolish – bilish va amaliy harakatlarni amalga oshirishning mahsuli va shartidir. Bunda esda olib qo-lish o'z holicha bizning maqsadimiz sifatida yuzaga chiqma-ganligi sababli beixtiyor xotiramizda olib qolingani jamiki nar-salar xususida odatda «O'zidan-o'zi esda saqlanib qolgan ekan»

deymiz. Aslida esa bu faoliyatimizga xos xususiyatlar bilan bog'liq holdagi qat'iy qonuniy jarayondir! Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish unumli bo'lishi uchun muayyan materialning faoliyatda tutgan o'rnini muhim ahamiyatga egadir. Agar material faoliyatning asosiy maqsadi mazmuniga kirgan bo'lsa, u o'sha maqsadga erishishi shartlariga va usullariga jalb etilgan holdagiga nisbatan yaxshiroq esda olib qolinadi.

Ixtiyoriy esda olib qolish – maxsus mnemik harakatlar, ya'ni asosiy maqsadi esda olib qolishdan iborat bo'lgan harakatlar ma'sulidir. Bunday tarzdagi harakatning mahsuldorligi ham uning maqsadlari, sabablari va uni amalga oshirish usullarining xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bunda maxsus o'tkazilgan tadqiqotlar materialni aynan, to'la va izchil eslab qolish vazifasining aniq qilib qo'yilishi ixtiyoriy esda olib qolishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Turli xildagi mnemik maqsadlar esda olib qolish jarayonining xarakteriga, uning har xil usullarini tanlashga ta'sir qiladi va shunga bog'liq holda uning natijalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ixtiyoriy esda olib qolishda esda olib qolishga undovchi sabablar katta rol o'ynaydi. Xabar qilinayotgan axborot tushunilishi va yod bo'lib qolishi mumkin, lekin o'quvchi uchun barqaror ahamiyat kasb etmasdanoq tezda unutilib ketishi ham mumkin. Burch va mas'uliyat hissi yetarli darajada oshirilmagan odamlar esda olib qolishlari lozim bo'lgan narsalarning ko'pini aksariyat hollarda unutib qo'yadilar.

Yod olinayotgan materialning o'rnini tuzish mantiqiy jihatdan esda olib qolishning eng muhim usullaridan biridir. U quyidagi uch holatni o'z ichiga oladi: 1) materialning tarkibiy qismlarga bo'linishi; 2) ularga sarlavha o'ylab topish yoki materialdagi ushbu qismning butun mazmuni bilan osongina bog'lanadigan biron-bir tayanch nuqtasini ajratib ko'rsatish; 3) qismlarni ularning sarlavhalariga yoki ajratib ko'rsatilgan tayanch nuqtalariga binoan bog'lanishlarning yagona zanjiriga bog'lash. Alohida fikrlarni va gaplarni mazmunli qismlarga birlashtirish esda olib qolinadigan materialning hajmini ka-

maytirmagan holda esda olib qolinishi lozim bo'lgan birliklar sonini qisqartiradi. Esda olib qolish yana shuning uchun ham osonlashadiki, o'rin tuzilishi natijasida material aniq-ravshan bo'laklarga ajratilgan va tartibga solingan shaklga ega bo'ladi. Shu tufayli o'qish jarayonining o'zidayoq u fikrda osongina o'rnashib qoladi.

Materialni tushunib yetish uchun tuzilgan o'rindan farqli o'laroq, uni esda olib qolishga mo'ljallangan o'rinda material yana ham mayda bo'laklarga ajratiladi, buning ustiga nimalar qayta esga tushirilishi kerakligini sarlavhalarning o'zi ko'rsatib va eslatib turadi, uning uchun ham ular o'z shakliga ko'ra ko'pincha chala-yarim, uzuq-yuluq bo'ladi.

Mantiqiy esda olib qolish usuli sifatidagi qiyoslash katta ahamiyatga egadir. Obyektlardagi farqlarning ta'kidlanishi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol esda olib qolishning ixtisoslashuvini ta'min etadi va obyektlarning timsollarini qayta esga tushirilishini qaysi yo'l bilan amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi. Obyektlar o'rtasida faqat umumiy va ayniqsa keng miqyosdagi bog'lanishlar hosil qilish ularning yana qayta esga tushirilishini qiyinlashtirib qo'yishi mumkin. Qayta esga tushirishdagi qiyinchilik tug'ilishi ko'p jihatdan ana shu hol bilan izohlanadi. Obyektlar o'rtasidagi farqlar qanchalik yaqqol bilinib turgan bo'lsa, ularning esda olib qolinishi ham shunchalik tez va puxta bo'ladi.

Qayta esga tushirish, ayniqsa materialni yod olish jarayonida esda olib qolishni tezlashtiradi, uni maqsadga muvofiqlashtiradi, negaki, qaytarib aytish davomida o'zimizning zaif tomonlarimizni aniqlab olamiz, o'zimizni o'zimiz nazorat qilib boramiz. Muhimi, qayta esga tushirish tanishib chiqish bilan almashtirib qo'yilmasligi kerak. Tanishib chiqish esga tushirishdan ko'ra osonroq. Lekin faqat yana qayta takrorlay olishimiz, esga tushira olishimiz mumkinligi o'z bilimlarimizga muqarrar ishonch tug'diradi.

Qayta esga tushirish mumkinligi esda olib qolishning mustahkamligi belgisi bo'lishi shart emas. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilar takrorlash yo'li bilan bilimlarni esda tobo-

ra mustahkamroq saqlab qolishga erishishlari haqida hamisha qayg'urishi kerak. K.D.Ushinskiyning so'zlari bilan aytganda, bilimlarning takrorlanishi to'g'risida ularning mustahkam egallanishi haqida g'amxo'rlik qilmaydigan o'qituvchini yukni chala-chulpa bog'lab ketayotgan shirakayf aravakashga o'xshatish mumkin: u orqasiga o'girilib qaramasdan, aravasini hadeb olg'a choptirgani va olis yo'lni bosib o'tgani haqida maqtangani bilan manzilga qup-quruq aravada keladi.

Lekin material anglab va tushunib yetilgan holda, faol takrorlangan taqdirdagina samarali bo'ladi. Aks holda bu mexanik tarzda esda olib qolish bo'ladi. Shuning uchun takrorlashning eng yaxshi turi – o'zlashtirilgan materialni keyingi faoliyatga jalb etishdan iboratdir. Eksperimental ta'lim tajribasi shuni ko'rsatdiki, programmada material maxsus qat'iy vazifalar tizimiga uyushtirilganda (bundan oldingi har bir bosqich keyingisini o'zlashtirish uchun zarur qilib qo'yilsa) materialning muhim qismi o'quvchining faoliyatida har gal yangi darajada va yangicha bog'lanishlarda muqarrar ravishda takrorlanib turadi. Bunday sharoitda kerakli bilimlar hatto yod olinmasdan ham, ya'ni ixtiyorsiz ravishda mustahkam esda olib qolinaveradi. Ilgari o'zlashtirilgan bilimlar yangi bilimlar mazmuniga jalb etila borib, faqat yangilanib qolmasdan, balki sifat jihatidan o'zgaradi, boshqacha tarzda anglaniladi.

20.5. Qayta esga tushirish

Qayta esga tushirishni psixikaning ilgari mustahkamlangan mazmunini uzoq muddatli xotiradan chiqarib olish va uni amaliy xotiraga o'tkazish yo'li bilan aktuallashtirilishi sodir bo'ladigan xotirlash jarayoni sifatida ta'riflash mumkin.

Aktuallashtirish jarayoni (ilgari o'zlashtirilgan materialni qayta tiklash) sodir bo'lishining turlicha qiyinlik yoki osonlik darajasi bilan: bizni qurshab turgan narsalarni «avtomatik» ravishda tanishdan to esdan chiqarib yuborilgan narsalarni qattiq qiynalib esga tushirishga qadar darajasi bilan ta'riflanishi mumkin. Shunga ko'ra qayta esga tushirish jarayonining ichida uning har xil turlarini alohida ajratib ko'rsatgan hol-

da ularni quyidagicha tartibda joylashtirish mumkin: tanish, xususan qayta esga tushirish (u ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin) va eslash. Bunda shaxsning tarixiy xotirasi bo'lmish xotirlash alohida o'rin egallaydi.

Tanish biron-bir obyektни takroran idrok qilish sharoitida qayta esga tushirish demakdir. Tanish katta hayotiy ahamiyatga ega. Tanish bo'lmaganda biz har gal narsalarni avvaldan tanish bo'lgan narsalar deb emas, balki yangi narsalar deb idrok qilgan bo'lar edik. Tanish hamisha bizning tajribamizni tevarak-atrofimizdagi obyektlarni idrok qilishimiz bilan bog'laydi va bu bilan bizga atrofimizdagi voqelikda to'g'ri mo'ljal olish imkonini beradi.

Tanish o'zining aniqligi, yaqqolligi va to'laligiga ko'ra har xil bo'ladi. U ixtiyorsiz yoki ixtiyoriy jarayon tarzida amalga oshirilishi mumkin. Odatda, tanish to'laqonli, yaqqol va muayyan tarzda yuz bersa, u bir lahzalik ixtiyorsiz hodisa tariqasida amalga oshiriladi. Idrok etish jarayonida ilgari biz idrok qilgan narsani ixtiyorsiz ravishda, biron-bir kuch-g'ayrat ishlatmasdan, o'zimiz sezmagan holda tanib olamiz. Ixtiyorsiz tanish kishining har kungi faoliyati bilan qo'shilib ketadi. Biroq tanish juda ham chala-yarim va shuning uchun noaniq bo'lishi mumkin. Jumladan, biron kishini ko'rganimizda uni o'zimizga «tanishdek his qilamiz», lekin uni biz ilgari bilgan kishiga aynan o'xshatishga oqizlik qilamiz. Shunday holatlar bo'ladiki, biz ko'rib turgan kishimizni taniymiz, lekin ilgari uni qanday shart-sharoitlarda idrok etganimizni eslay olmaymiz. G'oyat chala-yarim yoki yetarli darajada to'la bo'lmagan tanish hollarida bu jarayon murakkab ixtiyoriy tus olishi mumkin. Obyektни idrok qilishga tayangan holda uni bilishimizni aniqlab olish maqsadida ataylab turli xildagi holatlarni esga tushiramiz. Bunday holda bilish qayta esga tushirish jarayoniga aylanib qoladi.

Ixtiyorsiz va ixtiyoriy qayta esga tushirish. Aslida, tanishdan farqli o'laroq, qayta esga tushirilayotgan obyektни esga tushirish qayta idrok qilinmagan holda amalga oshiriladi. Qayta esga tushirish, garchi bu faoliyat qayta esga tushirishga ataylab yo'naltirilgan bo'lmasa ham, odatda kishi muayyan payt-

da amalga oshirayotgan faoliyatning mazmunidan kelib chiqadi. Bunday tarzda qayta esga tushirish ixtiyorsiz esga tushirish bo'ladi. Biroq u o'z-o'zidan biron-bir turtkisiz yuz bermaydi. Narsalarning idrok etilishi o'z navbatida, muayyan tashqi ta'sirlar ostida hosil bo'lgan tasavvurlar, o'y-fikrlar ixtiyorsiz esga tushirishga turtki bo'ladi. Ixtiyorsiz qayta esga tushirish hatto tasodifiy idrok qilingan obyektlar tufayli sodir bo'lgan taqdir-da ham, alg'ov-dalg'ov bo'lmasdan, balki yo'naltirilgan tusda bo'ladi. Bunda qayta esga tushirilgan timsollar va o'y-fikrlarning yo'nalishi hamda mazmuni bizning o'tmishdagi tajribamizda tarkib topgan bog'lanishlar bilan belgilanadi.

Ixtiyorsiz esda olib qolish obyektlarni tasodifiy idrok qilish bilan yuzaga kelmay, balki u muayyan paytda kishi bajarayotgan ma'lum bir faoliyatning mazmuni bilan yuzaga kelsa yo'naltirilgan va uyushgan bo'lishi mumkin. Jumladan, kishida o'qigan kitobning mazmuni ta'siri ostida uning o'tmishdagi tajribasini ixtiyorsiz tarzda qayta esga tushirishi ancha yo'naltirilgan va uyushgan bo'ladi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, ixtiyorsiz esga tushirishni xuddi ixtiyorsiz esda olib qolish kabi boshqarish mumkin va lozim. O'qituvchi darsni qanchalik tizimli va mantiqiy qilib tashkil etsa, o'quvchilarning dars paytida o'tmishdagi tajriba mazmunini ixtiyorsiz esga tushirishlari ham shunchalik ko'p darajada uyushgan bo'ladi.

Ixtiyoriy qayta esga tushirish kishi qayta eslash yuzasidan o'z oldiga qo'yadigan vazifaga ko'ra sodir bo'ladi. Material yaxshi mustahkamlangan hollarda u osongina qayta esga tushadi. Biroq ba'zan kerakli narsalarni eslay olmaymiz va bunda muayyan qiyinchiliklarni yengib faol qidiruv ishlarini olib borishimizga to'g'ri keladi. Bunday qayta esga tushirish eslash deb ataladi.

Eslash ham xuddi ixtiyorsiz esda olib qolish kabi juda murakkab aqliy ish bo'lishi mumkin. Yaxshi eslay olishga o'rganish lozim bo'ladi. O'z bilimlaridan samarali foydalana olishga tayyorlik ana shunga bog'liqdir. Odatda, yaxshi esda olib qolinishi yaxshi qayta esga tushirilishini ta'minlaydi. Lekin eslashning muvaffaqiyatli bo'lishi, ko'p jihatdan, eslash qanday sharoitlarda va qanday amalga oshirilganiga bog'liq bo'ladi.

Eslashning muvaffaqiyatliliği eslashning qanday usullaridan foydalanilganiga bog'liqdir. Eslash usullari orasida eng muhimlari quyidagilardan iborat: eslanishi lozim bo'lgan materialning o'rnini tuzish; o'zida tegishli obyektlarning obrazlarini faol namoyon qilishga intilish, kerakli narsani qayta esga tushirishga boshqa yo'llar bilan olib keluvchi bilvosita bog'lanishlarni ataylab hosil qilish.

Eslashning muvaffaqiyatliliği eslash vazifasini bajarishning qanchalik asoslab berilganiga jiddiy ravishda bog'liqdir.

Eslash o'tmishdagi ta'sirotlarni oddiy qayta esga tushirishdan iborat emas. Ilgari o'zlashtirilgan bilimlar qayta esga tushirilganida yangi bilimlar bilan bog'lanadi, yangicha tartibga solinadi, chuqur anglab yetiladi. Qayta esga tushirish hodisasiga eslash imkoniyatiga ishonch katta ta'sir ko'rsatadi.

Xotirlash. Xotirlash o'tmishimizning vaqt va fazodan muayyan o'rin olgan timsollarini qayta esga tushirishdan iboratdir. Xotirlashda biz o'tmish obyektlarini faqat qayta esga tushiribgina qolmay, balki ularni muayyan vaqt va joyga mansub hisoblaymiz, ya'ni biz ularni qayerda, qachon va qanday sharoitlarda idrok qilganimizni eslaymiz, ularni hayotimizning muayyan davri bilan bog'laymiz, bu obyektlarning davriy izchilligini anglaymiz.

Har bir kishining hayot tarixi ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayot hodisalari esa kishi xotiralarining mazmunini vaqtda joylashtirish uchun tayanch punktlari bo'lib xizmat qiladi.

Uning uchun ham xotiralarimizning mazmuni o'zgarmasdan qolmaydi. U shaxs yo'nalishining evolutsiyasi bilan bog'liq ravishda qayta qurilib va qayta anglanilib boradi.

Xotirlash kishining shaxsiy hayotiga u yoki bu tarzda bog'liq bo'lganligi uchun ham doimo bir qator hissiyotlar bilan birga yuz beradi.

20.6. Unutish va esda saqlash

Unutish. Unutish jarayoni ozmi yoki ko'pmi darajada chuqur bo'lishi mumkin. Unutilgan obrazlar yoki fikrlarning

aktuallashtirilishi shunga ko'ra ma'lum darajada qiyinlashadi yoki umuman mumkin bo'lmay qoladi. Ma'lum material shaxs faoliyatiga qanchalik kam qo'shilsa, aktual hayotiy maqsadlariga erishishda qanchalik ahamiyati kamayib borsa, uni unutilish shunchalik chuqur bo'ladi. Bunda biron materialni eslab olish mumkin emas, bu material batamom yo'qolib ketgan, shaxsning tajribasidan mutlaqo chiqib ketgan, degan ma'no chiqmaydi. Materialning konkret «faktik» formasi unutiladi, lekin materialning muhim, barqaror ahamiyatli mazmuni tegishli bilimlar va ish-harakat formalariga qo'shilib ketadi va ana shu ish-harakat formalarida umumlashgan holda qayta tiklanadi. I.Pavlovning tajribalarida isbotlanganidek, so'nib qolgan reflekslar o'zlarining qayta tiklanishlari uchun avval boshda hosil qilingan reflekslariga qaraganda kamroq takrorlashni talab qiladi. Bundan tashqari, so'nib qolgan reflekslar ma'lum sharoitlarda tormozlanish holatidan xalos bo'lishi mumkin. Esimizdan allaqachonlar chiqib ketgandek bo'lib ko'ringan narsalarning ayrim hollarda to'satdan, kutilmaganda qayta esga tushib qolish hodisalarining sababi ana shunda. Masalan, bir odam juda ko'p yillar ilgari uringan va undan so'ng ko'p yillar foydalanmaslik natijasida esidan chiqib ketadigan bo'lib tuyulgan nemis tilida kasallik holatida gapira boshlagan.

Prinsipial jihatdan olganda unutilish maqsadga muvofiq hodisadir. Shaxsning faoliyati tarkibiga qo'shilib, uning uchun ahamiyatli bo'lib qolgan narsalar unutilmaydi. Faoliyat tarkibiga qo'shilish materialni inson ehtiyoji bilan bog'lashning va shunday ekan, unutilmaslik uchun kurashning ham ishonchli vositasidir. Faoliyat tarkibiga qo'shilishning ana shunday usullaridan biri esda saqlanishi lozim bo'lgan narsaning muntazam sur'atda takrorlanishidan iboratdir.

Birmuncha beqaror va shu bilan birga vaqtinchalik unutilish manfiy induksiyaning ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jumladan, materialni yod olish paytida, begona yot kuchli qo'zg'atuvchilar esda olib qolish samaraliligini pasaytirib, yangi muvaqqat bog'lanishlarning hosil qilinishi yo qiyinlashtirilishi, yoki ilgari hosil qilingan bog'lanishlarning izlarini kuch-

sizlantirish va u bilan unutishini yuzaga keltirishi mumkin bunday unutish oldingi faoliyat (proaktiv, ya'ni «oldindan ta'sir qiluvchi» tormozlanish, ya'ni keyingi faoliyatdan ishlab chiqilgan retroaktiv, ya'ni «orqaga qarab harakatlanuvchi») ta'siri bilan bog'langaniga salbiy ta'siri yordamida yoki aksincha ta'siri ostida paydo bo'ladi. Agar oldingi yoki keyingi faoliyati murakkab yoki mazmun jihatidan o'zaro o'xshash bo'lsa, tormozlanish ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Proaktiv va retroaktiv tormozlanish qandaydir bir faoliyat doirasida ham, jumladan, berilgan materialni o'rganish jarayonida namoyish bo'lishi mumkin. Ma'lumki, materialning o'rta qismi oldingi va oxirgi qismlariga qaraganda yomon esda saqlanib qoladi, materialning o'rta qismi, agar material hajmi jihatidan katta bo'lsa, proaktiv va retroaktiv tormozlanishning salbiy ta'siriga uchraydi. Shuning uchun materialni o'rta qismi ko'p marta takrorlanishni talab qiladi. Bir me'yorda, sekinroq sur'at bilan ishlashga rioya qilish zarur: diqqatni predmet ustida uzoqroq tutib turish kerak; faqat shundagina qo'zg'atuvchilar miyada mustahkamlanadi.

Vaqtincha unutish tegishli miya po'stlog'ining zo'riqishi natijasida paydo bo'ladigan haddan ortiq tormozlanish sababli ham yuzaga kelishi mumkin. Toliqqan paytda esda olib qolishning keskin pasayib ketish sababi ham shunda. Estdan chiqqan narsalar ham nervlari normal ishlay boshlaganidan so'ng qayta esga tushishi mumkin.

Manfiy induksiya va haddan ortiq tormozlanish tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaqtincha unutish bilan reminitsensiya hodisasi bog'liq bo'ladi. Bu narsa shunda ham namoyon bo'ladiki, xotirlash keyinroq amalga oshirilganiga qaraganda yanada to'laroq amalga oshirilgan qayta esga tushirish birmuncha to'laroq bo'ladi. Bu narsa ko'pincha hajm jihatdan kattaroq materialni esda olib qolishda sodir bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, reminitsensiya katta yoshli odamlarga qaraganda bolalarda ko'proq uchraydi. O'quv ishlarida reminitsensiyaning paydo bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Mustahkamlanayotgan materialga qiziqishning bo'lishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. **Unutish vaqtga bog'liq bo'ladi.** Buni birinchi marta eksperimental ravishda nemis psixologi Ebbingauz (1850–1909) aniqlagan. Uning ko'rsatishicha, unutish material yod olingandan so'ng ayniqsa tez ro'y beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi. Ebbingauz bu qonuniyatni ayrim ma'nosiz bo'g'inlarni unutish ustida olib borgan ishlarida tasdiqladi. Undan keyin o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlar unutish sur'ati materialning mazmuniga, uning qanchalik anglatilganligiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Esda saqlash shartlari. Unutish faqat vaqtning funksiyasi emas. Xuddi esda olib qolish va qayta esga tushirish kabi u ham tanlab unutish xarakteriga egadir. O'z mazmuni bilan inson ehtiyojlari, insonning chuqur qiziqishlari, inson faoliyatining maqsadlari bilan bog'liq bo'lgan barqaror ahamiyatli material sekinroq unutiladi. Odam uchun ayniqsa katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarning ko'plari mutlaqo esdan chiqmaydi. Materialning esda saqlanishi shaxs faoliyatida uning qatnashish darajasi bilan belgilanadi.

Unutish esda olib qolinadigan materialning hajmiga bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miqdor va sifat jihatdan bir xilda ish olib borilgan bo'lsa, yod olingan materialning esda saqlanish protsenti ma'lum vaqt oralig'idan so'ng shu materialning hajmiga nisbatan teskari proporsional munosabatda bo'ladi. Shu sababli, o'quvchilarga esda olib qolish uchun beriladigan materialni dozalarga bo'lib berish juda muhimdir.

Biroq unutish ilgari idrok qilingan material hajmining sof miqdoriy kamayishidagina iborat emas. Esda saqlash va qayta esga tushirish jarayonida xotirada mustahkamlangan material ma'lum sifat o'zgarishlariga uchraydi. Shu munosabat bilan materialning turli qismlari bir xilda unutilmaydi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, materialning asosiy qoidalari esda yaxshiroq saqlanib qoladi. Ayrim ma'no birliklari chalaroq eslanib qoladi, materialning tekstual mazmuni esda juda kam saqlanadi. Shu sababdan xotirada saqlanib qoladigan material tobora umumlashgan xarakterga ega bo'la boradi.

Shunday qilib bilimlarni unutishga qarshi kurashishning asosiy vositasi bundan keyingi faoliyatlarda bilimlardan foydalanish, ularni amalda qo'llanishdan iboratdir. Bu esa o'tmishdagi bilimlarni faqat esda saqlashga emas, balki chuqurroq o'zlashtirishga olib keladi.

20.7. Xotiradagi individual farqlar va xotiraning rivojlanishi

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar. Odamlar xotirasidagi individual farqlar jarayonlarining xususiyatlarida, ya'ni boshqacha qilib aytganda, turli xil odamlarda esda olib qolish va qayta esga tushirish qanday qilib amalga oshirilishida va xotira mazmunining xususiyatlarida, ya'ni nimalar esda olib qolinishida namoyon bo'ladi. Bu ikkiyoqlama o'zgarishlar har bir odam xotirasining samaradorligini turli tomondan belgilaydi.

Xotira jarayonlarida individual farqlar esda olib qolishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishga tayyorligida ifodalanadi. Esda olib qolish tezligi u yoki bu kishi uchun ma'lum hajmdagi materialni esda olib qolishga talab qilinadigan takrorlash miqdori bilan belgilanadi. Esda olib qolishning mustahkamligi yod olingan materialning qancha vaqt esda saqlanishi va unutish tezligi darajasi bilan ifodalanadi. Nihoyat, xotiraning tayyorligi odam o'ziga zarur bo'lgan narsalarni kerak bo'lgan paytda qanchalik oson va tezlik bilan eslay olishida ifodalanadi. Bu farqlar ma'lum darajada yuksak nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan, qo'zg'atish va tormozlanish jarayonlarining kuchli hamda harakatchanligi bilan bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari va ular bilan bog'liq bo'lgan xotira jarayonlaridagi individual farqlar hayot va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan o'zgaradi. Uning uchun xotiraning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlari xotirani tarbiyalash sharoitlari bilan belgilanadi va birinchi navbatda har bir kishida esda olib qolishning radional usullari qanchalik tarkib topganligiga bog'liqdir. Ular ishda aniqlik va batartiblik bo'lishi bilan, o'z vazifalariga javobgarlik sezishi bilan, ularni bajarishda jonbozlik ko'rsatishi va boshqa shu kabilarga odatlanishi bilan bog'liqdir. Xotiraning tayyorligi, bundan tashqari,

bilim olish va ularni mustahkamlashning muntazamligi bilan bog'liqdir.

Xotiraning turlari. Xotiradagi individual farqlar ana shunday hollarda namoyon bo'ladiki, bir xil odamlar obrazli materiallarni (narsalarni, tasvirlarni, tovushlarni, ranglarni va shu kabilarni) birmuncha samarali esda olib qoladilar, boshqa birovlar esa so'z materiallarni (tushunchalar, fikrlar, sonlar va hokazolarni) yaxshi esda saqlab qoladilar, uchinchi bir toifa odamlarda esa muayyan materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Shunga muvofiq ravishda, psixologiyada xotiraning ko'rgazmali-obrazli, so'z-abstrakt va oraliq turlari farqlanadi. Xotiraning bu turlari ma'lum darajada odamlarning oliy nerv faoliyatlaridagi birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro munosabatiga bog'liqdir. Hayot faktlarining tasdiqlashicha, esda olib qolishda obrazlar yoki fikrlarning ustunlik qilishi, birinchi navbatda odamlarning hayot sharoitlari va faoliyati bilan belgilanadi. Hayot, kasbiy faoliyat talablari u yoki bu turdagi xotiraning ozmi-ko'pmi darajada yorqinroq namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, xotiraning ko'rgazmali-obrazli turi ko'proq rassomlarda, so'z-abstrakt turi ko'proq nazariyachi olimlarda uchraydi. Lekin odatda xotiraning u yoki bu turining ustunligi kuzatilmaydi.

Turli taassurotlarni esda olib qolayotganda qaysi analizatorning eng mahsuldor bo'lishiga qarab, xotiraning ko'rgazmali-obrazli turi differensiallashadi. Shunga muvofiq xotiraning harakat, ko'rish va eshitish turlari farq qilinadi. Lekin xotiraning bu turlari sof holda kam uchraydi. Ko'pincha xotiraning: ko'rish-harakat, ko'rish-eshitish, eshitish-harakat kabi aralash turlari ko'proq uchrab turadi. Kishi o'z xotirasining tegishli xususiyatlaridan xotira mahsuldorligini oshirish usuli sifatida foydalanadi.

O'spirinlik yoshidayoq xotira faqat tarbiya obyekti emas, balki o'z-o'zini tarbiyalash obyekti ham bo'lishi kerak. Xotirani shakllantirish qonuniyatlarini bilishga asoslangan taqdirdagina xotiraning o'z-o'zini tarbiyalashida anchagina yutuqlarga erishiladi. Shu munosabat bilan xotirada mate-

rialning sun'iy mustahkamlanishini ta'min etadigan rasmiy usullar birgalikda kelishini bildiradigan mnemonikaning foydasi to'g'risida gapirish kerak. Lekin mnemonika faqat mantiqiy mazmunni almashtiradi va hech qachon uning o'rnini bosmaydi. Shaxsning mazmunli bilish faolligi ma'noli xotirani rivojlantirish asosidir.

Nazorat savollari:

1. Xotira haqida umumiy tushuncha.
2. Xotiraning neyrofiziologik asoslari.
3. Xotiraning fiziologik asoslari.
4. Xotira turlarining psixologik tavsifi.
5. Esda olib qolish turlari haqida mushohadalar.
6. Esga tushirishning psixologik mohiyati.
7. Xotira mahsuldorligini oshirish yo'l va vositalari.
8. Xotira patologiyasi va uni tuzatish usullari.
9. Insonda xotiraning rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: xayol yoki fantaziya, orzu, xayol turlari, xayol operatsiyalari.

21.1. Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli

Xayol va muammoli vaziyat. Xayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy xarakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish — inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda xayolni o'z ichiga qamrab oladi. Xayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy-adabiy, musiqiy va umuman ijodiy faoliyatning zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Qisqa qilib aytganda, qo'lda oddiy bir stol yasash uchun operatsiyasi yoki biror qissa yozishga qaraganda oz xayol talab qilinmaydi, stolning qanday shaklda bo'lishini, uning balandligini, kengligini, oyoqlari qanday mahkamligining ovqatlanish stoli, laboratoriya stoli yoki yozish stoli sifatida o'zining belgilangan xizmatiga qanchalik javob berishini oldindan tasavvur qilish lozim. Bir so'z bilan aytganda, ishni boshlashdan oldin bu stolni tayyor holda ko'ra bilish talab qilinadi.

Xayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o'z ifodasini topadi, shuningdek, muammoli vaziyat noaniqlik ko'rsatgan xillarda xulq-atvor dasturini tuzishni ta'minlaydi. Uning bilan birga xayol aktiv faoliyatni dasturlovchisi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi.

Xayolning psixik jarayon sifatidagi birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Xayol mehnatkashning faqat so'nggi natijasinigina emas (masalan, bitkazilgan tayyor mahsulot sifatidagi stol), balki mehnatning ora-

liq mahsulotlarini (mazkur holda stolni yasab bitkazish uchun tayyorlanadigan detallarni ham) tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Binobarin, xayol odamga faoliyat jarayonida mehnat mahsulotlarining oxirgi yoki oraliq psixik modellarini hosil qilish yo'li bilan yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu esa mehnat mahsulotlarini narsalar sifatida gavdalantirishga yordam beradi.

Xayol tafakkur bilan mahkam bog'langandir. Xayol ham tafakkur singari, kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

Tafakkur bilan xayol o'rtasidagi umumiylik hamda ular o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat? Xayol tafakkur singari, muammoli vaziyatda, ya'ni masala yechishning yangi usullarini qidirib topishda yuzaga keladi. Tafakkur singari, xayol shaxsning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ehtiyojlarni qondirishning soxta, xayoliy jarayon sodir bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin. Xayol jarayonlarida amalga oshiriladigan voqelikni oldindan aks ettirish yorqin tasavvurlar tarzida va konkret-obraz shaklida sodir bo'ladi. Uning bilan bir paytda tafakkur jarayonlarida oldindan aks ettirish olamni umumlashtirib, vositali tarzda bilish imkonini beruvchi tushunchalar bilan ishlashda sodir bo'ladi.

21.2. Xayol turlari

Xayol o'zining aktivligi va faolligi bilan xarakterlanadi. Uning bilan birga xayol apparati faqat atrofdagi olamni o'zgartirishga qaratilgan shaxs ijodiy faoliyatining sharti sifatida foydalanilishi mumkin va foydalaniladi. Ayrim hollarda xayol faoliyatning o'rnida, uning sun'iy aralashmasi sifatida harakat qilishi mumkin. Mana shu hollarda odam o'ziga hal qilib bo'lmaydigan ko'rinadigan masalalardan, turmushning og'ir sharoitlaridan, o'z xatolarining ta'qibidan va shu kabilardan yashirinish uchun real tasavvurlardan uzoq bo'lgan fantastika olamiga vaqtincha kirib ketadi. N.V.Gogol Manilov obrazini yaratib, foydasiz orzularda faoliyatdan qochishning qulay imkoniyatini topgan odamlar tipining umumlashtirilgan

obrazini ifodalab beradi. Bu yerda fantaziya hayotda gavdalanmaydigan obrazlarni yaratadi, amalga oshmaydigan va ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydigan ish-harakat programmalarini belgilaydi. Xayolning bunday formasi passiv xayol deb ataladi.

Kishi passiv xayolni oldindan o'ylab yuzaga keltirishi mumkin: jo'rttaga yuzaga keltirilgan iroda bilan bog'liq bo'lmagan, lekin hayotda gavdalantirishga qaratilgan xayolning mana shunday obrazlari shirin xayol deb ataladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar haqida shirin xayol surish hamma odamlarga xosdir. Mana shunday shirin xayollarda fantaziya mahsulotlari bilan ehtiyojlar o'rtasidagi aloqa signali namoyon bo'ladi. Ammo inson xayolij jarayonlarida shirin xayol kechirish hollari ko'proq bo'lsa, bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi. Agar kishi passiv bo'lsa, u kelajakda yaxshi hayot uchun kurashmasa, uning hozirgi hayoti esa qiyin, ko'ngilsiz bo'lsa, bunday holda u o'zining ehtiyojlari to'la qondiriladigan, istagan narsasini qo'lga kirita oladigan, hozirgi paytda umid qila olmaydigan biron mansabni egallaydigan soxta hayotni ko'p vaqt xayol qiladi.

Passiv xayol o'ylab qo'yilmagan tarzda ham yuzaga kelishi mumkin. Bu asosan ong faoliyatining, ikkinchi signal tizimining susayishida, kishining vaqtincha harakatsizlik holatida, uyqusirash holatida, affekt holatida, uyquda (tush ko'rishda), ongning kasallikka uchrab buzilishida (gallutsinatsiyada) va shu kabilarda sodir bo'ladi.

Agar passiv xayolni oldindan o'ylab va o'ylamasdan qilingan turlarga bo'lish mumkin bo'lsa, aktiv xayolni ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo'lish mumkin bo'ladi.

Ijodiy xayol qayta tiklovchi xayoldan farq qilgan holda, original va qimmatli moddiy mahsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarning yaratilishini taqozo qiladi. Mehnatda paydo bo'lgan ijodiy xayol ehtiyojlarini qondirish yo'lini izlashda yaqqol tasavvurlar bilan aktiv va maqsadga muvofiq ish tutadigan texnik, badiiy va istalgan boshqa ijodiyotning ajralmas tomoni bo'lib qoladi.

Inson shaxsining qimmatini ko'p jihatdan uning strukturasiida xayolning qaysi turi ustunligiga bog'liqdir. Agar o'smir-lar va yoshlarda konkret faoliyatlarda amalga oshiriladigan ijodiy xayollari passiv, quruq xayolparastlikdan ustunlik qilsa, bu shaxsning taraqqiyot darajasi yuksakroq ekanligidan dalolat beradi.

21.3. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari

Kishi faoliyatida xayolning bajaradigan vazifasi aniqlab olin-gach, fantaziya tarzining yaratilishini amalga oshiradigan jarayonlar qarab chiqilishi va ularning strukturalari aniqlanishi lozim.

Odamga amaliy va ijodiy faoliyatlarda yo'l ko'rsatuvchi fan-taziya tarzlari qanday paydo bo'ladi hamda ularning tuzilishi qanday? Xayol jarayonlari, idrok, xotira va tafakkur jarayonlari kabi analitik-sintetik xarakterga egadir. Tahlil idrok va xotira-dayoq obyektning ayrim umumiy, muhim belgilarini ajratish va saqlash hamda muhim bo'lmagan belgilaridan chetlashish imkoniyatini beradi. Bu tahlil sintez bilan, ya'ni o'ziga yara-sha etalon hosil qilish bilan tugallanadi. Ana shunday etalon yordami bilan butunlay o'zgartirib yuborilganda ham ma'lum o'xshashlik doirasidan chetga chiqmaydigan obyektlarni bilish amalga oshiriladi. Tahlil va sintez xayolda boshqacha yo'na-lishga ega bo'lib, obrazlar bilan qilinadigan faol jarayonlarda boshqa tendensiyalarni topib, ochib beradi.

Xotiraning asosiy tendensiyasi obrazlarni qayta tiklab, eta-longa maksimal yaqinlashtirishda, ya'ni ilgari hayotda bo'lgan, idrok qilingan, tushunilgan, anglangan ish-harakat yoki obyekt-ni oqibat natijada aniq nusxasiga yaqinlashtirishdan iboratdir. Xayolning asosiy tendensiyasi oqibat natijada mutlaqo yangi, shu paytgacha hosil qilinmagan vaziyat modelini hosil qilishni ta'minlaydigan tasavvurlarni (timsollarni) qayta tuzishdan ibo-ratdir. Har ikkala tendensiya ham nisbiy xarakterga egadir, biz o'z tanishimizni, garchi uning belgilari, kiyimlari, hatto ovo-zi sezilarli darajada o'zgarib ketgan bo'lishiga qaramay, juda ko'p yillardan so'ng ham taniy olamiz. Fantaziya yaratgan har

qanday yangi obrazda eskilik, ilgaridan ma'lum bo'lgan belgilar ko'rinib turadi.

Xayolni uning mexanizmlari jihatidan ta'riflarkanmiz, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, xayolning mohiyati tasavvurlarni qayta tuzish jarayonidan va o'zimizdagi mavjud obrazlar asosidagi yangi obrazlar yaratishdan iboratdir. Xayol, fantaziya real voqelikni yangi, kutilmagan hamda odatdan o'zgacha qo'shilish va bog'lanishlarda aks ettirishdan iboratdir.



Agar hatto qandaydir mutlaqo g'aroyib narsani o'ylab chiqarib, unga sinchiklab qaraganimizda u narsaning barcha elementlari — hayotdan, o'tmish tajribadan olinganligi, bular ijodiy fantaziyaning biron bosqichidagi kabi, behisob faktlarning oldindan o'ylab yoki o'ylamasdan qilingan tahlilning natijalari bo'lib chiqadi. Bu holat badiiy ijodda qatnashadigan xayolga nisbatan K.Paustovskiyning aytgan quyidagi gaplari bilan ifoda qilinishi mumkin: «Har bir daqiqa, bexosdan tashlangan har bir so'z va nigoh, har bir chuqur ma'noli yoki hazilomuz fikr, kishi qalbini uchib tushgan terak momig'i yoki tungi yulduz shu'fasi singari, bilinar-bilinmas har bir harakati — bularning hammasi oltin changi zarrachalaridir.

Xayol jarayonlarida tasavvurlar sintezi turli shakllarda amalga oshiriladi.

Timsollarni sintezlashning eng sodda formasi agglutinatsiya bo'lib, bu kundalik hayotimizda birlashtirib bo'lmaydigan

turli sifatlar, xususiyatlar va qismlarni «yopishtirib» birlashtirishdan iboratdir. Agglutinatsiya yoʻli bilan ertak obrazlari yaratiladi (suv parisi — Rusalka, tovuq oyogʻida turgan uycha, Pegas, kentavr va boshqalar). Agglutinatsiyadan texnika bilan bogʻliq boʻlgan ijodiyotda ham foydalaniladi (masalan, tank bilan qayiqning sifatlarini oʻzida birlashtiradigan tank-amfibiya, fortepyano bilan bayan birlashmasi boʻlgan akkordeon).

Tasavvur formalarini oʻzlashtirish jihatidan agglutinatsiyaga yaqin turuvchi — giperbolizatsiyadir. Giperbolizatsiya narsalarni faqat kattalashtirish yoki kichiklashtirish (togʻdek katta odam va bosh barmoqdek kichik bola) bilan emas, balki narsalar qismining miqdorini va ularning oʻrnini almashtirish bilan ham xarakterlanadi: hind afsonasidagi koʻp qoʻlli xudofar, yetti boshli ajdarlar va shu kabilar.

Fantaziya timsollarini yaratish mumkin boʻlgan yoʻllardan biri narsalarning qandaydir sifatlarini, belgilarini qayd qilish, ularga diqqatni jalb etishdan iboratdir. Ana shu usul yordami bilan oʻrtoqlik hazillari va achchiq karikaturalar yaratiladi. Bunday holda fantasiya obrazlari yaratiladigan tasavvurlar qoʻshilib ketsa, farqlar yoʻqolib ketadi, oʻxshash tomonlar esa birinchi qatorga oʻtib oladi, bu sxematizatsiyalashni amalga oshirishga yordam beradi. Sxematizatsiyalashga rassomning oʻsimliklar dunyosidan andaza olib, naqsh yaratishi yaxshi misol boʻladi. Nihoyat, xayolda tasavvurlar sintezi tipiklashtirish yordami bilan amalga oshirilishi mumkin. Tipiklashtirishdan badiiy adabiyotda keng qoʻllaniladi, u orqali biror jihatdan bir xil boʻlgan faktlarda takrorlanadigan muhim tomonlar ajratiladi va ular konkret obrazda gavdalantiriladi.

Ijodiy xayolning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, u oʻxshatishlarning odatdagi yoʻlini inkor etib, ularni ayni chogʻda sanʼatkor psixikasida hukmron boʻlgan his-tuygʻular, fikrlar, intilishlarga boʻysundiradi. Garchi oʻxshatish mexanizmlari oʻzgarmay qolsa ham, yaʼni oʻxshashlik, izchillik yoki kontrast qarama-qarshilik oʻxshatishligicha qolsada, tasavvurlarni toʻplash ana shu sababiy bogʻlanish tendensiyasi bilan belgilanadi.

21.4. Xayol jarayonining fiziologik asoslari

Fantaziya miya funksiyasi sifatida Fantaziya timsollari-ning paydo bo'lishi kishi miyasi faoliyatining natijasidir. Xayol boshqa hamma psixik jarayonlar kabi katta yarimsharlar po'stloq qismining funksiyasi hisoblanadi.

Xotiraning fiziologik asosi muvaqqat nerv bog'lanishlari-ning tutashishi va ularning keyinchalik aktuallashishidan (qayta tiklanishi, tormozlanmay qo'yishidan) iboratdir. Agar xotira jarayonlarida paydo bo'lgan bog'lanishlar keyinchalik yana tiklansa, xayol jarayonida kishining hayoti davomida hosil qilingan bog'lanishlar tizimi go'yo yemiriladi (buzilib ketadi) va yangi tizimga birlashadi.

Bunday birlashish ehtiyoj yoki qandaydir bevosita taassurot orqali miya po'stida yetarli darajada kuchli qo'zg'alish manbaini hosil qilish natijasida mumkin bo'ladi.

Xayol, aytib o'tilganidek, katta miya yarim sharlari po'stlog'ining funksiyasi hisoblanadi. Uning bilan birga xayol tuzilishining murakkabligi va uning hissiyotlar bilan bog'liqligi xayolning fiziologik mexanizmlari faqat miya po'stlog'i bilan emas, balki miyaning chuqurroq qismlari bilan bog'liq deb taxmin qilishga asos beradi. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar bu ta'minning to'g'riligini isbotlaydi. Fantaziya timsollari-ning tarkib topishi va ularni faoliyat jarayonlariga qo'shishga bosh miya yarim sharlari po'stlog'i bilan birga qatnashuvchi miyaning ana shunday chuqur qismlari gipotalalimbik tizimidir. (Gipotalamus uning qadimgi po'stloq va po'stloq osti qismlari bilan bog'lanishi miya stvolining yarim sharlarga chiqaverishi-da, oldingi qismi atrofida «limb» yoki chegara hosil qiladi.)

Xayol va organik jarayonlar. Inson miyasi fantaziya ishlab chiqargan timsollarga organizmning periferik qismlariga boshqaruvchi ta'sir ko'rsatib, ularning ishlash jarayonini o'zgartirib yuboradi. Hali o'rta asrlardayoq kishini hayratda qoldiradigan fakt ma'lum edi; ayrim odamlarda, ko'proq asab buzilishi (isteriya) ni boshdan kechgan odamlarda (injildagi afsonaga ko'ra, Iso payg'ambar krestda boshidan kechirgan

azob-uqubatlar haqidagi fikrlardan so'ng) qo'l va oyoqlarning kaftida qon talab ko'kargan va hatto yara paydo bo'lgan. Bunday belgilar «stigmatlar» deb nom olgan (grekcha «stigma» degan so'z «chandiqlik», «belgi» degan ma'noni anglatadi).

Ta'sirchanligi va xayolga boyligi bilan ajralib turadigan ayrim odamlarni kuzatish ham xayolning fiziologik jarayon kechishiga ta'siri haqida qiziq ma'lumotlar beradi. Flober «Bovari xonim» romani qahramoni Emma Bovari xonimning zahar ichishi voqcasini yozganda, u og'zida margimush ta'mini yaqqol sezgan. Volter har yili Varfolomsev kechasini nishonlashda og'rib qolgan. Ming-minglab gunohsiz kishilar diniy fanatizm qurboni qilib o'ldirilgan kun haqidagi fikr uning bezgagini qo'zg'atgan, harorati ko'tarilib, tomirlari tez ura boshlagan.

Psixik faoliyatning ayrim buzilishlari ham o'zining kelib chiqishi jihatidan haddan tashqari ta'sirlanuvchan va tetik xayolga bog'liqdir. Ba'zan ana shunday kasallikka obro'li kishining aytgan so'zini noto'g'ri tushunish ham bevosita sabab bo'ladi. Shunday hollar ma'lumki, vrachning ehtiyotsizlik bilan aytgan so'zining ta'sirida davolanishga kelgan kishi og'ir kasallik bilan og'rib qolgan bo'lsam kerak, deb xayoldan o'tkazadi va unda bu kasallikning tegishli alomatlari rivojlanish boshlaydi. Yatrogen deb ataladigan kasalliklar yuzaga keladi. O'qituvchining pedagogik jihatdan nojo'ya xatti-harakatlari va uning ehtiyotsizlik bilan aytgan so'zi ham o'quvchini jorhatlantirishi va unda fantastik qo'rquv hissini yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zan didaktogen deb ataladigan nerv kasalliklari ana shunday yuzaga keladi.

Fantaziya timsolini yetkazib beruvchi miya — yakka-yolg'iz tizimdir: uning biron-bir qismida yuz bergan o'zgarish uning boshqa bo'limlari ishiga ta'sir qiladi. Yaxlit narsa sifatidagi inson tanasining barcha a'zolariga to'g'rilovchi ta'sir ko'rsatadi. Negaki psixik jarayon organizmning hayoti faoliyatida u yoki bu o'zgarishga olib kelmoqda. O'z navbatida xayol boshqa psixik jarayonlar kabi kishi organizmining ko'plab tizimlari ishiga anchagina ta'sir ko'rsatadi.

21.5. Xayol va ijod

Fantaziya va o'yin. Bolaning yetakchi faoliyati o'yin bo'lib qoladigan bog'cha yoshidagi davri va maktabda ta'lim olishning dastlabki yillari xayol jarayonlarining barq urib rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Faoliyatni amalga oshirish va tashkil qilish uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan xayolning o'zi faoliyatning har xil turlarida tarkib topadi va bola harakat qilmay qo'ygandan so'ng yo'qolib ketadi. Bog'cha yoshidagi davrda bola xayoli asta-sekin tashqi tayanchga (dastavval o'yinchoqlarga) suyanadigan faoliyatdan so'zlar bilan sodda (cho'pchaklar to'qish, tarixiy voqealarni aytish, she'r to'qish) va badiiy (rasm chizishni) ijodiyotni amalga oshirishga imkon beradigan mustaqil, ichki faoliyatga aylana boradi. Bolaning xayoli nutqni o'zlashtirish munosabati bilan, binobarin, katta odamlar bilan qiladigan muloqoti jarayonida rivojlanadi. Nutq bolalarga shu paytgacha hech qachon ko'rmagan narsalarini tasavvur qilish imkonini beradi. Shu narsa ayonki, nutq taraqqiyotidan orqada qolish xayolning taraqqiyotiga va xayolning orqada qolishiga, kambag'allanishiga ham ta'sir qiladi.

Orzu. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ijodiy faoliyatga hamma vaqt fantaziya qo'shilgan bo'ladi. Biroq hamma vaqt ham odamning amaliy harakatlarida xayol jarayonlari darhol amalga oshavermaydi. Ko'pincha xayol jarayonlari odam amalga oshirishni istaydigan timsollar shakliga, ya'ni alohida ichki faoliyat shakliga kirib oladi. Ana shunday odam kelgusida xohlaydigan timsollarni orzu deb ataladi.

Odamning amaliy ishlab chiqarish faoliyatida fantaziyaning roli katta, lekin hamma vaqt ham sezilarli bo'lavermaydi. Istalgan, hatto eng oddiy narsalar (elektr chirog'i, avtoruchka, yelim shishasi, ustara tig'i, sirkul va hokazolar)da ham shu narsalarga nisbatan kuchli ehtiyoj sezgan juda ko'p avlodlarimizning orzulari ma'lum darajada gavdalanganini ko'ramiz. Narsaning tarixi qancha uzun bo'lsa, u qancha ko'p o'zgargan bo'lsa, bu narsada odamlarning shuncha ko'p orzulari qayd

qilingan bo'ladi. Amalga oshirilgan orzu yangi ehtiyojni yuzaga keltiradi, yangi ehtiyoj esa yangi orzuni tug'diradi. Dastavval ishlab chiqarish faoliyatida qo'lga kiritilgan har bir yangilik, yangi narsa takomillashgandek bo'lib ko'rinadi, lekin uni o'zlashtira borgan sari kamchiliklari ko'rinib qoladi va odamlar yanada yaxshiroq narsa haqida orzu qila boshlaydilar. Buning bilan odamlar yanada yaxshi narsalarning yuzaga kelishi jarayoniga turtki beradilar. Bundan to'rt asr muqaddam oddiy deraza oynasi amalga oshirib bo'lmaydigan orzu edi; derazalarga buqa pufagidan qilingan narsa tortib qo'yilar va u yorug'likni sal-pal o'tkazar edi. O'sha davrlarda xuddi suv va havo kabi yorug'likni o'tkazadigan tiniq material haqida faqat orzu qilish mumkin edi.

Nazorat savollari:

1. Xayol to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Xayol turlarining psixologik tavsifi.
3. Xayolning xususiyatlari yuzasidan mulohazalar.
4. Xayolning psixologik xususiyatlari.
5. Xayolning fiziologik asoslari.

XXII bob. TAFAKKUR

Tayanch tushunchalar: tafakkur, ixtiyoriy tafakkur, hukm, xulosa, tushuncha, hissiy bilish, aks ettirish, abstrakt, mavhum va bivosita tafakkur.

22.1. Tafakkurning umumiy xarakteristikasi

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar va muammolarni qo'yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko'p noma'lum, tushunib bo'lmaydigan, kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Demak, olamni borgan sari chuqurroq o'rganib borish, unda odamlar va narsalarning tobora yangi-yangi jarayonlarini, xususiyatlarini va o'zaro munosabatlarini ochish lozim. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, hayot va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlariga duch keladi. O'tmishdagi bilimlarimizning kamligi bilinib qoladi. Koinot cheksiz bo'lganidek, uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Tafakkur hamisha hali bilib olinmagan, yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi. Har bir odam tafakkur qilarkan, buning bilan shu paytgacha qandaydir yangilikni, noma'lum narsani mustaqil ravishda kashf qiladi (bu insoniyat uchun emas, balki faqat «o'zi uchun», arzimas bo'lsa ham, har holda yangilik kashf etadi). Masalan, har bir o'quvchi biron o'quv vazifasini hal qilar ekan, o'zi uchun albatta qandaydir yangilik ochadi.

Tafakkur — jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Hissiy bilish va tafakkur. Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan, boshlanadi va keyin tafakkurga o'tib ketishi mumkin. Biroq istagan tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham

hamisha hissiy bilish bilan, ya'ni sezgi, idrok va tasavvurlar bilan bog'langan bo'ladi. Tafakkur faoliyati o'zining butun «materialini» faqat bitta manbadan, ya'ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog'lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Bu aks ettirishning to'g'riligi (adekvatligi) amaliy faoliyat orqali tabiat va jamiyatni amaliy o'zgartirish jarayonida uzluksiz tekshirilib turiladi.

Olamning sezgilarimiz va idroklarimiz orqali bizga har kuni berilayotgan hissiy tasviri juda zarur, lekin olam tasvirini chuqur, har tomonlama bilish uchun yetarli emas. Biz bevosita kuzatayotgan voqelikning bu hissiy tasvirida turli narsalar, hodisalar, voqealar va boshqa shu kabilarning murakkab o'zaro ta'sirlari, ularning sabab va natijalari, o'zaro bir-biriga o'tishlari hali mutlaqo yetarli ravishda ajratilgan emas. Bizning idrokimizda o'zining xilma-xilligi va bevositaligi bilan namoyon bo'ladigan bu hamma o'zaro munosabatlar va aloqalar chigalini faqat birgina hissiy bilish yordami bilan «yechib» bo'lmaydi. Masalan, allaqanday bir tanaga tegib turgan qo'ldan kelayotgan harakat sezgisi ana shu tananing harorat holatini bir xilda xarakterlab bera olmaydi. Mana shu harorat sezgisi, birinchidan, mazkur narsaning issiqlik holati bilan, ikkinchidan, kishining holati bilan (ikkinchi holda hamma gap qanday tanaga — issiqroq narsagami yoki sovuqroq narsagami qo'lini tekkizib turganligiga bog'liq) belgilanadi. Mana shu sodda misolning o'zidayoq hissiy bilish uchun yuqorida ko'rsatilgan bog'liqlikning har ikkisi bo'linmagan bir butun holatda namoyon bo'ladi. Idrok qilish jarayonida subyekt (odam) bilan bilinayotgan obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sirning umumiy majmui natijalarigina berilgan bo'ladi. Lekin yashash va harakat qilish uchun avvalo tashqi olamdagi narsalarning o'zi qanday ekanligini, odamga qanday bo'lib ko'rinishidan qat'i nazar va umuman ularni bilib bo'lish yoki bilib bo'lmasligidan qat'i nazar, obyektiv sur'atda bilish kerak.

Kishi tafakkur jarayonida sezgi, idrok va tasavvur ma'lumotlardan foydalanarkan, shu bilan birga, hissiy bilish chegarasidan

chetga chiqadi, ya'ni tashqi olamdagi shunday hodisalarni, ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlari bilan boshlaydiki, ular sezgilarimizda bevosita mutlaqo berilmagan bo'ladi hamda uning uchun umuman bevosita kuzatish mumkin bo'lmaydi. Masalan, hozirgi zamon fizika fanining eng murakkab muammolaridan biri elementar zarrachalar nazariyasini yaratishdir. Biroq bu g'oyat mayda zarrachalarni, hatto hozirgi zamondagi eng qudratli mikroskop yordami bilan ham ko'rib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularni bevosita idrok qilib bo'lmaydi; ularni ko'rish mumkin emas — ular haqida faqat tafakkur qilish mumkin. Abstrakt, mavhum bavosita tafakkur tufayli, bunday ko'zga ko'rinmaydigan elementar zarrachalarning voqelikda haqiqatan borligi va muayyan xususiyatlarga ega ekanligini isbotlash mumkin bo'ldi. Bevosita kuzatib bo'lmaydigan zarrachalarning bu xususiyatlarini ham tafakkur jarayonida to'g'ridan to'g'ri yo'l bilan emas, balki boshqacha yo'l bilan, ya'ni bavosita yo'l bilan bilinadi.

22.2. Tafakkur va nutq

Kishining tafakkur faoliyati uchun uning faqat hissiy bilish bilan o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki til bilan, nutq bilan o'zaro bog'liqligi ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi prinsiplial farqlardan biri namoyon bo'ladi. Hayvonlarning elementar, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat hayvoniy harakat tafakkuriligicha qoladi; ular hech vaqt mavhum, bavosita bilish darajasiga yetmaydi. Ularning, ya'ni hayvonlarning tafakkuri ayni chog'da go'yo ko'z o'ngilarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko'radi. Ana shunday primitiv tafakkur ayoniy harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda bo'ladi va bunday ayoniy harakat doirasidan chetga chiqmaydi.

Faqat nutq paydo bo'lgach, bilinayotgan obyektдан ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so'z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd qilish imkoniyati tug'ildi. Tafakkur so'zda o'zining zaruriy moddiy qo-

big'iga ega bo'ladi, tafakkur faqat so'z orqali boshqalar uchun va o'zimiz uchun ham bevosita realikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi. Va, aksincha, qandaydir fikrning so'z orqali ifodalanishi qanchalik ko'p takomillashtirilgan, sayqallangan bo'lsa, shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi.

Tafakkurning ijtimoiy tabiati. Tafakkurning til bilan uzviy, chambarchas bog'liqligi inson tafakkurining sotsial, ijtimoiy-tarixiy mohiyatini ochiq-oydin namoyon qilib beradi. Bilish insoniyat tarixi davomida egallangan barcha bilimlarning izchilligini zaruriy tarzda taqozo qiladi. Bilimlarning bu tarixiy vorisligi ularni qayd qilish, mustahkamlash va esda saqlashda bir kishidan boshqasiga, avloddan-avlodga o'tkazish yo'li bilan sodir bo'lishi mumkin. Bilishning bunday barcha asosiy natijalarining ana shunday qayd qilinishi til yordami bilan kitoblarda, jurnallarda va boshqa shu kabilarda amalga oshiriladi. Bularning hammasida inson tafakkurining sotsial tabiati juda namunali suratda namoyon bo'ladi. Kishining aqliy taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida hosil qilgan bilimlarini o'zlashtirishi jarayonida muqarrar ravishda amalga oshiriladi. Individdning olamni bilish jarayoni ilmiy bilimlarning tarixiy taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan, bevosita ifodalangan, buning natijalarini har bir individ ta'lim olish davomida o'zlashtiradi; bu esa kishining insoniyat bilan munosabatining aynan o'zidir.

22.3. Tafakkur shakllari

Tabiat va jamiyatni bilish hamda o'zgartirishning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida ilmiy bilimlar hosil qilinadi, rivojlantiriladi va tizimga solinadi. Boshqacha aytganda, bilishning til yordami bilan qayd qilingan asosiy yutuq va nati-

ularining majmui sifatida tarkib topgan fan tizimi — fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya, psixologiya va boshqa shu kabi- lar hosil boʻladi hamda toʻxtovsiz koʻpayib boradi. Bilishning mazkur tarixiy taraqqiyoti va buning natijasida hosil boʻladigan bilimlar tizimi bilish nazariyasi, yaʼni falsafaning bir qis- mi boʻlgan gnoseologiya va logika predmetini tashkil qiladi. Bilish nazariyasi falsafiy predmet boʻlib, butun bilish faoliyati- ning eng umumiy qonuniyatlarini, oʻrganadi, masalan, bilish nazariyasi insoniyat tarixi davomida yuzaga kelgan «borliq», «materiya», «ong», «sifat», «miqdor» kabi kategoriyalarning paydo boʻlishi hamda taraqqiyotini oʻrganadi. Bilish nazari- yasining falsafiy, nihoyat darajada umumiy prinsiplari asosi- da inson tafakkuri bir-birini oʻzaro toʻldiruvchi ikkita konkret alohida fanlar tomonidan, rasman logika va psixologiya tomo- nidan oʻrganiladi.

Logika tafakkurning mantiqiy shakllarini — tushunchalarni, hukmlarni va xulosalarni oʻrganadi.

Tushuncha shunday bir fikrki, unda voqelikdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim, farq qiladigan (spetsifik) bel- gilari aks ettiriladi. Masalan, «odam» tushunchasining tarki- biga mehnat faoliyati, mehnat qurollarini ishlab chiqarish, nutq kabi nihoyatda muhim belgilar kiradi. Ana shu barcha zaruriy muhim xususiyatlar odamlarni hayvonlardan farqlaydi.

Tushunchalarning mazmuni hukmlarda ochiladi, hukm- lar hamisha soʻz shaklida, yaʼni ogʻzaki yoki yozma shaklda, ovoz chiqarib yoki oʻz ichida ifodalanadi. Hukm — voqelikda- gi narsa va hodisalar oʻrtasidagi yoki ularning xususiyatlari va belgilari oʻrtasidagi bogʻlanishlarning aks ettirishi demakdir. Masalan, «Metall qizitilganda kengayadi» degan hukm harorat oʻzgarishi bilan metallar hajmi oʻrtasidagi bogʻlanishni ifoda- laydi. Tushunchalar oʻrtasidagi turli xil bogʻlanishlarni va mu- nosabatlarni mana shunday yoʻl bilan aniqlar ekan, hukmlar nimalar haqida nimalarnidir bayon qiluvchi fikrlardir. Hukm- lar voqelikdagi narsalar, voqealar va hodisalar oʻrtasidagi qan- daydir munosabatlarni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Masalan, biz «Yer Quyosh atrofida aylanadi» der ekanmiz, buning bilan

koinotdagi ikkita jism o'rtasidagi ma'lum bir obyektiv makoniy aloqa borligini tasdiqlaymiz.

Hukmlar umumiy, juz'iy va yakka-yolg'iz bo'ladi. Umumiy hukmlarda mazkur guruhdagi, mazkur sinfdagi hamma narsalar to'g'risida nimadir tasdiqlanadi (yoki inkor qilinadi). Masalan, «Hamma baliqlar oyquloqlari (jabrasi) bilan nafas oladi». Juz'iy hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish hamma narsaga taalluqli bo'lmaydi, balki ayrim narsalarga taalluqli bo'ladi. Masalan, «Ba'zi talabalar – a'lochilardir». Yakka-yolg'iz hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat bitta narsaga tegishli bo'ladi. Masalan, «Bu o'quvchi darsni yomon tayyorlagan».

Hukmlar ikkita asosiy usul bilan hosil qilinadi: 1) bevosita usul bilan, bunda idrok qilayotgan narsalar ifodalanadi; 2) bavo-sita usul bilan, ya'ni xulosa chiqarish yoki mulohaza yuritish yo'li bilan. Birinchi holda ko'z o'ngimizda jigarrang stolni ko'radigan bo'lsak, masalan, «Bu jigar rangli stol» deb oddiygina hukm chiqaramiz. Ikkinchi holda mulohaza yuritish yordami bilan bir xil hukmdan boshqa hukm keltirib chiqariladi, hosil qilinadi. Masalan, D.I.Mendeleyev o'zi kashf qilgan elementlarning davriy qonuniga asoslanib, sof nazariy ravishda, faqat xulosa chiqarish yordami bilan, uning davrida hali ma'lum bo'lmagan ximiyaviy elementlarning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqargan hamda oldindan aytib bergan.

Tafakkurning ana shunday xulosa chiqaruvchilik, muhokama yurituvchilik (jumladan, oldindan aytib beruvchilik) ishidagi uning bavo-sitalik xarakteri nihoyatda aniq namoyon bo'ladi. Xulosa chiqarish, mulohaza yuritish – bularning hammasi voqelikni bavo-sita bilishning asosiy shaklidir.

Shunday qilib, fikrlash faoliyatining normal davom etishi uchun sillogizm va barcha mantiqiy formalar nihoyatda zarurdir. Ular tufayli har qanday tafakkur isbotli, ishonchli qarara-qarshiliksiz bo'ladi va demak, obyektiv voqelikni to'g'ri aks ettiradi. Uning uchun tafakkurning tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabi formalarini maxsus ravishda o'rganuvchi formal mantiq, uning bilan birga, fikrlash faoliyatining g'oyat muhim qonuniyatlarini ham o'rganadi.

Formal logika predmeti – tafakkurning hamma tomonlarini o‘z ichiga olmaydi, balki uning faqat bir tomonini o‘z ichiga oladi, u biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, tafakkurning nihoyatda muhim tomonidir (tafakkurning mantiqiy formalari). Formal logika fikrning allaqachon yuzaga kelgan, go‘yo tayyor tomonlarini – tushunchalarni, hukmlarni va boshqa shu kabilarni tekshiradi hamda ular o‘rtasidagi ma‘lum munosabatlarni (formulalarni) o‘rnatadi. Sillogizm ana shunday munosabatlari yoki ana shunday formulalar misollaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga formal logika bu fikrlarning – tushunchalar, hukmlar, xulosalarning bevosita paydo bo‘lish va rivojlanish sharoitlaridan chetlashadi, abstraktlashadi.

Sillogizm shakli, formal logikaning boshqa har qanday shakli kabi, tafakkur jarayonining qanday borishini ifodalab bermaydi, mazkur fikrning paydo bo‘lish va rivojlanish jarayonining konkret sur‘atda qanday sodir bo‘lishi ko‘rsatib bermaydi. Masalan, sillogizm odat bo‘yicha, oldin katta, ya‘ni umumiy asos, undan so‘ng kichik, ya‘ni juz‘iy asos turadi, faqat ana shundan keyingina har ikki asosdan xulosa chiqariladi. Ammo bundan hayotiy, haqiqiy, real tafakkur jarayonida oldin faqat umumiy qoida (umumiy hukm) keyinchalik qandaydir juz‘iy hukm kelib chiqadi, degan ma‘no anglashilmaydi, albatta. Umumiy va juz‘iy hukmlar ham ajralmas o‘zaro bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, real tafakkurda sillogizm asoslari yoki istagan boshqa xulosa chiqarish asoslari hech qachon birdaniga tayyor holda berilgan bo‘lmaydi. Bu asoslarni tafakkur yordami bilan namoyon qilish, qandaydir yo‘l bilan unga ega bo‘lish, qismlarga ajratish kerak bo‘ladi.

Formal logika u yoki bu fikrlar paydo bo‘lishi va taraqqiyotining bevosita sharoitlaridan chetlashadi va abstraktlashadi. U, chunonchi, tafakkurning hissiy bilish bilan o‘zaro bog‘lanishidan to‘la sur‘atda chetlashadi. Boshqacha qilib aytganda, u psixologiyadan farqli o‘laroq, bizning tafakkurimiz sezgilar, idrok va tasavvurlar asosida konkret qanday paydo bo‘lishini hamda mazmunan boyishini aslo tadqiq qilmaydi. Mantiqiy formulalarda, masalan, sillogizmga go‘yo allaqachonlar qotib

qolgan, butunlay tugallangan, to'la, aniq va oxirigacha ifodalangan fikrlar, ya'ni tafakkurning tayyor mahsulotlari, natijalari bir-biri bilan solishtirib ko'riladi.

22.4. Tafakkur jarayon sifatida

Tafakkurni psixologik jihatidan tadqiq qilish unday yo bunday bilish jarayon sifatida natijalarining hosil bo'lishiga olib keladigan ichki, yashirin sabablarini o'rganish demakdir. Tafakkurning bunday natijalari, mahsulotlari, masalan, quyidagi omillardir: mazkur o'quvchi masalani yechdimi yoki yechmadimi; o'quvchida masalani yechish g'oyasi, rejasi, taxmini yuzaga keldimi yoki kelmadimi; o'quvchi ma'lum bilimlarni, amal usullarini o'zlashtirdimi yoki o'zlashtirmadimi; o'quvchida yangi tushunchalar va boshqa shu kabilar tarkib topdimi yoki tarkib topmadimi. Psixologiya tashqi jihatdan maydonga chiqadigan ana shu faktlarning hammasini ichki, ya'ni fikrlash jarayoni jihatidan ochishga harakat qiladi. Buning bilan psixologiya psixik hodisa va voqealarning ichki, spetsifik sabablarini o'rganadi, bu ichki, spetsifik sabablar psixik hodisa va voqealarni faqat tasvirlab va ifodalab berish bilan cheklanmay, balki ularning qonuniyatlarini uqtirib beradi. Bunda psixologiya fani dialektik materializmning determinizm prinsipiga (ya'ni sababiy bog'lanish prinsipiga) asoslanadi: tashqi sabablar ichki sharoitlar orqali amal qiladi. Boshqacha qilib aytganda, masalan, istagan pedagogik ta'sir odamga to'g'ridan to'g'ri va bevosita emas, balki bivosita ravishda, go'yo o'zicha mazkur odamning psixik holati orqali, ya'ni odamning hissiyotlari, fikrlari va boshqa shu kabi holatlari bilan bog'liq ravishda ta'sir qiladi.

22.5. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari

Analiz va sintez. Tafakkur jarayoni avvalo analiz, sintez va umumlashtirishdir. *Analiz* — obyektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarni, bog'lanishlarini, munosabatlarini va boshqa shu kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan obyektning har xil komponentlarga (tarbiyaviy qismlarga) bo'lish demak-

dir. Masalan, o'quvchi yosh texniklar to'garagi mashg'ulotlarida qandaydir mexanizm yoki mashinaning harakat qilish uslubini tushunishga urinib, dastavval bu mexanizmning har xil elementlarini, bo'laklarini ajratadi va uni alohida qismlarga bo'lib tashlaydi. Boshqacha qilib aytganda, mana shu oddiy hodisalar o'quvchi o'rganayotgan obyektни bo'laklarga ajratib, tahlil qiladi.

Biron-bir narsani analiz qilish davomida bu narsaning g'oyat muhim, ahamiyatli, qiziqarli va boshqa shu kabi muayyan bir xususiyatlari juda kuchli qo'zg'atuvchi bo'ladi va uning uchun bunday xususiyatlar oldingi qatorga chiqib oladi. Bunday qo'zg'atuvchilar kuchli qo'zg'alish jarayonini (dastavval bosh miyaning po'stloq qismida) yuzaga keltiradi va induksiyaning fiziologik qonuniga ko'ra shu narsaning kuchsiz qo'zg'atuvchi hisoblangan boshqa xususiyatlari tabaqalashtiriluvini tormozlashtiradi. Shunday qilib, analiz psixik jarayonning fiziologik asosini bosh miyaning yuqori qavatlaridagi qo'zg'alish bilan tormozlanish hodisalari o'rtasida ma'lum munosabat o'rnatish tashkil etadi.

Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlarni birlashtirish sintezdir. Sintez jarayonida bo'linayotgan obyektning ajratib olingan elementlarini birlashtirish, joy-joyiga qo'yish yuzaga keladi. Masalan, o'quvchi mexanizmning ajratib olingan qismlarini bir-biri bilan taqqoslaydi, ular o'rtasida aloqa o'rnatadi va bir qismning boshqa qismlarga qanday ta'sir qilishini tushuna boshlaydi. Natijada sintez amalga oshiriladi, ya'ni turli xil elementlar o'rtasida aloqa va o'zaro munosabat o'rnatiladi. Bosh miyaning po'stloq qismida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil qilinishi sintezning fiziologik asosini tashkil etadi.

Analiz bilan sintez hamma vaqt o'zaro bog'liqdir. Ular o'rtasidagi ajralmas birlik taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan bilish jarayonining o'zidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Tevarakatrofdagi olam bilan tanishishning dastlabki bosqichlarida turli obyektlar avvalo taqqoslash yo'li bilan bilib olinadi. Ikkita yoki bir necha narsalarni har qanday taqqoslash ularni bir-bi-

ri bilan solishtirib ko'rishdan yoki munosibini topishdan, ya'ni sintezdan boshlanadi. Ana shunday sintez qilish akti davomida taqqoslanayotgan hodisalar, narsalar, voqealar va boshqa shu kabilar analiz qilinadi, ularning umumiy va farqlanuvchi tomonlari ajratiladi. Masalan, bola sutemizuvchilar sinfining turli namoyandalarini o'zaro taqqoslaydi va o'qituvchining yordami bilan sekin-asta bu hayvonlarning eng umumiy belgilarini ajratadi. Mana shunday qilib, taqqoslash umumlashtirishga olib keladi.

Taqqoslanayotgan narsalarni umumlashtirishda — ularni analiz qilish natijasida — qandaydir umumiylik bo'ladi. Turli obyektlar uchun umumiy bo'lgan bu xususiyatlar ikki xil bo'ladi: 1) o'xshash tarzdagi umumiylik va 2) muhim belgi tarzidagi umumiylik. Masalan, nihoyat darajada har xil narsalar o'rtasida ham qandaydir o'xshashlikni topish mumkin; chunonchi, rangining umumiyligiga qarab olchani, gulni, qonni, xom go'shtni, pishirilgan qisqichbaqani va boshqa shu kabilarni bir guruhga, bir sinfga birlashtirish mumkin. Biroq ular o'rtasidagi bu o'xshashlik (umumiylik) yuqorida ko'rsatilgan narsalarning haqiqiy muhim xususiyatlarini mutlaqo ifodalamaydi. Bu xilda o'xshashlik narsalarning faqat tashqi, juda yuzaki, muhim bo'lmagan belgilariga asoslangandir. Obyektlarning ana shunday yuzaki, chuqur bo'lmagan tahlili natijasida qilinadigan umumlashtirish katta qiymatga ega bo'lmaydi va uning bilan birga, hamisha yanglishmovchiliklarga olib keladi. Yuzaki, faqat tashqi xususiyatlar analiziga asoslangan umumlashtirish kit haqida, masalan, chuqur xato xulosa chiqarishga, ya'ni kit sutemizuvchi hayvon emas, balki baliqdir deb xulosa chiqarishga olib keladi. Mazkur holda bu obyektlarni taqqoslash ularning umumiy belgilari orasidan faqat o'xshash tomonlarini ajratadi, ammo muhim tomonlarini ajratmaydi (tashqi ko'rinishi, tanasining baliqqa o'xshash shakli va shu kabilar). Aksincha, tahlil natijasida muhim tomonlari sifatida umumiy xususiyatlari ajratilsa, unday paytda kitning baliqlarga emas, balki sutemizuvchi hayvonlarga mansubligi o'z-o'zidan ravshan bo'ladi.

22.6. Tafakkur motivatsiyasi

Analiz va sintez, umuman tafakkur faoliyati boshqa har qanday faoliyat kabi hamma vaqt shaxsning qandaydir ehtiyojlariga asoslanadi. Agar ehtiyojlar bo'lmasa, hech qanday faoliyat ham bo'lmaydi.

Boshqa hamma psixik jarayonlardagi kabi, tafakkurni tadqiqot qilishda psixologiya fani mazkur kishini bilish faoliyatiga kirishishga qanday ehtiyojlar va motivlar majbur qilganligini hamda qanday konkret sharoitlarda analiz, sintez va shu kabilarga ehtiyoj tug'ilganligini hisobga oladi va ma'lum darajada maxsus tekshirib ko'radi. (Psixologiyaga qarama-qarshi formal logika tafakkur bilan hissiy bilish o'rtasidagi o'zaro munosabatdan emas, balki fikr yuritish faoliyatining ehtiyojlar, motivlar, hissiyotlar va shu kabilar bilan bo'lgan o'zaro aloqalaridan ham mavhumlashadi.) «Sof» tafakkurning o'zi, fikr yuritish jarayoni o'z-o'zicha fikr yuritmaydi, o'ylamaydi, balki ma'lum qobiliyat, his-tuyg'u va ehtiyojlarga ega bo'lgan kishi, individ, shaxs fikr yuritadi. Fikr yuritish faoliyatining ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liqligida shunday muhim bir fakt namoyon bo'ladiki, har qanday tafakkur har doim shaxsning tabiat, jamiyat va boshqa odamlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini har tomonlama to'la aks ettiruvchi tafakkuridir.

Psixologiyada tadqiq qilinayotgan tafakkur motivlari ikki xil bo'ladi: 1) o'ziga xos bilish motivlari va 2) o'ziga xos bo'lmagan motivlar. Birinchi holda tafakkur faoliyatiga undovchi va uni harakatga keltiruvchi kuchlar bilish ehtiyojlarida namoyon bo'ladigan qiziqish va motivlar (qiziquvchanlik va shu kabilar). Ikkinchi holda tafakkur sof bilish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar ta'sirida emas, balki ozmi-ko'pmi tashqi sabablar ta'sirida boshlanadi. Masalan, maktab o'quvchisi o'zi uchun biron yangilik ochish yoki biror narsani bilib olish ishtiyoqida emas, balki kattalarning talablarini bajarish majburiyati orqasida yoki o'rtoqlaridan orqada qolib ketishdan qo'rqqani uchun dars tayyorlay boshlaydi va hokazo. Biroq dastavval qanday motivda bo'lmasin, tafakkur jarayoni davomida xu-

susiy bilish motivlari ta'sir qila boshlaydi. Ko'pincha shunday bo'ladi: o'quvchi kattalarning majbur qilishi natijasida dars tayyorlashga o'tiradi, lekin o'quv ishlari jarayonida bajarayotgan, o'qiyotgan, hal qilayotgan narsalarini yaxshi bilish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlar yuzaga keladi.

Shunday qilib, kishi u yoki bu ehtiyojlar ta'siri bilan fikr yurita boshlaydi va uning fikr yuritish faoliyati davomida tobora chuqur, kuchli bilish ehtiyojlari paydo bo'ladi va taraqqiy etadi.

22.7. Murakkab mantiqiy masalalarni yechish va ijodiy tafakkur

Tafakkur maqsadga yo'naltirilganlik xarakteriga egadir. Qachonki hayot va amaliyot jarayonida kishi oldida yangi maqsad, yangi muammo, yangicha vaziyat va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo'lsa, unda dastavval tafakkur qilishga zarurat tug'iladi. Masalan, vrach qandaydir yangi, shu paytgacha ma'lum bo'lmagan kasallikka duch kelib, davolashning yangi metodlarini topib, undan foydalanishga intilganda ana shunday bo'ladi. O'z mohiyati jihatidan olganda, tafakkur faqat shunday sharoitlarda zarur bo'ladiki, yangi maqsadlar tug'ilib, bu maqsadlarga erishish uchun faoliyatning eski, avvalgi vosita va usullari (garchi ular zarur bo'lsa ham) yetishmay qoladi. Bunday vaziyatlar muammoli vaziyat deb yuritiladi. Muammoli vaziyatlardan boshlanadigan aqliy faoliyat yordami bilan maqsadga erishish va ehtiyojlarni qondirishning yangi usullari hamda vositalarini yaratish, ochish, topish, kashf etish mumkin bo'ladi.

Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir. Harakatning ilgaridan ma'lum bo'lgan eski usullari, eski bilimlar va malakalar bilan cheklanish mumkin bo'lgan hollarda muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi va uning uchun tafakkur ham mutlaqo talab qilinmaydi. Masalan, II sinf o'quvchisini «2x2 qancha bo'ladi?» tipidagi savol fikr yuritishga majbur qilmaydi. Bunday savollarga javob qaytarish uchun bu o'quvchilarda bor bo'lgan eski bilimlarning o'ziyoq kifoya qiladi. Bu yerda tafakkur ortiqchadir. Agar o'quvchi ma'lum masala yoki misollarning yangicha yechish usulini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa,

lekin o'ziga ma'lum bo'lib qolgan bu bir xil tipdagi masala va misollarni qayta va qayta yechishga majbur bo'lgan hollarda tafakkur faoliyatiga ehtiyoj bo'lmaydi. Binobarin, hayotdagi har qanday vaziyat ham muammoli vaziyat, ya'ni tafakkurni uyg'otuvchi vaziyat bo'lavermaydi.

Muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarurdir. Muammoli vaziyatda kishi faoliyat davomida ko'pincha kutilmaganda, qandaydir, tushunib bo'lmaydigan narsaga, norma'lum, tashvishli narsalarga duch kelib qoladi. Masalan, uchuvchi samolyotni boshqarib ketayotganda to'satdan motorda qandaydir o'zgacha, noaniq shovqinni payqay boshlaydi. Darhol uchuvchi faoliyatiga sodir bo'lgan hodisa ma'nosini ochish uchun zarur bo'lgan tafakkur qo'shiladi. Shu tariqa yuzaga kelgan muammoli vaziyat kishi anglashi mumkin bo'lgan masalaga aylanadi. Masala muammoli vaziyatdan kelib chiqadi vaziyat bilan mahkam bog'liq bo'ladi, lekin vaziyatdan farq qiladi. Muammoli vaziyat — ancha xira, hali ko'p jihatdan aniq bo'lmagan va kam anglanilgan taassurotlardir. Muammoli vaziyat bamisoli «nimalardir ko'ngildagidek emasligi»dan, «nimalardir ko'ngilni xira qilib turganligi»dan go'yo signal beradi. Masalan, uchuvchi motorda qandaydir tushunib bo'lmaydigan hodisa ro'y berayotganligini payqay boshlaydi, lekin u motorning qaysi qismida, nima sababdan, qanday hodisa ro'y berayotganini hali aniqlay olmagan, bundan tashqari, u yuz berishi mumkin bo'lgan xavfning oldini olish uchun qanday harakat qilish kerakligini hali bilmaydi. Mana shunday tarzdagi muammoli vaziyatdan tafakkur jarayoni boshlanib ketadi. Tafakkur ana shu muammoli vaziyatning o'zini tahlil qilishdan boshlanadi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida sof ma'nodagi masala, sof ma'nodagi muammo paydo bo'ladi.

Masalaning yuzaga kelishi, muammoli vaziyatdan farq qilib, garchi oldindan bo'lsa ham berilgan (ma'lum) va norma'lum (qidirilayotgan) narsani taxminan bo'laklarga bo'lishga ulgurildi degan ma'noni anglatadi. Bu bo'laklarga bo'lish masalaning so'z bilan ifodalangan qismida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv masalasida uning asosiy shartlari ozmi-ko'pmi

yaqqol qayd qilingan (nima berilgan, nima ma'lum) hamda talablar, savollar berilgan (nimani isbotlash, topish, aniqlash, hisoblash talab qilinadi). Bu bilan dastlabki yaqinlashish tarzida va mutlaqo taxminiy ravishda qidirilayotgan narsa (noma'lum narsa) belgilanadi. Ana shu noma'lumni qidirish va topish masalani yechish natijasida qo'lga kiritiladi. Bino-barin, masalaning asosiy, dastavvalgi ifodalanishi faqat minimal darajada va juda taxminiy ravishda qidirilayotgan narsani aniqlaydi. Masalani yechish davomida uning tobora yangi va tobora muhim shartlari hamda talablarini namoyon qilish jarayonida qidirilayotgan (noma'lum) tomonlari ortiqroq darajada aniqlanadi. Masalaning xarakteristikasi borgan sari mazmunli va aniq bo'la boradi. Masalaning batamom yechilishi qidirilayotgan narsaning topilganligini, to'la ravishda aniqlanganini bildiradi. Agar qidirilayotgan narsa (noma'lum narsa) masalaning boshlang'ich ifodasidayoq butunlay va to'la ravishda aniqlangan bo'lsa, ya'ni uning asosiy shartlari va talablarining ifodalanishida aniqlangan bo'lsa, unda bu noma'lumni qidirishga hech qanday zarurat bo'lmas edi. Noma'lum narsa darhol ma'lum bo'lib qolar, ya'ni yechilishi uchun tafakkur qilishni talab etadigan hech qanday masala yuzaga kelmas edi. Aksincha, agar noma'lumni qaysi bir sohada izlash kerakligini taxminan belgilovchi masalaning dastlabki ifodasi bo'lmaganida, ya'ni qidirilayotgan narsani minimal darajada oldindan ko'ra bilish bo'lmaganda, noma'lumni topish mumkin bo'lmas edi. Noma'lumni qidirish uchun hech qanday taxminiy ma'lumot, biror tayanch, biror mo'ljal qolmagan bo'lar edi, muammoli vaziyat (xuddi xalq ertaklarida aytilganidek: «U yoqqa boray desam, qayoqqa borishimni bilmayman, biror narsani topay desam, nimani topishimni bilmayman») kabi azobli esankirash va sarosimalik hissidan tashqari hech narsani yuzaga keltirmas edi.

Masalani yechish davomida tafakkur jarayon sifatida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Tafakkurni jarayon sifatida talqin qilish, eng avvalo fikr yuritish faoliyati determinatsiyasi (sababiy bog'lanish)ning o'zi jarayon sifatida amalga oshirilishi-

ni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, kishi masalani yechish davomida o'ziga shu chog'gacha noma'lum bo'lgan yangi-yangi shartlarni va talablarni namoyon qiladi. Bular tafakkur bundan keyin davom etishini sababiy jihatdan bog'lab tushuntirib beradi. Binobarin, tafakkur determinatsiyasi qandaydir absolut tayyor va avvaldanoq tugal bir narsa sifatida azaldan berilgan bo'lmaydi. Tafakkur determinatsiyasi masala yechish davomida hosil qilinadi, asta-sekin tarkib toptiriladi va rivojlantiriladi, ya'ni jarayon tarzida namoyon bo'ladi. Jarayonning dastlabki paytlarida uning bundan keyin sodir bo'lish yo'li ilgaridan butunlay va to'la ravishda dasturlashtirilmagan bo'ladi; masalani yechish davomida uni amalga oshirishning yangi shartlari uzluksiz paydo bo'lib va taraqqiy etib turadi. Vaholanki, oldindan hamma narsani to'la programmalashtirib bo'lmas ekan, fikr yuritish jarayoni davomida (ilgaridan to'la hisobga olib bo'lmaydigan yangi shartlarga javob tariqasida) doim to'g'rilab borish, aniqlab turish lozim bo'ladi.

Fikr yuritishning asosiy mexanizmlarini yaxshi aniqlash uchun, noma'lumni fikran oldindan ko'ra bilishga qaratilgan va psixologiyada aytilgan quyidagi uchta o'zaro qarama-qarshi fikrni ko'ra bilishiga qaratilganini ko'rib chiqamiz. Psixologiyada tafakkur jarayoniga har xil qarashlarga bog'liq holda masalani yechish davomida o'quvchilarda tafakkurni shakllantirishning turli yo'llarini belgilab beradi.

Birinchi nuqtayi nazar bilish jarayonining har bir oldingi bosqichi («qadami») o'zidan bevosita keyin kelayotgan bosqichni boshlab berishiga asoslangandir. Bunday tezis to'g'ri, lekin yetarli emasdir. Haqiqatda tafakkur davomida noma'lumni minimal darajada oldindan ko'rish «bir qadamdan» ko'ra ko'proq bo'ladi. Uning uchun hamma narsani oldingi bosqich bilan bevosita undan keyingi bosqich o'rtasidagi o'zaro aloqa bilan tushuntirib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, masala yechish davomida fikran oldindan ko'ra bilish hajmini va darajasini kamaytirishni baholamaslik mumkin emas.

Ikkinchi qarama-qarshi fikr, aksincha, tafakkur jarayonida hali qo'lga kiritilmagan, namoyon qilinmagan natijani

(mahsulotni), ya'ni hali noma'lum qarorni oldindan ko'ra bilish momentini orttirib, absolutlashtirib va ortiq baholab yuboradi. Oldindan ko'rish hamisha faqat qisman va taxminan bo'ladi. Undan so'ng darhol natijaning (yechimning) tayyor va to'la ta'rifiga aylanadi. Bu fikrning xato ekanligini quyidagi misolda ko'rsatish mumkin. O'quvchi qiyin masalani zo'r berib yechishga urinadi, lekin, tabiiyki, qanday qilib yechishni u hali bilmaydi; o'quvchi masalaning yechimini o'zining tafakkur qilish jarayoni oxirida, natijasida yoki xulosasida topa oladi. Masalaning yechimini allaqachon bilgan o'qituvchi o'quvchiga yordam bera boshlaydi. Tajribali pedagog hech qachon masalaning butun yechilish yo'lini birdaniga aytib bermaydi, o'quvchisiga asta-sekinlik bilan va kerak bo'lgan paytda ozgina maslahat berib, ishning asosiy qismini o'quvchining o'zi bajarishi uchun imkoniyat yaratadi. Faqat mana shunday yo'l bilan o'quvchining mustaqil tafakkurini tarkib toptirish va rivojlantirish mumkin. Agar masala yechishning asosiy yo'lini o'quvchiga darhol aytib bersak, tafakkurning bo'lajak natijasini ma'lum qilsak, va shu tarzda o'quvchiga «yordam» beradigan bo'lsak, bu faqat fikr yuritish faoliyati taraqqiyotini tormozlashtirishi mumkin. Agar o'quvchi masalani yechishning hamma yo'lini boshidan oxirgi bosqichigacha bilsa, uning tafakkuri umuman ishlamaydi yoki juda passiv, minimal darajada ishlaydi. O'quvchilar hamma vaqt o'qituvchining malakali yordamiga muhtoj bo'ladi, lekin bunday fikr yuritish jarayonlarini ma'lumotlar, oldindan tayyor bo'lgan natijalar bilan almashtirib, ularning tafakkurini mutlaqo chetga surib qo'ymasligi kerak.

Shunday qilib, biz ko'rib chiqqan ana o'sha nuqtayi nazarlar garchi ulardan birinchisi fikran oldindan ko'rishga yetarli baho bermasa ham, ikkinchisining esa uning rolini oshirib yuborishiga qaramay, noma'lumni qidirish jarayonida fikran oldindan ko'rishning borligini tan oladi. Uchinchi nuqtayi nazar bo'lsa, aksincha, masalani yechish davomida oldindan ko'rishni umuman inkor qiladi.

Uchinchi nuqtayi nazar tafakkurga kibernetik munosabatning taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda juda keng tarqalgan-

dir. Uning ma'nosi quyidagidan iborat: tafakkur jarayonida tegishli obyektning uning bilan bog'liq bo'lgan umumiy qoidalari, teoremlari, yechish variantlari va shu kabi belgilarining hammasini, juda ko'pini yoki ayrimlarini birin-кетин qatorasiga saralab qarab chiqish (eslab ko'rish, hisobga olish, foydalanishga urinib ko'rish) lozim. Buning natijasida ulardan faqat masalani yechish uchun zarurinigina tanlab olish lozim bo'ladi. Masalan, agar masalaning asosiy shartlarida parallelogramm ko'rsatilgan bo'lsa, unday paytda masalani o'ylash jarayonida mazkur obyektning hamma xususiyatlarini qatorasiga esga tushirib qarab chiqish va masalani yechish uning har bir xususiyatidan navbatma-navbat foydalanishga urinib ko'rish kerak. Oqibat natijada bu xususiyatlardan qandaydir birortasi, ehtimol, mazkur holat uchun munosib kelib qolar.

Tahlil qilinayotgan obyekt kirishgan aloqa va munosabatlar tizimini ochish davomidagina odam bu obyektning hali ma'lum bo'lmagan yangi belgilarini kashf qila boshlaydi, tahlil qilib, ularni payqay boshlaydi. Aksincha, bunday aloqalar tizimini kishining o'zi ocha boshlamaguncha, u masalani yechish uchun yangi va kerakli xususiyatga, hatto unga to'g'ridan to'g'ri aytib berilsa ham hech qanday e'tibor bermaydi.

Tasodifiy aytib berish ko'pincha biror yangilikni kashf va ixtiro qilishga yordam beradi. Biroq ana shunday aytib berishdan foydalanishda, tafakkur jarayonining yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonuniyati namoyon bo'ladi. Masalani yechish ustida zo'r berib o'ylaydigan kishigina «baxtli» fursatni payqashi va undan foydalanishi mumkin. Hamma gap u yoki bu tashqaridan aytib berish borib tushadigan zamin, umuman ichki sharoit tizimi qanchalik tayyorlanganligidadir. Bu yerda ham boshqa hamma yerdagi kabi, tashqi sabablar faqat ichki sharoit orqali ta'sir qiladi.

Masala yechishda tafakkur jarayoni. Tafakkur va masala yechish o'zaro bir-biri bilan mahkam bog'langandir. Lekin tafakkurni masala yechish vositasiga aylantirib, ularni bir-biriga tenglashtirish mumkin emas. Masalani yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, boshqacha yo'li yo'q. Le-

kin tafakkur faqat masala yechishdagina namoyon bo'lmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, fikrlash faoliyati hozirdayoq ilgari surilgan, tarkib topgan (masalan, maktab masalasi tipidagi) vazifalarni hal qilish uchungina zarur emas. U vazifaning yo'yilishi uchun ham, yangi muammolarni namoyon qilish va anglash uchun ham zarurdir. Muammoni topish va qo'ya bilish ko'pincha uning bundan keyingi hal qilinishiga qaraganda katta aqliy zo'r berishni talab qiladi. Tafakkur masala yechish bilan bog'liq bo'lgan hollarda emas, balki uning bilan birga bilimlarni o'zlashtirish, o'qish jarayonida tekstni tushunish va boshqa ko'p hollarda ham kerakdir.

Garchi tafakkur masala (muammo) yechish vositasiga aylantirilmasa ham, lekin uni aynan masala yechish davomida, ya'ni o'quvchining o'zi o'z kuchiga yarasha muammo va savollarga yondashib, ularni ifodalab yechish davomida tarkib toptirish hammadan ko'ra yaxshiroqdir. So'nggi yillarda muammoli vaziyatni va masala yechishni psixologik tadqiqot qilish asosida o'quvchilarga beriladigan muammoli ta'limning metodlari ishlanmoqda. Bunday ta'lim metodlari o'quvchilarni o'zlari hal qila oladigan ayrim muammolarni birinchi ochuvchilar, tadqiqotchilar qilib qo'yishga qaratilgandir. Masalan, o'quvchi bir qator masalalarni yechadi va buning natijasida mana shu barcha masalalar yechimining asosida yotgan o'zi uchun yangi teoremani (albatta, insoniyat uchun emas) ochadi. Mana shunday sharoitlarda bolaning tafakkurini, har doim qandaydir yangilik ochuvchi, qiyinchiliklarni yengishga qobil haqiqiy, mustaqil tafakkurni tarbiyalash juda yaxshidir. Psixologiya fani o'quvchining yo'lidagi hamma qiyinchiliklarni bartaraf etish kerak emas, degan xulosaga kelmoqda. O'quvchi ana shu qiyinchiliklarni bartaraf qilish jarayonidagina o'zining aqliy qobiliyatini rivojlantira oladi.

22.8. Tafakkur turlari

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi birmuncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir: 1) ko'rgazmali harakat; 2) ko'rgazmali obrazli va 3) mavhum (nazariy) tafakkur.

Ko'rgazmali harakat tafakkuri. Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o'z oldilarida turgan masalalarni dastlab amaliy faoliyat nuqtayi nazaridan yechganlar; keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Masalan: bizning uzoq avlodimiz yerni dastavval amaliy (qadamlab va hokazo) ravishda o'lchashga o'rgangan va shundan keyingina mana shunday amaliy faoliyat davomida ko'ringan bilimlar asosida, asta-sekin maxsus nazariy fan sifatida geometriya fani yuzaga kelgan va rivojlangan. Amaliy va nazariy faoliyat o'zaro chambarchas bog'langandir. «G'oyalar, tasavvurlar va ong ishlab chiqarishi dastavval bevosita moddiy faoliyatga qo'shilib ketgan bo'ladi». Bu shuni anglatadiki, sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o'zi birlamchidir. Amaliy faoliyatning taraqqiyoti davomida undan nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqadi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur sodda formada ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalarda, ya'ni to'rt-yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda paydo bo'ladi.

Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek mustahkam, to'g'ri va bevosita bo'lmaydi. Bola bilayotgan obyektini analiz va sintez qilishi davomida qiziqtirayotgan narsasini qo'llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko'rish shart emas. Juda ko'p hollarda tizimli ravishda obyektini amaliy tahlil qilib ko'rish talab qilinmaydi. Lekin barcha hollarda mazkur obyektini aniq idrok qilish va yaqqol tasavvur etish shartdir. Boshqacha qilib aytganda, bog'cha yoshidagi bolalar faqat ko'rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va hali tushunchalarga ega bo'lmaydilar.

Mavhum tafakkur. Bolalar amaliy va ko'rgazmali-hissiy tajribalari asosida ularning maktab yoshidagi davrlarida avval sodda shakldagi mavhum tafakkur, ya'ni mavhum tushunchalar shaklidagi tafakkur rivojlanadi. Tafakkur bu yerda faqat amaliy harakatlar tarzida va ko'rgazmali obraz shaklida emas (idrok va tasavvurlar kabi), balki avval mavhum tushunchalar va muhokamalar shaklida namoyon bo'ladi.

Maktab o'quvchilarining turli fanlar – matematika, fizika, tarix asoslarini o'zlashtirishlari davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. Matematika, geografiya, fizika, biologiya va boshqa ko'plab tushunchalarni maktab ta'limi davomida tarkib toptirish va o'zlashtirish juda ko'p tadqiqotlarning predmetini tashkil etadi (P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, G.S.Kostyuk, N.A.Menchinskaya, R.G.Katadze, D.B.Elkonin va boshqalar). Bu ishlarda tushunchalarning xususan qaysi belgilari, qanday izchillikda, qanday sharoitlarda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi batafsil qarab chiqilgan. Maktab ta'limining oxiriga kelib, bolalarda ma'lum darajada tushunchalar tizimi tarkib topadi. O'quvchilar faqat ayrim (masalan, «solishtirma og'irlik», «sudemizuvchi», «tanqidiy realizm») tushunchalarni emas, balki tushunchalarning butun bir sinflari yoki tizimlarini ham (masalan, geometrik tushunchalar tizimi) muvaffaqiyatli ravishda ishlata boshlaydilar.

Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, hatto eng mavhum tafakkurning ham hissiy bilish chegarasidan ancha chiqib ketishiga qaramay, hech qachon sezgi, idrok va tasavvurlardan to'la-to'kis ajralib ketmaydi. Fikr yuritish faoliyatining ko'rgazmali-hissiy tajriba bilan bunday chambarchas bog'liq bo'lishi o'quvchilarda tushunchalarni tarkib toptirish davomida yana ham katta ahamiyatga egadir.

22.9. Tafakkurning individual xususiyatlari

Har xil odamlarda tafakkurning individual eng avvalo ularda fikrlash faol xususiyat faoliyatining har xil va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi turlari hamda shakllari turlicha (ko'rgazmali-qiyofali, ko'rgazmali-ta'sirchan va mavhum tafakkur) nisbatda tarkib topgani uchun yuzaga keladi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik, epchillik, fikrning tezligi kabi boshqa sifatlari ham kiradi.

Tafakkurning mustaqilligi dastavval yangi masala, yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilishda, undan so'ng esa ularni o'z kuchi bilan yecha bilishda namoyon bo'ladi. Tafakkurning

ijodiy xarakteri xuddi mana shunday mustaqillikda yorqin ifodalanadi.

Tafakkurning o'zgaruvchanligi shundan iboratki, masalani yechishning boshda belgilangan yo'li (o'rni) asta-sekin yuzaga chiqadigan va avvaldan hisobga olib bo'lmagan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, ana shu yo'lni o'zgartira olishdan iboratdir.

Fikrning tezligi xususan shunday hollarda kerak bo'ladi-ki, ba'zan (masalan, jang paytida, avariya paytida) kishidan biror qarorni juda qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilinadi. Fikrning tezligi maktab o'quvchilariga ham kerakdir. Masalan, ayrim yaxshi o'quvchilarni, hatto yuqori sinf o'quvchilarini doskaga chaqirib, ulardan yangi masalani yechish talab qilinganda, hayajonlanib, butun sinf oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bu salbiy emotsiyalar go'yo ularning tafakkurini tormozlab qo'yadi. Fikr juda sekin va tez-tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Garchi o'zlari uchun tinch sharoitda (doskaning oldida emas, uyda yoki partada o'tirganda), o'sha o'quvchilar, o'sha masalaning o'zini hatto undan qiyinroq masalalarni ham tez va yaxshi yechadilar. Fikrning tormozlashtiruvchi his va tuyg'ular ta'sirida jiddiy sekinlashuvi ko'pincha imtihonlarda ham namoyon bo'ladi. Boshqa bir o'quvchilar, aksincha, imtihon paytida hayajonlansalar, ularning tafakkuri sekinlashmaydi, balki tezlashadi. Yana shunday sharoitda ular odatdagidek tinch sharoitdagiga qaraganda ancha yuksakroq natijalarga erishadilar.

Ayrim o'quvchilarning ana shu individual xususiyatlarini, ularning aqliy qobiliyatlarini to'g'ri baholash bilan maxsus hisobga olish zarurdir.

Tafakkurning yuqorida ko'rsatilgan barcha va boshqa juda ko'p sifatlari uning asosiy sifati yoki belgisi bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday tafakkurning eng muhim belgisi, uning ayrim individual xususiyatlaridan qat'i nazar, muhim tomonlarni ajratib, mustaqil ravishda tobora yangi umumlash-tirishlarga kela bilishdan iboratdir. Kishi o'ylayotgan paytda, bu o'yni hatto juda yorqin, qiziq, yangi va favqulod-

da bo'lishiga qaramay, biror narsa yoki hodisalarni sharhlash bilan cheklanmaydi. Tafakkur mazkur hodisaning mohiyatiga chuqur kirgan va tashqi jihatdan bir-biridan qanchalik farq qilishidan qat'i nazar, ozmi yoki ko'pmi bir xil hodisalarni barchasining umumiy taraqqiyot qonunini kashf etgan holda zarur ravishda oldinga qarab boradi.

Nazorat savollari:

1. Tafakkur psixologiyasi predmeti.
2. Tafakkur operatsiyalari haqida tushuncha.
3. Tafakkur sifatlarining psixologik tavsifi.
4. Tafakkur turlari haqida mulohazalar.
5. Tafakkurning individual xususiyatlari.
6. Tafakkur turlari.
7. Mavhum tafakkur.
8. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur.

XXIII bob. NUTQ

Tayanch tushunchalar: noverbal nutq, imo-ishora, mimika, pantomimika, daktilogik nutq, tovushli nutq, exologik (aks-sado), signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar), verbal nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, monologik nutq, polilogik nutq, tashqi nutq, ichki nutq.

23.1. Nutq to'g'risida umumiy tushuncha

Insoniyat taraqqiyoti tarixida til tufayli aks ettirishning imkoniyatlari qayta quriladi, olam odam miyasida yanada aniq, ravshan in'ikos ettiriladigan bo'ladi. Tilning paydo bo'lish munosabati bilan har bir alohida shaxs jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida, jarayonida to'plagan tajribalaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Til yordami bilan har bir inson shaxsan o'zi hech qachon duch kelmagan notanish hodisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar yuzasidan bilim olishga erishadi. Xuddi shu boisdan til odamga ko'pchilik hissiy va intellektual ta'sirlar hamda taassurotlar to'g'risida o'ziga o'zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka zid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishi ularga ijtimoiy tajriba mohiyati, ko'nikma hamda malakalarni o'tkazishi, uzatishi mumkin.

Ma'lumki, hayvonlar, jonivorlar o'zlarining individual tajribalarini o'z turkumidagi boshqa namoyandalarga o'tkazishga yoki berishga mutlaqo qobil emaslar. Ular, ayniqsa, o'z turkumlaridagi avlodning ilgarigi tajribalarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega emaslar, chunki mavjudotlar tug'ma irsiy belgilarga, instinktlarga va shartsiz reflekslarga asoslanadilar, xolos.

Biosfera va neosfera to'g'risidagi ma'lumotlar, qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni bilish va egallashda qisqa ijtimoiy-tarixiy davr oralig'ida g'oyat ulkan yutuqlarga erishuvchi insonning hayvonot olamidani muhim farqi shundan iboratki, birinchidan, odamning shaxsiy individual tajribasi umuminsoniy tajriba bilan uzviy uyg'unlikka ega, ik-

kinchidan, tajriba mahsulotlari muayyan darajada saqlanadi, uchinchidan, mazkur tajribalar takomillashib, modifikatsiyalashib boradi, to'rtinchidan, ularning mohiyati, tuzilishi qo'lyozmalarda o'z aksini topadi.

Odamdagi shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog'liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanadi. Til oddiy qilib tushuntirilganda so'z va belgilar tizimi hamda majmuasidan iboratdir. Inson tomonidan u yoki bu faoliyatning bajarilishi belgilar, alomatlar xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning mahsuldorligi, muvaffaqiyati til tarkiblarining ahamiyatiga bevosita aloqadordir. Masalan, haydovchi uchun ko'cha qoidalari, matematik uchun formulalar, operator uchun signallar (semiotika — zeta yunoncha «belgi») belgilar, simvollar, alomatlar vazifasini bajarib, faoliyat uchun regulyator sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funksiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol) ning vositasidir. Odatda, belgilar turli-tuman bo'lishidan qat'i nazar, ularning eng muhimi — bu so'zdir. Har bir so'z ma'lumot, xabar, axborot vazifasini bajaradi va muayyan mazmunni o'zida aks ettiradi (masalan: mashg'ulot, daftar, yomg'ir va boshqalar).

Tilning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi (avlodlar ota-onalar, o'qituvchilar va murabbiylar);

b) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi (masalan: «Leksiya bo'lmaydi», «Bugun bayram» — ta'sir qilishdan, ta'sir o'tkazishdan iboratdir);

d) tilning muhim funksiyalaridan yana bittasi — intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qilishdir (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, yechishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Odam hayvonot olamidani farqli o'laroq o'zi xoh amaliy, xoh aqliy harakat bo'lishidan qat'i nazar, uni rejalashtira oladi.

Faoliyatni bunday rejalashtirish yechimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy qurolli tildir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tilning eng asosiy funksiyasi – bu kommunikatsiyadir.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, avlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (qurolli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir.

Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari. Nutqni idrok qilish oddiy reflektor faoliyatining qonunlari asosida sodir bo'lishi mumkin. Chunki uni yuzaga keltiruvchi stimullar birinchi signallar tipidagi qo'zg'atuvchilardan iboratdir (masalan: «Marsh», «Salom»).

Nutq yuzaga kelishi va idrok qilinishidan inson «signallarning signali» (I.P.Pavlov) tarzidagi so'zlardan foydalanishi mumkin. Mazkur jarayon bosh miya katta yarim sharlarining po'stida amalga oshadi.

P.Broka (1861-y.) miya po'stining ma'lum qismi (miya chap yarim shari peshana qismining pastki tomonidagi burmalarining orqa qismi) shikastlansa, bemorlarda nutq artikulyatsiyasining buzilishini kashf etgan va «so'z obrazlarini harakatlantiruvchi markaz» deb atagan.

K.Vernike (1874-y.) bosh miya yarim sharlari peshana qismining tepa tomonida «so'zlarning sensor obrazlari» joylashgan deb dalillashga harakat qiladi.

P.K.Anokhin – nutq jarayonini ta'minlashda juda ham sodda elementar «stimul-reaksiya» tipidagi fiziologik mexanizm ham, nutq faoliyatining yuksak formalari uchun nutq vositasi bilan fikr bayon qilishning ichdan dasturlashtirish mexanizmlari uchun xarakterli va iyerarxik tuzilishiga ega bo'lgan maxsus mexanizmlar ham qatnashadi.

23.2. Nutq mexanizmlari (N.I.Jinkin)

Biron fikrni nutq vositasi yordami bilan bayon qilishdan oldin, maxsus kod orqali bu fikrning asosini tuzamiz – u dasturlashtirish mexanizmidir.

Undan keyin rejalashtirishdan gapning grammatik tuzilishiga o'tish bilan bir guruh mexanizmlar keladi.

Esda olib qolishni so'zlarning grammatik xususiyatlarini amalda qo'llashni ta'minlovchi mexanizm.

Bir xil tipdagi tuzilishdan boshqa tipdagi tuzilishga o'tish mexanizmi.

Dastur elementlarini grammatik tuzilishga yoyish mexanizmi.

So'zni ma'nosiga qarab qidirishni ta'minlovchi mexanizmlar.

Sintagmalarni harakat jihatidan dasturlashtiruvchi mexanizmlar.

Nutq tovushlarini tanlash va harakat dasturidan tovushlarni to'ldirishiga o'tish mexanizmlari.

Nutqni amalga oshirishni ta'minlovchi mexanizm. Tadqiqodchi A.R.Luriya nutqning afaziyasini tekshirib, ular quyidagi turlardan iborat ekanligini bayon qiladi:

1) dinamik afaziya – gaplar yordami bilan so'zlash qobiliyatining buzilishi;

2) efferent motor afaziyasi – gapning grammatik tuzilishi buzilishi;

3) afferent motor afaziyasi – nutq artikulatsiyasining buzilishi;

4) semantik afaziya – gaplar o'rtasidagi bog'liqlikning buzilishi;

5) sensor afaziya – so'zlarni idrok qilishning buzilishi.

Nutq rivojlanishi davrlari:

1-davr – 2 oydan 11 oygacha; 2-davr – 11 oydan 19 oygacha; 3-davr – 19 oydan 3 yoshgacha.

Nutq rivojlanishi quyidagi xususiyatlarga ega:

a) gugulash;

b) g'udurlanish (soxta so'zlar);

d) paradigmatic fonetika (1,3–1,5 yoshgacha) – buvi, buva, o'tir, o'tirdi, o'tiradi;

- e) nutqning vaziyatbopligi (J.Piaje – situativ nutq);
- f) nutq egotsentrizmi (J.Piaje – egotsentrik nutq).

23.3. Nutq turlari

Psixologiya fanida nutqqa va nutq faoliyatiga bag'ishlangan bir talay ilmiy tadqiqot natijalari mavjud bo'lsada, lekin bu bo-rada umumiylik, ta'riflar birligi, uning evolutsion va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl ji-hatdan o'xshashlik yo'q. Nutqning neyropsixologik asoslari, mexanizmlari, artikulatsion va fonetik apparatlari, psixolingvis-tik tuzilishi (fonema, fleksiya) to'g'risida ilmiy-amaliy xususi-yatli umumlashmalar hamda umumlashmalar umumlashmasi ishlab chiqilmagan. Xuddi shu boisdan nutqning genezisi, uning filogenetik va ontogenetik xususiyatlari, paydo bo'lishi, o'sishi, o'ziga xos tavsiflanishi, bosqichlari, fazalari, patologiyasi bo'yi-cha xilma-xil yondashuvlar mavjuddir. Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o'rganilishi ham o'ziga xoslik, uning qirralari, shakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflani-shi mavjud bo'lib, ilmiy talqinining tub mohiyati, bayoniyligi bi-lan o'zaro tafovutlanadi. Yondashuvlar tahliliga to'xtalishdan ol-din nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tatbiqiy jihati qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Bizningcha, nutqning muayyan asoslarga suyangan holda noan'anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson–texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo'ladi (odatda, og'zaki va yozma turkumga ajratilar edi): ver-bal va noverbal.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hi-soblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so'zsiz nutq turlari paydo bo'lgan bo'lib, u o'z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Insoni-yatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulatsion apparati paydo bo'lgunga qadar imo-ishora negiziga qurilgan. Ma'lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davr-da ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborot-

lar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi ma'lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo'lgan, tobora takomillashib borgan.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko'rinishlariga ajratish mumkin:

imo-ishora, mimika, pantomimika, exologik, ya'ni aks-sado, signifikatsiya, daktilogik (barmoq nutqi).

Inson yer yuzasidan hayot va faoliyat ko'rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma'lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma'noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi. Masalan, o'zbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma'noni bulg'orlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi. Aksariyat hollarda imo-ishora his-tuyg'usiz namoyon bo'ladi va shaxslararo munosabatning tub ma'nodagi ham quroli, ham vosita funksiyasini bajarib kelgan. Lekin uni his-tuyg'usiz deb nomlash ham ilmiy-amaliy qiymatini pasayishiga olib keladi, bu holat uning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettiradi, shaxslararo munosabat mag'zini tashkil etib kelgan, ba'zida hozirgi zamonda ham undan keng ko'lamda foydalaniladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o'zgaralar fikriga javob qaytarish, tana a'zolari rangining o'zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo'luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyig'ida kulish, lab qisish va cho'chchaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, xullas turli psixologik holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatli nutq turi mimika bo'lib hisoblanadi. Mimika yordami bilan haqgo'ylik,

quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikki yuzlamachilik, hasad, quvonch, qayg'u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg'ular namoyish etiladi. Xush yoki noxush kechinmalar aks etilayotganligidan kelib chiqqan holda muomala jarayoni yoki qisqa muddatli, uzoq muddatli vaqt mezonini namoyon qiladi, ayanch, baxt hislarini ifodalab keladi. U mono vaziyatni, diada, triada, poliada ko'rinishidagi shaxslararo munosabat shakllarini yaqqol aks ettiradi, fikrni uzatish, qabul qilish, ta'sirlanish, ruhlanish kabi funksiyani bajaradi. Hayotiy tajribaning ko'payishi bilan ichki kechinmalarni (interiorizatsiyalash) tashqi voqea-hodisalarga almashtirish (eksteriorizatsiyalash) bilan yakunlanadi, ko'pincha individual va ijtimoiy tarbiya vazifasini bajaradi.

Yuz harakatlari, tana a'zolari, qaddi-qomat yordami bilan fikrlarni uzatish, sujetli qoidali, ma'noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. O'z mohiyati ko'lami bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo'lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalar yuzasidan o'zgalarga ma'lumot uzatish tarzida hukm suradi. Insonda turmush tajribasi ortib borishi, kasbiy faoliyat mazmunini rollarga va sujetga asoslangan holda ssenariysini yaratish, vaziyatga qarab qisqa va uzoq muddatli informativ funksiyani bajaradi. Pantomimika yumor hissini, qo'rqinch tuyg'usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini o'zida aks ettirib, ko'pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi, hissiy aloqa o'rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta'minlanadi.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika, d) pantomimika, e) daktilogik;

2) tovushli: a) exologik (aks sado), b) signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar).

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) og'zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) polilogik, 5) tashqi, 6) ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig'iq), 10) epik (yoyiq), 11) affektiv (jahd holatidagi).

Insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida ogʻzaki nutqni keltirish joiz. Ogʻzaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo boʻlgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq koʻrinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yigʻiq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Pauza, mantiqiy urgʻu, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni oʻzida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi ogʻzaki nutq deb ataladi.

Noverbal nutq oʻzining asosiy funksiyasini bajarib boʻlganidan soʻng (uning maʼlum tarkiblari faoliyat koʻrsatishda davom etib kelmoqda) axborot uzatish, tajribalarni egallash, insonni kamol toptirish va shunga oʻxshagan vazifalar tabiiy ravishda ogʻzaki nutq zimmasiga yuklangan. Jarangli, jarangsiz faol, sust, his-hayajonli, monoton, yuksak surʼatli, shivirlash koʻrinishidagi ogʻzaki nutq xususiyatlari va qonuniyatlarini oʻzida mukammallashtirgan holda aloqa quroli, vositasi tariqasida muomala tarkiblarini aks ettiradi. Ogʻzaki nutq oʻzining jarangdorligi, taʼsirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi.

Ogʻzaki nutqning dastlabki turidan biri — bu monologik nutqdir. Yakka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning oʻziga qaratilgan (egotsentrik), taʼsirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga moʻljallangan nutq turi monologik nutq deb ataladi. Unda shaxsiy his-tuygʻularning ichki va tashqi shakllari uygʻunlashadi, shuningdek, oʻzgalar fikrini ifodali oʻqishda ham oʻz aksini topadi. Odatda, monologik nutqda fikrlar qisqartirilmaydi, mabodo bu qoida buzilsa, axborot maʼnosini tushunish qiyinlashadi. His-hayajonning tashqi va ichki kechinmalari hamda ularning mexanizmlari aniq, ravon, izchil aks ettiriladi.

Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g'oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo'ljallangan, lekin latent davridagi ma'lumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi. Ichki nutqning muhim xususiyatlaridan biri – bu ko'lam jihatdan tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Ikkinchi bir xususiyati esa tafakkurning mexanizmi funksiyasini bajarishdir.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajon tarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatlarning yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi, ovoqli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq deyiladi. O'zining tezkorligi va vaziyatbopligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg'unlashishi tufayli fikriy bog'lanishni vujudga keltiruvchi holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Mulohazalar mohiyati shaxs kechinmalari bilan munosabatga kirishishi natijasida o'ziga xos voqelikni namoyish qiladi.

Turli omillar ta'sirida birdaniga vujudga keluvchi, jahlning ma'suli hisoblanmish, qisqa muddatli nutq turiga affektiv nutq deyiladi. Birdaniga suhbatdosh, raqib tomonga uzatiluvchi, o'ta ta'sirchan, xavfli, ruhiy nishon vazifasini bajaruvchi qisqa muddatli nutq affektiv deb nomlanib, zarbasi jihatidan alternativi yo'qligi bilan boshqa nutq turlaridan keskin ajralib turadi. Jahl, qasos, alam, tajovuz kechinmalarini o'zida aks ettirib, o'ta tanglik, zo'riqish (stress) mahsuli bo'lib hisoblanadi (jahl kelganda aql ketadi: hissiyot bilan emas, balki aql bilan ish tut).

Nazorat savollari:

1. Nutq to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Nutq mexanizmlarining psixologik mohiyati.
3. Nutq genezisi nazariyalari.
4. Nutq turlarining psixologik tavsifi.
5. Nutqning rivojlanish fazalari va o'ziga xos xususiyatlari.
6. Nutq va muomala.

V BO'LIM (MODUL). HISSIY-IRODAVIY SOHA PSIXOLOGIYASI.

XXIV bob. HISSIYOT

Tayanch tushunchalar: his-tuyg'ular, affektlar, kayfiyat, stress, g'azablanish, nafratlanish, jirkanish, qo'rquv, uyalish, ehtiros, emotsiya, salbiy his-tuyg'ular, ijobiy his-tuyg'ular.

24.1. Hissiyotning umumiy tavsifi va uning turlari.

His-tuyg'u haqida tushuncha

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu narsalarga, qanday bo'lmasin, munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbayi faoliyat va munosabat jarayonlari bo'lib, u ana shu jarayonlarda ro'y beradi, o'zgaradi, barqaror tus oladi yoki yo'qoladi. Kishining hayotiy yo'lini ko'p jihatdan belgilab beradigan vatanparvarligini ham his-tuyg'u deb atashadi. Arzimagan ilinj bilan bironni aldagan yolg'onchiga nisbatan kishida paydo bo'ladigan nafratlanish ham his-tuyg'u qatoriga kiradi. Uzoq davom etgan yomg'irdan so'ng quyosh charaqlab ketganligi tufayli hosil bo'lgan bir lahzalik mamnunlik ham ana shunday tushuncha bilan ifoda etiladi.

His-tuyg'ular — kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

His-tuyg'ularning kechishi subyekt alohida his etayotgan psixik holat sifatida gavdalanadi. Bunda biron-bir narsani idrok etish va tushunib yetish, biron-bir narsa to'g'risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma'lum yoki no-ma'lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabat bilan birlikda ro'y beradi. Ana shu hollarning barchasida his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida hissiy holati xususida gapiriladi. Shu bilan birga his-tuyg'ularning ke-

chishi o'z rivojlanishiga ega bo'lgan, joriy va o'zgarib turadigan psixik jarayondir. Misol uchun, yaqin kishidan ajralib qolishning og'irligini boshdan kechirish, jumladan, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan judolikdan so'ng o'zining hayotdagi o'rnining o'zgarib qolganini faol anglab olinishini, hayotiy qadriyatlarining qayta baholanishini, tanglik vaziyatini bartaraf etish uchun o'zingda kuch topa bilishni va shu kabilarni anglatadi. Shu tarzda jo'shqinlik bilan kechayotgan hissiy jarayon o'z yakunida judolik vaziyatining o'ziga va shu vaziyatda kishi o'zligiga beradigan ijobiy va salbiy baholarning ma'lum darajada muvozanatlashuvi ro'y beradi.

His-tuyg'uni boshdan kechirishning turli formalari emotsiya, effekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati), ehtiros va, nihoyat, tor ma'nodagi so'z bilan aytganda, his-tuyg'ular — shaxsning emotsional sohasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manba, odamlar o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlarining ifodasi bo'lib hisoblanadi.

His-tuyg'ular shaxs ehtiyojlariga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam beradi va ularning qondirilishiga qaratilgan faoliyatga omil baxsh etadi. Ilmiy kashfiyot qilingan paytdagi quvonchli kechinmalar olimning izlanuvchanlik faoliyatini rag'batlantiradi, bilish ehtiyojini, qondirish jarayonini jadal tarzda saqlaydi. Ehtiyoj namoyon bo'lishning alohida shakli sifatidagi qiziqish doimo yorqin hissiy tusga ega bo'ladi.

His-tuyg'ular — voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Agar bilish jarayonlarida narsalar va voqelikdagi hodisalar aks etsa, his-tuyg'ularda esa subyektning o'ziga xos ehtiyojlari bilan qo'shilib, o'zi bilib olayotgan va o'zgartirayotgan narsalarga va voqelik hodisalariga nisbatan uning munosabati aks etadi. .

24.2. His-tuyg'ularning fiziologik asoslari

Barcha psixik jarayonlar kabi emotsional holat his-tuyg'ularning kechinishi ham miya faoliyatining natijasi hisoblanadi.

di. Emotsiyalarning paydo bo'lishi tashqi olamda ro'y beradigan o'zgarishlardan boshlanadi. Bu o'zgarishlar kishi hayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil ehtiyojlarining paydo bo'lishiga yoki boshqalarning yo'qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o'zgarishlarga olib boradi. His-tuyg'ular kechinishiga xos fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog'liqdir. Ma'lumki, shartli reflekslar tizimi katta yarim sharlar qobig'ida tutashgan va mustahkamlangan bo'ladi, murakkab shartsiz reflekslar esa yarim sharlarning qobiq osti bo'lmalari, miya o'qiga taalluqli ko'rish tepaliklari va nerv qo'zg'alishini miyaning oliy bo'lmalaridan vegetativ nerv tizimiga yetkazib turadigan boshqa markazlar orqali amalga oshiriladi. His-tuyg'ularning kechirilishi miya qobig'i va qobiq osti markazlarining birgalikdagi faoliyati natijasi hisoblanadi.

Kishining tevarak-atrofida va uning o'zida yuz berayotgan o'zgarishlar kishi uchun qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, his-tuyg'u kechinmalari ham shu qadar chuqur bo'ladi. Shunga ko'ra ro'y beradigan muvaqqat bog'lanishlar tizimining jiddiy qayta qurilishi katta yarim sharlar qobig'i bo'ylab tarqalgan holda qobiq osti markazlariga ta'sir qiladigan qo'zg'alish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Miyaning katta yarim sharlar qobig'ining pastroqdagi bo'lmalarida organizm fiziologik faoliyatining har xil markazlari: nafas olish, yurak-qon tomirlari, ovqatni hazm qilish, ichki sekretsiya bezlarini ishlatish va boshqa markazlar joylashgandir. Uning uchun qobiq osti markazlarining qo'zg'atilishi bir qancha a'zolar faoliyatining kuchayib ketishiga olib keladi. Shu boisdan ham his-tuyg'ularning kechirilishi nafas olish maromining (kishi hayajonlanganidan bir lahza nafasi chiqmay qoladi, og'ir va o'qtin-o'qtin nafas oladi) va yurak ish faoliyatining o'zgarishi (yurak urishdan to'xtab qoladi yoki tez-tez ura boshlaydi) bir vaqtda sodir bo'ladi, organizmning ayrim qismlariga qon kelishi o'zgarib (uyalganidan rangi qizarib, qo'rqqanidan oqarib ketadi), sekretsiya bezlarining ishi buziladi (g'am-g'ussa ko'z yoshi to'kilishiga sababchi bo'lsa, hayajonlanib ketganda og'iz

quriydi, qoʻrqqanida badanda «sovuq» ter chiqadi) va hokazo. Tumaning ichki aʼzolarida yuz beradigan jarayonlarning qayd qilinishi va kishining oʻzi tomonidan kuzatib borilishi nisbatan oson.

Emotsiyalarning fiziologik asoslariga oid barcha tadqiqotlar ularning bir-biriga qarama-qarshi ekanligini aniq ravshan koʻrsatib berdi: mamnuniyat-azob, qoniqish-norozilik, lazzatlanish-azoblanish, yoqimli-yoqimsiz va hokazo. Hissiy holatlarning bunday qarama-qarshiligiga dalil isboti miyaning tuzilmalari ixtisoslashuvi va fiziologik jarayonlar kechishining qonuniyatlari zahirida mujassamlashgandir.

24.3. His-tuygʻularni boshdan kechirish shakllari

His-tuygʻular baʼzan har qanday psixik jarayonning faqat yoqimli, yoqimsiz yoki aralash asorati tarzida boshdan kechiriladi. Bu oʻrinda ular oʻz holicha anglanilavermaydi, aksincha, narsalar va harakatlarning xususiyati tarzida anglaniladi va biz yoqimli kishi, yoqimsiz taʼm, bahaybat hoʻkiz, kulgili ifoda, nafis barglar, quvnoq sayr va hokazolar deb gapiramiz. Koʻpincha bunday hissiy tus oldingi kuchli kechinmalarning oqibati, oʻtmish tajribaning aks-sadosi boʻlib chiqadi. Baʼzan u narsaning kishini qanoatlantirishi yoki qanoatlantirmasligi, uning faoliyati muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz oʻtayotganligi belgisi sifatida xizmat qiladi. Masalan, geometriyadan aynan bitta topshiriq unga hal etishning muvaffaqiyatligiga bogʻliq holda turli xildagi his-tuygʻularni hosil qilishi mumkin.

Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil shaklni kasb etadigan oʻziga xos kechinmalarni: emotsiyalarni, affektlar (hissiy boʻronlar)ni, kayfiyatlarni, kuchli hayajonlanish (stress) holatlarini va xususan his-tuygʻular (tor maʼnodagi soʻz bilan aytganda)ni hosil qiladi.

Emotsiyalar

«Hissiyot» («emotsiya») va «his-tuygʻu» degan soʻzlar koʻpincha sinonimlar sifatida qoʻllaniladi.

Torroq ma'noda olganda, hissiyot bu qandaydir biroz doimiyroq his-tuyg'ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishidan iboratdir. «Emotsiya» so'zini o'zbek tili-ga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy ha-rakatlanish degan ma'noni anglatadi. Hissiyot deb, masalan, kishining musiqiy asarga nisbatan o'rnashib qolgan xususiya-ti sifatidagi muhabbat tuyg'usining o'zini emas, balki konsert paytida yaxshi musiqiy asarni eshitayotib, boshidan kechir-gan lazzatlanish, zavqlanish holatiga aytiladi. Musiqiy asar-ning yomon ijro etilganini eshitganda hosil bo'ladigan xud-di shunday his-tuyg'u nafratlanish kabi salbiy hissiyot sifatida boshdan kechiriladi. Boshqa bir misolni olib ko'raylik. His-tuyg'u sifatidagi qo'rquv yoki vahima, ya'ni muayyan obyekt-larga, ularning birikmalariga yoki hayotdagi mavqeiga nis-batan tarkib topgan o'ziga xos munosabati bir-biridan farq qiladigan hissiy jarayonlarda kechirilishi mumkin: ba'zan ki-shi vahimali narsadan qochadi, ba'zan esa qo'rqqanidan ser-rayganicha qotib qoladi va titray boshlaydi, nihoyat, vahima bosib, noilojlikdan xavf-xatarga qarshi harakat qilishi mum-kin.

Bir xil holatlarda emotsiyalar ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohazalar bildirish-ga turtki beradigan kuch bo'lib chiqadi, kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi va stenik deb ataladi. Quvonganidan kishi «tog'ni talqon qilish»ga ham tayyor bo'ladi. O'rtog'iga ham-dardlik hissini kechirarkan, unga yordam berish usulini izlay-di. Ta'sirchan hissiyotga berilgan kishining gapirmay jim tu-rishi qiyin, u faol harakat qilmay tura olmaydi. Boshqa bir hollarda emotsiyalar (astenik deb atalmish emotsiyalar) sustli-gi yoki loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuyg'ularning bosh-dan kechirilishi kishini bo'shashtirib yubordi. Qo'rqqanidan uning «oyoqlari qaltirab qolishi» mumkin. Ayrim hollarda ki-shi kuchli his-tuyg'uga berilib ketib, xayolga cho'mib, o'zi bi-lan o'zi ovora bo'lib qoladi. Bunday paytda hamdardlik yax-shi, lekin befoyda hissiy kechinma bo'lib qoladi, uyalish sirli vijdon azobiga aylanib qoladi.

Affektlar (hissiy portlashlar)

Kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tib ketadigan jarayonlar affektlar (hissiy portlashlar) deb ataladi. Ular o'zining anchagina darajada o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek, uning butun hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lgani uchun ham qisqa muddatli bo'ladi: ular his-tuyg'ularning bamisoli birdan lov etib yo'nib ketishiga, portlashiga, bir zumda hamma yoqni to's-to'polon qilgan shamolga o'xshaydi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishini ifoda etsa, u holda affekt bo'rondir.

Affektning rivojlanishi birin-ketin almashib turadigan turli bosqichlarga egadir. Haddan tashqari darg'azab bo'lgan, vahima bosgan, o'zini yo'qotib qo'ygan, g'aroyib darajada zavq-shavqqa to'lgan, umidsizlikka berilgan kishi har xil paytlarda olamni har xil aks ettiradi, o'z kechinmalarini turlicha ifodalaydi, o'zini turlicha idora qiladi va o'z harakatlarini turlicha boshqaradi.

Kishi affektiv holatining boshlanishida barcha begona, hatto amaliy jihatdan muhim narsalarni istasa-istamasa ham bir chetga surib qo'ygan holda o'z his-tuyg'usiga sabab bo'lgan va u bilan bog'liq narsalar haqida o'ylamasligi mumkin emas. Ifodali sa'y-harakatlar tobora bemulohazali tus ola boshlaydi. Ko'z yoshi to'kish va o'kirib yig'lash, qah-qaha otib kulish va baqirib-chaqirib gapirish, ajralib turadigan turq-tarovat va yuzdagi imo-ishora, tez-tez yoki qiynalib nafas olish yetilib kelayotgan affektning odatdagi manzarasini hosil qiladi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda sa'y-harakatlar barbod bo'ladi. Induktiv tormozlanish yarim sharlar qobig'ini tobora ko'proq darajada egallay boshlaydi, bu tafakkurning izdan chiqishiga olib keladi; qobiq osti yo'llarida qo'zg'alish kuchaya boshlaydi. Kishi kechirilayotgan his-tuyg'ularga vahimaga, g'azablanishga, umidsizlikka va shu kabilarga berilishga kuchli istak seza boshlaydi. Bunday bosqichda har qanday aqli raso kishi o'zini

tiyishi, o'zini o'zi idora qila olishi mumkin. Bu o'rinda affektning xurujini orqaga surish, uning avj olishiga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Bu o'rinda agar o'zingni bosib qolay desang, o'zingcha aqalli o'ntagacha sanashga harakat qilib ko'r, degan mashhur xalq hikmati ham bor.

Hissiy portlash ro'y bergan taqdirda, uning keyingi bosqichlarida kishi o'zini tuta olmasdan qoladi, qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydi va aql-hushini yo'qotib qo'yadi, so'ngra bu haqda eslasa uyalib yuradigan bo'ladi va nimalar sodir bo'lganini ba'zan xuddi tushida yuz bergani kabi esga oladi. Tormozlanish miyaning qobig'ini egallab oladi va kishining tajribasi, uning madaniy va ma'naviy negizlari mustahkamlangan muvaqqat bog'lanishlarning tarkib topgan tizimini ishlatmay qo'yadi. Affektiv portlashdan keyin holdan toyish, majolsizlik, barcha narsalarga befarqlik bilan munosabatda bo'lish, harakatsizlik, ba'zan esa mudroq bosh boshlanadi.

Kayfiyat

Kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat shodu xurramlik yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonli yoki ma'yuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jiz-zakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo'ladi. Kayfiyati yomon kishi o'rtog'ining haziliga yoki tanbehiga kayfiyati chog' vaqtidagiga qaraganda tamomila boshqacha munosabat bildiradi.

Kayfiyatlar odatda o'z-o'ziga hisob bermasligi va sust namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Kishi hatto ularni payqamaydi ham. Lekin ba'zan kayfiyat, masalan, quvnoqlik va tetiklik, yoxud, aksincha, g'amginlik kayfiyati ancha jadallik kasb etadi. Bunday paytda u kishining aqliy faoliyatida ham (o'y-fikrlarning kechishiga, zehnining o'tkirligiga), sa'y-harakatlari va ishlarining xususiyatlarida ham o'z izini qoldiradi, hatto bajarilayotgan ishning unumdorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Kayfiyat juda xilma-xil, yaqin va ancha uzoq turuvchi manbalarga ega bo'lishi mumkin. Turmushning butun borishidan, jumladan, ishda, oilada, maktabda munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganligidan, kishining hayot kechirish yo'lida paydo bo'layotgan har qanaqa ziddiyatlar qay tarzda bartaraf etilishidan qanoat hosil qilish yoki qanoatlanmaslik kayfiyatlarining asosiy manbalari hisoblanadi. Kishining uzoq vaqt yomon yoki lanj kayfiyat bilan yurishi uning hayotida biron narsaning ko'ngildagidek emasligini ko'rsatadi.

Kayfiyatlar ko'proq kishi salomatligining umumiy holatiga, ayniqsa nerv tizimi va modda almashinuvini to'g'rilab turuvchi ichki sekretiya bezlarining holatiga bog'liqdir.

Stress holatlari

Psixologik ta'rifiga ko'ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlar-ga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli kuchli hayajonlanish (stress) holatidan, (inglizcha - tashqi ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan) yoxud hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, tahlika ostida qolib ketgan va shu kabi vaziyatlarda ro'y beradi. Hissiy bo'ronning jadalligiga hamisha ham erishilavermaydi, kishining kuchli hayajonlanish vaqtidagi holati xatti-harakat va nuqtning bir xil vaziyatlarda betartib tarzdagi faolligi namoyon bo'ladigan, boshqa bir paytda esa qat'iyat bilan harakat qilinishi kerak bo'lgan holatlarda sustkashlikka, faoliyatsizlikka erk beriladigan darajada izdan chiqishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga hissiy zo'riqish unchalik kuchli bo'lmagan paytlarda kuch-g'ayratlarning safarbar etilishiga, faoliyatning kuchaytirilishiga yordam berishi mumkin. Xavf-xatar kishini bamisoli hushyor torttiradi, uni dadil va mardona harakat qilishga majbur etadi. Hissiy zo'riqish holatida individning xatti-harakati kishi nerv tizimining tipiga, nerv jarayonlarining kuchlilikgi yoki oqizligiga jiddiy ravishda bog'liqdir. Intihondan o'tish vaziyati odatda kishini qattiq hayajonga soladigan (ya'ni hissiy zo'riqishga sababchi

bo'ladigan) ta'sirlarga nisbatan bardoshlilikini aniqlaydi. Imtihon topshiruvchilarning ba'zi birlari o'zini yo'qotib qo'yadi, «xotirasining susaygani»ni namoyon qiladi, berilgan savolning mazmuniga diqqatini jamlay olmaydi, boshqalari esa imtihonda odatdagi holatlardagiga qaraganda fikri-xayolini bir yerga to'plagan va faolroq bo'ladilar.

Asosiy holatlar va ularning tashqi ifodasi

His-tuyg'ularning hissiyot (emotsiya)lar, kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga ham ega bo'ladi. Yuzlarning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, turq-tarovat, ohang, ko'z qorachiqllarining kengayishi yoki torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Bu ifodali harakatlar bir xil holatda o'ziga-o'zi hisob bermagan tarzda yuz bersa, boshqa bir holatda ongning nazorati ostida sodir bo'ladi. Keyingi holatda ular og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari sifatida xizmat qila borib, munosabat jarayonida ataylab qo'llanilishi mumkin. Kishi o'zining qahr-g'azabini tevarak-atrofdagilarga qo'llarini musht qilish, ko'zlarini chimirib qarash, do'q-po'pisali ohang bilan namoyish qiladi.

Har bir o'zining psixologik ta'riflari va tashqi ko'rinishlariga ega bo'lgan quyidagicha asosiy hissiy holatlar (K.Izardning fikriga qaraganda, «asosiy hissiyotlar»)ni alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Qiziqish (emotsiya tarzida) – malaka va ko'nikmalarning rivojlanishiga, ta'lim olishga moyillik tug'diradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy holatdir.

Quvonch – hali-beri qondirilishi mumkin bo'lmagan yoki har holda qondirilishi noaniq bo'lgan dolzarb ehtiyojning yetarli darajada to'la qondirilgan bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir.

Hayratlanish – to'satdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisidir. Hayratlanish diqqat-e'tiborni o'ziga

tortgan obyektga qaratilgan holda barcha oldingi hissiyotlarni tormozlantirib qiziqish tusini olishi mumkin.

Iztirob chekish – hozirga qadar qondirilish ehtimoli ozmi-ko'pmi darajada mavjud deb tasavvur qilib kelingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyulgan axborot olinishi bilan bog'liq salbiy hissiy holatdir. U ko'pincha hissiy zo'riqish (stress) shaklida boshdan kechiriladi. Iztirob chekish astenik hissiyotlar (kishini bo'shashtiradigan) tusida bo'ladi.

G'azablanish – odatda affekt tarzida kechadigan va subyekt uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish borasida jiddiy to'siq paydo bo'lgani oqibatida kelib chiqadigan, ifodalinishiga ko'ra salbiy tarzdagi hissiy holatdir. Iztirob chekishdan farqli o'laroq, g'azablanish stenik tusda bo'ladi (ya'ni, garchand qisqa muddatli bo'lsa ham, hayotiy kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi).

Nafratlanish – obyektlar (narsalar, odamlar, holatlar va boshqalar)ga yaqinlashish (jismonan birgalikda harakat qilish, munosabat jarayonida aloqa bog'lash va shu kabilar) subyektning mafkuraviy, ma'naviy yoki estetik prinsiplari va yo'l-yo'riqlariga keskin zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir. Nafratlanish, agar u g'azablanish bilan qo'shilib ketadigan bo'lsa, shaxslararo munosabatlarda hujum g'azablanishni sabab qilib, nafratlanishga esa «biron kishidan yoki biror narsadan qutulish» istagini bahona qilib ko'rsatiladigan tajovuzkor xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin.

Jirkanish – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va subyektning hayotiy nuqtayi nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibliqi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Keyingilari subyektning nazarida yaramas, taomildagi ma'naviy qoidalarga va estetik mezonlarga mos kelmaydigan bo'lib tuyuladi.

Qo'rquv – subyekt o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida, unga real tarzda tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan xavf-xatar haqida-

gi xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Eng muhim ehtiyojlari bevosita siqilishi natijasida ro'y beradigan iztirob chekish hissiyotidan farqli o'laroq, kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda bo'ladi va ushbu (ko'pincha yetarlicha ishonarli bo'lmagan yoki bo'rttirib yuborilgan) prognozga binoan harakat qiladi. Shu o'rinda «Qo'rqqan-ga qo'sha ko'rinadi» degan xalq maqolini eslatish mumkin. Qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi («Qo'rqqanidan oyoqlari qaltirardi»), yoxud hissiy zo'riqishlar tarzida, yoxud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda, yoxud affektiv holatga tushgan tarzda (dahshatli qo'rquv hissiyotning eng so'nggi turidir) kechishi mumkin.

Uyalish – o'zining niyat maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi faqat tevarak-atrofdagilar tomonidan kutilganicha mos kelmaganligini emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor va tashqi qiyofa haqidagi shaxsiy tasavvurlarga ham mos kelmayotganini anglab yetishida ifodalanadigan salbiy holatdir.

Asosiy hissiy holatlarning yuqorida keltirilgan turlari (hissiyotlarning lug'atlarda qayd etiladigan umumiy soni juda ko'p) biron-bir tasniflash sxemasiga bo'ysundirilgan emas. Aytib o'tilgan hissiyotlarning har biri ifodalanish darajasiga ko'ra tobora kuchayib boradigan holatlar tarzida; xotirjamlik bilan qoniqish, shodlanish, zavqlanish, shod-hurramlik, o'zini tuta olmaydigan darajada zavqlanish va hokazo, yoxud tortinchoqlik, iymanish, uyalish, o'zini ayblash va hokazo, yoki norozilik, achinish, iztirob chekish, qayg'urish tarzida bo'lishi mumkin. To'qqizta asosiy hissiy holatdan oltitasi salbiy xususiyatga ega bo'lsa, demak ijobiy hissiy holatlar kishi hissiyotlarning umumiy ro'yxatidagi ulushi kam bo'ladi, deb hisoblash yaramaydi. Aftidan salbiy hissiyotlarning g'oyat darajada rang-barangligi xususiyatlar haqida salbiy hissiy holatlar muvaffaqiyat bilan va juda ham yaxshi xabar yetkazuvchi noqulay vaziyatlarga moslashuvni yanada muvaffaqiyatliroq tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Ularning xususiyatlari ha-

qida salbiy hissiy holatlar muvaffaqiyat bilan va juda yaxshi xabar beradi.

His-tuyg'u kechinmalari har doim ham bir xil tusda bo'lavermaydi. Hissiy holatda, ikkita bir-biriga zid his-tuyg'ularning o'ziga xos birikmasini mujassamlashtirish mumkin; masalan, ishq-muhabbat va nafrat rashk hissining kechirilishi jarayonida birga qo'shilib ketadi (his-tuyg'ularning ambivalentligi hodisasi).

24.4. His-tuyg'ular va shaxs

His-tuyg'ular — kishi shaxsining ancha yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lib, u bilish jarayonlari va xulq-atvor hamda faoliyatni irodaviy boshqarish bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxs o'zi bilib olayotgan va bajarayotgan narsaga uning barqaror munosabati his-tuyg'ularning mazmunini tashkil etadi. Shaxsni ta'riflash degani ko'p jihatdan muayyan konkret kishi umuman nimani sevadi, nimani yomon ko'radi, nimadan nafratlanadi, nima bilan faxrlanadi, nimadan xursand bo'ladi, nega uyaladi, nimaga havas qiladi va hokazolar degan ma'noni anglatadi. Individning barqaror his-tuyg'ulari predmeti, ularning jadalligi, kechinmalarning xususiyati va hissiyotlari affektlar, kuchli hayajonlanish holatlari va kayfiyatlari shaklida tez-tez namoyon bo'lishi kuzatuvchi ko'z o'ngida kishining hissiy dunyosini, uning his-tuyg'ularini va shu asnoda uning individualligini namoyon etadi. Aynan uning uchun ham hissiy jarayonlarni tahlil qilish vaqtida o'tkinchi holatlarni o'rganishdan kishi shaxsini belgilaydigan barqaror his-tuyg'ularga o'tish lozim.

Vaziyat bilan bog'liq xususiyatga ega bo'lgan va individning muayyan paytda obyektga nisbatan munosabatini aks ettiradigan hissiyotlardan, affektlardan, kayfiyatlardan va hissiy zo'riqishlardan farqli o'laroq, ular paydo bo'lishi paytiga kelib tarkib topgan konkret holatlarda his-tuyg'ular (tor ma'noda olganda) kishi shaxsining yo'naltirilganligida mujassamlashgan barqaror ehtiyojlari obyektiga nisbatan uning munosabatini aks ettiradi. Shu sababli his-tuyg'ular barqarorligi bi-

lan, ular subyektning hayoti soatlar va kunlar emas, balki oylar va yillar vositasida o'lganadigan darajada davomiyligi bilan belgilanadi. His-tuyg'ular konkret xarakterga ega bo'ladi, ular subyektning barqaror ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishiga sabab bo'lgan faktlar, voqealar, odamlar va holatlar tufayli ro'y beradi. Barqaror sabablar faqat barqaror his-tuyg'ularga asos bo'lgan taqdirdagina kishida muntazam ravishda faollikni hosil qiladi, faoliyat ko'rsatish uchun undovchi doimiy maylga aylanadi.

Ehtiroslar

Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg'ularning alohida turini tashkil etadi. Odamlarning bajarayotgan ishiga va hayotida yuz berayotgan narsalarga nisbatan ichki munosabati boshdan oxirigacha barqaror tus kasb etadi, doimiy harakat qiluvchi kuchga aylanadi. Bu kuch kishi tomonidan uni hayajonlantirgan narsa qanday idrok etilishi, tasavvur qilinishi va xayolga keltirilishi, uning bir-biri bilan almashib turadigan hissiyotlarni, affektlarni, kayfiyatlarni qanday boshdan kechirishi xususiyatlarini belgilaydi. Bu kuch muayyan harakatlarga da'vat etuvchi va qaror topgan his-tuyg'uga mos kelmaydigan xatti-harakatlarga qarshi qudratli to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, his-tuyg'u kishining tafakkur va faol faoliyat ko'rsatishi jarayoniga jalb etilgan bo'ladi. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo'nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg'u ehtiros deb ataladi.

Ehtiros kishini his-tuyg'ular predmeti haqida astoydil fikrlashga, ularning negizini tashkil qiladigan ehtiyojlarni jonli va yorqin tasavvur etishga, bu ehtiyojlarni qondirish yo'lida uchraydigan haqiqiy yoki faqat uchrashi mumkin bo'lgan to'siq va qiyinchiliklar to'g'risida o'ylashga va har tomonlama mulohaza yuritishga majbur qiladi. Jumladan, milliy ozodlik uchun kurashchida vatanga muhabbat tuyg'usi bir qancha ezgu ziddiyatlar bilan bog'langan bo'lib, uni o'z hayotini xavf ostida qoldirib, pirovardida g'alabaga olib borishi mumkin bo'lgan

yo'lni qat'iyat bilan izlashga majbur etadigan yengilmas kuchga aylanadi.

Hukmron ehtiros bilan bog'liq bo'lmaganlari ikkinchi darajali ahamiyatga egadek bo'lib tuyuladi, orqa o'ringa surib qo'yiladi, kishini hayajonlantirmay va qiziqitirmay qo'yadi, ba'zan umuman unutilib ketadi. Bog'liq bo'lganlari esa kishini o'ziga rom etadi, hayajonlantiradi, diqqatini jalb etadi, esda (bir xil paytlarda ikir-chikirlari bilan qo'shilib) saqlanib qoladi. Qoniqtirilmay qolgan ehtiros odatda kuchli hissiyotlarni va hatto affektiv portlashlarni (g'azablanish, norozilik, umidsizlik, ranjish va hokazolarni) keltirib chiqaradi.

24.5. His-tuyg'ular va ularni shakllantirish yo'llari

Psixologiyada his-tuyg'ular turlarining hamma uchun ma'qul bo'lgan tasnifi yo'q. Quyidagi turlarni alohida ajratib ko'rsatish udum bo'lgan: ma'naviy, intellektual (aqliy) va estetik (nafosat) his-tuyg'ular.

Ma'naviy (axloqiy) his-tuyg'ular o'z mazmuniga ko'ra, kishining kishiga va kengroq ma'noda olganda, jamiyatga munosabatini bildiradi. Shaxs ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini boshqarib turadigan axloq normalari shu his-tuyg'ularning tevarak-atrofdagilardan obyektiv ravishda olib turadigan baholashning asosi hisoblanadi. Ma'naviy his-tuyg'ularga muhabbat (keng va tor ma'nodagi), hamdardlik, xayrixohlik, insonparvarlik, sodiqlik va hokazolar kiradi.

Intellektual his-tuyg'ular shaxsning bilish jarayoniga uning muvaffaqiyatlilik va muvaffaqiyatsizligiga munosabatini ifodalaydi va aks ettiradi. Psixologiyada yaxlit birlikda rivojlanayotgan fikrlash jarayonlari va hissiy jarayonlar o'rtasidagi chuqur bog'lanishlar aniqlandi. Bu jarayonlarning o'zaro birlikdagi harakatida his-tuyg'ularning roli shundan iboratki, ular aqliy faoliyatni o'ziga xos ravishda boshqarib turuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, filogenezda bo'lgani singari ontogenezda ham his-tuyg'ularning rivojlanishi kishida hissiy javob, kechinmalar tug'diradigan, bilish jarayoni va

uning natijalarini baholash bo'lgan bilish faoliyati bilan birgalikda yuz beradi.

Qiziqish (hissiyot tarzidagi), ajablanish, qiziquvchanlik, shubhalanish, kashf etganidan shodlanish, haqiqatga ishtiyoqmandlik va hokazolar intellektual his-tuyg'ular qatoriga kiradi. Jumladan, ajablanish hissi tufayli kishi yangi vaziyatni diqqat bilan tahlil qiladi va baholay boshlaydi, uni chamalay boshlaydi, vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etishga intiladi.

His-tuyg'ularni, ayniqsa ma'naviy his-tuyg'ularni tarbiyalash masalasi pedagog ishida eng muhim jihatlardan biri bo'lib qoladi.

Intellektual his-tuyg'ular shaxsning bilish jarayoniga, uning muvaffaqiyatlilik va muvaffaqiyatsizligiga munosabatini ifodalaydi va aks ettiradi. Psixologiyada yaxlit birlikda rivojlanayotgan fikrlash jarayonlari va hissiy jarayonlar o'rtasidagi chuqur bog'lanishlar aniqlaydi. Bu jarayonlarning o'zaro birlikdagi harakatida his-tuyg'ularning roli shundan iboratki, ular aqliy faoliyatni o'ziga xos ravishda boshqarib turuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Filogenezida bo'lgani singari ontogenezida ham his-tuyg'ularning rivojlanishi kishida hissiy javob, kechinmalar tug'diradigan, bilish jarayoni va uning natijalarini baholash bo'lgan bilish faoliyati bilan birgalikda yuz beradi.

Qiziqish (hissiyot tarzidagi), ajablanish, qiziquvchanlik, shubhalanish, kashf etganidan shodlanish, haqiqatga ishtiyoqmandlik va hokazolar intellektual his-tuyg'ular qatoriga kiradi. Jumladan, ajablanish hissi tufayli kishi yangi vaziyatni diqqat bilan tahlil qiladi va baholay boshlaydi, uni chamalay boshlaydi, vujudga kelgan ziddiyatlarni bartaraf etishga intiladi.

Intellektual kechinmalar asosida kishiga bilish jarayonida katta qiyinchiliklarni yengish, uning azoblari va quvonchlarini boshdan kechirish, chinakam baxtiyor bo'lish, kashfiyot qilish imkonini beradigan haqiqatga nisbatan umumlashgan ishtiyoq tuyg'usi paydo bo'ladi. Haqiqatni qidirish, unga bo'lgan ishtiyoq pirovard natijada olamda yuz berayotgan barcha narsalarga chuqur hissiy munosabat tug'dirgan holda uning e'tiqodlari

bilan qoʻshilib ketadi, inson aql-idrokining chinakam qudratini qaror toptiradi.

Estetik his-tuygʻular subyektning hayotida yuz beradigan turli xildagi narsalarga va ularning sanʼatda aks ettirilishiga nisbatan allaqanday ajoyib yoki bemaʼni, fojiviy yoki kulgili, olijanob yoki jirkanchli, nafosatli yoki xunuk narsa sifatida munosabatini aks ettiradi va ifodalaydi. Bu his-tuygʻular tegishli baholarda, badiiy didlarda gavdalanadi hamda estetik zavqlanish va shod-xurramlik hissi sifatida yoki ular obyekt bilan shaxsning estetik mezonlari bir-biriga mos kelmay qolgan taqdirda jirkanish, nafratlanish va shu kabi hissiyotlarida namoyon boʻladi. Estetik his-tuygʻular kishining madaniy jihatdan rivojlanganligi, uning ongi shakllanishi mahsuli hisoblanadi. Estetik his-tuygʻularning rivojlanganligi va mazmundorligi darajasi (qolaversa, maʼnaviy va intellektual his-tuygʻularda ham shunday) shaxsning sobitqadamligi, uning ijtimoiy yetukligini koʻrsatadigan jiddiy mezon sifatida namoyon boʻladi.

Ayni chogʻda «yuksak his-tuygʻular» tushunchasining shartli ekanligini taʼkidlash lozim. Negaki, unga, jumladan, maʼnaviy his-tuygʻularnigina emas, balki maʼnaviyatsiz his-tuygʻular (iz-zattalablik, xasislik, hasadgoʻylik va boshqalar)ni ham, yaʼni amalda shaxsning yaramas hissiyotlarini ham kiritishga toʻgʻri keladi. Nihoyat, aniq-ravshan tasniflash mezonining yoʻqligi sababli maʼnaviy, intellektual va estetik his-tuygʻularni psixologik tahlil jarayonida qiyinchilik bilan bir-biridan farqlash mumkin, hazil-mutoyiba estetik his-tuygʻu boʻla turib, shu bilan birga intellektual his-tuygʻu sifatida (agar u tevarak-atrofdagi voqelikdagi ziddiyatlarni payqay bilish malakasi bilan bogʻlangan boʻlsa) baholashni va ayni chogʻda maʼnaviy his-tuygʻu deb hisoblanishi ham mumkin. Bularning hammasi kishining hissiy jihatlari birligini taʼkidlaydi. Pedagog oʻz oldiga maʼnaviy, estetik yoki intellektual his-tuygʻularni alohida-alohida shakllantirishni maqsad qilib qoʻya olmaydi. Vazifa ishga faqat kompleks yondashilgan taqdirda — yosh yigit va qizning shaxsini tarbiya jarayonida bir butun holda shakllantirilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal etiladi.

Nazorat savollari:

1. Hissiyot tushunchasining mazmunini izohlang.
2. His-tuyg'ularning vazifalari nimalarda ko'rinadi?
3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
4. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar o'rtasidagi farqni izohlang.
5. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
6. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?
7. His-tuyg'ular va ularni shakllantirish yo'llari.
8. His-tuyg'ular va shaxs munosabatlari.
9. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllarini sanab bering.

XXV bob. IRODA

Tayanch tushunchalar: iroda, lokus nazorat, irodaning fiziologik asosi, iroda akti, irodaning nerv-fiziologik asoslari, iroda va tavakkal, irodaviy zo'r berish.

25.1. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha

Insonlar tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalarni bilib oladilar hamda o'zlarining shaxsiy ehtiyojlarini va ular mansub bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonida uni qayta o'zgartirishga qaratilgan faoliyatda ularga nisbatan his-tuyg'uni boshdan kechiradilar.

Oldindan mo'ljallab qilingan irodaviy harakatlar.

Kishining faoliyati — xususiy vazifalar hal etilayotgan boshqa bir amaldan kelib chiqadigan yakka va birgalikda bog'langan tizimdir. Harakatlar istalgan kishi bajarayotganiga o'xshash maqsad kabi tafakkur etiladigan yoki ifodalanadigan natijani olishga qaratilgan bo'ladi. Jumladan, yosh olma daraxti o'tqazilayotganda muayyan chuqurlik kovlab, o'g'it solib, chuqurning o'rtasiga qoziq qoqilib, u yerga o'tkazilayotgan daraxtningildizlarini to'g'rilab va uni boylab qo'yayotgan odam o'z maqsadini amalga oshirayotib, ma'lum reja bo'yicha harakat qiladi. Bu reja ish jarayonida bir qator tafakkur va tasavvurlar tarzida kengayadi hamda kuchi, tezligi, ko'lami, muvofiqligi, aniqligi bo'yicha belgilangan harakatlar yordamida amalga oshiriladi, hayotga tatbiq etiladi. Alohida harakatlarni tashkil etadigan harakatlarni bajarish va nimani, qanday va qay tarzda bajarish kerakligini ko'rsatadigan fikriy operatsiyalar amalga oshirayotgan paytda predmetga ham, qurollarga ham, mehnat jarayonining o'ziga ham diqqat jamlanadi, kuchaytiriladi. Shu bilan birga harakat jarayonida u yoki bu his-tuyg'ular boshdan kechiriladi: to'sqinlik va qiyinchilikdan qoniqmaslik va tashvish tortish hamda sezilayotgan kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etishdan qanoat hosil qilish, mehnat ko'tarinkiligi va charchaganligi, shuningdek, mehnatning o'zidan quvonch tuyg'usi.

«Maydon»da bo'lgan qo'zg'atuvchi bilan bevosita belgilanadigan ixtiyorsiz harakatdan farqli o'laroq, oldindan mo'ljal-

langan harakat buning uchun kerakli vositalar (belgilar, normativ baholar va boshqalar) yordamida, ya'ni bilvosita amalga oshiriladi. O'quvchi chizmani o'qiydi, instruksiyalarni bajara oladi, ishlab chiqarish ta'limi ustasining ko'rsatmalarini eslaydi va hokazo, shunday qilib faoliyat amalga oshirilgunga qadar uning ko'z ongida tuzilishini ta'minlaydi va shundan keyingina ishga kirishiladi.

Oldindan mo'ljallangan harakat o'z-o'zini boshqarish orqali amalga oshiriladi. Uning strukturasi kishi erishishni istagan maqsadni; unga erishish uchun amalga oshirilmoqchi bo'lgan harakatlar va jarayonlar dasturini; harakatlar muvaffaqiyatliligining mezonlarini aniqlash va harakatlarning olingan real natijalarini u bilan solishtirib chiqish; pirovardida amalni tugallagan hisoblab, qaror qabul qilish kerak yoki uning bajarilishiga zarur tuzatishlar kiritib, uni davom ettirish lozim. Shunday qilib, oldindan mo'ljallangan harakat o'z-o'zini boshqarish, uni o'rinlashtirish va ijro etish ustidan ixtiyoriy nazorat qilishni nazarda tutadi. Ontogenez jarayonida kattalar tomonidan boshqarish va nazorat funksiyasi oldiniga bola bilan birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida amalga oshiriladi, so'ngra esa namunalar interiorizatsiyasi va harakatlarni bajarish sxemasi yuz berayotganligi sababli bolaning o'zi ana shu sxema va namunalarga binoan harakatlarni nazorat qilishni o'rganib oladi.

Irodaviy harakatlar oldindan mo'ljallangan harakatlarning alohida turini tashkil etadi. Irodaviy harakatlar oldindan mo'ljallangan harakatning barcha eng muhim belgilarini saqlab qolgan holda, qiyinchiliklarni bartaraf etishni zarur shart sifatida o'z ichiga oladi. U yoki bu ataylab qilingan harakat qiyinchilikni yengishda qatnashdimi yoki yo'qmi ekanligiga qarab, irodaviy harakatlar bo'lishi ham, bo'lmastligi ham mumkin.

Irodaviy harakatlar murakkabligi bo'yicha farqlanishi mumkin. Masalan, o'quvchi jismoniy tarbiya darsida birinchi marta tayanib sakrashga urinayotib, yiqilishi va lat yeyishi mumkinligi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir xavfsirashlarni yengib o'tadi. Bunday irodaviy harakatlar oddiy deb ataladi.

Murakkab irodaviy harakatlar bir qancha oddiy harakatlarni o'z ichiga oladi. Murakkab ishlab chiqarish faoliyatini bajarish to'g'risida qaror qabul qilarkan, yosh yigit qator ichki va tashqi to'siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf etadi hamda o'z niyatini amalga oshiradi. O'z navbatida, murakkab harakatlar kishining ongli ravishda qo'yilgan yaqin va uzoq maqsadlarga erishishga qaratilgan, uyushgan irodaviy faoliyati tizimiga kiradi. Unda kishining u yoki bu irodaviy fazilatlarini namoyon bo'ladi, irodasi ko'rinadi.

Iroda – bu kishining oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir. Iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir.

Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ldi.

Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning – undovchi va tormozlash (to'xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi.

Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. Harakat oldingi vaziyat (chaqiriqqa nisbatan kishi aylanib qaraydi, o'yinda tashlangan to'pni qaytaradi, qo'pol so'zdan xafa bo'ladi va hokazo) bilan bog'liq bo'lgan paytdagi reaktivlikdan farqli o'laroq faollik harakatning ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki holatiga nisbatan subyektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chiqaradi (zarur axborotni olishga ehtiyoj sezayotgan kishi o'rtog'ini chaqiradi, jahli chiqqan holatda yonveridagilarga qo'pollik qilishga yo'l qo'yadi va hokazo).

Oldindan mo'ljallanmaganligi bilan farq qiladigan tabiiy xulq-atvordan farqli o'laroq, faollik ixtiyoriyligi bilan, ya'ni ongli ravishdagi maqsadga muvofiq harakatning shartlilik bilan farq qiladi. Faollik bir daqiqalik vaziyat talabi bilan, unga moslashuv, berilgan chegaralarda harakat qilish istagi bilan yu-

zaga keltirish mumkin va mumkin emas, u vaziyatdan ustunligi bilan, ya'ni asos qilib olingan ma'lumotlarning, kishining vaziyat talablari darajasiga ko'tarila olish, asosiy vazifaga nisbatan ziyod maqsadlarni qo'ya bilish qobiliyati (qaltis ish uchun tavakkal qilish, ijodiy jo'shqinlik va boshqadar) bilan yuzaga keltirish mumkin va mumkin emas.

Irodaviy jarayonlarning yana bir xususiyatini, uning undovchi funksiyasi ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladigan turini ham ko'rsatish mumkin. Agar kishida uning obyektiv zarurligini anglagan holda harakatni amalga oshirishga faol («bu o'rinda va endilikda») ehtiyoji mavjud bo'lmasa, iroda harakatlarning mohiyatini o'zgartirib yuboruvchi, uni yanada ahamiyatliroq qilib qo'yadigan va bu bilan harakatlarning haqqoniy asoratlari bilan bog'liq kechinmalarni vujudga keltirgan holda qo'shimcha mayllarni vujudga keltiradi.

Irodaning undovchi va tormoz qiluvchi funksiyalari yaxlit birligidagina shaxsning maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi.

25.2. Iroda borasidagi nazariyalar

Irodaning tadqiqoti uzoq tarixga ega bo'lib, u inson ongining mohiyatini kashf qilishdan boshlanib, muayyan bilimlar to'planishi tufayli shaxsning irodasi tabiatini tushunishga ilmiy yondashuv vujudga kelgan davrgacha bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq-atvorini o'zgartirishini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

Gumanitar yo'nalish, ya'ni inson muammolariga e'tiborning ortishi bilan o'z-o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII–XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbayini bemahsul sohaning paydo bo'lishi, deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodani ilmiy nuqtayi nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi. V.Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida appersepsiya aktining subyektivi tomonidan ichki faollik uniki ekanligini his etish yotadi. Uning bu konsepsiyasi emotsional yoki affektiv nom bilan psixologiya faniga kirib keldi. U.Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo'lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g'oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo'lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g'oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta'minlashdan iboratdir.

Yetarli darajada qat'iy fikr qaror topganligi, iroda — bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo'ya olish kabi shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) iroda — bu shaxsning o'z faoliyatini va olamdagi o'zini-o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda — inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

d) iroda — bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

e) iroda — bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatining motivi, turtkisi hisoblanadi.

V.I.Selivanov irodaning psixologik jabhalarini yoritayotib, u shunday g'oyani ilgari suradi, insonning ongini jarayonlar, holatlar, xislatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish mumkin. Shaxsning u yoki bu ongli hara-

kati o'zining tuzilishiga ko'ra bir davrning o'zida ham aqliy, ham hissiy, ham irodaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchi V.I.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Shuningdek, harakat ma'nosining o'zgarishi hisobiga tarmoqlovchi yoki qo'shimcha turini yaratuvchi imkoniyat yangi real motivlarni harakat bilan birlashtiruvchi, yoinki vaziyatning tasavvur motivi tariqasida talqin qiladi. Irodaviy boshqaruv esa harakatni «ixtiyoriy boshqaruv ko'rinishlarining bittasi sifatida» tushuniladi, bunda boshqaruv motivatsiyaning ixtiyoriy o'zgarishi orqali amalga oshirilishi sifatida qaraladi.

Keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, psixologiya fanida irodani tushunish, ta'riflash bo'yicha bir xil munosabat yaratilmaganday, irodaviy sifatlarning ma'naviy asosini tahlil qilish yuzasidan ham umumiylik, mustaqillik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlilikni kiritadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim sifatlari sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlarni sarasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, urinchoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Iroda borasidagi tadqiqotlarda «ishonch» atamasi kamdan kam hollarda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan ishonch, iroda sifati tariqasida tadqiq etilishga haqlidir. Buning uchun A.I.Shcherbakov tomonidan quyidagicha tadqiqot ishi amalga oshirilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga qisqa vaqt (fursat) ichida institutni tugatish taklif qilingan, lekin sinaluvchi bu ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng tadqiqotchi talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bo'lgan. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid

nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarni tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, qat'iyatlilik sifatlari bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubhasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlilikka moyillik nuqtayi nazardan yondashinilganda esa irodaning erkinligi ta'biri, irodaviy sohaning paydo bo'lishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Yuqorida bildirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, to hozirgacha psixologiya fanida asosiy, muhim irodaviy sifatlarni tasniflashning umumbirlik tamoyili mavjud emasligi tufayli aksariyat hollarda bir irodaviy xislat qo'shaloq atama bilan belgilanishi davom etib kelmoqda (masalan, mustaqillik va tashabbuskorlik, jur'at va dadillik, tirishqoqlik va qat'iyatlilik, vazminlik va o'zini uddalash kabilar).

25.3. Irodaning nerv-fiziologik asoslari

Irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv-fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuzaga keladigan optimal qo'zg'alish manbalari bilan ham bog'liq bo'ladi. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: «Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal (har holda o'rtacha bo'lsa kerak) qo'zg'alishga ega bo'lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat».

Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Ma'lumki, odam ayrim nojo'ya harakatlardan o'zini so'zlari orqali (ya'ni o'ziga-o'zi pand-nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy

harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo'lsa kerak akademik I.P.Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir», — degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o'z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma'lum bir tizimli, ma'noli bo'lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslaniishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so'ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo'shshib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo'shshib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta'minlash maqsadida odam vaqti-vaqti bilan dam olib turishi kerak.

Determinizm va iroda erkinligi

Falsafa va psixologiyada idealizm kishi irodasini alohida, hech narsa bilan belgilanmaydigan va hech narsaga bog'liq bo'lmagan (ya'ni indeterministik), kishiga u yoki bu harakatni tanlash va amalga oshirish imkonini beradigan kuch deb qaraydi. Bunda butun psixik faoliyat hech narsa bilan belgilanmaydigan, ongsiz ravishda bo'ladigan eng dastlabki faollikka bo'ysungan bo'ladi. Amerika psixologi U.Jems harakatda hech narsaga bog'liq bo'lmagan irodaviy hukmga yetakchi rol beradi. Obrazli tarzda bu quyidagicha tasavvur qilinardi: kishi o'z-o'ziga (lotincha «Ha bo'laqolsin!» degan ma'noga ega bo'lgan so'zni bildiradi) deydi va go'yo ana shu birinchi galgi mistik turtki bilan belgilanmagan holda ish amalga oshiriladi.

Amalda kishining ishlari va harakatlari obyektiv ravishda belgilangandir. Irodaviy harakatni o'z ichiga oladigan motivlar hozir va o'tmishda o'rin olgan tashqi ta'sirlar natijasi tariqasida, kishining psixik rivojlanishi jarayonida uning hayot va faoliyat hodisalari bilan faol munosabati natijasida tarkib topadi va yuzaga chiqadi. Irodaviy harakatlarning determinizmlashganligi fakti (sababiy bog'langanligi) u yoki bu faoliyat usuli kishiga zo'rma-zo'raki berilganini, u o'z qilmishlari uchun javobgar emasligini va ularning peshanasiga yozilganligini dalil qilib ko'rsatish huquqiga ega ekanligini bildirmaydi. «Determinizm ideyasi inson xatti-harakatlarning zarurligini ta'kidlab o'tib, iroda erkinligi to'g'risidagi bema'ni ertakni rad qilar ekan, insonning aqlini ham, vijdonini ham, uning harakatlarning qadr-qimmatini ham zarracha yo'q qilmaydi. Tamoman aksincha, faqat determinizm nuqtayi nazaridan qaragandagina erkin iroda ustiga hamma narsani ag'daravermasdan, jiddiy va to'g'ri baho berish mumkin».

Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo'lgan o'quvchi «ikki» olganda buni topshiriq yoxud unga qiziqarli emasligi bilan, yoxud faromushxotirligi bilan, yoxud diqqatini bo'lib qo'yanliklari bilan va shu kabilar bilan tushuntiradi. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo'lgan odamlar maqsadga erishishda ancha mas'uliyatli, izchil o'z-o'zini tahlil qilishga moyil, kirishimli va mustaqil bo'lishi aniqlangan. Ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga ega bo'lgan irodaviy harakatning internal yoki eksternal lokallashtirilishi shaxsning tarbiya jarayonida shakllanadigan barqaror fazilatidir.

25.4. Iroda va tavakkal

Kishining tavakkalchilik sharoitidagi xatti-harakati iroda-ning xarakterli ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tavakkalchilik – bu subyekt uchun uning cheki noma'lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin bo'ladigan noqulay oqibatlar (jazolash, og'riq ta'sirini o'tkazish, jarohat, obro'ni yo'qotish va shu kabi) haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning xarakteristikasidir. Tavakkalchilik

paytida kutilayotgan noxushlik bunday holatdagi muvaffaqiyatsizlik ehtimoli va noqulay oqibatlar darajasining uyg'unlashtirilishi bilan belgilanadi. Shunday savol tug'iladi: agar mag'lubiyat ehtimoli ko'p bo'lsa, mag'lubiyat uchun esa jazo ancha kuchli bo'lsa, kishi nimani deb tavakkal qiladi? Psixologiya tavakkal qilish uchun zarur shart sifatida irodaning qo'shilishini nazarda tutuvchi tavakkal qilish xatti-harakatning ikkita o'zaro bog'langan sababini ajratib ko'rsatadi.

Tavakkalchilikning birinchi sababi va tegishli ravishda tavakkalchilikning birinchi turi bu yutuqqa umid bog'lash, muvaffaqiyat qozonilganda kutilayotgan kattalikning muvaffaqiyatsizliklar oqibati darajasidan ortishidir (situativ tavakkalchilik). Bu o'rinda muvaffaqiyat motivatsiyasi muvaffaqiyatsizlikdan qutulib qolish motivatsiyasidan kuchliroqdir. Agar kundalik xulq-atvor ishlar uchun qarama-qarshi bog'lantirish e'tiborga olinadigan bo'lsa — muvaffaqiyatsizlikdan qutulish motivatsiyasi muvaffaqiyat motivatsiyasidan kattaroq kuchga ega bo'ladi, bunda shu narsa ravshan bo'ladiki, tavakkalchilik — qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Lekin bunday xulq-atvor, garchi kishidan irodaviy qarorni talab qiladigan bo'lsada, unchalik noyob narsa emas. Otryadga boshchilik qilgan va kichik kuchlar bilan chap beradigan manyovrlar ishlatgan komandir o'zining oxirgi rezervini yo'qotish va bunda o'zi ham o'lib ketishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik qiladi, lekin strategik jihatdan ahamiyatli balandlikni egallab, to'satdan dushmanning orqa tomoniga chiqib olishning muhimligi mazkur qarorni oqlaydi. Ofitserning tavakkalchilik vaziyatidagi irodaviy qaror qabul qilishiga imkon bergan mardligi, tashabbuskorligi va qat'iyligi jangda yutuqni ham, dushman ustidan g'alabani ham ta'minlaydi.

Oqlangan va oqlanmagan tavakkalchilik farq qilinadi. Oqlangan tavakkalchilik yakunning har qanday noaniqligi va muvaffaqiyatsizlik keltirishi mumkinligiga qaramay oqlanmagan tavakkalchilikdan farq qilib, irodaviy qarorga kelayotgan paytda barcha «yoqlovchi» va «qarshilarni», tavakkalchi-

lik xatti-harakatini belgilovchi motivlarning g'oyaviy va axloqiy yuksakligi, oqilona ravishda o'ylab ko'rishni va shunday qilib, harakatning xavfsiz variantiga nisbatan xavfli variantini afzal ko'rishni nazarda tutadi. Bunda harakatning yakuni tasodifga (omad keladi yo kelmaydi) bog'liq bo'ladigan yoki, aksincha, muvaffaqiyat tavakkal qilayotgan kishining shaxsiy sifat-lari (uning qobiliyatlari, qat'iyligi, malakalari va hokazolar) bilan belgilanadigan vaziyatlar bo'lishi mumkin.

25.5. Irodaviy akt strukturasi

Irodaning asosini, xuddi umuman subyektning faolligi ka-bi, uning xatti-harakatlari va ishlarining ko'p tarmoqli hamda xilma-xil motivlashtirilishiga sabab bo'luvchi ehtiyojlari tashkil etadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalar-ning o'zaro mustahkam bog'langan motivatsiyasi bir-biriga to'la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushu-niladi. Bu, birinchidan, individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo'luvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Bu holda motiv-lashtirish faollik holati umuman nima uchun paydo bo'lishi-ni, subyektni faoliyat ko'rsatishga qanday ehtiyojlar undayot-ganini izohlab beradi.

Ikkinchidan, motivlashtirish faollik nimaga qaratilganligi-ni, nima uchun qandaydir boshqa xulq-atvor emas, balki xud-di shunaqasi tanlanganligini izohlab beradi. Bu yerda motiv-lar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo'nalishini tashkil etadi.

Nihoyat, uchinchidan, motivlashtirish kishi axloq va faoli-yatni o'zi boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bu vositalar-ga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar va boshqalar kiradi. Jum-ladan, emotsiyada u yoki bu axloq aktining shaxsiy mohiyati baholanadi hamda uning pirovard maqsadi faoliyatga mos kel-may qolgan taqdirda emotsiyalar uning umumiy yo'nalishini o'zgartirib yuboradi, axloqni qayta quradi, dastlabki harakatni kuchaytiruvchi qo'shimcha istaklar uyg'otadi va hokazo.

Irodaviy aktda (irodaviy harakatda) uni motivlashtirishning barcha uchta tomoni — faollik manbayi, uning yoʻnalganligi va oʻz-oʻzini boshqarish vositalari namoyish qilingandir.

Irodaviy aktning boʻgʻinlari

Shunday qilib, ehtiyojlar bir xil harakatlar bajarilishini belgilaydigan va boshqalarining bajarilishiga xalaqit beradigan har xil motiv (sabab)larga aylanadi. Irodaviy harakatlarining sabablari hamisha ozmi-koʻpmi darajada anglanilgan xarakterda boʻladi.

U yoki bu ehtiyojning qanchalik anglanilganiga bogʻliq holda intilish va istakni ham farq qilsa boʻladi.

Intilish — hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir. Masalan, kishi kimgadir intilishni boshdan kechirayotib, oʻz intilishining obyektini koʻrganda, u bilan gaplashganda mamnun boʻladi va shu sababli beixtiyor bu uchrashuvga intiladi. Lekin baʼzida huzur-halovatga sabab boʻlgan narsani u anglamaydi. Intilish sal-pal, noaniqdir.

Istak — faoliyatning motivi sifatida ehtiyojning yetarli darajada tushunib yetilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda faqat ehtiyoj obyektini emas, balki uni qondirishning mumkin boʻlgan yoʻllari ham tushunib yetiladi. Masalan, novator ishchi mehnat unumdorligini ancha oshirish istagini bildirib va bu haqiqiy ijtimoiy ehtiyoj sifatida tashvish tortib, oʻz stanogini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida oʻylaydi, oʻz ish grafisini yana qayta koʻrib chiqadi, har bir harakatini hisobga oladi va hokazo.

Irodaviy zoʻr berish

Irodaviy aktning eng muhim boʻgʻinlari — qaror qabul qilish va uni ijro etish — koʻpincha alohida hissiy holatning irodaviy zoʻr berish sifatida tavsiflanadigan holatning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Irodaviy zoʻr berish bu hissiy hayajon shakli boʻlib, kishining harakatga qoʻshimcha motivlarni vujudga keltiruvchi, gohida yoʻq boʻlishi yoki yetarli boʻlmovchi

ichki resurslarini (xotirasi, tafakkuri, xayoli va boshqalarni) safarbar etuvchi, va ancha zo'rayish holati kabi boshdan kechiriladigan sabablardir.

Irodaviy zo'r berish natijasida bir xil motivlarning harakatini to'xtatib qo'yib, boshqalarining harakatini haddan ziyod kuchaytirish mumkin bo'ladi. Burch hissi bilan tug'ilgan irodaviy kuch-g'ayrat tashqi to'siqlarni bartaraf etishga (og'ir vazifani hal etishda, dala ishlarida yoki ishlab chiqarishda charchoqni bosishda va hokazolarda) va ularni psixikada ichki qiyinchiliklar qabilida aks ettirishga (qiziqarli kitobdan chalg'ib ketishni istamaslik, rejimni saqlash to'g'risida g'amxo'rlik va boshqalar) harakat qilishga safarbar etadi. Irodaviy kuch-g'ayrat ishlatish natijasida dangasalik, qo'rquv, charchash kabilar ustidan qozonilgan g'alaba anchagina hissiy zavq beradi, o'z ustingdan erishilgan g'alaba kabi boshdan kechiriladi.

Tashqi to'siq yengib o'tish lozim bo'lgan ichki qiyinchilik, ichki qarshilik kabi boshdan kechiriladigan bo'lsa u irodaviy zo'r berishni talab qiladi.

25.6. Irodaning individual xususiyatlari

Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'z-o'zini boshqarish sifatida eng avvalo o'ziga, o'z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir. Bu hukmronlik har xil odamlarda har xil darajada ifodalanishi hammaga ma'lumdur. Oddiy ong o'zining namoyon bo'lishi tezligiga qarab farqlanadigan, bir qutbda irodaning kuchi, boshqa birida esa kuchsizligini ifodalaydigan irodaning individual xususiyatlarining spektrini qayd qiladi. Kuchli irodaga ega bo'lgan kishi qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni chog'da qat'iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarni namoyon qiladi. Irodasi sust kishilar qiyinchiliklar oldida o'jizlik qiladilar, qat'iyatlik, sabr-matonat ko'rsatmaydilar, xulq-atvor va faoliyatning ancha yuksak, ma'naviy jihatdan oqlangan motivlari uchun

o'zlarini tuta bilmaydilar, bir daqiqalik ishni yo'qota olmaydilar.

Irodasi sustlikning namoyon bo'lish doirasi xuddi kuchli irodaning xarakterli sifatlari kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashqarida bo'ladi. Abuliya va apraksiya, masalan, shunga kiradi.

Abuliya – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo'qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda shunday qilolmaslikdir.

Vrachning aytganini bajarish zarurligini aniq fahmlagan abuliyaga muhtalo bo'lgan bemor buning uchun biron narsani qilishga o'zini majbur qila olmaydi. Tabiiy xulq-atvor uning uchun eng xarakterlidir.

Apraksiya – miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Agar nerv to'qimalarining buzilishi miyaning peshana qismlarida to'xtab qolsa, xatti-harakatlarni erkin to'g'rilashni buzilishida namoyon bo'ladigan apraksiya boshlanadi. Bu harakatlar berilgan dastur va binobarin, irodaviy aktning bajarilishini qiyinlashtirib qo'yadi.

Abuliya va apraksiya – psixikasi og'ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kamyob hodisalardir. Pedagog kundalik ishda duch keladigan irodaning sustligi, odatda, miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya bilan belgilanadi, shu sababli bolalar va o'smirlar shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish natijasida to'la bartaraf etilishi mumkin. Yalqovlik – kishining qininchiliklarni yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g'ayrat ko'rsatishni qat'iy ravishda istamasligi iroda sustligining eng tipik ko'rinishidir.

Irodaning ijobiy fazilatlari, uning kuchining namoyish qilinishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan ko'rsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarning ro'yxati juda katta; qahramonlik, sabotlilik, qat'iylik, mustaqillik, o'zini tuta bilish va ko'pgina boshqalar.

Irodani tarbiyalash va o'zini-o'zi tarbiyalash

O'quvchilar, o'spirinlar va yoshlar bilan ish olib boruvchi pedagog ularga irodaviy fazilatlar uning, kuchli iroda mavjudligining, irodasizlik xavfining ahamiyatini isbotlab o'tirishga hojat qolmaydi. Ular uchun bu aksincha bo'lib qolgan. Lekin badiiy adabiyotda va ayniqsa kinofilmlarda jarayonning o'zidan ko'ra ko'proq irodaning shakllantirish natijasi ko'proq aks ettirilgan. Pedagogning vazifasi — faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarini rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Agar pedagogik adabiyotda ta'rif-tasvirlangan irodani o'zlari tarbiyalash bilan shug'ullanayotgan yoshlar qo'llayotgan sodda va yasama usullarga e'tibor beradigan bo'lsak, yana ham muhimdir. O'quvchilardan biri «sabr-toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko'rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo'lini pichoq bilan kesdi yoki karniz bo'ylab sayohat qildi va hokazo. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy xatti-harakat»ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risidagi fikrni tasdiqlab oladi. Aslida esa irodani mustaqil tarbiyalashdek asosiy muammoni kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etish tashkil etadi. Buning ustiga mehnat, o'qish, sport faoliyatining har bir daqiqasi irodani chiniqtirish uchun o'quv, mehnat va boshqa faoliyatni amalga oshirishga xalaqit beradigan bir daqiqalik istaklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratadi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari juda ham har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Iroda tushunchasining mazmunini izohlang.
2. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. Iroda nazariyalarining mohiyatiga ta'rif bering.
4. Irodaviy akt va uning tuzilishi mazmunini ko'rsating.
5. Shaxsning irodaviy sifatlariga nimalar kiradi?
6. Irodaning individual xususiyatlarining mazmunini izohlang.
7. Irodaning nerv-fiziologik asoslari.
8. Irodani tarbiyalash va o'zini-o'zi tarbiyalash.
9. Irodaviy zo'r berish.
10. Irodaviy aktning bo'g'inlari.

XXVI bob. SHAXS YO'NALGANLIGI VA FAOLIYAT MOTIVI

Tayanch tushunchalar: motiv, motivatsiya, motivlar kurashi, ehtiyoj, motivatsiya nazariyalari.

26.1. Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni

Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv — bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir.

Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L. Rubinshteyn: «Motivatsiya — bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir».

A.N.Leontev — motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv — ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya — insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivatsiya — murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya — odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli-tuman nuqtayi nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik

maktablar vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatdan farqlanuvchi g'oyalari va yo'nalishlari mujassamlashdi. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Motiv keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma'noda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator psixologlar motivni energetik, ma'naviy va ma'naviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbasi sifatida talqin qilib, uning ma'naviy va ma'naviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar. Jumladan, Z.Freyd (1856–1939) motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv – bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir¹.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlari ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: «turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir-oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi». V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishi talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo'yicha motivlar tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatan ham muhim jihatlari ko'rsatib o'tgan bo'lsa ham, motivlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko'rsatish muammosini tadqiq etmagan.

¹ E.G.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Darslik. T., 2010-yil.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiya-ning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Iyerarxik, darajaviy tuzilish — bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining iyerarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlari bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivatsion sohasining tizimliliigi haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha, «Motivatsion sohaning tizimliliigi — motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri iyerarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni «ro'yobga chiqarish» munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat «o'zaro tobelik» munosabati nomini oldi.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Ollportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformatsiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi.

G.Ollport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalardan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Ollport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Ollportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni G.Ollport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi.

Xorij psixologlaridan neofreydistlar hisoblanmish A.Adler, K.Yung kabilardan tomonidan ilgari surilgan motiv va motivatsiya borasidagi nazariyalarga asosiy e'tiborni qaratamiz. A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari manbasi hisoblanadi. Xorning ta'kidlashicha, inson xulqi motivatsiyasini boshqa motivlar yordamida aniqlash mumkin. Jumladan, birlamchi bezovtalanish atrof-muhitga nisbatan dushmanlik hissini tug'diradi, xavfsizlikka ehtiyoj esa insonni boshqa odamlar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan ichki intilishini vujudga keltiradi. E.Fromm ham o'z qarashlarida libido masalasiga katta e'tibor bermaydi, chunki uni qiziqtirgan muammo inson xulqi jabhalarida ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'sir o'tkazish jarayonidir.

Geshtaltpsixologiya maktabi namoyandalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin

(1890–1947) motivlarni eksperimental oʻrganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtaltpsixologiya maktabining namoyandalariга obraz tushunchasi qanchalik oʻta ahamiyatli boʻlsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv oʻzaro aloqasiz hukm surishi taʼkidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli maʼnaviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv – muayyan muvaffaqiyatli mikrointervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil maʼno anglatuvchi ikkita motivatsion oʻzgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtaltpsixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Ollport konsepsiyasida yaqqol koʻzga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini oʻzgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus olimi R.Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi.

Umuman har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga boʻlish mumkin.

1. Biologik ehtiyojlar – fiziologik, jinsiy moslashuv ehtiyojlari.

2. Ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish bilan estetik va axloqiy, maʼnaviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga boʻlgani bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan boʻladi, yaʼni ular oʻsha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bogʻliq boʻladi.

26.2. Xorij psixologiyasida o'qish motivlarining nazariy tahlili

O'qish, o'quv faoliyati motivlari haqidagi chet el olimlari-ning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagilarga e'tiborni qaratish joizdir. Jumladan, nemis olimi Z. Freyd va U. Makdaugall motivatsion omil sifatida hayvonlardagi organik ehtiyojlarni, ya'ni instinktini odamlarga nisbatan qo'llay boshlashdi va inson fe'l-atvoriga bo'lgan qarashlar ichida birinchi nazariya sifatida maydonga chiqdi.

Bulardan tashqari XX asr boshlarida yana ikki yangi yo'nalish paydo bo'ladi, bu motivatsiyaning xulq nazariyasi va oliy asab faoliyati nazariyasidir.

Inson xulqi affektiv kognitiv determinatsiyasi muammosini tahlil qila turib, kognitiv psixologiyaning boshqa vakili X. Xek-xauzen shunday xulosaga keladi-ki, faoliyat determinatsiyasi kognitiv (bilish) va affektiv jihatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekan, ulardan qaysi biri rag'batlantiruvchi kuch ekanligi haqidagi savol o'z ma'nosini yo'qotmadi.

A.N. Leontevning fikricha, biz «faqat tushuniladigan» va real harakatdagi motivlarga duch kelamiz. Bola ko'pincha qancha o'qish zarurligini yaxshi tushunadi (anglaniladigan motivlar), lekin bu narsa ham unga o'quv faoliyati bilan shug'ullanish uchun turtki bo'la olmaydi. Bu bilim mayl shaklini olsagina, biz real harakatda motiv bilan ish ko'rgan bo'lamiz. Faqat tushuniladigan motivlarga ma'lum sharoitda harakatdagi motivlar shaklini oladi. Bu narsa motivatsiyani qayta qurish uchun jiddiy ahamiyatga egadir. Maktabning vazifasi ham bola motivatsiyasini qayta qurishdan iboratdir.

Ta'kidlash kerakki, A.N. Leontev nazariy tafakkurga ega bo'lish, asos sifatidagi bilish motivlarining rivojlanish masalasiga katta e'tiborni qaratgan. U psixik jarayonlarning shunday dinamikasini ochishga harakat qildiki, bunday dinamika motivatsiya rivojlanishi asosida o'quvchilarni bilimlarni egallashga olib keladi.

26.3. Motivlar va ularning guruhlarga ajratilishi

P.K.Anoxinning g'oyasiga ko'ra jonli dunyo yaralgan davrdan e'tiboran voqelikni ilgarilab, oldindan aks ettirish uning xususiyatiga aylangan. Mazkur aks ettirishning mavjudligi inson uchun shaxsiy faoliyati, kelajagi, istiqbolli natijasining fikriy obrazlarini yaratish imkonini vujudga keltirdi. Tadqiqotchi xatti-harakatining original model sxemasini yaratadi. Shaxsdagi boshqaruv harakatlari teskari aloqa prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu tasavvurga binoan hissiy organlar aloqa kanali vazifasini o'tasa, jism va harakatning idrok qilinayotgan alomatlarini axborot (informatsiya) manbai sifatida xizmat qilishi mo'ljallangan. Harakatning natijasi to'g'risidagi axborotlar (informatsiyalar) harakat akseptorida idrok qilinadi. Harakatning kamchiliklari, tuzatishlar (korreksiyalar) afferent sintezi negizida kechadi, buning natijasida uni idrok etish muayyan darajada yaxshilanadi. P.K.Anoxinning mulohazasicha, harakat akti bosqichlari quyidagilardan:

- 1) afferent sintezi, dominant motivatsiya, qidiruv afferentatsiya, xotira;
- 2) harakatning shakllanishi va axborotlarni oldindan aytish apparati;
- 3) harakat natijalari umumlashmasi;
- 4) teskari afferentatsiyaning amalga oshishi;
- 5) maqsad bilan olingan natijalar o'rtasida ajrimlik namoyon bo'lishidan iboratdir.

Motiv va motivatsiyaning biologik mexanizmlari yuzasidan izlanishlar olib borgan N.A.Bernshteyn «Kelajak modeli» nazariyasini yaratadi. Ushbu konsepsiyaga qaraganda, «Kelajak modeli» mana bunday bosqichlardan tashkil topganligi ta'kidlab o'tiladi:

- 1) holat va vaziyatni (situatsiyani) baholash;
- 2) vaziyat (situatsiya) qanday bo'lishini aniqlash;
- 3) buning uchun nima qilmoq kerak;

4) qanday tarzda harakat qilmoq lozim. N.A.Bernshteyn «Kelajak ekstrapolyatsiyasi» degan muammo yechimini topishga ham harakat qiladi. Bu bilan muallif motivatsiyaning biologik mexanizmlarini yuksak darajada tushuntirib berishga muvaffaq bo'lgan.

Xorij psixologlarining motivatsiya tadqiqot yo'nalishlari tag negizida Ch.Darvinning evolutsiya nazariyasi yotadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, motivatsiyani o'rganish zamirida genetik, biologik shartlangan manbalar turadi.

Tadqiqotchilar — I.A.Vasilev va M.Sh.Magomed-Eminovlarning uqtirishicha, Ch.Darvinning evolutsiya nazariyasi motivatsiya muammosini uch yo'nalishda tadqiq etishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi yondashuv takomillashgan mavjudot sifatida talqin etadi. Xuddi shu bois insonning aqliy rivojlanishi uchun hayvonot olamida muayyan shart-sharoit yaratilgandir. Bu omil mavjudotlarning filogenetik taraqqiyot davrida sodda tarzda gi intellekt ko'rinishi mavjud ekanligidan dalolat beradi. Ana shu mulohazalarga asoslangan holda hayvonlarning xulq-atvori tadqiq qilina boshlandi.

I.P.Pavlov bilan E.Torndayk (AQSH) mazkur yondashuvni keng ko'lamda amalga oshirishga munosib hissa qo'shgan olimlar bo'lib hisoblanadi. Lekin ushbu yondashuv doirasidagi asosiy ilmiy yo'nalishlar K.Xall, O.Maurer, K.Spens, E.Tolmen asarlarida mujassamlashgan «O'rganish psixologiyasi»ga asoslangandir. E.Tolmenning «kutilma nazariyasi»ga oid qarashlar K.Xallning «drayv-malaka» prinsipiga tubdan qarama-qarshidir. Biroq Tolmen ishlarini K.Levin ta'limotida o'z aksini topgan motivatsiyaning tadqiqot yo'nalishiga kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yondashuv. Ushbu yondashuvga qaraganda, inson bilan hayvon o'rtasida umumiy biologik negiz mavjud bo'lgan bo'lsa, instinktiv tendensiya nafaqat hayvonlargagina, balki u insonga ham taalluqlidir. Ushbu psixologik holat ikki yo'nalishda amalga oshirila boshlandi. Birinchi yo'nalish V.Makdugalning instinkt nazariyasidan iborat bo'lib, inson xulq-at-

vorini o'rganishda «instinkt» tushunchasiga asosiy e'tibor qaratadi (ma'lumki, instinkt U.Djeyms tomonidan fanga olib kiritilgan). Shunga qaramay, u instinktning juda tor ma'noda olib qaradi, natijada emotsional (hissiy) namoyon bo'lishini chetda qoldirdi, hukm surib turish mexanizmini esa avtomatik tipdagi xulq-atvor bilan almashtirdi. Keyinchalik muallif instinktning kengroq talqin qila boshladi va uning tuzilishiga bilishga oid, emotsional, xulqiy, qo'zg'ovchi tarkiblarini kiritdi. U o'zining keyingi izlanishlarida instinktning «mayl», «moyillik» sifatida tushunishga harakat qildi va faollikni maqsadga yo'naltirilgan shakli qabilida izohlashga kirishdi. Makdaugalning instinkt haqidagi g'oyalari etologlarning (K.Lorens, N.Tinbergen) motivatsiya «psixogidravlik» modellarda o'z ifodasini topdi.

26.4. Psixologiyada motivlar va ularni guruhlarga ajratish

Psixologiya fanida motiv va motivatsiya kategoriyalari shaxs tuzilishining negizi bo'lib hisoblanadi. Sobiq Ittifoq psixologiyasida ularni faoliyatga bog'lab (A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, V.D.Shadrikov, K.A.Abulxanova-Slavskaya), shaxs muammosi bilan uyg'unlashtirib (L.I.Antsiferova, V.G.Aseyev, L.I.Bojovich, A.G.Kovalyov, Ye.S.Kuzmin, S.L.Rubinshteyn) va ustanovka bilan aloqadorligi (D.I.Uznadze, Sh.N.Chxartishvili) bo'yicha tadqiq qilingan. Xuddi shu munosabatlarga binoan ularga berilgan ta'riflar ham rang-barangdir. Biz ta'riflarni tahlil qilish ushbu qo'llanma predmetiga kirmaganligi tufayli ularga to'xtashni ortiqchadir, deb hisoblaymiz.

Mazkur muammoni atroflicha o'rganib, motivga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb topdik: «xatti-harakatga va faoliyatga undovchi shaxsning anglashilgan xususiyati hisoblanuvchi, ehtiyojni aks ettirishning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki motiv deb ataladi». Bu o'rinda undovchi turtki ehtiyojni qondirishga intilish sifatida talqin etiladi. Bizningcha, muomala, xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. «Motivatsiya doirasi» tushunchasi shaxsning muhim bo'lagi, uning

negizi sifatida muayyan tartibdagi motivlar tizimini ifodalovchi element tariqasida tahlil qilinadi. «Motivatsiya doirasi» tushunchasi motivatsiyani tizimlik iyerarxik tushunishni aks ettiruvchi shaxs motivlari ekanligining ma'naviy tuzilishini tavsiflashda qo'llaniladi, xolos.

Motivlar ehtiyoj negizida vujudga keladi, rivojlanadi va takomillashadi. Biroq, ehtiyoj paydo bo'lishi bilan bir davrda uni shakllanish bosqichlariga o'xshash darajalarni bosib o'tish orqali motiv vujudga keladi. Motiv mazkur negizda vujudga kelib, barqarorlashib, ehtiyojning mustahkamlanishiga yordam beradi va o'z navbatida ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Odatda, inson faoliyati va harakatiga ta'sir o'tkazuvchi jarayonda o'zaro bog'liq holda ehtiyoj tomonidan motiv va maqsad aniqlanadi (belgilanadi). Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi sababli faoliyat maqsadi va motivi bilan boshqariladi. Lekin psixologiyada «Motiv-faoliyat», «Maqsad-harakat», «Sharoit-operatsiya» munosabatlari o'rtasida qat'iy aloqa (uyg'unlik) hukm surmaydi.

Nazorat savollari:

1. Motiv tushunchasining mohiyati.
2. Motivatsiya tushunchasining mazmuni.
3. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari.
4. Motiv muammosiga doir mulohazalar.
5. Shaxs shakllanishida motivatsiyaning roli.

VI BO'LIM (MODUL). INDIVIDUAL FARQLAR PSIXOLOGIYASI

XXVII bob. QOBILIYAT

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, iqtidor, iste'dod, intellekt, ko'nikma, malaka, bilim, qobiliyatning biologik asoslari.

27.1. Qobiliyatlar haqida tushuncha

Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlari-dirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin shu xususiyatlarning o'zlari mazkur bilim, ko'nikma va malakalarga taalluqli bo'lmaydi. Aks holda imtihonda qo'yilgan baho, doska oldidagi javob, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilgan nazorat ishlar kishi qobiliyatlari to'g'risida qat'iy xulosa chiqarish imkonini bergan bo'lar edi. Shu bilan birga psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajriba ma'lumotlari guvohlik berishicha, ba'zan dastlab ishlarni bajara olmagan va bu bilan tevarak-atrofdagilardan o'ng'aysiz ajralib turgan kishi ta'lim olish natijasida favqulodda ko'nikma va malakalarni tez o'zlashtirib oladi va tezda mahorat yo'li-da hammani quvib o'tadi. Unda boshqalarga qaraganda zo'r qobiliyatlar namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda namoyon bo'lsa ham, bilimlar va ko'nikmalarni egallash bilan bog'lanib qolmaydi. Qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va malakalar, qobiliyatlar va ko'nikmalar aynan bir-biriga o'xshash emas.

Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatlari qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa tashlangan don ana shu dondan unib chiqishi mumkin bo'lgan boshoqqa nisbatan atigi imkoniyat bo'lib hisoblangani singari (lekin urug' tuproqning tuzilishi, tarkibi va namligi, ob-havo va boshqalar qulay sharoit yaratsagina unib chiqadi) kishining qobiliyati bu bilimlar va ko'nikmalarni egallash uchun imkoniyat hisoblanadi, xolos. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo'qmi, bularning hamma-

si ko'plab sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Shart-sharoitlar jumlasiga, masalan, quyidagilar kiradi: tevarak-atrofdagi odamlar (oilada, maktabda, mehnat jamoasida) kishining bu bilim va malakalarni egallab olishdan manfaatdor bo'ladimi yo yo'qmi unga qanday ta'lim beradilar, ana shu malaka va ko'nikmalar kerak bo'ladigan hamda mustahkamlanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etiladi va hokazo.

Qobiliyatlar — bu imkoniyat, u yoki bu ishda mahoratning zarur darajasi esa voqelikdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo'lishi uchun biron-bir darajada garov bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uchun unga maxsus ta'lim berilishi, pedagog va bola namoyish qilgan qat'iylik, salomatlikning yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'plab shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turiboq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatlar yig'indisi odamning pedagogik jihatidan asoslanib berilgan vaqt ichida egalangan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agarda boshqa kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarda uning oldiga faoliyat ro'baro' qilayotgan talablarining uddasidan chiqa olmasa, unda tegishli psixologik sifatlar, boshqacha so'zlar bilan aytganda, qobiliyatlar yo'q deb taxmin qilishga asos bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday odam zarur ko'nikma va bilimlarni umuman egallay olmaydi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bu ko'nikma va bilimlarni egallash cho'zilib ketadi, pedagoglardan ancha zo'r berish va vaqt sarflashni talab qiladi, natijasi nisbatan oz bo'lsa ham favqulodda ko'p kuch-g'ayrat sarflashni va shu kabilarni talab qilishini bildiradi. Bu hol biroz vaqt o'tgach, shuningdek, qobiliyatlarining rivojlanishi mumkinligini ham inkor etmaydi.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar bo'lish bilan birga ularni shaxsning bizga ma'lum boshqa xususiyatlari va xislatlariga – aql-idrok fazilatlariga, xotira, xarakterning o'ziga xos xususiyatlariga, emotsional xususiyatlarga va shu kabilar-ga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, lekin ular bilan bir qator-ga qo'yilishi mumkin. Agar u fazilatlardan birontasi yoki ular-ni yig'indisi faoliyat talablariga javob bermasa yoki ana shu talablar ta'siri ostida shakllansa, unday paytda bu shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblash uchun ham asos bo'ladi.

27.2. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida, ya'ni bir odamning boshqa bir odamdan farq qiladigan belgi-lari sifatida ta'riflanadi. Tajriba va aql-idrok kishilarning teng emasligini ko'rsatadi deganlarida, kishilardagi qobiliyatlar-ni teng bo'lishini yoki jismoniy va ruhiy xislatlarining bir xil bo'lishini tenglik deb tushunadilar.

O'z-o'zidan ma'lumki, bu jihatdan kishilar teng emas. Ana shuning uchun ham qobiliyatlar haqida gap ketganda, bu farqlarni xarakterlab o'tmoq kerak. Ular sifatli va miq-doriy bo'lishlari mumkin. Pedagog uchun o'quvchining qo-biliyatlari nimaga nisbatan namoyon bo'lishini va, binobarin, o'quvchi shaxsining qanday individual-psixologik xususiyat-lari faoliyat jarayoniga muvaffaqiyatning majburiy sharti sifa-tida kiritilishini (qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi) hamda o'quvchi faoliyat tomonidan qo'yilgan talablarni qay darajada bajarish qobiliyatiga egaligini, boshqalarga nisbatan malaka, ko'nikma va bilimlarni qanchalik tez, oson va mustahkam egallay olishini (qobiliyatlarning miqdoriy xarakteristikasi) bilish ham muhimdir.

Qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qarali-shi maqsadga turli yo'llar bilan borishga imkon beradigan «o'zgaruvchan miqdor» to'plami kabi faoliyat muvaffaqiyati-

ni ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining murakkab kompleksi sifatida namoyon bo'ladi. Buni tashkilotchilik qobiliyatlari namoyon bo'lishining konkret misolida ko'rsatamiz.

Kishining qobiliyatlarida mavjud kompensatorlik imkoniyatlari, masalan, ko'rish va eshitishdan mahrum bo'lgan odamlarni maxsus tarbiyalashda yorqin namoyon bo'ladi.

Bir qator boshqa misollar ham xuddi ana shuning o'zidan dalolat beradi. V.M.Teplovning ko'rsatishicha, absolut eshitishdek muhim musiqa tinglash qobiliyati yo'qligi professional musiqa qobiliyatini rivojlantirish yo'lida g'ov bo'la olmaydi. Absolut eshitishga ega bo'lmagan tekshiruvchilarda ohanglarni farq qilish, musiqa tovushi oraliqlarini esda saqlab qolish va shu kabilarini o'z tarkibiga olgan sifatlar kompleksini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lingan, ya'ni boshqa odamlarda tovushlarning past-balandligini farq qilishni bajaradigan absolut eshitish vazifasini o'z zimmasiga olgan.

Bir qobiliyatni boshqa bir qobiliyatni rivojlantirish yordami bilan kompensatsiya qilish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va unda takomillashtirish chegaralarini kengaytirgan holda bitmas-tuganmas imkoniyatlar ochib beradi.

Qobiliyatlarning miqdor xarakteristikasi

Psixologiyada qobiliyatlarni miqdor jihatdan o'lchash muammosi katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirmen va boshqalar) ommaviy ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni taklif qilib chiqdilar. Bu bilan shaxsning martabalik darajasida tutgan o'rnini va uning u yoki bu mehnat faoliyatida, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishida, ishlab chiqarishda, armiyada va ijtimoiy hayotda rahbarlik lavozimlarini olishga layoqatlarini aniqlash ta'min qilingan edi.

Biroq qobiliyatlarni miqdor jihatdan baholash muammosi o'sha davr jamiyati sharoitlarida paydo bo'lish davridan e'tiboran ikki xil xarakter kasb etdi. Bir tomondan, u mehnat-

kash kishining real imkoniyatlarini va uning amalda konkret mehnat faoliyatiga layoqatliligini obyektiv ravishda aniqlashga va'da berdiki, buningsiz amalda ish (kasb tanlashga yo'llash) uchun layoqatli kishini topish va bu ishga layoqatli kishilarni tanlash qiyin bo'lar edi. Mehnat faoliyatida inson omili (ya'ni real inson va uning qobiliyatlari) e'tiborga olinmaydigan oldingi davrga nisbatan qobiliyatlar psixologiyasida miqdoriy tadqiqotlar g'oyasining ilg'orligi ana shundadir. Boshqa bir tomondan, o'sha davr sharoitlarida paydo bo'lgan bu g'oya rus olimlari tomonidan maxsus usullar yordamida qobiliyatlarining birmuncha yuqori darajasini «aniqlagan» hukmron sinf namoyandalarining imtiyozli ahvolini psixologik jihatdan asoslash uchun foydalanildi. Bu davr sharoitlarida sotsial zulm va kamsitish quroliga aylangan qobiliyatlarni miqdor jihatidan o'lchash prinsipining konkret tatbiq qilinishining reaksionligi mana shunda ifodalanadi.

27.3. Qobiliyatlar strukturasi

Kishi egallab oladigan faoliyat (mehnat, o'qish, sport va shu kabi faoliyatlar) uning psixologik fazilatlariga (aqliy xususiyatlariga, emotsional-irodaviy sohalariga, sensomotorikasiga) yuksak talablar qo'yadi. Bu talablarni qandaydir bitta sifat, hatto u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan bo'lsa ham, qondira olmaydi. Alohida olingan bitta psixik xususiyat faoliyatning yuksak mahsuldorligini ta'minlay oladi, butun qobiliyatlarning ekvivalenti sifatida namoyon bo'ladi, degan fikr ilmiy haqiqatga to'g'ri kelmaydigan fikrdir. Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik fazilatlar yig'indisidan iboratdir.

Qobiliyat va faoliyat

Qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan fazilat yig'indisining tuzilishi oqibat natijada konkret faoliyat talablari bilan belgilanadi va faoliyatning har xil turlari uchun turlicha bo'ladi. Masalan, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, matematikaga bo'lgan qobiliyatlarning tuzilishi bir qator xususiy qobiliyatlarni o'z

ichiga oladi: matematik materiallarni umumlashtirish qobiliyati, matematik mulohaza yuritish jarayonini va tegishli matematik harakatlarni qisqartirish qobiliyati (izchil ko'p tabaqali mulohazalar qisqacha aloqalar bilan almashtiriladi, masalani idrok qilish va uning natijalari o'rtasidagi bevosita aloqa o'rnatishga qadar ish olib boriladi), fikr yuritish jarayonining qaytarilish qobiliyati (ya'ni to'g'ri fikr yuritishdan teskari fikr yuritishga osonlik bilan o'ta olish qobiliyati), matematik masalalarni hal qilish chog'ida fikrlash jarayonining ephilligi va shu kabilar. Adabiy qobiliyatlarning tuzilishi estetik tuyg'ularning yuksak taraqqiy etgan darajasini xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlar mavjudligini, til hissini, boy fantaziyani, odamlar psixologiyasiga nisbatan zo'r qiziqishni, o'z-o'zini ifodalash ehtiyojini va shu kabilarni taqozo qiladi. Musiqiy, pedagogik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va juda ko'p qobiliyatlar tuzilishi o'ziga xos xarakterga egadir. Hatto bir xil komponentlarni boshqalari bilan kompensatsiya qilish va almashtirish borasida keng imkoniyatlar mavjudligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ta'lim jarayonida qobiliyatlarni hisobga olishga da'vat etilgan va agarda ular yo'q bo'lib qolganda yoki yetarli darajada ifodalanmagan taqdirda zaruriy sifatlarni tarkib toptiradigan pedagog uchun professional yoki maxsus qobiliyatlarning o'ziga xos tuzilishini bilish juda ham muhimdir.

Konkret qobiliyatlar strukturasi tashkil etadigan shaxs xislatlari va xususiyatlari orasida ba'zi birlari yetakchi o'rinni egallasa, ba'zi birlari yordamchilik rolini o'ynaydilar. Jumladan, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagoglik odobi, kuzatuvchanlik, bolalarga muhabbat, ularga nisbatan yuksak talabchanlik bilan qo'shib olib boriladigan bilim berishga ehtiyoj, yordamchilik tarzida shular jumlasiga kiradigan bir qator tashkilotchilik qobiliyatlari kompleksi va boshqalar yetakchi fazilatlar hisoblanadi. Yordamchi fazilatlarga quyidagilar kiradi: artistlik, notiqlik ma'lumotlari va boshqalar. Mutlaqo ravshanki, pedagogik qobiliyatlarning ham yetakchi, ham yordamchi komponentlari ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni hosil qiladi va shu bilan birga pedagog

shaxsi va uning xususiyatlari bilan bog'langan individuallashtirishni tashkil qiladi.

Umumiy va maxsus qobiliyatlar

Har turli qobiliyatlarning konkret psixologik xarakteristikasini o'rganar ekanmiz, biz bu qobiliyatlarda birgina emas, balki juda ko'p turdagi faoliyat talablariga javob beradigan umumiyroq fazilatlarni va bundan tashqari ushbu faoliyatning bir-muncha torroq doiralari talablariga javob beradigan maxsus fazilatlarni ajratishimiz mumkin. Ayrim individlar qobiliyatlarining tuzilishida bu umumiy fazilatlar g'oyat yorqin ifodalangan bo'lishi mumkin, bu esa har tomonlama qobiliyatlar borligi to'g'risida, turli xil faoliyatlar, kasblar va mashg'ulotlarning keng sohalariga doir umumiy qobiliyatlar borligi to'g'risida gapirish imkonini beradi. Ayrim psixologlar tomonidan faqat aqliy iste'dod testlarini qo'llash natijasida ochiladigan xayoliy omil sifatidagi qandaydir, ya'ni umuman iste'dod, ular ajratganlari kabi bu umumiy qobiliyatlar va fazilatlar maxsus qobiliyatlar yoki sifatlarga zid qilib qo'yilmasligi kerak. Qobiliyatlar va shaxsning umumiy qobiliyatlari yoki umumiy odamlarning fazilatlari ularning to'laqonli konkret psixotipologiyasi logik ko'rinishlari bo'lib, ularni tadqiq qilishga psixologlar allaqachon kirishgan. Konkret faoliyat sharoitlarida qobiliyat sifatida namoyon bo'ladigan shaxsning bunday umumiy fazilatlari jumlasiga odamlarning uch tipidan bittasiga mansubligini ko'rsatadigan individual-psixologik fazilatlar kiradi. I.P.Pavlov asarlarida ular «badiiy», «fikrlovchi» va «o'rta» tiplar deb qayd qilingan edi. Mazkur tipologiya kishining oliy nerv faoliyati unda ikkita signal tizimi borligi bilan belgilanishiga muvofiq ta'limot bilan bog'langandir: birinchi signallar tizimi obrazli, emotsional va ikkinchisi ana shu obrazlar haqida so'zlar orqali signal berish bilan bog'liq, ya'ni signallarning signali bilan bog'liq.

Kishi psixik faoliyatida birinchi signallar tizimi signallarining nisbatan ustunligi uning badiiy tipga, signallar signali-ni nisbatan ustunligi fikrlovchi tipga, signallar vakolatining tengligi odamlarning o'rta tipga mansubligini belgilaydi.

Badiiy tip uchun bevosita ta'sirot, jonli tasavvur, emotsiyalar natijasida hosil bo'ladigan obrazlar yorqinligi xosdir. Fikrlovchi tip uchun mavhumlik, mantiqiy tuzilmalar, nazariy mulohazalar ustunligi xosdir. Kishining badiiy tipga mansubligi hech mahal uning azaldan san'atkorlik faoliyatiga mansubligidan dalolat bera olmaydi. Bu o'rinda boshqa bir narsa ravshan: bu tip vakili uchun ta'sirlanuvchanlik, hodisalarga emotsional munosabatda bo'lish, fantaziyada obrazlilik, tetiklik talab qiladigan faoliyatni boshqalarga nisbatan osonroq o'zlashtirish xosdir.

Umuman kishida ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimidan ustunlik qiladi va bu ustunlik absolut xarakterga egadir. Chunki odamlarning mehnat faoliyatida til va tafakkurning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega va kishining olamni aks ettirish jarayoni uning so'zlar bilan ifodalangan fikrlari vositasida amalga oshiriladi.

Binobarin, birinchi signallar tizimi absolut ustunligiga xuddi hech qanday tafakkur yordamida tartibga solib bo'lmaydigan va boshqarib ham bo'lmaydigan tushlarimizda ularning jo'shqin emotsionalligi va batartib ifodaliligi bilan uchrashamiz.

27.4. Iste'dodning ijtimoiy-tarixiy tabiati

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi iste'dod deb ataladi. Iste'dod bu kishiga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar majmuasidir.

Qobiliyatlar kabi iste'dod ham faqat ijodiyotda yuksak mahoratga va anchagina muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatidan iboratdir. Oqibat natijada ijodiy yutuqlar odamlarning ijtimoiy-tarixiy hayot sharoitlariga bog'liqdir. Agar jamiyat iste'dodli odamlarga muhoj bo'lsa, agar bunday kishilarning rivojlanishi uchun sharoit yaratilgan bo'lsa, u holda bunday odamlarning paydo bo'lish imkoniyati tug'iladi.

Mana shuning uchun fan, san'at va ijtimoiy hayotda anchagina qadriyatlarni yaratishning potensial imkoniyati bilan

bu imkoniyatlarni jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati mahsuloti sifatida amalga oshirish o'rtasida tenglik aloqatini qo'yish mumkin emas. Kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga asoslangan ijtimoiy formatsiyalar tarixi shundan dalolat beradiki, ko'p sonli iste'dodlar tarkib topishi uchun zarur bo'lgan sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlarning yo'qligi sababli rivojlanmay qolib ketdi. Kapitalistik jamiyat (xuddi o'zidan oldingi feodal va quldorlik jamiyatlari kabi) ezilgan sinflarning ko'pchilik namoyandalarida iste'dodning rivojlanish yo'lini berkitib qo'yadi.

Iste'dodlarning uyg'onishi ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqdir. Ma'lum qobiliyatlarining to'la-to'kis rivojlanishi uchun qulay sharoitlarning mavjud bo'lishi davlat oldida turgan konkret vazifalarning xususiyatlariga va davr ehtiyojlariga bog'liq. Urush yillarida sarkardalik iste'dodlari jo'shqin rivojlanadi, tinchlik davrida injenerlik, konstruktorlik va shu kabi iste'dodlar rivojlanadi.

Bu imkoniyat xalq ta'limi tizimi bilan, fan va madaniyat taraqqiyotining yuksak darajasi bilan, xalqning butun ijtimoiy hayoti tartibi bilan ta'minlanadi. Kishilarning fan va texnika taraqqiyoti sohasidagi g'oyat katta yutuqlari, madaniyat sohasidagi zo'r muvaffaqiyatlari va sport sohasidagi g'alabalari – bularning hammasi bizda iste'dodlar juda ko'pligidan dalolat beradi.

Iste'dodning strukturasi

Iste'dod – bu qobiliyatlar yig'indisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan, yakka qobiliyatni, garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan bo'lsa ham, iste'dod bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bu haqda, jumladan, xotirasi g'oyat o'tkir kishilarni tadqiq qilish dalolat beradi. Haqiqatda, qulchilik ayni xotirasida, uning mustahkamligi va ko'p narsa sig'dirishida iste'dodning aynan o'ziga teng narsani ko'rishga tayyordir.

Umuman, aqliy iste'dod strukturasi hosil qiluvchi bu qobiliyatlar, iste'dodli bolalar ustida olib borilgan ko'plab

psixologik kuzatishlarning guvohlik berishicha, bunday bolalarning ko'pchiligida namoyon bo'ladi va alohida olingan har bir qobiliyatning ifodalanganlik darajasi jihatidan ajralib turadi. Agar iste'dodning o'ziga xos farqlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular asosan qiziqishlarning yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Bir bola qandaydir izlanishlar davridan keyin matematikaga, boshqasi biologiyaga qiziqib qoladi, uchinchisi badiiy-adabiy ijod bilan, to'rtinchisi tarix va arxeologiya bilan qiziqadi va hokazo. Bu bolalardan har biridagi qobiliyatlarning bundan keyingi taraqqiyoti mazkur qobiliyatlarsiz amalga oshirib bo'lmaydigan konkret faoliyatlarda sodir bo'ladi.

Shuning uchun ham maxsus iste'dod strukturasi shaxsning yuqorida keltirilgan fazilatlarining uyg'un birligini o'z tarkibiga oladi va konkret faoliyat talablariga javob beradigan bir qator qobiliyatlar bilan to'ldiriladi. Jumladan, matematik iste'dod maxsus qobiliyatlarning mavjudligi bilan izohlaniishi aniqlandi. Bu maxsus qobiliyatlar orasida matematik materialni berilgan mazkur masalani shartlari va uning formal strukturasi ifodalanishini tez tushunib olish xarakterida, ya'ni maxsus shaklda idrok qilish (bunda topshiriqning konkret mazmuni go'yoki tushib qoladi va o'ziga xos barcha konkret mohiyatlardan tozalangan quruq matematik nisbatan «skelet»i qoladi); matematik obyektlar, munosabatlar va harakatlarni umumlashtirish, har turli xususiy detallardan umumiy prinsiplarni topa bilish, masalaning mohiyatini belgilash qobiliyati; muntazam mulohazalar va harakatlarni qisqartirish qobiliyati, bunda masala yechishdagi turli xil mulohazalar tuzilishining hammasi matematik harakatlar izchilligiga qisqacha havola qilish bilan almashtiriladi (V.A.Krutetskiy tadqiqoti).

27.5. Qobiliyatlar va iste'dodning tabiiy shart-sharoitlari

Inson qobiliyatlarining mohiyatini to'g'ri tushunish ularning miyaga munosabati – barcha psixik jarayonlar, holatlar, fazilatlar va xususiyatlarning umumiy bo'lgan jihati haqidagi masalani aniqlashni taqozo qiladi. Shaxsning barcha

individual psixologik xususiyatlari kabi qobiliyatlar unga qandaydir tabiat tomonidan tug'ma ravishda, tayyor holda berilmaydi, balki hayot va faoliyat jarayonida tarkib topadi. Kishi dunyoga hech qanday psixik xususiyatlarsiz, faqat ularni o'rtirishga qaratilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi, xolos. Kishi miyasi faqat voqelik bilan o'zaro munosabat va aktiv faoliyat natijasida o'zining ilgari individual psixologik fazilatlarini va xususiyatlarini (shu jumladan, qobiliyatlarini ham) namoyon qilgan holda tevarak-atrofimizdagi olamni aks ettirib boshlaydi. Ilmiy psixologiyada qabul qilingan qobiliyatlar tug'ma bo'lmaydi, degan qoidani ham ana shu ma'noda tushunmoq kerak.

Ana shu nuqtayi nazarni himoya qilish inson shaxsi va uning idealizm ko'rinishlariga qarshi qobiliyatlarini ilmiy tushunish uchun kurashning muhim sharti hisoblanadi. O'z zamonasida Aflotun tasdiqlagan ediki, qobiliyatlar odamga tug'ma ravishda berilgan bo'ladi va odam foydalanadigan barcha bilimlar uning «absolut bilimlar» ideal olamida bo'lishi haqidagi taassurotlaridan iboratdir. Qobiliyatlarning tug'maligi to'g'risidagi ta'limot ilohiy dog'malarga ham kirib boradi. XVII asrda fransuz faylasufi Jarti asarlarida bunday yondoshish «tug'ma g'oyalar» to'g'risidagi ma'lumotlar sifatida g'aydalantirildi. Qobiliyatlarga cherkov obro'si bilan yoritilgan ana shu fikrlar yordamida qarash orqali odamlarning ijtimoiy-huquqiy, siyosiy tengsizligi qaror topgan hamda past tabaqalar namoyandalarini o'qitishning mumkin emasligi haqidagi fatalistik qarashlar o'rnashib qolgan. Bu o'ziga xos barcha tayyor fazilatlar va xususiyatlarga kishi go'yo tug'ilishidanoq ega bo'ladiganligi haqidagi, tanasiz va abadiy jon to'g'risidagi idealistik nuqtayi nazarlar bilan mahkam bog'langan qobiliyatlarning tug'maligiga nisbatan reaksiyon va ilmiy asoslanmagan qarash ilmiy psixologiya tomonidan qat'iy rad etiladi.

27.6. Inson qobiliyatining biologik asoslari

Qobiliyatlarning tug'maligini inkor qilish absolut xarakterga ega emas. Psixologiya qobiliyatning tug'ma ekanli-

gini tan olmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishiga bog'liq bo'lgan differensial xususiyatlari tug'maligini inkor qilmaydi. Bu xususiyatlar qandaydir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishning shart-sharoiti (ko'pincha bir guruhda, bir qancha kasblar, ixtisoslar, mehnat faolligi ko'rinishlari va boshqalarda) bo'lishi mumkin. Bu qobiliyat rivojlanishining dastlabki tabiiy shart-sharoitlari sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi organlari va harakatlarining morfologik va funksional xususiyatlari bo'lib, ular iste'dod nishonalari deb ataladi.

Qobiliyatlar va iste'dod nishonalar o'rtasidagi nisbatni konkret misolda ko'rib chiqaylik. Jumladan, tug'ma nishonalar jumlasiga haddan tashqari nozik hid bilish – analizatorining odatdan tashqari yuksak sezgirliigi mansubdir. U biron-bir qobiliyat hisoblanadimi? Yo'q, axir har qanday qobiliyat – u nimagadir, qandaydir konkret insoniyat faoliyatga yoki bir qator faoliyatlarga qaratilgan bo'ladi. Aks holda «qobiliyat» so'zining o'zi ma'nosiz bo'lib qoladi. Uning uchun ham kishi nerv-psixik tuzilishining bunday xususiyati nom-siz jumboqqa yaqin bo'lib qoladi. Kishilik jamiyatida nozik hid bilish sezgilari tarixan qanday kasblar va ixtisoslar bilan bog'liq bo'lishi miyaning tuzilishi bilan nazarga olinmagan. Kishi o'zi uchun faoliyatning qaysi sohasini tanlab olishi va ana shu faoliyat sharoitida o'z iste'dod nishonalarini rivojlantirish uchun imkoniyatga ega bo'lishi ham hisobga olinmagan. Biroq, agar jamiyatda xuddi shunday alohida nozik hid bilish sezgilari bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ehtiyoj paydo bo'lganida va agar ushbu konkret kishi tegishli tabiiy iste'dod nishonalariga ega bo'lsa, u holda u o'zida boshqalarga nisbatan tegishli qobiliyatlarni rivojlantirishi osonroq bo'lar edi. Masalan, «xushbo'y hidlar kompozitori» deb atalishi mumkin bo'lgan attorlardek nodir va qimmatbaho kasb ham bor. Mamlakatda ular ko'p emas, hammasi bo'lib o'ttiztaga yaqin. Ularning asosiy vazifasi bir qancha seriyali yangi atirlar tayyorlab, original hidlar yaratishdan iboratdir. O'z-o'zidan ravshanki, attorlarning professional qobiliyati ular-

dagi iste'dod nishonalarining rivojlanish natijasini namoyish qiladi. Bu hid bilish analizatorining tuzilishi hamda funksional xususiyatlaridan iboratdir. Ammo bu kasb namoyandalaridan biri haqida gapirganda, majozan aytsak, uni «U tug'ma attor», deb ifodalash mumkin, chunki uning miyasi oldindan belgilangan hayot yo'liga, oldindan belgilangan kasbga, qobiliyatlarga ega emas.

Iste'dod nishonalari ko'pqirralidir. Faoliyat tomonidan qo'yilgan talablarning xarakteriga bog'liq ravishda aynan bir xil iste'dod nishonalari asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

Iste'dod nishonalarining tabiati va mohiyatini o'rganish sohasida fan dastlabki qadamlarni tashlamoqda. Tilga olingan muammoga taalluqli salbiy material hozircha ijobiy materialga qaraganda ortiqroqdir — iste'dod nishonalarining mahsuldor ko'rinishlari strukturasi ko'ra nuqsonlar haqidagi ilmiy ma'lumotlar ancha ko'pdir. Masalan, bir qator og'ir tug'ma yoki ilk yoshlik paytida orttirilgan nasliy miya nuqsonlari (oligofreniya) qobiliyatlarning rivojlanishiga to'g'anoq bo'ladigan, tuzatib bo'lmaydigan nuqsonlar sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi paytda qobiliyat taraqqiyotidagi tabiiy shart-sharoitlarning mohiyati haqidagi gipotezaning ozmi yoki ko'pmi mahsuldorligi haqida gapirish mumkin. F.Gallning ilgari surgan miyaning ayrim anatomik xususiyatlari bilan ayrim qobiliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik borligi haqidagi gipotezasi tasdiqlanmay qoldi. Garchi F.Gallning aql, iste'dod va qobiliyat sifatleri haqidagi fikri miya katta yarim sharlarida qat'iy lokallashtirilganligi haqidagi fikrini fan allaqachon inkor etgan va u tarix mulkiga aylangan bo'lsa ham hozirga qadar miyaning kattaligi bilan kishining qobiliyati o'rtasida odatda mavjud bo'ladigan qonuniy aloqa to'g'risidagi tasavvur saqlanib qolgan. Shaxslararo idrok etish sharoitlarida peshanasi katta individni aqlli deb hisoblashib, undan oqilona xulosalar va yechimlarni kutishadi. Agar kutilgan narsa chiqmasa, haddan ziyod afsuslanishga sabab bo'ladi.

Garchi qobiliyatlarning rivoji har turli odamlarda mutlaqo bir xil bo'lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lsa ham, yuqorida ko'rib o'tilgan iste'dod nishonalari va qobiliyatlar o'rtasidagi nisbat, qobiliyatlar shunchaki tabiat in'omi emas, balki kishilik tarixining mahsuli ekanligini ko'rsatadi. Agar hayvonlarda oldingi avlod yutuqlarining keyingi avlodga o'tkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik o'zgarishlari orqali amalga ohsa, insonda bu ijtimoiy-tarixiy yo'l bilan, ya'ni mehnat quroli, til, san'at asarlari va shu kabilar yordami bilan amalga oshadi. Har bir kishi estafetani qabul qilib olishi kerak — u qurollarni qo'llashi, tildan foydalanishi, badiiy ijod asarlaridan bahra olishi kerak va hokazo. Odamlar tarixiy yutuqlar olamini egallab olgach, o'z qobiliyatlarini tarkib toptiradilar. Qobiliyatlarning namoyon bo'lishi odamlar tomonidan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonida tarixiy jihatdan ishlab chiqiladigan tegishli bilim va ko'nikmalar shakllanishining konkret usullari (metodlari)ga bevosita bog'liqdir.

Agar masalani kishilik jamiyati tarixi nuqtayi nazaridan qarab chiqadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan holatning to'g'riligiga osongina ishonch hosil qilish mumkin. Hozirgi vaqtda, masalan, har bir yetti yashar normal taraqqiy etgan bolani o'qishga va yozishga o'rgatish mumkinligini tasdiqlash hech kimda shubha tug'dirmaydi. Biroq, bundan ikki yuz yillar muqaddam har qanday odamni ham savodga o'rgatib bo'lmaydi, faqat «xudo dono qilib yaratgan»larnigina, ya'ni maxsus qobiliyatga ega bo'lgan kishilarnigina savodini chiqarish mumkin, degan fikr ancha keng tarqalgan edi. Qolgan boshqa odamlar (taxminan bolalarning umumiy sonidan uchdan ikki qismi) bo'lsa yozish va o'qishning sirlarini tushunishga oldindan qobiliyatsiz deb tan olinardi. Qandaydir alohida tug'ma qobiliyatlarga bo'lgan bunday qarash ta'limning haqiqiy qiyinchiliklari bilan bog'liq edi. Hamma harflarni slavyancha nomlari bilan qo'shib yodlashga bog'liq bo'lgan mutlaqo takomillashtirilmagan metod («Alif», «be», «olib yur», «fe'l», «marhamat») bo'g'in-

lab o'qishga o'tishni haddan tashqari qiyinlashtirib yubordi. XIX asrning birinchi yarmida ta'limning ancha takomillashgan metodiga o'tish amalga oshirildi, bo'g'inlab o'qish metodi asosiga ko'rilgan yangi o'quv qo'llanmalari ham yuzaga keldi. Bu qo'llanmalarda cherkov, slavyan harflari o'rniga soddalashgan fuqarolik harflaridan foydalanildi, slavyan alfaviti harflari qisqartirilgan nomlar bilan almashtirildi («a», «be», «ve»). «Tug'ma grammatik qobiliyatlar» muammosi shunday hal qilingan edi. Tajriba shubhasiz hamma bolalar o'qish va yozishni o'rganishlari mumkinligini ko'rsatdi.

Qobiliyatlar va qiziqishlar

Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillari barqaror maxsus qiziqishlardan iboratdir. Maxsus qiziqishlar — bu insoniyat faoliyatining qandaydir soha mazmuniga bo'lgan qiziqishlari bo'lib, bu qiziqishlar ana shu turdagi faoliyat bilan kasb tariqasida shug'ullanish moyilligiga o'sib ko'tariladi. Bilishga doir qiziqish bu o'rinda faoliyat usullari va uslublarini amaliy ravishda egallab olishni rag'batlantiradi.

Biror mehnat yoki o'quv faoliyatida qiziqishning paydo bo'lishi bu faoliyatga nisbatan qobiliyatlarning uyg'onishi bilan chambarchas bog'liqligi va qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlabki zamin sifatida xizmat qilishi qayd qilingan. «Bizning niyatlarimiz, — Gyote so'zlari bilan aytganda, — bizdagi yashirin qobiliyatlarning oldindan sezilishi, biz amalga oshirishimiz mumkin bo'lgan ishlarning jarchisidir». Bolaning mustahkamlangan qiziqishlari uning qobiliyatlarini aks ettiruvchi «lakmus qog'ozidir, uyg'onayotgan qobiliyat o'zidan darak bermayaptimikin, deb atrofdagilarni o'ylatadigan signaldir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'smirlarda bu qiziqishlar, garchi ehtirosli bo'lsa ham, qisqa muddatli zavq xarakteriga egadir. O'smirlik va o'spirinlik yoshida turli xil va ko'pincha so'nib borayotgan qiziqishlar rivojlanayotgan shaxsda qobiliyatlarni namoyon qilishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachilarning o'smirlar yoki o'spirinlar qiziqishlari sohasiga shunday munosabatda bo'lishlari pedagogik jihatdan muhimdir. Bu esa

ularning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini chuqurlashtirish va kengaytirishni nazarda tutadi.

Nazorat savollari:

1. Qobiliyat to'g'risida umumiy tushuncha bering.
2. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifini izohlang.
3. Qobiliyatning tuzilishini tushuntirib bering.
4. Talantning psixologik asoslari.
5. Qobiliyat va talantning tabiiy shartlari.
6. Qobiliyat haqida nazariyalar.
7. Qobiliyatning rivojlanishi.
8. Qobiliyatning tuzilishi yuzasidan mulohazalar.
9. Qobiliyatga psixologik yondashuvlar talqini.
10. Qobiliyat iyerarxiyasi va rivojlanishi haqida mushohadalar.

XXVIII bob. TEMPERAMENT

Tayanch tushunchalar: labillik, melanxolik, rigidlik, sangvini-
nik, temperament, flegmatik, xolerik, ekstraversiya, introversi-
ya, astenik, atletik, piknik.

28.1. Temperament haqida tushuncha

Psixologiyada temperamentga tegishli individual dinamik xususiyatlar o'rtasida ma'lum darajada farq mavjudligi qayd etilib, ular o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli ravishda, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida hamda uning muomilasida ifodalanadi.

2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyati davomida yoki uning muayyan bir davrida barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

3. Yakkahol shaxsga daxldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri bilan o'zaro muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Psixologiyada temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmas temperament tipini tavsiflovchi tuzilmani tashkil qiladi.

Individga xos dinamik fazilatlar o'zaro ichki bog'lanishga ega bo'lib, o'ziga xos tuzilishni tashkil etadi. Psixikaning in-

dividual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlari majmui kishining temperamenti deb ataladi.

28.1. Temperament haqidagi ta'limotlarning qisqacha mazmuni

«Temperament» termini antik fanning individual-psixologik farqlari tabiatiga bo'lgan qarashlariga borib taqaladi. Qadimgi yunon tibbiyotining yirik vakili Gippokrat (eramizdan oldingi V asr) siymosida organizmning holati asosan «sharbat»larning, ya'ni organizmda mavjud suyuqliklarning (qon, limfa, o't) miqdoriy nisbatiga bog'liqdir, deb hisobladi. Bu sharbatlarning aralashirilgandagi nisbati grekchasiga «krisis» («go'zal» ma'nosida) so'zi bilan atalgan. Bir necha asr keyinroq ishlagan rimlik vrachlar bu tushunchani lotincha so'zi bilan atashgan, bu «qismlarning tegishli nisbati» degan ma'noni bildiradi. Bundan «temperament» degan termin kelib chiqqan. Asta-sekin antik fanda odamlarning ruhiy xususiyati krasisga yoki temperamentga, ya'ni organizmda asosiy «sharbat»lar aralashib ketgan nisbatga bog'liq degan fikr qaror topdi. Eramizdan ilgari II asrda yashagan rimlik anatom va vrach Galen birinchi bo'lib temperamentlarning kengaytirilgan tasnifini berdi: u 13 ta turni o'z ichiga qamrab oladi. Temperament turlari soni qadimgi tibbiyot vakillari tomonidan keyinchalik to'rttaga qadar kamaytirildi. Ularning har biri qandaydir suyuqlikning boshqalardan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Organizmda suyuqliklarning aralashuvi (u qonning ko'pligi bilan xarakterlanadi) sangvinik temperament deb ataldi (lotin tilidagi «sangvis» – qon so'zidan); limfa ko'p bo'lganda flegmatik temperament (grekcha «flegma» – shilimshiq parda degani); sariq o'tning ko'payganini xolerik temperament (grek tilidagi «xole» – o't so'zidan) va, nihoyat, qora o't ko'p bo'lgan melanxolik temperament deb (grekcha «meloyna xole» – qora o't) ataladi. Uning mulohazasicha:

1. O'tning xususiyati quruqlikdir, uning vazifasi – tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir.

2. Qonning xususiyati issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir.

3. Qora o'tning xususiyati namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir.

4. Balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovitib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, flegmatikda balg'am, melanxolikda qora o't ustun bo'lishi ta'kidlanadi.

Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Shaxsning individual xususiyatlarini o'rganishda:

a) individuallikning qobiliyat va iqtidorning psixofiziologik va differensial psixologik muammolari, ya'ni individuumning faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan;

b) insonning individual xususiyatlarida namoyon bo'luvchi faoliyat stillari va ularni boshqarish;

d) insonning har xil faoliyat turlari muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tipologik xususiyatlarni empirik o'rganish natijalari;

e) har xil kasalliklar bilan bog'liq tarzda kuzatiluvchi individual tafovutlarning ta'siri bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Individual tipik tafovutlar to'g'risida tasavvurlar shakllanishining ildizi differensial psixologiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Differensial psixologiyaning vujudga kelishi inson tajribasining uzoq yillik mahsuli bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda esa bu holat insonlar xulq-atvorining xilma-xilligida kuzatiladi.

Bu holatning ilk tarixiy ildizini Qadimgi grek faylasuflarining bergan talqini tasodif emas. Platon o'zining «Davlat»

asarida ikkita odam bir xil bo'lmasligi, har biri o'zining qobiliyatiga ko'ra tafovutlanib, biri o'z ishi bilan mashg'ul bo'lishini taqozo etadi, degandi. Platonning taklifini bugungi kundagi holati sifatida harbiy xizmatga olish uchun foydalaniladigan «Kasbga yaroqlilik» testini misol sifatida keltirish mumkin.

Yu.Spiritsa konstitutsional nazariya asoschilaridan biri hisoblangan E.Krechmerning inson tana tuzilishiga asoslanib individual tafovutlar to'g'risidagi qarashlariga asoslanib quyidagi farqlarni tushuntirib beradi:

Astenik (grek tilidan olingan bo'lib, asthenes – zaif degan ma'noni anglatadi) turga tegishli insonlar o'rta bo'yli va oriqli kishilar bo'lib, jussasi kichikroq bo'ladi. Shuning uchun ko'pgina hollarda ularning bo'yi past bo'lib ko'rinadi. Tana va yuz terisi nozik, yelkasi tor, qo'llari va bilaklari ingichka, ko'krak qafasi tor bo'lgan hamda mushaklari yaxshi rivojlangan oriqli kishilardir. Asteniklarning yuzi odatda uzun va burni katta bo'ladi. Ularda emotsional zaiflik, doimo o'z-o'zini tahlil qilish, xatti-harakatlarini o'rganish kabi xislatlar namoyon bo'ladi, bunday insonlar yolg'izlik hissigamoyil bo'ladilar.

Atletik (grek tilidan olingan bo'lib, athlete – kurashchi degan ma'noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning suyak va mushaklari yaxshi rivojlangan, o'rtacha yuqori yoki baland bo'yli, yelkasi va ko'krak qafasi keng, boshini tik tutib yuradigan kishilardir. Tana tuzilishi pastga qarab qisqarib (torayib) ketadi, boshi ko'pincha cho'ziq, tuxumsimon tuzilishda bo'ladi. Ularning irodasi kuchli bo'lib, qat'iyatlilik, o'z fikri ustida qaysarlik bilan turib olish kabi xislatlar bilan tavsiflanadi.

Piknik (grek tilidan olingan bo'lib, puknos – yirik degan ma'noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'i yaxshi rivojlangan, semirishgamo'yil, tayanch harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilar. Ular juda emotsional bo'lib, turli hayotdagi vaziyatlarga haddan ziyod bo'yoq beradilar va isterikaga (jazavaga tushishga) moyildirlar. Doimo hayotdan zavqlanib yashashga harakat qiladilar.

Sheldon temperament farqlarini ajratish uchun tip emas, komponentni asos qilib oldi:

Birinchisi umumiy sferik shakl yumshoqlik, juda katta qorin, yelka va belda qalin yog' qatlami, yumaloq bosh, katta ichki organlar, shalviragan qo'l va oyoqlar, taraqqiy etmagan suyak va muskullar bilan ajralib turadi.

Ikkinchisi uchun keng yelka va ko'krak qafasi, muskullari yaxshi rivojlangan qo'l va oyoqlar, teri osti yog'ining minimal miqdori, og'ir, salmoqli kalla xosdir.

Uchinchisi ozg'in odam, cho'ziq yuzli, baland peshana, ingichka qo'l va oyoqlar, tor ko'krak qafasi va qorin, taraqqiy etmagan muskullar, teri osti yog' qatlamining yo'qligi, yaxshi rivojlangan nerv tizimi bilan ajralib turadi. Shu belgilar asosida Sheldon gavda tuzilishining uchta birlamchi komponentini ajratdi va ularni mos ravishda: endomorf, mezomorf va ektomorf deb nomladi. Biologiyada o'sha davrdagi tasavvurlarga ko'ra endodermadan ichki organlar, mezodermadan suyak, muskul, yurak, qon tomirlari, ektodermadan soch, tirnoq retseptor apparati, nerv tizimi va miya rivojlandi, deb qaralgan.

Sheldon aniqlangan guruhlar «temperamentning birlamchi komponentlariga» to'g'ri keladi, deb hisobladi va har bir guruhga visserotoniya, samototoniya, serebrotoniya deb nom berdi (visserotoniya – ovqat hazm qilish organlarining funksional ustunligi, samototoniya – harakat apparatining funksional va anatomik ustunligi, serebrotoniya – oliy nerv markazi faoliyatining ustunligi).

Temperamentning energetik nazariyasi asab tizimining ishlash quvvati bilan bog'liq bo'lib, bu nazariyasiga ko'ra temperament xususiyatlari asab tizimining ishlash quvvatiga qiyoslanadi. Har bir temperament o'zining emotsional va quvvatni sarflashiga ko'ra har xil jadallikka ega. Bu yuzasidan tipologiyani V.Vundt amalga oshirgan. Uning fikriga ko'ra emotsiya uchun temperament, sezgi uchun qo'zg'aluvchanlik muhimdir. Faol temperamentga nisbatan emotsiyaning kechishi kuchli va aniq yuz beradi. V.Vundt temperamentning 2 xususiyatiga xos

2 faktni ajratib ko'rsatdi: kuchli — kuchsiz, labillik — stabillik (tezlik — sekin).

№	Visserotoniya	Somatotoniya	Serebrotoniya
1	harakat va gavnani tutishda shalviragan	harakat va gavnani tutishda o'ziga ishonch	harakat va uning uslublarida sipolik, gavnani erkin tutmaslik
2	maishiy qulaylikni yaxshi ko'rish	jismoniy mashqlar va sarguzashtlarni yaxshi ko'rish	haddan tashqari fiziologik reaktivlik, tashqi ta'sirga hozirjavoblik
3	reaksiyaning susayganligi, sekinlashganligi	serg'ayratlik	reaksiya tezligining ortganligi
4	ovqatni yaxshi ko'rish	harakatga ehtiyoj va undan lazzatlanish	intimlikka moyillik
5	ovqatlanish ehtiyojining ijtimoiylashganligi	hukmronlikka intilish, hokimiyatga chanqoqlik	haddan tashqari aqliy zo'riqish, diqqat kuchining ortganligi, xavotir
6	ovqat hazm qilishdan lazzatlanish	tavakkalchilikka moyillik	hissiyotni yashirish, emotsional sipolik
7	muloyim muomalani yaxshi ko'rish	harakat uslubining qat'iyiligi	ko'z va yuz harakatlarning notinchligi
8	sotsiofiliya — ko'pchilik bilan bo'lishga intilish	jangda jasurlik	sotsiofobiya — yolg'izlikni yoqtirish
9	hamma bilan xushmuomalalik	musobaqada agresivlik	ijtimoiy munosabatlar o'rnatishda qiynalish
10	maqtov va ma'qullashga chanqoqlik	psixologik his-tuyg'usizlik, emotsional bag'ritoshlik	yangi odatlarga o'rganish qiyinchiligi, kuchsiz avtomatizm
11	odamlarga intilish	klaustrofobiya — torlikdan qo'rqish	birovlarning e'tiborini yo'qotishdan qo'rqish — agorafobiya
12	hissiyotlar namoyon bo'lishining barqarorligi	rahm-shafqatsizlik va odobsizlik	boshqa odamlarning o'ziga munosabatini oldindan ko'ra olmaslik

13	sabr-toqatlilik	baland ovoz	past ovoz, shovqin uyg'otishdan qo'rqish
14	betashvish, lazzatlanish	og'riqqa spartancha beparvolik	og'riqqa haddan tashqari sezgirlik
15	chuqur uyqu	umumiy to'polonchilik, baqiroqlik	kam uyqu, surunkali toliqish
16	irodasi sustlik	tashqi ko'rinishning qarimsiqligi	tashqi qiyofa va harakat uslublarining o'spirinlarcha jonliligi
17	muloqot va hissiyotni namoyon qilishda yengiltaklik, visserotoncha ekstroversiya	muomalada ekstroversiya, emotsiya va hissiyotlarni yashirish, somatotonik ekstroversiya	serebrotonik introversiya
18	mastlik holatida dilkashlik va yumshoqlik	mastlik holatida agressivlik, qattiq turish	alkogol ta'siriga chidamlilik
19	og'ir damlarda odamlarga ehtiyoj	og'ir damlarda harakatga intilish	og'ir damlarda yolg'izlikka intilish
20	bolalikka va o'zaro oilaviy munosabatlarga intilish	o'spirinlik maqsadlari va vazifalariga yo'nalish	hayotning kechroq davrlariga yo'nalish

► sangvinik va flegmatik – yuzaki kuchsiz emotsional reaksiya;

► xolerik va melanxolik – kuchli kechinmali (affektiv, chuqur);

► emotsional beqarorlik – xolerik va sangvinik;

► emotsional barqarorlik – flegmatik va melanxolik temperamentiga xos bo'lgan xususiyatdir.


Konstitutsional nazariyada temperamentning tana tuzilishi bilan psixika belgilarining o'zaro bog'liqligi ta'kidlanadi. Ushbu nazariya namoyandalaridan biri Xlod Sigo inson tana tuzilishining quyidagi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan:

► **Respirator** (nafas oluvchi) tip – tos suyagi tor (a);

► **Digestiv** (ovqat hazm qilish) tip – katta jonli, jag'lari katta (b);

► **Muskulli tip** – tos qismi o'rtacha (d);

► **Serebral tip** – tanasi qisqa (e).



Temperamentning fiziologik asoslariga o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov (1849–1936) hisoblanadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I.P.Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv tizimini xususiyatlari mohiyatidandir. Unga ko'ra quyidagi 3 ta xususiyatni ajratib ko'rsatadi:

- 1) *qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi;*
- 2) *qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;*
- 3) *qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.*

I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv tizimi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv tizimining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) *kuchli, muvozanatli, epchil;*
- 2) *kuchli, muvozanatsiz, epchil;*
- 3) *kuchli, muvozanatli, sust;*
- 4) *kuchli, muvozanatsiz, sust.*

Yirik rus psixologlaridan biri B.M.Teplov (1896–1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining

o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar. Shuningdek, B.M.Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta'riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv tizimining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan.

28.3. Temperament va shaxs faolligi

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin va ularning psixologik tavsifini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1. Senzitivlik (lotincha Sensus – sezish, his qilish degan ma'noni anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujasamlashadi.

2. Reaktivlik. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi – emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

3. Faollik. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda obyektiv hamda subyektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishga qarab fikr yuritiladi.

4. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati. Odaming faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga bino-

an, chunonchi tasodifiy tarzda tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jayronlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat rigidlik (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. Ekstravertlik va introvertlik. Shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Sangvinik — juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi; yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Atrofdagi narsalar, ma'ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo-ishoralarni ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sir (qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatida, intizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql-idroki tiyrak, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egalaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi. Xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan: tashqi ta'sirlarga hozirjavob va hokazo.

Xolerik — sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz.

Sangvinikka qaraganda silliqroq, lekin ko'proq qotib qolgan (rigidroq).

Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat'iylik mavjud. Biroq diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladi. Nutq sur'ati tez va hokazo.

Flegmatik – sezitivligi sust, his-tuyg'usi (emotsiyasi) kam o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko'ngilsiz hodisa, xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat. Imo-ishorasi, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanmaydi. Lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur'ati sust. Farosati qiyiqroq. Diqqatni to'plashi osoyishta. Qotib qolgan (rigid). Diqqatni ko'chirish qiyin. Introvertlashgan, kamgap, ichimdan top. Yangilikni qabul qilishi murakkab. Tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beradi (qaytaradi).

Melanxolik – sezitivligi yuksak. Tortinchoq, g'ayratsiz. Arazchan, xafaxon. Jimgina yig'laydi, kam kuladi. Qat'iyliги va mustaqilligi zaif. Tez toliqadi. Ortiqcha ishchan emas. Diqqati barqaror. His-tuyg'usi sust o'zgaradi. Qotib qolgan (rigid). Introvertlashgan.

Faoliyatda kuchli va kuchsiz tiplar. Maxsus tadqiqotlardan ma'lumki, tipning kuchsizligi faqat qo'zg'alish va tormozlanish jarayonining kuchi yetishmasligini emas, balki u bilan bog'liq yuksak sezuvchanlikni, tashqi ta'sirlarga javob berishni (reaktivlikni) ifodalashi juda namunalidir. Bu nerv tizimining kuchsiz tipi o'zining alohida afzalliklariga ega bo'lishni bildiradi. Mazkur tipning ko'rinishlari o'ziga xosligi to'g'risida, uning imkoniyatlari haqida ko'plab eksperimental ma'lumotlar va hayotiy kuzatishlarga asoslanib fikr yuritish mumkin.

Faoliyatda harakatchan va sust tiplar. Aslida harakatchanlikning bo'sh ifodaligi (qarama-qarshi jarayonlarning sekin almashinuvi) labillikning bo'sh ifodalanishi (qo'zg'alish va tormozlanishning sodir bo'lish va so'nish tezligining sekinligi), ya'ni nerv jarayonlarining sustligi ham salbiy, ham ijobiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Sustlikning salbiylik tomoni nerv jarayonlarining sekin kechishida ifodalansa, ijobiyliги

esa psixik jarayonlarning uzoq saqlanishi, barqarorligidir. Tegishli psixologik tafovutlar faoliyatning samaradorligini emas, aksincha, eng avvalo faoliyatning davom etish xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Harakatchan va ancha sust temperamentli o'quvchilar (VII sinfda) o'rtasida boshlang'ich mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishdagi farqlarni o'rganishda aniqlangan faktlar bu jihatdan xarakterlidir. Ma'lum bo'lishicha, agar turli topshiriqlarni bajarishning tez sur'ati harakatchan temperamentli o'quvchilarning qimmatli sifati bo'lsa, salbiy sifati esa ba'zi bir ishonchsizlikdir (topshiriqni bajarishning ortiqcha tezkorligi sababli uning elementlari tushirib qoldiriladi). Sekin harakatlarni talab qiladigan topshiriqlar sust o'quvchilar tomonidan ancha muvaffaqiyatli, bir me'yorda va silliqqina bajarildi. To'g'ri, ularda topshiriqlarni bajarishda noxush to'xtab qolishlar yuz berib turar, lekin topshiriqni bajarishdagi aniqlik ularning faoliyati edi. Ularning anchagina qismi o'zlarining nisbatan cheklangan tezkorlik imkoniyatlari o'rnini pedagogning izohlariga va chizmalariga katta e'tibor berish bilan to'ldirdi.

Faoliyatning individual uslubi. Temperamentning xususiyati faoliyatning samaradorligida emas, balki avvalo usullarning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda ko'p dastgohchi o'quvchilarning ishini kuzatish natijalari diqqatga sazovordir (E.A.Klimov tadqiqoti). Ma'lum bo'ldiki, bir necha dastgohda ishlashda nerv tizimi harakatchan tipdagi ham, harakatsiz tipdagi xodimlar ham yuksak ishlab chiqarish muvaffaqiyatlariga erishishi aniqlandi (ularning nerv jarayonlarining xususiyatlari laboratoriya eksperimentlarida aniqlandi). Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Chunonchi, harakatchanlari shoshilinch jarayonlar (masalan, ishning barham berish)ni tezroq bajaradi (bunga faqat zarurat tug'ilgan), temperamentning sust tipidagi kishilar esa ishonchsizlik harakatlarining zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga yanada zo'r e'tibor berishi bilan ajralib

turadi. Ish usullari, uslubi ularning individual xususiyatlariga to'g'ri keladigan xodimlarda yuksak ishlab chiqarish muvaffaqiyatlariga erishiladi. Shunday qilib, temperament faoliyatning individual uslubini belgilaydi.

Faoliyatning individual uslubini har tomonlama o'rgangan psixologlar (V.S.Merlin, Ye.A.Klimov) uning kishida darrov paydo bo'lmasligi va faqat stixiyali tarzda paydo bo'lishini ko'rsatishdi. Agar kishi o'z temperamentiga muvofiq o'zini yaxshi natijalarga erishishiga yordam beradigan yo'llari va usullarini faol izlansa, individual usublari ishlab chiqiladi va takomillashadi. Faoliyatining individual uslubi ishlab chiqarish ilg'orlarida, usta sportchilarda, eng yaxshi o'quvchilarda ancha aniqroq namoyon bo'ladi.

Qiziq, odamlarning birgalikdagi faoliyati sharoitlarida (agar ular birgalikda, masalan, ikkita bo'lib ishlayotgan bo'lsa), ular temperamentining dinamik fazilatlarini ular faoliyatining pirovard natijasiga har biri individual ishlagan hollardagiga qaraganda ancha jiddiy ta'sir ko'rsatar ekan. Bunda mazkur faoliyatni bajarish uchun ancha qulay va kamroq qulay bo'lgan temperamentning har xil tiplarining birga qo'shilib kelishi aniq bo'ldi. Chunonchi, xolerik temperamentli kishining faoliyati sangvinik yoki xolerik temperamentli kishi bilan sherik bo'lib ishlaganga qaraganda flegmatik yoki melanxolik bilan birgalikda ishlagan hollarda ancha samarali bo'ladi (V.M. Rusalovning tadqiqotlari). Bunday faktlar shuni ko'rsatadiki, temperamentning u yoki bu xususiyatlari ahamiyatini ko'pgina faoliyat tur-larining birgalikdagi xarakterini hisobga olmasdan baholab bo'lmaydi.

O'z temperamentining xususiyatlarini egallash va ularning o'rnini to'ldirish, faoliyatning individual uslubini shakllantirish bolalik yillarida boshlanadi, ta'lim va tarbiya ostida ro'y beradi.

Temperamentning yoshga oid xususiyatlari mavjudligini hisobga olish kerak: har bir bolalik yoshida faollikning, emotsionallik va motorikaning o'ziga xos xususiyati bor. Jumladan, kichik maktab yoshi uchun faollikning xarakterli

belgilari – qiziqish uygʻotishning osonligi, har qanday tashqi qoʻzgʻatuvchiga eʼtibor berishga tayyorlik va diqqat-eʼtibor berishning yetarlicha uzoq davom etmasligi, bolalar nerv tizimining nisbatan sustligi, sezgirligi bilan bogʻliqdir. Hayotning ana shu davridagi emotsionallik va motorika, albatta, aytaylik, oʻsmirlik, ayniqsa oʻspirinlik davridagidan boshqacharoq boʻladi. Bolada temperamentning u yoki bu tipining belgilari uning yoshidan ajratilgan holda qarab chiqilishi mumkin emas, ular hamisha tegishli «yosh davr fonida» namoyon boʻladi.

Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari. I.P.Pavlovning laboratoriyalarida bosh miya katta yarim sharlari qobigʻining ishi umumiy xususiyatlari (itlarda tajriba oʻtkazildi) bilan birga nerv faoliyatida hayvonning individualligi bilan bogʻliq boʻlgan nerv faoliyatidagi farqlar kashf etildi va oʻrganildi. It xatti-harakatining oʻziga xosligi (masalan, ziyraklik va sustlik, dadillik yoki qoʻrqoqlik) asosiy nerv jarayonlarining ayrim xususiyatlari hayajonlanish va tormozlanishga qonuniy ravishda mos kelganligi kuzatildi. Koʻp yillik tadqiqotlar natijasida oʻrganilgan individual farqlar asosida quyidagi fiziologik xususiyatlar: hayajonlanish va tormozlanish kuchi, ularning harakatchanligi, yaʼni bir-birini tezda almashtirish qobiliyati, hayajonlanish bilan tormozlanish oʻrtasidagi vazminlik yotishi aniqlandi. Ushbu xususiyatlarning u yoki bu tarzda birikuvi oliy nerv faoliyatining turini tashkil etadi.

Nerv jarayonlarining kuchi tipning eng koʻp hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan juda muhim koʻrsatkichdir. Qobiq uning ish qobiliyati, ularning chidamliligi qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlari kuchiga bogʻliq boʻladi. Maʼlumki, tevarak-atrofdagi olam nerv tizimiga koʻplab turli-tuman taʼsirotlar yogʻdirib turadi; baʼzan uzoq vaqt davomida ogʻir ishni bajarish talab qilinadi; hayotda ancha nerv zoʻriqishini talab qiladigan favqulodda voqealar, katta kuchli qoʻzgʻatuvchilar uchrab turadi; koʻpincha boshqa, yanada koʻproq ahamiyatli qoʻzgʻatuvchilar taʼsiri ostida qoʻzgʻatuvchilardan birining harakatiga taʼsirini kamaytirish, toʻxtatish zarurati paydo

bo'ladi. Nerv tizimi qanchalik kuchga bardosh berishi mumkinligi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchiga bog'liq bo'ladi.

Boshqa bir ko'rsatkich — bosh miya qobig'idagi nerv jarayonlarining harakatchanligi ham muhim ahamiyatga ega-dir. Atrofdagi muhit doimo o'zgarib turadi va bu o'zgarishlar ko'pincha keskin va kutilmagan bo'ladi. Nerv jarayonlari ularning orqasidan «ulgurishi» kerak. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir xil hayvonlarda hayajonlanish va tormozlanish jarayonlari bir-birining o'rnini tezda almashtiradi, boshqalarida qarama-qarshi jarayonlar nisbatan sekin almashinadi.

Nerv tizimi turining navbatdagi ko'rsatkichi qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi vazminlik ham juda ahamiyatlidir. Qo'zg'atuvchi kuch bilan tormozlanish jarayonining kuchi hamisha ham bir-biriga to'g'ri kelavermaydi, ayrim vaqtlarda tormozlanish jarayoni kuchi jihatidan qo'zg'alish jarayonidan orqada qoladi va katta kuch bilan qo'zg'alish tormozlanish bilan to'la muvofiqlasha olmaydi. Vazminlik darajasi turlicha bo'ladi.

Oliy nerv faoliyatining tiplari. Oliy nerv faoliyatining individual xususiyatlari tadqiqotlar ko'rsatganidek, qarab chiqilgan biron-bir xususiyati bilan emas, balki doimo ularning majmui bilan belgilanadi. Nerv faoliyatining tipini tashkil etuvchi uchta xossasi ulardan har birining u yoki bu darajada ifodalanganligi turli birikmalarni hosil qilishi mumkin. Ko'psonli laboratoriya tajribalari ko'rsatadiki, shunday birikmalar orasida ayrimlari boshqalariga qaraganda ko'proq uchraydi yoki bo'lmasa ancha aniq-ravshan, yaqqol ko'rinadi. Natijada I.P.Pavlov oliy nerv faoliyatining asosiy turlari tasnifini yaratdi.

Nerv jarayonlarining kuchiga bog'liq holda itlar kuchli va kuchsizlarga bo'lindi.

Kuchsiz jonivorlar bir xil tipni tashkil etadi. Bu tipning vakillarida ikkala nerv jarayoni (ayniqsa tormozlanish jarayoni ko'pincha o'jiz bo'lib chiqadi) o'jiz hisoblanadi. Bunday itlar besaranjom bo'lishadi, to'xtovsiz alanglayveradi yoki, aksin-

cha, doimo to'xtayveradi, bamisoli qandaydir bir xil holatda turaveradi. Bu shu narsa bilan izohlanadiki, tashqi ta'sirlar, hatto ba'zan juda arzimagan ta'sirlar ham, ularga ortiqcha ta'sir ko'rsatadi. Uzoq davom etgan yoki kuchli qo'zg'atuvechilar ularda nerv tizimining tez ishdan chiqishini keltirib chiqaradi. Kuchsiz turdagi hayvonlar bir-birlaridan boshqa xususiyatlari bo'yicha (nerv jarayonlari kuchidan tashqari) ham farq qiladilar, ammo nerv tizimining umumiy o'jizligida bu farqlar jiddiy ahamiyatga ega emas. Uning uchun nerv tizimi o'jiz bo'lgan barcha hayvonlar I.P.Pavlov tomonidan bir xil tipga kiritilgan.

Kuchli muvozanatlilar, o'z navbatida, nerv jarayonlarining almashinuviga qarab, harakatchanligiga ko'ra jonli va bosiq tiplarga bo'linadi. Xatti-harakatining tashqi xususiyatlariga qaraboq bu tiplarning vakillari bir-biridan keskin farq qiladi. Bir xillari tez qo'zg'aluvchan va harakatchan, boshqalari, aksincha, qiyinchilik bilan qo'zg'aladi, sust bo'ladi.

Shunday qilib, oliy nerv faoliyatining to'rt asosiy tipi ajratilgan:

- 1) kuchli muvozanatli va tez (jonli);
- 2) kuchli muvozanatli va sekin (osoyishta);
- 3) kuchli muvozanatsiz (behalovat);
- 4) kuchsiz tip.

Nerv faoliyatining tipi organizmning tabiiy xususiyatidir. U nasliy jihatdan bog'liqdir, lekin biron-bir darajada o'zgarmas hisoblanmaydi, u rivojlanadi va ma'lum darajada atrofda sharoitlar ta'siri ostida o'zgaradi. Masalan, eksperimentlarda aniqlandiki, qo'zg'alish ustun turgan kuchli tipda mashq qilish yo'li bilan qoloq tormozlanish jarayonini mustahkamlash mumkin. Yana shu narsa ma'lumki, nerv jarayonlari xususiyatlarining yoshga qarab o'zgarishi ham mavjuddir.

Temperamentning xususiyati, ya'ni psixikaning dinamik tomoni xususiyatlari kishi xarakterini tashkil etadigan psixikaning muhim xususiyatlarini rivojlantirish shartlaridan biridir, xolos.

Nazorat savollari:

1. Temperament haqida tushuncha. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament.
2. Temperament tiplarini sanab bering.
3. Faoliyatning individual uslubi va temperament.
4. Oliy nerv faoliyatining to'rt asosiy tipi ajratib bering.
5. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari.
6. Oliy nerv faoliyatining tiplari.
7. Faoliyatning individual uslubi.
8. Faoliyatda kuchli va kuchsiz tiplar.
9. Faoliyatda harakatchan va sust tiplar.
10. Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati.

XXIX bob. XARAKTER

Tayanch tushunchalar: xarakter, xarakter xususiyatlari, xarakter va temperament, xarakterning shakllanishi, xakterning namoyon bo'lishi, xakterning namoyon bo'lishi va shakllanishi.

29.1. Xarakter haqida tushuncha

Grekchadan tarjima qilganda «xarakter» – bu «zarb qilish», «belgi» demakdir. Haqiqatan ham xarakter kishining jamiyatda yashab egallaydigan alohida belgilaridir. Shaxsning individualligi psixik jarayonlarning o'tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o'tkirlik va boshqalar) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'lishiga o'xshab, xakterning xislatlarida ham ko'rinadi.

Xarakter – shaxsning faoliyat va muomala jarayonida tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan, barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish-harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha obyektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qismlari-

ga, baʼzan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon boʻladilar va bu xarakterni, shuningdek, barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qaʼtiyatlik, tanqidiylik, fahm-farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. Odatda, shaxsning munosabatlari xarakter xislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilini aniqlash imkoniyatiga ega:

▶ Shaxs xarakterining xususiyati roʻyobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarning oʻziga xos xislati uning munosabatlariga bogʻliq.

▶ Har qanday favquloddagi tipik (muhitdagi) xarakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir.

▶ Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bogʻliqdir. Chunonchi, mehnatda koʻzga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga:

- ▶ diqqatning toʻplanishiga;
- ▶ harakatlarning maqsadga yoʻnalganligiga;
- ▶ irodaviy zoʻr berishga;
- ▶ usullar mahsuldorligiga;
- ▶ aqlning ishtirokiga bogʻliq.

Kishining shaxsi u nima qilayotgani bilan emas, balki uni qanday bajarayotgani bilan xarakterlanadi. Umumiy manfaatlar va eʼtiqodlar asosida harakat qila borib, hayotda umumiy maqsadlarga intila borib, odamlar oʻz ijtimoiy xulq-atvorida, oʻz xatti-harakatlarida va ishlarida har xil, baʼzan esa qarama-qarshi individual xususiyatlarni namoyon qilishlari mumkin. Boshqa odamlar bilan birgalikda oʻshanday qiyinchiliklarni boshdan kechirish, oʻz majburiyatlarini muvaffaqiyat bilan boshqarish, bir narsani sevish yoki sevmaslik, lekin ayni paytda yumshoq, gapga koʻnadigan yoki shafqatsiz, murosa-

siz, quvnoq yoki g'amgin, qat'iy yoki jur'atsiz, kirishimli yoki chiqisha olmaydigan bo'lishi mumkin.

Xarakter ijtimoiy munosabatlar va sotsial guruhlar

Xarakter kishi shaxsining yo'nalganligini belgilaydigan ijtimoiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, kishining kishi tomonidan sotsial ekspluatatsiya qilinishiga asoslanadigan jamiyatda, masalan, hukmron sinflar vakillarining sotsial pozitsiyasi ular xarakterida takabburlik, kekkayganlik, riyokorlik, ta'magirlik, munofiqlik va hokazolarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Psixologiya fani o'z nazariy va amaliy ishlarida kishi xarakterida namoyon bo'ladigan ana shu «tug'ma dog'lari»ni muhokama qilishni puxta va ustalik bilan chetlab o'tadi.

Xarakterning shakllanishi shaxsning rivojlanish darajasiga ko'ra xilma-xil guruhlarga mansub turli xildagi sharoitlar bilan qo'shilgan holda (oilada, do'stlar davrasida, mehnat yoki o'quv jamoasida va shu kabilarda) yuz beradi. Uning uchun referent bo'lgan guruhda shaxsning individuallashuvi qanday amalga oshayotgani va unda shaxslararo munosabatlarning rivojlanganlik darajasi qandayligiga bog'liq holda, masalan, o'spirinda bir xil holatda xarakterida ochiqlik, to'g'rilik, jasurlik, prinsipiiallik, qattiqqo'llik, boshqa bir holatda esa pinhoniqlik, yolg'onlik, qo'rqqoqlik, konformlilik, xarakterning bo'shligi shakllanishi mumkin. Rivojlanish darajasi yuksak bo'lgan guruhdagi kabi jamoada xarakterning eng yaxshi xislatlarini rivojlantirish va mustahkamlash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Bu jarayon shaxsning jamoada optimal integratsiyasiga va kollektivning o'zi yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Kishining xarakterini bila turib, uning u yoki bu holatlarda o'zini qanday tutishini va demak, kishi o'z xulq-atvorini qanday izga solishini oldindan ko'ra bilish mumkin. Jumladan, o'quvchilarga jamoat topshiriqlarini taqsimlayotib, ularning nafaqat bilimlari va malakalarini, balki xarakterini ham hisobga olish lozim.

Xarakterning xususiyatlari orasida ayrimlari asosiy, yetakchi bo'lib, uning namoyon bo'lishining butun kompleksini rivojlantirishning umumiy yo'nalishini belgilab beradi. Ular bilan bir qatorda ikkinchi darajali xususiyatlar ham borki, ayrim hollarda ular asosiy deb belgilanishi, boshqalarida esa ular bilan uyg'unlashmasligi ham mumkin. Turmushda ancha barqaror va ancha ziddiyatli xarakterlar uchraydi. Barqaror xarakterlarning mavjudligi xarakterlarning ulkan rang-barangligi ichida ularning umumiy xususiyatlar bo'lgan ma'lum tiplarini ajratish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Xarakterning barqarorligi uning ziddiyatlilikini to'la inkor etmaydi: bir xil vaqtda mehribonlik prinsipi bilan, yumor hissi mas'uliyat bilan kelishmay qoladi.

Xarakterning xususiyatlari e'tiqod, hayotga bo'lgan qarashlar va shaxs yo'nalishining boshqa xususiyatlari aynan bir xil deb qaralishi mumkin emas. Bir xushmuomala va xushchaqchaq kishi yuksak ma'naviy va insofli bo'lishi mumkin, boshqasi esa — u ham xushmuomala va xushchaqchaq — faqat shaxsiy farovonlik va o'z oilasining huzur-halovati to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi mayda korchalon, shu jumladan, o'z maqsadlariga erishish uchun yaramas qiliqlardan ham jirkanmaydigan bo'lib chiqadi.

Xarakterning xususiyatlari va shaxsning munosabatlari

Xarakter subyektning birgalikdagi faoliyatga qay tarzda faol jalb qilinishiga qarab xatti-harakatlarda va ishlarda namoyon bo'larkan, ham faoliyat mazmuniga, ham qiyinchiliklarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bartaraf etilishiga, ham asosiy hayotni maqsadlarga erishishda uzoq va yaqin istiqbollarga bog'liq bo'lib qoladi. Bunda xarakter kishining o'z muvaffaqiyatsizliklari va muvaffaqiyatlariga, ijtimoiy fikrga va qator boshqa holatlarga qanday munosabatda bo'lishiga (uning ilgari tarkib topgan xususiyatlari asosida) bog'liq bo'ladi. Jumladan, maktabning o'sha bitta sinfida o'qiyotgan yoki o'quv-ishlab chiqarish kambinati sharoitlarida o'sha bitta brigadada teng holatda ishlayotgan odamlar

ishning uddasidan chiqish yoki chiqmayotgani sababi bilan turli xarakter xususiyatlariga ega bo'ladi. Yutuq ba'zi bir-larini yanada yaxshiroq ishlash yoki o'qishga ilhomlantirsa va undasa, boshqalari «erishilgan yutuqdan mag'rurlanish-ga» moyil muvaffaqiyatsizlik biron boshqalarda jangovarlik ruhini paydo qiladi. Xarakterning tarkib topishida kishining qanday ulg'aygan muhitga va o'z-o'ziga boshqa kishiga qan-day munosabatda bo'lishi muhim moment hisoblanadi. Shu bilan bu munosabatlar xarakterning eng muhim xususiyatni tasniflash uchun asos bo'ladi.

Kishining xakteri, birinchidan, u boshqa odamlarga: qarindosh-urug'lariga va yaqinlariga, ishdagi va o'qishdagi o'rtoqlariga, tanishlariga va yaxshi tanimaydigan kishilarga va boshqalarga qanday munosabat bildirayotganligida namoyon bo'ladi. Barqaror va beqaror bog'langanlik, prinsipiiallik va prinsipsizlik, dilkashlik va maxdudlik, rostgo'ylik va yolg'on-chilik, odoblilik va qo'pollik kishining boshqa odamlar-ga munosabatini belgilaydi. Kishining xakterini jamoadan tashqarida namoyon qilib va tushunib bo'lmaydi. Jamoada, boshqa odamlar bilan jonli muloqotda xakterning kengligi yoki bachkanaligi, murosa qila olmasligi yoki ko'ngilchanli-gi, tinchliksevarligi yoki janjalni yaxshi ko'rishi kabi xislatlari aniq-ravshan ko'rinadi.

Ikkinchidan, kishining o'ziga bo'lgan munosabati: obro'ta-
lablik va o'z qadrini his qilish yoki o'z kuchini kamaytirib ko'rsatish va ishonmaslik xakter uchun xosdir. Bir xil odam-larda izzattalablik va egotsentrizm (o'zligini barcha voqealar markaziga qo'yish), boshqalarida esa o'z shaxsiy manfaatlari-ni jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, umumiy ish uchun kurashda fidokorlik birinchi o'ringa chiqadi.

Uchinchidan, xakter kishining ishga munosabatida namoyon bo'ladi. Jumladan, kishi xakterining eng qimmat-baho belgilari qatoriga vijdonlilik va ishchanlikni, jiddiylik-ni, tashabbuskorlikni, topshirilgan ish uchun mas'uliyatni va uning natijalari uchun tashvishlanishni kiritish mumkin. Le-kin ayrim odamlarning xakterida amalparastlik, yengiltaklik

kabi xislatlar, ishga rasman munosabatda bo'lish odatlari hali ham saqlanib qolgandir.

To'rtinchidan, xarakter kishining narsalarga munosabatida namoyon bo'ladi: faqat ijtimoiy mulkka nisbatan emas, balki o'z buyumlariga, kiyimlari va poyabzaliga, kitoblariga va o'quv qurollariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yoki ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo. Xarakter yaqin kishining faoliyati, uning xulq-atvori eng avvalo xulq o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi va uning shaxsining yo'nalganligi — qiziqishlari, ideallari va e'tiqodining mazmuni doimo uning xulq-atvori va faoliyatining asosiy determinanti bo'lib qoladi. Biroq, shaxs yo'nalishida ko'plab umumiylik bo'lgan va maqsadlari bir-biriga to'g'ri keladigan ikki kishida ana shu maqsadlarga erishish uchun ular foydalanayotgan usullarda jiddiy farqlar bo'lishi mumkin. Ana shu farqlar ortida shaxs xarakteridagi xususiyatlar turadi.

Xarakter xususiyatlari

Xarakterning kishilik tajribasida qayd etish o'z ifodasini topgan xususiyatlari soni behad ko'p va har holda mingtadan ortiqroqni tashkil etadi. Shu sababli xarakterning o'zgarib turadigan xususiyatlarini sanab va tavsiflab o'tirish maqsadga muvofiq emas, buning ustiga psixologiyada aniq bir tasniflash sxemasi (ularni shaxs munosabatlarining yuqorida ko'rsatib o'tilganlaridan biriga umumiy mansubligidan tashqari) yo'q. Xarakter xususiyatlarining variantliligi ularning faqat sifat jihatidan rang-barangligi va o'ziga xosligida emas, balki miqdor jihatidan ifodalanganida namoyon bo'ladi. Birmuncha shubhali, ma'lum darajada salovatli, birmuncha vijdonli va samimiy kishilar bor. Xarakterning u yoki xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi maraga yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolgan xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) atalmish vaziyat tug'iladi.

Xarakterga ortiqcha urg'u berilishi — ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridir. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqaror-

lik bo'lgani holda bir xil strossogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Kishi xarakteridagi bo'sh bo'g'in ko'pincha ana shu bo'g'inning faol ishlashini talab qiladigan og'ir vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Mazkur individ xarakterining zaif joylariga tegmaydigan barcha boshqa qiyinchiliklarni u ortiqcha zo'riqmay, na tevarak-atrofdagilarga va na o'ziga hech qanday ko'ngilsizlik keltirmay boshidan kechirishi mumkin. Xarakterning aksentuatsiyasi o'ta noqulay vaziyatlarda patologik zo'riqishlarga va shaxs xulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakterining shaxsning adekvat ijtimoiy moslashuviga to'sqinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo'rindir.

Xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) turlarini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi va har xil avtorlarda nomlarning nomenklaturasi bo'yicha bir-biriga mos kelmaydi (K.Leongard, A.Lichko). Lekin aksentuatsiyalashgan xususiyatlarning tavsifi ma'lum darajada bir xil bo'lib qoladi. Bu har ikkala tasnif sxemalaridan muvaffaqiyatli terminlarni olib va bunda psixiatrik terminologiya («shizofreniya» xususiyatlari, «epilensiya» xususiyatlari va hokazo) bilan to'g'ridan to'g'ri o'xshashlik bo'lishidan qochgan holda ortiqcha urg'u beriladigan xususiyatlar ro'yxatini keltirish imkoniyatini beradi.

Senzitiv tip uchun qo'rqqoqlik, odamovilik, tortinchoqlik xosdir. Senzitiv o'smirlar katta va buning ustiga yangi ulfatlarga qo'shilishdan qochishadi, tengqurlarining sho'xliklarida va qaltis ishlarida qatnashmaydilar, yosh bolalar bilan o'ynashni afzal ko'radilar. Ular nazorat qilinadigan ishdan qo'rqishadi, ayrim vaqtlarda xato qilib sinfdoshlarining kulgusiga sabab bo'lish yoki haddan ziyod yaxshi javob bilan havasini keltirishdan xavfsirab, sinf oldida javob berishdan iymanishadi. Senzitiv o'smirlarning o'zlarining norasoliklarini his qilishi giperkompensatsiya reaksiyasini ayniqsa ifodali qiladi. Ular

o'zligini tasdiqlashni o'z xulq-atvorining bo'sh joyida, ularning qobiliyatlari yaxshiroq namoyon bo'ladigan sohalarda izlamaydilar, balki o'zlarining juda ham norasoliklarini ayniqsa sezadigan joylarda izlaydilar. Qizlar o'zlarining quvnoqliklarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Jur'atsiz va uyatchan bolalar betakalluflik yoki hatto ataylab takabburlik niqobiga kirib olishadi, o'z kuch-quvvati va irodasini ko'rsatishga intilishadi. Qachonki, vaziyat ulardan dadil qat'iylik ko'rsatishni talab qilarkan, ular shu zahotiyoq ojizlik qiladilar. Agar ular bilan vakolat beruvchi munosabat o'rnatish iloji bo'lsa va hamsuhbatining xayrixohligi va madadini his qilsa, u holda niqob bilan uxlash ham «suv tekin» hayot bo'lib chiqadi, goh gina-kudratga to'lib-toshish va vijdon azobi, nozik tuyg'u va o'ziga nisbatan haddan ziyod yuksak talablar qo'yadi. Kutilmaganda ishtirok etish va hamdardlik bildirish manmanlikning o'rni-ga o'tishi va sharillab oqayotgan ko'z yoshini shunchaki quruq narsa qilib ko'rsatishi mumkin edi (A.Lichko).

Xarakter va temperament

Xuddi temperament kabi xarakter ham kishining fiziologik xususiyatlariga va avvalo, nerv tizimi tipiga bog'liqdir. Temperamentning xususiyatlari xarakterning ko'rinishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ularning paydo bo'lishi va kechishining dinamik xususiyatlarini belgilab beradi. Pirovard natijada temperament va xarakterning xususiyatlari kishining umumiy qiyofasini belgilaydigan amalda ajralmaydigan qotishmasini, uning shaxsining integral xarakteristikasini tashkil etadi. Inson psixologiyasining buyuk bilimdoni bo'lgan fransuz yozuvchisi Stendal xolerik temperamentli odamning qalb xususiyatlarini yozarkan, shunday qayd qilgan edi:

«Yuqori ta'sirchanlik, harakatlari keskin va shiddatli, taassurotlar sangviniklarniki kabi ham tez va ham o'zgaruvchan, lekin har bir taassurot bir-biridan katta kuch bilan ajralib turadiganligi uchun u endi ko'proq hukmronlik qiluvchi xarakterga egadir. Kishiga azob beradigan serzarda temperament yurakni yanada siqadigan, yanada zo'r, yanada beqaror fikr-

larni va qiziqishlarni tug'diradi. U unga deyarli doimiy ravishda tashvish tuyg'usini beradi. Sangvinik tipdagi odamga hech qiyinchiliksiz beriladigan ma'naviy farovonlik hissi unga mutlaqo yotdir; u faqat qizg'in faoliyatda huzur-halovatga erishadi. Qachonki, xavf yoki qiyinchilik undan barcha kuchlarini talab qilgan paytlardagi buyuk harakatlardagina, qachonki u har bir daqiqada bu xavf va qarshilikni to'la va butunlay anglab yetgan holdagina bunday kishi mavjudligidan zavqlanishi mumkin»¹.

Temperamentning xususiyatlari xarakterning muayyan tomonlari rivojlanishiga qarshilik ko'rsatishi yoki yordam berishi mumkin. Xolerik yoki sangvinik tipdagi odamga qaraganda flegmatik tipdagi odam o'zida tashabbuskorlik va qat'iylikni tarkib toptirishi qiyinroqdir. Jur'atsizlik va vahimalilikni bartaraf etish melonxolik uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Xarakterning jamoada amalga oshiriladigan shakllantirilishi xolerik tipdagi kishilarda o'zini tuta bilishni va o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarashni, sangviniklarda sabotlilikni, flegmatiklarda faollikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

29.2. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv

Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Xususan, Arastu va Aflotun kishi xarakterini yuziga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Kishining tashqi ko'rinishida qandaydir hayvon bilan o'xshashlik belgisini topish tavsiya qilinardi, so'ngra esa uning xarakterini ana shu hayvonning xakteri bilan aynan bir xil deb qarash kerak edi. Jumladan, Arastuning aytishi bo'yicha, buqaniki singari yo'g'on burun ishyoqmaslikni bildirardi, cho'chqanikiga o'xshash teshiklari katta-katta keng burun ahmoqlikni, arslonnikabi kabi burun mag'rurlikni, echkilar, qo'ylar va quyonlarniki singari junining mayinligi qo'rqqoqlik-

¹ Стендаль. Собр. Соч. в 15-ти т. — М.: «Правда» напширети, 1959, 6-том, 220—221-бетлар.

ni, sherlar va yovvoyi cho'chqalarniki kabi junning dag'alligi botirlikni anglatadi.

Xarakterni aniqlashning bu va shunga o'xshash fiziologik tizimi aql-sadosini biz, masalan, o'rta asrlik suriyalik yozuvchi Abul-Faraj Bar Ebreyda ko'ramiz. Uning kitobida shunday ko'rsatma mujassamlashgandir: «Yo'g'on va kalta bo'yli kishi bo'yvol singari qahr-g'azabga kelishi moyilligiga ega». Uzun va ingichka bo'yli qo'rqqoqlik alomati. Bunday kishi bug'u singari hurkadigan bo'ladi, «Qaysi birining bo'yni juda kichik bo'lsa, tulki singari makkor bo'ladi».

29.3. Xarakterning shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishi, uning tabiati, o'zgarishi mumkinligi yoki mumkin emasligi psixologlarning uzoq davom etib kelayotgan munozaralar mavzui hisoblanadi va ko'pincha odatdagi ongga xos bo'lgan mutlaq mulohazalarga sabab bo'ladi. Individ xarakterining tarkib topgan xususiyatlari tizimga ega bo'lgandagina sotsial yetuklikka erishadi. Bu jarayon bilinmasdan ro'y beradi va kishiga hozir qanday bo'lsa doimo shunday bo'lganiga o'xshab ko'rinadi. Shu tariqa inson xarakterining xususiyatlari unga tabiatdan berilgan, u tug'ma hisoblanadi, degan fikr tug'iladi. Bunday ta'kid juda ham keng tarqalgan bo'ladi: «tabiatan qo'rqqoq va ablah edi» yoki «aldamchilikka moyillik — uning tug'ma xususiyati», yoki hatto «urug'-aymog'i bilan shunaqa o'zi — tog'asiga tortdi». Lekin shunday ikki aka-uka bir oilada, go'yo bir xil sharoitlarda tarbiyalanmoqda. Ularning farqi bir-ikki yoshdangina iborat, ikkalasi bir maktabda o'qiydi, ota-onalari ham umuman ularga bir xil qarashadi, bolalar esa hamma sohada har xil, xarakterlari bir-biriga sal-pal ham o'xshab ketmaydi. Kishiga xarakter tug'ilishi bilan beriladi, degan xulosa ham bu gapdan uncha uzoq emas.

Hayot kishi shaxsini hatto o'xshash sharoitlarda ham turli nusxalarga qarab «o'lehaydi» degan gapni qanday tushuntirib berish mumkin? Eng avvalo, shu narsani tan olish kerakki, har

xil odamlarda haqiqatan ham «asos qilib olingan material» bir xil emas.

Kishi bosh miya ishlashining turli xil xususiyatlari bilan tug'iladi, oliy nerv faoliyatining u yoki bu tipini tasarruf qiladi. Bu psixologik xususiyatlar emas, balki fiziologik xususiyatlardir, lekin ular bir xildagi ta'sirlar bolalarda har xil psixologik samara keltiruvchi dastlabki sabab bo'lishi mumkin. Ular psixika va ong rivojlanadigan sharoitlarni belgilaydi. Fiziologik sharoitlardagi bu farqlar odamlar xarakteridagi har xillikning atigi birinchi sababidir.

Xarakter — ko'p jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash natijasidir. Xarakterda kishining odatlari jamlanadi. Xarakter odamlar faoliyatida namoyon bo'ladi, ammo u shu faoliyatda shakllanadi. Agar yigit yoki qiz o'zini o'zi tanqid qilishni xarakterning xususiyati sifatida tarbiyalashga urinayotgan bo'lsa, ular o'zlariga tanqidiy nuqtayi nazardan yondashishlari kerak. Bu ular nafaqat boshqalarning xatosiga emas, balki o'z xatolariga ham murosasiz munosabatda bo'lishi kerak, ularni xaspo'shlashga, ulardan ko'z yumishga urinmaslik kerak, degan ma'noni bildiradi. Psixolog P. Blonskiy yozganidek, «faqat muvofiq tarzda yashagan holdagina yashashga o'rganish mumkin».

Mehnat va o'qish to'g'risida gapirmagan taqdirda ham kundalik turmush, oiladagi hayot sharoitlari insoniy xarakterlar maktabidir. Pedagoglar va ota-onalar oldida muntazam ravishda mas'uliyatli vazifa: bolalar xarakterida sezila boshlagan o'zgarishlarni o'z vaqtida sezish va ularni inobatga olgan holda xulq-atvor va tarbiya sohasida o'z yo'lini amalga oshirish vazifasi turadi. Aftidan, tarbiyaviy ishda pedagogik usul sifatida qo'llaniladigan taqlid (andaza)dan katta xavf yo'q. Bu ayniqsa, bolaga individual yondashuv amalga oshiriladigan hollarda chidab bo'lmaydigan narsadir.

Shunday qilib, xarakter — shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga, hamkorlikdagi faoliyatiga va boshqa odamlar bilan muomalasiga jalb etiladigan hamda shu bilan o'z individualligiga ega bo'layotgan tiriklik paytida erishgan narsasidir.

Xarakter kishining tashqi ko'rinishiga ta'sir qilarkan, uning xatti-harakatlarida, xulq-atvorida, faoliyatida yorqin ifodasini topadi. Xarakter to'g'risida avvalo odamlarning xatti-harakatlari asosida hukm chiqarish kerak. Ularning mohiyati ana shu xatti-harakatlarda ancha to'laroq aks etadi.

Baribir kishining xakteri to'g'risida uning ushbu ixtiyorsiz xatti-harakatlari, shuningdek, uning tashqi qiyofasi xususiyatlari emas, balki uning ongli va ataylab qilingan xatti-harakatlari va ishlari hal qiluvchi, obyektiv va shak-shubhasiz ma'lumotlar beradi. Aynan xatti-harakatlarga qarab biz kishining o'zi nimani anglatishi haqida hukm chiqaramiz.

Nazorat savollari:

1. Xarakter haqida tushuncha.
2. Xarakter tipologiyasi.
3. Xarakter aksentuatsiyasini tushuntirib bering.
4. Xarakter tarkibi.
5. Xarakterning shakllanishi.
6. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari.
7. Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixini tushuntiring.

GLOSSARIY

«Men» **konsepsiya** (lot. conceptio — qabul etish — odamning o'zi to'g'risida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlar tizimi).

Abuliya (yunon. abule — irodani inkor etmoq) — eng oddiy, osongina masalalar bo'yicha ham ma'lum qarorga kelish qobiliyati yo'qligida namoyon bo'ladigan o'ta irodasizlik.

Adaptasiya (lot. adaptare — moslashtirmoq) — sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi.

Afaziya (yunon. a — inkor yuklamasi, phasia — nutq) — bosh miya qobig'ining ayrim qismlari zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

Affekt (lot. affektus — ruhiy — hayajon, ehtiros) — kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat.

Affektiv nutq — his-hayajon va kechinmalar aks ettirilgan nutq turi.

Afferentatsiya (lot. afferens (afferentis) — keltiruvchi) — tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo'lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.

Agglutinatsiya (lot. agglutinate — yopishtirmoq, yelimplamoq) — mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv parisi obrazi.

Agrafiya (yunon. a — inkor yuklamasi, grapho — yozaman) nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi.

Agroziya — idrokning buzilishi. Agrafiya miyaning ma'lum bir jarohatlanishi natijasida sodir bo'ladi.

Aks ettirish nazariyasi — in'ikos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shakllaridan biri deb qaraladigan nazariya.

Aks ettirish nazariyasi — in'ikos nazariyasi; psixik hodisalar borliqni aks ettirishning shakllaridan biri deb qaraladigan nazariya.

Akkomodatsiya (yunon. akkomadatio — moslashish) — koʻzning turli masofadagi narsalarni koʻrishga moslashuvi.

Akmeologiya (yunon. akme — yuksak pogʻona, ziyraklik, yuqori, logos — tushuncha taʼlimot) — tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pogʻonasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini oʻrganadigan fan.

Aksentlash (yunon. accentys — urgʻu) — narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Ambivalentlik (yunon. ambi — tevarak, ikki tomondan, lot. valentia — kuch) — bir vaqtda qarama-qarshi hissiyotlarning namoyon boʻlishi (mas., kulgu va qaygʻu, xursandlik va kulfat).

Amneziya (lot. a — inkor etish, mnesus — xotira) — miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yoʻqolish holati.

Analiz — bir butun predmet va hodisalarni tarkibiy qismlarga boʻlish.

Analizator (yunon. analisis — boʻlaklarga ajratish) — murakkab neyrofiziologik tizim, odamga taʼsir etuvchi qoʻzgʻalishlarni idrok etish va uni tahlil qilish.

Animizm (lot. anima — jon) — odam, hayvonot, oʻsimlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi.

Animizm (lot. anima — jon) — odam, hayvonot, oʻsimlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi.

Apatiya (yunon. apatheia — hissiyotsizlik) — kishining tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarq holati.

Appersepsiya (lot. ar — ga qarashli, perceptio — idrok) — shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bogʻliqligi.

Asab tizimi — hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini oʻzaro hamda tashqi muhit bilan toʻgʻrilab, uygʻunlashtirib turuvchi aʼzolar tizimi.

Assosiatsiya (lot. associatio — birlashtirmoq) — psixik hodisalar orasidagi oʻzaro bogʻlanish, u maʼlum qonunlar boʻyicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik oʻxshashlik, qarama-qarshilik va b.).

Asteniya (yunon. astheneia — kuchsizlik, holsizlik) — kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon boʻladigan asabiy psixik holsizlanish.

Attraksiya (fr. attraktion — qiziqib intilmoq, talpinmoq) — bir kishini boshqa kishi koʻrib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

Audivizual idrok (ing. audio — eshitmoq, vision — koʻrmoq) — bir vaqtning oʻzida ham eshitib, ham koʻrib idrok qilish.

Autizm (yunon. auto — oʻzim) — individning oʻzini atrofda gi odamlardan chegaralab, oʻzining kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonalashuv.

Avtonom nutq (yunon, autos — oʻzi, nomos — qonun) — bolaning nutqi koʻp maʼno va noaniq soʻzlar bilan xarakterlanadigan, ichki nutq, bunda turli narsalarning bir-biri bilan beqaror va uzviy bogʻliqligi tufayli soʻzlarning maʼnosi ham vaziyatga qarab oʻzgaradi, bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga oʻtish davri boʻlib hisoblanadi.

Binokulyar koʻrish (lot bini — juft, okuliys — koʻz) — bitta obyektning oʻzini har ikkala koʻz bilan barobar koʻrish.

Biogenetik qonun (yunon bios — hayot, genesis — kelib chiqmoq) — psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun boʻlib, unga koʻra ontogenez filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi.

Biografik metod (yunon. bios — hayot, grapho — yozaman, koʻrsataman) — odamni uning tarjimai holi bilan bogʻliq boʻlgan hujjatlar orqali oʻrganish usuli.

Birinchi signal tizimi — narsa va hodisalarning sezgi, aʼzolariga bevosita taʼsir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobigʻida hosil boʻladigan shartli muvaqqat nerv bogʻlanishlari, u sezgi va idrok turlarida namoyon boʻladi.

Bosh miya — markaziy nerv tizimining old (yuqori, oliy) qismi boʻlib, u bosh miya qobigʻida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi.

Bosh miya katta yarim sharlari — bosh miyaning ikki pallasini. Uning ustki qismi uchun chuqur bo'lmagan o'nqir-cho'nqirlardan iborat. Bosh miya katta yarim shari orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga bo'linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo'lib, ikki katta yarim sharlar po'stlog'ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o'simtalaridan tarkib topib, miya yo'llarini ko'rsatib turadi.

Boshqarish psixologiyasi — psixologiya fanining boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi.

Determinizm (lot. determinare — aniqlamoq) — tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro'y berishi obyektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi degan ta'limot.

Differensial psixologiya (lot. differentia — farq) — psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rganadi.

Din psixologiyasi — diniy ong xususiyatlari, tizimi va funksiyalarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'i.

Dinamik stereotip (yunon. dynamikos — kuchli, stereos — qattiq, tipos — iz) — bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi.

Diqqat — ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat.

Diqqatning barqarorligi — diqqatning ma'lum obyektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilish imkoniyati.

Diqqatning ko'chishi — diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyekt-dan ikkinchi obyektga ko'chirish.

Diqqatning ko'lamini — bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi — diqqatning bir vaqtda bir necha obyektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati.

Dominanta (lot. dominans — hukmron) — markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.

Dualizm (lot. duafis – ikki yoqqlami) – borliq ham moddiy, ham ruhiy boʻlgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy taʼlimot boʻlib, psixofizik parallelizm konsepsiyasining asosidir.

Efferent nerv (lot. efferrens – olib chiquvchi, neugon – asab) – nerv impulslarini markaziy nerv tizimidan ish bajaruvchi aʼzolarga oʻtkazuvchi nerv.

Egizaklar metodi – bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish. Bu metodni F.Galton taklif qilgan.

Ehtiyoj – odam va hayvon faolligining asosiy manbayi, aniq sharoitlar bilan bogʻliq zaruriyatning ichki holati.

Eksperiment – tajriba (lot. experimentum – namuna, tajriba) – psixologiyaning asosiy metodlaridan, oʻzgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga taʼsir etishdagi aniq maʼlumotlarga tayanadi.

Eksteriorizatsiya (lot. exterior – tashqiga aylanish) – ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyati, jonli mushohadaga aylanishi.

Eksteroreseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar; mas., koʻrish, eshitish, hid va taʼm bilishdan iborat tashqi sezgilar.

Ekstraversiya (lot. extra – haddan tashqari, verso – oʻzgarish) – shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yoʻnalishi.

Emotsiya (nor. emavere – uygʻotish, toʻlqinlantirish) – odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qoʻzgʻovchilar taʼsiriga javob reaksiyasi.

Empatiya (yunon. empatheia – birgalikda dardlashmoq) – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

Empirik metod (yunon. empeiria – tajriba, methodos – tadqiqot) – tekshiriluvchi haqidagi maʼlumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

Esda olib qolish – yangi qabul qilingan axborotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bogʻlangan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

Esga tushirish – xotira jarayonlaridan biri, buning natijasida oldin esda olib qolingan bilimlarni faollashtirish yuzaga keladi.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta ko‘rishga yo‘naltirilgan faolligi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish – psixologiyaning ilmiy-tekshirish metodlaridan biri; shaxsning bilim va mahorati, qobiliyati, qiziqishlari, didi, faoliyat turiga bo‘lgan munosabatlari va uning o‘zgarishini o‘rganish usuli.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Farq qilish chegarasi – qo‘zg‘ovchilar o‘rtasidagi bilar-bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo‘zg‘ovchilar bilan keyingi qo‘zg‘ovchilar o‘rtasidagi qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

Fazoni idrok qilish – voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o‘rnini, shaklini, miqdorini uch o‘lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlikda) bevosita aks ettirish.

Fenomen (yunon. phainomenon – yuz beruvchi, sodir bo‘luvchi) – his-tuyg‘ular tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha.

Filogenez (yunon. phyle – qabila, urug‘, genesis – paydo bo‘lish) – muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolutsion taraqqiyot jarayoni.

Fiziognomika (yunon. physis – tabiat, gnomon – biluvchi) – insonning tashqi ko‘rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o‘rtasidagi qat’iy bog‘liqlik.

Flegmatik (yunon. flegma – balg‘am, shilimshiq modda) – temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko‘rinishlari kuchli emasligida namoyon bo‘ladi.

Frenologiya (yunon. phren – ong, logos – ta’limot) – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o‘sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Frustratsiya (yunon, frustration – aldanish, behuda ko'rish, xafagarchilik, rejalarning izdan chiqishi) – kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qi-yinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati.

Gallutsinatsiya (lot. cinatio – alahlash) – real voqelikda-gi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta'sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo'lishi-dan iborat psixopatologik hodisa.

Genetik metod (denetikos – kelib chiqishga oid, metho-dos – tekshirish, tadqiqot) – psixik holatlarning paydo bo'li-shi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Geniallik (lot. genius – aql-zakovat, buyuk iste'dod) – shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namo-yon qilish hodisasi.

Genotip (yunon. genos – kelib chiqish, typos – namuna) – ota-onadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

Giperbolizatsiya (yunon. hyperbole – kattalashtirmoq) – kattalashtirish bilan bog'liq xayol faoliyatining bir usuli.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi.

Harbiy psixologiya – psixologiya sohasi, harbiylar shax-sini, turli harbiy faoliyatning psixologik xususiyatlarini har-biy jamoalarning jangovar tayyorgarlik metodlarini o'rganadi.

Hid bilish sezgisi – sezgi turi, xillarini aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'siqining shilliq pardasida joylash-gan va uning markazi bosh miya po'stloq qismidadir.

Hissiyot – odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan muno-sabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

Hukm – predmet va hodisalarga biror belgining xos yoki xos emasligini tasdiqlash.

Ichki nutq – nutq faoliyatining ovoz chiqarmasdan ifoda etiladigan alohida turi.

Ichki nutq – tafakkur bilan bogʻliq tashqi nutqdan avval paydo boʻladigan nutq turi.

Ichki validlik – metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mu-lohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi. Meto-dikadagi subtestlar, topshiriqlar va undagi savollar qisman bu-tunlay biz oʻrganayotgan xususiyatni oʻlchay olmasa, u holda ushbu metodika ichki validli emas, ichki validlik yetarli dara-jada emas, deb hisoblanadi.

Ideal (yunon. idea – gʻoya, tushuncha tasavvur) – biror narsaning namunasi, ayrim odam, guruh va sinf xatti-harakat-lari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Identifikatsiya (lot. identifisage – tenglashtirmoq) – shaxs-ning oʻzini oʻzga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

Idrok – sezgi aʼzolariga taʼsir etib turgan narsa va hodisa-larni bevosita yaxlitligicha aks ettirish jarayoni.

Idrokning butuniligi – idrok xususiyatlaridan boʻlib, bu sez-gi aʼzolariga bevosita taʼsir etib turgan obyektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qoʻshib idrok qilishdan iborat.

Idrokning konstantligi (lot. constantis – oʻzgarmas, doimiy) – idrok sharoiti oʻzgarsada, idrok qilishdan hosil boʻlgan nar-sa obrazlarning (ularning shakli, rangi, hajmi) nisbatan oʻzgar-masligi, turgʻunlik holati.

Idrokning predmetligi – jamiki olamdan olingan maʼlumot-larni – axborotlarni ichki olam obyektiga kiritish xususiyati.

Idrokning yaxlitligi – idrok obrazlarining bir butun holda aks ettirilishi.

Ikkinchi signal tizimi – odamga xos shartli reflektor bogʻla-nishlar tizimi boʻlib, nutq signallarining bevosita taʼsirida shakllanadi, I.S.T. – birinchi signal tizimi asosida hosil boʻla-di. Bu – umumlashgan mavhum tafakkurning asosi.

Illuziya (lot. illusio – aldash) – borliqning notoʻgʻri idrok etilishi.

Individ (lot, individuum – boʻlinmas ayrim jins, shaxs) – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining oʻziga xosligi hamda uning qaytarilmasligi.

Instinkt (lot. *instinctus* – uygʻonish) – murakkab shartsiz refleks, u xulq-atvorning tugʻma yigʻindisi, tashqi yoki ichki taʼsirotlarga javoban hosil boʻladi.

Interiorizatsiya (lot. *interior* – ichki) – tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.

Interoreseptiv sezgilar (lot. *interior* – ichki, *redpiere* – olmoq) – ichki aʼzolarga joylashgan retseptorlar.

Intervyu (*interview* – suhbat) – bu ijtimoiy psixologiya metodi boʻlib, qoʻyilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni toʻplash usuli.

Introspektiv metod – bu odamning oʻz-oʻzini kuzatishga asoslangan psixologik metodi.

Introversiya – shaxsning oʻz fikrlari, sezgilari, kechinmalarining oʻz-oʻziga tayanishi.

Iroda erkinligi – falsafiy-axloqiy kategoriyani ifoda etuvchi tushuncha. U oʻz-oʻzini aniqlash jarayonida kishi irodasining moslashishiga bogʻliq.

Isteʼdod – shaxsning maʼlum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Kayfiyat – birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

Kinestetik sezgi (yunon. *kineo* – harakatga keltiraman) – oʻz tana aʼzolarining holati va harakatini proprioretseptorlar taʼsiri ostida sezish.

Koʻnikma – odamning maʼlum ishni bajarishga tayyorligida koʻrinadigan qobiliyati.

Kommunikatsion qobiliyatlar – kishining boshqa odamlar bilan boʻladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni taʼminlaydigan qobiliyat.

Kommunikatsiya (lot. *communio* – aloqa, fikr olishuv maʼlumot berish) – til va boshqa belgilar vositasida axborot berish.

Konformlik (lot. *conformis* – oʻxshash, mos) – individning guruh fikrlariga tegishli tomondangina qoʻshilib, ichki tomon-

dan esa qoʻshilmay oʻz fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi.

Kuzatish — psixologik metodlaridan biri boʻlib, odamning xatti-harakatlarida namoyon boʻladigan turli hodisalarni hisobga olish va subyektiv psixik hodisalar toʻgʻrisida fikr olishdan iborat.

Kuzatuvchanlik — shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonida narsalarni kamdan kam uchraydigan, ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon boʻladi.

Labillik (lot. labilis — beqaror, oʻzgaruvchan) — nerv hujayralarining tezlik bilan qoʻzgʻalish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qoʻzgʻalish holatiga oʻtish xususiyati.

Laboratoriya tajribasi (lot. laborate — ishlamoq) — psixologiya metodlaridan biri tekshiriluvchiga taʼsir etuvchi barcha omillarni nazorat qilgan holda sunʼiy sharoitda olib boriladigan tadqiqot usuli.

Layoqat — nerv tizimining baʼzi irsiy determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlarni tarkib topirish va rivojlanishining dastlabki yakka tugʻma, tabiiy zaminidir.

Lokus nazorat (lot. lokus — joy) — odamning oʻz faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan koʻrish (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki oʻzining qobiliyatlarini intilishlardan koʻrish xislati (internal, ichki lokus nazorati).

Longityud tadqiqot (ing. longitude — uzoq muddat) — tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda oʻrganish.

Malakalar interferensiyasi (lot. later — orasida, ferens — tarqatuvchi) — avval hosil qilingan malakalarning keyinchalik boshqa yangi malakalarning hosil boʻlish jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatishi natijasida yangi malakalarning susayib qolishi.

Mantiqiy xotira — xotira turlaridan, materialni maʼno tomondan oʻzaro bogʻlangan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi.

Mavhumlashtirish — predmet va hodisalarning biror belgisini fikran ajratib olish.

Mayl – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Mehnat – odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyati.

Mehnat psixologiyasi – turli mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Melanxolik (yunon. melas – qora, chole – o't, safro) – temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Metod (yunon. methodos – tadqiqot, tekshirish) – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Metodikaning aniqligi – psixodiagnostik tadqiqot paytida biror-bir xususiyatni baholashda o'zgina o'zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Metodikaning aniqligini texnik o'lchov asbob-uskunalarning aniqligi bilan izohlash mumkin. Masalan: santimetrda bo'lingan metrda ko'ra, millimetrda bo'lingan chizg'ich bilan aniqroq o'lchash mumkin.

Metodikaning ishonchliligi – metodika yordamida barqaror, qat'iy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

Mexanik xotira (yunon. mechane – qurol, mashina) – materialning ma'nosiga tushunmagan holda tushunmoq.

Mielin (yunon. melos – iliq) – nerv tolalarining yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi.

Milliy stereotip (yunon. stereos – qattiq, typos – iz, shakl) – ma'lum illatning obrazi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, xulq-atvorini namoyon qiladi.

Milliy xarakter (yunon. karakter – xususiyat, belgi) – biror-bir millatga xos xususiyatlar.

Modellashtirish – bilim obyektlarini modellar asosida qarama-qarshi qilish, qandaydir hodisa va jarayonlarning o'rnini

bosuvchi, taqdim etuvchi, bajaruvchi sifatidagi modellarni tadqiq qilish va yaratish.

Monologik nutq – bir odamning o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Motiv (lot. movere – harakatga keltirmoq) – ma’lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Motivlar kurashi (lot. motivus – harakatchan) – qaror qabul qilish bilan bog‘liq irodaviy harakatlar bosqichi.

Muhandislik psixologiyasi – psixologiyaning tarmog‘i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo‘lishini o‘rganadi.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta’sir etishi.

Musiqiy psixologiya – san’at psixologiyasining sohasi bo‘lib, odamga va uning faol musiqa faoliyatiga ta’sirini o‘rganadi.

Musiqiy qobiliyat – shaxsning musiqiy layoqatini belgilovchi psixologik xususiyatlari.

Nervlar – tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a’zolari bilan bog‘laydi.

Neyron (lot. neuron – tola, ip) – asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, u asab katakchalari, to‘qima va undan uzoqlashuvchi o‘simtalardan iborat.

Neyropsixologiya – muayyan psixik jarayonlar sodir bo‘lishini ta’minlaydigan neyron tarmoqlarini o‘rganuvchi fan.

Nizo – o‘zaro ta’sir ko‘rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi qiziqishi.

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

Nutq madaniyati – muloqot jarayonida ma’lum til normalariga asoslangan holda ma’noli nutqni ifoda etish.

O‘qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

Ong – obyektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat inson-gagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan.

Ong osti holatlari – aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi. Odamning xatti-harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.

Ong va faoliyat birligi – psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o'zaro bog'liqligini e'tirof etuvchi g'oya.

Ongsizlik – odam ongiga borib yetmagan psixik jarayonlar majmui.

Ontogenez (yunon. on, ontos – asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish) – organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Operativ xotira (lot. operatio – harakat) – xotira turlaridan biri. Bu ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi.

Orientatsiya refleksi (lot. oriens – sharq, reflexus – aks etish) – shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Orzu – shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi. Orzu shaxsning ehtiyojlari, istak va intilishlari bilan bevosita bog'liq.

Pantomimika (yunon. panto, mimos – hamma narsaga taqlid qiluvchi) – inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa, his-tuyg'ularini ifodalovchi harakatlari.

Paramneziya (yunon. para – oldida; yonida mnosis – eslash) – sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi.

Pedagogik muloqot – o'qituvchining o'quvchi bilan muloqotda bo'lishi.

Perseptiv harakatlar (lot. regsertio – idrok etmoq) – idrok jarayonining asosiy tuzilishi birligi, bu idrok obyektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

Perseptiv tizim — idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Predmetlilik — tashqi olamdagi obyektlarni uni o'ziga tenglashtirish.

Predmetlilik (idrokda) — obyektivlashtirish holati, unda tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlar qayta va shu borliq bilan solishtiriladi va natijada idrokning haqiqiy buyum va narsalarni qabul qilishini ta'minlaydi.

Prinsip (yunon. principium — boshlanqich asos) — biror-bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari, u odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga, borliqqa, boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Proaktiv tormozlanish (lot. proaktivus — o'ta faol; yunon. tormoz) — avvalgi faoliyatning qayta-qayta kun takrorlanishi natijasida keyingi materiallarni esga tushirishning yomonlashuvi.

Proyektiv metod (lot. projektus — oldinga tashlangan; yunon. methodos — tadqiqot) — shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metoddanmas, tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

Proprioretseptiv sezgilar (lot. proprius — xususiy, maxsus, recipere — qabul qilmoq) — tananing turli qismlaridagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar.

Psixik jarayonlar — u yoki bu psixik mahsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyot va h.k.) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixika (yunon. psychikos — ruhiy) — yuksak darajada tashkil topgan materiya — miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixologiya (yunon. psyche — ruh, logos — bilim) — odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Qisqa muddatli xotira — qisqa muddatga esda qoldirishni ta'minlaydigan xotira turi.

Qiziqish — shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati, keng va tor, chuqur va yuzaki barqaror bo'lishi mumkin.

Qo'zg'atuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik — tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarni o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

Qobiliyatlar — shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

Refleks (lot. reflexus — aks etish) — organizmning markaziy nerv tizimi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'sirida retseptorlar qo'zg'alishiga javoban ko'rsatiladigan reaksiyasi.

Refleksiya (lot. reflexus — aks ettirish) — odam bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishi.

Reminissensiya (lot. reminiscentia — eslamoq) — avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushishidan iborat xotira jarayoni, ya'ni vaqtinchalik unutish.

Retroaktiv tormozlanish — (lot. retru — orqaga, activus — faol, harakatchan) — oldin eslab qolingani materiallarni keyingi faoliyat ta'sirida vaqtincha unutish.

Retseptor (lot. recipere — qabul qilmoq) — analizatorning qo'zg'alishini qabul qiluvchi ichki qismi.

Retsipient (lot. recipientis — qabul qiluvchi kishi) — o'ziga yo'llangan xabarni qabul qilib oluvchi kishi.

Rigidlik (lot. regidus — qattiq mustahkam) — subyektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar.

Sangvinik (yunon. sanguis qon) — temperament turlaridan biri. Bu tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish xislatlari bilan tavsiflanadi.

Sensibilizatsiya (lotin. sensibilis — sezuvchan) — ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

Sensor sezgilar (lot. *sensus* – sezgi, his) – sezgi aʼzolariga taalluqli sezgilar. Sensorika sezgi va idrokni umumlashtiruvchi tushunchadir.

Senzitivlik (lot. *sensus* – hissiyot) – turli taʼsirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qoʻzgʻalishi.

Seskanuvchanlik – tirik organizmlarning taʼsirlarga biologik ahamiyatga ega javob qaytarish qobiliyati.

Sezgi – psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni taʼminlaydi.

Sezgi aʼzolarining oʻziga xos quvvati – sezgi aʼzolarining maxsus quvvati haqidagi qonun boʻlib, bu qonunga binoan sezgi aʼzolari tashqi olamdagi narsa va hodisalarning taʼsirini aks ettirmay, balki sezgi aʼzolarining oʻziga xos quvvatini qoʻzgʻovchi tashqi turtki deb hisoblanadi (M.Myuller).

Sezgi chegarasi – sezgining mutloq chegarasi. Minimal kuchga ega boʻlgan qoʻzgʻovchining bilinar-bilinmas taʼsirini sezishga sezgining kuchi chegarasi, qoʻzgʻovchining eng yuqori kuchga ega boʻlgan taʼsirini sezishga sezgining yuqori (maksimal) chegarasi deyiladi.

Sezgirlik – oʻta sezuvchanlik, sezgi aʼzolarining oʻziga taʼsir etib turgan qoʻzgʻovchilarning salgina yoki unchalik farq qilmaydigan taʼsirini ajrata olish qobiliyati.

Shakllantiruvchi tajriba – psixologiya metodi, bu metod orqali shaxsda zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

Shartli refleks (lot. *reflexus* – aks etish) – reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi, shartli qoʻzgʻovchilarga javob berishdan iborat refleks.

Shartsiz refleks (lot. *reflexes* – aks etish) – psixikaning I.M.Sechenov va I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan reflektor nazariyasining asosiy tushunchasi har qanday taʼsirga instinktiv javob berishdan iborat tugʻma refleks.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shugʻullanuvchi betakror odam.

Sinesteziya (yunon. sineistesus – birgalikda sezish) – turli xildagi sezgilarning o‘zaro ta’siri natijasida qo‘shilib ketishi, (jumladan, eshitish, ko‘ruv sezgilari va h.k.)

Sintez – alohida tarkibiy qismlarni bir butun qilib birlashtirish.

Statistik metod (lot. status – holat, yunon. methodos – tadqiqot) – o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

Stenik hislar (yunon. sthenos – kuch) – shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar (mas., xursandchilik va h.k.)

Stress (ing. stress – zo‘riqish) – kuchli qo‘zg‘ovchilar ta’sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

Subbat – psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma’lumot olinadi.

Ta‘m bilish – sezgi turi (shirin, achchiq-chuchuk, tuzli). Analizator til o‘zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po‘stloq qismidagi ta‘m bilish markazidadir.

Tabiiy eksperiment (lotin. experimentum – sinov, tajriba) – tekshiriluvchini o‘ziga bildirmagan holda uni o‘yin, o‘qish yoki mehnat faoliyatida o‘rganishdan iborat psixologik tajriba.

Tanib olish – oldin esda qoldirilgan narsalarni qayta idrok qilish orqali obraz.

Tanlovchanlik – idrokning xususiyati, buni shaxsning yo‘nalishi yoki uning tajribasini belgilab beradi.

Taqqoslash – predmet va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlash.

Tasavvur – sezgi a‘zolariga qachonlardir ta’sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol hissiy obrazi.

Tashqi validlik – ham xuddi empirik validlikka o‘xshash, undan farqli tomoni shundaki, sinaluvchining xulqiga taalluqli asosiy tashqi ko‘rinishlarning ko‘rsatkichlari bilan metodikadagi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratiladi.

Taxistoskop (yunon. tachy – tez, skopco – ko‘raman) – qat’iy belgilangan qisqa vaqt davomida ko‘rish qo‘zg‘atuvchilarini namoyon qilish sababi. Idrok, xotira, diqqat va boshqa jarayonlarni tadqiqot qilishda ishlatiladi.

Temperament (lot. temperamentum – qismlarning bir-biriga munosabati) – shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Test (ing. test – tekshirmoq) – standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu holdagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir butunligicha yoki uning ayrim xususiyatlari oʻrganiladi.

Tush koʻrish – uxlab yotgan odam bosh miya yarim sharlari qobigʻidagi baʼzi nerv markazlari faoliyati natijasida uyqu vaqtida hosil boʻladigan maʼlum darajadagi aniq obrazlar.

Tushuncha – predmet va hodisalarning umumiy va maxsus belgilarini aks ettirish.

Tuyush – idrok turlaridan biri, bu taktil va muskul-harakat sezgilaridan iborat.

Umumiy isteʼdod – kishining qobiliyatlari birligi. Bu shaxsning aqliy (intellektual) imkoniyatlari doirasi bilan faoliyatining oʻziga xosligi darajasini belgilab beradi.

Umumlashtirish – predmet va hodisalarni biror xususiyatiga koʻra bitta tushunchaga birlashtirish.

Unutish – oldin esda olib qolingani maʼlumotlarni keyinchalik qayta esga tushira olish imkoniyatining yoʻqligi jarayoni.

Uzoq muddatli xotira – xotira turlaridan. Bu bilimlarni, shu bilan birga koʻnikma va malakalarni uzoq vaqtgacha esda saqlashni taʼminlaydi, hamda gʻoyat koʻp hajmdagi axborotni esda tutish bilan xarakterlanadi.

Veber-Fexner qonuni – qoʻzgʻovchi kuchning oʻzgarishi bilan hosil boʻlgan muayyan sezgi kuchining oʻzgarishi oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni ifodalashdan iborat psixofiziologik qonun.

Vegetativ nerv tizimi (lot. vegetatio – oʻsimlik) – nerv tizimining organizm ichki aʼzolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. Vegetativ nerv tizimi, markaziy nerv tizimi bilan uzviy bogʻliq boʻlib, bu bosh miya qobigʻi tomonidan boshqariladi. Vegetativ nerv tizimi.

simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi.

Vegetativ nerv tizimi (lot. vegetatio — o'simlik) — nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. Vegetativ nerv tizimi markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bosh miya qobig'i tomonidan boshqariladi. Vegetativ nerv tizimi simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi.

Verbal (lot. verbalis — og'zaki) — atama. Verbal nutq — og'zaki ifodalanadigan nutq.

Vestibulyar apparat (lot. vestibultuu — boshlang'ich, apparatus — asbob) — fazodagi harakatlar yo'nalishining holati va bunday harakatlar yo'nalishining o'zgarishini kuzatib baholab turishga yordam beradigan analizator (ichki quloqda joylashgan).

Xarakter (yunon. karakter — xususiyat, belgi) — kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. karakter — xususiyat, belgi, lot. accentus — urg'u) — xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi).

Xayol — mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi.

Xiromantiya (yunon. cher — qo'l, man — fol) — odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish.

Xolerik (yunon. chole — safro, sariq o't) — temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Xotira — aks ettirilgan narsa va hodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishdan iborat psixik jarayon.

Xulosa chiqarish – ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukmlar keltirib chiqarish.

Yetakchi faoliyat – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bunda ma’lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o‘zgarib shakllanadi.

Yosh psixologiyasi – psixologiya fani tarmoqlaridan bo‘lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Zehn, layoqat – nerv tizimining ba’zi genetik nazariyalari anatomik-fiziologik xususiyati bo‘lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug‘ma tabiiy zaminidir.

Zoopsixologiya (yunon. zoon – hayvon, psyche – ruh, logos ta’limot) – psixologiya tarmoqlaridan biri bo‘lib, hayvon psixikasining taraqqiyotini o‘rganadigan soha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boeree C.G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.5.
2. Boeree C.G. Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3.
3. David G. Mers «Psychology». NY, 2010. WORTH PUBLISHERS 118p.
4. Duane P.Schultz, Sydney Ellen Schultz. Theories of personality. COPYRIGHT © 2005 Wadsworth. – P.550.
5. Groeger J.A. Memory and Remembering (1997).
6. Michael W. Eysenck, Mark T. Keane Cognitive psychology. Psychology press USA, 2005 130.
7. Mers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – P. 910.
8. Philip J. Corr, Gerald Matthews. Personality Psychology. Cambridge University Press 2009. – P. 906.
9. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.
10. Barotov Sh.R. va boshq. Eksperimental psixologiya: Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Fan» nashriyoti, 2008. – 108 b.
11. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Magistrlar uchun darslik. – T.: «Navro'z» nashriyoti, 2018. – 344 b.
12. Баротов Ш.Р. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно-методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017. –172 с.
13. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создание психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс.докт.психол.наук. – Т., 1998. – 37 с.
14. Barotov Sh.R. O'quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Buxoro, 1993. – 29 b.
15. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya – T.: «Universitet» nashriyoti, 2012. 490 b.
16. Климов Е.А. «Психология». – СПб.: Реч. 2000.

17. Климов Е.А. «Общая психология». — Москва: Реч. 2001.
18. Клоингер С. Теория личности: познание человека. СПб.: Питер. 2003. — 720 с.
19. Максименко С.Д. Общая психология. — М.: «Рефл-бук», К.: «Ваклер», 2004. — 528 с.
20. Мартин Д. Психологические эксперименты. Секреты механизмов психики. — СПб.: Прайм-ЭВРОЗНАК, 2004. — 480 с.
21. Немов Р. С. Психология: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3-х кн. Кн. I: Общие основы психологии. — 2-е изд. — М.: Владос, 1998.
22. Общая психология: в 7 т.: учебник для студ. высш. учеб. Под ред. Б.Братуся. — М.: Издательский центр «Академия», 2007.
23. Olimov L. va boshq. Shaxs psixologiyasi. — В.: Durdona, 2019.
24. Olimov L.Ya. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. — В.: «Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ nashriyoti», 2019. 494 b.
25. Павлов И.П. Двдцатилетний опыт объективного изучения высшей первной деятельности (поведения) животных. Пол. Собр. Соч., М, — Л, ФА нашриёти 1951, ИИИ том, 1-китоб, 248 с.
26. Petrovskiy A.V. va boshq. Umumiy psixologiya. — Т.: «O'qituvchi», 1992. 456 b.
27. Rasulov A.I. Umumiy psixologiya (O'quv-uslubiy majmua). — Т., 2018.
28. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 1999.
29. Сеченов И.М. Осязание как чувство соответствующее зрению. — избранные философские и психологические произведения. — М.: Госполитиздат, 1947, 555 с.
30. Станиславский С.К. Работа над собой в творческом процессе передивания. — Собр. Соч. в 8-ми т. — М.: Искусство, 1954, 2-том, 217 с.

31. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 450 b.
32. Шакирова Г.М. Общая психология. – Т.: ТГПУ, 2000.
33. Штерн А.С. Введение в психологию. – М.: Академия Спб, 2002.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	3
I BO‘LIM (MODUL). MUTAXASSISLIKKA KIRISH	
I bob. KASBLAR VA PROFESSIONALIZM. MUTAXASSISLIKKA KIRISH FANINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	4
1.1. Kasb va professionalizm haqida	4
1.2. Kasbiy kompetentlik va mutaxassislikka kirish	9
1.3. Psixolog kasbining shakllanish tarixi va bugungi imkoniyatlari.	12
II bob. MALAKALI PSIXOLOG TAYYORLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.	15
2.1. Amaliy psixologiya haqida umumiy tushuncha	15
2.2. Amaliy psixologiyaning asosiy bo‘limlari va tuzilishi	18
2.3. Psixoprofilaktik ishlarning muhim vazifalari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo‘nalishi sifatida	21
III bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING FAOLIYAT SOHALARI.	28
3.1. Xalq ta‘limi tizimida psixologik xizmatning asosiy vazifalari	28
3.2. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari	31
IV bob. AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING UMUMIY MASALALARI	34
4.1. Amaliyotchi psixolog faoliyati samaradorligini baholash muammosi	34
4.2. Amaliyotchi psixolog shaxsiga qo‘yiladigan talablar.	36

V bob. PSIXOLOGNING KASBIY O‘ZINI O‘ZI ANGLASHNING AXLOQIY JIHATLARI	42
5.1. Psixologning axloqiy sifatlari	42
5.2. Psixolog faoliyatining muhim etnopsixologik imkoniyatlari.	43

II BO‘LIM (MODUL). PSIXOLOGIYA TARIXI

VI bob. PSIXOLOGIYA TARIXI FANIGA KIRISH	45
6.1. Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari	45
6.2. Psixologiyaning rivojlanish bosqichlari va tamoyillari	48

VII bob. PSIXOLOGIYANING DASTLABKI VA O‘RTA ASRLARDA RIVOJLANISHI	56
7.1. Antik davrning psixologik nazariyalari	56
7.2. O‘rta asrlarda psixologiyaning umumiy tavsifi. V–XI asrlarda Yevropada psixologik bilimlarning rivojlanishi	67
7.3. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm	72

VIII bob. XVIII–XIX ASRLARDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI	74
8.1. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif. Fransuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi	74
8.2. Assotsiativ psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi. XIX asrning ikkinchi yarmida assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi.	79
8.3. Eksperimental psixologiyaning rivojlanishi	84

IX bob. XIX–XX ASRLARDA XORIJDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI	88
9.1. Yangi psixologik maktablarning shakllanishi va rivojlanishi. Strukturalizm	88

9.2. Vyusburg maktabi	97
9.3. Sezgi organlari psixofiziologiyasi	99
X bob. XX ASRDA PSIXOLOGIYANING	
RIVOJLANISHI	102
10.1. Psixologiyada metodologik inqiroz. Bixeviorizmga umumiy tavsifnoma. Neobixeviorizmning yuzaga kelishi va rivojlanishi . . .	102
10.2. Geshtaltpsixologiyaga umumiy tavsif	106
10.3. Psixoanaliz va uning rivojlanishi	108
10.4. K.Yungning analitik psixologiyasi.	111
10.5. A.Adlerning individual psixologiyasi.	113

XI bob. XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA YANGI	
YO'NALISHLARNING YUZAGA KELISHI	115
11.1. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi.	115
11.2. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiyasi	118
11.3. Genetik psixologiya. Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi	125

III BO'LIM (MODUL). UMUMIY PSIXOLOGIYAGA KIRISH

XII bob. UMUMIY PSIXOLOGIYA FANINING	
PREDMETI, VAZIFALARI, METODLARI.	130
12.1. Shaxsni o'rganishning metodologik asoslari. Inson va insoniyat haqidagi fan.	130
12.2. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.	135
12.3. Psixologiya fanining tamoyillari.	138
12.4. Psixologiyaning asosiy metodlari	139

XIII bob. PSIXOLOGIYA ZAMONAVIY FANLAR	
TIZIMIDA	150

13.1. Psixologiyaning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini 150

13.2. Psixologiyaning zamonaviy tarmoqlari va istiqbollari. 154

XIV bob. PSIXIKA VA UNING

EVOLUTSIYASI 159

14.1. Psixika haqida tushuncha 159

14.2. Hayvon psixikasining rivojlanishi. 159

14.3. Asab tizimining tuzilishi va psixika 165

14.4. Miyaning ishidagi psixik va nerv-fiziologik xususiyatlari 172

14.5. Ong haqida tushuncha 173

14.6. Ongsizlik muammosi 176

XV bob. FAOLIYAT 191

15.1. Faoliyatning psixologik tavsifi 191

15.2. Faoliyatning psixologik nazariyalari 195

15.3. Faoliyat va uning maqsadlari haqida tushuncha. 197

15.4. Faoliyatning tuzilishi 199

15.5. Harakatni boshqarish va nazorat qilish 201

15.6. Faoliyatni interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash 204

15.7. Faoliyatning o'zlashtirilishi. Malakalar 205

15.8. Faoliyatning asosiy turlari va odamda ularning rivojlantirilishi 210

XVI bob. SHAXS 223

16.1. Shaxs haqida tushuncha 223

16.2. «Endopsixika» va «Eksopsixika» haqida tushuncha 226

16.3. Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi 228

16.4. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya 231

16.5. Shaxs nazariyalari. G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi	233
--	-----

IV BO'LIM (MODUL). KOGNITIV PSIXOLOGIYA

XVII bob. DIQQAT.	243
17.1. Diqqat haqida tushuncha.	243
17.2. Diqqat turlari.	244
17.3. Diqqatning fiziologik mexanizmlari	248
17.4. Diqqatning xususiyatlari	249
17.5. O'quv jarayonida diqqatning rivojlanishi	256
XVIII bob. SEZGI	258
18.1. Sezgi haqida tushuncha.	258
18.2. Sezgi turlari.	260
18.3. Sezgi turlarining psixologik tavsifi	263
18.4. Sezgining xususiyatlari va tavsifi	269
18.5. Psixologiya fanida sezgi nazariyalari.	281
18.6. Sezgilarning retseptor va reflektor nazariyalari	282
18.7. Sezgining neyrofiziologik asoslari.	284
XIX bob. IDROK	290
19.1. Idrokning umumiy tavsifi	290
19.2. Idrokning anglangan bo'lishi.	294
19.3. Idrokning nerv-fiziologik asoslari.	296
19.4. Idrokning xususiyatlari va turlari	298
19.5. Fazo, vaqt va harakatning idrok qilinishi	302
XX bob. XOTIRA	313
20.1. Xotira haqida umumiy tushuncha	313
20.2. Xotira turlari.	319
20.3. Xotira jarayonlari va mexanizmlari	325
20.4. Esda olib qolish.	327
20.5. Qayta esga tushirish.	333
20.6. Unutish va esda saqlash	336

20.7. Xotiradagi individual farqlar va xotiraning rivojlanishi	340
--	-----

XXI bob. XAYOL 343

21.1. Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli.	343
21.2. Xayol turlari	344
21.3. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari	346
21.4. Xayol jarayonining fiziologik asoslari	349
21.5. Xayol va ijod	351

XXII bob. TAFAKKUR 353

22.1. Tafakkurning umumiy xarakteristikasi	353
22.2. Tafakkur va nutq	355
22.3. Tafakkur shakllari	356
22.4. Tafakkur jarayon sifatida	360
22.5. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari	360
22.6. Tafakkur motivatsiyasi	363
22.7. Murakkab mantiqiy masalalarni yechish va ijodiy tafakkur.	364
22.8. Tafakkur turlari	370
22.9. Tafakkurning individual xususiyatlari	372

XXIII bob. NUTQ 375

23.1. Nutq to'g'risida umumiy tushuncha	375
23.2. Nutq mexanizmlari (N.I.Jinkin)	378
23.3. Nutq turlari.	379

**V BO'LIM (MODUL). HISSIY-IRODAVIY SOHA
PSIXOLOGIYASI**

XXIV bob. HISSIYOT. 384

24.1. Hissiyotning umumiy tavsifi va uning turlari. His-tuyg'u haqida tushuncha.	384
24.2. His-tuyg'ularning fiziologik asoslari.	385
24.3. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllari . . .	387

24.4. His-tuyg'ular va shaxs	395
24.5. His-tuyg'ular va ularni shakllantirish yo'llari. . .	397

XXV bob. IRODA 401

25.1. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha	401
25.2. Iroda borasidagi nazariyalar	404
25.3. Irodaning nerv-fiziologik asoslari.	407
25.3. Iroda va tavakkal	409
25.4. Irodaviy akt strukturasi.	411
25.5. Irodaning individual xususiyatlari	413

XXVI bob. SHAXS YO'NALGANLIGI VA FAOLIYAT MOTIVI. 417

26.1. Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni	417
26.2. Xorij psixologiyasida o'qish motivlarining nazariy tahlili	422
26.3. Motivlar va ularning guruhlariga ajratilishi	423
26.4. Psixologiyada motivlar va ularni guruhlariga ajratish	425

VI BO'LIM (MODUL). INDIVIDUAL FARQLAR PSIXOLOGIYASI

XXVII bob. QOBILIYAT 427

27.1. Qobiliyatlar haqida tushuncha	427
27.2. Qobiliyatlarining sifat va miqdor xarakteristikasi	429
27.3. Qobiliyatlar strukturasi	431
27.4. Iste'dodning ijtimoiy-tarixiy tabiati.	434
27.5. Qobiliyatlar va iste'dodning tabiiy shart-sharoitlari	436
27.6. Inson qobiliyatining biologik asoslari.	437

XXVIII bob. TEMPERAMENT 443

28.1. Temperament haqida tushuncha.	443
28.1. Temperament haqidagi ta'limotlarning qisqacha mazmuni	444
28.3. Temperament va shaxs faolligi	451
XXIX bob XARAKTER	460
29.1. Xarakter haqida tushuncha	460
29.2. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv.	468
29.3. Xarakterning shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari	469
GLOSSARIY.	472
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.	492

Baratov Sharif Ramazanovich
Olimov Laziz Yarashovich
Avezov Olmos Ravshanovich

PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI

darslik

Muharrir *M. Tursunova*
Musahhah *H. Zakirova*
Dizayner *D. Ermatova*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 19.12.2019. «Uz-Times» garniturası.
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Shartli
bosma tabog'i 32,0. Nashriyot bosma tabog'i 31,5. Adadi 400
nusxa.

Buyurtma № 3

«ZAKOVAT-PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Z. Roziy ko'chasi, 1-proyezd, 24-uy.

8/697

88
B30

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6169-4-3



9 789943 616943